


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Muqumov Z.A., Hodjayeva M.H.,
Norboyev O.A.**

MOLIYAVIY TAHLIL

O'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi
oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan



TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

UO'K: 336.14(075)
KBK: 65.053-2973

**Muqumov Z.A., Hodjayeva M.H., Norboyev O.A. Moliyaviy tahlil:
O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODIYOT", 2020. – 417 b.**

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat ta'lism standartlari talablari, Moliyaviy tahlil o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, 5111000 – "Kasb ta'limi" (5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit), 5230900 – "Buxgalteriya hisobi va audit", 5230700 – "Bank ishi" ta'lism yo'nalishi bo'yicha ta'lism olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada Moliyaviy tahlilning nazariy va amaliy asosi yoritilgan bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlardagi sodir bo'ladigan muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ushbu ma'lumotlarni takomillashgan tarzda tezkor yuritish va qayta ishlashti o'rgatadi.

Mazkur o'quv qo'llanma talabalar uchun "Moliyaviy tahlil" fanidan asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan boshqa iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mutaxassislari, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin.

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va ishlashishga tavsiya etilgan (201__ yil "___" dagi "___" – sonli bayonnomasi).

Taqrizchilar: i.f.d., prof **B.A. Xasanov**;
i.f.n., dots. **A.Z. Avloqulov**

ISBN 978-9943-6067-8-4

UO'K: 336.14(075)
KBK: 65.053-2973

© «IQTISODIYOT», 2020.
© Muqumov Z.A., Hodjayeva M.H., Norboyev O.A., 2020.

KIRISH

Tabiat va jamiyatdagi hodisalar singari iqtisodiy hodisalarning ham tarkibiy qismalarini bilmay turib, ya'ni tahlil kilmay turib, ularni ilmiy jixatdan o'rganib bo'lmaydi. Analiz iborasi «analisy» so'zidan olingan bo'lib, «bo'lamon», «hal etaman» degan ma'noni bildiradi. Binobarin, tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy qismlarga bo'lish, ajratib qo'yish asosida ko'rsatkichlarni taqqoslash va o'rganish demakdir. Ma'lumki, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, faoliyatning sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha muvaffaqiyatlarni o'rganish va uni takomillashtirishning qulay yo'llarini belgilash - moliyaviy tahlilni tashqil qilishning zaruvi shartlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy tahlilning roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma'muriy-buyrukbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldingi tahlil asosan, reja ko'rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, har bir xo'jalik subyekti o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqaradi. Bu o'z navbatida tahlilning rolini oshiradi. Moliyaviy tahlil orqali har bir subyektda mayjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Moliyaviy tahlil orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyati aniqlanadi. Bunda, tahlil uchun manba bo'lib, yirma statistik ma'lumot asos bo'la oladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan maqsad korxona va birlashmalarning ish faoliyatiga obyektiv baho berish va xo'jalik yuritishning samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Bunday tahlil natijalari korxonaning xo'jalik faoliyatini doimo nazorat qilib turishni, unga rahbarlik qilishda xatoga yo'l qo'ymaslikning oldini olishga xizmat qiladi.

Korxona faoliyati shu darajada serkirraki, tahlil jarayonida uning hamma jixatlarini o'rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasi ham kup kirralidir.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv karorlarini kabo'l qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tarika kamchiliklar bartaraf kiliшиб, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Moliyaviy tahlilining asosiy vazifasi - bu korxonalar faoliyatida foyda miqdorini ko'paytirishning tu'li va optimal yo'llarini aniqlab berishdir. Agar korxona faoliyatida foyda miqdorining oshishiga narx-navoning kutarilishi yoki atrof muxitga zarar yetkazish evaziga erishilsa, buni xech kachon korxona muvofakkiyati deb bo'lmaydi.

Moliyaviy tahlil oldida to'rgan muhim vazifalardan yana biri - bu korxona mehnat jamoasi faoliyatining iqisodiy natijasini aniqlashdir. Tahlil qilish jarayonida tashqi va mehnat jamoasiga boglik omillar ahamiyatini o'rganish lozim. Bunda fakatgina erishilgan natijalarni me'yoriy yoki hisobot davri natijalari bilan taqqoslash bilan chegaralanib kolish kerak emas. Eng muhimi - mamlakat erishgan yutuklari, raqobatbardosh mahsulot ko'rsatkichlari va dunyo ilmiy-teknika darajasi bilan solishtirish muvaffaqiyatlar garovi ekanligini unutmaslikdir.

1-bob. MOLIYAVIY TAHLILNING SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Reja:

1. Moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi
2. Iqtisodiy fanlar tizimida moliyaviy tahlilning o'rni
3. Moliyaviy tahlilning asosiy tamoyillari

Tayanch so'zlar:

fanning shakllanishi; fanning rivojlanish tarixi; O'zbekistonda fanning rivojlanishi; va boshqaruv tahlili fanining mazmuni; tahlil boshqaruvning muhim funktsiyasi ekanligi;

1. Moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi

Moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi murakkab jarayon hisoblanadi. Ishlab chiqarish va odamlar farovonligi turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarga, iqtisodiy taraqqiyotning tub qonunlariga bo'ysunadi. Ushbu qonunlarni aniqlash uchun oddiy kuzatish va hodisalar bayonining o'zi yetarli emas. Sodir bo'layotgan jarayonlarning mohiyatiga kirib borish va ularni harakatlantiruvchi kuchlarni aniqlash zarur.

Moliyaviy tahlil haqida fanning manbaini izlash – sezilarli darajada foydasiz mashg'ulot hisoblanadi. Analistik funktsiyalar elementlari ixtiyorli xo'jalik faoliyatiga taalluqli hisoblanadi. Tahlil feodal Britaniyada (XII asrlar) manorial hisob va audit (qishloq xo'jalik mulkida hisob va nazorat tizimi) ning tarkibiy qismi bo'lgan. Qayd qilish joizki, yunon va rim davri auditidan farqli o'laroq britancha o'rta asrlar auditining o'ziga xos xususiyati shunda ediki, auditor e'tibori nafaqat mulk inventarizatsiyasi va hisoblar nazoratiga, balki avvalo u yoki bu bitim natijalari hisob-kitobiga qaratilgan. Hisob-kitoblarga tuzatish kiritilib, boshqaruvchi o'z xo'jayini (lord) oldida hisob berishi kerak bo'lgan summa oshirilgan holatlar tez-tez qayd qilingan. Hisob, nazorat va analistik funktsiyalarning o'zaro aloqasi mavjud.

Buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi sifatida tizimlashtirilgan moliyaviy tahlil asoschisi frantsuz Jak Savari (1622-1690) e'tirof etiladi¹. U sintetik va analistik hisob tushunchasini joriy qilgan (shuningdek, uni haqqoniy ravishda boshqaruv hisobi va ishlab chiqarishni boshqarish haqidagi fan otasi deb sanaydilar). Albatta, moliyaviy tahlil elementlarining shakllanishi va ulardan foydalanish o'sha vaqtida boshqa mamlakatlar, xususan, Italiyada ham kuzatilgan. Masalan, A.Pietro tadrijiy byudjet ajratmalarini haqiqatdagi xarajatlar bilan taqqoslash metodologiyasini tadqiq qilgan. B.Venturi korxonalarining o'n yillik xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarining dinamik qatorlarini shakllantritib tahlil qilgan. XIX asrda italiyalik buxgalter Juzeppe Cherboni (1827-1917) tomonidan Savari g'oyalari chuqurlashtirilib, buxgalteriya hisobini sintetik qo'shish va analistik ayirish to'g'risida ta'lilot yaratildi.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51 page.

XIX oxirlari –XX asr boshlarida hisob haqida betakror tushuncha – balansshunoslik paydo bo‘ldi. U uch asosiy yo‘nalish bo‘yicha rivojlangan:

- 1) balansning moliyaviy tahlili;
- 2) balansning yuridik tahlili;
- 3) foydalanuvchilar orasida balans haqida bilimlarni ommalashtirish.

Birinchi yo‘nalishni I. Sher, P. Gerstner va F. Lyaytner rivojlantirgan. Xususan, Gerstner qisqa va uzoq muddatli majburiyatlar nisbati, avanslangan kapitalning 50% i miqdorida qarz mablag‘larining yuqori chegarasini belgilash, moliyaviy holat va likvidlikning o‘zaro aloqasi haqidabalansning analitik tavsifi tushunchasini muomalaga kirdi.

Ikkinci yo‘nalishning rivojlanishiga R. Baygel, E. Remer, K. Portsig va boshqa olimlar salmoqli hissa qo‘shdilar. Mazkur yo‘nalish doirasida keyinchalik buxgalteriya taftishi nazariyasi va amaliyoti ishlab chiqildi.

Uchinchi yo‘nalish ham asosan nemis olimlari: Brozius, Guber, Shenvandt va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Rossiyada balans tahlili haqida fan taraqqiysi XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. A.K. Roshchakovskiy(1910) moliyaviy tahlil o‘rni va uning buxgalteriya hisobi bilan o‘zaro aloqasini haqqoniy baholab bergan ilk rusbuxgalteriya hisoblanadi. O‘tgan asrning 20-yillarda balansshunoslik nazariyasi, xususan, balans tahlili metodikasi A.P. Rudanovskiy, N.A. Blatov va I.R. Nikolaev ishlarda qat‘iy shakllantirildi.

O‘zbekistonda moliyaviy tahlil rivojlanish tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Turkistonda moliyaviy tahlil ahvoli;
2. Inqilobdan keyingi davrda moliyaviy tahlil rivojlanishi;
3. Bozor sharoitida moliyaviy tahlil.

Xususiy kapitalistik korxonalar va ularning monopol birlashmalarining xo‘jalik faoliyati tahlili asosan balanslikvidligini tahlil qilish, aktiv va passiv moddalarini baholashdan iborat bo‘lgan. Lekin Turkistonning ayrim sanoat tarmoqlari chet el kapitali bilan hamkorlikda faoliyat yuritganligi bilan bog‘liq ravishda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Bu erda buxgalteriya hisobi va hisoboti faqatgina nemis, ingлизva frantsuz tillaridagi namunalar bo‘yicha yuritilmagan. Odatda, balanslar har doim ham haqiqiy manzarani aks ettirmagan. Davlat monopoliyalari daromadlari, xarajatlari va foydasini tahlil qilish metodikasi, uning asosiy qirralarini monopolistlar quyidagicha tavsiflagan:

- 1) daromadlar va xarajatlар umumiyy va moddalar bo‘yicha tahlilqilingan;
- 2) xarajatlarikki bo‘limdan iborat bo‘lgan – mahalliy boshqaruva tasarrufi va xo‘jalik yuritishiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlari va ularga u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;
- 3) daromadlar, xarajatlari va sof foya mutlaq va nisbiy miqdorda ifodalangan;
- 4) daromadlar, xarajatlari hamda sof foya haqida mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar (moddalar kesimida) dinamikada o‘rganilgan (ketma-ket uch yil uchun);
- 5) tushuntirish matnlarida xulosaviy va qo‘srimcha jadvallar keltirilgan.

Turkiston iqtisodiyotida kooperativ faoliyat ancha sezilarli bo‘lgan. Tahlil zarurati, unga tabiiy ehtiyoj kooperativ mulkchilik shaklining o‘zi bilan shartlangan edi (xo‘jalik-moliyaviy faoliyat natijalarini haqida kooperativa’zolari oldida muntazam hisobot). Tahlil jarayonida xo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga asosiy e’tibor qaratilgan. Ishlarni iqtisodiy yuritishda tadbirkorlar sof foydani oshirish manbasini ko‘zda tutardilar.

XX asr boshida moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishining inqilobdan keyingi davrda ikki holatga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: birinchidan, fanning nazariy masalalarini ishlab chiqish, ikkinchidan, ularni amaliyotda qo‘llash. Bu davrda balans tahliliga bag‘ishlangan maxsus asarlar paydo bo‘lib, ular yaqqol metodik yo‘nalishga ega edi va buni xo‘jalik faoliyati tahlili taraqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi sifatida qabul qilish mumkin. XX asrning 30-yillarda xo‘jalik faoliyati tahlili kursi oly ta‘lim muassasalarini dasturlariga kiritildi, xo‘jalik faoliyati tahlili bo‘yicha ilk darslik va qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Ularning mualliflari M.I.Veysman, S.K.Tatur, M.I.Bakanov kabilar edi. Aynan shu yillarda xo‘jalik faoliyati tahlilining fan sifatida shakllanishi sodir bo‘ldi va u korxonalar iqtisodiyotini kompleks tizimli o‘rganish hamda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish zaxiralarni qidirish uchun amaliyotda keng qo‘llanila boshlandi. Ikkinci jahon urushidan oldingi yillarda moliyaviy tahlil masalalari bo‘yicha taxminan uch yuzga yaqin kitob va olti yuzdan ziyod ilmiy maqola nasr qilingan.

Urush yillarda buxgalteriya hisobini qayta qurish, urush davri talablariga mos xo‘jalik faoliyati tahlili va nazorati yuqorida tilga olingan hamda boshqa mualliflarning asarlarida o‘z aksini topdi.

Urushdan keyingi davrni tahlilining nazariy masalalarini asoslangan tarzda ishlab chiqish davri sifatida tafsiflash mumkin. Ayni vaqtida tahlil uzviy ravishda ham korxonalar, ham milliy iqtisodiyot darajasida xo‘jalik boshqaruvi amaliyotiga kiritiladi. Asta-sekin moliyaviy tahlilning metodologiyasining mustaqil yo‘nalishlari ishlab chiqiladi: qiyosiy, texnik-iqtisodiy, operativ, iqtisodiy-matematik, funksional-qiyomat va hokazo.

M. I.Bakanov, A. D. Sheremet, S.B. Barngolts, V.F Paliy, I.I. Poklad, P.I. Savichev, I.I Karakoz, E.V. Dolgopolov, M.F. Dyachkov, A.Sh. Margulis, A.I. Muravev, V.I. Samborskiy, N.V. Dembinskiy, G.M. Tatsiy, N.G. Chumachenko, V.I. Strajev, S.G. Ovsyannikov, N.A.Rusak, L.I. Kravchenko, B.I. Maydanchik, R.S. Sayfulin, A.F. Aksenenko, G.V. Savitskaya kabi rus iqtisodchi olimlari bilan bir qatorda moliyaviy tahlil metodologiyasi rivojiga N.A. Xan, Ayrumov, I.B. Galleev, O. Maxmudov, I.N. Toporovskiy, B.A. Zalesskiy, M.R. Rixsiev, R.R. Radjapov, I.T. Abdukarimov, M.Q.Pardaev kabi o‘zbekistonlik olimlar ham munosib hissa qo‘shdilar (1960-1970 yillarda).

Nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgan fan sifatida moliyaviy tahlil rivojlanish bosqichida hisoblanadi. Boshqaruva qarorlarini optimallashtirishga imkon beruvchi matematik usullarni yanada keng qo‘llash borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Mahalliy va xorijiy fanning nazariy yutuqlarini amaliyotga joriy qilish jarayoni davom etmoqda. Ushbu jarayonda mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan A.

Vahobov, A. Sotvoldiev, B. Hasanov, R.Rajabov, shuningdek, Toshkent moliya institutining respublikadagi yagona ixtisoslashtirilgan “Moliyaviy tahlil” kafedrasining professor-o‘qituvchilar A. Ibroximov, A. Abdug‘aniev, T. Shog‘iyosov, X.Ahmadjonov, Sh. Shoyoqubov, G. Ibragimov, M. Raximov, N. Ishonkulov, Z.Sagdillaeva kabi olimlari faol ishtirot etmoqda.

Moliyaviy tahlilni nazarij jihatdan rivojlantirish istiqbollarli unga yaqin fanlar, bиринчи navbatda, matematika, statistika, buxgalteriya hisobi va boshqalarning rivojlanishiga bog‘liq. Bundan tashqari, tahlil taraqqiyoti amaliyot talablariga ham uzviy bog‘langan. Ma’muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida u amaliyotda keng qo‘llanilmadi, chunki joylarda boshqaruv qarorlarini asoslash zarurati mavjud emas edi, barcha qarorlar yuqorida belgilab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, korxonalar va mulkchilik shakllari raqobati mazkur fanga bo‘lgan qiziqishni ortishiha olib keldi.

2. Iqtisodiy fanlar tizimida moliyaviy tahlilning o‘rni

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida korxonalar boshqaruvida tahlilning ahamiyati ortadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tgunga qadar rejali iqtisodiyot talablariga javob beruvchi moliyaviy tahlil tizimi mavjud edi. Axborotlarning asosiy iste’molchisi tarmoq vazirliklari va idoralari, statistika va moliyaviy organlar qiyofasida davlat hisoblanardi.

Barcha iqtisodiy fanlar, jumladan moliyaviy tahlil iqtisodiyotda, ijtimoiy munosabatlarda, fuqarolik-huquqiy muhiti va boshqa sohalarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarga bo‘ysunadi. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida yangi axborotdan foydalanuvchilar, biznesni tashkil qilish va yuritishning yangi shart-sharoitlari vujudga keladi. Ishlab chiqarish munosabatlari barcha iqtisodiy fanlar uchun umumiy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Shuning evaziga barcha iqtisodiy fanlar bir tizimga birlashadi, bunda ularning har biri boshqasidan farqlanuvchi o‘z predmetiga ega bo‘ladi. Ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi ta’sirida alohida iqtisodiy subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish ahamiyati ham tobora ortib boradi. Fanlar rivojlanishi bilan uning tarmoqlari differentsiatsiyasi sodir bo‘ladi. Ijtimoiy fanlar differentsiatsiyasi natijasida moliyaviy tahlil shakllangan¹. Avval moliyaviy tahlilning alohida shakllari asosan balansshunoslik, buxgalteriya hisobi va statistika kabi hisob fanlariga taalluqli bo‘lgan. Lekin korxonalarda iqtisodiy ishlar chuqurlashuviga ta’sirida tahlilni maxsuslashtirilgan bilimlar tizimi sifatida ajratish zarurati yuzaga keldi, chunki hisob fanlari amaliyotning barcha talablariga javob berishga qodir emas edi.

Mustaqil fanni shakllantirgan moliyaviy tahlil qator holatlarda statistika, rejalshtirish, buxgalteriya hisobi, matematika va boshqa unga bevosita bog‘liq fanlarga oid ma’lumotlardan kompleks va tizimli ravishda foydalanadi.

Moliyaviy tahlil iqtisodiyot nazariyasi bilan uzviy aloqaga ega. Ma’lumki, iqtisodiyot nazariyasi barcha iqtisodiy fanlar taraqqiyotining nazarij asosi hisoblanadi va iqtisodiy qonuniyatlar, ularning ta’sir mexanizmlarini o‘rganadi. Analistik tadqiqotlar o‘tkazishda ushbu qonuniyatlar ta’sirini hisobga olish zarur. O‘z navbatida, moliyaviy tahlil muayyan tarzda iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘p sonli analistik tadqiqotlar u yoki bu iqtisodiy qonuniyatlar namoyon bo‘lishi haqida ma’lumotlarni o‘zida jamlaydi. Ushbu ma’lumotlarni o‘rganish yangi, oldin ma’lum bo‘limgan qonuniyatlarini ifodalash, korxona, mamlakat yoki jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining global prognozlarini qilishga imkon beradi.

Moliyaviy tahlil maxsus fan sifatida iqtisodiy munosabatlар tizimi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat qonuniyatlarini yorituvechi boshqa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Bulardan biri tarmoqlar iqtisodiyoti hisoblanib, u ham iqtisodiy fanlarning metodik va metodologik asosi sanaladi. Iqtisodiyotni bilmay turib xo‘jalik faoliyatining izchil tahlilini amalga oshirishning iloji yo‘q. Iqtisodiyot taraqqiyotning umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlarini o‘rganadi, samarali va oqilona xo‘jalik yuritish yo‘llari va usullarini ilmiy asoslaydi. Moliyaviy tahlil umumiy va o‘ziga xos iqtisodiy qonuniyatlar hamda tushunchalar talablariga muvofiqlik nuqtai nazaridan korxonalar faoliyati rivojlanishini o‘rganadi.

Hozirgi sharoitda moliyaviy tahlilning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasini ko‘rib chiqish zarurati shunga bog‘liqki, rivojlanayotgan va amaliy talab yuqori fan sifatida tahlil “Moliya nazariyasi”, “Moliya”, “Moliyaviy menejment” kabi turli moliyaviy fanlarning asosiy instrumenti va mazmuniga aylandi. Lekin professional darajada moliyaviy tahlil o‘tkazish uchun tahlilning aniq maqsadlariga mutanosib javob beruvchi uslubiyot bilan birga axborot bazasini chuqur anglash ham talab etiladi. Tahlilda foydalaniladigan axborotlarning salmoqli qismi buxgalteriya hisobi tizimida shakllanadi. Moliyaviy tahlilni o‘tkazish uchun buxgalteriya hisobidan tashqari boshqaruv va moliyaviy hisobotlar ham axborot bazasi hisoblanadi.¹

3. Moliyaviy tahlilning asosiy tamoyillari

Moliyaviy tahlil umumqabul qilingan tamoyillarga qat’iy asoslanishi lozim. Korxonalarning xo‘jalik faoliyati tahlilida tamoyillar bilimning turli jahbalari uchun qo‘llaniladi: obyektivlik, ilmiylik, tizimlilik, aniqlik, komplekslilik, mutazamlilik, taqqoslanuvchanlik. Ixtiyoriy darajadagi xo‘jalik faoliyati tahlilini olib borishda ularga asoslanish talab qilinadi. Obyektivlik tamoyili tadqiq etilayotgan hodisa, vaziyat, jarayonlar tekshirilgan va ishonchli iqtisodiy axborotlar tizimida ifodalangan obyektiv voqeqlikni aks ettirishi lozim.

Ilmiylik tamoyili tahlil o‘tkazishda ilmiy asoslangan metodika va tartiblarga tayanish lozimligini anglatadi.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51 page.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51 page.

Tizimlilik tamoyili – tadqiq etilayotgan jarayonlar, iqtisodiy hodisalar, xo'jalik operatsiyalari bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda, yagona tizimda o'rganilishini anglatadi.

Aniqlik tamoyili o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar konkret real ma'lumotlarga asoslanishi lozim, natijalar esa aniq analitik hisob-kitoblarga asoslanadi.

Komplekslilik tamoyili tizimli tahlilning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va butun va uning qismlariga dialektik yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi. Tahlil va sintez birligi haqida mulohazalarga tayangan holda hodisa va jarayonlarning barcha jihatlari ichki aloqadorlikda hamda omillar ta'sirida o'rganish asosida xo'jalik faoliyati haqida aniq bilimlarga ega bo'lish va uni to'g'ri baholash mumkin. Demak, kompleks yondoshuv faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olish, korxonalar iqtisodiyotidagi sabab bog'lanishlarini har tomonlama o'rganishni talab qiladi.

Muntazamlik tamoyili hodisadan hodisagacha emas, balki oldindan belgilangan vaqt oralig'ida doimiy ravishda, uzlusiz tahlil olib borilishini talab qiladi.

Amaliylik tamoyili korxonalar faoliyatida kamchilik va xatoliklarni o'z vaqtida aniqlash va kelgusida bu holatlarga yo'l qo'ymaslikni anglatadi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar belgilangan natijalarga erishish maqsadida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltiriladi.

Taqqoslanuvchanlik tamoyili taqqoslanuvchanlik shartiga rioya qilinishini talab qildi. Taqqoslanuvchanlik ta'minlanishi uchun taqqoslanayotgan davrlarda ko'rsatkichlar o'chanishi va aks ettirilishi yagona uslubiyot bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

Korxonalar faoliyatini tafsiflovchi axborot barcha ma'lumotdan foydalanuvchilar uchun tushunarli, ixcham, qulay va qayta ishlashda tushunarli bo'lishi lozim. Mutanosib axborot manbalarida aks ettirilgan ma'lumotlar va natijalar foydali, mazmunli va turli hisobot davrlari uchun taqqoslanuvchan bo'lishi darkor.

Nazorat savollari:

1. Moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishi tartibi qanday?
2. O'zbekistonda moliyaviy tahlil rivojlanish tarixini qanday davrlashtirish mumkin?
3. Moliyaviy tahlilning rivojlanish tarixiga kimlar qissa qo'shgan?
4. Iqtisodiy fanlar tizimida moliyaviy tahlilning o'rni qanday?
5. Moliyaviy tahlilning asosiy tamoyillari izohlari?

2-bob. Moliyaviy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari

Reja:

1. Moliyaviy tahlilning mazmuni
2. Moliyaviy tahlilning predmeti va vazifalari

Tayanch so'zlar:

Fan predmetining ta'rif; fanni vazifalari; tahlil obyekti; ahil subyekti; iqtisodiyot nazariyasi va tahlil fanlarining bog'liqligi; buxgalteriya hisobi va tahlil; audit va tahlil; marketing va tahlil; moliya va tahlil; soliq va tahlil. tahlil so'zining mazmuni; moliyaviy tahlilining asosiy printsiplari.

1. Moliyaviy tahlilning mazmuni

Tahlil (uni xo'jalik faoliyatiga bog'lamasdan va mustaqil fan sifatida ajratmay) azaldan mavjud va insoniyatning jami ilmiy va amaliy faoliyati asosida yotuvchi ancha keng tushuncha hisoblanadi. Tahlil obyekt va hodisalarini qismlarga ajratib o'rganish jarayonini o'zida aks ettiradi. Tahlilga teskari jarayon sifatida sintez namoyon bo'lib, u bilan tahlil ko'pincha amaliy yoki bilish faoliyatida uyg'unlashadi. O'rganilayotgan obyekt turi, uning strukturasi murakkabligi, o'rganilayotgan jarayonning mavhumlik darajasi va ularni amalga oshirish usullariga bog'liq ravishda tahlil turli shakllarda namoyon bo'ladi, jumladan ko'pincha ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar(kimyoiy tahlil, matematik tahlil, biologik tahlil, moliyaviy tahlil)da tadqiqot so'zining sinonimi hisoblanadi.

Moliyaviy tahlil fan sifatida obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar hamda obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish bilan bog'liq maxsus bilimlar tizimini o'zida aks ettiradi.

Boshqaruv funksiysi sifatida rejashtirish, hisob, tahlil va boshqaruv qarorlari o'zaro chambarchas bog'langan. Tahlil boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy asosi hisoblanadi, uning yordamida iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari o'rganiladi, faoliyat natijalarining o'zgarishi omillar asosida tadqiq qilinadi, biznes-rejalar va boshqaruv qarorlari asoslanadi, ularning ijrosi ustidan nazorat amalga oshiriladi, samaradorlikni oshirish zaxiralari aniqlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan boshqaruv funktsiyalarisiz hech qanday boshqaruv qarorini qabul qilish mumkin emas.

Amaliy iqtisodiy fanlar tizimida markaziy o'rinni egallovchi moliyaviy tahlil bevosita xo'jalik faoliyati bilan bog'liq qator o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi. Iqtisodiy qonuniyatlar namoyon bo'lishini o'rganish, korxonalarining aniq sharoitida iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning qonuniyatлari hamda tendentsiyalarini aniqlash, ularni tadqiq qilish asosiy funktsiyalardan biri hisoblanadi. Masalan, talab va taklif qonuniyati. Talab o'ta harakatchan va o'zgaruvchan, chunki uning miqdori va dinamikasiga ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tusdag'i ko'p sonli omillar ta'sir qiladi. Tovarga talabning o'zgarishiga, misol tariqasida olsak, reklamadan foydalanish, moda, afzal ko'rish, atrof-muhit, did,

tovarlar hammabopligi, daromadlar miqdori, buyum foydaliligi, o'rnini bosuvchi tovarlar uchun narxlar, aholi soni o'zgarishi ta'sir etishi mumkin¹.

Tahlilning keyingi muhim funksiyasi joriy va istiqboldagi rejalarни ilmiy asoslash hisoblanadi. Ilmiy asoslangan reja korxonalar faoliyatı samarasini baholash mezoni sanaladi. O'tgan yillar (5-10 yil) uchun korxonalar faoliyat natijalarini moliyaviy tahlil qilmasdan, istiqbol uchun asoslangan prognozlashsiz va korxonalar iqtisodiyotining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganmay turib, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan kamchilik va xatoliklarni aniqlamasdan ilmiy asoslangan rejani ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarining optimal variantini tanlashning iloji yo'q.

Rejalarshirish zamonaviy korxonalarda moliyaviy resurslar, birinchi navbatda, pul mablag'lari bilan bog'liq, ular oxir-oqibatda moddiy, mehnat va boshqa resurs turlariga o'zgaradi. Korxonalarning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishi ulardan samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, sotish va investitsion rejalarni professional darajada tayyorlash bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishi uchun eng muhim omil hisoblanadi.

Rejalar va boshqaruv qarorlari bajarilishi, resurslardan tejamlı foydalanish ustidan nazorat korxona uchun muhim ahamiyat kasb etadi va tahlilning asosi y funksiyalaridan biri sanaladi. Rejalar bajarilishini baholash rejada ko'zda tutilgan xo'jalik operatsiyalarini bajarish muddati tugashi bo'yicha amalga oshiriladi. Erishilgan natijalarni baholashda kamchilik va xatolar aniqlanadi, ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilinadi.

Moliyaviy tahlil real foya keltirganda o'zini oqlaydi. Moliyaviy tahlilning haqiqiy nafi ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida foydalanilmagan zaxiralarni aniqlashdan ham iborat.

Moliyaviy tahlilning muhim funksiyalaridan biri – resurslardan samarali foydalanishdagi foydalanilmagan zaxiralarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish hamda fan va amaliyot yutuqlari, ilg'or tajribalar o'rganilishini hisobga olgan holda korxonani muvaffaqiyatlari rivojlantirish va daromadlilik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy tahlil tasnifida texnik-moliyaviy tahlil, moliyaviy-moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, ijtimoiy- moliyaviy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-ekologik tahlil va marketing tahlili kabilalar o'rinni olgan.

Moliyaviy tahlil boshqaruv obyekti (xo'jalik faoliyatining asosiy va yirik bo'limlari hisoblanadi. Moliyaviy tahlilni tashkil qilish, obyektlari, vazifalarini echish usullari o'ziga xoslikka ega.

Moliyaviy-moliyaviy tahlil (korxonaning moliya xizmati, moliya va kredit organlari) korxona faoliyatı natijalariga: moliyaviy reja bajarilishi, o'z va qarz kapitaldan foydalanish samaradorligi, foya miqdorini oshirish zaxiralarni aniqlash, rentabellik o'sishi, korxonaning moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyati yaxshilanishi kabilarga asosiy e'tibor qaratadi.

Buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslanuvchi moliyaviy tahlil tashqi tahlil hisoblanadi va quyidagi xususiyatlarga ega:

- tahlil subyektlari (axborotlardan foydalanuvchilar) ko'pligi;
- tahlil subyektlari maqsad va manfaatlari rang-barangligi;
- hisob va hisobtuning namunaviy metodikalari, standartlari mavjudligi;
- tahlilning faqat korxonaning ommaviy hisobotiga yo'nalganligi;
- korxona faoliyatı haqida axborotlardan foydalanuvchilar uchun natijalarning maksimal oshkoraliyi.

Moliyaviy (tashqi) tahlil jarayonida quyidagilarni aniqlash bo'yicha hisobkitoblar amalga oshiriladi:

- foya, tushum va xarajatlarning mutlaq ko'rsatkichlari;
- rentabellikning nisbiy ko'rsatkichlari;
- bozor barqarorligi, balans likvidligi, korxona to'lov qobiliyati;
- o'z kapitaldan foydalanish samaradorligi;
- qarz mablag'lardan foydalanish samaradorligi;
- kapitalni avanslash samaradorligi (investitsion tahlil);
- korxonaning moliyaviy ahvoli va emitent korxonaning reyting bahosining iqtisodiy diagnostikasi.

Boshqaruv tahlili korxonaning barcha xizmatlari tomonidan olib borilib, bunda rahbariyatga rejalarshirish, nazorat, optimal boshqaruv qarorlari qabul qilish, moliyaviy siyosat masalalari bo'yicha strategiya va taktika ishlab chiqish, marketing faoliyatı, sovershenstvovaniya ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnika, texnologiyasi uchun zaruriy axborotlarni taqdim etish maqsad qilinib, operativ xarakterga ega. Uning natijalari esa tijorat siri hisoblanadi¹.

Boshqaruv tahlili xos xususiyatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tahlil natijalarining korxona rahbariyatiga yo'nalganligi;
- tashqaridan tahlilni tartibga solish mavjud emasligi;
- korxona faoliyatini, moliyaviy va texnik jihatlarini o'rganish, tahlil qilish majmuaviligi;
- hisob, tahlil, rejalarshirish va qaror qabul qilish integratsiyasi;
- tijorat sirini saqlash maqsadida tahlil natijalari maxfiyligi.

Boshqaruv yoki ichki xo'jalik ishlab chiqarish tahlili predmeti quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-rejani asoslash;
- marketing tizimi;
- xo'jalik faoliyatı samaradorligining kompleks moliyaviy tahlili;
- texnik-tashkiliy daraja va ishlab chiqarishning boshqa shart-sharoitlari;
- ishlab chiqarish resurslardan foydalanish samaradorligi;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish;
- tannarx, mahsulot hajmi va foydaning o'zaro aloqasi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti tahlilni ichki boshqaruv va tashqi moliyaviy tahlilga differentsiatsiyalash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ichki boshqaruv tahlili –

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51 page.


¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 88page.

boshqaruv hisobining tarkibiy qismi, ya'ni korxona rahbariyati, ma'muriyatining axborot-analitik ta'minotidir. Tashqi moliyaviy tahlil esa moliyaviy hisobning tarkibiy qismi sanaladi.

Shunday qilib, moliyaviy tahlil moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish tizimining muhim elementi hisoblanadi, undan investitsion loyihalarni baholashda oldindan prognozlash varianti sifatida; moliyaviy shart-sharoit va natijalarni prognozlash instrumenti sifatida; ishlab chiqarishni boshqarishdagi joriy muammolarni aniqlash; har bir faoliyat yuritayotgan obyekta tegishli ichki zaxiralarni aniqlash, korxonaning moliyaviy ahvolini baholash maqsadida foydalanim mumkin.

Moliyaviy tahlil o'tkazish jarayonida muhim aloqa va tafsiflarni aniqlash, iqtisodiy ma'lumotlarni axborotga aylantirish maqsadida analitik vositalar tizimi hamda turli iqtisodiy va moliyaviy hujjatlar ko'rsatkichlarini o'rganish usullaridan foydalaniadi.

Analitik jarayon va baholash uchun qanday turdag'i hisobot manba sifatida xizmat qilishiga bog'liq ravishda moliyaviy tahlil turkumlanadi (1-chizma).



2. Moliyaviy tahlilning predmeti va vazifalari

Ixtiyoriy fan asosini uning predmeti tashkil qiladi. Fan predmeti mazkur fan nimani o'rganishini, metodi esa – qanday o'rganishini, ya'ni ushbu tadqiqot predmetini o'rganishda qanday uslublardan foydalanimishini ko'rsatadi.

Moliyaviy tahlil fan sifatida quyidagilar bilan bog'liq maxsus bilimlar tizimini o'zida aks ettiradi:

- obyektiv iqtisodiy qonunlar va subyektiv tudagi omillar ta'siri ostida yuzaga keluvchi o'zaro aloqadorlikdagi iqtisodiy jarayonlar tadqiqi;

- biznes-rejalarni ilmiy asoslash va ularning bajarilishini obyektiv baholash;

- ijobji va salbiy omillarni aniqlash hamda ularning ta'sirini miqdoriy o'lchash;

- xo'jalik taraqqiyoti tendentsiyalari va proporsiyalarini oydinlashtirish, foydalanimagan ichki xo'jalik zaxiralarini aniqlash;

- ilg'or tajribani umumlashtirish, optimal qarorlar qabul qilish.

Moliyaviy tahlil korxonalardagi iqtisodiy ishlardan iborat iqtisodiy fanlarning muhim qismi hisoblanadi. U o'z predmeti, obyekti va iqtisodiy jarayonlar, hodisalar, vaziyatlarni tadqiq qilish usullariga ega.

Ixtiyoriy fan, jumladan moliyaviy tahlil predmetini ta'riflash murakkab vazifa. Mazkur muammo o'n yillar davomida ishlab chiqilmoqda, lekin predmetni ta'riflash bo'yicha yagona va yakuniy nuqtai nazar hozircha mavjud emas. Moliyaviy tahlil predmetining adabiyotlarda tez-tez uchraydigan va ozmi-ko'pmi uning mohiyatiga mutanosib bo'lgan mayjud ta'riflarini olimlar quyidagicha guruholaydi:

- korxonalarning xo'jalik faoliyati;

- xo'jalik jarayonlari va hodisalari.

Ayni bir obyekt turli fanlarda turli jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin. Qayd qilish joizki, tahlil jarayon sifatida xo'jalik faoliyatining o'zini emas, balki iqtisodiy jarayonlar oqibati sifatida xo'jalik yuritish natijalarini o'rganadi.

Moliyaviy tahlil predmetini ta'riflashda professor S.B. Barngolts va professor A.D. Sheremet tadqiqotlari muhim o'rinni tutadi. Ularning nuqtai nazariga ko'ra, moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati ajralmas o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi va xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda kompleks yondashuv talab qilinadi¹.

Moliyaviy tahlil predmeti deganda, professor A.D. Sheremet ta'rificha, korxonalar, birlashmalar, assotsiatsiyalarning xo'jalik jarayonlari, iqtisodiy axborotlar tizimida o'z aksini topuvchi ularning obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida vujudga keluvchi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va yakuniy moliyaviy natijalari tushuniladi.

Moliyaviy tahlil nazariyasida mahalliy olimlarning ta'riflari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy tahlil muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida professor M.Pardaev, professor A.V. Vahobov, professor A.T. Ibragimovlarning ishlari ayniqsa e'tiborga molik.

Professor M.Pardaev nuqtai nazariga muvofiq, moliyaviy tahlil predmeti obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida vujudga keluvchi xo'jalik faoliyati, korxonalar iqtisodiy ahvoli ko'rsatkichlarini yuksaltirish yo'llarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Mazkur muammoni ko'rib chiqishga yakun yasagan holda xulosa qilish mumkinki, moliyaviy tahlil o'z predmeti sifatida xo'jalik subyektlarida obyektiv va

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51 page.

subyektiv omillar ta'sirida sodir bo'lgan hamda ma'lum axborot tizimlarida aks etgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar hamda ularning yakuniy natijalarini o'rganadi.

Quyidagilar moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1. Iqtisodiy qonunlar ta'sir xarakterini o'rganish, korxonaning konkret shart-sharoitida iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning qonuniyatlarini va tendentsiyalarini aniqlash.

2. Joriy va istiqboldagi rejalarни ilmiy asoslash: o'tgan 5-10 yil uchun korxona faoliyat natijalarini chuqur moliyaviy tahlil qilmasdan, istiqbol uchun asoslangan prognozlarsiz, korxona iqtisodiyoti rivojlanishidagi qonuniyatlarini o'rganmay turib, xato va kamchiliklarni aniqlamasdan ilmiy asoslangan rejani ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarining optimal variantini tanlash mumkin emas.

3. Reja va boshqaruv qarorlari bajarilishi, resurslardan tejamlı foydalanish ustidan nazarat qilish va erishilgan natijalarini baholash maqsadida tahlil nafaqat dalillar keltirish, balki xato va kamchiliklarni aniqlash hamda iqtisodiy jarayonlarga tezkor ta'sir qilish maqsadida olib borilishi lozim. Aynan shu sababga ko'ra tahlil tezkorligi va amaliyligini oshirish zarur.

4. Obyektiv va subyektiv, ichki va tashqi omillarning xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rganish.

5. Samaradorlikni yuksaltirish zaxiralarini izlash, korxonaning ilg'or tajriba, fan va amaliyot yutuqlarini o'rganish asosida faoliyat yuritishi.

6. Iqtisodiyotning erishilgan darajasi, rejalar bajarilishi va ko'rsatkichlar dinamikasi asosida korxona faoliyat natijalarini baholash, mavjud imkoniyatlardan foydalanish va mahsulot hamda xizmatlar bozorida uning o'rmini aniqlash.

7. Moliyaviy va operatsion risklar darajasini baholash hamda ichki boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish, korxonaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida biznes daromadlilagini yuksaltirish.

8. Aniqlangan zaxiralardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.¹

Nazorat savollari:

1. Tahlil nima?
2. Fan sifatida moliyaviy tahlilning shakllanish davri?
3. Xo'jalik subyektlari faoliyatini boshqarishda tahlilning o'rni nimalardan iborat?
4. Moliyaviy tahlil turlarini sanab bering.
5. Moliyaviy tahlilning mohiyati nimadan iborat?
6. Mazkur fan rivojlanishiga hissa qo'shgan mamlakatimiz olimlarini sanab bering.
7. Moliyaviy tahlilning asosiy tamoyillari.
8. Moliyaviy tahlil predmetini ta'riflang.
9. Iqtisodiy fanlar tizimida moliyaviy tahlilning o'rni qanday?
10. Moliyaviy tahlil vazifalarini sanab bering.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 136 page.

3-bob. MOLIYAVIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

Reja:

1. Moliyaviy tahlil metodi, uning o'ziga xos xususiyatlari
2. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan usullar
 - 2.1. Taqqoslash usuli
 - 2.2 Nisbiy va o'rtacha miqdordardan foydalanish
 - 2.3 Moliyaviy tahlilda guruhlash usuli
 - 2.4 Moliyaviy tahlilda balans usuli
 - 2.5 Zanjirli o'rin almashtirish usuli
 - 2.6. Mutlaq farqlar usuli
 - 2.7. Nisbiy farqlar usuli
 - 2.8. Indeks metodi
 - 2.9. Korrelyatsion tahlil usullari
 - 2.10. Integral usul va uning moliyaviy tahlilda qo'llanishi

Tayanch so'zlar:

Metodi, metodologik jihatlari, elementlari, tahlil omillari tasnifi, an'anaviv matematik usul, taqqoslash usuli, farqlar usuli, Matematik usul, Stoxastik model, juftli va ko'p sonli korrelyatsiya, integral va logarifm usuli, o'yin nazariyasi usuli

1. Moliyaviy tahlil metodi, uning o'ziga xos xususiyatlari

Keng ma'noda metod – real voqelinikni o'rganishdagi yondashuv uslubi, tabiat va jamiyatni tadqiq etish uslubi. Dialektika metodi umumiy tadqiqot metodi sanalib, birinchidan, barcha hodisalar o'zaro aloqadorlikda va o'zaro shartlangan tarzda o'rganilishi, ikkinchidan barcha hodisalar harakatda, o'zgarish va rivojlanishda o'rganilishini anglatadi.

Dialektika har bir jarayon, har bir hodisani **yaxlit va qarama-qarshiliklar kurashi** sifatida ko'rib chiqishni uqtiradi. Bundan ichki qarama-qarshiliklarni, har bir hodisa, har bir jarayonning salbiy va ijobjiy jihatlarini o'rganish zarurati kelib chiqadi. Bu ham tahlilning o'ziga xos qirralaridan biridir. Masalan, ilmiy texnika taraqqiyoti mehnat unumdarligi o'sishi, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar oshishida ijobjiy natija beradi, lekin bunda uning atrof-muhitni ifloslantirish, ishsizlikning ortishi va boshqa salbiy jihatlarini ham hisobga olishimiz lozim.

Tahlilda dialektik metoddan foydalanish **korxonalar xo'jalik faoliyatini o'rganish barcha o'zaro aloqalarni hisobga olgan holda olib borilishi lozimligini** anglatadi. Agar boshqalaridan ajratilgan holda ko'rib chiqilsa, hech bir hodisa to'g'ri tushunlishi mumkin emas. Ma'lumki, yangi texnika joriy qilinishi bilan ishlab chiqarish xarajatlari, demakki, mahsulot tannarxi ham ortadi. Lekin bunda mehnat unumdarligi o'sadi. Bu esa, o'z navbatida, mehnat haqini tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirishga imkon beradi. Demak, u yoki bu iqtisodiy hodisani tushunish va to'g'ri baholash uchun uning boshqa hodisalar bilan barcha o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini o'rganish zarur. Bu tahlil metodining metodologik qirralaridan biri sanaladi.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri shuki, **u nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o'rnatishga, balki ularga miqdoriy tavsif berishga imkon beradi**, ya'ni faoliyat natijasiga omillar ta'sirini aniqlashni ta'minlaydi. Bu iqtisodiyot holatini aniq baholab, uning natijalari bo'yicha xulosa hamda tavsiyalarni asoslashga imkon beradi.

Tahlilda sabab aloqalarini o'rganish va o'lhashni induktsiya va deduktsiya metodi bilan amalga oshirish mumkin.

Moliyaviy tahlilda dialektik metoddan foydalanish **har bir jarayon, har bir iqtisodiy hodisani tizim sifatida, o'zaro bog'liq ko'plab elementlarning majmui sifatida ko'rib chiqish lozimligini** anglatadi. Bundan tahlil obyektlarini o'rganishga tizimli yondashuv zarurati kelib chiqadi, bu ham uning xarakterli jihatlaridan biri sanaladi. Tizimli yondashuv o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni elementlarga maksimal detallashtirish (xususiy tahlil), ularni tizimlashtirish va sintezni nazarda tutadi.

Hodisalarni **detallashtirish** o'rganilayotgan obyektda eng muhim va asosiy jihatlarini aniqlash uchun zarur darajada olib boriladi. U obyekt va tahlil maqsadiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, tahlil metodi korxonalar faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida reja ko'rsatkichlari tizimi, hisob, hisobot va boshqa axborot manbalarini maxsus usullar asosida qayta ishslash yo'li bilan korxonalar faoliyati natijalariga omillar ta'sirini tizimli, kompleks o'rganish, o'lhash va umumlashtirishni o'zida aks ettiradi. Tahlilda tadqiq etiladigan omillar turli alomatlari bo'yicha tasniflanishi mumkin, bu natijaviy ko'rsatkichlar miqdorini shakllantirishda har bir omilning o'rni va ahamiyatini aniqroq baholashga imkon beradi.

1-jadval

Tahlil omillari tasnifi

| Tasnifiy belgisi | Omillar guruhi |
|--|--|
| Tabiatiga ko'ra | Tabiiy-iqlim Ijtimoiy-iqtisodiy Ishlab chiqarish-iqtisodiy |
| Natjalarga ta'sir darajasiga ko'ra | Asosiy Ikkinchi darajali |
| Xo'jalik subyektiga bog'liqlik darajasiga ko'ra | Obyektiv Subyektiv |
| Tadqiqot obyektiga nisbatan | Ichki Tashqi |
| Tarqalish darajasiga ko'ra | Umumiyl O'ziga xos |
| Faoliyat natijalariga ta'siri davomiyligiga ko'ra | Doimiy Vaqtinchalik |
| Ta'sir xarakteriga ko'ra | Ekstensiv Intensiv |
| Aks ettirilayotgan hodisalar xususiyatlariga ko'ra | Miqdoriy Sifat |
| O'z tarkibiga ko'ra | Sodda Murakkab |

O'z tabiatiga ko'ra omillar tabiiy-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-iqtisodiy kabilarga ajratiladi.

Tabiiy-iqlim omillari qishloq xo'jaligi, kon sanoati, o'rmon xo'jaligi va boshqa tarmoqlar faoliyat natijalariga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'sirini hisobga olish xo'jalik subyektlari faoliyat natijalarini aniqroq baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga xodimlarning uy-joy sharoiti, korxonalarda ommaviy-madaniy, sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish, xodimlarning ta'lim hamda madaniy jihatdan umumiy darajasi va boshqalar kiritiladi. Ular korxonaning ishlab chiqarish resurslaridan yanada to'liq foydalanish va ularning mehnat samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar korxonaning ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish to'liqligi va samaradorligini, uning faoliyatining yakuniy natijalarini belgilab beradi.

Xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sir darajasiga ko'ra omillar asosiy va ikkinchi darajali omillarga ajratiladi. Ikkinchi darajalardan farqli o'laroq **asosiy** omillar natijaviy ko'rsatkichga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Turli omillar ichidan asosiy, hal qiluvchisini ajrata olish mahorati tahlil natijalari asosida to'g'ri xulosalar chiqarishni ta'minlaydi.

Xo'jalik subyektiga bog'liqlik darajasiga ko'ra omillar **obyektiv** (odamlar xohish va irodasiga bog'liq bo'lмаган, masalan, tabiiy ofatlar) va **subyektiv** (yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatiga bog'liq) omillarga ajratiladi.

Tadqiqot obyektiga nisbatan omillar ichki va tashqi, ya'ni mazkur korxona faoliyatiga bog'liq va bog'liq bo'lмаган omillarga tasniflanadi. Tahlilda korxona ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ichki omillar tadqiqiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tarqalish darjasiga ko'ra omillar **umumiyl** (iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir qiluvchi) va **o'ziga xos** (iqtisodiyotning alohida tarmog'i yoki korxonalar sharoitida ta'sir qiluvchi). Bunday bo'linish alohida korxonalar, ishlab chiqarish tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olish va ularning faoliyatini yanada aniq baholashga imkon beradi.

Faoliyat natijalariga ta'siri davomiyligiga ko'ra **doimiy** (o'rganilayotgan hodisaga vaqt bo'yicha uzlusiz ta'sir ko'rsatuvchi) va **vaqtinchalik** (ayrimlarining ta'siri davri hisoblanadi, masalan, yangi texnika, mahsulotlarning yangi turlari, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirish va hokazo) omillar farqlanadi.¹

Ta'sir xarakteriga ko'ra omillar **intensiv** (ishlab chiqarish jarayonida mehnat qizg'inligi, sa'y-harakatlar darajasini tavsiflaydi, masalan, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish, qoramollar mahsulordorligini oshirish, mehnat unumdarligini oshirish) va **ekstensiv** (natijaviy ko'rsatkichning sifat jihatidan emas, balki miqdoriy o'sishi bilan bog'liq, masalan, ekin maydonini kengaytirish yo'li bilan

¹ Financial statement analysis eleventh edition k. r. subramanyam university of souther 99 page.

mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, hayvonlar bosh sonini ko'paytirish, ishchilar sonini oshirish va hokazo) omillarga bo'linadi.

Tarkibiga bog'liq ravishda omillar bir necha elementdan iborat **murakkab** (kompleks) va tarkibiy qismlarga ajratilmaydigan **sodda** (elementli) turlarga ajratiladi. Murakkab omilga mehnat unumdarligini, sodda omillarga hisobot davrida ish kunlari sonini misol sifatida keltirish mumkin.

2. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan usullar

Moliyaviy tahlil jarayonida iqtisodiy axborotlarni analitik qayta ishlashda qator o'ziga xos usul va uslublar qo'llaniladi. Moliyaviy tahlilning usullarini ikki guruhga ajratish mumkin: **an'anaviy** va **matematik**.

Birinchisiga shunday usullar kiritiladiki, ular moliyaviy tahlil maxsus bilimlarning ixtisoslashgan tarmog'i sifatida, mustaqil o'quv kursi sifatida yuzaga kelgan vaqtidan boshlab qo'llanilgan. Ko'plab matematik usullar keyinroq, tezkor EHMLarni ishlab chiqarish yo'nga qo'yilgan vaqtidan analitik ishlanmalar doirasiga kirgan. Moliyaviy tahlilning asosiy an'anaviy usul va uslublari sirasiga mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdordan foydalanishni kiritish mumkin: taqqoslash, guruhlash, balans metodi, zanjirli o'rin almashtirish usuli va mutlaq farq usuli. U yoki bu ko'rsatkichlar, iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va vaziyatlar tahlili mutlaq miqdorlardan (qiymat bo'yicha yoki natural o'lchovlarda ishlab chiqarish hajmi, tovar aylanmasi hajmi, muomala xarajatlari va sarf-xarajatlар miqdori, foya miqdori) foydalanishdan boshlanadi. Buxgalteriya hisobi va statistikada bo'lgani kabi tahlilda ham mutlaq miqdorlarsiz ish yuritish mumkin emas. Lekin ular buxgalteriya hisobida asosiy o'lchagichlar hisoblansa, tahlilda ko'pincha o'rtacha va nisbiy miqdorlarni hisoblash uchun baza sifatida foydalaniladi.

Nisbiy miqdorlar analitikligi tuzilmaviy tartib ko'rsatkichlarini o'rganishda ham yaxshi namoyon bo'ladi. Jaminging qismini jamingining butun olinganiga nisbatini aks ettirarkan, ular butun jamini ham, uning qismini ham yaqqol tasvirlaydi (masalan, yalpi mahsulotda tayyor mahsulot, qo'shimcha mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishning ulushi).

Tahlil jarayonida o'rtacha miqdorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning «analitik kuchi» o'xshash, bir turdag'i ko'rsatkichlar, hodisalar va jarayonlarni mutanosib majmuuda umumlashtirishdan iborat. ular xususiyidan umumiyyiga, tasodifiydan qonuniyatliga o'tishga imkon beradi; ularsiz o'rganilayotgan belgini turli majmualar bo'yicha taqqoslash, turlanayotgan ko'rsatkichlarni vaqt bo'yicha o'zgarishlarini tavsiflashning iloji yo'q; ular alohida qiymat va tebranishlar tasodifiyligini mavhumlashtirishga imkon beradi.

Analitik hisob-kitoblarda zaruratga ko'ra "o'rtacha"larning turli shakllari qo'llaniladi: o'rtacha arifmetik, o'rtacha tortilgan, o'rtacha xronologik va b.

2.1. Taqqoslash usuli

Bilishning ilmiy usullaridan biri sifatida taqqoslash moliyaviy tahlilda keng qo'llaniladi. Uning mohiyati – bir turdag'i obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni aniqlash maqsadida ularni qiyoslashdan iborat. Taqqoslash yordamida

iqtisodiy hodisalardagi umumiyylik va o'ziga xosliklar aniqlanadi, tadqiq etilayotgan obyektlar darajasida o'zgarishlar belgilanadi, ularning rivojlanish tendentsiyalari va qonuniyatlar o'rganiladi. Moliyaviy tahlilda taqqoslashning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- Haqiqatdagi hisobot ma'lumotlarini rejaviy ma'lumotlar bilan taqqoslash. Rejaning bajarilish foizini aniqlash taqqoslash natijasi hisoblanadi;

- Iqtisodiy hodisalar rivojlanishidagi tendentsiyalar, qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ko'rsatkichlarni dinamikada taqqoslash;

- Tahlil qilinayotgan korxonalar ko'rsatkichlarni tarmoq bo'yicha o'rtacha qiymatlar bilan taqqoslash;

- O'rganilayotgan korxonaning faoliyat ko'rsatkichlarni raqobatchilarining mutanosib ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

- optimal qarorlarni tanlash maqsadida turli boshqaruv qarorlari natijalarini taqqoslash;

- samadorligini baholash maqsadida boshqaruv qarorlari qabul qilingunga qadar va qabul qilingandan keyingi faoliyat natijalarini taqqoslash.

Quyidagilar **ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligining** majburiy sharti hisoblanadi:

- hajim, qiymat, sifat va tuzilmaviy ko'rsatkichlar birligi;

- qiyoslash amalga oshirilayotgan vaqt davri birligi;

- ishlab chiqarish shartlari taqqoslanuvchanligi;

- ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi taqqoslanuvchanligi.

Taqqoslanmaydigan ko'rsatkichlarni qiyoslash tahlil natijalari asosida noto'g'ri xulosa chiqarilishiha olib keladi. Shuning uchun qiyoslashni amalga oshirishdan avval ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirish lozim, ya'ni qiyoslanayotgan ko'rsatkichlarni sanab o'tilgan omillarga muvofiq yagona asosga keltirish lozim.

Agar taqqoslamaydigan ko'rsatkichlar qiyomat bahosining turli darajasi oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, u holda ushbu omilni neytrallashtirish uchun ko'rsatkichlar ayni bir narxda ifodalanadi. Masalan, yalpi mahsulot qiyoslanuvchanligini ta'minlash uchun uning hisobot va bazis davrdagi jismoniy hajmi bazis davri narxlarida ifodalanadi:

$$I_{yam} = \sum q_1 p_0 / \sum q_0 p_0$$

Bu erda q_1 i q_0 – mos ravishda hisobot va bazis davrdagi i-turdagi mahsulot ishlab chiqarishning jismoniy hajmi;

p_0 – i-turdagi mahsulotning bazis davrdagi narxi.¹

Korxonalar faoliyat ko'لامи o'zgarishi tufayli ko'plab ko'rsatkichlar taqqoslanmaydigan bo'lishi mumkin. Masalan, agar hisobot yili xarajatlari miqdori ($\sum q_1 b_1 + a_1$) bazis yil xarajatlari ($\sum q_0 b_0 + a_0$) bilan taqqoslansa, u holda mazkur ko'rsatkichlarning farqi nafaqat mahsulot tannarxi darajasining o'zgarishi bilan, balki mahsulot ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlar bilan ham shartlangan bo'ladi. Xarajatlarni taqqoslanma ko'rinishga keltirish uchun hajm omilining

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 153 page.

ta'sirini neytrallash talab etiladi, buning uchun bazis davr xarajatlari miqdorini hisobot davri mahsulot ishlab chiqarishning haqiqatdagi hajmiga ($\sum q_1 b_0 + a_0$) qayta hisoblash zarur va shundan so'ng hisobot davri xarajatlari miqdori taqqoslanadi:

$$I_z = \sum q_1 b_1 + a_1 / \sum q_0 b_0 + a_0$$

Bu erda b – i-turdagi mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar;
 a – tadqiq etilayotgan davrda jami mahsulot ishlab chiqarish uchun doimiy xarajatlar.

Taqqoslanayotgan ko'rsatkichlarni **bir tuzilmaga** keltirish uchun mahsulot ishlab chiqarishning haqiqatdagi hajmini bazis davr tarkibiga qayta hisoblash zarur:

2-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibi

| Mahsulot turi | Mahsulot narxi, ming so'm | Ishlab chiqarish hajmi | | Solishtirma og'irlilik | |
|-------------------------|---------------------------|------------------------|---------------|------------------------|---------------|
| | | O'tgan davr | Hisobot davri | O'tgan davr | Hisobot davri |
| Tabiiy teridan poyabzal | 30 | 5000 | 5400 | 0,5 | 0,6 |
| Sun'iy teridan poyabzal | 6 | 5000 | 3600 | 0,5 | 0,4 |
| Jami | | 10000 | 9000 | 1,0 | 1,0 |

$$YaF_0 = 10000 \times 30 + 10000 \times 0,5 \times 6 = 180000 \text{ ming so'm}$$

$$YaF_{shartli} = 9000 \times 0,5 \times 30 + 9000 \times 0,5 \times 6 = 162000 \text{ ming so'm}.$$

Keltirilgan misolda ikkala holatda ham ishlab chiqarish tarkibi va narxlar bir xil (bazis davr darajasida), faqat umumiy mahsulot ishlab chiqarish farqlanadi. Bu mahsulotning jismoni o'sishini to'g'ri baholashga imkon beradi.

Agar mutlaq miqdorlar o'rniga o'rtacha yoki nisbiy miqdorlar qo'llanilsa, qator hollarda ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligiga erishish mumkin. Korxona ishlab chiqarish bazasini hisobga olmay turib mahsulot ishlab chiqarish hajmi, foya miqdori kabi mutlaq ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin emas. Lekin mutlaq ko'rsatkichlar o'rniga nisbiy ko'rsatkichlar, masalan, bir ishchi uchun mahsulot ishlab chiqarish, bir so'm aktivga foya miqdori olingan bo'lsa, u holda qiyoslash to'laligicha to'g'ri hisoblanadi.

2.2 Nisbiy va o'rtacha miqdorlardan foydalanish

Mutlaq ma'lumotlar bilan birga moliyaviy tahlilda odatda foiz yoki koeffitsientlarda ifodalanadigan nisbiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Nisbiy miqdorlar, masalan, aholi jon boshi hisobida mahsulot ishlab chiqarishni aniqlash uchun qo'llaniladigan reja topshiriqlarining bajarilish darajasi, me'yorlarga rioxha qilinishi, o'sish sur'ati va ko'payish, tarkibi, intensivlik ko'rsatkichlari yoki ulushimi tafsiflaydi. Bunday nisbiy ko'rsatkichlar mutlaqsonlarda hisoblansa-da, nisbiy miqdorlar toifasiga kiritiladi.

Ishlovchilarining mehnat unumdorligi, mahsulot birligiga material sarfi kabi ommaviy hodisalarini o'rganishda o'rtacha miqdorlarni qo'llash zarurati vujudga keladi.

Moliyaviy tahlilda **o'rtacha miqdorlar** bir turdag'i hodisalar majmuini qandaydir belgi bo'yicha umumlashtirilgan miqdoriy tavsifi uchun foydalaniadi, ya'ni bitta son bilan obyektlarning jami majmuui tavsiflanadi. Masalan, ishchilarining o'rtacha oylik mehnat haqi o'rganilayotgan ishchilar majmuining mehnatiga haq to'lash darajasining umumlashma tavsifi uchun qo'llaniladi. O'rtacha miqdorlar yordamida turli obyektlar majmularini qiyoslash mumkin: rentabellik darajasi bo'yicha tumanlar, mehnatga haq to'lash darajasi bo'yicha korxonalar va hokazo.

O'rtacha miqdorlarning keng tarqalgan shakli – o'rtacha arifmetik bo'lib, uning oddiy va tortilgan turlari mavjud. O'lchovlar haqida bevosita ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda o'rtacha garmonik usul qo'llaniladi, o'sishning o'rtacha sur'atini hisoblashda esa o'rtacha geometrikka murojaat qilinadi.

O'rtachani hisoblashning mazkur usullari o'rganilayotgan majmuuning o'ziga xos jihatlarini tavsiflash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunda ixtiyoriy o'rtacha tortilgan miqdor hisoblash manbasi bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlar tarkibining hosilasi ekanligini nazarda tutish talab etiladi. Sonlarni qatorlarga yanada teng taqsimlash barcha qatorlar uchun yanada tipik o'rtacha miqdorni beradi va aksincha.

Misol, 2015 yilning to'rt kvartali uchun ma'lumotlar bo'yicha mahsulot sotishning o'rtacha kvartal hajmini hisoblash.

| Kvartal | I | II | III | IV |
|-----------------|--------|--------|--------|--------|
| Tushum xi, so'm | 587612 | 630544 | 691406 | 601417 |

x_i ning har bir qiymatidan 587612 ni ayirib tashlash, keyin esa "qoldiq"lar bo'yicha o'rtachani hisoblash mumkin:

| | | | | |
|--|---|-------|--------|-------|
| | 0 | 42932 | 103794 | 13805 |
|--|---|-------|--------|-------|

$$(0+42932+103794+13805) / 4 = 40133 \text{ so'm}$$

Izlanayotgan kvartalda sotishning o'rtacha miqdori quyidagi teng bo'ladi:

$$X = 40133 + 587612 = 627745 \text{ so'm}$$

O'rtacha arifmetikdan tashqari o'rtacha miqdorlarning boshqa shakllari ham qo'llaniladi. Birinchi navbatda bu **o'rtacha geometrik** bo'lib, u miqdorni emas, balki miqdorlarning individual qiymatlari ko'paytmasini o'zgarmas saqlashga imkon beradi:

$$\sqrt[n]{X_{geom}} = x_1 * x_2 * \dots * x_n$$

O'rtacha geometrik asosan o'sish sur'atini o'rganishda keng qo'llaniladi.

Misol, 2004 yilning to'rt kvartali davomida korxona mahsulot ishlab chiqarishida foydaahnilgan xom ashyo narxining o'sish sur'ati har xil bo'lgan. Yilning to'rt kvartali uchun ma'lumotlar bo'yicha yil uchun o'rtacha kvartallik narx o'sish sur'atini topish talab qilinadi.

| Kvartal | I | II | III | IV |
|----------------|------|------|------|------|
| O'sish sur'ati | 1,05 | 1,09 | 2,01 | 1,56 |

Narx o'sish sur'ati quyidagini tashkil qilgan: $1,05 \cdot 1,09 \cdot 2,01 \cdot 1,56 = 3,59$

Agar o'rtacha o'sish sur'atini hisoblash uchun o'rtacha arifmetik formulasidan foydalanilsa, yillik o'sish sur'ati o'rtacha $1,43$ martani tashkil qilganligini ko'ramiz:

$$(1,05+1,09+2,01+1,56)/4 = 1,43$$

Olingen qiymat o'sish sur'atining haqiqiy manzarasini berishi ehtimoldan uzoq, chunki agar har kvartalda narxlar $1,43$ marta oshgan deb taxmin qilinsa, u holda yillik o'sish sur'ati $4,15$ martani tashkil qilishi lozim:

$$1,43 \cdot 1,43 \cdot 1,43 \cdot 1,43 = 4,15 \text{ marta}$$

Bunday qarama-qarshilik yuzaga kelmasligi uchun bir yilda o'rtacha kvartallik narx o'sish sur'atini hisoblash uchun o'rtacha geometrik formulasidan foydalanish talab qilinadi:

$$\sqrt[4]{1,05 \cdot 1,09 \cdot 2,01 \cdot 1,56} = 1,38$$

Moliyaviy tahlilda **o'rtacha xronologik usul** ham keng qo'llaniladi. Korxonalarни tavsiyflash uchun oraliq va oniy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Birinchisiga misol sifatida tovar aylanmasi, foya, qandaydir davr uchun tushumlar hajmi; ikkinchisiga esa – muayyan sana uchun zaxiralar, asosiy mablag'lar va ishlovchilar soni haqida ma'lumotlarni keltirish mumkin. Oraliq ko'rsatkichlarni o'rtachalashtirish uchun ko'pincha o'rtacha arifmetik formularni qo'llanilsa, oniy ko'rsatkichlarni o'rtachalashtirish uchun aynan o'rtacha xronologik formulasidan foydalaniladi. Agar X_1, \dots, X_n oniy ko'rsatkichlar qatori berilgan bo'lsa, u holda mazkur qator uchun o'rtacha xronologik Sch quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Sch = (X_1/2 + X_2 + \dots + X_{n-1} + X_n/2) / n - 1$$

Misol, 2015 yildagi do'konda tovar zaxirasining o'rtacha miqdorini topish talab qilinadi, agar har bir kvartal boshi uchun zaxiralar haqida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa (ming so'm):

| Zaxira | 1 yanvar | 1 aprel | 1 iyul | 1 oktyabr | 1 yanvar |
|--------|----------|---------|--------|-----------|----------|
| | 2015 | 2015 | 2015 | 2015 | 2016 |
| | 100 | 120 | 111 | 140 | 106 |

O'rtacha xronologik formulasidan foydalangan holda quyidagini topamiz:

$$Sch = (100/2 + 120 + 111 + 140 + 106/2) / (5-1) = 118,5 \text{ ming so'm}$$

Olingen miqdorning iqtisodiy talqini quyidagicha: 2015 yil davomida korxona har kuni o'rtacha $118,5$ ming so'mga teng tovar zaxirasiga ega bo'lgan.

2.3 Moliyaviy tahlilda guruhlash usuli

Guruhlash – bu ma'lumotlar majmuini uning tarkibi yoki komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish maqsadiga guruhlarga ajratishdir.

Iqtisodiy hodisalarini ilmiy tasniflash, ularni turdosh guruh yoki guruhchalarga birlashtirishni ularni bat afsil o'rganish asosidagina amalga oshirish mumkin.

Tasodifiy belgilariga ko'ra hodisalarini guruhlash mumkin emas: ularning siyosiy-iqtisodiy tabiatini tushuntirish zarur. Ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar va sabablar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Tahlil maqsadiga bog'liq ravishda tipologik, tkzilmaviy va analitik (sabab-oqibat) guruhlashdan foydalaniladi. **Tipologik guruhlashga** misollar – faoliyat turi bo'yicha aholi guruhlari, mulkchilik shakli bo'yicha korxonalar guruhlari va b.

Tuzilmaviy guruhlar ko'rsatkichlarning ichki tuzilishi, ularning alohida qismlari nisbatini o'rganishga imkon beradi. Ularning yordamida kasb-kori, mehnat staji, yoshi, mehnat me'yorlarini bajarishi bo'yicha ishchilar tarkibi; mahsulot tannarxi tarkibi va boshqalar o'rganiladi.

Analitik guruhlar (mohiyatan tipologik va tuzilmaviyni o'zida qamrab oluvchi) o'rganilayotgan hodisalar, obyektlar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro munosabatlarni aniqlashga mo'ljallangan. Pri postroenii Analitik guruhlarni tuzishda ikki o'zaro aloqador ko'rsatkichlardan biri boshqasiga ta'sir qiluvchi omil sifatida, boshqasi esa birinchisining ta'siri natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Lekin har bir aniq holat uchun omilli va natijaviy alomatlarning o'zaro bog'liqligi o'zgarishi mumkinligini nazarda tutish talab qilinadi (omilli alomat natijaviy sifatida namoyon bo'lishi mumkin va aksincha).

3-jadval

Korxonalarini mehnat qurollari bilan ta'minlanganligi bo'yicha guruhlash

| Fond bilan qurollanganligiga ko'ra korxonalar guruhni | Guruhdagi korxonalar miqdori | Guruh bo'yicha fond bilan qurollanganlikning o'rtacha darajasi | Bir ishchining o'rtacha ishlab chiqarishi, mln. so'm |
|---|------------------------------|--|--|
| 3,5 mln. so'mgacha | 2 | 3,25 | 4,45 |
| 3,5 – 4,0 | 3 | 3,76 | 5,10 |
| 4,1 – 4,5 | 3 | 4,23 | 5,73 |
| 4,5 mln. so'mdan ziyod | 2 | 4,75 | 6,30 |

Shunday qilib, axborotlarni to'g'ri guruhlash ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish, o'rganilayotgan hodisalar mohiyatini yanada chuqurroq anglash, tahlil materiallarini tizimlashtirish, ularning asosiyлari, xarakterlilarini va o'ziga xoslarini ajratishga imkon beradi.

2.4 Moliyaviy tahlilda balans usuli

Balans usuli – bu xo'jalik faoliyatining o'zaro aloqador ko'rsatkichlarini ularning o'zaro ta'sirini izohlash va o'lchash uchun, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini hisoblash uchun maxsus qiyoslashdir.

Tahlilning balans usulini qo'llashda alohida ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqa ularni turlicha qiyoslash orqali olingen natijalar tengligi shaklida ifodalanadi. Xo'jalik faoliyatining ikki natijasi tengligini keltirib chiqarish yo'li bilan uning ko'p sonli ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirish bo'yicha ilk tarixiy misol buxgalteriya balansi bo'lganligi uchun tahlilning mazkur usuli balans metodi

nomini oldi. U korxonaning mehnat, moliyaviy resurslar, xom ashyo, yoqilg'i, materiallar, ishlab chiqarishning asosiy vositalari va boshqalar bilan ta'minlanganligini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.¹

Masalan, korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi aniqlangan holda balans tuzilib, unda bir tomonidan, mehnat resurslariga ehtiyoj, boshqa tomonidan – ularning haqiqatda mavjudligi ko'rsatiladi.

Korxonalarining to'lov qobiliyatini aniqlash uchun to'lov balansidan foydalаниlib, unda to'lov mablag'larining to'lov majburiyatları bilan o'zaro nisbati aniqlanadi.

Tayyor mahsulot balansi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q_b + T = S + Q_o$$

Bu erda Q_b – yil boshi uchun tovar qoldig'i;

T – tovar mahsulot ishlab chiqarish;

S – sotish;

Q_o – yil oxiri uchun tovar qoldig'i.

Ba'zan balans usuli alohida omillarning natijaviy o'ksatkich o'sishiga ta'sir miqdorini aniqlash uchun qo'llaniladi. Masalan, uch omilning ikkitasi ta'siri ma'lum bo'lsa, u holda uchinching ta'sirini natijaviy ko'rsatkichning umumiy o'sishidan dastlabki ikki omil ta'siri natijasini ayirib tashlab aniqlash mumkin:

$$S = Q_b + T - Q_o$$

2.5 Zanjirli o'rin almashtirish usuli

Zanjirli o'rin almashtirish va uning matematik o'zgarishiga asoslangan xususiy ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy miqdorlarining **farqlar (tafovut)** usuli alohida omillarning ularning o'zaro munosabatlashuv natijasiga ta'sirini o'lchashda keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

Omillar ta'siri xususiy (omilli) ko'rsatkichlar orqali, natija esa – umumlashtiruvchi (natijaviy) ko'rsatkich orqali aks ettiriladi. Xususiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish hisoblash formulasi ko'renishida belgilanadi, uning bir tomonida xususiy ko'rsatkichlar va ular ustida bajariladigan matematik amallar, boshqa tomonda esa ushbu ko'rsatkichlar ta'sirida o'zgaradigan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar qayd qilinadi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarning bazisi (reja) dan haqiqatda og'ishi oldindan belgilanadi.

Zanjirli o'rin almashtirish usulining mohiyati hisoblash formulasiga kiruvchi xususiy ko'rsatkichlarning bazis miqdorini mazkur ko'rsatkichlarning haqiqatdagi miqdoriga ketma-ket almashtirishdan va hosila o'rin almashtirishning o'rganilayotgan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar miqdori o'zgarishiga ta'sirini o'lchashdan ibora. Xususiy ko'rsatkichning bazis miqdorini har bir almashtirishdan so'ng hisoblash formulasida nazarda tilgan barcha matematik amallar haqiqatda bajariladi va olingen natijadan oldingisi chiqarib tashlanadi (ushbu ko'rsatkich almashtirilgunga qadar). Natijalar farqi ushbu xususiy ko'rsatkich o'zgarishining umumlashtiruvchiga ta'sirining izlanayotgan miqdorini ko'rsatadi, chunki qiyoslanayotgan ketma-ket hisoblashlarda boshqa

barcha xususiy ko'rsatkichlar miqdori bo'yicha bir xil. Xususiy ko'rsatkichning bazis miqdorini almashtirish amalda o'rin almashtirish deyiladi. O'rin almashtirishlar soni hisoblash formulasiga kiruvchilar soniga teng, ketma-ket hisoblashlar soni esa ulardan bittaga ko'p, chunki umumlashtiruvchi ko'rsatkich o'zgarishining umumiy miqdorini aniqlash uchun bazis hisoblash keltirilib, unda barcha ko'rsatkichlar bazis miqdorlarda aks ettiriladi.

a, b, v, g ko'paytiruvchilar ko'rinishidagi xususiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oluvchi hisoblash formulasida zanjirli o'rin almashtirishlarni quyidagicha ifodalash mumkin (2.4-jadval).

Hisob-kitobni tekshirish **balans og'ishlarni** tuzish yo'li bilan amalgalashiriladi: alohida xususiy ko'rsatkichlar o'zgarishi ta'siridagi og'ishlarning algebraik miqdori umumlashtiruvchi ko'rsatkichning bazis miqdoridan og'ishga teng bo'lishi lozim.

4-jadval

| Tartib raqami | | O'zaro munosabatlashuvchi xususiy ko'rsatkichlar | | | | Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar miqdori | Umumlashtiruvchi ko'rsatkich o'zgarishi | |
|---------------|--------------------|--|-------|-------|-------|---|---|---------------------------------|
| Hisoblash | O'rin almashtirish | a | b | v | g | | xususiy ko'rsatkich ta'siri ostida | O'zgarishlarni hisoblas h |
| | | migdori | | | | | | |
| 1 | - | bazis | bazis | bazis | bazis | A ₀ - Bazis | x | x |
| 2 | 1 | haq. | bazis | bazis | bazis | A ₁ - qayta hisoblangan | a | A ₁ – A ₀ |
| 3 | 2 | haq. | haq. | bazis | bazis | A ₂ - qayta hisoblangan | b | A ₂ – A ₁ |
| 4 | 3 | haq. | haq. | haq. | bazis | A ₃ - qayta hisoblangan | v | A ₃ – A ₂ |
| 5 | 4 | haq. | haq. | haq. | haq. | A ₄ -haqiqat | g | A ₄ – A ₃ |

Bizning misolimizda: $(A_1 - A_0) + (A_2 - A_1) + (A_3 - A_2) + (A_4 - A_3) = A_4 - A_0$

Mazkur xususiy ko'rsatkich ta'siri ostida umumlashtiruvchi ko'rsatkich o'zgarish miqdori hisoblash uchun qabul qilingan o'rin almashtirishlar ketma-ketligiga bog'liq bo'lib, u ixtiyorli bo'lishi mumkin emas, balki omillarning birgalikda ta'siri jarayonida o'zaro aloqadorlikning oldindan sifatli tahliliga asoslangan bo'lishi lozim.

Xususiy ko'rsatkichlarning bazis miqdorlarini haqiqiyisiga almashtirish ketma-ketligi haqida masalaning to'g'ri hal etilishi barcha xususiy ko'rsatkichlarni miqdor, tuzilma va sifat ko'rsatkichlariga ajratish imkonini beradi. Dastlab miqdor va tuzilmaning xususiy ko'rsatkichlari miqdori o'zgaradi, keyin esa sifat ko'rsatkichlarning o'rin almashtirish bajariladi. Biroq ko'pincha bir vaqtning o'zida bir emas, balki bir nechta miqdor va sifat ko'rsatkichlarning o'lchashga to'g'ri keladi. Bu holda o'rin almashtirishlar ketma-ketligini aniqlash uchun qaysi ko'rsatkich **asosiy**, boshqalariga bog'liq emas, qaysilari – hosila ekanligi aniqlanadi. Bunday holatlarda o'rin almashtirish asosiydan boshlanadi, keyin esa oldingisiga bog'liq keyingi ko'rsatkichni o'rin almashtirishga o'tiladi.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 210 page.

Masalan, mahsulot hajmining bazis davrdan og'ishiga (Q) ishchilar soni (Is), ish kunlari miqdori (Ik) va ish kunining o'rtacha davomiyligi (D) o'zgarishining ta'sirini aniqlash talab qilinadi. Mazkur holatda ishchilar soni asosiy miqdoriy ko'rsatkich hisoblanadi, ish kunlarining o'rtacha soni ularning ishga kelgan kunlari soniga, ish kunining o'rtacha davomiyligi esa ishchilar soni, ularning ishga kelgan kunlari va har bir ishchining ish kuni davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Bundan ikkinchi ko'rsatkich birinchisiga, uchinchisi esa – birinchi va ikkinchiga bog'liqligi kelib chiqadi. Hisoblash formulasida ushbu ko'rsatkichlarning miqdorlarini almashtirish (o'rinni almashtirish) mazkur miqdoriy ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi hisobga olingen holda amalga oshiriladi.

Hisob-kitobga bir ishchining o'rtacha soatlik ishlab chiqarishini (MU_s ning sifat ko'rsatkichi) ham kiritamiz. Ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqa quyidagi hisoblash formulasi bilan ifodalanadi:

$$Is \times Ik \times D \times MU_s = YaM$$

5-jadval

Mahsulot hajmini omilli tahlil qilish uchun ma'lumotlar

| Ko'rsatkich | Shartli belgi | Bazis davr | Hiso-bot davri | O'zgarish | |
|--|---------------|------------|----------------|-----------|-----------|
| | | | | mutlaq | nisbiy, % |
| 1. Taqqoslama narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi, mln. so'm. | YaM | 3750112 | 3889265 | 139153 | 3,71 |
| 2. Xodimlarning o'rtacha soni, kishi | Xs | 213 | 235 | 22 | 10,33 |
| 3. Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi, mln. so'm | Yi | 17606,16 | 16550,06 | -1056,10 | -6,00 |
| 4. Bir yilda bir ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdori | Ik | 270 | 276 | 6 | 2,22 |
| 5. Bir ishchining o'rtacha kunlik ishlab chiqarishi, ming so'm | MU_k | 65,21 | 59,96 | -5,24 | -8,04 |
| 6. Ish kunining o'rtacha davomiyligi, soat | D | 7,8 | 7,6 | -0,2 | -2,56 |
| 7. Bir ishchining o'rtacha soatlik ishlab chiqarishi, ming so'm | MU_s | 8,36 | 7,89 | -0,47 | -5,62 |

6-jadval

Zanjirli o'rinni almashtirish usulida mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'sirini hisoblash

| Tartib raqami | | O'zaro ta'sirlashuvchi xususiy ko'rsatkichlar | | | | Umumlashtiruvchi ko'rsatkichning o'zgarishi |
|---------------|----------------------|---|----|---|--------|---|
| Hisob-lash | O'rinni almashtirish | Xs | Ik | D | MU_s | |
| | | | | | | YiM |
| | | | | | | xususiy ko'rsatkichning ta'sirida |
| | | | | | | O'zgarishlarni hisoblash |

| | | | | | | | | |
|---|---|-------|-------|-------|-------|------------------------------------|-----|---------|
| 1 | - | bazis | bazis | bazis | bazis | A ₀ - Bazis | | |
| | | 213 | 270 | 7,8 | 8,36 | 3750112 | x | x |
| 2 | 1 | Haq. | bazis | bazis | bazis | A ₁ - qayta hisoblangan | Xs | A1 - A |
| | | 235 | 270 | 7,8 | 8,36 | 4137448 | | 387336 |
| 3 | 2 | Haq. | Haq. | bazis | bazis | A ₂ - qayta hisoblangan | Ik | A2 - A1 |
| | | 235 | 276 | 7,8 | 8,36 | 4229391 | | 91943 |
| 4 | 3 | Haq. | Haq. | Haq. | bazis | A ₃ - qayta hisoblangan | D | A3 - A2 |
| | | 235 | 276 | 7,6 | 8,36 | 4120945 | | -108446 |
| 5 | 4 | Haq. | Haq. | Haq. | Haq. | A ₄ -haqiqat | MUs | A4 - A3 |
| | | 235 | 276 | 7,6 | 7,89 | 3889265,04 | | -231680 |

Og'ishishlar balanssi: +387336+91943-108446-231680=+139153 ming so'm.

Analitik hisoblash to'g'ri amalgma oshirilgan, chunki xususiy ko'rsatkichlar miqdorining o'zgarishi ta'sirida og'ishishlarning yig'indisi umumlashtiruvchi ko'rsatkichning haqiqatdagisi bilan bazavisi farqiga teng. Hisoblashlar shuni ko'rsatmoqdaki, xodimlar sonining 22 kishiga ortishi hisobiga yalpi mahsulot hajmi 387336 ming so'mga, bir ishchining o'rtacha ish kunining 6 kunga ortishi hisobiga 91943 ming so'mga ko'paygan. O'rtacha ish kuni davomiyligining 0,2 soatga kamayishi hisobiga yalpi mahsulot hajmi 108446 ming so'mga, ishchining bir soatlik mehnat unumining 0,47 ming so'mga kmayishi hisobiga esa 231680 ming so'mga kamaygan. Barcha omillar ta'sirida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 139153 ming so'mga ortgan. Korxona rahbariyati tomonidan ish kuni davomiyligini nazoratini kuchaytirilsa hamda ishchilar malakasini oshirilsa mahsulot ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish imkoniyatidan to'liq foydalanilgan bo'lar edi. Bu erda -108446-231680=-340126 ming so'm foydalanilmagan ichki rezerv hisoblanadi.

2.6. Mutlaq farqlar usuli

Farqlar usuli, ya'ni xususiy ko'rsatkichlarning haqiqatdagisi va bazis miqdorlari o'rtasidagi farqni topish, keyin esa ushbu farqning umumlashtiruvchi ko'rsatkichning rejadan yoki boshqa bazadan og'ishga ta'sirini aniqlash – zanjirli o'rinni almashtirish usulining oldindan ma'lum texnik soddalashtirishdir. Farqlar (o'zgarishlar) ning umumiyligi og'ishga ta'siri zanjirli o'rinni almashtirishdagi kabi ketma-ketlikda aniqlanadi, lekin og'ishlar miqdori bevosita har bir hisoblash yakunida olinadi (oldindi hisoblash natijasi ayirib tashlanmagan holda). Ushbu ko'rsatkichning farqini hisoblashdan oldindi barcha ko'rsatkichlar to'liq haqiqatdagi miqdorda, keyingilarning barchasi esa bazis miqdorda hisoblash uchun kiritiladi.

$$U=x^*y$$

$$\Delta U_x = \Delta x * y_0 \\ \Delta U_y = \Delta y * x_1$$

$$U=x^*y^*z$$

$$\begin{aligned}\Delta U_x &= \Delta x^*y_0^*z_0 \\ \Delta U_y &= \Delta y^*x_1^*z_0 \\ \Delta U_z &= \Delta z^*x_1^*y_1\end{aligned}$$

$$U=x^*y^*z^*q$$

$$\begin{aligned}\Delta U_x &= \Delta x^*y_0^*z_0^*q_0 \\ \Delta U_y &= \Delta y^*x_1^*z_0^*q_0 \\ \Delta U_z &= \Delta z^*x_1^*y_1^*q_0 \\ \Delta U_q &= \Delta q^*x_1^*y_1^*z_1\end{aligned}$$

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y + \Delta U_z + \Delta U_q$$

Masalan, mahsulot hajmiga yuqorida ko'rib chiqilgan xususiy ko'rsatkichlarning bazis miqdordan og'ishi ta'sirini quyidagi tarzda darhol topish mumkin:

1. Ishchilar soni ortishining ta'siri

$$\Delta Y_a M_{xs} = \Delta X_s \times I_k_0 \times D_0 \times M_{u,s_0} = (+22) \times 270 \times 7,8 \times 8,36 = +387336 \text{ m.s.}$$

2. Yiliga bir ishchi ish kunlari miqdorining ortishi ta'siri

$$\Delta Y_a M_{Ik} = \Delta I_k \times X_s \times D_0 \times M_{u,s_0} = (+6) \times 235 \times 7,8 \times 8,36 = +91943 \text{ m.s.}$$

3. Ish vaqtining o'rtacha davomiyligi kamayishi ta'siri

$$\Delta Y_a M_D = \Delta D \times X_s \times I_k \times M_{u,s_0} = (-0,2) \times 235 \times 276 \times 8,36 = -108446 \text{ m.s.}$$

4. O'rtacha soatlik mehnat unumining pasayishining ta'siri

$$\Delta Y_a M_{Mus} = \Delta M_s \times X_s \times I_k \times D_1 = (-0,47) \times 235 \times 276 \times 7,6 = -231680 \text{ m.s.}$$

Ko'ramizki, mutlaq farqlar usuli yordamida zanjirli o'rin almashtirish usulini qo'llashdagi kabi natijalar olinadi. Bu erda alohida omillar hisobiga natijaviy ko'rsatkich o'sishining algebraik miqdori uning umumiyo o'sishiga tenglashishini kuzatib borish zarur.

2.7. Nisbiy farqlar usuli

Ushbu usul faqatgina multiplikativ modellarda natijaviy ko'rsatkich o'sishiga omillar ta'sirini o'lhash uchun qo'llaniladi. Bu erda koeffitsientlar yoki foizlar ko'rinishida ifodalangan omilli ko'rsatkichlarning nisbiy o'sishlari qo'llaniladi.

$U=xyz$ turidagi multiplikativ modellar uchun mazkur usulda omillar ta'sirini hisoblash metodikasini ko'rib chiqamiz.

Natijaviy

$$U=x^*y$$

$$\Delta U_x = U_0 * \Delta x / x_0$$

$$\Delta U_y = (U_0 + \Delta U_x) * \Delta y / y_0$$

$$U=x^*y^*z$$

$$\Delta U_z = (U_0 + \Delta U_x + \Delta U_y) * \Delta z / z_0$$

$$U=x^*y^*z^*q \quad \Delta U_q = (U_0 + \Delta U_x + \Delta U_y + \Delta U_z) * \Delta q / q_0$$

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y + \Delta U_z + \Delta U_q$$

Ushbu qoidaga muvofiq birinchi omil ta'sirini hisoblash uchun natijaviy ko'rsatkichning bazaviy miqdorini o'nlik kasrda ifodalangan birinchi omilning nisbiy o'sishiga ko'paytirish zarur.

Ikkinchchi omilning ta'sirini hisoblash uchun natijaviy ko'rsatkichning bazaviy miqdoriga uning birinchi omil hisobiga o'zgarishini qo'shish lozim, keyin esa hosil bo'lgan miqdor ikkinchi omilning nisbiy o'sishiga ko'paytiriladi.

Uchinchi omilning ta'siri ham shunga o'xshash aniqlanadi: natijaviy ko'rsatkichning bazaviy miqdoriga uning birinchi va ikkinchi omil hisobiga o'sishini qo'shish va hosil bo'lgan miqdorni uchinchi omilning nisbiy o'sishiga ko'paytirish lozim.

Ko'rib chiqilgan metodikani 2.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda mustahkamlaymiz.

$$\Delta Y_a M_{xs} = Y_a M_0 \times \Delta X_s / X_{s_0} = 3750112 \times 22/213 = +387336 \text{ m.s.}$$

$$\Delta Y_a M_{Ik} = (Y_a M_0 + \Delta Y_a M_{xs}) \times \Delta I_k / I_{k_0} = (3750112 + 387336) \times 6/270 = +91943 \text{ m.s.}$$

$$\Delta Y_a M_D = (Y_a M_0 + \Delta Y_a M_{xs} + \Delta Y_a M_{Ik}) \times \Delta D / D_0 = (3750112 + 387336 + 91943) \times (-0,2) / 7,8 = -108446 \text{ m.s.}$$

$$\Delta Y_a M_{Mus} = (Y_a M_0 + \Delta Y_a M_{xs} + \Delta Y_a M_{Ik} + \Delta Y_a M_D) \times \Delta M_s / M_{u,s_0} = (3750112 + 387336 + 91943 - 108446) \times (-0,47) / 8,36 = -231680 \text{ m.s.}$$

Ko'rinib turibdiki, hisoblash natijalari oldingi usullardan foydalangan holda olingan natijalar bilan bir xil.

Agar ko'p sonli (8, 10 va undan ortiq) omillar ta'sirini hisoblash talab qilinsa, nisbiy farqlar usulini qo'llash qulay sanaladi. Oldingi usullardan farqli ravishda bu erda hisoblash amallari miqdori sezilarli darajada qisqaradi, bu esa uning afzalligini belgilab beradi.

2.9. Korrelyatsion tahlil usullari

Agar ko'rsatkichlar o'tasidagi aloqa qat'iy determinatsiyalangan bo'lmasa, u holda u korrelyatsion hisoblanadi. Korrelyatsion bog'lanish - bu shunday to'liqsiz bog'lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makon sharoitlarida natijaning har xil qiymatlari mos keladi. Bu holda omillar to'liq soni noma'lumdir.¹

U shunisi bilan tafsiflanadiki, o'rganilayotgan asosiy omillar bilan birga natijaviy ko'rsatkichga asosiy ta'sirini buzib ko'rsatuvchi qo'shimcha omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition. K.R. Subramanyam University of Souther 250 page.

Korrelyatsion metodni qo'llashning majburiy sharti tendentsiya va rivojlanish qonuniyatini aniqlashga imkon beruvchi o'rganilayotgan ko'rsatkichlar qiymatlarining ommaviyligi hisoblanadi. Natijaviy ko'rsatkich va omillar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli tadqiqot uchun ko'p sonli kuzatishlardan foydalanilgan holatdagina aniqlanadi. Bunda katta sonlar qonuniga muvofiq boshqa omillar ta'siri silliqlashadi, neytrallashadi. Korrelyatsiya juft va ko'plikda bo'lishi mumkin.

Juft korrelyatsiya – ikki ko'rsatkich o'rtasidagi aloqa, ulardan biri omil, boshqasi natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi.

Ko'plikdagi korrelyatsiya – bir necha omil va bitta natijaviy ko'rsatkich o'rtasidagi aloqa.

Korrelyatsion tahlil ikki vazifani hal qilishga yo'naltirilgan:

- Bog'liqlikning zichligini aniqlash;
- Omillarning natijaviy ko'rsatkichiga ta'sirini miqdoriy baholash.

Hodisalar o'rtasida bog'liqlikning zichligi korrelyatsion munosabat bilan o'lchanadi.

Korrelyatsion nisbatning turli qiymatlarida aloqalar uzviyigini sifat jihatidan baholash

| Korrelyatsion nisbat miqdori | 0,1-0,3 | 0,3-0,5 | 0,5-0,7 | 0,7-0,9 | 0,9-0,99 |
|------------------------------|---------|----------|------------|---------|--------------|
| Aloqa uzviyigli | Kuchsiz | Sezilsiz | Sezilar-li | Yuqori | Ancha yuqori |

To'g'ri chiziqli bog'lanishda korrelyatsion munosabat korrelyatsiya koeffitsienti deb ataladi va r harfi bilan belgilanadi. Korrelyatsion munosabat (korrelyatsiya koeffitsienti) 0 dan 1 gacha qiymat qabul qiladi:

Agar $r = 0$, u holda ko'rsatkichlar o'rtasida aloqa mavjud emas;

u holda $r = 1$, u holda aloqa – funktsional;

Agar $r =$ manfiy miqdor, u holda ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqa teskar.

1-jadval

Mahsulot tannarxi va material surʼaf-xarajatlar aloqasi uzviyigini ko'rib chiqamiz

| Tsex | Mahsulot birligi tannarxi, so'm X_1 | Mahsulot birligiga material surʼaf-xarajatlar, so'm X_2 | X_1^2 | X_2^2 | $X_1^2 \cdot X_2^2$ |
|------------|--|--|-----------------------|----------------------|------------------------|
| 1. | 254 | 56 | 64516 | 3136 | 14224 |
| 2. | 230 | 50 | 52900 | 2500 | 11500 |
| 3. | 241 | 54 | 58081 | 2916 | 13014 |
| 4. | 251 | 56 | 63001 | 3136 | 14056 |
| 5. | 264 | 60 | 69696 | 3600 | 15840 |
| 6. | 270 | 62 | 72900 | 3844 | 16740 |
| n=6 | $\sum X_1 = 1510$ | $\sum X_2 = 338$ | $\sum X_1^2 = 381094$ | $\sum X_2^2 = 19132$ | $\sum X_1 X_2 = 85374$ |

Ko'rsatkichlar uzviyigli koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$r = \frac{\bar{X}_1 \bar{X}_2 - \bar{x}_1 \cdot \bar{x}_2}{\lambda X_1 \lambda X_2}$$

bu erda, 1. $X_1 X_2 = \sum X_1 X_2 / n = 85374 / 6 = 14229$

2. $\bar{X}_1 = \sum X_1 / n = 1510 / 6 = 251,667$

3. $\bar{X}_2 = \sum X_2 / n = 338 / 6 = 56,33$

4. $\lambda X_1 = \sqrt{\sum X_1^2 / n - \bar{X}_1^2} = \sqrt{381094 / 6 - 251,667^2} = 13,4$

5. $\lambda X_2 = \sqrt[n]{\sum X_2^2 / n - \bar{X}_2^2} = \sqrt[6]{19132 / 6 - 56,33^2} = 4,0$

$$r = \frac{\bar{X}_1 \bar{X}_2 - \bar{x}_1 \cdot \bar{x}_2}{\lambda X_1 \lambda X_2} = (14229 - 251,667 \cdot 56,33) / 13,4 \cdot 4,0 = 0,98$$

Hisoblash natijasi ko'rsatadi, mahsulot birligining tannarxi 98% moddiy xarajatlariga bog'liq, boshqa omillar ulushiga esa uning darajasi o'zgarishining 2% to'g'ri keladi.

2. Integral usul va uning moliyaviy tahlilda qo'llanishi

Mazkur usul zanjirli o'rin almashtirish usuliga xos kamchiliklarni chetlab o'tishga imkon beradi va omillar bo'yicha bo'linmas qoldiqni taqsimlash bo'yicha usullar qo'llanilishini talab qilmaydi, chunki unda omilli yuklamalar qayta taqsimlanishining logarifmik qonuniyati amal qiladi.

Integral usul omillar bo'yicha natijaviy ko'rsatkich og'ishlarini to'liq bo'linishiga erishish imkonini beradi va universal xarakterga ega.

Universal hisoblash vositalari mavjud bo'lmagan holatda integratsiyalash jarayonlarini bajarish natijasi hisoblanuvchi omillar ta'sirini hisoblash formulasini qo'llash, shuningdek, hisoblash uchun oldindan shakllantirilgan ishchi formulalardan foydalanish mumkin.¹

Multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblash formulari:

$$U = x^*y$$

$$\Delta U_x = \Delta x * y_0 + \Delta x * \Delta y / 2$$

$$\Delta U_y = \Delta y * x_0 + \Delta x * \Delta y / 2$$

$$U =$$

$$\Delta U_x = 1/2 \Delta x * (y_1 * z_0 + y_0 * z_1) + \Delta x * \Delta y * \Delta z / 3$$

$$\Delta U_y = 1/2 \Delta y * (x_1 * z_0 + x_0 * z_1) + \Delta x * \Delta y * \Delta z / 3$$

$$\Delta U_z = 1/2 \Delta z * (x_1 * y_0 + x_0 * y_1) + \Delta x * \Delta y * \Delta z / 3$$

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 198 page.

$$\begin{aligned}
 U &= \frac{\Delta U_x}{x * y * z * q} = \frac{1}{6} \Delta x * [3q_0 * y_0 * z_0 + y_1 * q_0(z_1 + \Delta z) + q_1 * z_0(y_1 + \Delta y) + z_1 * y_0(q_1 + \Delta q)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4 \\
 \Delta U_y &= \frac{1}{6} \Delta y * [3q_0 * x_0 * z_0 + x_1 * q_0(z_1 + \Delta z) + q_1 * z_0(x_1 + \Delta x) + z_1 * x_0(q_1 + \Delta q)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4 \\
 \Delta U_z &= \frac{1}{6} \Delta z * [3q_0 * x_0 * y_0 + x_0 * q_1(y_1 + \Delta y) + y_1 * q_0(x_1 + \Delta x) + x_1 * y_0(q_1 + \Delta q)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4 \\
 \Delta U_q &= \frac{1}{6} \Delta q * [3z_0 * x_0 * y_0 + x_0 * z_1(y_1 + \Delta y) + y_1 * z_0(x_1 + \Delta x) + x_1 * y_0(z_1 + \Delta z)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4
 \end{aligned}$$

Demak, ko'rib turganimizdek, integral usuli - biron bir ko'rsatkichga omillar ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi. Xo'jalik faoliyatini o'rganishda vogelikni tashkil etuvchi omillar va ularga ta'sir etuvchi sabablar o'zgarib turadi. Tahsilil jarayonida ularning bir-biri bilan bog'lilikda ekanligi e'tiborga olinishi lozim. Iqtisodiy hodisalarni o'rganish va ularga baho berishda ko'rsatkichning o'zgarishiga ikkita va undan ortiq omillarni ta'sir etishini hisoblashda integral usuli ko'proq qo'llaniladi. Bu usulning mazmunini quyidagi misol orqali ko'rib chiqamiz (2.8-jadval). Jadval ma'lumotlari asosida mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'sirini integral usuli yordamida aniqlaymiz.

2-jadval

Mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'sirining tahlili

| Nº | Ko'rsatkichlar | Belgi | Biznes reja | Xaqiqat | Farqi (+;-) |
|----|---|-------|-------------|---------|-------------|
| 1 | Xodimlarning ro'yxtarbo'yicha o'rtacha soni, kishi | X | 100 | 110 | +10 |
| 2 | Har bir xodimga to'g'ri keladigan ish kuni, kun | K | 280 | 275 | -5 |
| 3 | Xodimlarning o'rtacha bir kunlik mehnat unumdarligi, so'm | Mu | 17500 | 18100 | +600 |
| 4 | Mahsulot hajmi, ming so'm | Mh | 490000 | 547525 | +57525 |

$$Mx = X * K * My$$

$$\begin{aligned}
 \Delta Mx_X &= \frac{1}{2} \Delta X * (K_1 * My_0 + K_0 * My_1) + \frac{1}{3} \Delta X * \Delta K * \Delta My = \frac{10}{2} * (275 * 17500 + 280 * 18100) + \\
 &+ \frac{1}{3} * 10 * (-5) * 600 = 49392,5 \\
 \Delta Mx_K &= \frac{1}{2} \Delta K * (X_1 * My_0 + X_0 * My_1) + \frac{1}{3} \Delta X * \Delta K * \Delta My = \frac{(-5)}{2} * (100 * 17500 + 110 * 18100) + \\
 &+ \frac{1}{3} * 10 * (-5) * 600 = -9347,5
 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
 \Delta Mx_{My} &= \frac{1}{2} \Delta My * (X_1 * K_0 + X_0 * K_1) + \frac{1}{3} \Delta X * \Delta K * \Delta My = \frac{600}{2} * (110 * 280 + 100 * 275) + \\
 &+ \frac{1}{3} * 10 * (-5) * 600 = 17480 \\
 \Delta Mx &= \Delta Mx_X + \Delta Mx_K + \Delta Mx_{My} = 49392,5 - 9347,5 + 17480 = 57525
 \end{aligned}$$

O'rganilayotgan korxonada xodimlarning ro'yxtatdagi o'rtacha sonining 10 kishiga ortishi mahsulot hajmining 49392,5 ming so'mga o'sishiga olib kelgan. O'rtacha ish kunlarining rejaga nisbatan 5 kunga qisqarishi mahsulot hajmining 9347,5 ming so'mga qisqarishiga olib kelgan. Shunga qaramasdan, xodimlarning bir kunlik mehnat unumining 600 so'mga oshishi hisobiga mahsulot hajmi 17480 ming so'mga ko'paygan. Har uchala omil ta'sirida mahsulot hajmi 57525 ming so'mga oshganligini ijobjiy baholash mumkin. Yo'qotilgan ish kunlari korxona tomonidan foydalanimagan ichki imkoniyat sifatida qaraladi.

Karrali va aralash modellarda omillar ta'sirini hisoblash formulasi:

$$U = x / y$$

$$\begin{aligned}
 \Delta U_x &= \Delta x / \Delta y * \ln y_1 / y_0 \\
 \Delta U_y &= \Delta U - \Delta U_x
 \end{aligned}$$

$$U = x / (y+z)$$

$$\begin{aligned}
 \Delta U_x &= [\Delta x / (\Delta y + \Delta z)] * \ln (y_1 + z_1) / (y_0 + z_0) \\
 \Delta U_y &= [(\Delta U - \Delta U_x) / (\Delta y + \Delta z)] * \Delta y \\
 \Delta U_z &= [(\Delta U - \Delta U_x) / (\Delta y + \Delta z)] * \Delta z
 \end{aligned}$$

Usulning muhim xususiyati shundaki, u omillar tizimi modeliga kiruvchi elementlar miqdori va ularning o'rtasidagi aloqa shaklidan qat'iy nazar turli vazifalarini echish uchun umumiy yondashuvni yuzaga keltiradi.

Nazorat savollari:

1. Ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirishning asosiy usullarini sanab bering.
2. Nisbiy miqdorlarning asosiy turlarini tavsiflang.
3. O'rtacha miqdorning keng tarqalgan ko'rinishlarini ayting.
4. Tipologik, tuzilmaviy va analitik guruhlash nimaga mo'ljallangan?
5. Moliyaviy tahlilda balans usuli nima maqsadda qo'llaniladi?
6. Zanjirli o'rin almashtirish, mutlaq farqlar, nisbiy farqlar, integral usullari mohiyati, qo'llanish sohasi va ularda hisoblash jarayonlarini tavsiflang.
7. Integral usul afzalliklarini tavsiflang.

4-bob. MOLIYAVIY TAHLIL TURLARI, SHAKLLARI VA ULARNING AXBOROT MANBALARI

Reja:

1. Moliyaviy tahlilning turlari va ularning tasniflanishi
2. Boshqarish tizimi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari
3. O'zaro bog'langan obyektlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari
4. Boshqarish masshtabi va darajasi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari
5. Moliyaviy tahlil jarayonida foydalaniadigan axborot manbalari
6. Tahlilda foydalaniadigan axborot manbalarining to'g'riligini tekshirish usullari

Tayanch so'zlar:

Tahlil turlarini turkumlash, funktsiyalar, Joriy tahlil vazifalari, tezkor tahlil, texnik-moliyaviy tahlil, moliya-moliyaviy tahlil, funksional qiyamat tahlili.

1. Moliyaviy tahlilning turlari va ularning tasniflanishi

Tahlil turlarini turkumlash – ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirishga, eng muhim tomonlarini aniqlashga hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyat ochib beradi. Tahlilning barcha turlari o'z belgilariga qarab ma'lum guruhlarga umumlashtiriladi. Bunday guruhlashgan belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin: tahlilning vazifalari, uni o'tkazish muddati, qabul qilinadigan qarorlarning xarakteri, korxonalar faoliyatini o'rganishning asosiy tomonlari, rezervlarni aniqlash usullari, o'rganiladigan obhekt, tahlil qiluvchi subhekt, o'rganiladigan hodisalarning ko'lami, axborotlarni qayta ishslash usullari kabilar. Barcha turdag'i tahlilning turlari ularning bajargan vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga umumlashtiriladi: biznes-rejaning tig'izligi va asoslanganligini baholash va uning bajarilishini nazorat qilish, erishiladigan natijalarni bashorat qilish ya'ni oldindan aytib berish, erishilgan natijalarga obyektiv baho berish va shu maqsadda korxona faoliyatiga bog'liq va bog'liq bo'lmagan sabablarni aniq belgilash, ichki xo'jalik hisobi yakunimi o'tkazish, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, kelgusida rejashtirish uchun asos (baza)ni aniqlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahlili variantlarni tayyorlash.

Ishlab chiqarishni moliyaviy tahlil qilishni umumiylar tarzda quyidagi chizmada keltirilganday ifodalash mumkin (1-rasm).


Moliyaviy tahlil turlarini turkumlash asosida boshqarish funktsiyalarini turkumlash yotadi, chunki, moliyaviy tahlil iqtisodiyotni boshqarishni har bir funktsiyasini amalga oshirishning ajralmas elementi bo'lib hisoblanadi. Umuman olganda boshqarishning fuktsiyalarini ikkita katta guruhgaga bo'lishimiz mumkin: umumiylar va maxsus (spetsifik) funktsiya. Bu bog'liqlilik shundan iboratki umumiylar funktsiyalar o'z holicha amal qila olmaydi; har qanday maxsus funktsiya esa faqatgina umumiylar yordamidagi amalga oshiriladi.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish o'zining tamoyillari va funktsiyalariga tayanadi. Boshqarish faoliyatini amalga oshirish quyidagi funktsiyalarga tayangan holda amalga oshiriladi:

- ♦ boshqarishni axborot bilan ta'minlash (to'plash, qayta ishslash, iqtisodiy

voqe va hodisalar tug'risidagi axborotlarni tartibga solish);


- ♦ moliyaviy tahlil qilish;
- ♦ rejashtirish va prognozlash (iqtisodiy hodisalarni joriy va istiqbolli rejashtirish);
- ♦ muvofiqlashtirish;
- ♦ tashkil qilish;
- ♦ hisobga olish;
- ♦ nazorat qilish (rejalarni va boshqarishga oid qarorlarni amalga oshirilishini nazorat qilish).



1-rasm. Iqtisodiyot sohalari nuqtai-nazaridan moliyaviy tahlilning turkumlanishi

1 va 2 funktsiyalar boshqarishni texnologik bosqichlarini aks ettiradi, ya'ni qarorlar qabul qilish jarayonini axborot va moliyaviy tahlil bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, boshqarishning boshqa funktsiyalarini amalga oshirishda ham moliyaviy tahlilning alohida o'rni bor. Masalan, rejashtirish funktsiyasini olaylik. Kelgusi davrga reja tuzish uchun korxona faoliyatining o'tgan yillardini atroficha tahlil qilish va shu asosda uning rivojlanish tendentsiyasini aniqlab olish zarur. Rivojlanish tendentsiyasi va kelgusida iqtisodiy ko'rsatkichlarda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ham hisobga olgan holda uning faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni kelgusi qiyamatlari shakllantiriladi. Xuddi shuningdek, boshqarishning muvofiqlashtirish, tashkil qilish va nazorat funtsiyalari ham moliyaviy tahlil bilan bevosita bog'liq.

Ishlab chiqarishni boshqarish nuqtai nazaridan moliyaviy tahlil turlarini qo'yidagi chizmada tasvirlash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan iqtisodiy taxlining turkumlanishi

Bundan tashqari iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy tahlilning turlari qo'yidagilarga qarab ham turkumlanadi;

- 1) Halk xujaligini tarmok strukturasi (sanoat va uni tarmoklari, qishloq xo'jalik, kurilish, transport, savdo, moddiy-texnika ta'minoti va boshqalar);
- 2) Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichlari tahlili (ishlab chiqarish, iste'mol, taksimot va ayriboshlash jarayonlarini tahlili);
- 3) Tahlilni o'tkazuvchi subyekti bo'yicha, ya'ni tahlilni kim tomonidan o'tkazilayotganligiga karab (iqtisodiy xizmat xodimlari, korxonani ijtimoiy tashkilotlari, moliya, kredit organlari, auditorlik tashkilotlari, kasaba kumita va ijtimoiy tashkilotlar);

4) Tahlil o'tkazish muddati bo'yicha (yillik, kvartallik, oylik, dekadlik, kunlik, smenalik va bir martalik tahlil);

5) o'rganiladigan masalalarning mazmuni va mukamalligi bo'yicha (xajalik faoliyatini kompleks tahlili va tematik tahlili);

6) obyektni o'rganish usuliga karab (kompleks, tizimli tahlil, taqqoslama, tanlanma, korrelyatsion tahlil va boshqalar).

Korxonalar faoliyatini kompleks tahlil qilish ularni faqat gina iqtisodiy faoliyatini tahlil kilmasdan, ularni texnik, ijtimoiy, tabiiy sharoitlari va ularni o'zaro aloqasini ham tahlil qilib berishi lozim.

2. Boshqarish tizimi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari

Xo'jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili. Korxonalarning amaliy faoliyatida asosan joriy tahlil o'tkazish usuli to'la ishlab chiqilgan. Joriy tahlil korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda rasmiy jihatdan qabul qilingan hisobotga tayangan holda ularning oylik, kvartallik, yillik va qator yillar tahlil qilinadi.

Joriy tahlilning asosiy vazifasi xo'jalik faoliyatida erishilgan natijalarga obyektiv baho berish, foydalanimagan ichki xo'jalik rezervlarini kompleks tarzda aniqlash va ularni kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalg etish ishda yo'l qo'yilgan kamchilik va ularni aybdorlarini topish, moddiy va ma'naviy ragbatlanirishni tashkil etishdan hisoblanadi.

Joriy tahlilning keng ko'lamma qo'llanishining asosiy sabablari, deb qo'yidagilarni hisoblash mumkin:

1. Tahlilning barcha vazifalari biznes-rejaning tig'izligi va asoslanganligi, uning bajarilishini nazorat qilish, xo'jalik faoliyatida erishiladigan natijalarni oldindan aytib berish, mehnat, moddiy va moliya resurslaridan samarali foydalanish va hokazolar joriy tahlil zimmasiga tushadi;

2. Joriy tahlilning keng ko'lamma qo'llanilishiga barcha korxonalarning tasdiqlangan yagona hisobot shaqlariga asosan yuqori tashkilot, statistika, moliya va soliq organlari, davlat bankiga hisobot topshirish vazifasining zarurligi;

3. Joriy tahlilning bajariladigan tahliliy ishlarda to'tgan salmog'i 90 foizni tashkil qiladi, chunki dastlabki va tezkor tahlilni o'tkazish usuli hali to'la ishlab chiqilmagan;

4. Joriy tahlilda korxonaning xo'jalik faoliyati chuqr, har tomonlama o'tkaziladi, chunki tahliliy xodimning ixtiriyororda barcha axborotlar manbai muhayyo;

5. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish tarixan joriy tahlildan boshlangan;

6. Iqtisodiy oly o'quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash ham joriy tahlil asosida olib boriladi.

Joriy tahlil uchun asosiy axborotlar manbai bo'lib - oylik, kvartallik, yillik reja va hisobotlar hisoblanadi.

Joriy tahlilning subyekti - korxonaning iqtisodiy bo'limlari, yuqori tashkilot, moliya, soliq va statistika organlari, davlat banki hisoblanadi. Joriy tahlilning obyekti-korxonalar, ularning filiallari, boshqarmalar va vazirliklardir.

Joriy tahlilning dastlabki va tezkor tahlildan ustunligi shundaki, uni o'tkazishda axborotlar tizimi sistemali va kompleks xarakterga ega bo'lib, rasmiy jihatdan qabul qilgingan buxgalteriya va statistika hisobotlariga asoslanadi.¹

Bu tahlilni asosiy kamchiligi shundan iboratki, aniqlangan xato, kamchiliklar va foydalanimagan imkoniyatlarni korxonalar uchun butunlay yo'qotilgan hisoblanadi, chunki ular xo'jalik faoliyatini o'tgan davriga bog'liqidir. Biz bu imkoniyatlarni faqat gina kelgusidagi ishlarinimizni amalga oshirish jarayonida hisobga olishimiz mumkin holos. Shuning uchun ham tahlilni imkoniyatlarni oshirish va ularni vaqtida ishga solish uchun hisobotlarni takdim qilish va ularni tahlil qilish vaqtini kiskartirish vazifasi qo'yiladi.

Joriy ta'lilni korxonani barcha xodimlari tomonidan, shuningdek tsexlari va boshqa bulinmalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Natijada korxonani yillik faoliyatiga yakun yasaladi, kamchiliklar aniqlanadi va korxona faoliyatini yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tahlil korxona xo'jalik faoliyatini tula tahlili bo'lib hisoblanadi, chunki u o'zida tezkor tahlil natijalarini mujassamlashtiradi va istikbolli tahlil uchun baza hisoblanadi.

Tezkor tahlil. Bu tahlil moliyaviy tahlilni turlaridan biri bo'lib, xo'jalik tizimini tezkor boshqarish uchun lozim buladigan mosalalarni xal qilishga karatilgandir. U korxonaning xo'jalik faoliyatini boshqarishda shu kundagi ishlab chiqarish jarayonini tezkor tarzda boshqarishda qo'llaniladi. Bu qisqa muddatli tahlil bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida ro'y bergan chetga chiqishlarni tezkorlik bilan aniqlab, uni bartaraf qilish chora - tadbirlarini ko'radi.¹

Tezkor tahlilning *asosiy vazifasi* topshiriqlarni muntazam nazorat qilish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonini kunda aniqlash, shu kundagi ishlab chiqarish rezervlarini o'z vaqtida aniqlash va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb qilish hisoblanadi. Tezkor tahlil boshqaruv tizimida boshqaruv xodimlarining taxminan 50 foiz ish vaqtini egallaydi. Amalda esa uning umumiy bajariladigan tahliliy ishlarda to'tgan salmogi 10 foizni tashkil etadi. Tezkor tahlil joriy tahlildan farqli o'laroq u asosan boshlangich mahlumatlarga asoslanadi.

Tezkor tahlil o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- korxonaning asosiy miqdor va sifat ko'satkichlari bo'yicha hamda uning bo'linmlari smenada, sutkada, besh kunlikda va dekadalardan chetga chiqishini aniqlash;
- mehyordan chiqishga tafsir qiluvchi omillarni aniqlash;
- kamchiliklarga yo'l qo'ygan javobgar shaxslarni aniqlash;
- salbiy omillarni bartaraf qilish uchun tadbirlar ishlab chiqish;
- ko'rsatilgan vaqtda erishilgan natijalarini yakunlash va «Tor» joy va ilg'or bo'g'lnarni aniqlash.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 316 page.

² Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51page.

Tezkor tahlil odatda quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha olib boriladi: mahsulotni ishlab chiqarish, jo'natish va sotish, ishchi kuchidan foydalanish, asbob-uskun va moddiy resurslardan foydalanish, tannarx, foyda va rentabellik, to'lov qobiliyati. Demak, joriy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar soni tezkor tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlardan ancha ko'pdir. Tezkor tahlilning natijasi joriy tahlilga nisbatan unchalik aniq bo'lmaydi. Chunki oyning xohlagan kunida ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va mahsulot tannarxining pasayishi natijasida olingan foyda mijqorini aniq hisoblab chiqish mumkin emas, chunki oldindan mahsulotning qancha qismi shu oyda sotiladi, qancha qismi esa kelgusi oyda sotilishini aniq hisoblab bo'lmaydi. Lyokin tezkor tahlilning bu kamchiligi uning ahamiyatini kamaytirmaydi, zero, tezkor tahlil orqali olingan natijalarning mutlaq aniqligidan ko'ra uni o'z vaqtida olish ahamiyatliroqdir.

Bunday ta'lilni o'tkazish uchun ma'lumot manbalari bo'lib, boshlangich xujjalalar, buxgalteriya va tezkor texnik hisob ma'lumotlari, uning shaxsiy ko'zatish natijalari hisoblanadi. Bu xujjalarda iqtisodiy ko'rsatkichlar kuprok natural holda beriladi. Tahlilni natura ko'rsatkichida amalga oshirilishi tezkor tahlilning xarakterli xususiyati bo'lib hisoblanadi.

Istiqbol tahlili. Istiqbol tahlili, deganda xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish, bo'ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt biznes-rejani to'zish uchun o'z faoliyatini nima bilan yakunlashi to'grisida aniq tushuncha va ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili, ham deb atamoqdalar.

Istiqbol tahlilini asosiy vazifalarini bo'lib kuidagilar hisoblanadi:

- 1) xo'jalik faoliyatini bashorat qilish;
- 2) istikbol rejalarini ilmiy asoslash;
- 3) ularni bajarilishi ustidan nazorat qilish va baholash.

Korxonani asosiy vazifasi xalk xo'jalik uchun xozirgi kundagi eng zarur ma'sulotlarni keraqli mikdorda va sifatlari qilib ishlab chiqishdir. Xalk xujaligi uchun lozim bulgan hajmdagi va turdag'i mahsulotni aniqlash uchun: shu mahsulotga bulgan extej; korxonani shu ma'sulotni ishlab chiqarish imkoniyati; shu turdag'i ma'sulot ishlab chiqarishdagi boshqa korxonalar imkoniyati; mol yetkazib beruvchilarni imkoniyatlari va boshqalarni o'rganish kerak.

3. O'zarobog'langan obyektlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari

Texnik-moliyaviy tahlil. Ushbu tahlil kompleks moliyaviy tahlil va muhandislik tahlilning birikishi asosida hosil bo'lgan. Texnika-moliyaviy tahlil 3 yo'nalishda olib boriladi:

- ishlab chiqarishning texnik darajasini tahlil qilish;
- shlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruvni tahlil qilish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish.

Korxonaning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish darajasini, ilg'or texnologiya jarayonlarini joriy

qilish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, qo'1 mehnatini to'la mexanizatsiyalash, zamonaviy lash-tirish kabi masalalar kiradi.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv masalalarini tahlil qilish jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv shaqlarining progres-sivligi (ilg'orligi), boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv shaqlarining ilg'orligi, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv apparatini qisqartirish kabi yechimlar hal etiladi.

Mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida istehmolchi-lar talablarini hisobga oлган holda yuqori sifatlari mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va uni ishlab chiqarish chog'ida har tomonlama hisobga oлish kerak. Bu masalani ijobjiy hal qilishda FQT asqotadi. FQT – obhektni (mahsulot) texnologik va mehnat jarayonlari tizimli tarzda tadqiq qilib, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqadi. Ushbu tahlil usuli ushbu ma'ro'zalar kursida alohida bob sifatida kurib chiqiladi.

Moliya-moliyaviy tahlil. Ushbu tahlilning mohiyati umumiy qiymat ko'rsatkichlar tizimini o'рганиш ва korxonalarning moliyaviy faoliyati natijalarini tahlil qilish bilan ifodalanadi. Umumlashgan qiymat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: sotish bo'yicha rejaning shartnomasi majburiyatini ado etgan holda bajarilishi, tovar mahsuloti, bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumi, mahsulot tannarxi, foya va shu kabilalar. Tahlil qilish jarayonida ana shu qiymat ko'rsatkichlar batafsillashtiriladi. Masalan, mahsulot hajmi-taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan, ularni ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bo'yicha, mahsulotning sifati kabilalar. Mahsulot tannarxi ko'rsatkichi umuman va ularning unsurlari va kal qo'lyatsiya moddalari bo'yicha belgilangan biznes-rejaning bajarilishiga tafsir qiluvchi omillar batafsil tahlil qilinadi. Umumlashgan mehnat unumdonligi ko'rsatkichi (bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumi) bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik, kunlik va soatlik ish unumini o'z ichiga oladi.

Moliya-moliyaviy tahlilga xos muhim xususiyatlardan biri - bu asosiy axborot olish manbalari. Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shaqlaridan qo'llanilish hisoblanadi.

Shunday qilib, moliya-moliyaviy tahlilning predmeti korxonalar xo'jalik faoliyatining turli tomonlari, xo'jalik yuritish jarayoni, iqtisodiy ko'rsatkichlarning bir-biri bilan sababli bog'lanishi hisoblanadi.

Moliya-moliyaviy tahlilning subhetki - bu korxona, vazirlik, boshqarma, moliya-kredit idoralari va statistika organlarining iqtisodiy bo'linmalari hisoblanadi.

Shu bilan birga korxona tahlilning obhekti ham hisoblanib, ularning faoliyati yuqori tashkilot, moliya-kredit va statistika organlari tomonidan o'рганилди. Masalan, moliya organlari korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy ehtiborni biznes-rejaning bajarilishi, aylanma mablag'larning holati, foya bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi, davlat byudjetiga tushadigan to'lov majburiyatining bajarilishiga qaratadilar. Kredit tizimi esa korxonalar o'z aylanma mablag'lari holatini, olingen kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan tahminlanganligini, to'lov intizomining bajarilishi kabi masalalarga qaratadi.

O'рганилдиган масалаларга qarab moliya-moliyaviy tahlil to'la yoki tanlanma xarakterga ega bo'lishi mumkin. Moliya-moliyaviy tahlilning o'tkazish muddatları kunlik, xtaftalik, dekadalik, oylik, kvartallik, yillik bo'ladi. Moliya-moliyaviy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlildan iborat.¹

Funktional - qiymat tahlili. Mahsulot tannarxini kamaytirish borasida keraksiz va ortiqcha xarajatlarni minimal darajaga keltirish mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va uni ishlab chiqarish chog'ida har tomonlama hisobga oлish kerak. Bu masalani ijobjiy hal qilishda FQT asqotadi. FQT – obhektni (mahsulot) texnologik va mehnat jarayonlari tizimli tarzda tadqiq qilib, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqadi. Ushbu tahlil usuli ushbu ma'ro'zalar kursida alohida bob sifatida kurib chiqiladi.

4. Boshqarish masshtabi va darjasasi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari

Xo'jaliklararo (zavodlararo) qiyosiy tahlil. Kiyoslash (taqqoslash) - bu moliyaviy tahlilning eng ko'p qo'llaniladigan usulidir. Qiyosiy tahlilning 2 asosiy turi mavjud: ichki zavod tahlili, ya'ni tahlilning obyekti sifatida shu korxonaga taalluqli xo'jalik jarayoni o'рганилди; zavodlararo, qachonki bir qator korxonalarning xo'jalik faoliyati tahlil qilinib, tarmoqdagi ilg'or tajriba o'рганилди.

Taqqoslama zavodlararo tahlilning mohiyati alohida olingen korxonalarning xo'jalik faoliyatini ularning ko'rsatkichlarini har tomonlama o'рганиб, erishilgan natijalar darjasini holis farqlash va iqtisodiy ko'rsatkichlarga tafsir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ilg'or tajribalarni ishlab chiqarishga tadbiq qilish natijasida ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdan iboratdir.

Taqqoslama tahlil korxonaning barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi mumkin yoki boshqacha so'z bilan aytganda kompleks xarakterga ega bo'ladi. Taqqoslama tahlilning mazmuni qo'yilgan maqsad va tekshiriladigan obhektna qarab quyidagicha turkumlanadi:

- obyekt bo'yicha (korxona, tsexlari, ishlab chiqarish uchastkasi, ish joyi);
- bobning (tema) mazmuni bo'yicha – mehnat predmetlari, mehnat vositalari, mehnat va moliya resurslarini tahlil qilish va hokazo;
- tahlilni o'tkazish doirasi – kompleks tahlil va maxsus (tematik) tahlil.

Taqqoslama tahlilning eng muhim uslubiy masalalardan biri o'рганилдиган obhektni bir-biri bilan solishtirish shartlariga rioya qilishdir:

- taqqoslanadigan ko'rsatkichlarning sifat jihatdan bir xilligi va ularni hisoblash usulining birligi (masalan, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarning bir xilligi);
 - mahsulotni yagona o'lchash, o'zgarmas baho bilan o'lchash, jo'g'rofiy sharoitlarning o'xhashligi;
 - taqqoslanadigan davrda ish kunlarining bir xilligi va hokazo.


¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 361 page.

Korxona faoliyatini tahlili. Korxonalar yuridik mustakil shaxs bo‘lib, o‘zlarining mustakil balanslariga ega, o‘z ish faoliyatilarini nizom asosida olib boradilar.

Korxonalar davlat, kooperativ korxonalar bhlishi mumkin va bular o‘z ish faoliyatlarini sanoatda, kurlishda, qishloq xujaligida, transportda, aloqada, savdo, moddiy-tehnika ta’minoti va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi soxalarda amalga oshiradilar.

Ta’lilni o‘ziga xos xususiyati korxonada analitik ishni olib borayotgan organlarning vazifalaridan kelib chikib qo‘yidagilarga bog‘liq buladi: korxona iqtisodiyotini o‘rganish ketma-ketligiga, tahlil qilish tematikasiga analitik ish shaqlariga.

Ichki xo‘jalik tahlili. Korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan farqli ularok ichki xo‘jalik tahlilini o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bunda alohida bulinmalar ish faoliyatini (umumiylamoja yutuqlariga ko‘shgan xissasini baholashda) detallashtiriladi. Bu tahlilga xalk xujaligi asosiy buginini boshqarishni barcha bosqichlari, ya’ni oddiy ish joyigacha bulgan bosqichlari kiradi. (3.3-rasm)



5. Moliaviy tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari

Korxonalarni to‘g‘ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma‘lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Malumotlar deyilganda iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo‘jalik jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks etirish, ularni qayta hisoblash va o‘rganish, hamda qiziquvchi tashkilotlarga uzatish tushuniladi.

Tahlil uchun kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ◆ Iqtisodiy ma‘lumotlar;
- ◆ Huquqiy-me’yoriy ma‘lumotlar;
- ◆ Ilmiy- texnikaviy ma‘lumotlar;
- ◆ Tabiy- ekologik ma‘lumotlar;
- ◆ Boshqa ma‘lumotlar.

Iqtisodiy ma‘lumotlarni biznes reja, turli xil axborot manbaalar, texnologik ma‘lumotlar, operativ- texnik, me’yoriy va hisob hujjatlari tashkil etadi. Bu manbaalar tahlilda eng ko‘p foydalaniladi.

Huquqiy- me’yoriy ma‘lumotlarga esa Respublikamizda amal qilayotgan barcha qonunlar, me’yoriy hujjatlari va normativ aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlardan foydalanish tushuniladi.

Ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlar, eng yangi taraqqiyot, jaxondagi o‘zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o‘zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiyiy-ekologik ma‘lumotlar, tabiat, yer, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamshtirgan axborotlarni moliaviy tahlilda muhim manbaa sifatida o‘rganiladi.

Boshqa manbaalarga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiy-ekologik manbaalarda aks etmagan ma‘lumotlar tushunilib, bunga ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi, radio va televideniyadagi keltirilgan axborotlardan foydalanish tahlil uchun muhimdir.

Ko‘plab manbaalarni tahlil jarayonlarida qo‘llash ularning mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarini xolisona bo‘lishini va korxonalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida faol qatnashishiga imkon yaratadi.

Iqtisodiy manbaalar boshqa axborotlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Hujjatlashganligi – barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo‘lishi bilan tegishli boshlang‘ich hujjatlarda qayt etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.

- Turli-tumanligi – hodisa va voqealar ko‘pgina manbaalarda qayt etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir-biridan farqlanadi.

- Ommaviyligi va hajmining kengligi – ko‘pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo‘lganligi, hisobot shakkilarning yuqori organlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.

- Ma‘lum davrlarda takrorlanib turishligi – tasdiqlangan me’yoriy hujjatlari muntazam to‘lg‘azilib tegishli tashkilotlarga topshirilish ko‘zda to‘tiladi, hisobot

davrleri- choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo‘linib axborotlar to‘ziladi.

•Qonunlashganligi va chegaralanganligi – barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, makroiqtisod vazirligi va soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib to‘ziladi. Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma’lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo‘lib, faqat egasining ruxsati bilan e’lon qilinishi mumkin.

•Ko‘p qirraliligi va sermazmunligi – iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o‘lchamlarida ko‘rsatiladi, boshlang‘ich hujjatlarda korxona nomi, imzo chekuvchilarning nasl-nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko‘rsatilgan holda rasmiylashadi.

Iqtisodiy ma’lumotlarni aksariyat qismini hisob axborotlari tashkil etib, buxgalteriya, statistika va tezkor hisoblar majmuidan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari moliyaviy tahlil axborotlari tarkibida 70 foizdan ortiq salmoqni egallaydi.

Tahlil uchun kerakli manbaalar quyidagi talablarni bajarishi lozim:

1. Xaqqoniylig va holisonalik tamoiliga amal qilinadi.

2. Manbaalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatlari bo‘lmog‘i lozim, ya’ni reja, hisob va statistik malumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to‘liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi kerak.

3. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbaalar aniq o‘lchamda aks ettirilishi lozim.

4. Barcha manbaalarning umumiyligi va uzviy bog‘liqligi saqlaniladi hamda ulardagи axbarotlar bir-birini to‘ldirib turilishini taqozo etadi.

5. Manbaalarga kiritilgan ko‘rsatkichlarni aniqlanish tamoillari va aks ettiriladigan davrlar mosligi zarurdir va hakozolar.

Yuqoridaqgi talablarga javob beruvchi barcha axborotlar tahlilning aniq bajarilishi, sermazmun bo‘lishligiga imkon yaratadi.

Xo‘jalik faoliyatini avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida tashkil etish deyilganda, elektron hisoblash mashinalari (komp yuterlar) yordamida va iqtisodiy matematik usullarini qo‘llagan holda ishlab chiqarishning muhim sohalarini aniq va to‘g‘ri boshqarish vazifalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etish tushuniladi.

Bunday amalga oshirish uch xil yo‘nalishda bo‘lishi mumkin, ya’ni:

- ◆ Markazlashgan;
- ◆ Markazlashmagan;
- ◆ Aralash.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil etishning avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida amalga oshirish quyidagi printsiplarga amal qiladi:

- ◆ Aniq maqsadga ega ekanligi sistemalashganligi;
- ◆ Kompleksliligi;
- ◆ Ixchamlashganliligi;
- ◆ Uzlucksizlik va muntazamlilik;
- ◆ Taqqoslanish imkoniyatini kengligi;
- ◆ Yechim loyihasi aniq va ixchamliligi.

Avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida tahlil etish quyidagi sharoitda bajariladi:

- ◆ Qayd etish;
- ◆ Boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ish va uzatish;
- ◆ Umumiyligi ma’lumotlarni bazasini tashkil etish;
- ◆ Ko‘rsatkichlarning algoritmi bo‘yicha ma’lumotlarni qayta ishslash;
- ◆ Iste’molchilar uchun kerakli ma’lumotlarni tayorlash.

Tahlil uchun kerakli ma’lumotlarning aniqligini va tez muddatda tayyorlashning eng aniq yo’llaridan biri – komp yuter dasturlari yordamida qayta ishslash hisoblanadi.

Kompleks avtomatlashgan sharoitda tahlil uchun kerakli ma’lumotlardan foydalaniш xususiyatlari ma’lum darajada imkoniyatlarni ochib beradi:

1. Boshlang‘ich hujjatlari - hisob, statistika normativ ma’lumotlar komp yuterning xotirasiga qo‘yilib faqat bir xil manba, ya’ni mashina xotirasiga olinadi;

2. Tahlil uchun kerakli turli murakkab hisoblashlar ma’lum sekundlarda bajariladi;

3. Ta’sir etuvchi omillarni mashinalar aniq ko‘rsatib beradi;

4. Tahlil uchun kerakli ma’lumotlar va tahlil natijalari o‘rnatilgan shaklda mashinagramma, tabelogrammalarda ifodalanadi;

5. Turli xil iqtisodiy ma’lumotlar mashinalar uchun bir xil shifr va kodlarda kiritiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra ishni avtomatlashtirilgan tarzda olib borilishi ancha iqtisodiy samarodorlikka olib kelar ekan.

6. Tahlilda foydalilanidigan axborot manbalarining to‘g‘riligini tekshirish usullari

Moliyaviy tahlilda foydalilanidigan barcha manbaalarni ishonchlilagini, aniqligini va to‘g‘riligini tekshirish natijalarni samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. Kerakli manbaalarning turli- tumanligi, sermazmunligi va ko‘pligi ularning sifatlari shakllanishiga e’tiborni qaratilishni taqozo etadi. Odatda korxonalar faoliyatini tahlil qilish davrida ma’lumotlar manbai yig‘iladi. Ushbu ma’lumotlarning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish maqsadida ma’lumotlar to‘g‘riliq tekshiriladi. Tahlil uchun yig‘ilgan ma’lumotlarni tekshirish ikki usulda olib boriladi:

1. **Texnik (yuzaki) tekshirish;**
2. **Mazmun jihatidan tekshirish.**

Texnik tekshirish, axborot manbaalalarini arifmetik jihatidan to‘g‘riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko‘rsatkichlarning bir-biriga mosligini e’tiborga olgan holda o‘rganishdir. Yuzaki tekshirishda hisobotga barcha ma’lumotlarni kiritilganligi, ularning arifmetik yig‘indisi, Moliya vazirligi hamda Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan tasdiqlangan hisobot shakllariga rioya qilinganligi, hisobot shakllarining bir-biri bilan bog‘liqligi, hisobotni topshirish muddati, mansabdorlarning imzosi tekshiriladi.

Mazmun jihatidan tekshirish, ma’lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan raqamlarning haqiqatda borligi aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bunday

tekshirish o‘z ichiga buxgalteriya hisobi boshlang‘ich hujjatlaridagi keltirilgan raqamlarni inventarizatsiya o‘tkazish orqali taqqoslash, sanab ko‘rish va o‘lchash yo‘li bilan to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishdir.

Mazmun jihatidan tekshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ◆ Inventarizatsiya natijalari hisobotda o‘z aksini topishi;
- ◆ Korxona hisobot ma’lumotlaridagi byudjetga to‘lovlar va byudjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish summasini moliya tashkiloti ma’lumotlariga mos kelishi;
- ◆ Foyda va zararlar schyotiga o‘tkazilgan ko‘rsatkichlarni tekshirish (ustav kapitalining o‘zgarishi, tabiiy ofatdan ko‘rilgan zarar, asosiy vositalarni tugatilishi va hakozolar).

Korxonalar faoliyatini tahlil qilish davomida ko‘plab manbaalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. *Tahlilda qo‘llaniladigan manbalarni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin bo‘ladi:*

1. Reja ma’lumotlari manbalari;
2. Hisob va hisobot ma’lumotlari manbalari;
3. Qo‘srimcha ma’lumotlar manbai.

Reja ma’lumotlari manbalari tarkibiga biznes reja ko‘rsatkichlari, belgilangan limitlar, belgilangan norma va normativlar, shartnoma ko‘rsatkichlari kiradi.

Hisob va hisobot ma’lumotlari manbalariga buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari, statistik hisob va hisobot ma’lumotlari, operativ hisob va hisobot ma’lumotlari kiradi. Tahlilning asosiy ma’lumotlar manbai bu buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari bo‘lib, ular korxona xo‘jalik faoliyatining barcha jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bunda mablag‘lar harakati, ularning manbalari, ularning xo‘jalik aloqalari aks etadi.

Buxgalteriya balansida mablag‘lar, ularni manbalarining joylashishi va hosil bo‘lish manbalariga qarab ifodalanadi.

Statistik hisob va hisobot ma’lumotlari tahlil uchun asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Bu hisobotda hodisa va jarayonlarning jami ko‘rsatiladi, ularni miqdor jihatdan xarakterlaydigan muayyan iqtisodiy qonunlarni aniqlaydigan tarzda aks ettiriladi.

Operativ hisob va hisobot ma’lumotlari buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlariga va statistik hisobot ma’lumotlariga nisbatan zarur informatsiyani bir muncha tezroq olishga imkon beradi.

Moliyaviy tahlilni yanada chuqurroq amalga oshirish uchun hisob ma’lumotlariga taaluqli bo‘lmagan, ya’ni qushimcha ma’lumotlardan foydalanish lozim bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar tarkibiga bank, moliya, soliq inspektorlari tomonidan tuzilgan dalolatnomasi, inspektorlarni taqdim etgan ma’lumotlari, auditor xulosalari, radio va televide niya ma’lumotlari, ommaviy axborot vositalari manbalari, ishchi va xizmatchilar bilan bo‘lgan muloqot natijalari kiradi.

Odatda tahlil ma’lumotlari va ularni natijalari uni kim va nima maqsadda o‘tkazilganligiga qarab turli shaklda umumlashtirilishi mumkin. Korxona va tashkilotlarni xo‘jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik boblar yoki xo‘jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayon nomasi ko‘rinishida ifoda etiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdag'i tahlilni o‘tkazganligimizga qarab bajariladi. Masalan, korxonalarning yillik hisoboti asosida o‘tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiylar xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdag'i boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarini ma‘ruzasi, korxona rahbarining buyrug‘i, jamoaning majlis bayoni, taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko‘rsatilgan bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya’ni takliflar ham ko‘rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga korxonaning umum majlis materiallari, turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuzib mehnatkash ommaga ko‘rsatma sifatida osib qo‘yish, oynoma va ro‘znama saxifalarida ma’lumotlarni chop etish, axborot doskalaridagi ko‘rsatkichlarni e‘lon qilib borish ham hisoblanadi.

Analitik yozuv korxona va tashkilotlarni xo‘jalik faoliyati yakunlari bo‘yicha yillik yoki choraklik hisobotiga tushuntirish xatlari, yuqori tashkilotlarni ularga bo‘ysinuvchi tashkilotlar xulosalari kabi bo‘ladi.

Tushuntirish xati rejani bajarilishi haqidagi umumiylar xarakteristikada va ko‘rsatkichlarni avvalgi davrlarga nisbatan o‘zgarganlik ma’lumotlaridan boshlanadi. So‘ngra natijaning rejadan tafovuti sababları, ayrim omillarning o‘zaro bog‘lanishi va ularning xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlari ifodalanadi.

Analitik hisob – kitoblar analitik jadvallar ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Ularni har biriga xulosalar va ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini yechib beruvchi matnli ilovalar beriladi.¹

Bayonnomani xotima qismida xulosalar, aniqlangan kamchiliklarni tuzatish yo‘l-yo‘riqlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir rezervlardan foydalanish yuzasidan konkret (aniq) takliflar bayon qilinadi. Bayon nomasi tushunarli, ilmiy asoslangan, ixcham, analitik jadvallar bilan bog‘langan bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday tahlil korxona rahbarining xaridorlarni umumiylar yig‘ilishidagi ma‘ruzasi uchun zarur bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy va boshqaruv tahlil qilishdan olinadigan natija uni axborot va metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liq. Tahlilni axborot bilan ta‘minlashda bosh rolini buxgalteriya hisobi va hisoboti egallaydi, sababi bu manbalarda xo‘jalik faoliyati va uning natijalari o‘z aksini topgan. Birlamchi va jamlangan hisob registratoridagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘la-to‘kis tahlil qilish rejani bajarilishiga, xo‘jalik faoliyatini yaxshilashga qaratiladi.

Ayniqsa yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlarini mazmunan tekshirish tahlil ishlarini samarali o‘tishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda ma’lumotlarni tahlil qilishdan oldin ularning to‘g‘rili tekshirib olinadi.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 402 page.

Ma'lumotlarning to'riligiga ishonch hosil qilish uchun esa ayrim ko'satkichlarni ma'lum bir hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslab ularning bir-biriga mosligi o'rganiladi. Agar bir xil ko'satkichlar turli manbalarda bir xil tartibda aks ettilirgan bo'lsa, u holda ushbu ma'lumotlar qo'g'ri deb tan olinishi mumkin bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning turli shakllaridagi ma'lumotlarni bir - biriga mosligini o'rganish quyidagi jadvalda keltirilgan (3.1-jadval).

1-jadval

Hisobot ma'lumotlarini bir-biriga mosligini tekshirish

| Ko'satkichlar Nomi | Shakl raqami | Birlamchi | | Ikkilamchi | | | Mosligi |
|----------------------|--------------|-----------|------------------|--------------|-------|------------------|---------|
| | | Satri | Summa, ming so'm | Shakl raqami | Satri | Summa, ming so'm | |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| Asosiy vositalar: | | | | | | | |
| Boshlang'ich qiymat. | 1 | 010 | 71000 | 3 | 130 | 71000 | Mos |
| Eskirish qiymati. | 1 | 011 | 44500 | 3 | 130 | 44500 | Mos |
| Ustav kapital | 1 | 320 | 80000 | 5 | 080 | 80000 | Mos |
| Taqsimlanmagan foyda | 1 | 350 | 45000 | 5 | 080 | 45000 | Mos |
| Va xokozolar | | | | | | | |

Shunday tartibda debitorlik va kreditorlik qarzlarini, pul mablag'lar harakatini va boshqa ma'lumotlarni ham mazmunan, miqdoran to'g'rilingini tekshirish mumkin.

Nazorat savollari

1. Ma'lumotlarning to'g'riliqi qaysi usullar orqali tekshiriladi?
2. Ma'lumotlarni texnik (yuzaki) tekshirish qanday amalga oshiriladi?
3. Reja ma'lumotlari manbalati tarkibiga qaysi xujjatlar kiradi?
4. Tahlil jarayonlarida ma'lumotlarni komp yutlerlarda qayta ishlashning afzalliklari nimada?

5-bob. MOLIYAVIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH

Reja

1. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy tahlil ishlarini tashkil etishning zaruriyati
2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari

Tayanch so'zlar:

Tashkil etishning zaruriyati, tahlil o'tkazishning rejasi, dasturini tuzish bosqichi, moslashtirish bosqichi

1. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy tahlil ishlarini tashkil etishning zaruriyati

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti yaratish maqsadida iqtisodiy islohotlarni bosqichima-bosqich amalga oshirmoqda.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ammo ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish xuquqini qo'lg'a kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo'lib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti soxasida boshqaruva subyektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishslash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi. Samarali boshqarishda eng muhim axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishslashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'satkichlardan foydalaniлади¹.

Tahliliy ishlarni muvafaqqiyatlari, samarali o'tkazilishi uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liq. Uni o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan va reja asosida amalga oshirilishi lozim. Tahlil ishlari olib borilayotganda, u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Ushbu bosqichlarni bosib o'tish jarayonida har bir bosqichning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va ularning bajarilishi ma'lum tomonlarga asoslangan bo'lishi lozim. Asoslanishi lozim bo'lgan tomonlar esa quyidagilardan iborat:

1. Korxona faoliyatini tahlil qilish - boshqarishda qaror qabul qiladigan har bir rahbar, menejerning xizmat burchidir. Shunday qilib bundan chiqadigan zarur tamoyil bu tahlil ishlarni bajaruvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;

2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida tahlil ishlarni tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uning tejamliligi, ya'ni kam xarajat qilib yuqori samaraga erishish;

3. Tahlil ishlarni tashkil qilishda yana bir tamoyil uni o'tkazishni nazorat qilib borish.

Korxona iqtisodiy-moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim korxonaning boshqaruva va moliyaviy hisobot shakllarini erkin o'qishni,

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 100 page.

uning moddalarini tushunishni, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi kerak.

Korxonalarda moliyaviy tahlilni tashkil etish ixtiyoriylik va amaliyotdagি tajriba hamda talabdan kelib chiqqan holda tahlil ishlari tashkil etiladi. Tahlilni tashkil etishda o'rganiladigan boblarning qo'lami va ahamiyatiga qarab iqtisodchilar bilan bir qatorda korxonaning barcha mutaxassislar hamda oddiy ishchisigacha ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Moliyaviy tahlilni tashkil etishning zaruriyati hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada ortgan bo'lib, chunki har bir faoliyatning korxona uchun manfaatlilik darajasini aniqlashdan, bu faoliyatning iqtisodiy nuqtai nazaridan to'g'ri tashkil etilganligiga baho berishdan iboratdir. Iqtisodiy tahlilni korxona miqyosida to'liq tashkil etishga bevosita javobgar bosh hisobchi yoki korxona boshqaruvchisi bo'lishi mumkin. Sherik korxonalarda esa bu masalaga bevosita korxona boshlig'i yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha korxona boshlig'ining muovimi shug'ullanishi mumkin bo'ladi.¹

Korxonalarda tsex yoki brigada ma'lumotlari bo'yicha moliyaviy tahlilni esa shu bo'lim boshqliqlari tashkil etishlari kerak bo'ladi.

Viloyat, tuman yoki tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib iqtisodiy tahlilni o'tkazishga istiqbolni belgilash va statistik tashkilotlar yoki yuqori tashkilotlar tarkibida tashkil etilgan moliyaviy tahlil kengashi ish yuritadilar.

Boshqaruvning hamma bo'g'inalrida umumiyl ishlab chiqarish sohasini samaradorligini oshirishda analistik ishni tashkil etish va moliyaviy tahlilning roli oshib bormoqda. Ushbu holatdan kelib chiqib moliyaviy tahlil tashqi va ichki tahlil turlariga bo'linadi.

Korxona va birlashmalarni ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining tashqi tahlilini quyidagilar olib boradilar:

- ◆ Boshqaruvning yuqori organlari;
- ◆ Moliya organlari;
- ◆ Bank tashkilotlari;
- ◆ Soliq organlari va hakozolar.

Yuqori boshqaruv organlari o'z nazorati ostidagi korxona va uyushmalarning ishlab chiqarish faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib turishadi. Buning uchun esa reja va hisobot ma'lumotlari, tekshiruv natijalari va boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi.


Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan foydalaniib, quyida ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalarida moliyaviy tahlilni tashkil etishni sxemasini keltirib o'tish mumkin bo'ladi.

Moliya organlari moliyaviy tahlil jarayonida korxona va birlashmalarning foydalilik rejasini bajarilishiga, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlariga, korxonaning moddiy va pul resurslarini ratsional taqsimlanishiga, o'z – o'zini moliyalashga va harid quvvatiga diqqatini qaratadi. Masalan, O'zbekiston

Respublikasi Markaziy Banki doimiy ravishda kredit olgan korxona va birlashmalarning ish faoliyatini, hamda asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilib turishadi, korxonalarda bank kreditlarining ishlatalishini, mehnat xaqi fondini, tovar – moddiy qiymatliklar va ularni saqlanish holatini hamda to'lov intizomi holatini tahlil qilib turishadi.

Moliyaviy tahlil ishlari korxona va birlashmalar olib borishi bilan bir qatorda boshqa tashkilotlar ham olib borishi mumkin: Bularga:

- ◆ Rejalshtirish tashkilotlari;
- ◆ Ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish institutlari;
- ◆ Jamoat tashkilotlari;
- ◆ Matbuot organlari kabilar kiradi.



1-rasm. Ishlab chiqarish birlashma (korxona) larida moliyaviy tahlilni tashkil etish

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51page.

Ichki tahlilni esa korxona va birlashmalarni ishchi hodimlari olib boradilar va ularning turli tarkibiy bulinmalari o'zlariga tegishli funktsiyalarni belgilab oladilar. Moliyaviy tahlil ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Korxonani hamma faoliyati sferalarida mavjud bo'lgan rezervlarni izlab topish, taqsimlangan majburiyatlarni aniq bajarilishi va uni amalga oshirishda ma'suliyatni xis etish lozim bo'ladi.

2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liqidir. Odatda analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funktsional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy tahlilni tashkil etishning quyidagi bosqichlari keltirib o'tilgan:

◆ **Tahlil o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.** Moliyaviy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda moliyaviy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil utkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari moliyaviy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyektni aniqlash;
- moliyaviy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izoxlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil utkazish muddatini belgilab olish;
- tahlil manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

◆ **Tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.** Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- tahlil manbalarini to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish;

◆ **To'plangan ma'lumotlarning qo'g'rilingini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.** To'plangan manbaalarni to'g'rilingini tekshirish hamda ishonchlilagini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu manbaalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

◆ **Bevosita xo'jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.** Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita

tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

◆ **Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.** Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o'zgarish sabablari aniqlash;
- korxona faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

◆ **Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bosqichi.** Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxona faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tadbiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

Nazorat savollari:

1. Xo'jalik subyektlarida tahlil ishlarini kimlar olib borishadi?
2. Xo'jalik subyektlarini tahlil ishlariga mas'ul javobgarlar bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Xo'jalik subyektlarida tahlil ishlarini tashkil etish majburiymi yoki ixtiyoriy?
4. Tahlilni tashkil etish bosqichlarini sanab o'ting?
5. Tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
6. Tahlil natijalari kimga taqdim etiladi?
7. Tahlil jarayonlarida qanday turdag'i ma'lumotlardan foydalaniladi?

6-bob. MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HAJMINI TAHLILI

Reja:

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlilining mazmuni va vazifalari
2. Ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasi tahlili
3. Strukturaviy o'zgarishlarni mahsulot hajmiga ta'sirining tahlili
4. Mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti tahlili
5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili
6. Mahsulotni sotishdan tushumni shakllantirish omillari
7. Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili
8. Mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnomma majburiyatları tahlili
9. Mahsulot sifati tahlili

Tayanch so'zlar:

Ishlab chiqarish hajmi; mahsulot nomenkulaturasining tavsifi; mahsulot assortimentining tavsifi; mahsulot assortimentini tahlil etish uslublari; mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash uslublari; ishlab chiqarish maromiyligi; ishlab chiqarish maromiyligini buzilish sabablari;

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlilining mazmuni va vazifalari

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – korxonalar faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Mahsulot sotish hajmi uning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, shuningdek, tannarx darajasi, foya miqdori, rentabellik darajasi, korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to'lov qobiliyati va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bog'liq bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tahlili maqsadi raqobatchilarga nisbatan mahsulot sotish hajmini oshirish yo'llarini topish, ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalangan holda bozordagi ulushni kengaytirish va buning natijasi sifatida – korxona foydasini oshirish hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni kompleks maqsadli tahlil qilishning asosiy vazifasi korxonaning raqobat pozitsiyasini va bozor kon'ekturasi o'zgarganda resurslar bilan o'zgaruvchan manyovr qilish qobiliyatini tahlil qilish hisoblanadi. Mazkur umumiy vazifa quyidagi xususiy analitik vazifalarni hal qilish yo'li bilan bajariladi:

- Mahsulot ishlab chiqarishning prognoz hajmi bajarilishi va dinamikasi o'zgarishi ustidan tizimli nazorat;
- Hajm bo'yicha bitimlar bajarilishini baholash, yetkazib berishlar maromiyligi, mahsulotlar butlibi;
- Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga omillar ta'sirini aniqlash;
- obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlaridan foydalinish bo'yicha korxona faoliyatini baholash;


- Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha aniqlangan zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish hajmini o'rganish ish faolligining muayyan diapazonida, ya'ni relevant qator taqdim etuvchi min-max chegarasida amalga oshiriladi. Tahlil nafaqat mutlaq min-max chegarasida, balki o'zgarmas doimiy xaratjatlar chegarasida ham amalga oshirilishi mumkin. Relevant qator minimal mumkin, maksimal mumkin, optimal va haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning minimal hajmi – mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitlari hamda mahsulot uchun narxlarda daromadlar va xaratjatlar tengligiga erishiladigan hajm hisoblanadi.

Maksimal hajm ishlab chiqarish omillarining maksimal yuklamasini ta'minlaydi.

Optimal sifatida shunday ishlab chiqarish hajmi e'tirof etiladiki, bunda mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitida muayyan narx diapazonida maksimal foya olish ta'minlanadi. Optimallashtirish yuzifasi amaliydan ko'ra ko'proq nazariy sanalsa-da, biroq mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda bilish zarur bo'lgan mo'ljal hisoblanadi.



1-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlil obyektlari

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlili uchun **axborot manbalari** sifatida tashkilotlar biznes-rejasi, operativ reja-grafiklar, 1-S shakli (yillik) - "Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish to‘g‘risida", 1-S shakliga ilova - "Sanoat korxonalarining 2014 -yilda mahsulot yetkazib berish va moddiy resurslarni olishga shartnomalar tuzishining borishi yuzasidan so‘rov", 1-korxona shakli - "Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida", 2-shakl "Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot", Tayyor mahsulot harakati haqida ma‘lumotnoma va birlamchi hisobga olishning ayrim ma‘lumotlari hamda mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnomalardan foydalaniлади.

2. Ishlab chiqarish rejasiga bajarilishi va dinamikasi tahlili

Korxona tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot natural, shartli-natural va qimmat ko‘rsatkichlari yordamida o‘lehanadi.

Natural ko‘rsatkichlar tahlil uchun qulay va korxona tomonidan bajarilgan ishlar hajmini nisbatan aniq tavsiflaydi. Lekin natural ko‘rsatkichlar qo‘llanilishi chegaralangan, chunki aksariyat korxonalar bir emas, balki bir necha turdagi mahsulotlar tayyorlaydi, bu esa turli mahsulotlarni jamlashni istisno etadi. Natural ko‘rsatkichlarni qo‘llash cheklanganligi shartli-natural ko‘rsatkichlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Masalan, yigirish ishlab chiqarishida mahsulotlar hisobi kilonomerlarda, to‘qimachilik ishlab chiqarishida – hisob kalavada olib boriladi va hokazo.

Tahlilda qimmat ko‘rsatkichlardan yalpi va tovar mahsulotlari ko‘proq qo‘llaniladi, ular mahsulot ishlab chiqarish hajmining bajarilish darajasini tavsiflaydi.

Yalpi mahsulot tarkibiga asosiy va qo‘sishma tsexlар tomonidan ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar, o‘zлari ishlab chiqargan yarimfabrikatlar, tashqariga chiqarilgan sanoat xarakteridagi ish va xizmatlar, o‘z asbob-uskunalarini kapital ta’mirlash, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o‘zgarishi, maxsus mo‘ljallangan instrumentlar va o‘z ishlab chiqarishidagi yarimfabrikatlar kiritiladi. Yalpi mahsulotdan farqli o‘laroq tovar mahsulotlar tarkibiga buyurtmachilar xom ashyosi qiymati va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o‘zgarishi, o‘z ishlab chiqarishidagi yarimfabrikatlar va instrumentlar kiritilmaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o‘sishi yoki kamayishi faqatgina korxonalar qatoridava ishlab chiqarishning uzoq tsikli bilan hisobga olinadi.

Tahlil mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini o‘rganish, bazis va zanjirli o‘sish sur’ati hamda ko‘payishni hisoblash bilan boshlanadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda ifodalanishi lozim, uning asosi sifatida esa bazis davr narxlari qabul qilinadi. Masalan, i-davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmini bazis davr narxida aniqlash uchun uning miqdorini n oldingi davrlar uchun narxlardan indeksi ko‘paytmasiga bo‘lish lozim:

$$215000 : 1,30 = 165384$$

$$220000 : (1,35 \cdot 1,30) = 125356 \text{ i.t.d.}$$

O‘sishning bazis sur’ati har bir keyingi darajani dinamik qatorning birinchi yiliga nisbatli bilan, zanjirli sur’ati – oldingi yilga nisbatli bilan aniqlanadi.

1-jadval

Ishlab chiqarish dinamikasi tahlili

| Yil | Joriy narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m | Narx indeksi | Bazis yillardagi narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m | Ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, % | |
|------|--|--------------|---|--|----------|
| | | | | Bazis | zanjirli |
| 2011 | 200 000 | 1,0 | 200 000 | 100 | 100 |
| 2012 | 215 000 | 1,30 | 165384 | 82,7 | 82,7 |
| 2013 | 220 000 | 1,35 | 125356 | 62,6 | 75,8 |
| 2014 | 339150 | 1,20 | 209352 | 104,6 | 167,0 |
| 2015 | 336006 | 1,10 | 254550 | 127,3 | 127,6 |

5.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dastlabki ikki yil mahsulot ishlab chiqarishja inqiroz sodir bo‘lgan, keyingi yillarda esa biroz o‘sish qayd qilingan. Yakunda 4 yilda ishlab chiqarish hajmi 27,3 % ga o‘sgan.

Keyingi tahlillarda o‘rtacha geometrik yoki o‘rtacha arifmetik tortilgan bo‘yicha aniqlanadigan mahsulot o‘sishining o‘rtacha yillik sur’ati aniqlanadi.

Uning o‘rtacha geometrigini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} T &= \sqrt[4]{T_1 * T_2 * T_3 * T_4 * T_5} = \sqrt[4]{1,0 * 0,827 * 0,758 * 1,670 * 1,276} = \sqrt[4]{1,335} \\ &= 1,074 = 107,4\% \\ &107,4-100,0 = 7,4\% \end{aligned}$$

Demak, mahsulot ishlab chiqarish o‘sishining o‘rtacha yillik sur’ati 7,4% ni tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini o‘rgangandan so‘ng 1-p «Mahsulotlar bo‘yicha hisobot» hisobot shakli ma‘lumotlari bo‘yicha taqqoslama narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi bajarilishini baholash zarur. Ushbu hisobot shaklida mahsulot (ish, xizmat) hajmi quyidagicha aks ettiriladi:

- a) taqqoslama ulgurji narxlarda
- b) hisobot davrining amaldagi narxlarda.

Taqqoslama narxlardan mahsulot ishlab chiqarish o‘sishi sur’ati va reja bajarilishini aniqlash uchun zarur.

2-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish rejasiga bajarilishi va dinamikasi tahlili

| Ko‘rsatkichlar | O‘tgan yil | Hisobot yili | | Og‘ish | | | |
|---|------------|--------------|------|------------------|------|------------------|------|
| | | Reja | Haq. | rejadan | | o‘tgan yildan | |
| | | | | summa, ming so‘m | % da | summa, ming so‘m | % da |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| Korxonaning ulgurji narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi: | | | | | | | |

| | | | | | | | |
|---------------------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| - taqqoslama narxlarda | 209352 | 220388 | 254550 | +34162 | +15,50 | +45198 | +21,59 |
| - hisobot yilining amaldagi narxlarda | 229243 | 237940 | 272389 | +34448 | +14,48 | +43146 | +18,82 |

5.2-jadval ko'rsatkichlari korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejasini uddalaganligidan darak beradi. mahsulot (ish, xizmat) hajmi rejası taqqoslama narxlarda 34162 ming so'mga yoki 15,50% ga ortig'i bilan bajarilgan, oldingi yilga nisbatan o'sish 45198 ming so'm yoki 21,59% ga teng. Mavjud narxlarda mahsulot o'sishi 18,82 % ni tashkil qildi.

mahsulot ishlab chiqarish hajmining qiymat va natural ko'rsatkichlari o'sish sur'atlarini taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi variantlar ehtimol tutiladi:

- qiymat ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati natural ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori – mahsulot hajmining o'zgarishi asosan narx o'sishi bilan shartlangan;

- natural ko'rsatkichlар o'sish sur'ati qiymat ko'rsatkichlariiga nisbatan yuqori – mahsulot hajmining o'zgarishi mahsulotning jismoniy hajmi o'sishi bilan vujudga kelgan.

3. Strukturaviy o'zgarishlarni mahsulot hajmiga ta'sirining tahlili

Mahsulot strukturası - ayrim mahsulot turlarini jami ishlab chiqarishda tutgan ulushidir.

Mahsulot ishlab chiqarish strukturasining o'zgarishi barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar: qiymat bahosida ishlab chiqarish hajmi, material sig'imi, tovar mahsulot tannarxi, foya, rentabellikka ulkan ta'sir ko'rsatadi. Agar qimmatroq mahsulotning ulushi ortsu, u holda uni ishlab chiqarish hajmi qiymat ifodasida o'sadi va aksincha. Yuqori rentabelli mahsulotning ulushi oshganda va mos ravishda past rentabelli mahsulot ulushi kamayganda ham foya miqdorida xuddi shunday holat sodir bo'ladi.

Strukturni o'zgarishining asosiy sabablari:

- har xil kategiriyaladagi iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan talabini o'zgarishi;

- korxonani uskuna va moddiy resurslar bilan yetarli ta'min etilmagani;

- zarur malakali mutaxassislarini yetishmasligi;

- korxonani kam mehnat sig'imli, yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga intilishi.

Ishlab chiqarish strukturasining sanab o'tilgan ko'rsatkichlar darajasiga ta'sirini hisoblashni zanjirli o'rın almashtirish usulida amalga oshirish mumkin bo'lib, u mahsulot strukturasidan tashqari barcha omillarni mavhumshtirishga imkon beradi:

$$V_{haq} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 35755 \text{ mln. so'm}$$

$$V_{shartli} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 36656,4 \text{ mln. so'm}$$

$$\Delta V_{str.o'zg.} = V_{haq} - V_{shartli} = 67000 - 61750 = -901,41 \text{ mln. so'm}$$

Bu erda,

V_{haq} – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi;
 $V_{shartli}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi reja strukturada;
 $\sum Q_{haq}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot natural miqdori;

D_i haq, D_i reja – i- turdagı mahsulotning strukturası haqiqatda va rejada;

P_i reja – i- turdagı mahsulotning rejadagi bahosi.

$$V_{shartli(Kaptiva)} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 800 * 12,82 * 85000 = 8717,95 \text{ mln. so'm}$$

$$V_{shartli(Epika)} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 800 * 15,38 * 70000 = 8615,38 \text{ mln. so'm}$$

$$V_{shartli(Lasetti)} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 800 * 17,95 * 48000 = 6892,31 \text{ mln. so'm}$$

$$V_{shartli(Neksiya)} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 800 * 25,64 * 32000 = 6564,10 \text{ mln. so'm}$$

$$V_{shartli(Damas)} = \sum Q_{haq} * D_i * P_i = 800 * 28,21 * 26000 = 5866,67 \text{ mln. so'm}$$

3-jadval

Tovar mahsuloti strukturası tahlili

| Mahsulot | Mahsulot birligining ulgurji narxi, so'm | Mahsulot i/ch hajmi, dona | | Mahsulot strukturası | | Reja narxida mahsulot i/ch, mln. so'm | | | Strukturaviy o'zgarishlarning mahsulot hajmiga ta'siri, ming so'm |
|-------------|--|---------------------------|------------|----------------------|------------|---------------------------------------|-----------------------------------|--------------|---|
| | | Reja | Haqiqatda | Reja | Haqiqatda | Reja | Haqiqiy mahsulot reja strukturada | Haqiqatda | |
| Kaptiva | 85000 | 100 | 95 | 12,82 | 11,88 | 8500 | 8717,95 | 8075 | -642,95 |
| Epika | 70000 | 120 | 110 | 15,38 | 13,75 | 8400 | 8615,38 | 7700 | -915,38 |
| Lasetti | 48000 | 140 | 145 | 17,95 | 18,13 | 6720 | 6892,31 | 6960 | 67,69 |
| Neksiya | 32000 | 200 | 220 | 25,64 | 27,50 | 6400 | 6564,10 | 7040 | 475,90 |
| Damas | 26000 | 220 | 230 | 28,21 | 28,75 | 5720 | 5866,67 | 5980 | 113,33 |
| jami | | 780 | 800 | 100 | 100 | 35740 | 36656,41 | 35755 | -901,41 |

Agar ishlab chiqarish hajmi barcha turdagı mahsulotlar bo'yicha rejalashtirilgan struktura bo'yicha bo'lganda, umumiy mahsulot hajmi reja narxida 36656,41 mln. so'mni tashkil qilar edi.

Haqiqatdagi strukturada u 901,41 mln. so'mni kam. Bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmida arzonroq mahsulot ulushi ortganligidan darak beradi.

4. Mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti tahlili

Umumiy mahsulot hajmi bo'yicha reja bajarilishi yoki ortig'i bilan bajarilishi mumkin. Lekin bu hal ishlab chiqarish rejası barcha mahsulotlar, ya'ni mahsulotlar assortimenti bo'yicha bajarilganligini anglatmaydi. Mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilishi yoki ortig'i bilan bajarilishi bir mahsulotni rejadan tashqari

ishlab chiqarish va ayni vaqtida boshqa mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarmaslik natijasi ham bo'lishi mumkin.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot sharoitida reja bajarilishi tahlili yuqori turuvchi organlar orqali davlat tomonidan korxonalar faoliyati ustidan nazorat shakli hisoblangan¹. Hozirgi vaqtida, ya'ni tovarlar yetkazib berish, davlat buyurtmasi, bozor kon'yunkturasi o'rganish, asosida korxona mustaqil ravishda reja ishlab chiqayotgan bir paytda reja bajarilishi tahlili quyidagilarni baholashga imkon beradi:

- shartnoma majburiyatlarini bajarilish darajasi;
- rejalshtirish sifati;
- menejment sifati.

Ayni vaqtida umumiy hajmda va assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasini xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar bilan ta'minlash, uskunalar bilan jihozlash, shtat jadvalini tuzish va boshqa rejalar tuzish uchun boshlang'ich baza hisoblanadi.

Yo'riqnomha va amaliyotda ko'pincha aralash qo'llaniladigan nomenklatura hamda assortiment tushunchalarini farqlash talab qilinadi.

Nomenklatura – bu mahsulotlar nomlari va ularning mutanosib turlari uchun belgilangan kodlar ro'yxatidir.

Assortiment – har bir tur bo'yicha ishlab chiqarish hajmi ko'rsatilgan holda mahsulot nomlari ro'yxatidir.

U to'liq, guruhli va guruh ichida bo'lishi mumkin.

To'liq assortiment – tayyorlanadigan mahsulotlarning barcha turlari va ko'rinishlarining tugal ro'yxati; guruhli assortiment turdosh gurhdagi mahsulotlarni birlashtiradi. Guruhga kiruvchi mahsulotlar uning guruh ichidagi assortimentini tashkil qiladi.

Assortiment va mahsulot ishlab chiqarish tarkibini shakkantirishda korxona, bir tomondan, mazkur mahsulot turiga talabni, boshqa tomondan – mehnat, xom ashyo, texnik, texnologik, moliyaviy va tasarrufida mavjud boshqa resurslardan samaraliroq foydalanishni hisobga olishi lozim. Assortimentni shakkantirish tizimi quyidagilarni tashkil qiladi:

- xaridorlarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash;
- ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarish rejalshtirilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini baholash;
- mahsulotning hayot tsiklini o'rganish, yangi, yanada mukammal mahsulot turlarini joriy qilish va ishlab chiqarish dasturlaridan ma'naviy eskirgan hamja iqtisodiy samarasiz mahsulotlarni chiqarib tashlash bo'yicha o'z vaqtida choratdbirlar qo'llash;
- mahsulotlar assortimentida o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi va risk darajasini baholash.

Mahsulotlar assortimenti bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash odadta ayni nomli koeffitsient yordamida hisoblanib, u assortiment

bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga kiritilgan umumiy haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarishni uning umumiy rejaviy ishlab chiqarishga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi (rejadan tashqari tayyorlangan mahsulot assortment bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishida hisobga olinmaydi).

4.-jadval

Assortiment bo'yicha reja bajarilishi tahlili

| Mahsulot nomi | Mahsulot birligining ulgurji narxi, so'm | Naturada ishlab chiqarish, dona | | Qiymat ifodasida ishlab chiqarish, ming so'm | | Assortiment hisobida ishlab chiqarish |
|---------------|--|---------------------------------|------|--|--------|---------------------------------------|
| | | reja | haq. | reja | haq. | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| A | 7779 | 4255 | 4630 | 33100 | 36019 | 33100 |
| B | 14251 | 1486 | 1701 | 21175 | 24240 | 21175 |
| V | 2282 | 4735 | 4045 | 10806 | 9230 | 9230 |
| G | 14826 | 6451 | 5760 | 95641 | 85400 | 85400 |
| D | 23348 | 1195 | 1550 | 27900 | 36190 | 27900 |
| E | x | x | x | 31766 | 63471 | 31766 |
| Jami | x | x | x | 220388 | 254550 | 208571 |

Assortiment bo'yicha reja bajarilishining o'rtacha foizi 94,6%

$$\frac{208571 * 100}{220388}$$

Assortiment bo'yicha reja bajarilmasligining sabablari:

Tashqi: bozor kon'yunkturasi, mahsulotlarning alohida turlariga talab o'zgarishi, moddiy-texnik ta'minot holati, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirmslik.

Ichki: ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi kamchiliklar, asbob-uskunalarining texnik holati yomonligi, uning turib qolishi, avariylar, elektr energiyasi etishmasligi, ishlab chiqarish madaniyati pastligi va boshqalar. Assortiment bo'yicha reja bajarilishini aniqlashning boshqa usullari ham mavjud. *Eng kam foiz usuli* sodda usullardan biri sanaladi. Mazkur usul qo'llanilganda haqiqatdagi miqdor rejalshtirilganjan kam bo'lgan majburiy assortimentlar pozitsiyalari bo'yicha rejaning bajarilish foizi aniqlanadi. Olingan foizlarning eng kichigi assortiment bo'yicha reja bajarilishining jamlanma ko'rsatkichi sifatida qabul qilinadi, lekin u 100% dan ziyod bo'lmasligi lozim.

5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili

Korxona faoliyati maromiyligi deganda tsexlар tomonidan ishlab chiqarishning sutkalik yoki oylik grafiklariga qat'iy roya qilingan holda detallar, yarimfabrikatlar va mahsulotlarni bir maromda ishlab chiqarish tushuniladi.

Bir maromda ishlab chiqarish mahsulotlarni bir xil miqdorda ishlab chiqarilishi degani emas. Reja grafigi ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 159 page.

tizimli tarzida oshib borishini nazarda tutadi. Oy davomidagi o'sish sur'ati grafikka mutanosib bo'lishi lozim.

Bunda korxonaning dispetcherlik xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri tashkil etilgan dispetcherlik xizmati istalgan vaqtida quyidagi savollarga mukammal javob bera olishi talab qilinadi: u yoki bu detallarning qanday miqdori qayta ishlashning u yoki bu bosqichida turibdi, materiallar zaxirasi holati qanday, qanday dastgohlar qanday rejimda ishlamoqda, tanavorlar yetkazib beruvchi hamkorlar qanday ishlamoqda, qancha detalni tuzatish talab qilinadi va hokazo. Dispetcherlik xizmati materiallari bo'yicha shoshilinch tartibda mahsulot ishlab chiqarish grafigi bajarilishini ta'minlovchi choralar qo'llanilishi lozim. Faqat shu holatdagina korxona maromiy ishlashi mumkin.

Biroq ishlab chiqarishning ayrim uchastkalarida smena grafigidan ortda qolish holatlari tez-tez uchraydi. Ular, odatda, tuzatiladigan va batamom yaroqsiz mahsulot paydo bo'lishi, avariya tufayli uskunalarining ko'zda tutilmagan to'xtab qolishi, buzilish va tuzatishlar, maxsus instrumentlar mayjud emasligi, tugallanmagan ishlab chiqarish but emasligi, ish o'rinaligiga materiallarni o'z vaqtida yetkazib bermaslik, ishlab chiqarishning qandaydir bosqichida texnologik jarayon buzilishi va boshqalar bilan bog'liq bo'ladi.

Hatto bir uchastkada mahsulot ishlab chiqarish smena grafigi bajarilmasligi boshqa uchastkalardagi normal ishlab chiqarish ritmi buzilishiga olib kelishi va bu bilan ish vaqtini hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli darajada foydalana olmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Demak, nomaromiy faoliyat barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni yomonlashtiradi: mahsulot sifati pasayadi; tugallanmagan ishlab chiqarish va omborlarda tayyor mahsulotlarning rejadani tashqari qoldiqlari hajmi ortadi, buning oqibati o'laroq kapital aylanishi sekinlashadi; shartnoma bo'yicha yetkazib berishlar bajarilmaydi va korxona mahsulotlarni o'z vaqtida jo'natmaganligi uchun jarima to'laydi; tushum o'z vaqtida kelib tushmaydi, shuning uchun pul oqimida ham tanqislik yuzaga keladi. Korxona faoliyati maromiyligi oy ichida kunlar yoki dekada bo'yicha, bo'limmalar bilan birga olinganda oylar va choraklar bo'yicha oylik (choraklik) mahsulot ishlab chiqarishga foizlarda aniqlanadi. Birinchi dekadadagi mahsulotlarning o'tgan oyning uchinchi dekadasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbati ham maromiylik ko'rsatkichi hisoblanadi. Yil davomida mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tafsiflash uchun oylar bo'yicha, bo'limmalar bilan birga olinganda dekadalr bo'yicha dinamik qatorlar tuzish maqsadga muvofiq.

Maromiylik bo'yicha reja bajarilishini baholash uchun **bevosita** va **bilvosita** ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Bevosita ko'rsatkichlar – maromiylik koeffitsienti, variatsiya koeffitsienti, dekada, oy, chorak uchun mahsulot ishlab chiqarishning yillik ishlab chiqarish hajmidagi ulushi.

Maromiylikning bilvosita ko'rsatkichlari – ish vaqtidan tashqari ishlar uchun qo'shimcha to'lov mavjudligi, korxona ayniga ko'ra turib qolishlar to'lovi, yaroqsiz mahsulot tufayli yo'qotishlar, mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermaslik va jo'natmaganlik uchun jarimalar to'lash va b.

Maromiylik koeffitsienti maromiylik hisobida qabul qilingan mahsulotlarni reja hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

5-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili (dekabr oyi uchun)

| Dekadalar | Hisobot yili | | Maromiylik hisobida qabul qilinadi | Solishtirma og'irlilik, % | |
|------------|--------------|--------|------------------------------------|---------------------------|------|
| | Reja | Haq. | | Reja | Haq. |
| I-dekada | 6165 | 5728 | 5728 | 30 | 27 |
| II-dekada | 70897 | 7425,3 | 7089,7 | 34,5 | 35 |
| III-dekada | 7295,3 | 8061,7 | 7295,3 | 35,5 | 38 |
| Jami | 20550 | 21215 | 20113 | 100 | 100 |

$$\text{Maromiylik koeffitsienti} = \frac{20113}{20550} = 0,978$$

Korxona tomonidan dekabr oyi uchun mahsulot ishlab chiqarish rejasini ortig'i bilan bajarilgan. Biroq u dekabr oyi mobaynida bir maromida ishlamanagan, buni dekadalr bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Masalan, I dekadada oylik ishlab chiqarishning 27% i (rejada 30%) ishlab chiqarilgan, uchinchi dekadada ishlab chiqarish sur'ati oshirilib, mahsulot ishlab chiqarish 38 % ni tashkil qilgan, reja bo'yicha esa 35,5% bajarilishi lozim edi.

Variatsiya koeffitsienti (Kv) sutka (dekada, oy, chorak) uchun reja topshirig'idan o'rtacha kvadratik og'ishning o'rtacha sutkalik (o'rtacha dekadalik, o'rtacha oylik, o'rtacha choraklik) rejaviy mahsulot ishlab chiqarishga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$Kv = \frac{\sqrt{\sum_{n=1}^n (x - \bar{x})^2 / n}}{\bar{X}_{n,n}} = \frac{\sqrt{[(27-30)^2 + (35-34,5)^2 + (38-35,5)^2] / 3}}{33,3} = \frac{\sqrt{5,41}}{33,3} = 0,069$$

$$\bar{X}_{n,n} = \frac{100}{3} = 33,3$$

Nomaromiylik – bu mahsulot sotish qiyinchiliklari, tashkilotchilik, texnologiyalar va ishlab chiqarish moddiy-texnik ta'minotining past darajasi. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlilida turli dekadalarda ish kunlari sonini hisobga olish talab qilinadi, chunki bunga alohida dekadalr bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishning ulushi bog'liq sanaladi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili uchun asosan operativ-texnik hisob, dekada ma'lumotlari, davriy hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – korxonalar faoliyatini tafsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Mahsulot sotish hajmi uning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, shuningdek, tannarx darajasi, foyda miqdori, rentabellik darajasi, korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to'lov qobiliyati va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bog'liq bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tahlili maqsadi raqobatchilarga nisbatan mahsulot sotish hajmini oshirish yo'llarini topish, ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalangan holda bozordagi ulushni kengaytirish va buning natijasi sifatida – korxona foydasini oshirish hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni kompleks maqsadli tahlil qilishning asosiy vazifasi korxonaning raqobat pozitsiyasini va bozor kon'ekturasi o'zgarganda

resurslar bilan o'zgaruvchan manyovr qilish qobiliyatini tahlil qilish hisoblanadi. Mazkur umumiy vazifa quyidagi xususiy analitik vazifalarni hal qilish yo'li bilan bajariladi:


- Mahsulot ishlab chiqarishning prognoz hajmi bajarilishi va dinamikasi o'zgarishi ustidan tizimli nazorat;
- Hajm bo'yicha bitimlar bajarilishini baholash, yetkazib berishlar maromiyligi, mahsulotlar butligi;
- Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga omillar ta'sirini aniqlash;
- obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha korxona faoliyatini baholash;
- Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha aniqlangan zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.¹

Ishlab chiqarish hajmini o'rganish ish faolligining muayyan diapazonida, ya'ni relevant qator taqdim etuvchi min-max chegarasida amalga oshiriladi. Tahlil nafaqat mutlaq min-max chegarasida, balki o'zgarmas doimiy xarajatlar chegarasida ham amalga oshirilishi mumkin. Relevant qator minimal mumkin, maksimal mumkin, optimal va haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning minimal hajmi –mayjud ishlab chiqarish shart-sharoitlari hamda mahsulot uchun narxlarda daromadlar va xarajatlar tengligiga erishiladigan hajm hisoblanadi.

Maksimal hajm ishlab chiqarish omillarining maksimal yuklamasini ta'minlaydi.

Optimal sifatida shunday ishlab chiqarish hajmi e'tirof etiladiki, bunda mayjud ishlab chiqarish shart-sharoitida muayyan narx diapazonida maksimal foya olish ta'minlanadi. Optimallashtirish vazifasi amaliydan ko'ra ko'proq nazariy sanalsa-da, biroq mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda bilish zarur bo'lgan mo'ljal hisoblanadi.



1-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlil obyektlari

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlili uchun **axborot manbalari** sifatida tashkilotlar biznes-rejasi, operativ reja-grafiklar, 1-S shakli (yillik) - "Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish to'g'risida", 1-S shakliga ilova - "Sanoat korxonalarining 2014-yilda mahsulot yetkazib berish va moddiy resurslarni olishga shartnomalar tuzishining borishi yuzasidan so'rov", 1-korxona shakli - "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida", 2-shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot", Tayyor mahsulot harakati haqida ma'lumotnomha va birlamchi hisobga olishning ayrim ma'lumotlari hamda mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalardan foydalilanadi.

Korxona tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot natural, shartli-natural va qimmat ko'rsatkichlari yordamida o'lchanadi.

Natural ko'rsatkichlar tahlil uchun qulay va korxona tomonidan bajarilgan ishlar hajmini nisbatan aniq tavsiflaydi. Lekin natural ko'rsatkichlar qo'llanilishi chegaralangan, chunki aksariyat korxonalar bir emas, balki bir necha turdag'i mahsulotlar tayyorlaydi, bu esa turli mahsulotlarni jamlashni istisno etadi. Natural ko'rsatkichlarni qo'llash cheklanganligi shartli-natural ko'rsatkichlar paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, yigirish ishlab chiqarishida mahsulotlar hisobi kilonomerlarda, to'qimachilik ishlab chiqarishida – hisob kalavada olib boriladi va hokazo.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 88 page.

Tahlilda qimmat ko'rsatkichlardan yalpi va tovar mahsulotlari ko'proq qo'llaniladi, ular mahsulot ishlab chiqarish hajmining bajarilish darajasini tavsiflaydi.

Yalpi mahsulot tarkibiga asosiy va qo'shimcha tsexlar tomonidan ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar, o'zлari ishlab chiqargan yarimfabrikatlar, tashqariga chiqarilgan sanoat xarakteridagi ish va xizmatlar, o'z asbob-uskunalarini kapital ta'mirlash, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o'zgarishi, maxsus mo'ljallangan instrumentlar va o'z ishlab chiqarishidagi yarimfabrikatlar kiritiladi. Yalpi mahsulotdan farqli o'laroq tovar mahsulotlar tarkibiga buyurtmachilar xom ashyosi qiymati va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o'zgarishi, o'z ishlab chiqarishidagi yarimfabrikatlar va instrumentlar kiritilmaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o'sishi yoki kamayishi faqatgina korxonalar qatoridava ishlab chiqarishning uzoq tsikli bilan hisobga olinadi.

Tahlil mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini o'rganish, bazis va zanjirli o'sish sur'ati hamda ko'payishni hisoblash bilan boshlanadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda ifodalanishi lozim, uning asosi sifatida esa bazis davr narxlari qabul qilinadi. Masalan, i-davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmini bazis davr narxida aniqlash uchun uning miqdorini n oldingi davrlar uchun narxlar indeksi ko'paytmasiga bo'lish lozim:

$$215000:1,30=165384$$

$$220000 : (1,35 \cdot 1,30)=125356 \text{ i.t.d.}$$

O'sishning bazis sur'ati har bir keyingi darajani dinamik qatorning birinchi yiliga nisbati bilan, zanjirli sur'ati – oldingi yilga nisbati bilan aniqlanadi.

1-jadval

Ishlab chiqarish dinamikasi tahlili

| Yil | Joriy narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm | Narx indeksi | Bazis yildagi narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm | Ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % | |
|------|--|--------------|--|--|-------|
| | | | Bazis | zanjirli | |
| 2011 | 200 000 | 1,0 | 200 000 | 100 | 100 |
| 2012 | 215 000 | 1,30 | 165384 | 82,7 | 82,7 |
| 2013 | 220 000 | 1,35 | 125356 | 62,6 | 75,8 |
| 2014 | 339150 | 1,20 | 209352 | 104,6 | 167,0 |
| 2015 | 336006 | 1,10 | 254550 | 127,3 | 127,6 |

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, dastlabki ikki yil mahsulot ishlab chiqarishja inqiroz sodir bo'lgan, keyingi yillarda esa biroz o'sish qayd qilingan. Yakunda 4 yilda ishlab chiqarish hajmi 27,3 % ga o'sgan.

Keyingi tahlillarda o'rtacha geometrik yoki o'rtacha arifmetik tortilgan bo'yicha aniqlanadigan mahsulot o'sishning o'rtacha yillik sur'ati aniqlanadi.

Uning o'rtacha geometrigini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} T &= \sqrt[n-1]{T_1 * T_2 * T_3 * T_4 * T_5} = \sqrt[4]{1,0 * 0,827 * 0,758 * 1,670 * 1,276} = \sqrt[4]{1,335} \\ &= 1,074 = 107,4\% \\ &107,4 - 100,0 = 7,4\% \end{aligned}$$

Demak, mahsulot ishlab chiqarish o'sishining o'rtacha yillik sur'ati 7,4% ni tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini o'rgangandan so'ng 1-p «Mahsulotlar bo'yicha hisobot» hisobot shakli ma'lumotlari bo'yicha taqqoslama narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi bajarilishini baholash zarur. Ushbu hisobot shaklida mahsulot (ish, xizmat) hajmi quyidagicha aks ettiriladi:

- a) taqqoslama ulgurji narxlarda
- b) hisobot davrining amaldagi narxlarda.

Taqqoslama narxlar mahsulot ishlab chiqarish o'sishi sur'ati va reja bajarilishini aniqlash uchun zarur.

2-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish rejasи bajarilishi va dinamikasi tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | | Og'ish | | | |
|---|------------|--------------|--------|------------------|--------|------------------|--------|
| | | Reja | Haq. | rejadan | | o'tgan yildan | |
| | | | | summa, ming so'm | % da | summa, ming so'm | % da |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| Korxonaning ulgurji narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi: | | | | | | | |
| - taqqoslama narxlarda | 209352 | 220388 | 254550 | +34162 | +15,50 | +45198 | +21,59 |
| - hisobot yilining amaldagi narxlarda | 229243 | 237940 | 272389 | +34448 | +14,48 | +43146 | +18,82 |

2-jadval ko'rsatkichlari korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejasini uddalaganligidan darak beradi. mahsulot (ish, xizmat) hajmi rejası taqqoslama narxlarda 34162 ming so'mga yoki 15,50% ga ortig'i bilan bajarilgan, oldingi yilga nisbatan o'sish 45198 ming so'm yoki 21,59% ga teng. Mavjud narxlarda mahsulot o'sishi 18,82 % ni tashkil qiladi.

mahsulot ishlab chiqarish hajmining qiymat va natural ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi variantlar ehtimol tutiladi:

– qiymat ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati natural ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori – mahsulot hajmining o'zgarishi asosan narx o'sishi bilan shartlangan;

– natural ko'rsatkichlari o'sish sur'ati qiymat ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori – mahsulot hajmining o'zgarishi mahsulotning jismoniy hajmi o'sishi bilan vujudga kelgan.

6. Mahsulotni sotishdan tushumni shakllantirish omillari

Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushum tashkilotning ishlab chiqarish tsikli yakunlanganligi, ishlab chiqarishga bo'naklangan tashkilot mablag'larning pul shaklida qaytganligi va barcha mablag'larning yangi tsikli boshlanganligini tavsiflaydi. Mahsulot sotish hajmidagi o'zgarishlar tashkilotlar faoliyatining moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sotishdan tushumlar o'zgarishi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar sirasiga quyidagilar kiritiladi:

- sotish hajmi o'zgarishi;
- sotilgan mahsulotning chiqarish narxi o'zgarishi;
- sotish tarkibi o'zgarishi.

Sotishdan tushumlarning umumiyligi o'zgarishi quyidagi tarzda omilli og'ishlar miqdori ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\Delta T = T_1 - T_0 = \Delta T_q + \Delta T_p + \Delta T_c ,$$

Bu erda

T_1 – hisobot yilidagi tushum;

T_0 – bazis yildagi tushum;

ΔT_q – sotish hajmi o'zgarishi natijasida og'ish;

ΔT_c – sotish tarkibi o'zgarishi natijasida og'ish;

ΔT_p – sotilgan mahsulotning chiqarish narxi o'zgarishi natijasida og'ish.

Bunda tushumni (T) sotish narxining (r) sotish hajmiga (q) ko'paytmasi sifatida tasavvur qilamiz. Bunda bazis yildagi tushum quyidagiga teng bo'ladi:

$$T_0 = p_0 * q_0 ,$$

Joriy yildagi tushum esa:

$$T_1 = p_1 * q_1 ,$$

Bu erda p_0 , P_1 – bazis va joriy yildagi sotish narxi;

q_0 , q_1 – bazis va joriy yildagi sotish hajmi.

Bundan kelib chiqqan holda sotish hajmi o'zgarishining (o'zgarmas narxlar holatida) tushum o'zgarishiga ta'sirini hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$\Delta T_q = p_0 * q_1 - p_0 * q_0 = p_0(q_1 - q_0) = p_0 * \Delta q$$

Sotish narxi o'zgarishining (o'zgarmas hajmida) tushum o'zgarishiga ta'sirini hisoblash quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta T_{p_1} = p_1 * q_0 - p_0 * q_0 = q_0(p_1 - p_0) = q_0 * \Delta p$$

Tahlil jarayonida sotish tarkibining o'zgarishi kabi omillar ta'siri ham aniqlanadi. Bunda alohida assortiment pozitsiyalarning bazis va tahlil davrida sotishning umumiyligi hajmidagi ulushi belgilanadi, keyin esa strukturaviy o'zgarishlarning umumiyligi sotish hajmiga ta'siri hisoblanadi. Sotilgan mahsulot assortimenti o'zgarishi natijasida olimmay qolgan tushum – salbiy, rejadan tashqari tushum ijobiy baholanadi. Yanada bat afsil tahlilda strukturaviy o'zgarishlarning yanada aniqroq bahosi talab qilinadi.

7. Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

Mahsulot sotish tahlili har oy, chorak, yarim yil va yil uchun o'tkaziladi. Bu jarayonda uning haqiqatdagi ma'lumotlari rejaviy, oldingi davrlar bilan taqqoslanadi, rejaning bajarilish foizi, rejadan mutlaq og'ish, tahlil davridagi o'sish sur'ati va ko'payish, ko'payishning bir foizi uchun mutlaq qiymat hisoblanadi.


Baholash jarayonida farq kuzatilgan assortiment pozitsiyalarini ajratish zarur:

– haqiqatda ishlab chiqarish hajmining reja bilan farqi, shu sababli mahsulot sotish hajmi bo'yicha shartnoma majburiyatları bajarilmagan;

– haqiqatda ishlab chiqarish hajmining rejalanigan sotish hajmi bilan farqi, shu sababga ko'ra korxonada sotilmagan mahsulotlarning me'yordan ortiqcha zaxiralari to'planib qolgan.

Analitik ishlarni amalga oshirish jarayonida ushbu vaziyatlarning tashkilot uchun oqibatlari baholanadi. Birinchi holatda – bu shartnoma majburiyatları buzilganligi uchun jarima sanktsiyalari, ikkinchisida – mavjud me'yordan ortiqcha zaxiralalar bilan bog'liq xarajatlarning yuzaga kelishi: ombor xarajatlari, mulk solig'i oshishi, aylanma mablag'lar aylanuvchanligi sekinchashuvi, kapitalning zaxiralarda qotib qolishi va boshqalar.

Quyida ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlari, ombordagi mahsulot qoldiqlarini sotish va dinamikasining qiyosiy tahlili tovar balansi doirasida amalga oshiriladi.



2-rasm. Mahsulot sotish hajmining omilli tahlili sxemasi

Mahsulot sotish tahlilining ikki variantini qo'llash mumkin. Agar tashkilot tushumi tovar mahsulotlar jo'natilishi bilan aniqlansa, u holda tovar mahsulotlar balansi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\text{On} + \text{T} = \text{R} + \text{Ok} , \\ \text{Bundan: R} = \text{On} + \text{T} - \text{Ok}$$

Agar tushum jo‘natilgan mahsulot to‘lovi amalga oshirilgandan so‘ng aniqlansa, u holda tovar balansini quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{aligned} On + T + OTn &= Z + OTk + Ok, \\ R &= On + T + OTn - Otk - Ok, \end{aligned}$$

Bu erda On , Ok – davr boshi va oxiri uchun omborlardagi tayyor mahsulot qoldig‘i;

T – tovar mahsulotlar ishlab chiqarish;
R – hisobot davrida mahsulot sotish hajmi;
OTn, OTk – davr boshi va oxiri uchun xaridorlar tomonidan to‘lanmagan jo‘natilgan mahsulot qoldig‘i.

Mazkur omillarning mahsulot sotish hajmiga ta’sirini hisoblash omilli ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini rejaviy bilan taqqoslash va ularning har biri uchun mutlaq hamda nisbiy o‘sishlarni hisoblab chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

6-jadval Mahsulot sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili (ming so‘mda)

| № p/p | Ko‘rsatkich | Shartli belgi | Hisobot yili | | Rejadan og‘ish | Sotish hajmiga ta’sir |
|-------|--------------------------------------|---------------|--------------|--------|----------------|-----------------------|
| | | | Reja. | Haq. | | |
| 1. | Yil boshida tayyor mahsulot qoldig‘i | Qb | 16166 | 25352 | +9186 | +9186 |
| 2. | Tovar mahsulot ishlab chiqarish | T | 268682 | 281126 | +12444 | +12444 |
| 3. | Yil oxirida tayyor mahsulot qoldig‘i | Qo | 24394 | 26098 | +1704 | -1704 |
| 4. | Mahsulot sotish (moddalar:1+2+3) | R | 260454 | 280380 | +19926 | X |

Bizning misolimizda mahsulot sotish rejasi 19926 ming so‘mga yoki 7,6% ziyod bajarilgan (19926 *100 : 260454). Ulardan 9186 ming so‘m yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldiqlari ortishi ulushiga to‘g‘ri keladi. Tovar mahsulotlarni rejadan tashqari ishlab chiqarish 12444 ming so‘mni tashkil qiladi va sotish ham xuddi shu miqdorga ortgan. Biroq tayyor mahsulot qoldiqlarining rejadan tashqari o‘sishi yil oxirida sotish hajmining 1704 ming so‘mga kamayishiga olib keldi.

7-jadval Sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili natijalarini umumlashtirish

| № p/p | Omillar | | Summa, ming so‘m | Rejaga nisbatan foizda |
|----------|--|--------|------------------|------------------------|
| | 1. | 2. | | |
| 1. | Yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldig‘ining ortishi | +9186 | +3,5 | |
| 2. | Tovar mahsulotni rejadan tashqari ishlab chiqarish | +12444 | +4,7 | |
| 3. | Yil oxiri uchun tayyor mahsulot qoldig‘ining ortishi | -1704 | -0,6 | |
| Σ | Jami | +19926 | +7,6 | |

Hisoblashni tekshirish:

$$+9186 +12444 -1704 = +19926 \text{ ming so‘m.}$$

$$+3,5 +4,7 -0,6 = +7,6\%$$

Tahlil jarayonida omborlarda rejadan tashqari qoldiqlar vujudga kelishi, xaridorlar tomonidan mahsulotlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmasligining sabablarini aniqlash va mahsulot sotish hamda tushum olishni jadallashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

8. Mahsulotlar yetkazib berish bo‘yicha shartnomma majburiyatları tahlili

Yetkazib berish bo‘yicha shartnomma majburiyatları bajarilishini hisobga olgan holda sotish ko‘rsatkichlarini amaliyotda qo‘llash juda muhim ahamiyatga ega, chunki korxona rahbariyatining ishlab chiqarilayotgan mahsulotning natural-moddiy tarkibi va uning xaridorlar bilan shartnomalarda nazarda tutilgan talablarga mutanosibligiga e’tiborini kuchaytiradi. Pul muomalasini tartibga solish uchun mahsulot sotishdan tushumlar miqdorini ham bilish lozim.

Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha reja bajarilishini baholashga o‘tishdan avval umumiy miqdor va mahsulotlar assortimenti bo‘yicha sotish rejasining yil boshi va oxiri uchun sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlari hamda tovar mahsulotlar ishlab chiqarish rejasi bilan muvofiqligini, shuningdek, rejaviy sotish hajmining xaridorlar bilan shartnomalar orqali ta’minlanganligini tekshirish zarur. Amaliyotda shartnomalarning umumiy summasi sotish rejasidan kam bo‘lgan, ya’ni rejalashtirilayotgan sotish ta’milanmagan holat uchrab turadi. Mahsulotlarning rejalashtirilgan natural-moddiy tarkibi bilan shartnomalar va ularga ilova qilingan spetsifikatsiyalarda qayd qilingan xaridorlar buyurtmalari o‘rtasida tafovut undan ham ko‘proq kuzatiladi.

Bundan tashqari, yil boshi va oxiri uchun sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlari sotshini rejalashtirishda taxminan hisoblanadi, chunki yil boshi uchun ushu qoldiqlar haqidagi hisobot ma‘lumotlari mavjud bo‘lmaydi (kelgusi yil rejasi hisobot yili yakunlangunga qadar ishlab chiqiladi). Shu sababli mahsulotlarning rejaviy balansi real bo‘imasligi mumkin. Yil boshi uchun balans bo‘yicha sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlarini aniqlash uchun ularning sotish hajmining rejaviy hisoblashlari uchun qabul qilingan miqdori bilan taqqoslanadi. Tekshirish natijalarini bo‘yicha zaruratga ko‘ra sotishning rejalashtirilgan umumiy hajmiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Mahsulotning natural-moddiy tarkibi bo‘yicha xaridorlar bilan shartnomalarga sotish rejasi mutanosibligiga oid yanada batafsil tahlil rejalashtirilgan ishlab chiqarish assortimenti va yil boshi va oxiri uchun sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlari haqidagi ma‘lumotlar jah bilan qilinishini taqozo etadi.

Sotish rejasi asoslanganligi va realligi tekshirilgandan so‘ng uning bajarilishini baholashga o‘tish talab qilinadi.

Mahsulotlar yetkazib berish bo‘yicha shartnomma majburiyatları bajarilishi quydagi formula bo‘yicha aniqlanadi (foizlarda):

$$Kn = (N^0 - Nn) : N^0 * 100\%,$$

Bu yerda Kn – shartnoma majburiyatlari rejasi bajarilishining izlanayotgan foizi, %;

N^o – tuzilgan shartnomalar uchun rejaviy mahsulot hajmi, ming so‘m;
Nn – shartnomalar bo‘yicha yetkazib berilmagan mahsulot, ming so‘m.

8-jadval

Mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, ming so‘m

| Hisobot davri | Reja bo‘yicha shartnomalar tuzish uchun mahsulot ishlab chiqarish | | Shartnoma majburiyatlarini bo‘yicha yetkazib berilmagan mahsulot | | Mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, % | |
|---------------|---|------------------------------|--|------------------------------|---|------------------------------|
| | Hisobot oyi uchun | Yil boshidan beri davr uchun | Hisobot oyi uchun | Yil boshidan beri davr uchun | Hisobot oyi uchun | Yil boshidan beri davr uchun |
| Yanvar | 500 | 500 | - | - | 100 | 100 |
| Fevral | 520 | 1020 | | | 100 | 100 |
| Mart | 520 | 1540 | 15 | 40 | 97,1 | 97,4 |
| va boshqalar | | | | | | |

9-jadval

Umuman korxona bo‘yicha shartnoma majburiyatlarini bajarilishi quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi (ming so‘mda) :

| Nº | Ko‘rsatkich | Hisobot yili uchun reja | Hisobot yili uchun haqiqatda |
|----|--|-------------------------|------------------------------|
| 1. | Taqqoslama narxlarda sotish | 260454 | 280380 |
| 2. | Yetkazib berishlar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi | X | 20950 |
| 3. | Yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlarni hisobga olgan holda mahsulot sotish hajmi | X | 239504 |
| 4. | Sotish rejasining bajarilish foizi | X | 91,9 |

Bizning misolimizda umumiy hajim bo‘yicha mahsulot sotish rejasi 107,6% ga bajarilgan. Biroq mahsulot yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlarni hisobga olgan holda reja 91,9% ($239504 * 100 : 260454$) ga bajarilib, yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlar bajarilmasligi 20950 ming so‘mni tashkil qiladi.

Yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlar hisobga olingan holda sotish hajmi 239504 ming so‘m (260454 – 20950).

Shartnomalar bo‘yicha rejaning bajarilmasligi korxona uchun tushum kamayishi, jarima sanktsiyalari to‘lashga olib keladi. Bundan tashqari, raqobat sharoitida korxona mahsulot sotish bozorini yo‘qotishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish tanazzuliga sabab bo‘ladi.

Shartnoma majburiyatlarini bajarilishi tahlili alohida shartnomalar, mahsulot turlari, yetkazib berish muddatlari kesimida tashkil etilishi lozim.

Yetkazib berishlar borishini tezkor tahlil qilish uchun axborot manbalari sifatida asosan operativ-texnik va statistik hisob ma’lumotlari, kuzatish materiallari xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobi ham axborot manbasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, lekin kechikuchchi xarakteri bilan bog‘liq ravishda ancha chegaralangan holda qo‘llaniladi. Axborot texnologiyalarini qo‘llash assortiment kesimida, shuningdek, yetkazib berishlar muddatlari bo‘yicha har bir olvchi bo‘yicha jo‘natmalar haqida tezkor axborot olishga imkon beradi.

9. Mahsulot sifati tahlili

Hozirgi sharoitda zamonaviy turdag‘i mahsulotlarni zaruriy miqdorda va yuqori sifatlari ishlab chiqarish hal qiluvchi vazifalardan biri sanaladi.

Mahsulot sifati – mahsulot sotish o‘sishiga imkon beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va korxonalar raqobatbardoshligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

Mahsulot sifati – uning mo‘ljallanganligiga muvofiq muayyan ehtiyojni qondirish uchun yaroqliliginı shartlovchi mahsulotlar xususiyatlari majmuidir.

Sanoatning turli tarmoqlari mahsulotlari o‘ziga xos sifat parametrlariga ega. Mashinasozlik milliy iqtisodiyot uchun yangi texnikalar yaratish va amaldagi texnikalarni rekonstruktсия qilishda etakchi tarmoq hisoblanadi. Engil va oziqovqat sanoati tarmoqlarida sifatni tavsiflovchi belgilar tovarlarning iste’mol xususiyatlarni oshirish, masalan, matolar asilligi, bo‘yoq chidamliliqi, mahsulotlar mustahkamligi, kaloriyalilik va boshqalar hisoblanadi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish hajmi texnik taraqqiyot darajasini tavsiflaydi.

Tabiyki, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning ilk davrida katta xarajatlarni talab qiladi, lekin bu loyiha quvvatlarini o‘zlashtirish, kelgusida seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarish natijasida o‘zini qoplaydi. Tobora mahsulot tannarxi kamayib, mos ravishda uning ulgurji narxlari ham pasayadi. Bu ham ishlab chiqaruvchilar, ham iste’molchilar uchun foydali hisoblanadi.

Mahsulotlarning sifatini tashkil etuvchi bir yoki bir nechta xususiyatlarining miqdoriy tavsifi **sifat ko‘rsatkichi** deb yuritiladi.

Mahsulotlar **sifat ko‘rsatkichining umumiyyatini**, **individual** va bilvosita ko‘rsatkichlari mavjud. Sifat ko‘rsatkichlari mahsulotlarning parametrik, iste’mol, texnologik dizayn xususiyatlarini, uning standartga muvofiqligi, ishonchiligi va chidamliligidini tavsiflaydi.

Umumiy ko‘rsatkichlar turi va mo‘ljallanganligidan qat’iy nazar barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatini masalan, quyidagilarning ulushini tavsiflaydi:

- umumiy ishlab chiqarishda yangi mahsulotlar ulushi;
- sertifikatlangan va sertifikatlanmagan mahsulotlar ulushi;
- xalqaro standartlarga javob beruvchi mahsulotlar ulushi;
- eksport qilinayotgan, jumladan yuksak rivojlangan sanoat mamlakatlariga jo‘natilayotgan mahsulotlar va boshqalar.

Mahsulot sifatining **individual (yagona) ko'rsatkichlari** uning xossalardan birini tavsiflaydi:

- foydalilik (sut yog'liliqi, ko'mirning yonuvchanligi, rudada temir miqdori, oziq-ovqat mahsulotlarida oqsil miqdori va boshqalar);
- ishonchlik (chidamlilik, ishda buzilmasligi);
- konstrukturlik va texnologik qarorlar samaradorligini aks ettiruvchi texnologiklik (mehnat sig'imi, energiya sig'imi va hokazo);
- mahsulotlar estetikligi.

Bilvosita ko'rsatkichlar – bular sifatsiz mahsulotlar uchun jarimalar, yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlarning hajmi va ulushi, reklama qilingan mahsulotlar ulushi, yaroqsizga chiqarishdan yo'qotishlar va boshqalar.

Mahsulot sifatini tahlil qilish asosida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- mahsulotlarning texnik darajasi baholanadi;
- bazaviy va nazariy mumkin bo'lgan darajaga nisbatan alohida mahsulotlar bo'yicha ushbu darajaning og'ishi aniqlanadi;
- tayyorlash va yetkazib berish sifatini tavsiflovchi parametrlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish tarkibi tahlil qilinadi;
- mahsulotlar texnik darajasini sekinlashtiruvchi omillar aniqlanadi;
- mahsulot sifatini oshirish, yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish va yo'qotishlarni qisqartirish imkoniyatlari asoslanadi.

Mahsulot sifatini tahlil qilish uchun foydalaniladigan axborot tahlil qilinayotgan obyektning deyarli barcha jihatlarini qamrab oladi (konstruktsiyalar haqida ma'lumotlar, mehnat vositalari va predmetlarida qo'llaniladigan texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish va sotish natijalari, reklama haqida ma'lumotlar va boshqalar)

Axborot manbalari sifatida sinov hujjatlari, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarning laboratoriya nazorati ma'lumotlari, texnik nazorat bo'limi (TNB) ma'lumotlari va boshqalar xizmat qiladi¹.

Mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilishini umumlashtirma baholash uchun turli usullar, jumladan ball-usuli qo'llaniladi. Baholashning ball usuli mohiyati shundan iboratki, mahsulot sifatining o'rtacha tortilgan bali aniqlanadi hamda uning haqiqatdagi va rejadagi darajasini taqqoslash yo'li bilan sifat bo'yicha reja bajarilishining foizi topiladi.

Sifat nav bilan tavsiflanadigan mahsulotlar bo'yicha har bir navning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi, o'rtacha navlilik koeffitsienti, taqqoslama shartlarda mahsulotning o'rtacha tortilgan narxi hisoblanadi. Birinchi ko'rsatkich bo'yicha reja bajarilishini baholashda mahsulotning umumiyligi hajmida har bir navning haqiqatdagi ulushi rejadagi bilan, sifat dinamikasini o'rganish uchun esa – o'tgan davrlar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

O'rtacha navlilik koeffitsienti barcha navdagi mahsulotlar qiymatining yuqori nav bahosi bo'yicha qiymatiga nisbatli sifatida aniqlanadi.

10-jadval

| Nav | Birlik uchun ulgurji narx, so'm. | Mahsulot (un mahsuloti) sifati tahlili | | | Qiyomat ifodasida ishlab chiqarish, ming so'm | |
|----------|--|--|------|------------------------|--|-------|
| | | Naturada ishlab chiqarish, dona | | Reja bajarilishi, % | Solishtirma og'irlilik, % | |
| | | Reja | Haq. | | Reja | Haq. |
| Oliy | 2500 | 1420 | 1490 | 104,9 | 56,35 | 59,84 |
| Birinchi | 2200 | 1100 | 1000 | 90,9 | 43,65 | 40,16 |
| Jami | X | 2520 | 2490 | 98,8 | 100 | 100 |

10-jadvalga ko'ra reja 98,8 % bajarilgan, yuqori navli mahsulot ishlab chiqarish 104,9 %, birinchi navli – 90,9 %. Biroq bu navlilik bo'yicha reja bajarilganligini tavsiflamaydi. O'rtacha navlilikning rejadagi va haqiqatdagi koeffitsientlarini, shuningdek, mahsulot birligining o'rtacha sotilgan bahosini aniqlash talab qilinadi.

1. O'rtacha navlilik koeffitsienti:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{5970 \text{ ming so'm}}{2500 * 2520} = 0,948$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{5925 \text{ ming so'm}}{2500 * 2490} = 0,952$$

2. Mahsulot birligining o'rtacha sotilgan bahosi:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{5970 \text{ ming so'm}}{2520} = 2369,03 \text{ so'm.}$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{5925 \text{ ming so'm}}{2490} = 2379,5 \text{ so'm.}$$

Sifat ortishi hisobiga o'rtacha narx 10,47 so'mga oshgan. (2379,5 – 2369,04)

Sifatning mahsulotlar hajmiga ta'siri:

$$(2379,5 – 2369,04) * 2490 = +26,045 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulotlarning navli tarkibining uni ishlab chiqarish hajmiga qiyomat ifodasida ta'sirini hisoblash uchun mahsulot ishlab chiqarish tarkibi tahlilida qo'llaniladigan usullardan ham foydalanish mumkin.

11-jadval ma'lumotlari bo'yicha ushbu hisoblashni mutlaq farqlar usulida bajaramiz. Hisoblash natijalari 11-jadvalda keltirilgan.

11-jadval
Mahsulot nav tarkibining mahsulot ishlab chiqarishga ta'siri (qiyomat ifodasida un mahsuloti)

| Mahsulot navi | Mahsulot birligi uchun ulgurji narx, so'm | Mahsulot tarkibi, % | | | Strukturna o'zgarishi hisobiga o'rtacha narx o'zgarishi, so'm. |
|---------------|---|---------------------|-------|---------------|---|
| | | Reja | Haq. | Og'ish, (+,-) | |
| Oliy | 2500 | 56,35 | 59,84 | +3,49 | 87,25 |
| Birinchi | 2200 | 43,65 | 40,16 | -3,49 | -76,78 |
| Jami | X | 100 | 100 | - | 10,47 |

Nav belgilangan mahsulotlarning barcha turlari bo'yicha shunga o'xshash hisoblash bajariladi, natijalar umumlashtiriladi.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 103 page.

Mahsulot sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri detallar, yarimfabrikatlar va tayyor mahsulotlar yaroqsiz bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Yaroqsizga chiqarishdan yo'qotish odatda mahsulot tannarxi tahlili jarayonida tadqiq qilinadi.

Reklamatsiya yetkazib berilayotgan mahsulotlar sifatiga rioxaya qilmaslikka doir e'tirozlarni ma'lum darajada tavsiflaydi. Reklamatsiya mahsulotlardagi nuqsonlarni bartaraf qilish, texnologiyalar va mahsulotlar konstruktsiyasini yaxshilash, yuqori sifatlari materiallarni qo'llash va boshqalar bo'yicha tezkor choralar qabul qilish uchun signal hisoblanadi.

Mahsulotlar **butligi** deganda tayyor mahsulotning mazkur turi uchun zaruriy instrumentlar, detallar va moslamalar majmui mavjudligi tushuniladi. Masalan, traktor, avtomobil yoki boshqa mashina agar tegishli instrumentlar va ehtiyyot qismlari bilan ta'minlangan bo'lsa, iste'molchilar uchun jo'natishga tayyor hisoblanadi. Qonun but bo'limgan mahsulotlarni jo'natish va ularni hisobotga kiritishni taqiqlaydi. Shuning uchun ushbu talablarga rioxaya qilinishini tekshirish hamda hamkor korxonalarga uzellar, detallar, priborlar, ehtiyyot qismlari, instrumentlar va moslamalar yetkazib bermaslik sabablarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Mahsulot ishlab chiqarishning bajarilishi va uning dinamikasi qanday tahlil etiladi?
2. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti qanday tahlil etiladi?
3. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi nima?
4. Mahsulot (ish, xizmat)larning buzilishidan ko'rilgan brak qanday tahlil etiladi?
5. Maromiylikning buzilishiga nimalar sabab bo'ladi?
6. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib bering?

7-bob. MEHNAT RESURSLARI VA MEHNATGA HAQ TULASHNI TAHLIL QILISH

Reja:

1. Mehnat resurslari tahlilining mazmuni va vazifalari.
2. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili.
3. Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilarning malaka darajasini tahlili.
4. Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini taxlili va uning o'zgarish sababları.
5. Mehnat unumdarlik dinamikasining taxlili.
6. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mexnat unumdarligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
7. Ishchining mehnat unumdarligiga ta'sir etuvchi omillarining tahlili.
8. Mahsulot mehnat sig'imining tahlili.
9. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlili.

Tayanch so'zlar:

Mehnat resurslari, mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili, qqnimsizlik, ish vaqtidan foydalanishini taxlili

1. Mehnat resurslari tahlilining mazmuni va vazifalari

Respublikamizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Mehnat ko'rsatkichlari tarkibiga quydagilar kiradi.

- A) Ish haqi fondi.
- B) Xodimlar soni.
- V) Mehnat unumdarligi.
- G) O'rtacha yillik ish haqi.

1997-1998 yillarda YAlpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi yuqori suratlar bilan oldingi yillarga nisbatan o'sdi. Mehnat unumdarligini o'sish darajasi mahsulot hajmini o'sish darajasiga nisbatan yuqori bo'lishi mamlakat miqyosida katta iqtisodiy samara berdi. Xalqaro tajribadan ma'lumki, shu ko'rsatkich davlat iqtisodiyoti qudrati, kishilar turmush farovonligi omillarini mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Moddiy ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar quydagilardir.

1. Mehnat unumdarligini o'sish darajasi.
2. Mehnat unumdarligi hisobiga mahsulot hajmini o'sishi.
3. Xodimlar sonini nisbiy kamayishi.
4. Mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod.
5. Mehnat unumdarligi o'sish darajasini mehnat haqini o'sish darajasiga nisbati.

Mehnat resurslarini tahlil etish orqali korxonani xodimlar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ularning tarkibi, tuzilishi, kasbiy mahorati, xodimlarni malakasini oshirish, ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ayniqsa mehnat unumdarligini oshirish imkoniyatlari ko'proq e'tibor beriladi.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil etishdan maqsad, mehnat unumdorligini oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmini o'sishini, ish vaqtidan to'liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iboratdir. Mehnat resurslarini tahlil qilishda moliyaviy tahlilning vazifalari:

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, uning tarkibi, strukturasi o'zgarishini mehant unumdorligiga bo'lgan ta'sirini hisoblash.
2. Ish vaqtini yo'qotish sabablarini aniqlash.
3. Mehnat unumdorlik rejasini bajarilishi va dinamikasiga obyektiv baho berish.
4. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish rezervlarini aniqlash.

Tahlil manbai:

Mehnat resurslaridan foydalanish to'zrisidagi 1-T statistik hisobot shakli, ish vaqtidan foydalanish, ish vaqt balansi to'g'risidagi hisobot, ishga kelish, ketish to'g'risidagi tabel, ish kunini fotografiyasi, ishlab chiqarish normasini bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotnomma va boshqa ma'lumotlar.

2. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi korxonani ish kuchi bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlariga ko'p jihatdan boG'liq. Mehnat resurslari ishlab chiqarishga uch yoqlama ta'sir etadi.

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi.
2. Ish vaqtidan foydalanish.
3. Mehnat unumdorlik darajasi.

Korxonaning barcha bo'g'inalrida xizmat qiladigan xodimlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari
2. Noishlab chiqarish sohasidagi hodimlar.

Ishlab chiqarish jaraYOnida mehnat qiladigan kategoriyadagi sex uskunalarini kapital ta'mirlash, korxona boshqaruv bo'limi, konstruktur byurosi, YOning'indan muhofaza qilish sohasidagi xodimlar sanoat ishlab chiqarish xodimlari deb ataladi.

Transport, uy-joy xo'jaligi, bolalar bog'chasi va yasliisi, madaniy-ma'rifiy sohalardagi xodimlar noishlab chiqarish xodimlari tarkibiga kiradi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari ishlab chiqarishdagi roliga qarab quyidagi kategoriyadagi xodimlarga bo'linadi:

- Ishchilar
- Xizmatchilar
- Rahbar xodimlar
- Mutaxassislar
- Qorovullar

Ish kuchini tahlili korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun jami sanoat ishlab chiqarish xodimlarini soni shu jumladan, ayrim kategoriyadagi xodimlari rejasini bilan taqqoslanib xodimlarni ortiqcha, etishmasligi aniqlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi

nafaqat korxonani umumiy miqdorda mehnat resurslari bilan ta'minlanishiga bog'liq bo'lmay, balki xodimlarni tuzilishiga bog'liq. Shu bois xodimlarning strukturasi, ularning o'zgarishi, o'zgarish sabablari va dinamikasi tahlil etilishi lozim.

Tahlil etishda sanoat ishlab chiqarish hodimlarini soni reja va o'tgan yildagisi bilan solishtirib korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va dinamikasi aniqlanadi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining strukturasi tarmoq hususiyati, mahsulot nomenkulaturasi, ixtisoslashish darajasiga bog'liq.

1-jadval

Mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasini tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | | | | Farqi (+,-) | |
|-----------------------------|------------|--------------|------|-----------|------|--------------|----------|
| | | Reja | | Xaqiqatda | | O'tgan yilda | Rejadagi |
| | | soni | % | soni | % | | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 7 | 8 | 9 |
| Ishchilar | 649 | 624 | 79.6 | 601 | 79.2 | -48 | -23 |
| Xizmatchilar | 172 | 120 | 15.3 | 118 | 15.5 | -54 | -2 |
| Raxbar xodim, mutaxassislar | 53 | 40 | 5.1 | 40 | 5.3 | -13 | - |
| Jami | 874 | 784 | 100 | 759 | 100 | -115 | -25 |

Korxona ish kuchi bilan yetarli miqdorda ta'min etilmagan (25 kishi) shundan, ishchilar 23 kishi, xizmatchilar 2 kishini tashkil etadi. Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bizning misolimizda ortig'i bilan ado etilgan. Demak mahsulot hajmini o'sishi asosan mehnat unumdorligi hisobiga erishilgan.

O'tgan yilga nisbatan ham xodimlar 115 kishiga qisqargan. Xodimlar tarkibida strukturaviy o'zgarishi yuz bergan. Ishchilarni tutgan ulushi rejadagi 79,6 foizdan haqiqatda 79,62 foizga qadar pasaygan. Xizmatchilar, rahbar xodimlar va mutaxassislarni esa rejaga nisbatan ulushi ko'tarilgan.

3. Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilarning malaka darajasini tahlili

Ishlab chiqarish rejalarining bajarilishi sanoat ishlab chiqarish hodimlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarga ham bog'liq. Yil davomida korxona xodimlari tarkibi ishga qabul qilish va bo'shatish hisobiga o'zgarib turadi¹. Bunday o'zgarishlar ish kuchi oboroti koefitsienti orgali ifodalananadi: tahlil etishda kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarilishi nazorat qilinadi. Buning uchun ishchilarni o'rtacha razryadi aniqlanadi. Kadrlarni qo'nimsizligi ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi.

Kunimsizlik koefitsientini aniqlash uchun o'z arizasiga muvofiq ishdan bo'shagan va mehnat intizomini buzganligi uchun ketgan xodimlar soni hodimlarni ro'yhat bo'yicha soniga bo'lish lozim. Bu ko'rsatkich o'tgan yil bilan taqqoslanadi va tegishli xulosa qilinadi.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 107 page.

2-jadval**Kadrlar ko'nimsizligini tahlili**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Iisobot yili |
|--|------------|--------------|
| Ishchilarni ro'yhat bo'yicha soni | 649 | 601 |
| Ishga qabul qilindi | 118 | 109 |
| Ishdan bo'shatildi | 163 | 155 |
| Shu jumladan: | | |
| A) o'z hohishiga ko'ra | 53 | 45 |
| B) progul va mehnat intizomini buzganligi uchun | 87 | 80 |
| V) o'qishga kirganligi, nafaqaga chiqqanligi sababli | 23 | 30 |
| Qabul qilish oboroti gr2/gr1 | 18,2 | 18,1 |
| Ishdan bo'shatish oboroti gr3/gr1 | 25,1 | 25,8 |
| Qo'nimsizlik koeffitsienti gr3a+gr3b/1 | 21,6 | 20,8 |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadi, korxonada ishdan bo'shatish oboroti, hamda qo'nimsizlik koeffitsientlari yuqori ko'rsatkichga ega. Bu ko'rsatkichlar orqali korxonada mehnatni tashkil etish, rag 'batlantirish sistemalari talab darajasida emasligini ifodalaydi.

Tahlil davomida ishchilarni kasbi bo'yicha korxonani ta'minlanishi aniqlanishi lozim. chunki mahsulot ishlab chiqarish korxonani ishchilarning kasbini hisobga olgan holda ta'minlanishiga bog'liq.

3-jadval**Ishchilarni kasbi bo'yicha ta'minlanishining tahlili**

| Ko'rsatkichlar | Reja | Xaqiqatda | Rejaming bajarilishi, % | Rejadan farqi | |
|--------------------------|------|-----------|-------------------------|---------------|-------|
| | | | | soni | % |
| 1. Yig'uvchi slesarlar | 144 | 111 | 77,1 | -33 | -22,9 |
| 2. Montajchisi-slesarlar | 150 | 160 | 106,7 | +10 | +6,7 |
| 3. Tokarlar | 170 | 155 | 91,1 | -15 | -8,9 |
| 4. CHilangarlar | 90 | 105 | 116,6 | +15 | +16,6 |
| 5. Payvandchilar | 70 | 70 | 100,0 | - | - |
| JAMI | 624 | 601 | 96,3 | -23 | -3,7 |

Korxona asosiy kasbdagi ishchilar bilan 96,3 foizga ta'minlangan. Montajchisi-slesarlar, chilangarlar kasbidagi iishchilar rejaga nisbatan ortiqcha bo'lgan holda qolgan kasbdagilar kamaygan. Bunday holatni bo'lishi ishlab chiqarishni normal tashkil etishga to'sqinlik qiladi, natijada belgilangan ish vaqtidan ortiqcha mehnat sarfi qilinishiga va ish haqi fondidan ortiqcha sarfga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish natijasi mehnat unumдорligi ishching mehnat stajiga ham boG'liq. Tahlil etishda uzlucksiz mehnat staji (1-yilgacha, 1-5 yil; 5-10; 10-15; 15-20; 20-25; 25 yildan ortiq)ni jami ishchilar sonida tutgan ulushi aniqlanadi va tegishli xulosa qilinadi.

4. Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili va uning o'zgarish sababları

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ishni tashkil etish va mehnat resurslarini, ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga ko'p jihatdan boG'liq. Ishchilarni ish vaqtini fondi ishching yil davomida ishlagan kishi-kunlari va kishi-soatlari ko'rinishida hisobotlarda ifodalanadi. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etish uchun ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlari va kishi-soatlari rejsi bilan taqqoslanib ish vaqtini yo'qotilishi va uni o'zgarish sababları aniqlanadi. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlarni qo'shimcha aniqlash lozim.

1. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlari.

2. Ish kuni davomiyligi.

Ish vaqtini fondi (kishi-soatlari) quyidagi ko'rsatkichlar ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

Jami ishlangan

Bir ishchingning

Ish kuni

kishi-soatlari

= Ishchilar soni X ishlagan kishi-kunlari X davomiy-

ligi

4-jadval**Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili**

| Ko'rsatkichlar | Reja | Xaqiqatda | Rejadan farqi (+,-) | Rejaning bajarilishi, % |
|--|--------|-----------|---------------------|-------------------------|
| 1. Ishchilarni ro'yxtat bo'yicha o'rtacha soni | 624 | 601 | -23 | 96,31 |
| 2. Ishchilarni yil davomida ishlagan jami kishi-kunlari, ming kishi-kuni | 162,2 | 154,5 | -7,7 | 95,25 |
| 3. Ishchilarni yil davomida ishlagan jami kishi-soatlari, ming kishi-soati | 1265,2 | 1212,8 | -52,4 | 95,85 |
| 4. Bir ishchingning ishlagan kishi-kunlari (3/1) | 260 | 257 | -3 | 98,80 |
| 5. Ish kuni davomiyligi, soat(3/2) | 7,80 | 7,85 | +0,05 | 100,60 |

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, korxonada ish vaqtidan to'liq foydalanimagan. Joriy yilda rejadagi ish vaqtini fondiga nisbatan 7,7 ming kishi-kunlari hamda, 52,4 ming kishi-soatlari yo'qotilgan. Yo'qotilgan ish vaqtini asosan ishchilar sonini 23 kishiga kamayishi va bir ishchingning yil davomida uch kundan ishga chiqmasligi tufayli ro'y bergan. Qo'shimcha ish vaqtini uzaytirish hisobiga yo'qotilgan ish soatlari qisman qoplangan. Jami yo'qotilgan 52,4 ming kishi-soatlari quyidagi omillar ta'sir etadi.

1. Ishchilar sonini o'zgarishi.

2. Bir ishchini ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi.

3. Ish kuni davomiyligini o'zgarishi.

Bu omillarning ish vaqtini fondiga bo'lgan ta'sirini mutloq farq usuli orqali aniqlaymiz.

Ishchilar sonining o'zgarishi

-23 x 260 x 7,80 = -46,6 ming kishi-soat

Bir ishchingning ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi

-3 x 601 x 7,80 = -14,1 ming kishi-soat

Ish kuni davomiyligini o'zgarishi

$$+0,05 \times 154,5 \text{ ming kishi-kun} = +7,7 \text{ ming kishi-soat}$$

5. Mehnat unumdorlik dinamikasining tahlili

Mahsulot hajmini oshirishda mehnat unumdorligini ulushi yuqoridir. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Mehnat unumdorligini o'lchov birliklari:

- A) Qiymat
- B) Natura.
- V) Mehnat.

Unumdorlik darajsini natura shakli aniq ifodalaydi, ammo bu ko'rsatkichni qo'llash cheklangan. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkich bu har bir hodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotdir.

Bulardan tashqari ishchining bir kunlik ish unumi, ishchining bir soatlik ish unumi ko'rsatkichlari ham mehnat unumdorligini ifodalaydi. Tahlil etishda bu mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari o'tgan yildagisi bilan taqqoslanib ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablari aniqlanadi.

6. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin.

Bir xodimga to'g'ri Sanoat ishlab chiqarish keladigan o'rtacha = xodimlari tarkibidagi x o'rtacha yillik yillik mahsulot ishchilarini tutgan ulushi (%) mahsuloti

Mehnat unumining tahlil etishda uning dinamikasi, rejasini bajarilishiga baho beriladi. Unumdorlik darajasini o'zgarish sabablari aniqlanadi va unga ta'sir etuvchi omillar miqdor jihatdan hisoblanadi.

1-jadval

Bir xodimning mehnat unumini va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | | Farqi (+,-) | |
|--|-------------|--------------|-----------|---------------|---------|
| | | rejada | Xaqiqatda | O'tgan yildan | Rejadan |
| Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, m.so'm | 209352 | 220388 | 254550 | +45198 | +34162 |
| Sanoat ishlab chiqarish xodimlarni o'rtacha soni | 874 | 784 | 759 | -115 | -25 |
| Shu jumladan: | | | | | |
| Ishchilar soni | 649 | 624 | 601 | -48 | -23 |
| sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi ishchilar salmog'i % gr3*100/gr2 | 74,3 | 79,6 | 79,2 | +4,9 | -0,4 |

| | | | | | |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|
| Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, m.so'm gr1/gr2 | 239,5 | 281,1 | 335,4 | +95,9 | +54,3 |
| Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, m.so'm gr1/gr3 | 322,5 | 353,1 | 423,5 | +101 | +70,4 |
| Bir xodimni rejaga nisbatan mehnat unumining o'zgarishi: | x | x | x | x | +54,3 |
| A) Ishchilar salmog'ini o'zgarishi - 0,4*353,1 /100 | x | x | x | x | -1,4 |
| B) bir ishchini mehnat unumini o'zgarishi +70,4*79,2/100 | x | x | x | x | +55,7 |

Bizning misolimizda mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda o'tgan yilga, rejaga nisbatan ortgan. Xodimlar va ishchilar soni esa shu davr ichida kamaygan. Demak mahsulot hajmini o'sishi mehnat unumdorligini o'sishi bilan izohlanadi. Bir hodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi rejaga nisbatan 54,3 ming so'mga ortishi, bir ishchining unumdorlik darajasini ortishi bilan izohlanadi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarish evaziga xodimning unumdorlik darajasi 1,4 ming so'mga kamaygan¹.

7. Ishchining mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarning tahlili

Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi quyidagi omillarga bog'liq.

1. Bir ishchining yil davomida ishlagan o'rtacha kishi kunlari=(jami kishi kunlari/ishchilar soni)
2. Ish kuni davomiyligi, soat =(jami ishlangan kishi soat/jami ishlangan kishi kunlari)
3. Ishchining bir soatlik ish unumi = (mahsulot hajmi / jami ishlangan kishi - soat)

Tahlil etishda bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmining rejasiga, o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablari va unga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha aniqlanadi

Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi = (mahsulot hajmi / jami ishlangan kishi - soat) x ish unumi yillik mahsulot kunlari

2-jadval

Ish vaqtidan foydalanishni va o'rtacha 1 soatlik ish unumdorligini ishchining yillik mahsulot hajmiga ta'sirini tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | | Farqi (+,-) | |
|------------------------|------------|--------------|---------|---------------|---------|
| | | Reja | Xaqiqat | O'tgan yildan | Rejadan |
| Mahsulot hajmi, m.so'm | 209352 | 220388 | 254550 | +45198 | +34162 |

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 101 page.

| | | | | | |
|--|--------|--------|--------|--------|--------|
| Ishchilarning jami ishlagan kishi-kunlari, ming k/k | 171,1 | 162,2 | 154,5 | +16,6 | -7,7 |
| Ishchilarning jami ishlagan kishi-soatlari, ming k/s | 1334,3 | 1265,2 | 1212,8 | -121,5 | -52,4 |
| Ishchilarni ro'yhat bo'yicha soni | 649 | 624 | 601 | -48 | -23 |
| T'isob-kitoblar: | | | | | |
| Bir ishchiga to'G'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot m.so'm gr1/4 | 322,5 | 353,1 | 423,5 | +101 | +70,4 |
| Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlari gr2/4 | 263 | 260 | 257 | -6 | -3 |
| Jrtacha ish kuni davomiyligi, soat gr3/gr2 | 7,79 | 7,80 | 7,85 | +0,06 | +0,05 |
| Ishchini 1 soatlik ish unumi (so'm) gr1/gr3 | 156,90 | 174,19 | 209,89 | +52,99 | +35,70 |
| Bir ishchini o'rtacha yillik mahsulot hajmimi rejadan farqiga ta'siri: | x | x | x | x | +70,4 |
| a) yo'qotilgan ish kunlari | x | x | x | x | -4 |
| b) ish kuni davomiyligini uzayishi | x | x | x | x | +2,2 |
| v) 1 soatlik ish unumini ortishi | x | x | x | x | +72,0 |

$$A) -3*7.80*174.19 \quad B) +0.05*257*174.19 \quad V) +35.70*7.85*257$$

Bir ishchini o'rtacha yillik mahsulot hajmi rejaga nisbatan 70,4 ming so'mga ortgan. O'rtacha yillik mahsulot hajmini ortishi ish kuni davomiyligini uzayishi, hamda ishchilarni 1 soatlik ish unumini o'sishi hisobiga (2,2 va 72,0 ming so'm) yuz bergan. Far bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunini 3 kunga kamayishi evaziga yillik mahsulot 4,0 ming so'mga kamaygan.

8. Mahsulot mehnat sig'imini tahlili

Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot strukturasi va assortimentini o'zgarishiga ham bo'lg'liq. Kam mehnat talab etadigan mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarish tufayli mahsulot struktura va assortimentini o'zgarishi mehnat unumdorligini o'sishiga olib keladi.

Strukturna va assortimentni unumdorlik darajasiga ta'siri mehnat siG'imi orqali aniqlash mumkin.

Mehnat sig'imi – mahsulot, yarim fabrikat va mahsulotni ayrim qismlarini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqt bilan o'chanadi.

Sanoatda mehnat unumdorligini o'sishi ilmiy-texnika taraqqiYoti, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish natijasida mehnat siG'imi pasaytirish hisobiga erishiladi.¹

Mehnat siG'imi bilan mehnat unumdorligi bilvosita bo'G'liqqa ega. Mehnat siG'imi pasayishi tufayli mehnat unumdorligi ortadi va buning aksicha, mehnat siG'imi ortsa-mehnat unumdorligi pasayadi.

Mehnat siG'imi pasaytirish mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ish vaqtini qisqartirish orqali erishiladi.

Mehnat siG'imi pasaytirish hisobiga mehnat unumdorligini o'sishi (foiz hisobida) quyidagicha aniqlanadi.

$$100 \times A$$

$$\text{Mu} = \frac{100 - A}{100}$$

Bunda: A- ishlab chiqarilgan mahsulot mehnat siG'imi pasaytirish (foiz hisobida).

Mu – mehnat unumdorligini o'sish darajasi (foiz hisobida).

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat 8550 kishi-soatni tashkil etib, norma bo'yicha 9000 kishi –soatga nisbatan 450 kishi-soat iqtisod qilingan.

Demak, mehnat siG'imi 5 % ($450:9000 \times 100$) ga pasayishi mehnat unumdorligini 5,26% ($9000:8550 \times 100$) ga ortishiga olib keldi.

Erishilgan natijani yuqorida formula orqali ham aniqlash mumkin.

$$100 \times 5$$

$$\text{Mu} = \frac{100 - 5}{100 - 5} = 5,26\%$$

Mehnat unumdorligini mehnat sig'imiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

$$\text{Mu} \times 100$$

$$A = \frac{100 + \text{Mu}}{100 + \text{Mu}}$$

Bizning misolimizda mehnat unumdorligini 5,26% ga o'sishi, mehnat siG'imi 5 % ga pasayishiga olib keldi.

$$5,26 \times 100$$

$$A = \frac{100 + 5,26}{100 + 5,26} = 5\%$$

3-jadval

Mehnat sig'imining o'zgarishini mehnat unumdorligiga ta'siri

| № | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | | Ko'rsatkichlarni o'zgarishi | | |
|----|---|------------|--------------|---------|-----------------------------|-------------------------------|----------------------|
| | | | Reja | Xaqiqat | reja o'tgan yilga nisbatan | haqiqiy o'tgan yilga nisbatan | rejaning bajarilishi |
| | A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. | Mahsulot hajmi, m.so'm | 209352 | 220388 | 254550 | 105,27 | 121,58 | 115,50 |
| 2. | Ishchilarni jami ishlagan kishi-soatlari, ming k/soat | 1334,3 | 1265,2 | 1212,8 | 94,82 | 90,89 | 95,85 |
| 3. | Xar 1000 so'm mahsulot uchun sarflangan mehnat, soat (2 satr: 1 satr) | 6,37 | 5,74 | 4,76 | 90,10 | 74,72 | 82,92 |
| 4. | Ishchingin bir soatlik ish unumi, so'm (1 satr: 2 satr) | 156,90 | 174,19 | 209,88 | 111,02 | 133,76 | 120,49 |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki korxonada mehnat sig'imi rejadagi 9,9 % (100-90,10) o'rniiga, haqiqatda 25,28 % (100-74,72) ga pasaygan. SHu omil

¹Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 511 page.

hisobiga mehnat unumdoorligini o'sishi ta'minlangan. Mehnat sig'imini pasayishi hisobiga ishchingin 1 soatlik ish unumini 10,98 % ($9,9 \times 100/100-99$) ga oshirish ko'zda tutilgan. Xaqiqatda esa 1 soatlik ish unumi 33,80 % ($25,28 \times 100/100-25,28$) ga mehnat sig'imini pasayishi hisobiga erishilgan.

9. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlili

1. Mahsulot hajmiga quyidagi mehnat omillari ta'sir etadi.
2. Ishchilar sonini o'zgarishi.
3. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi.
4. Ish kuni davomiyligini o'zgarishi.
5. Ishchini 1 soatlik ish unumini o'zgarishi.
6. Bu mehnat omillarini mahsulot hajmiga bo'lgan ta'sirini zanjirli bog'lanish, farq usuli, foizlarni farq usullari orqali aniqlash mumkin.

4-jadval

**Mehnat omillarini mahsulot hajmiga ta'siri
(Foizlarni farq usuli orqali aniqlash)**

| Ko'rsatkichlar | Rejani bajarilishi (%) | Foizlarni farqi | Hisob-kitoblar | O'zgarish sababi |
|------------------------------|------------------------|-----------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| Ishchilar soni | 96,31 | -3,69 | $220388 * 3,6 / 100 = -8132,3$ | Ishchilar sonini kamayishi |
| Jami ishlagan kishi kunlari | 95,25 | -1,06 | $220388 * 1,06 / 100 = -2336,1$ | Yo'qotil-gan ish kunlari |
| Jami ishlagan kishi soatlari | 95,86 | +0,61 | $220388 * 0,61 / 100 = +1344,4$ | Ish kuni davomiyligini uzayishi |
| Mahsulot hajmi | 115,50 | +19,64 | $220388 * 19,64 / 100 = +43284,2$ | 1 soatlik ish unumini ortishi |
| Jami | | | 34160,2 | |

Illova:

$$\begin{array}{lll}
 \text{Mahsulot hajmi, ming so'm} & & \\
 \text{Reja} & \text{Xaqiqatda} & \text{Farqi} \\
 220388 & 254550 & +34162 \\
 \text{Hisob-kitoblar : } 96,31 - 100 = -3,69 & & \\
 95,25 - 96,31 = -1,06 & & \\
 95,86 - 95,25 = +0,61 & & \\
 115,5 - 95,86 = +19,64 & &
 \end{array}$$

Mehnat resurslaridan to'liq foydalilanigan taqdirda korxonada mahsulot hajmi qo'shimcha 2336.1 ming so'mga ortishi mumkin edi.

Qiymat shaklida unumdoorlik darajasini aniqlashni kamchiliklari;

1 xodimga va 1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot, ularni bir-biridan farqi;
1 xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uslubi;

1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi;

Mahsulot mehnat sig'imini tahlil etish uslublari.

Nazorat savollari:

1. Ish vaqtidan foydalanish tahlilini izohlang;
2. Mehnat unumdoorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi qanday?.
3. Ishlab chiqarish xodimlari mexnat unumdoorligiga ta'sir etuvchi omillar?
4. Ishchingin mehnat unumdoorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?
5. Mahsulot mehnat sig'iming tahlilini izohlang?

8-bob. ASOSIY VOSITALAR TARKIBI, HOLATI VA SAMARADORLIGI TAHLILI

Reja:

1. Asosiy vositalar tahlili vazifalari, asosiy yo‘nalishlari va axborot ta’minoti
2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili
3. Asosiy vositalar harakati tahlili
4. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari
5. Fond qaytimining omilli tahlili
6. Uskunlardan foydalanish tahlili

Tayanch so‘zlar:

Vazifalari, axborot manbalari, dinamik tahlil, yangilanish koeffitsiyenti, chiqib ketish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning tarkibi, texnik holati

1. Asosiy vositalar tahlili vazifalari, asosiy yo‘nalishlari va axborot ta’minoti

Asosiy vositalar – ixtiyoriy ishlab chiqarishning eng muhim omillaridan biridir. Ularning holati va samarali foydalanish bevosita korxonalar xo‘jalik faoliyatining yakuniy natijalariga ta’sir qiladi. Korxonaning asosiy vositalari va ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish barcha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, jumladan mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, uning tannarxi va tayyorlashda sarflanadigan mehnat sig‘imini pasaytirishga imkon beradi.¹

Asosiy vositalar – moddiy ishlab chiqarish sohasi kabi ijara ga berish uchun ham foydalaniladigan noishlab chiqarish sohada uzoq vaqt davomida (bir yildan ortiq) harakatlanuvchi moddiy aktivlardir.

Investitsion va tuzilmaviy siyosatning amalga oshirilishi sharofati bilan bizning respublikamizda mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlovchi elektr energetikasi, yoqilg‘i sanoati, qora va rangli metallurgiya, kimyoiy va neftkimyo sanoati kabi sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotni tizimli va bosqichli ravishda tuzilmaviy yangilash bo‘yicha olib borilgan qat’iy chora-tadbirlar mamlakatda ishlab chiqarilatgan yalpi ichki mahsulot tarkibiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha ishlar hali hamon davom etmoqda. Asosiy vositalar tahlili bir necha yo‘nalishda olib borilishi mumkin, ularni majmuaviy ishlab chiqish esa asosiy vositalar va uzoq muddatli investitsiyalarning tarkibi, dinamikasi va foydalanish samaradorligini baholashga imkon beradi.

1-jadval

Asosiy vositalar tahlilining asosiy yo‘nalishlari va vazifalari

| Tahlilning asosiy yo‘nalishlari (tematikasi) | Tahlil vazifalari |
|--|---|
| Asosiy vositalar tuzilmaviy dinamikasi | Asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar hajmi va tarkibini baholash. Asosiy vositalar qiymati o‘zgarishining korxona moliyaviy ahvoli va balans tarkibiga ta’sir miqdori va xarakterini aniqlash. |
| Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlili | Asosiy vositalar harakati tahlili. Asosiy vositalar foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili. Uskunalar ish vaqtidan foydalanish tahlili. Uskunlardan foydalanishni integral baholash |
| Uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha xarajatlarni samaradorligi tahlili | Kapital ta’mir xarajatlari tahlili. Joriy ta’mir xarajatlari tahlili. Uskunalarni ishlatish bo‘yicha xarajatlarni foyda va ishlab chiqarish hajmining o‘zaro aloqasi tahlili. |
| Asosiy vositalarga investitsiyalar samaradorligi tahlili | Kapital qo‘yilmalar samaradorligini baholash. Investitsiyalash uchun qarzlar jalb qilish samaradorligini baholash. |

Tahlil va hal qilinadigan analitik vazifalar yo‘nalishini tanlash boshqaruvi ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Asosiy vositalar tuzilmaviy dinamikasi tahlili va investitsiyaviy tahlil moliyaviy tahlil mazmunini tashkil qiladi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlatish bo‘yicha xarajatlarni baholash boshqaruvi tahliliga taalluqli sanaladi, biroq tahlilning bu ikki turi o‘rtasida aniq chegara mavjud emas. Uskunalarni saqlash va ishlatish bo‘yicha xarajatlarni tahlili mahsulot tannarxi tahlilining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Asosiy vositalar tahlili metodikasi ulardan foydalanishning eng yaxshi variantini tanlashga yo‘naltirilgan. Shuning uchun tahlilning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar tilga olinadi:

- asosiy vositalardan foydalanish bo‘yicha qarorlar variantliligi;
- istiqbolga yo‘naltirilganligi.

Tahlil sifati axborotlar ishchonchligi, ya’ni buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish sifati, asosiy vositalar obyektlari bilan operatsiyalar tizimi va ro‘yxatga olish nuqsonszligi, obyektlarni hisob-malaka guruhlariga kiritish aniqligi, inventarizatsion ro‘yxatga olishlar ishchonchligi, analitik hisob registrlarini ishlab chiqish va yuritish mukammalligiga bog‘liq bo‘ladi.

• “Ishlab chiqarish quvvatlari balansi”, asosiy vositalar hisobining inventar kartochkalari.

2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Asosiy vositalar korxonalar ishlab chiqarish jarayonida ulkan ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamuljamlikda korxona tayanuvchi va korxonaning ishlab

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 51page.

chiqarish quvvatlarini baholash mezoni sanaluvchi ishlab chiqarish-texnik bazani hosil qiladi.

Asosiy vositalarning to‘g‘ri buxgalteriya hisobining zaruriy sharti – bu ularni baholashning yagona tamoyilidir. Asosiy vositalarni baholashning quyidagi bosqichlari ajratib ko‘rsatiladi:

- boshlang‘ich;
- tiklanish;
- joriy;
- qoldiq;
- tugatish.

Boshlang‘ich qiymat (5-sonli BXMS 3-bandı, d-abzats) – to‘langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig‘imlarni), shuningdek aktivni undan mo‘ljal bo‘yicha foydalanimish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yetkazib berish va montaj qilish, o‘rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo‘yicha qilingan xarajatlarning qiymati.

Tiklanish qiymati belgilangan narx indeksi, tiklanish qiymati aniqlab bo‘lingan o‘xshash turdag‘i mahsulotlar narxi, narx o‘zgarishlarining yiriklashtirilgan koeffitsientlari yordamida aniqlanadi. Asosiy vositalar qiymatini ishlab chiqarishning o‘zgargan iqtisodiy va texnik shart-sharoitlariga mutanosiblikka keltirish uchun davriy ravishda asosiy vositalarni qayta baholash amalga oshiriladi. Tiklanish qiymati asosiy vositalarning real miqdorini qoplash uchun zarur asosiy vositalar miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Joriy qiymat (5-sonli BXMS 3-bandı, e-abzats) – ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summa.

Qoldiq qiymat (5-sonli BXMS 3-bandı, j-abzats) – jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymati.

Tugatish qiymati (5-sonli BXMS 3-bandı, z-abzats) – asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha korxonalar uchun asosiy vositalarni baholash tamoyillari deyarli bir xil, biroq mulkni qayta baholash, rekonstruktsiya, mavjud bino yoki inshootlarni qayta jihozlash yoki qurib bitkazish jarayonida boshlang‘ich qiymat o‘zgarishi mumkin.

- O‘z mo‘ljallanganligiga ko‘ra asosiy vositalar ikki guruhgaga ajratiladi:
- ishlab chiqarish;
 - noishlab chiqarish.

Asosiy vositalar tarkibi va harakati tahlilida hisobot ma’lumotlari dinamikada ko‘rib chiqiladi. Bunda shuni ham nazarda tutish lozimki, asosiy vositalarning ishora qilingan ishlab chiqarish xarakteridagi ikkala guruhi bevosita mahsulot

ishlab chiqarish bilan bog‘langan, shuning uchun ular eng katta solishtirma og‘irlikka ega bo‘ladi.

2-jadval

Asosiy vositalar tarkibi va dinamikasi tahlili

| Asosiy vositalar guruuhları | Yil boshi uchun | | Yil oxiri uchun | | O‘zgarishi (+;-) | |
|-----------------------------|---------------------|----------------|---------------------|----------------|---------------------|----------------|
| | Summa, mln. so‘m | Salmog‘i, % | Summa, mln. so‘m | Salmog‘i, % | Summa, mln. so‘m | Salmog‘i, % |
| Asosiy vositalar - jami | 4594,7 | 100 | 5759,9 | 100 | +1165,2 | +25,3 |
| jumladan, ishlab chiqarish | 3446 | 75 | 4493 | 78 | +1047 | +30,3 |
| Noishlab chiqarish | 1148,7 | 25 | 1266,9 | 22 | +118,2 | +10,3 |

Jadval ma’lumotlari ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish yo‘nalishidagi asosiy vositalarning ulushi yil boshidagi 75% dan yil oxirigacha 78% gacha o‘sib, noishlab chiqarishdagi asosiy vositalar ulushi mos ravishda pasaygan.

Asosiy vositalar tarkibida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash uchun ularning tarkibini tahlil qilish zarur.

Asosiy vositalar tarkibi tarmoqning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi va korxonalarining ishlab chiqarish-texnik xususiyatlarni aks ettiradi. Fondlar tarkibini tahlil qilishda aktiv va passiv qismlar nisbatini aniqlash zarur. Fondlarning aktiv qismi mehnat predmetiga bevosita ta’sir qiladi. Passiv qismi ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiruvchi fondlar tashkil qiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda fondlarning aktiv qismi tarkibi bo‘yicha yagona qarash shakllanmagan. Ayrimlar bino va inshootlarni hisobdan chiqargan holda barcha fondlarni aktiv qism deb hisoblasa, boshqalar – faqatgina mashina va uskunalarni aktiv qism deya e’tirof etadilar.¹

Sanoatning aksariyat tarmoqlarida fondlarning aktiv qismiga mashina va uskunalar (ishlab chiqarish quvvatlari, ishechi mashina va uskunalar, o‘lchash va meyorlash pribor hamda moslamalari, laboratoriya jihozlari, hisoblash texnikasi, boshqa mashina va uskunalar), shuningdek, transport vositalari kiritiladi. Fondlarning passiv qismini bino va inshootlar tashkil qiladi. Biroq ayrim sanoat tarmoqlarida – elektr energetikasi, neft-kon sanoati, gaz va boshqalarda inshootlar fondlarning aktiv qismi tarkibiga kiritiladi. Keyingi hisob-kitoblarda biz mashina va uskunalar qiymatidan kelib chiqamiz, chunki ular mahsulot ishlab chiqarish o‘sishiga, mehnat unumдорлиги oshishiga bevosita ta’sir qiladi va fond qaytimi dinamikasini belgilab beradi.

¹ Financial statement analysis. Eleventh edition. K.R. Subramanyam. University of Souther. 539 page.

3-jadval

Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

| Fond nomi | Yil boshi uchun | | Yil oxiri uchun | | Mutlaq o'zgarish | O'sish sur'ati, % |
|----------------------------------|------------------|-------------|------------------|-------------|------------------|-------------------|
| | summa, mln. so'm | Salmog'i, % | summa, mln. so'm | Salmog'i, % | | |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Bino | 491,6 | 10,7 | 604,7 | 10,5 | 113,1 | 123 |
| Inshootlar | 482,4 | 10,5 | 512,6 | 8,9 | 30,2 | 106,2 |
| Uzatish qurilmalari | 340 | 7,4 | 408,9 | 7,1 | 68,9 | 120,2 |
| Mashin va uskunalar | 2665 | 58 | 3456,1 | 60 | 791,1 | 129,6 |
| Mebel va ofis jihozlari | 92 | 2 | 115,2 | 2 | 23,2 | 125,2 |
| Kompyuter va hisoblash texnikasi | 147 | 3,2 | 161,3 | 2,8 | 14,3 | 109,7 |
| Transport vositalari | 248,1 | 5,4 | 334,1 | 5,8 | 86 | 134,6 |
| Boshqa asosiy vositalar | 128,6 | 2,8 | 167 | 2,9 | 38,4 | 129,8 |
| Jami | 4594,7 | 100 | 5759,9 | 100 | 1165,2 | 125,3 |

Ko'rib chiqilayotgan davr uchun asosiy vositalarning umumiy qiymati 25,3% ga o'sgan. Ularning tarkibida o'zgarish sodir bo'lgan: mashina va uskunalar ulushi yil boshidagi 58% dan yil oxirida 60% gacha o'sib, passiv qism ulushi qisqargan. Bunda mashina va uskunalar o'sishi boshqa asosiy vositalarning o'sish sur'atini ortda qoldirgan.

3. Asosiy vositalar harakati tahlili

Asosiy vositalar harakati tahlili quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi – asosiy vositalar kirimi (joriy qilinishi), yangilash, hisobdan chiqarish, tugatish, kengaytirish koeffitsientlari. Asosiy vositalarning texnik holatini tavsiflash uchun yaroqlilik, eskirish va almashtirish koeffitsientlari hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarni hisoblash uchun boshlang'ich axborot manbai moliyaviy hisobot (3-shakl – "Asosiy vositalar harakati haqida hisobot") hisoblanadi. Yangilash va tugatish koeffitsientlarini hisoblash uchun yangi uskuna keltirilishi va eskirgan uskunalar tugatilishi haqida birlamchi analitik hisob ma'lumotlari talab qilinadi.

Ko'rsatkichlarni metodikasini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari misolida ko'rib chiqamiz.

4-jadval

Asosiy vositalar mayjudligi va harakati balansi (mln.so'mda)

| Ko'rsatkich | Yil boshida mayjud | Kirim qilindi | Chiqarib tashlandi | Yil oxirida mayjud |
|--|--------------------|---------------|--------------------|--------------------|
| Boshlang'ich baholashda asosiy vositalar qiymati | 4594,7 | 1608,1 | 442,9 | 5759,9 |
| jumladan yangilari | | 590 | | |
| Asosiy vositalar eskirishi | 1581 | | | 2496,5 |
| Asosiy vositalarning goldiq qiymati | 3013,7 | | | 3263,4 |

Asosiy vositalar harakati tahlili uchun quyidagi formulalar bo'yicha yuqorida tilga olingan ko'rsatkichlarni hisoblaymiz:

- Tushum (joriy qilish) koeffitsienti **K_j**:

Qayta kirim qilingan asosiy vositalar

$$K_j = \frac{\text{Davr oxirida asosiy vositalar qiymati}}{\text{Yangilash koeffitsienti}}$$

$$K_j = \frac{1608,1}{5759,9} 100\% = 27,9\%$$

- Yangilash koeffitsienti **K_y**:

Yangi asosiy vositalar qiymati

$$K_y = \frac{\text{Davr oxirida asosiy vositalar qiymati}}{\text{Yangilash koeffitsienti}}$$

$$K_y = \frac{590}{3759,9} \times 100\% = 10,2\%$$

Yangilash koeffitsienti fondlarning barcha qiymati kabi ularning aktiv qismi bo'yicha ham, shuningdek, uskunalar guruhlari bo'yicha hisoblanadi va odatda qator yillar uchun dinamikada ko'rib chiqiladi. Bizning misolimizda yillik yangilanish koeffitsienti 10,2% ga teng. Uskunalarning yosh tarkibi asosiy vositalarning texnik darajasini ham tavsiflaydi. Bu uning ishga yaroqliligi va almashtirish zarurati haqida mulohaza qilishga, shuningdek, fond qaytimini oshirishning potensial imkoniyatlarini bilishga imkon beradi. Tahlil uchun amaldagi uskunalar turlari bo'yicha, ularning ichida esa foydalaniш davomiyligi bo'yicha guruhanadi va amaldagi muddatlar normativ, mazkur sanoat uchun umumiy o'rnatilgan xizmat muddatlari bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, foydalaniшli fond qaytimining yetarli darajasini ta'minlay olmaydigan eskirgan uskunalarning ulushi aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari kirimi asosan ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- yangi qurilish va texnik qayta qurollantirish;
- amaldagi korxonalar rekonstruktsiyasi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu birinchi navbatda mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini, umuman iqtisodiy o'sishning lokomotivlariga aylanishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish, tarmoq va sohalarni jadal rivojlantirishga, demografik xususiyatlar, ish bilan bandlik, aholi daromadlarini oshirish va boshqalar bilan bog'liq O'zbekiston uchun o'ziga xos bo'lgan o'ta muhim muammolarni hal qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotni tizimli va bosqichli ravishda tuzilmaviy yangilash hisoblanadi.

Bundan tashqari, investitsiya mablag'larining aksariyat qismi korxonalar uskunalarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilayotganligi kam xarajatlar bilan yuqori sifatlari mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga zamin yaratadi.

- Asosiy vositalarni muomaladan chiqarish koeffitsienti **K_{eh}**:

Muomaladan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati

$$K_{ch} = \frac{\text{Davr boshida asosiy vositalar qiymati}}{1}$$

$$K_{ch} = \frac{442,9 \times 100}{4594,7} = 9,6\%$$

- Tugatish koefitsienti K_t :

$$K_t = \frac{\text{Tugatilan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshida asosiy vositalar qiymati}}$$

Hisobot yilda kirim qilingan asosiy vositalar ulushi 27,9% ni tashkil qildi, ulardan yangilari 10,2%. Asosiy vositalarni yangilash maqsadi – uskunalarini saqlash va ishlatalish bo'yicha xarajatlarni kamaytirish, uskunalar turib qolishlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish.

- Almashtirish koefitsienti K_a :

$$K_a = \frac{\text{Eskirishi natijasida chiqarib tashlangan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar qiymati}}$$

$$K_a = \frac{442,9}{1608,1} \times 100 = 27,5\%$$

- Mashina va uskunalar parkini kengaytirish koefitsienti K_{keng} :

$$K_{keng} = 1 - K_a$$

Ishlab chiqarish jarayonida ishlatalayotgan asosiy vositalar jismoniy va ma'naviy eskiradi. Jismoniy eskirish darajasi amortizatsiya hisoblash jarayonida aniqlanadi. Bu jarayon quyidagilar uchun usul sifatida bir necha jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin:

- asosiy vositalar eskirmagan qismining joriy bahosini aniqlash;
- asosiy vositalarga bir martalik xarajatlarni tayyor mahsulotga kiritish;
- ishlab chiqarish jarayonidan chiqarilayotgan asosiy vositalarni o'rin almashtirish uchun yoki yangi ishlab chiqarishga qo'yilmalar uchun moliyaviy resurslar jamg'arish.

Asosiy vositalar holatini aniqlash uchun mos ravishda asosiy vositalarning eskirgan ulushi yoki ishlatalish uchun yaroqli qismi ulushini tavsiflovchi eskirish va yaroqlilik koefitsientlari hisoblanadi:

- Asosiy vositalar eskirish koefitsienti K_e :

$$K_e = \frac{\text{Asosiy vositalar eskirish qiymati}}{\text{Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati}}$$

- Asosiy vositalar yaroqlilik koefitsienti K_ya

$$Kya = \frac{\text{Asosiy vositalar qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}}$$

Ushbu ko'rsatkichlar foizlarda yoki ulush birliklarida o'lchanadi va hisobot davrining boshi uchun ham, oxiri uchun ham hisoblanishi mumkin. Ma'lumki, eskirish koefitsientining ortishi korxonalar asosiy vositalari holati yomonlashganligini bildiradi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, eskirish koefitsienti asosiy vositalarning haqiqatda eskirishini aks ettirmaydi, yaroqlilik koefitsienti esa ularning joriy qiymati, masalan, uskunalar vaqtincha ishlatalmayotganda aniq bahosini bera olmaydi. Bu holatda asosiy vositalar jismoniy eskirmaydi, lekin ularning eskirishining umumiy miqdori ortadi. Asosiy vositalarning joriy qiymat bahosi qator omillar, xususan, konyuktura va talab holatiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun yaroqlilik koefitsienti yordamida olingan bahodan farqlanishi mumkin. Asosiy vositalarning eskirish miqdoriga tashkilotda qabul qilingan amortizatsiya hisoblash tizimi eng katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda mavjud hisob va hisobot tizimida eskirish va yaroqlilik koefitsientlari asosiy vositalar holatining faqatgina shartli bahosini beradi, bu esa ushbu ko'rsatkichlardan tahlil jarayonida qo'llash imkoniyatini jiddiy ravishda cheklab qo'yadi. Endi esa asosiy vositalarning eskirish va yaroqlilik koefitsientlarini aniqlaymiz:

$$Ke = 1581 / 4594,7 \times 100\% = 34,5\% - yil boshi uchun$$

$$Ke = 2496,5 / 5759,9 \times 100\% = 43,4\% - yil oxiri uchun$$

$$Kya = 3013,7 / 4594,7 \times 100\% = 65,5\% - yil boshi uchun$$

$$Kya = 3263,4 / 5759,9 \times 100\% = 56,6\% - yil oxiri uchun$$

Yaroqlilik koefitsienti bir (yoki 100%) va eskirish koefitsienti o'rtaсидаги farq sifatida hisoblab topilishi mumkin $Kya = 1 - Ke$.

4. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

Asosiy vositalarni yangilash tezligi korxonalarining ishlab chiqarish, investitsion va innovatsion faolligiga bog'liq bo'ladi. Asosiy vositalarni muomaladan chiqarishning optimal muddatlari ilg'or texnikalardan foydalanish asosida kengaytirilgan ishlab chiqarishni rag'batlanirishga imkon beradi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini umumiy tavsiflashda **fond qaytimi, fond sig'imi, fondlar rentabelligi, mahsulotlar o'sishining bir so'miga to'g'ri keladigan solishtirma kapital qo'yilmalar** kabi ko'rsatkichlardan foydalaniadi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi **nisbiy iqtisod (qo'shimcha ehtiyoj)** ham hisoblanadi.

Tahlil jarayonida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar dinamikasi, ularning darajasi bo'yicha reja bajarilishi o'rganiladi, korxonalarining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini yanada chuqurroq tahlil

qilish maqsadida fond qaytimi ko'rsatkichi barcha asosiy vositalar, ishlab chiqarish yo'nalishidagi fondlar, ularning aktiv qismi (mashina va uskunalar) bo'yicha aniqlanadi.

Fond qaytimi – asosiy ishlab chiqarish fondlarining 1 so'm (1000 so'm)iga to'g'ri keladigan bir yilda (yoki boshqa davr) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. Uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$F_q = \frac{Q}{A_f}$$

Bu erda: F_q – fond qaytimi;

Q – ulgurji narxlardagi mahsulotlar (ish, xizmat) hajmi;

A_f – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati.

Fond qaytimini hisoblashda shuni nazarda tutish talab qilinadiki, asosiy vositalar qiymatida xususiy va ijara qilingan mablag'lar hisobga olinadi, konservatsiyadagi, shuningdek, boshqa korxonalarga ijara berilgan asosiy vositalar hisobga olinmaydi.

Fond qaytimi dinamikasini baholashda boshlang'ich ma'lumotlar taqqoslama ko'rinishga keltiriladi. Mahsulot hajmini ulgurji narxlari va strukturaviy o'zgarishlar o'zgarishiga, asosiy mablag'lar qiymatini esa qayta baholash koefitsientiga tuzatish talab qilinadi.

Ayrim iqtisodchilar fond qaytimini sotilgan mahsulotlar, foyda, shuningdek, natural ifodada mahsulot ishlab chiqarishdan kelib chiqqan holda aniqlashni taklif qiladilar.

Natural ifodada mahsulot ishlab chiqarishdan kelib chiqqan holda aniqlangan fond qaytimi ko'rsatkichi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini to'g'riroq aks ettiradi. Biroq bir turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan ushbu ko'rsatkichning qo'llanilish doirasini chegaralangan. Sanoatning aksariyat tarmoqlarida fond qaytimi qiymat ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Fond qaytimini hisoblash uchun sotilgan mahsulotlar ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki qator yillarda uchun dinamikada bu ko'rsatkich hajmi turlicha bahoda aks ettiradi. Fond qaytimini korxona foydasi bo'yicha ham hisoblash mumkin.

Asosiy faoliyat bo'yicha foyda

$$Fr = \frac{\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}$$

Mablag'lardan samarali foydalanishning boshqa ko'rsatkichi **fond sig'imi** hisoblanib, u asosiy vositalar o'rtacha qiymatini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbatli bilan aniqlanadi (fond qaytimiga teskari ko'rsatkich):

$$F_s = \frac{A_f}{Q}$$

Fond sig'imi dinamikada hisoblash va baholash o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Fond sig'imating o'zgarishi mahsulot hajmining bir so'miga asosiy vositalar

qiymati o'sishi yoki kamayishini ko'rsatadi va asosiy vositalarda mablag'larni nisbatan tejab qolish yoki ortiqcha sarflash miqdorini aniqlashda qo'llaniladi.

Asosiy vositalarni nisbatan tejab qolish (ortiqcha sarflash) miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Tn (Af) = (Fs^1 - Fs^0) \times Q^1$$

Bu erda

Fs^1, Fs^0 – haqiqatdagi va bazis davrdagi fond sig'imi;

Q – haqiqatdagi mahsulot hajmi.

Asosiy vositalar qiymatining o'sish sur'ati bilan mahsulot ishlab chiqarish o'sish sur'ating nisbati fond sig'imating chegaraviy ko'rsatkichini, ya'ni mahsulotarning 1% o'sishiga asosiy vositalar o'sishini aniqlashga imkon beradi. Agar fond sig'imating chegaraviy ko'rsatkichi birdan kam bo'lsa, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ortadi va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koefitsienti o'sgan hisoblanadi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi keyingi ko'rsatkich fond bilan qurollanganlik ko'rsatkichi hisoblanib, fond qiymatining xodimlar soniga nisbatli sifatida hisoblanadi.

Fond bilan qurollanganlik ko'rsatkichi xodimlarning umumiy soni bo'yicha ham, asosiy ishlab chiqarish xodimlarining soni hisobida ham aniqlanishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash xodimlar soni tarkibidagi o'zgarishlarni ularning o'zgarmas miqdorida asosiy vositalar bilan ta'minlanganligiga ta'siri haqida mulohaza qilishga imkon beradi.

Fond qaytimi, fond bilan qurollanganlik va mehnat unumdarligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro aloqani kuzatish uchun fond qaytimi formulasini hosil qilish lozim (surat va maxraj xodimlar soniga bo'linadi):

$$F_q = \frac{M_u}{F_{qur}} = \frac{\frac{Q}{Xs}}{\frac{Av}{Xs}}$$

Bu erda,

Q – mahsulot (ish, xizmat) hajmi;

Av – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati;

Xs – xodimlar soni;

Mu – mehnat unumdarligi;

F_{qur} – fond bilan qurollanganlik.

Shunday qilib, fond qaytimini mehnat unumdarligining fond bilan qurollanganlikka bo'linmasi sifatida tasavvur qilish mumkin. O'z navbatida, fond qaytimi mehnat unumdarligiga to'g'ri proporsional, fond bilan qurollanganlikka esa teskari proporsional bo'ladi¹. Fond qaytimini oshirish uchun mehnat unumdarligining o'sish sur'ati uning fond bilan qurollanganlik bo'yicha o'sish sur'atini ortda qoldirishi zarur.


¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 321 page.

5. Fond qaytimining omilli tahlili

Tahlilda fond qaytimining haqiqatdagi ko'rsatkichi oldingi davrlar ma'lumotlari, loyihamiy ko'rsatkichlar, boshqa korxonalarining fond qaytими bilan taqqoslanadi. Fond qaytими darajasini taqqoslash tahlilning boshlanishi, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va o'lhash uchun boshlang'ich baza hisoblanadi. Quyidagilar fond qaytими ortishiga xizmat qildi:

- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, joriy uskunalarni modernizatsiyalash;

- uskunalarini ishlatish vaqtini ko'paytirish;
- uskunalar ishslash intensivligini oshirish, jumladan xom ashyo va materiallar sifatining texnologik jarayon talablariga muvofiqligini ta'minlash va ishlab chiqarish xodimlari malakasini oshirish yo'li bilan;
- asosiy vositalarning faol qismi ulushini oshirish.



1-rasm. Fond qaytими darajasini belgilab beruvchi omillar

6.1-rasmdan ko'rinish turibdiki, asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytими ko'p jihatdan uskunalarning ishslash tarkibi va vaqtidagi o'zgarishlarga bog'liq.

Tuzilmaning fond qaytimiga ta'siri shu bilan shartlanganki, asosiy ishlab chiqarish fondlarining turli toifalari ishlab chiqarish jarayonida birdek faol ishtiroy etmaydi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimini hisoblashda ishchi mashinalar va uskunalar ajratib ko'rsatiladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari, jumladan mashina va uskunalar qiyatining bir so'miga fond unumi o'sish sur'atlarini taqqoslash asosiy vositalar tarkibi o'zgarishining ulardan foydalanish samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi.

5-jadval

| № | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | | Hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan % da |
|---|--|------------|--------------|---------|---|
| | | | 1 | 2 | |
| 1 | Taqqoslama ulgurji narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi | 5495,7 | 6548,9 | +1053,2 | 119,1 |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati | 3446 | 4493 | +1047 | 130,4 |
| 3 | Jumladan mashina va uskunalar | 2665 | 3456,1 | +791,1 | 129,7 |
| 4 | Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiyatida mashina va uskunalar ulushi, % (satr3:satr2x100) | 77,33 | 76,92 | -0,41 | 99,5 |
| 5 | Ishlab chiqarish fondlari qiyatining ming so'miga mahsulot hajmi (str1:str2)x100 so'm | 1594,8 | 1457,6 | -137,2 | 91,4 |
| 6 | Mashina va uskunalar qiyatining ming so'miga mahsulot hajmi (satr1:satr3)x100 so'm | 2062,1 | 1894,8 | -167,3 | 91,9 |

Ko'rib chiqilayotgan davr uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari, jumladan mashina va uskunalardan oldingi davrga nisbatan yomon foydalanilgan. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytими o'tgan yilgi 1594,8 so'mdan hisobot yilida 1457,6 so'mgacha, mos ravishda mashina va uskunalar 2062,1 so'mdan 1894,8 so'mgacha kamaygan.

Tahlilda asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblab chiqiladi.

Bunda fond qaytими ko'rsatkichini ikki ko'paytuvchining ko'paytmasi ko'rinishida ifodalash talab qilinadi:

Asosiy vositalar tarkibida mashina va uskunalarning ulushini miqdoriy ko'rsatkich sifatida qabul qilgan holda zanjirli o'rIN almashtirish usuli bilan har bir omilning ta'siri hisoblanadi.

6-jadval

| Ketma-ket hisoblar | O'zaro ta'sirlashuvchi xususiy ko'rsatkichlar | | Asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimi | Oldingi hisobla-shishlardan og'ish | Og'ish sabablari |
|---|--|-----------------------------------|---|------------------------------------|---|
| | Fondlar tarkibida mashina va uskunalar ulushi, % | Mashina va uskunalar fond qaytimi | | | |
| 1- hisob o'tgan yili | O'tgan 77,33 | O'tgan 2062,1 | O'tgan 1594,8 | | |
| Birinchi ko'rsatkichni o'rin almashtirish | Hisobot 76,92 | O'tgan 2062,1 | Shartli №1 1586,2 | -8,6 | Mashina va uskunalar ulushi pasayishi |
| Ikkinchi ko'rsatkichni o'rin almashtirish | Hisobot 76,92 | Hisobot 1894,8 | Hisobot 1457,6 | -128,6 | Mashina va uskunalar fond qaytimi pasayishi |

Fond qaytimining 137,2 so'mga (1457,6 – 1594,8) pasayishi ikki omil, uskunalarning ulushi hamda mashina va uskunalar fond qaytimi kamayishi ta'sirida sodir bo'lgan.

$$\text{Hisoblashni tekshirish: } 1457,6 - 1594,8 = -8,6 - 128,6 \\ - 137,2 = - 137,2.$$

6. Uskunalardan foydalanish tahlili

Uskunalardan foydalanishni yaxshilash fond qaytimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uskunalardan foydalanish tahlilida, avvalo, korxonaning uskunalar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish to'liqligini tekshirish zarur.

Jami uskunalar **mavjud**, **o'rnatilgan** va **ishlatilayotgan** kabi turlarga ajratiladi.

Mavjud uskunalarga qaerda bo'lishi (tsexlarda, omborda) va qanday ahvolda bo'lishidan qat'iy nazar korxonada mavjud barcha uskunalar kiritiladi.

O'rnatilgan uskunalar – bu tsexlardagi yig'ilgan va ishlatishga tayyorlangan uskunalardir. Shuni ham nazarda tutish lozimki, o'rnatilgan uskunalarning bir qismi zaxirada, konservatsiyada, rejadagi ta'mirda va modernizatsiyada bo'lishi mumkin.

Ishlatilayotgan uskunalar – bu ishlatish vaqtidan qat'iy nazar hisobot davrida haqiqatda ishlatilayotgan barcha uskunalardir. Uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirish ikki yo'l bilan ta'milanadi:

- ekstensiv (vaqt bo'yicha)
- intensiv (quvvati bo'yicha)

Uskunalarning ekstensiv yuklama darajasini tavsiflash uchun uni ishlatish vaqtining balansi o'rganiladi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- kalender vaqt fondi – uskunalarni ishlatishning maksimal mumkin bo'lgan vaqt (hisobot davridagi kalender kunlar soni 24 soatga va o'rnatilgan uskunalar birligi miqdoriga ko'paytiriladi);

•rejim vaqt fondi – (o'rnatilgan uskunalar birligi miqdori hisobot davridagi kalender kunlar soniga va smenalilik koeffitsienti hisobga olingen holda kunlik ish soati miqdoriga ko'paytiriladi);

- rejaviy fond – reja bo'yicha uskunani ishlatish uskunaning rejaviy ta'mirda va modernizatsiyada bo'lishga oid rejimli vaqtidan farq qiladi;

• ishlangan vaqtning haqiqatdagi fondi.

Haqiqatdagi va rejadagi kalender vaqt fondini taqqoslash uskunani ishga tushirish bo'yicha rejaning muddat va miqdor bo'yicha bajarilish darajasini; kalender va rejim vaqt fondini taqqoslash – smenalilik koeffitsientini oshirish hisobiga uskunalardan yaxshiroq foydalanish imkoniyatini, rejim va rejaviy vaqt fondini taqqoslash – ta'mirlashga vaqt sarfini qisqartirish hisobiga yuzaga keladigan vaqt zaxiralarni aniqlashga imkon beradi.

Uskunalarni ishlatish vaqtidan foydalanishni tavsiflash uchun quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- kalender vaqt fondi – K k.f. = Tf : Tk
- rejim vaqt fondi – K r.f. = Tf : Tr
- rejaviy vaqt fondi – K p.f. = Tf : Tp
- kalender fondda turib qolishlarning ulushi : Ud.pr = PR : Tk,
Bu erda

Tf, Tp, Tr, Tk – mos ravishda uskunalar ish vaqtining haqiqatdagi va rejaviy, rejim va kalender fondlari;
PR – uskunalarning turib qolishlari.

Bir martalik tekshiruv ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan korxonaning birinchi tseksida vaqt bo'yicha uskunalardan foydalanish quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

7-jadval

| Ko'rsatkichlar | Reja | Hisobot | Rejadan og'ish (+,-) |
|--|--------|---------|----------------------|
| Mahsulot hajmi, ming so'm | 10823 | 10853 | +30 |
| Uskunalarni ish vaqtini fondi, dastgoh-soatlari | 421321 | 419699 | -1622 |
| 1 dastgoh-soat uchun mahsulot ishlab chiqarish, so'm | 25,69 | 25,86 | +0,17 |

Ushbu ko'rsatkichlar asosida quyidagilarni aniqlaymiz:

•uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti

$$419699 : 421321 = 0,9962$$

•uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsienti

$$25,86 : 25,69 = 1,007$$

•uskunalardan integral foydalanish koeffitsienti

$$0,9962 \times 1,007 = 1,003.$$

Hisoblashlar ko'rsatadiki, tseksda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishning sezilarli zaxiralari mavjud – rejaviy vaqt fondi 99,62 % ga foydalanilgan. To'g'ri, ish vaqtidan yo'qotishlar 1 dastgoh-soatga mahsulot ishlab chiqarish ortishi bilan

qisman qoplangan va bu ko'rsatkich rejadan 0,66% yuqori bo'lgan. Buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish rejasi 100,27% ga bajarilgan.

Nazorat savollari:

1. Asosiy vositalar fond qaytimi ko'rsatkichini hisoblash va tahlil qilishning iqtisodiy ma'nosi nimadan iborat?
2. Asosiy vositalar fond sig'imi ko'rsatkichini tahlil qilish qanday iqtisodiy ma'noga ega?
3. Asosiy vositalar fond qaytimi o'sishining asosiy omillarini tavsiflang. Ularning qaysilari ustuvor ahamiyat kasb etadi?
4. Ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish tahlili metodikasini tushuntirib bering.

9-bob. MOLIYAVIY TAHLIL ASOSLARI

Reja:

1. Moliyaviy tahlilining shakllanishi.
2. Kreditdan foydalanishning kengayishi.
3. Moliyaviy hisobotlar tahlilining ahamiyati.
4. Tahlilning texnik va ahamiyatli jihat. Risk tahlili.
5. Moliyaviy hisobot tahlili fanining shakllanish elementlari.
6. O'zbekistonda moliyaviy tahlil fanining rivojlanishi.

Tayanch so'zlar:

Taxlilning o'rni, subyektlari, turlari, usullari, moliyaviy taxlil metodologiyasi, moliyaviy taxlilni shakllantirish masalalari.

1. Moliyaviy tahlilining shakllanishi

Firmalarning kreditlar bo'yicha majburiyatları buyuk depressiyaga qadarhozirgi kundagiga nisbatan kamroq edi.

Shu davrlarning firmalari o'zlarining kapitallarini aksiyalar bozori va banklarning qisqa muddatli kreditlari hisobidan shakllantirganlar. Regulyar bo'limgan aksiyalar bozorining, ularning kurslar bo'yicha siklik o'zgarishlari kreditorlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni puxta qilinmasligi moliyaviy inqirozlarini kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek axborotlarning to'liq emasligi, investorlar tomonidan ishonchning yo'qligi va moliyaviy holatlarga e'tiborsizlik iqtisodiyotning tanazzuliga olib kelgan.

1929 yildagi fond bozorining sinishi ko'plab firmalar va ularning biznesini kengaytirishidagi zarur kapitallar uchun daxshatlari zarba bo'ldi.

Fond bozorining sinishi tijorat banklari zanjirlri reaksiya bilan ta'sir qilib rejalashtirilgan aksiyalarning chiqishmasligiga sabab bo'ldi.

Shu munosabat bilan banklarda zayomshiklarning to'lovga layoqatsizligi va berilgan kreditlar bo'yicha to'lovlarning kechiktirilishi kredit portfeliiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 30 yillik depressiyadagi banklarning va firmalarning yoppasiga bankrotligi katta miqdorda kapitallarning yo'qotishiga sabab bo'ldi.

Shundan so'ng Buyuk depressiya natijasida vujudga kelgan qimmatli qog'ozlar va birja bo'yicha Komissiya tijorat firmalari o'zlarining moliyaviy holatlari va moliyaviy natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borishlari kerakligi to'g'risidagi farmoyishni e'lon qildi.

Komissiyaning ko'plab farmoyishlaridan biri bu umumiyl buxgalteriya hisobini yuritishga qo'ygan talabi edi (GAAP). Bunday nizomlar Amerika buxgalteriya hisobi assotsiyasi tomonidan joriy etilgan va Amerika institutlarining buxgalterlik diplomiga ega bo'lgan buxgalterlar tomonidan yuritilar edi. Hozirgi kunda bularning barchasi Stemfordagi (Konnektitutshati) moliyaviy hisobotlar standartlari Boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi.

2. Kreditdan foydalanishning kengayishi

Moliyaviy hisobotlarni o'rganishning yana bir sababi tadbirkorlikni moliyalashtirish uchun kreditlardan keng miqyosda foydalanish bilan bog'iqliq.

Kitobning bosh bobsi – firma majburiyatları va uning qo'shimcha qarzdorligi xavfsiz imkoniyatlari tahlilidir. Kredit bozori tadbirkorlikka aksionerlik kapitalini aralashirmsadan mablag' jalb qilish imkonini beradi. Boshqacha aytganda agar firmada sotish va foyda tez o'sib borsa, aksionerlarga yangi aksionerlar paydo bo'lib foydani ular bilan bo'lishiga to'g'ri kelmaydi. Foiz evaziga ssuda olish o'sib boruvchi va aksionerlar o'tasida bo'linib ketadigan foyda bilan bog'iqliq emas, ya'ni yangi aksiyalar chiqarishga ehtiyoj bo'lmaydi. O'suvchi foydani bo'lishni rad etib firma kelgusidagi qo'shimcha aksiyalarni sotishni rejalashtirsa bo'ladi.

Glass-Stigol qonuni 1933-yildan tijorat banklarini aksiyalar bozoridan ajratib, chiqarilgan aksiyalarni moliyalashtiruvchi investitsion banklarni o'zining qattiq nazoratiga oldi. Natijada investitsion banklar, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy muassasalar o'tasidagi agressiv raqobat sharoitida yangi kredit instrumentlari paydo bo'ldi. Shunday yangi kredit yangiliklaridan biri sifatida "tijorat qog'ozlari"ni misol qilib keltirsak bo'ladi. Kreditga ehtiyojmand kompaniyalar tijorat banklariga nisbatan xususiy shaxslardan va muassasalardan qisqa muddatli kreditlarni olishni ma'qul ko'rganlar.

Bunday yangi kredit instrumentining paydo bo'lishi bilan tijorat banklari kredit bozori mijozlari bo'lgan birinchi raqamlı zayomshiklardagi o'z ulushlaridan mahrum bo'ldi. Yangiliklaridan yana biri – bu vozobnovlyaemiy (revolving) kredit bo'lib, talab qilinishi bilan beriladigan va so'ndiriladigan kredit turi edi. Uchinchi misol – konvertatsiya bilan bog'iqli ssuda bo'lib, aksiyalar foiz stavkasi pasayishi bilan olinadigan kredit turi. Konvertatsiyalanadigan ssuda subordinar xarakterga ega bo'lib, biroq u oddiy aksiyalar sotb olishdan riskliligi kamroq. Keyinchalik dividendlar va bozor narxlari o'sishi bilan ssuda yana kelishilgan narxlarda aksiyalarga almashtirilishi mumkin bo'lgan.

Kreditga talabning o'sishiga yana bir omil – bu korporatsiyalarga foya solig'ining joriy qilinishi bo'ldi. Korporatsiyalar moliyachilarini aksiyalarga ham dividend, ham foiz to'laganga nisbatan majburiyatlarga foiz to'lagan foydaliroq ekanligini tezda angladilar¹.

Tijorat banklari oz daromad manbalarini topishda agressiv xususiyatga ega bo'lib, kreditlash qoidalarini yengillashtirdilar, ayniqsa zayomlar bozori va ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha. Bundan tashqari 80-yillarda ko'plar kompaniyalarning va ularning operatsiyalaini sotib olinishi krreditiga bo'lgan talabni shirib yubordi. Ko'plab hollarda kompaniya va firmalarning tashkil etilishida va ularning aksionerlik kapitalida kreditlar ulusi katta edi. Kutimagan sotib oluvchilardan himoyalalish uchun bir qancha korporatsiyalar muvaffaqiyatga erishishda nomzodlar kamroq bo'lishi uchun katta qarzlarni olaganlar. Kapitalning bunday joylashtirilishi 80-yillarda o'rtacha hisobda 100 mlrd dollarlik aksiyalarning bozordan chiqib ketishiga olib kelgan. Shunday qilib, 20 yil

davomida kredit bozori firmalar uchun kapital shakllantirishning asosiy manbasi hisoblangan.

3. Moliyaviy hisobotlar tahlilining ahamiyati

Ssuda berishning shu vaqtlardagi muhim protsess elementlaridan moliyaviy hisobotlar tahlili bankka kredit berishga qaror qabul qilishda va ularning shartlariini kelishib olishda yordam bergan. Ssuda berish protsessi odatda tijoratchi mijoz bilan bank kredit bo'limi xodimining suhbatasi boshlanib, mijozning kreditiga layoqatliligi, moliyaviy hisobotlar tahlili, ssudaning tarkibi va tuzilishini kelishib olish, ssuda shartlarini kelishib olish, ssudanin rasmiylashtirish va uni to'lab borishni nazorat qilish etaplaridan o'tadi. Shunday ekan, ssudani berish bilan uning usitdan nazoratni olib borish ham muhim masala sanaladi.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish davomida kompaniyaning sturturasi va kredit tarixidanda ko'ra, kompaniyaning oldingi va hozirgi moliyaviy holati va va ular moliyaviy hisobotlarda qanday aks ettirilanligi juda muhim omil sanaladi. Lekin shunday "nomoliyaviy" lahzalar moliyaviy hisobotlarni chuqr tahlil qilishda yordam bermaydi. Moliyaviy hisobotlar tahlili tizimli ko'rib chiqishni talab qiladi va ishonchli axborotlarga tayangan kompaniyaning o'tmishi uning kelajagiga baho berishga imkon yaratadi. Bunday tahlilda quyidagi muhim xarakteristikalar (moliyaviy yoki ishlab chiqarishga oid) aniq ko'rsatilishini talab qiladi:

moliyaviy tuzilma – kompaniyaga tegishli aktivlar va joylashtirilgan aktivlarning o'z mabag'ları yoki jalb qilingan mablag'ları bo'yicha majburiyatlar;

operativ sikl – bozorga joylashtirilgan mahsulot yoki xizmatlarni yaratish bosqichi

tendensiya yoki nisbiy samaradorlik – moliyaviy natijalarga va shu tarmoq bo'yicha boshqa kompaniyalarga nisbatan quvvatiga asoslangan kompaniyaning rivojlanish ko'rsatkichlari.

4. Tahlilning texnik va ahamiyatli jihat. Risk tahlili

Tijorat kreditlari tahlilchilari mantiqiy va hisob tamoyillariga asoslangan axborotlardan foydalanish metotlarini ma'qullaydilar. Tahlilchilar firma ma'lumotlarini va kelgusidagi moliyaviy natijalarni prognazlashda bir qator ishonchli axborotlarga tayangan statistik solishtirma, aniqlanadigan maxsus koeffitsiyentlar kabi texnik operatsiyalarni amalga oshiradi.

Biroq bu kabi texnik operatsiyalar kompaniyaning moliyaviy hisobini to'liq tahlil qilish uchun yetarli hisoblanmaydi. Bundan keyin tahlilchi raqamlar (hisoblangan koeffitsiyentlar, ma'lumotlar olishni solishtirish va tendensiyalarni aniqlash) bilan birga ularning tub ma'nosini anglashni, natijalarini munozara qilishni amaliyotga keng qo'llay boshladи. Aslida qanday hodisa bo'lgani bilan birga bu hodisaning yuz berish sababini anglab yetish juda muhimdir. Shuningdek, o'tmishda va hozirda qanday holatligidan tashqari kelajakda majburiyatlarni uzishni baholamoq zarur.

Shu tariqa, moliyaviy tahlilning bosh masalasi shundan iboratki, ma'lumotlarni texnik ishlab chiqish bilan birga ularning natijasini to'g'ri izohlash

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 200 page.

va tushunish kerak.

Buning uchun kredit tahlilchisi birinchi navbatda quyidagi bazaviy axborotlarni qo'lg'a kiritishi zarur bo'лади:

- kompaniya egasi, uning boshqaruvi, faoliyat turi;
- uning bozordagi raqobatchillari va xarajatlar ekspulatsiyasi, u faoliyat yuritayotgan tarmoq tavsiyi;
- kompanniyaning yalpi iqtisodiyotdagi kutilmagan vaziyatlarga va qonunchilikka ta'sirchanligi;
- kompaniya faoliyatida demografik tendensiyalar va iste'molchilar talabining ta'bi qay darajadalligi.

Oliy darajada tashkil etilgan hisob-kitoblar va ichki omillar mavhum raqamlarni real holatga aylantirib, axborotlar jamanmasi bo'yicha texnik tahlilni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bazaviy va moliyaviy axborotlarning jamlanmasi kredit bo'limi xodimiga zarur ssuda bo'yicha riskni to'g'ri baholashga va kredit berish bilan bog'liq qaror qilishga as qotadi.

Bank kreditor sifatida omonatchilar mablag'laridan yuqori bo'lмаган daromad oladi. Bank taqdim etilgan ssuda bo'yicha qarzdorlardan kelishilgan tartibda foyda keltiruvchi foizlar oladi. Sof foydaning past darajasi – asosan qarzdorlikning yuqori darajasi – bankdan kredit taqdim etishda ehtiyyotkorlikni talab qiladi.

Biroq tijorat firmalariga kredit berish riskidan qochib bo'lmaydi. Asosiy risk – bankirlarning kredit risklari bilan bog'liq – berilgan ssudalar bo'yicha qarzdorlarning shartlarni bajarmasligini o'z ichiga olib, zararlarni qoplashda qarzni so'ndirishning ikkinchi manbasi garov hisoblanadi. Kreditni boshqarish mavjud kompaniyalar bo'yicha ssuda portfelida kredit operatsiyalarini tahlil qilish orqali riskni boshqarishga, maqsadli mo'ljallar va kredit siyosatni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish – bu bankning muhim tadbirlaridan biri bo'lib, kredit berish qarorini qabul qilishda: kredit so'ragan kompaniya kelishuvga ko'ra ssudani qaytara olish riski baholanadi.

Qoidaga binoan, kredit beruvchi bank xodimi ssudani o'zining mijozni kreditga layoqatligini diqqat bilan tekshirishi bilan, shuningdek, ssudaning garov bilan ta'minlanganligi orqali ya to'g'ri nazorat olib borish orqali ssudani so'ndirish bilan bog'liq riskni kamaytirishi mumkin. Riskni baholashda qarzdorning moliyaviy kuchli va ojiz tomonlari balanslashtirilganligi muhim. Agar zayomshikning (qarzdorning) ojiz tomonlari ustun kelsa, bu uning ssuda bilan ta'minlanishi yetarlicha kredit riski bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu konsepsiya asosan quyidagicha ifodalanadi:

Kompaniyaning kuchli tomonlari – Kompaniyaning ojiz tomonlari>Noaniqlik=Muvofiq kredit riski

Risklar quyidagiarni o'z ichiga oladi:

likvidlik – firmanın layoqati:

1) moliyaviy muammolarga va imkoniyatlarga tez javob qaytra olish;

2) savdo hajmini oshirib aktivlarni ko'paytirish;

3) aktivlarni pulga aylantrib qisqa muddatli qarzlarni qaytarish;

sof pul harakati – uzoq muddatli maqsadlar uchun pul yig'ib borish, masalan, asosiy vositalarni yangilash, joriy aktivlarni ko'paytirish va uzoq muddatli ssudalarni so'ndirish kabilar;

operatsion foya – muvaffaqiyatli faoliyatning isboti bo'lib, investorlar nigohida kelajakda firmanın hayotiyligi va o'suvchanligi ishonchidir;

leveraj (qarzdorlik darajasi) – firma faoliyatida foydalilaniladigan majburiyatlar masshtabi mablag'"lar manbasi bo'lib, o'z mablag'"lari bilan ta'minlanganlik va ssudalarni so'ndirish bilan bog'liq pullarning harakati va davriy tebranishlaridir.

5. Moliyaviy hisobot tahlili fanining shakllanish elementlari

Muayyan vogelikka bo'lgan ehtiyoj zaruriyatga aylanib, uni yuzaga chiqaradi. Demak, vogeliklar sharoitga ko'ra obyektiv tarzda shakllanadi. Korxonalarini moliyaviy tahlil qilish fani ham iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi, statistika va shu kabi fanlar asosida vujudga kelgan. Buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi asar XV asrda Italiyada paydo bo'ldi. Mazkur davrdagi kitoblarda ko'proq buxgalteriya hisobining savdo va kredit operatsiyalari yoritilgan.

Ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi, korxonalarining yiriklashuvi, xo'jalik faoliyatining kengayishi iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hisob ishlarini takomillashtirish zaruratini tug'dirdi. Shu bois, XVI–XVII asrlarda buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan kitoblar Gollandiya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda chop etildi. Natijada buxgalteriya yer kurrasining bir qismida emas, balki barcha mamlakatlarda keng yoyila boshladi.

Rossiyada buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlar XVIII asrda paydo bo'la boshlagan. Oldin chet el adabiyotlari rus tiliga tarjima qilingan bo'lsa, so'ngira rus olimlari ham bu fanga bag'ishlangan asarlarni chop etishga kirishganlar.

XVIII asr oxirida Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlaridagi ishlab chiqarish taraqqiyoti korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri va to'liq hisobga olishni talab qiladi. Shu bilan birga ishlab chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o'rtaida erkin raqobatning vujudga kelishi buxgalteriya ma'lumotlarini chuquroq o'rganishni va uni to'g'ri tushuntirish zaruratini tug'dirdi. Bu esa o'z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo qildi, chunki «tijorat sirini» takomillashtirish borasidagi juda ko'p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fani javob berishga qiynalib qoladi.

Korxonalarini to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuquroq o'rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo'lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yillarda chiqa boshlagan «Schytovodstvo» jurnalida paydo bo'la boshlagan. Keyinchalik bu jurnalda buxgalteriya balansini tahlil qilishga bag'ishlangan juda ko'p maqolalar e'lon

qilingan. Shunday qilib, tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan fan – «Balansshunoslik» fani paydo bo'lgan.

Bu fanning balansshunoslik deb atalishiga asos bo'lgan, chunki o'sha paytlarda xo'jalik faoliyatining natijasi asosan buxgalteriya balansida ifoda etilgan, xolos. Balans ma'lumotlariga asosan korxonaning mablag'i yoki ular manbayining ma'lum muddatda o'zgarishi aniqlanadi. Lekin shu o'zgarishlar nima evaziga sodir bo'layotganligi, ularga qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi korxona egasi uchun muhim bo'lib bordi. Bu esa balansdagi ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruragini vujudga keltiradi. Tahlilning ilk ko'rinishi – «Balansshunoslik» fani shu tariqa shakllana bordi.

Tahlil fanining vujudga kelishida va uning shakllanishida olimlardan V.S. Nemchinov, A.V. Prokofyev, R.Ya. Veysman, I.S. Arinushkin, P.N. Xudyakov, kabilarning juda katta xizmatlarini ta'kidlash lozim. Bu mualliflar asarlari asosan o'tgan asrdagi korxonalarining murakkab faoliyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Jumladan, 1883-yilda A.V. Prokofyevning «Ikki yoqlama buxgalteriya kursi» asari chop etilgan. Ammo bunda maxsus tahlilga bag'ishlangan bo'lim yo'q bo'lsa-da, biroq balans ko'rsatkichlari faqat nazorat qilish uchun emas, balki tahlil qilish uchun ham kerak, deb ta'kidlangan.

1917-yilga qadar nashr qilingan asarlarga R.Ya. Veysmanning «Hisobshunoslik kursi» kitobini kiritish mumkin. Bu kitobda balans talqiniga bag'ishlangan maxsus qism bo'lib, unda ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Bu kitobda muallif balansning aktiv va passiv qismlaridagi moddalariga izoh berib, ularning real va haqiqiy ekanligini isbotlashga uringan. Birinchi marta «Balans-netto» tushunchalari kiritilgan. I.S. Arinushkin 1912-yilda «Aksioner korxona balansi» kitobini chop etadi. Bu asar faqat balans moddalarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Unda balansning tuzilish tartibi, moddalarini baholash yo'llari, xo'jalik faoliyatini yaxshilash usullari yoritilgan. Shunday qilib XIX asr boshlarida xo'jalik faoliyatini, jumladan, buxgalteriya balansini tahlil qilish usullari vujudga keladi, ammo tahlil fani hali mustaqil fan sifatida shakllanmaydi. Shu tufayli tahlil fani eng avvalo buxgalteriya hisobi fanining bir qismi bo'lib shakllanadi.

Ishlab chiqarish taraqqiyoti krizis va raqobatni ham vujudga keltirdi. Bunday sharoitda har bir korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi «tijorat siri» muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda buxgalteriya balansi ma'lumotlari yetarli bo'lmay qoldi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko'rsatkichlarni ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlilning ko'lami kengaydi. Oldin, faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo'lsa, endi unga boshqa hisobotlar tahlili ham qo'shilib «Hisobot tahlili» vujudga keldi. Bunda buxgalteriya balansidagi ko'rsatkichlar bilan birgalikda «Foyda va zararlar» haqidagi hisobot ma'lumotlaridan ham foydalaniildi.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o'ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo'ldi. Moliyaviy tahlilning vujudga kelish tarixi bo'yicha nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nominining ham takomillasib borganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tahlil fani vujudga kelguncha bir qancha evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Nihoyat u fan sifatida shakllandi. Biroq fan tarzida u bir necha nomlar bilan ataldi. Moliyaviy hisobot tahlil qilish fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlari:

- Balansshunoslik
- Balans talqini
- Balansni tahlil qilish
- Hisobot tahlili
- Moliyaviy tahlil
- Ijtimoiy-moliyaviy tahlil
- Xo'jalik faoliyati tahlili
- Moliyaviy tahlil

Bu yerdagagi eng muhim holat moliyaviy tahlil fani obyektiv zarurat bo'lib yuzga keldi hamda shakllana boshladi. Shu bilan birga foydalanuvchilar hamda iqtisodiy fanlar differensatsiya natijasida o'z nomi, shakli, mazmuni hamda boshqa jihatlariga ega bo'ldi.

6. O'zbekistonda moliyaviy tahlil fanining rivojlanishi

O'zbekistonda moliyaviy tahlil fanining shakllanishi hamda rivojlanishi 1931-yilda Toshkent moliya-iqtisod institutining tashkil topishi bilan chambarchas bog'liq. Mana shu davrdan xalq xo'jaligining moliya sohasi hamda tarmoqlari iqtisodiy jihatdan tahlil qilinib o'rganilgan. Garchand, iqtisodiy fanlar qatoridan moliyaviy tahlil fani alohida predmet bo'lib ajralib chiqmagan bo'lsa-da, uning usullari va uslublaridan boshqa fanlarda foydalanilgan. Ayniqsa, moliya, kredit, buxgalteriya hisobi fanlarida moliyaviy tahlil elementlari keng ko'lama qo'llanilgan. 1950-yillargacha xo'jalik faoliyati tahlili buxgalteriya hisobi fani tarkibida o'qitilgan. 1950-yillardan keyin xo'jalik faoliyati tahlili alohida fan tarzida oliv o'quv yurtlarida o'qitala boshlagan. Misol uchun, Toshkent moliya-iqtisod institutida i.f.d., professor Ayrumov Arsen Mixaylovich «Paxta etishtiruvchi jamoa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilish» bo'yicha o'quv qo'llanmani 1955-yilda (rus tilida), «Sanoat korxonalarli xo'jalik faoliyati tahlili» nomli darslikni (rus tilida) 1959-yilda, «Davlat xo'jaliklarida xo'jalik faoliyati tahlili» bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni (1960-yil) kabi maxsus adabiyotlarni yozgan.

1966-yilda Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etilgan «Matlubot kooperativasi korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili» nomli darslikni yozishda novosibirsklik L.A. Falkovichlar bilan birgalikda samarqandlik olim I.N. Toporovskiy ham taklif qilingan edi. 1970-yilda samarqandlik olimlar I.T. Abdurakov, B.A. Zalesskiy va N.I. Toporovskiy tomonidan Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida «Matlubot kooperativasi korxona va tashkilotlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha masalalar to'plami» o'quv qo'llanmasi chop etildi.

Toshkent moliya-iqtisod institutining Toshkent xalq xo'jaligi institutiga aylanishi va mazkur institutda «Xo'jalik faoliyati tahlili» kafedrasining faoliyati ham moliyaviy tahlil fanining alohida bo'lib rivojlanishida muhim ahamiyatga ega

bo'ldi. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor A.M. Ayrumov tomonidan «Sanoat korxonalari xo'jalik faoliyati tahlili» nomli darslik (rus tilida) 1971-yilda chop etildi. N.B.Kartamishev, S.K. Qodirxonov, S.X. Ablyatifovlar tomonidan «Sanoat korxonalari xo'jalik faoliyati tahlili bo'yicha masalalar» (-T.: «O'qituvchi», rus tilida) nomli kitobi 1977-yilda olyi o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. 1970-yillarda respublikamizdagi iqtisodiy olyi o'quv yurtlarida tahlil maktablari tarkib topa boshladi.

1970-yillarning ikkinchi yarmiga kelib tahlilchilar safi O'zbekiston miqyosida tanila boshlandi va kengaydi. Bu fan bo'yicha o'zbek tilida darsliklar paydo bo'la boshladi. 1973-yilda «O'qituvchi» nashriyotida N.A. Xan tomonidan tayyorlangan «Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi» nomli olyi o'quv yurtlari uchun darslik chop etildi. 1979-yilda O. Mahmudovning «Qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish» nomli o'rta maxsus o'quv yurtlariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmasi o'zbek tilida chop etildi. Bu darslik va o'quv qo'llanmalar respublikamizda moliyaviy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo'yilgan ilk qadamlar edi.

1973-yilda prof. I.T. Abdukarimov va dots. M.Q. Pardayevlar tomonidan «Kooperativ savdoda mehnat ko'rsatkichlari tahlili» nomli kitobi Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. Bu bilan o'zbekistonlik olimlar tematik tahlil rivojlanishiga yana bir qutlug' qadam qo'yildilar.

1980-yillar O'zbekistonlik olimlar uchun juda sermahsul davr bo'ldi. I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev va A.A. Abdiyevlar hamkorligida «Xo'jalik faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratildi. Bunda kooperativ savdo korxonalari xo'jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan. Ammo matlubot kooperatsiyasi ko'p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3-tomi «Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xo'jalik faoliyatining tahlili» bobsiga bag'ishlangan.

1984-yilda I. T. Abdukarimov tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. 1989 yil yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to'ldirilgan variantida yangidan nashr qilindi.

O'zbekistonlik olimlar tahlilning yangi shakli – kompleks tahlil usullarini ishlab chiqishga kirishdi. Natijada 1983-yilda professor I.T. Abdukarimov tahririda M.Q. Pardayev va Yu.S. Sattarovlar tomonidan tayyorlangan «Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash» bo'yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi.

Xo'jalik faoliyatini kompleks baholash borasida ilmiy izlanishlar davom etadi. Endi bir tarmoqda emas, balki ko'p tarmoqda qanday usul bilan kompleks baholash mumkinligi ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi va nihoyat, 1990-yilda V.I. Abdukarimov tomonidan «Axborotlarni avtomatlashtirilgan tizimi sharoitida ko'ptarmoqli matlubot kooperatsiyasi samaradorligini kompleks baholash masalalari» nomli monografiya Toshkentdag'i «Mehnat» nashriyotida bosmadan chiqdi.

Shu davrlarda korxonalar iqtisodiyoti yoki hisob tizimiga bag'ishlangan adabiyotlarda moliyaviy tahlil fani usullaridan samarali foydalilanigan. Misol uchun, professor A.S. Sotivoldiyevning Qishloq xo'jaligida xarajatlar uchyozi va

mahsulot tannarxini hisoblash (O'quv qo'llanma. -T.: Mehnat, 1988), Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi (Darslik. -T.: Mehnat. 1991) kabi kitoblarida moliyaviy tahlil usullari keng ko'lamda qo'llanilgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi o'zbekistonlik olimlarni o'zbek tilida darslik yozishga da'vat etdi. 1989-yilda I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev, A.A. Abdiyev va V.I. Abdukarimovlar tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» bobsida o'zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdag'i «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Bu darslikdagi ko'p iqtisodiy atamalar o'zbek tilida yozildi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur davrlarda ayrim o'zbekistonlik olimlar moliyaviy tahlil faniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishgan va ularni muvaffaqiyatli himoya qilishgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qildi. 1991-yilda I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev va Sh.U. Haydarovlar hamkorlikda «Yangi xo'jalik yuritish sharoitida kooperativ saydoda daromadlar tahlili» risolasini chop etdi.

1995–1999-yillarda O'zbekistonda «Moliyaviy tahlil» fanining asosiy sohasi bo'lgan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. I.T. Abdukarimovning «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» (-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O. Volji va V.V. Ergashboyevlarning «Moliyaviy tahlil» (-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998), M.Q. Pardayev va B.I. Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil» (-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999), M.Q. Pardayev va boshqalar Boshqaruva tahlili (O'quv qo'llanma. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005) kabi kitoblarni kiritish mumkin.

2000-yildan so'ng respublikamizdagi iqtisodiy olyi o'quv yurtlarida moliyaviy tahlil faniga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar chop etildi, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilib muvaffaqiyatli himoya qilindi. Jumladan, Toshkent Moliya instituti professor-o'qituvchilari tomonidan ham bir qator ijobjiy ishlarni amalgaga oshirildi. Ularga quyidagilarni misol qilib ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Yo. Abdullayev, A. Ibragimov, M.Raximov. Moliyaviy tahlil. (O'quv qo'llanma. -T.: «Mehnat». 2001), A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov «Moliyaviy tahlil» (Darslik. -T.: «Sharq», 2002), A. Vahobov, A. Ibragimov, B. Xakimov «Moliyaviy tahlil nazariyasi» (O'quv qo'llanma. -T.: «Moliya», 2003), A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov «Boshqa tarmoqlarda moliyaviy tahlilning xususiyatlari» (O'quv qo'llanma. -T.: TMI. 2004), A.Ibragimov, M.Raximov. Moliyaviy tahlil. (O'quv qo'llanma. -T.: TMI. 2004), X. Axmadjonov, M. Raximov. Boshqaruva tahlili. (O'quv qo'llanma. -T.: TMI. 2004), T.Sh. Shagiyasov «Teoriya ekonomicheskogo analiza» (Ucheb. posobie / TFI. –Tashkent, 2005), T.Sh. Shagiyasov, Z.A. Sagdillaeva. B.V. Fayziev. «Finansovy i upravlencheskiy analiz» (Uchebnik. -T.: «Iqtisod-Moliya», 2008), T.Sh. Shog'iyosov Kompleks moliyaviy tahlil. (O'quv qo'llanma. -T.: «Iqtisod-moliya», 2009), B.Xakimov, X. Xo'jaxonov, «Byudjet tashkilotlarida

moliyaviy tahlil» (-T.: «Iqtisod-Moliya», 2011), T.Sh.Shog‘iyosov «Kompleks moliyaviy tahlil» (Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2012) va boshqalar.

2005-yildan Toshkent Moliya instituti «Moliyaviy tahlil» kafedrasini qoshida magistratura 5A340903-»Moliyaviy tahlil» mutaxassisligi bo‘yicha o‘zbek, rus va ingliz tillarida kadrlar tayyorlay boshladi. Toshkent Moliya instituti «Moliyaviy tahlil» kafedrasining mudiri professor B.J.Xakimov rahbarligida hamda kafedra a’zolari harakati tufayli A340903-»Moliyaviy tahlil» mutaxassisligi 2011-yilda MASTERS RANKING (eduniversal xalqaro tashkiloti xulosasiga ko‘ra) The Best Masters and MBA Worldwide 2011 dasturi bo‘yicha dunyoning eng kuchli TOP 200 Best Masters Programs – Worldwide Economics ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu hodisa O‘zbekiston iqtisodiy fanlari tarixida birinchi marta ro‘y berishi edi. Bu esa, Toshkent Moliya instituti «Moliyaviy tahlil» kafedrasini professor-o‘qituvchilarini va ular tomonidan tayyorlanayotgan «Moliyaviy tahlil» mutaxassislarini butun dunyoda e’tirof etilganidan dalolatdir.

Hozirgi kunda Toshkent moliya instituti «Moliyaviy tahlil» kafedrasini tomonidan iqtisodiy yo‘nalishdagi bakalavr talabalariga «Moliyaviy tahlil nazariyasi», «Moliyaviy va boshqaruva tahlili», «Moliyaviy tahlil va audit» nomli fanlar o‘qitilmoqda. Iqtisodiy yo‘nalishdagi magistrlarga esa «Kompleks moliyaviy tahlil», «Fuksional moliyaviy tahlil», «Iqtisodiy subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilish», «Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili» fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz va uzviy olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasi bo‘lib raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish o‘rta muddatdagi asosiy strategik masala bo‘lib qolmoqda. Mazkur sharoitdagi iqtisodiy munosabatlari, ulardagи mutanosiblik hamda tendensiyalar moliyaviy tahlil fanini rivojlanirish yo‘llarini aniqlab beradi.

Nazorat savollari:

1. Moliyaviy taxlilning mazmuni nimalardan iborat?
2. Moliyaviy holat taxlilida qanday usullardan foydalilanadi?
3. Moliyaviy taxlilning asosiy maqsadi nima?
4. Moliyaviy taxlilning qanday asosiy vazifalari mavjud?
5. Korxonalarning moliyaviy holati deganda nimani tushunasiz?
6. Moliyaviy taxlilni o‘tkazishning qanday shakllarini bilasiz?

10-bob. MOLIYAVIY TAXLILNI TASHKIL ETILISHI VA AXBOROT MANBALARI

Reja:

- 1.Moliyaviy tahlilning mazmuni, ahamiyati va vazifalari
- 2.Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari
- 3.Moliyaviy tahlil jarayonida foydalilaniladigan axborot manbalari
- 4.Moliyaviy taxlilni tashkil etish shakllari
- 5.Moliyaviy taxlil bosqichlari
- 6.Moliyaviy taxlilning axborot manbalari

Tayanch so‘zlar:

Tahlil shakllari, ichki moliyaviy taxlil, tashqi moliyaviy taxlil, bosqichlari, moliyaviy holati, axborot manbalari.

1. Moliyaviy tahlilning mazmuni, ahamiyati va vazifalari

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalananish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlanirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari - foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko‘rsatkichlariga aylanadi.

Iqtisodiyot sektorlarining uzlusiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, korxonalarning barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy tahlil mukammal ishlashi kerak. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. Shu sababli, moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni barcha sektorlarning tuzilmasiga va o‘zgarishlariga mos tarza qayta qurish, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini o‘rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu holatni hisobga oladigan bo‘lsak, korxonalarning moliyaviy holatini baholash va uning tahlilini to‘g‘ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi bozor iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim bo‘ladi. Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etish orqali uni yanada sog‘lomlashtirish imkoniyatlariga baho beriladi hamda moliyaviy mustahkamligi kuchaytiriladi.

Agar ilgari korxonalarining xo‘jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug‘ullangan bo‘lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko‘rsatilagan tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamao tashkilotlari, aktsionerlar, ta‘minlovchilar, iste‘molchilar va boshqa organlar va tashkilotlar ham shug‘ullanishi yapti.

Bu holat moliyaviy tahlil, jumladan, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar o‘ymoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinyapti.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri - bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobji hal etishda korxonalarining xo‘jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish katta rol o‘ynaydi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bu shartning asosiy qismi bo‘lib korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Respublikada yangi moliyaviy hisobot shakllari qabul qilindi, ularni o‘rganish va ulardan keng foydalanish uslu larini barpo etish katta ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlari davrida respublikada bu masalani yechish maqsadida moliyaviy tahlil uslubiyatini takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu borada hali yechilmagan muammolar ham kam emas. Moliyaviy tahlilning o‘tkazishdan manfaatdor tashkilotlar, organlar, mutaxassislar hali ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan asoslangan uslub bilan ta‘minlangan emaslar. Bu holat, albatta bozor munosabatlarini shakllantirish davrida korxona va tashkilotlarga samarali boshqaruvchilik qilishda salbiy rol o‘ynamoqda.

Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog‘liq pul hisob – kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag‘ bilan ta‘minlanganligi, barcha turdag‘ mablag‘larni maqsadga muvofiq yo‘nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, byudjet, bank, homashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob – kitob holati bilan xarakterlanadi. Korxonani moliyaviy holati barqaror, nobarqaror va krizis darajasida bo‘lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikka ega bo‘lgan korxonalarda ishchi va xizmatchilar bilan ish xaqi, byudjet, bank, mol yetkazib beruvchilar bilan bo‘ladigan hisob – kitob ishlari o‘z muddatida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomga ryoja qilmaslik, debitorlik va kreditorlik qarzlarini ortib ketishiga olib keladi va muddati uzaytirilgan qarzlarni surunkali davom etishi bankrotlik alomatlarini vujudga keltiradi.

Korxonalarining moliyaviy holati bu:

- komples ravishdagi tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga keng ko‘rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo‘jalik omillarining

harakati, ularning o‘zaro aloqadorlik natijasidir;

- korxonalarining mo‘‘tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;

- korxonalarining boshqa xo‘jalik subyektlari, organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Korxonalarining ichki va tashqi omillar ta’siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxona bilan aloqada bo‘lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Umuman korxonalarining ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatini, jumladan ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshg‘alar tashkil etadi. Demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilmga ega bo‘lishlari lozim.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya’ni moliyaviy tahlil - bu keng ko‘rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil ko‘p qirrali murakkab jarayon bo‘lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqalarni borligini bilish;
- moliyaviy tahlil mobaynida absolyut va insbiy ko‘rsatkichlardan birgalikda foydalanish;
- moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga - alohida hodisalardan umumiyligi hodisalarga o‘tish, moliyaviy holatning bir shakl ko‘rinishidan umumiyligi ko‘rinishga o‘tish va deduktiv usulga - umumiyligi hodisalardan alohida hodisalarga o‘tishga asoslanib tahlil qilish;
- hamma foydalanilayotgan ko‘rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;
- moliyaviy holatni tahlil qilisha tahlil qilinayotgan korxona ko‘rsatkichlarini boshqa korxonalar, o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlari va ilg‘or korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;
- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo‘lishligi va korxonalarining umumiyligi moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil etish;
- moliyaviy tahlilni samarali o‘tkazish uchun kerakli ma’lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish;
- moliyaviy tahlil obyektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarining moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;
- moliyaviy tahlil o‘z vaqtida o‘tkazilib, tahlil yakunlariga asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;

- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o'tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo'nalishlari ifodalaniishi lozim;

- moliyaviy tahlil o'z vaqtida va haqqoniy bo'lib, u moliyaviy holatni ko'tarishga bag'ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi kerak;

- moliyaviy holatni tahlil qilish shunday vaqtda o'tkazilishi kerakki, tahlil yakunlari quyidagi maqsadni amalga oshirib, korxona boshqaruva faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini tug'dirishi lozim;

- moliyaviy tahlil barcha yig'ilgan va umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, kerakli ko'rsatkichlardan foydalanib, bu ko'rsatkichlarning asosligi to'g'ri usullarda aniqlanshi lozim.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning yakunlari ochiq bo'lib, ulardan hamma foydalanishi mumkin;

- moliyaviy tahlilning subyektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxona, tashkilotlar tarkibi keng;

- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma'lumotlariga asoslanadi;

- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruva muammolarini yechish uchun o'tkaziladi;

- moliyaviy tahlilning yo'nalishi moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan cheklangan bo'lib, unda chegaralangan bir aniq vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi, foya, rentabellik darajasi va boshqalardir.

Ko'rinib turibdiki, korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun o'tkaziladi. Korxonalarни ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun an'anaviy, qadimdan qo'llanilib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usullari, moliyaviy holatni ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni o'tkazish, absolyut, nisbiy, o'rtacha, dinamik ko'rsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelyatsiya aloqalarni aniqlash, jadval va chizma tizimidan foydalanish lozim.

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab va muhim bo'lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan bo'lishi lozim. *Yuqorida ko'rigan talablarga asoslanib, moliyaviy tahlil korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilishi kerak:*

1. Korxonalarning moliyaviy darajasini baholash;
2. Moliyaviy holatning o'zgarishini aniqlash;
3. Korxonaning to'lov qobiliyatiga baho berish;
4. Moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish;
5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligiga baho berish Moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish;
6. Korxona balansi likvidligiga baho berish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

7. Aylanma mablag'lar aylanishiga baho berish;

8. Korxonalarda qo'rga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni, mavjud zahiralarni ko'rsatib berish.

9. Korxonalarda hali foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko'rsatib berish.

Bajariladigan vazifalar shuni ko'rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruva tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan tahlilning obyektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy obyekti bo'lib, xo'jalik subyektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi. Lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin.

Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganligi nuqtai nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o'rganiladi. Masalan, korxona mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalananadi;

- nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqa o'rganiladi. Masalan korxona mablag'larining va ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa ifodalananadi;

- taqqoslash tahlilida korxona bo'yicha moliyaviy holat uning alohida bo'limchalar moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarning moliyaviy holati bilan solishtiriladi va

pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi.

Korxonalar faoliyatini o'rganishda buxgalteriya hisoboti asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular moliyaviy ma'lumotlarning umumlashtirilishi natijasida tuziladi hamkorlikda ishlovchilar o'rtasida bir-birini o'rganish vositasini bo'ldi.

Hisobot ma'lumotlari asosida korxona faoliyatini o'rganishga qiziquvchilarni shartli ravishda bevosita va bilvosita talabgorlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mulk egalari, qarz beruvchi, mol yetkazib beruvchi, xaridorlar, soliqchilar, moliyachilar, korxona ishchi va rahbar xodimlari kiradi. Har bir qiziquvchi o'zining manfaati va talabiga qarab moliyaviy hisobotlarni tahlil etadi. Mulk egasi sarmoyadan qanchalik samarali foydalaniyatganligi, qo'shma olinadigan daromad summasi bilan qiziqsasi, qarz beruvchi berilgan mablag'ni qaytarib olish imkoniyatini oldindan bilishga harakat qiladi. Bilvosita qiziquvchi iste'molchilarga auditorlik firmalari, birjalar, assotsiatsiya vakillari, matbuot xodimlari, kasaba uyushmalarini va boshqalar kiradi. Ular moliyaviy holatga aloqador bo'lmaseda,

birinchi guruh talabgorlarining mansatini himoyalash maqsadida hisobot ma'lumotlarini o'rganadilar¹.

Moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda korxonalar faoliyatiga to'g'ri baho berish muhim vazifadir. U moliyaviy hisobotni o'rganishga qiziquvchi tadbirkorlar, soliq, moliya, bank tizimi xodimlari va keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan - baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir. Barqarorlik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob-kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois bozor sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va holisona baho berish;
- mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlataligligini aniqlash;
- hisoblashish ishlarining o'z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditorlik qarzlarini tarkibini o'rganish;
- korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat va aylanma mablag'larni manba bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishni aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;
- korxona mulkining kadrligi va tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;
- aylanma mablag'lardan foydalishiga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar bayon etish va h.k.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi - moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, harajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Moliyaviy tahlilni bajarishda zarur bo'ladigan manbalarga korxona balansi, unga qilingan ilovalar va boshqa hisobot ma'lumotlari kiradi. Shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik schetlari ma'lumotlaridan ham keng foydalaniш lozim. Chunki keyingi yillarda tuziladigan hisobotlarning hajmi qisqarib, tahlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmoqda.

Ayniqsa mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag'lar, zahira jamg'armasi, foya va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qiymatli qog'oz va veksellar bo'yicha ma'lumotlardan ko'proq foydalaniлadi. Bular xo'jalik faoliyatining to'g'ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo'lishi va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar

chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniлadi.

Tahliliy ishlarni muvafaqiyatlari, samarali o'tkazilishi uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liq. Uni o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan va reja asosida amalga oshirilishi lozim. Tahlil ishlari olib borilayotganda, u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Ushbu bosqichlarni bosib o'tish jarayonida har bir bosqichning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va ularning bajarilishi ma'lum tomonlarga asoslangan bo'lishi lozim. Asoslanishi lozim bo'lgan tomonlar esa quyidagilardan iborat:

1. Korxona faoliyatini tahlil qilish - boshqarishda qaror qabul qiladigan har bir rahbar, menejerning xizmat burchidir. Shunday qilib bundan chiqadigan zarur tamoyil bu tahlil ishlarni bajaruvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;
2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida tahlil ishlarni tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uning tejamliligi, ya'ni kam xarajat qilib yuqori samaraga erishish;
3. Tahlil ishlarni tashkil qilishda yana bir tamoyil uni o'tkazishni nazorat qilib borish.

Korxona iqtisodiy-moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim korxonaning boshqaruв ya moliyaviy hisobot shakllarini erkin o'qishni, uning moddalarini tushunishni, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi kerak.

Korxonalarda moliyaviy tahlilni tashkil etish ixtiyoriylik va amaliyotdagи tajriba hamda talabdan kelib chiqqan holda tahlil ishlari tashkil etiladi. Tahlilni tashkil etishda o'rganiladigan boblarning qo'lami va ahamiyatiga qarab iqtisodchilar bilan bir qatorda korxonaning barcha mutaxassislari hamda oddiy ishchisigacha ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Boshqaruvning hamma bo'g'inalarida umumiy ishlab chiqarish sohasini samaradorligini oshirishda analitik ishni tashkil etish va moliyaviy tahlilning roli oshib bormoqda. Ushbu holatdan kelib chiqib moliyaviy tahlil tashqi va ichki tahlil turlariga bo'linadi.

Korxona va birlashmalarini ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining tashqi tahlilini quyidagilar olib boradilar:

- ◆ Boshqaruvning yuqori organlari;
- ◆ Moliya organlari;
- ◆ Bank tashkilotlari;
- ◆ Soliq organlari va hakozolar.

Yuqori boshqaruv organlari o'z nazorati ostidagi korxona va uyushmalarning ishlab chiqarish faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib turishadi. Buning uchun esa reja va hisobot ma'lumotlari, tekshiruv natijalari va boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan foydalaniб, quyida ishlab chiqarish korxonalarini va birlashmalarida moliyaviy tahlilni tashkil etishni sxemasini keltirib o'tish mumkin bo'ladi.

Moliya organlari moliyaviy tahlil jarayonida korxona va birlashmalarining foydalilik rejasini bajarilishiga, korxonaning moddiy va pul resurslarini ratsional

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 105 page.

taqsimlanishiga, o‘z – o‘zini moliyalashga va harid quvvatiga diqqatini qaratadi. Moliyaviy *tahlil ishlarini korxona va birlashmalar olib borishi bilan bir qatorda boshqa tashkilotlar ham olib borishi mumkin: Bularga:*

- ◆ Rejalshtirish tashkilotlari;
- ◆ Ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish institutlari;
- ◆ Jamoat tashkilotlari;
- ◆ Matbuot organlari kabilar kiradi.

Ichki tahlilni esa korxona va birlashmalarni ishchi hodimlari olib boradilar va ularning turli tarkibiy bulinmalari o‘zlariga tegishli funktsiyalarni belgilab oladilar. Moliyaviy tahlil ko‘p qirraligi bilan ajralib turadi. Korxonani hamma faoliyati sferalarida mavjud bo‘lgan rezervlarni izlab topish, taqsimlangan majburiyatlarni aniq bajarilishi va uni amalga oshirishda ma’suliyatni xis etish lozim bo‘ladi.

2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari

Analitik ishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalshtirishga bog‘liqdir. Odatta analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funktsional organlari, jamoatchilik a’zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo‘ladi.

Moliyaviy tahlilni tashkil etishning quyidagi bosqichlari mavjud:

◆ *Tahlil o‘tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.* Moliyaviy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda moliyaviy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil utkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari moliyaviy tahlil o‘tkazish dasturida quyidagilar aniq ko‘rsatilgan va belgilanib olingan bo‘lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyektni aniqlash;
- moliyaviy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izoxlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil utkazish muddatini belgilab olish;
- tahlil manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

◆ *Tahlil uchun kerakli bo‘lgan manbalarni aniqlash, yig‘ish hamda hisoblanadigan ko‘rsatkichlarni belgilash bosqichi.* Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma’lumotlarni aniqlash;
- tahlil manbalarini to‘plash;
- qo‘shimcha ma’lumotlarni jalg etish;

◆ *To‘plangan ma’lumotlarning qo‘g‘riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.* To‘plangan manbaalarmi to‘g‘riligini tekshirish hamda ishonchliliginu aniqlashdan iborat bo‘ladi va ushbu manbaalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma’lumotlarni soddalashtirish;

- jadval, sxema va maketlarni tuzish;

- ta’sir etuvchi faktorlarni aniqlash;

- rezervlarni aniqlash.

◆ *Bevosita xo‘jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.* Bu eng muhim bosqich bo‘lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko‘rsatkichlar hisoblanadi, o‘zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarini baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarini umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

◆ *Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.* Bu bosqichda o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma’lum bir o‘zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo‘ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o‘zgarish sabablari aniqlash;
- korxona faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

◆ *Tahlil natijasida ilg‘or g‘oya va tajribalarni amaliyotda qo‘llash shart-sharoitlarini ko‘rsatib berish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bosqichi.* Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxona faoliyatiga qo‘llash yo‘hari ko‘rsatib beriladi, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg‘or g‘oya va tajribalarni amaliyotga tadbiq etishni ko‘rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

3. Moliyaviy tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari

Korxonalarни to‘g‘ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma’lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Malumotlar deyilganda iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo‘jalik jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks etirish, ularni qayta hisoblash va o‘rganish, hamda qiziquvchi tashkilotlarga uzatish tushuniladi.

Tahlil uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ◆ Iqtisodiy ma’lumotlar;
- ◆ Huquqiy-me’yoriy ma’lumotlar;
- ◆ Ilmiy- texnikaviy ma’lumotlar;
- ◆ Tabiy- ekologik ma’lumotlar;
- ◆ Boshqa ma’lumotlar.

Moliyaviy ma’lumotlarni biznes reja, turli xil axborot manbaalar, texnologik ma’lumotlar, operativ- texnik, me’yoriy va hisob hujjatlari tashkil etadi. Bu manbaalar tahlilda eng ko‘p foydalaniladi.

Huquqiy- me'yoriy ma'lumotlarga esa Respublikamizda amal qilayotgan barcha qonunlar, me'yoriy hujjatlar va normativ aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlardan foydalanish tushiniladi.

Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, eng yangi taraqqiyot, jaxondagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Tabiiy-ekologik ma'lumotlar, tabiat, yer, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlarni moliyaviy tahlilda muhim manbaa sifatida o'rnatiladi.

Boshqa manbaalarga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiy-ekologik manbaalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, bunga ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi, radio va televideniyadagi keltirilgan axborotlardan foydalanish tahlil uchun muhimdir.

Ko'plab manbaalarni tahlil jarayonlarida qo'llash ularning mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarini xolisona bo'lishini va korxonalarini bozor iqtisodiyoti sharoitida faol qatnashishiga imkon yaratadi.

Moliyaviy *manbaalar boshqa axborotlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:*

- Hujjatlashganligi – barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayt etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.

- Turli-tumanligi – hodisa va voqealar ko'pgina manbaalarda qayt etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir- biridan farqlanadi.

- Ommaviyiligi va hajmining kengligi – ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.

- Ma'lum davrlarda takrorlanib turishligi – tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar mutazam to'lg'azilib tegishli tashkilotlarga topshirilish ko'zda to'tiladi, hisobot davrlari- choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar to'ziladi.

- Qonunlashganligi va chegaralanganligi – barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, makroiqtisod vazirligi va soliq qo'mitasini tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib to'ziladi. Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.

- Ko'p qirralig'i va sermazmunligi – iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatiladi, boshlang'ich hujjatlarda korxona nomi, imzo chekuvchilarining nasl-nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashadi.

Iqtisodiy ma'lumotlarni aksariyat qismini hisob axborotlari tashkil etib, buxgalteriya, statistika va tezkor hisoblar majmuidan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari moliyaviy tahlil axborotlari tarkibida 70 foizdan ortiq salmoqni egallaydi.

Tahlil uchun kerakli manbaalar quyidagi talablarni bajarishi lozim:

6. Xaqqoniylilik va holisonalik tamoiliga amal qilinadi.

7. Manbaalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatlari bo'lmog'i lozim, ya'ni reja, hisob va statistik malumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi kerak.

8. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbaalar aniq o'lchamda aks ettirilishi lozim.

9. Barcha manbaalarning umumiyligi va uzviy bog'liqligi saqlaniladi hamda ulardagagi axbarotlar bir-birini to'ldirib turilishini taqozo etadi.

10. Manbaalarga kiritilgan ko'sratkichlarni aniqlanish tamoilari va aks ettiriladigan davrlar mosligi zarurdir va hakozolar.

Yuqoridaq talablarga javob beruvchi barcha axborotlar tahlilning aniq bajarilishi, sermazmun bo'lishligiga imkon yaratadi.

Xo'jalik faoliyatini avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida tashkil etish deyilganda, elektron hisoblash mashinalari (komp yuterlar) yordamida va iqtisodiy matematik usullarini qo'llagan holda ishlab chiqarishning muhim sohalarini aniq va to'g'ri boshqarish vazifalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etish tushuniladi.

Bunday amalg'a oshirish uch xil yo'nalishda bo'lishi mumkin, ya'ni:

- ◆ Markazlashgan;
- ◆ Markazlashmagan;
- ◆ Aralash.

Xo'jalik faoliyatini tahlil etishning avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida amalg'a oshirish quyidagi printsiplarga amal qiladi:

- ◆ Aniq maqsadga ega ekanligi sistemalashganligi;
- ◆ Kompleksliliqi;
- ◆ Ixchamlashganliligi;
- ◆ Uzluksizlik va muntazamlilik;
- ◆ Taqqoslanish imkoniyatini kengligi;
- ◆ Yechim loyihasi aniq va ixchamiligi.

Avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida tahlil etish quyidagi sharoitda bajariladi:

- ◆ Qayd etish;
- ◆ Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish va uzatish;
- ◆ Umumiy ma'lumotlar bazasini tashkil etish;
- ◆ Ko'rsatkichlar algoritmi bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishslash;
- ◆ Iste'molchilar uchun kerakli ma'lumotlarni tayorlash.

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlarning aniqligini va tez muddatda tayyorlashning eng aniq yo'llaridan biri – komp yuter dasturlari yordamida qayta ishslash hisoblanadi.

Kompleks avtomatlashgan sharoitda tahlil uchun kerakli ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlari ma'lum darajada imkoniyatlarni ochib beradi:

6. Boshlang'ich hujjatlar - hisob, statistika normativ ma'lumotlar komp yuterning xotirasiga qo'yilib faqat bir xil manba, ya'ni mashina xotirasiga olinadi;

7. Tahlil uchun kerakli turli murakkab hisoblashlar ma'lum sekundlarda

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 89 page.

bajariladi;

8. Ta'sir etuvchi omillarni mashinalar aniq ko'rsatib beradi;
9. Tahsil uchun kerakli ma'lumotlar va tahlil natijalari o'natalgan shaklda mashinagramma, tabelogrammalarda ifodalanadi;
10. Turli xil iqtisodiy ma'lumotlar mashinalar uchun bir xil shifr va kodlarda kiritiladi.

Rivojlanigan mamlakatlar tajribasiga ko'ra ishni avtomatlashtirilgan tarzda olib borilishi ancha iqtisodiy samarodorlikka olib kelar ekan.

4. Moliyaviy taxlilni tashkil etish shakllari

Moliyaviy tahlil orqali tijoratda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Uning yordamida o'sish sur'atlari o'rganiladi, faoliyat natijalari o'zgarishiga omillar ta'siri har tomonlama chuqur va tizimli hisob – kitob ishlari amalga oshiriladi, biznes – reja va boshqaruv qarorlariga aniq-liklar kiritiladi, rejaning bajarilishi nazorat ostiga olinib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi, korxona faoliyatining natijalari baholanadi, iqtisodiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi. Bu murakkab masalalar echimini topishda malakali iqtisodchi, moliyachi, buxgalter, audi-tor va iqtisodiy sohadagi boshqa mutaxassislar iqtisodiy tadqi-qotning hozirgi samarali usuli kompleks moliyaviy tahlil etish yo'llarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Tahlil etishning texnika va texnologiyalarini puxta o'zlashtirish orqali tadqiqotchi bozor holatining o'zgarishiga tez mos-lashadi hamda to'g'ri qaror va xulosalar qila oladi.

Bugungi kunda demokratik islohotlar va jamiyatni liberallash-tirishni izchil va bosqichma-bosqich davom ettirish hamda chuqurlashtirish jarayoni o'zining aniq va ravshan marralariga ega bo'lib, hayotimizda tub o'zgarishlar o'z mantiqiy yakuniga etkazilayot-gan bir paytda jahon miqyosida moliyaviy inqiroz ro'y bermoqda. Moliyaviy inqirozlarning salbiy oqibatlarini engillashtirishda Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Biz tanlagan ta-raqqiyot modeli, mamlakatni isloh etish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan puxta o'ylangan siyosat bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Va bu siyosat yurtimizni turli salbiy jarayonlar va inqirozlar ta'siridan saqlaydigan mustahkam va ishonchli himoya vositasи bo'lib xizmat qilmoqda".¹ Jahon moliya-viy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri undan ko'rildigan zararning darajasi va ko'لامи, birinchiligi navbatda, shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'lik barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liq. Mazkur o'zgarish va jarayonlar moliyaviy tahlil fanini ham erkin iqtisodiyotga moslashishni, mazmun va mohiyati jihatidan tubdan yangilashni talab etmoqda.²

Moliyaviy tahlilning mazmunini firma, kompaniya va korxonalar faoliyatini keng qamrovli tarzda o'rganish asosida ularning har bir yo'nalishini o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda ko'rib chiqib, mavjud resurslardan samarali foydalanishning chora tadbirlarini belgilab berish maqsadida korxona faoliyatni natijaviyligini oshirishga qaratilgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir ishlab chiqarish resurs-laridan foydalanish natijaviyligini oshirish maqsadida kompleks tarzda moliyaviy tahlilni tashkil etish lozim. Kompleks tahlilni amalga oshirish metodologiyasi adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan.

Metodologiya fan predmetini o'rgatish usuli, unda qo'llani-ladigan yondashuvlar, usullar majmuasi demakdir.

Kompleks tahlil xo'jalik faoliyatini bo'laklarga bo'lib bir-biriga bog'liq holda bataysil o'rganishdir. Ushbu tahlil turi ti-zimli yondashish bilan amalga oshiriladi.

Shu ma'noda kompleks moliyaviy tahlilning mazmunini kor-xona faoliyatini keng qamrovli tarzda o'rganish asosida, ularning har bir bo'lagini o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqib mavjud resurs-lardan samarali foydalanishning choratadbirlarini belgilab berish maqsadidagi, korxona faoliyatni natijaviyligini yaxshilash-ga qaratilgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlari (ta'mi-not, ishlab chiqarish, realizatsiya) jamlanganda uning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini tashkil etadi.

Ular aniq son jihatga ega bo'lishi kerak.

Bu jarayonlarni miqdor va sifat jihatlarini tasniflash analitik ko'rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali amalga oshiriladi.

Analitik ko'rsatkichlarda korxonaning ishlab chiqarish, moliya, xo'jalik jarayonlarini iqtisodiy samaradorlik darajasi, hajmi va uning ayrim yo'nalishlari aks etadi.

Analitik ko'rsatkichlar biznes reja, buxgalteriya hisobi va hisobotlari, boshqa axborot manbalaridan olinadi. Ko'rsatkichlar-ning mazmuni miqdorini ifodalovchi ko'rsatkichlardan farqlanadi.

Ko'rsatkichlar mazmuni o'rganilayotgan jarayonlarning iqtisodiy mohiyatini, **ko'rsatkichlar miqdori** esa ularning o'chovini ifodalarydi. Masalan, mahsulot iste'molchilarga ortib jo'natal-gandan kelgan tushum **ko'rsatkichlar mazmuni**, miqdor ko'rsatkichlari esa tushum summasi uning dinamikasi, rejaning bajarili-shidir.

Analitik ko'rsatkichlar quyidagicha turkumlanadi:

- 1) mazmuni bo'yicha;
- 2) ifodalanish usuli bo'yicha;
- 3) foydalanish doirasi bo'yicha;
- 4) ishlatilish xususiyati bo'yicha.

1. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha ikki guruhga bo'linadi.

1.1. **Miqdor ko'rsatkichlari.** Xo'jalik jarayonlari va ular-ning o'zgarishlarini son jihatini ifodalarydi. Masalan, xodim-lar soni, mashina va uskunalar soni va h.k.

² Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Southern California page.

1.2. Sifat ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar xo'jalik ja-rayonlaridagi o'zgarishlarning muhim xususiyatlari va ularning iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi. Masalan, rentabellik, mahsulot tannarxi, mehnat unumdarligi ko'rsatkichlari sifat ko'r-satkichlari tarkibiga kiradi.

Miqdor va sifat ko'rsatkichlari bir-biridan ajralgan holda o'rganilmaydi. Har ikki ko'rsatkich bir-biri bilan uzviy bog'langan holda ishning natijasiga ta'sir etadi. Masalan, mahsulot hajmi ishchilar soni (miqdor ko'rsatkich) va bir ishchining o'rtacha mahsulot hajmi (sifat ko'rsatkich)larini ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

2. Ko'rsatkichlar ifodalanish usuli bo'yicha ham ikki guruhga bo'linadi.

2.1. Mutlaq ko'rsatkichlar. Bu ko'rsatkichlar ishtirokida ish-lab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik faoliyatlarining hajmi, strukturasi va sifat xususiyatlari ifodalanadi. Qaysi o'Ichov bir-ligida ifodalanishiga qarab natural, mehnat, qiymat shakllariga bo'linadi. Mahsulot hajmi natura shakli (tonna, kg, metr, dona) da mehnat (norma-soat), pul ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

2.2. Nisbiy ko'rsatkichlar. Bu ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liqqa ega ikki mutlaq ko'rsatkichning nisbati orqali aniqlangan nisbiy ko'rsatkich o'rganilayotgan hodisalar struktu-rasi, ularning samaradorligi va vaqt jihatdan intensivligini aniqlash uchun zarur.

Nisbiy ko'rsatkichlar foiz, koeffitsient, indeks shakllarida qo'llaniladi.

3. Foydalish doirasini bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha taq-simga ega.

3.1. Barcha tarmoqlarda foydalilanidigan umumiy ko'rsatkichlar. Masalan, ish haqi fondi, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot, sof foyda, xususiy kapital rentabellik darajasi va h.k.

3.2. Ayrim tarmoqlar sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va h.k. larda qo'llaniladigan yakka, xususiy ko'rsatkichlar. Mahsulot sifa-ti, uning chidamliligi – sanoat, donning namiligi, sutning yog'-lilik darajasi qishloq xo'jaligiga taalluqlidir.

4. Ishlatilish bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha ifodalanadi.

4.1. Xo'jalik jarayonlarini tasniflovchi ko'rsatkichlar. Ular k orxona xo'jalik jarayonlarini tuzilishi, biznes rejalarining bajarilishi, jarayonlar dinamikasi orqali erishilgan natijalar-ni ifodalaydi.

4.2. Erishilgan natijalarga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik jarayonlaridagi o'zgarish sabablari analitik ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan, sotishdan kelgan tushum indeksi (I_v), sotish hajmi (I_g) hamda sotiladigan mahsulot baho (I_p) larining ko'paytmasidan hosil bo'ladi. Bunda,

I_v – natija;

I_g – omil;

I_p – omil.

YUqoridagi formulani quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \times \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

Barcha analitik ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq-likka ega, faqat ularidan tizimli tartibda foydalilanilgan taqdir-dagina kompleks moliyaviy tahlil oldiga qo'yilgan maqsadga eri-shish mumkin.

Kompleks moliyaviy tahlilga oid adabiyotlarda iqtisodiy ko'rsatkichlarni turkumlash, ularning shakllanishi va bir-biri bilan bog'liqligini ifodalovchi turlicha chizmalar mavjud.

Bu chizmalardan eng asosiyi A.D. SHeremet, R.S. Sayfulin, E.N. Negashev tomonidan yozilib nashr etilgan "Kompleksnyj ekonomicheskiy analiz deyatelnosti predpriyatiya" ((voprosy metodologii)). -M.: "Ekonomika", 1974, 26 bet) diqqatga sazovor.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar 2 guruh ko'rsatkichlardan iborat. Guruhlar o'zagini ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ya'ni texnika va texnologiyasi, texnologik jarayonlar, meh-natning texnik va energiya bilan quronlanishi, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi, ishlab chiqarishni tashkil etish dara-jalar o'z ichiga oladi.

5. Moliyaviy tahlilni o'tkazish bosqichlari

Analitik ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uni tash-kil etish darajasiga bog'liq.

Korxonadagidagi ichki analitik ishlar ma'lum maqsad, vazifa bo'yicha tizimli o'tkazilishi kerak. Bunday tahlil ishlab chiqarish va moliyaviy, joriy, tezkor va istiqbolli, kompleks va ayrim mav-zular bo'yicha tahlil hamda raqobatdagи korxonalarining tashqi tah-lil ma'lumotlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy tahlil xo'jalik subyektlarida kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

– yirik firma – ixtisoslashgan bo'limnalarda direktorning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinnbosari rahbarligidagi buxgal-terlar, iqtisodchi, menejmentlar guruhi;

– o'rta firmalarda – guruh yoki moliyaviy masalalar bo'yicha mutaxassis;

– kichik firmalarda – bosh buxgalter moliyaviy tahlilni amalga oshiradi.

Moliyaviy tahlilni o'tkazish bosqichlari quyidagi-lardan iborat:

1. Maqsadli aniq ko'rsatma va tahlil obyektini belgilash;
2. Dastlab obyekt bilan umumiy tanishuv va tahlil rejasini qayta ishlab chiqish: axborot manbalarini aniqlash, tahlil etish uslubini tanlash;

3. Tahlil manbalarini yig'ish va ularning ishonchligini, sifatini tekshirish;

4. Tahlil manbalarini o'rganish, aniq tahlil uslubi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

5. Tahlil natijalarini umumlashtirish, xulosalashtirish;

6. Ichki rezervlarni aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish.

Kompleks moliyaviy tahlilning I, II bosqichlarida – tahlil-ning maqsadi, vazifasi, tahlil obyekti aniqlanishi, tahlil maz-muni, tahlilni o'tkazuvchi guruhlar (ijrochilar) tarkibi, tahlil muddati, tahlil etish uslublari aks etishi lozim.

Yig‘ilgan axborot manbalari ishonchli, sifatlari bo‘lishi kerak. Ma’lumotlarga ishlov berishdan oldin axborot manbalari yuzaki va mazmun jihatdan tekshiruvlardan o‘tkaziladi¹.

Chetdan investorlarni jalb etish maqsadida hisobot ma’lu-motlarini bo‘rttirib ko‘rsatish jozibasiga hamon chek qo‘yilmagan. Investorni jalb qilish uchun, tabiiyki, o‘zining faqat “Yaxshi tomonlarining ko‘rsatish” istagi, aniqroq qilib aytganda: hali olinmagan daromadlarni aks ettirish, ularni qaytadan baholash yo‘li bilan aktivlar qiymatini ko‘pirtirib ko‘rsatish, binobarin, o‘z kapitalining miqdorlarini ko‘paytirish va shu kabilarga xohish paydo bo‘ladi. Boshqacha aytganda, qasddan (yoki qasddan bo‘l-magan holda) foydalanuvchini chalg‘itish, u o‘z manfaatlariga javob bera oluvchi iqtisodiy qarorni undan kelib chiqqan holda qabul qila olmaydigan axborotni taqdim etish xavfi yuzaga keladi. Ma’-lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mulk huquqi qattiq qo‘riqlanadi va mulkdorni himoya qilish uchun xalqaro amaliyot hisobga olishning korxonalariga ularning haqiqiy ahvo-lini bo‘rttirib ko‘rsatishlarini taqiqlaydi hamda korxonalarining buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarga ularni to‘liq talqin qilishlarida yordam beradigan qoidalarni ishlab chiqqan. SHunga muvofiq buxgalteriyaga oid axborot muayyan talablarga javob berishi (foydalanuvchi uchun tushunarli, ishonchli, ahamiyatlari va turli davrlar uchun taqqoslanadigan bo‘lishi) va ma’lum qoidalarni asosida tuzilishi kerak.

Ushbu qoidalarni turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, bi-roq ularning eng ko‘p tarqalgan nomi – buxgalteriya hisobining umume’tirof etilgan tamoyillari (Generalli Accepted Accounting Principles - GAAP)dir. Bizning respublikamizda ushbu qoidalarni – buxgalteriya hisobi tamoyillari – Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida (BXMS) aks ettirilgan.

Tahlil natijalarini umumlashtirish, ya’ni xulosalashtirish bosqichida o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarga yakun yasaladi. Bu bosqichda qo’shimcha quyidagi ishlar ham amalga oshirilishi lozim:

- xo‘jalik faoliyati natijalarini o‘zgarish sabablarini aniqlash;
- ichki imkoniyatlarni aniqlash va jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash.

6. Moliyaviy tahlilining axborot manbalari

Chuqur va aniq, obyektiv tahlili xulosalarga bir qancha tur-dagi axborot manbalariiga ishlov berish orqali erishiladi. XFKIT uchun ichki axborot manbalari muhim ahamiyatga ega. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ta’sis hujjatlari;
- asosiy vositalar va oborot mablag‘lar tarkibi, ularning qiymati, xo‘jalik operatsiyalari hamda korxonaning daromad va xarajatlarini o‘zida ifoda etuvchi dastlabki hujjatlar;
- texnik loyihalarga oid hujjatlar;

– investorlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, qarzdor-lar, emitentlar o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlarni ifodalovchi yuridik hujjatlar;

– buxgalteriya hisobining analitik ma’lumotlari;

– tezkor va statistik hisob ma’lumotlari;

– buxgalteriya hisoboti;

– nazorat organlarining dalolatnomalari, auditor va soliq inspeksiyalari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv xulosalari, tijo-rat banklarining dalolatnomasi;

– me’yoriy hujjatlar;

– biznes-reja va h.k.

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun quyidagi tashqi manbalardan ham foydalaniladi:

– davlatning iqtisodiy sohadagi siyosatini ifodalovchi siyosiy xarakterdagi manbalar, masalan, tijorat faoliyati bilan shug‘ulla-nuvchilar uchun soliq yukini pasaytirish orqali rag‘batlantirish yoki ayrim turdag'i faoliyatlarni cheklashlarni keltirish mumkin;

– ayrim turdag'i tovarlar, xizmatlarga bo‘lgan talab va eh-tiyojlar, kredit stavkalari foizi, chet el valyuta kursini o‘zgari-shi, ayrim kompaniya va tijorat banklari reytingi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

– mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, investorlar, kredi-torlarning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

– rahbar lavozimidagi yuridik shaxslarning ishbilarmonlik va shaxsiy sifat ko‘rsatkichlarini ifodalovchi ma’lumotlar;

– gazeta, jurnal, birja byulletenlari, televidenie va radio, internet ma’lumotlari va h.k.

Tahlil manbalari guruhlarga ajratiladi, hisobotlarda aks etgan ma’lumotlar har tomonlama chuqur tekshiruvdan o‘tkazilib, so‘ng ma’lumotlarga analitik ishlovlar beriladi.

Nazorat savollar:

1. Analitik ko‘rsatkichlar deb nimaga aytildi? Uning tur-kumlanishining asosiy belgilari nimalardan iborat?

2. Mutlaq va nisbiy, miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, ularni tahlilda qo‘llash tartiblari nimalardan iborat?

3. Kompleks moliyaviy tahlilni o‘tkazish bosqichlarini aytинг.

¹Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 99 page.

11-bob. OPERATSION FAOLIYAT T AHLILI

Reja:

1. Firma va kompaniyalarning daromadlari tahlili.
2. Firma va kompaniyalarning xarajatlari tahlili.
3. Firma va kompaniyalarda foyda tahlili.
4. Mahsulot (ish xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili
5. Strukturaviy o'zgarishlarni mahsulot hajmiga ta'sirining tahlili
6. Mahsulotlar nomenklaturasi va assortimentini boshqarish

Tayanch so'zlar:

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot strukturasi, nomenklatura, assortiment, mahsulot sotish tahlili, mahsulot sotish hajmi, sifat ko'rsatkichi, mahsulotlar butligi.

1. Firma va kompaniyalarning daromadlari tahlili.

Korxonaning daromad va xarajatlarini tahlil etishdan asosiy maqsad, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, uning daromad, xarajat, foyda va zararlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishdan iborat.

Tahlil etuvchini asosan korxonaning joriy yildagi moliyaviy holati, yaqin yillarga mo'ljallangan rejasi hamda uzoq muddatlarga mo'ljallangan korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi parametrlari ko'proq qiziqtiradi.

Daromad va xarajatlar tahlili uchun ma'lumotlar 2-shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da aks etadi. O'tgan yil va hisobot yillariga tegishli barcha daromad va xarajatlar bu moliyaviy hisobot shaklida ifodalangan.

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydanirov aktivlarning oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarning qatnashchilarining kapitaldagi omonatlaridan farq etuchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir.

Daromadlar turli aktivlarning ko'payishi ko'rinishida yuzaga keladi; bular nafaqat pul mablag'lari, balki, realizastiya qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning o'rniga olingan tovarlar va xizmatlar ham bo'lishi mumkin; agar tovarlar va xizmatlar haqi xaridor tomonidan to'liq to'lanmagan bo'lsa, bunday hollarda, debitorlik qarzlar ham bo'lishi mumkin. Daromadlar, shuningdek, majburiyatlarni kamayitish ko'rinishida olinishi mumkin, bu esa korxonaning kapitaliga aktivlarning ko'payishi kabi ta'sir ko'rsatadi. Korxonaning daromadlari va harajatlari hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va ulardan foydalanan hisobvaraqlar rejasining so'nggi, to'qqizinch bo'limida, 9000-9900-son hisobvaraqlarda amalga oshiriladi.

Xorijiy manbalarda esa "daromad" tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: Daromad - bu sof foydadan paydo bo'lgan xarajatlar va yo'qotishlarning ayrilib tashlanishi hisoblanadi. Daromad - bu qilinayotgan ishning o'ichov birligidir va u buxgalteriya hisoblari orqali aniqlanadi. Daromad Bayonoti daromad terminlaridan foydalangan holda berilgan muddat uchun bayon etiladi. Biz kompaniyaning daromadini va uning komponentlarini, kompaniyaning ishlarini va qilayotgan

tavakkallarini tahlil qilish uchun va vaqtini hisoblash hamda kutilmagan naqd pul muammolarini oldini olish uchun hisoblaymiz. Daromad ramkasi bizning tahlillarimiz hisoblanganda uning komponentlari esa kompaniyaning olib borayotgan ishlarining portreti hisoblanadi. Bu bo'lim tahlil va uning komponentlarini tushuntiradi. Biz qanday qilib toliq tahliliy qo'shishlarni bayonot komponentlariga va unga aloqador kengaytirilgan tahlillarga kiritishni tushuntiramiz. Biz maqsadni daromad ko'rsatkichi va asosiy xarajatlar va narxlarga qaratamiz.

Daromad kompaniya tomonidan olib borilayotgan ishlarning moliyaviy ta'sirini xulosalaydi va bu mulohazali deb bemalol ayta olamiz. Daromad bayonotining asosiy maqsadi - daromad muhim komponentlar bilab birgalikda qanday aniqlanishini tushuntirishdir. Biz ushbu bo'limda ikkala iqtisodiy va buxgalteriya daromadini korib chiqamiz va ularni naqd pul oqimidan farqini o'rganamiz.

Ikki xil daromad bor: iqtisodiy va doimiy daromad. **Iqtisodiy daromad** - berilgan muddat ichida sarmoyadorlarning sarmoyasidagi o'zgarishga qarab sof daromadning o'zgarishiga aytildi. Nazariy jihatdan bu muddatiy naqd pulning oqimi plus kelajakdag'i naqd pul oqimining hozirgi qiymatidagi o'zgarishdir. **Doimiy daromad** - biznesning mavjud bo'lgan davridagi barcha ishlashi kerak bolgan o'rtacha daromad qiymati nazarda tutiladi. Iqtisodiy daromad sarmoyadorlarning sarmoyasidagi o'zgarishning qiymatini o'chagan vaqtida, doimiy daromad esa qiymatga proportsiya qilinishdir.

Buxgalteriya daromadi o'sib borayotgan hisobga asoslanadi va u kiritiladigan daromadlarni kiritilgan daromadlarga taqqoslash orqali aniqlanadi. Buxgalteriya daromadi ikkala ham iqtisodiy, ham doimiy daromadni o'chash uchun ishlamaydi. Buxgalteriya daromadi asossiz ravishda kiritilgan buxgalteriya buzilishlari qoidalari, boshqaruva tushumi va taxminiy xatoliklar sababli, xatoliklar o'choviga ega. Shu sababli buxgalteriya daromadi shu uch komponentni o'z ichiga oladi deb tasavvur etish mumkin: (1) **doimiy komponent**, har bir dollar kompaniyaning 1/r qiymatlari dollariga teng (r bu yerda mablag' ning qiymati); (2) **tranzit komponenti**, har bir dollar faqatgina kompaniyaning dollar qiymatiga teng; (3) **qiymati ahamiyatsiz komponent**, bu qiymat uchun ahamiyatsiz hisoblanadi.

Daromadlar - bular kompaniyaning biznesidan keladigan va o'sadigan ishlangan kirimlar hisoblanadi. Bularga savdo-sotiqdan kelgan naqd pul kirimlari va kredit savdo-sotiqlaridan keladigan naqd pul kirimlari kiradi. **O'sishlar** esa, kompaniyaning biznesiga aloqador bo'lmagan hisoblanib, pul o'tkazmalari ishlaridan keladigan kirim hisoblanadi. Daromad va o'sish orasidagi farq - bu kompaniyaning biznesi hisoblanib, undan keladigan foydadir. Daromadlar kompaniya biznesi singari davomiydir, lekin o'sishla davomiylar hisoblanmaydi. Bu farq tahlil uchun juda muhim hisoblanadi va biz davomiy daromad komponentini topayotganimda juda katta o'rinn tutadi.

Daromadni ko'rsatish metodi bayon etilgan daromadga katta tasir o'tkazadi. Hozirgi vaqtida daromadni aniqlash kundan kunga qiyinlashmoqda va ko'pincha u Internet savdo-sotiqi bilan bog'lanilyapti. Bu buxgalteriya ko'rsatmalaridan

yiroqroq joyga aylanmoqda. Bu boshqaruvga pul ishlab olish imkonini beradi. Shunga binoan, daromad ko'rsatkichlarini aniqlash moliyaviy bayonot tahlillari uchun juda ham muhim hisoblanadi.

2. Firma va kompaniyalarning xarajatlari tahlili

Xarajatlar jami ishlab chiqarish (tovarlar, xizmatlar), uchun sarflangan pul mablag'laridir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Xorijiy manbalarda esa “xarajat” tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: **Xarajatlar** kompaniya olib borayotgan biznesining tashqi ta'sirlari tufayli kelib chiqadi. **Yo'qotishlar** esa kompaniya mol-mulkining qisqartirilishi yoki qisqarishi hisoblanadi. Bunga namuna sifatida investitsiya aktsiyalarini sotuvidan kelganlar yo'qotishlarni aytish mumkin. Xarajatlar va yo'qotishlarni hisoblash buxgalteriyasi bayonetning vaqtqi qiymatini tahlilini o'z ichiga oladi. Bular qayerdan kelganini bilish uchun vaqt juda muhim hisoblanadi, ko'pincha ularni daromadlar bilan taqqoslash o'rinnidir.

O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonuni, “Mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida hisoblanayotgan mahsulot tannarxi bir qancha afzalliklarga ega, jumladan, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lindi; korxonani raqobatbardoshligini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi¹.

Xarajatlarni tahlil etishda ularni quyidagi guruhlarga ajratib o'rganish lozim.

1. Ishlab chiqarish xarajatlari.
2. Davr xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.
4. Favqulodda xarajat (zarar)lar.

Har bir guruhga kiritilgan xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari:
 - a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
 - b) bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatları;
 - v) ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar amortizasiyası;
 - g) ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.
2. Davr xarajatlari:
 - a) sotish xarajatlari;
 - b) boshqaruv xarajatlari;
 - v) boshqa muomala xarajatlari va zararlar.
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:
 - a) foizlar bo'yicha sarflar;

b) chet el valyuta kursi o'zgarishidan zarar;
v) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zarar;

- g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarf-xarajatlar

4. Favqulodda zararlar turkumlanmaydi.

Xarajatlar ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga qarab ikki guruhga bo'linadi:
1. Ishlab chiqarish xarajatlari.

2. Noishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq.

Bevosita material xarajatlari mehnat haqi bilan birgalikda dastlabki xarajatlarni, mehnat haqi va ishlab chiqarish xarakteridagi ma'muriy-boshqaruv xarajatlari birgalikda konversiya xarajatlarni tashkil etadi. Material xarajatlari konversiya xarajatlari bilan birgalikda to'liq ishlab chiqarish tannarxini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan barcha xarajatlar *noishlab chiqarish xarajatlari* deb ataladi. Ular tarkibiga sotish bilan bog'liq xarajatlar, ilmiy tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma'muriy xarajatlar, boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to'lovlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan xarajatlar kiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qilinadigan xarajatlar yuqorida keltirilgan turkumlashdan tashqari quyidagi xususiyatlari bo'yicha ham tasniflanadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy o'rniga qarab;

- a) asosiy;

- b) doimiy.

2. Tarkibiga qarab:

- a) kompleks;

- b) bir elementli.

3. Tannarxga o'tkazish usuliga qarab:

- a) to'g'ri;

- b) egori.

4. Ishlab chiqarish hajmiga qarab:

- a) o'zgaruvchan;

- b) o'zgarmas.

5. Ishlab chiqarish jarayonida ishtiroy etishiga qarab:

- a) ishlab chiqarish;

- b) tijorat.

6. Samaradorlikka qarab:

- a) samarali;

- b) samarasiz.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi jihatidan xarajatlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) o'zgaruvchan xarajatlar;

- b) o'zgarmas xarajatlar;

- v) yarim o'zgaruvchan xarajatlar

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Southern California page.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan o'sib boruvchi xarajatlar o'zgaruvchan xarajat hisoblanadi. Ular tarkibiga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi, yoqilg'i, energiya materiallar xarajati kiradi.

O'zgarmas xarajatlar mahsulot miqdoriga bog'liq bo'limgan holda bir xil darajada saqlanuvchi xarajatlardir. Masalan, ijara to'lovlari, amortizastiya ajratmalar, reklama xarajatlari o'zgarmas xarajatlar sirasiga kiradi.

Yarim o'zgaruvchan xarajatlar – o'zgaruvchanlik va ayni paytda davriylik yoki doimiylik xarakteriga ega xarajatlardir.

3. Firma va kompaniyalarda foyda tahlili

Har bir firma va korxonalar o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Shu sababli ham sof foya miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxona samaradorligini oshirishga olib keladi. Korxona ixtiyorida qoladigan va uning erkin tasarrufidagi foyda sof foyda deyiladi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasidan foyda (daromad)dan soliq va boshqa soliqlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sof foyda tahlilida uning o'tgan yillarga, shuningdek, korxona biznes rejasi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi. Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar e'tiboridagi masala hisoblanadi.

Foyda (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti maqsadi sifatida qaratadi. Juhon amaliyotida foyda deyilganda ko'pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaratadi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o'zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o'zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o'lhashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlarni, ya'ni foydani aniqlash va o'lhash - korxona o'z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalilaniladigan kapital konstepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi.

Foyda iqtisodiy kategoriya, uning umumiy mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

– firma, kompaniyalarning qisqa va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy manbai;

- kreditga layoqatliliginu ifodalovchi ko'rsatkich;
- mulk egasining asosiy maqsadi;
- raqobatbardoshlik mezoni;
- ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish manbai.

Moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) ga oid ma'lumotlar 2-sonli shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" da aks etgan.

Bu hisobot shaklining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum.
2. Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan ko'rilgan yalpi foyda.
3. Asosiy faoliyatning foydasi.
4. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromad (zarar).

5. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari).

6. Favqulodda foyda (zarar).

7. Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar).

8. Sof foyda

Daromad va xarajatlarni bu tarzda tarkiblanishi orqali:

– ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxona ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish;

– moliyaviy, boshqaru yuzasidan operastion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash;

– korxona daromadlarini yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo'yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda favqulodda holatlardan) imkonli tug'iladi.

Foyda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar faoliyatini baholash ko'rsatkichi va rag'batlantirish manbaidir.

Shu tufayli faoliyatni obekтив baholash uchun foyda tarkibi, tuzilishi, uni tashkil etuvchi elementlarni dinamik tarzda chuqur o'rganmoq lozim.

Foyda nafaqat mahsulot birligi uchun qilingan xarajatlarni qisqartirish, balki mahsulot sotish hajmini belgilangan assortimentda ortishi, talab va ehtiyojni hisobga olgan holda yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga erishishga ham bog'liq. Shu bois korxona faoliyatining barcha tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'langan holda foyda kompleks tarzda tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Foyda miqdorini tahlil etishda gorizontall va vertikal tahlil metodlari muhim o'rinn tutadi.

Sof foyda korxonalning erkin tasarruf shartidagi va foydalanishidagi foyda summasidir. Lekin, sof foyda summasi ham turli to'lovlari va ajratmalar bazasi sifatida olinishi mumkin ekan. Masalan, korxona sof foydasidan olinadigan ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishga ajratmalar, futbol federasiyasiga ajratmalar va boshqa to'lovlari va ajratmalarni shular qatoriga kiritish mumkin.

Firma va kompaniyalarning daromadi, xarajatlari va moliyaviy natijalari mayjud resurslar salohiyatidan samarali foydalanishga ko'p jihatdan bog'liq. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni realizastiya qilishda ishtirok etuvchi resurslar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish xodimlari (R);
- asosiy ishlab chiqarish fondlari (F);
- moddiy resurslar (M);
- moliyaviy natijalar (foyda) (P).

Har bir firma va kompaniyalarning moliyaviy tahlili orqali ishlab chiqarish, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun xarajatlarning maqsadga muvofiq sarflanishi va ular samaradorligi baholanadi.

Buxgalteriya Daromadining Muqobil O'chovlari. Daromad bayonoti asosan 3 hil muqobil variantda taqdim etiladi: (1) Sof Foyda, (2) Kengaytirilgan Daromad va (3) Davomiyl ishlardan olinadigan daromadlar. Sof Foyda asosan daromadni taqqoslashning oxirida turadigan termin hisoblanadi. Lekin hayotda

albatta unday emas. Sof foyda oxirgi moliyaviy natijadir. Sof foyda mulkdagi va qarzlardagi o'zgarishlar tufayli amalga olshirilmagan foyda va yo'qotishlarni balans qog'ozidan o'chirib tashlaydi. *Kengaytirilgan daromad* bayonoti ham shu ishlarni amalga oshiradi. **Kengaytirilgan daromad** deyarli hamma jihozlardagi narx o'zgarishlari tomonidan ta'sirlanadi. Shu sababli biz kengaytirilgan daromad bayonotini oxirgi linyadagi o'lchov deb ayta olamiz va bu buxgalterlarning iqtisodiy daromad uchun vakolati hisoblanadi. Baxtga qarshi USA GAAP kompaniyalarga kengaytirilgan daromad bayonotini daromad bayonotida emas balki faqat o'zgarishlar bayonotida kiritilishiga ruhsat bergan. Faqat bir nechta Amerika kompaniyalarigina kengaytirilgan daromad bayonotini o'zlarining daromad bayonotlariga kirita oladilar.

Buxgalteriya shunga qaramay o'rtadagi daromad o'lchovlarini ham hisoblaydi va ularni biz *davom etib turgan ishlardagi daromad* deb ataymiz. **Davom etib turgan ishlardagi daromad** o'lchovi ba'zi bir davomiy bo'limgan ishlarni davomatdan chiqarib tashlaydi, masalan turfa predmetlar va foydadan kelgan davomiy bo'limgan ishlarning tasiri. Shu sababli davom etib turgan ishlardagi daromadni, favqulodda bajarilgan ishlardan oldingi hisob-kitob deb atashadi. Davomiy bo'limgan komponentlari yo'q kompaniyalar davom etib turgan ishlardagi davomadni sof foydaga teng bo'lganligi sababli o'zlarining bayonotlariga yozmaydilar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, soliq xarajatlari har doim tez ravishda foydadan yuqoriroqda keladi va shu sababli daromaddan yuqoriroqda kelgan hamma predmetlar soliqdan oldingi asoslar tarzida va daromaddan pastroqda kelganchi esa soliqdan so'nggi asoslar deb bayon etiladi.

Ko'p kompaniyalar davomatlari boshqariladigan daromad terminini ishlatishadi. **Boshqariladigan (Joriy) Daromad** kompaniyaning normal boshqarilib turgan ishlardan kelgan daromadi hisoblanadi. Boshqariladigan daromad bayonotidan hamma kompaniyaning hozirgi ishlari aloqasi bolmagan va davomiy bo'limgan ishlar chiqarilib tashlanadi. Ular: (1) foyda yoki zararga aloqasi bo'limgan hamma kompaniya ishlari; (2) jihozlardan va mulkdan o'chirilgan kuchsizlangan yo'qotishlar; (3) noodatiy va har doim sodir etilmaydigan ishlar, masalan qayta tiklanish xarajatlari; (4) boshqa daromad va xarajatlari, daromaddan kelgan foyda yoki xarajatlardan kelgan foyda va dividend daromadlari. Albatta, davomiy bo'limgan va favqulodda ishlar davomiy ishlardan chiqarilib tashlanadi, shu bilan birgalikda amalga olshirilmagan ishlar va yoqotishlar kengaytirilgan daromadga qo'shilsa ham davomiy daromaddan chiqarib tashlanadi. **Boshqarilmaydigan daromad** yig'ilgan tarzda daromadning hamma komponentlarini anglatadi va boshqarilib turgan daromadga kiritilmaydi.

Favqulodda ishlar ularning noodatiy tabiatini va ularning qaysi vaqtida paydo bolishlarini aniq bo'limganligi bilan farqlanadi. Ko'p favqulodda vaziyatlar, hisobdan chiqarilgan qarzlardan kelgan foydalar va zararlardir. Favqulodda vaziyatlar daromad bayonotida ajratilgan holda tasniflanadi. Buning sababi esa ularning noodatity ekanliklaridir. Favqulodda ishlarning tez-tez takrorlanishi va ko'lамини bayon etadi. O'zi ular kompaniya proportsiyasida 6% dan kamroq bo'ladi.

Biz ishni favqulodda deb hisoblashimiz uchun bu yerda ikki hil vaziyat: ish ham favqulodda bajarilishi kerak va u har doim sodir etilmaydigan bo'lishi kerak. Bu terminlani shunday ta'riflaymiz:

- **Noodatiy tabiat.** Agar ishning taalluqlilik darajasi past bo'lsa va ishga taalluqli bo'lmasa, yoki kompaniyaning ishiga tasodifan taalluqli bo'lib qolsa.

- **Kam uchraydigan paydo bo'lishlar.** Agar ish kelajakda sababsiz ravishda paydo bo'lsa.

Kelajakdagagi naqd pul oqimini taxmin qilish uchun daromad soliqlarini ko'rsatish foydalidir. Biz doimiy va vaqtinchalik farqlarni o'zimizning naqd pul oqimini taxmin qilishimizda o'yashimiz kerak. Birinchidan, doimiy farqlarni ko'rib chiqsak. Ko'p qiyamatlash kitoblari, kelajakdagagi daromadlar va naqd pul oqimini taxmin qilishda (hisoblashda) qonuniy soliq ko'rsatkichini (35%) ishlatishni tavsiya etishadi. Nizomdagagi soliq ko'rsatkichi, qo'shimcha soliq foizini taxmin qilishda ham foydali; bu bizga qoshimcha dollardan kelgan qo'shimcha soliq foizini hisoblashda foydalidir. Bu kompaniyaning o'rtacha soliq ko'rsatkichini aniqlashda uncha foydali emas. Chunki kompaniya o'zining doimiy soliq foizlarini pasaytirib turadigan, doimiy farqlariga ega bo'lishi mumkin. Kompaniyaning o'rtacha soliq ko'rsatkichini aniqlashning eng yaxshi yo'li bu samarali soliq ko'rsatkichidir. Chunki daromadlarning taxminini hisoblash, o'rtacha soliq ko'rsatkichidan foydalanishni talab etadi va samarali soliq ko'rsatkichi bunda ancha foydaliroq. Lekin samarali soliq ko'rsatkichidan foydalanishda ancha ehtiyyotkor bo'lishi kerak, chunki ular o'zgaruvchan bo'ladi. Shu sababdan kompaniyaning yil davomidagi samarali soliq ko'rsatkichlari, kelajakdagagi soliq ko'rsatkichlarini taxmin qilishda uncha yaxshi bo'lmasligi mumkin. Mana shu sababdan, tahlilchilar samarali soliq ko'rsatkichini doimiy komponentini aniqlash uchun uning oxirgi bir necha yil ichidagi ko'rsatkichlarini tekshirib chiqishlari kerak. Xuddi samarali soliq komponentini aniqlash foydali bo'lgani kabi doimiy farqlarning tabiatini aniqlash ham foydali hisoblanadi.

Vaqtinchalik faqrlar naqd pullarning taxminiy hisob-kitobi uchun foydali. Katta qiyatdagi kechiktirilgan soliq qarzlarining mavjudligi, kompaniyaning kelajakdagagi soliq qarz to'lovlar, uning soliq ta'minotiga nisbatan balandroq (pastroq) bo'lishini bildiradi. Lekin bu ma'lumotni naqd pulni hisobini taxmin qilishda ishlatish uchun kechiktirigan to'lovlar qayerda aks etishini bilishimiz kerak. Yana shuni yodda tutish kerakki, kelajakda bir-biriga o'xshagan kechiktirilgan to'lovlar kelib chiqishi mumkin va ular hozirgi kechiktirilgan soliq to'lovlarini o'rnini bosib keta oladilar.

Chegirmani baholash boshqaruva daromadlarida ancha ommabop jihoz hisoblanadi. Shu sababdan tahlilchilar chegirmani baholashdagi har qanday o'zgarish va pasayishni tekshirishlari kerak, chunki u daromadlarni boshqarishdagi sa'yi-harakat bo'lishi mumkin.¹

Umuman olganda, tahlilchilar daromad sifatini aniqlash uchun GAAP va soliqlanishi mumkin bo'lgan daromadlarni taqqoslaysilar. Katta soliq qarzlarining

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 307 page.

borligi oldingi GAAP daromadini, soliq solinishi mumkin bo‘lgan daromaddan katta (yoki kichik) bo‘lganini bildiradi. Shu sababli katta kechiktirilgan soliq mulklariga ega kompaniyalar ko‘proq aggressiv buxgalteriya amaliyoti moslashuvi bilan to‘qnashadilar.

Kompaniyaning daromadliligi va boshqariladigan ishlarini o‘rganish va baho berishda har bir aktsiyadan keladigan daromadni qo‘llash ancha keng miqyosda ishlataladi. Har bir aktsiyadan keladigan daromadni hisoblashdagi javob kaliti bu qisqartirish amaliyotining (dilution) ta’siridir. Qisqartirish bu odatiy aktsiyalarga aylantirilgan ishlarining tanlovlari va kafolatlari yoki qo‘srimcha shartnomalarning sug‘urtalanishining qisqartirilishidan har bir aktsiyadan keladigan daromadning qisqartirilishidir. Shu yomon ta’sirlar tufayli har bir aktsiyaga keladigan zararlar ulkan bo‘lishi mumkin va har bir aktsiyadan keladigan foydani hisoblashda kompaniyaning mablag‘ strukturasidagi qisqartirish ta’sirlariga e’tiborni qaratish kerak.

Oddiy mablag‘ strukturasi faqat odatiy aktsiyalarni o‘z ichiga olib, qisqartirilish ehtomoli bor hech qanday aktsiya unga kiritilmaydi. Oddiy mablag‘ strukturali kompaniyalar uchun har bir aktsiyadan keladigan foydani topish formulasi:

Har bir aktsiyadan keladigan asosiy daromadlar = Sof Foya – Afzal ko‘rilgan dividendlar / odatiy ulushlarning qiymatlangan o‘rtacha raqami.

Bu hisoblashning sur’atida to‘plangan katta mulk aktsiyalarining dividendlari, ular ishlangan yoki ishlanmagan bo‘lsa, sof foydadan ayrıldi yoki sof zararga qo‘sildi. Maxrajdagi odatiy ulushlarning qiymatlangan o‘rtacha raqami bu har kungi aktsiyalarning yig‘indisini o‘sha muddatdagi kunlarning soniga bo‘linishidir.

Qisqartirishga qarshi aktsiyalar ular bilan ish olib borilgandan o‘sadigan aktsiyalar hisoblanadi.

Mukammal strukturali kompaniyalardagi har bir aktsiyadan keladigan daromad oddiy strukturali kompaniyalardagi har bir aktsiyadan keladigan daromad bilan bir xil.

EPS (earnings per share/har bir aktsiyadan keladigan foya) buxgalteriyadagi talablari ko‘pincha tanqid ostida bo‘ladi, chunki ular asosan faqat buxgalteriya sohasida va faqat buxgalteriya uchun kengaytirilgan. Buxgalteriyada EPS bozordagi katta miqdordagi tebranishlar tomonidan ta’sir o‘tkazlishga suyanadi va EPS moliyaviy tahlillarda ham keltiriladi. Qanday tanqid ostida bo‘lmisin, EPS buxgalteriya ishida hurmat bilan qabul qilinishi shart. EPS ni hisob kitob qiladigan vaqt ishlatiladigan omillar bir-biridan juda farq qiladi va boshqaruv va auditorlik tekshiruvi vaqtida juda ham sinchkovlik bilan tartib bilan keltirilgan ma’lumotlar orqali ishlanishi kerak. Biz kerakli xulosani chizishimiz uchun bizning tahlil batafsil tarzda qaysi EPS hisolanayotganini tushunchasini keltirishi kerak.

EPS dagi oshkor qilish va hisoblashdagi o‘sishlarga qaramay, kuchli tahlil uchun to‘sqin bo‘ladigan to‘siqlar haligacha qolmoqda:

• Asosiy EPS hisoblashlari qisqartirilishdan keladigan potensial ta’sirlarning kafolat va tanlovlарini ra’d etadi. Bu yangi aktsiyalarda kuzatiladigan tushunarsiz potensial risklardan kora, kompaniyaning EPS sini 10%, hatto 20% ga ko‘tara

oladi. Bizning tahlillar qisqartirilgan EPS ni(Diluted) o‘rganishi kerak va bunday falokatlarni oldini olishi kerak.

• Agar ba’zi investitsiyalarni sarmoyadorlarning mulki emas, balki umumiylar sarmoyaga ekvivalent qilib ishlanganda bu yerda paydo bo‘ladigan nomuvofiqliklar bor. Shu sababli EPS ga yo‘naltirilgan va invistitsiya (qarz miqdori)ga aloqador pul miqdorlarini hisoblashda katta qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

• Qisqartirilgan tanlovlari va kafolatlarning ta’siri kompaniyaning umumiylar sarmoyasining narxiga bog‘liq. Buni biz dumaloq ta’sirni keltirib chiqara oladi, EPS aktsiya narxiga ta’sir eta oladi va aktsiya narxi EPS ga tasir o‘tkazadi. Shu sababli kiritilgan EPS aktsiya tomonidan ta’sir o‘tkazilgan bo‘ladi faqat kompaniyaning iqtisodiy poydevori tomonidan emas. Bu bizga, bizning bayon etilgan EPS proyektimiz faqat kelajakdagisi ishlanadigan pul miqdorini emas, balki kelajakdagisi aktsiya narxlarini ham ko‘rsatishini bildiradi.

4. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini taxlili

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – korxonalar faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Mahsulot sotish hajmi uning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, shuningdek, tannarx darajasi, foya miqdori, rentabellik darajasi, korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to‘lov qobiliyati va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar bog‘liq bo‘ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tahlili maqsadi raqobatchilarga nisbatan mahsulot sotish hajmini oshirish yo‘llarini topish, ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalangan holda bozordagi ulushni kengaytirish va buning natijasi sifatida – korxona foydasini oshirish hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni kompleks maqsadli tahlil qilishning asosiy vazifasi korxonaning raqobat pozitsiyasini va bozor kon’ekturnasi o‘zgarganda resurslar bilan o‘zgaruvchan manyovr qilish qobiliyatini tahlil qilish hisoblanadi. Mazkur umumiy vazifa quyidagi xususiy analitik vazifalarni hal qilish yo‘li bilan bajariladi:

- Mahsulot ishlab chiqarishning prognoz hajmi bajarilishi va dinamikasi o‘zgarishi ustidan tizimli nazorat;
- Hajm bo‘yicha bitimlar bajarilishini baholash, yetkazib berishlar maromiyligi, mahsulotlar butligi;
- Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga omillar ta’sirini aniqlash;
- obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha korxona faoliyatini baholash;
- Mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha aniqlangan zaxiralarni o‘zlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.


Ishlab chiqarish hajmini o‘rganish ish faolligining muayyan diapazonida, ya’ni relevant qator taqdim etuvchi min-max chegarasida amalga oshiriladi. Tahlil nafaqat mutlaq min-max chegarasida, balki o‘zgarmas doimiy xarajatlar

chegarasida ham amalga oshirilishi mumkin. Relevant qator minimal mumkin, maksimal mumkin, optimal va haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning minimal hajmi – mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitlari hamda mahsulot uchun narxlarda daromadlar va xarajatlar tengligiga erishiladigan hajm hisoblanadi.

Maksimal hajm ishlab chiqarish omillarining maksimal yuklamasini ta'minlaydi.

Optimal sifatida shunday ishlab chiqarish hajmi e'tirof etiladiki, bunda mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitida muayyan narx diapazonida maksimal foya olish ta'minlanadi. Optimallashtirish vazifikasi amaliydan ko'ra ko'proq nazariy sanalsa-da, biroq mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda bilish zarur bo'lgan mo'ljal hisoblanadi.



1-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlil obyektlari

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlili uchun **axborot manbalari** sifatida tashkilotlar biznes-rejasi, operativ reja-grafiklar, 1-S-shakli (yillik) - “Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish to‘g‘risida”, 1-S shakliga ilova - “Sanoat korxonalarining 2014 yilda mahsulot yetkazib berish va moddiy resurslarni olishga shartnomalar tuzishining borishi yuzasidan so‘rov”, 1-korxona shakli - “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”, 2-shakl “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”, Tayyor mahsulot harakati haqida ma’lumotnoma va birlamchi hisobga olishning ayrim ma’lumotlari hamda mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnomalardan foydalilanidi.

5. Strukturaviy o‘zgarishlarni mahsulot hajmiga ta’sirining tahlili

Mahsulot strukturasasi - ayrim mahsulot turlarini jami ishlab chiqarishda tutgan ulushidir.

Mahsulot ishlab chiqarish strukturasining o‘zgarishi barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlari: qiymat bahosida ishlab chiqarish hajmi, material sig‘imi, tovar mahsulot tannarxi, foya, rentabellikka ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Agar qimmatroq mahsulotning ulushi ortsa, u holda uni ishlab chiqarish hajmi qiymat ifodasida o‘sadi va aksincha. Yuqori rentabelli mahsulotning ulushi oshganda va mos ravishda past rentabelli mahsulot ulushi kamayganda ham foya miqdorida xuddi shunday holat sodir bo‘ladi.

Struktura o‘zgarishining asosiy sababları:

- har xil kategiriyalagi iste’molchilarining mahsulotga bo‘lgan talabini o‘zgarishi;
- korxonani uskuna va moddiy resurslar bilan yetarli ta’min etilmagani;
- zarur malakali mutaxassislarni yetishmasligi;
- korxonani kam mehnat sig‘imli, yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko‘proq ishlab chiqarishga intilishi.

Ishlab chiqarish strukturasining sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar darajasiga ta’sirini hisoblashni zanjirli o‘rin almashtirish usulida amalga oshirish mumkin bo‘lib, u mahsulot strukturasidan tashqari barcha omillarni mavhumlashtirishga imkon beradi:

$$V_{haq} = \sum Q_{haq} * D_{i haq} * P_{i reja} = 35755 \text{ mln. so‘m}$$

$$V_{shartli} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 36656,4 \text{ mln. so‘m}$$

$$\Delta V_{str.o‘zg} = V_{haq} - V_{shartli} = 67000 - 61750 = -901,41 \text{ mln. so‘m}$$

Bu erda,

V_{haq} – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi;

$V_{shartli}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi reja strukturada;

$\sum Q_{haq}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot natural miqdori;

$D_{i haq}$, $D_{i reja}$ – i- turdagи mahsulotning strukturasi haqiqatda va rejada;

$P_{i reja}$ – i- turdagи mahsulotning rejadagi bahosi.

$$V_{shartli(Kaptiva)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 12,82 * 85000 = 8717,95 \text{ mln.so‘m}$$

$$V_{shartli(Epika)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 15,38 * 70000 = 8615,38 \text{ mln.so‘m}$$

$$V_{shartli(Lasetti)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 17,95 * 48000 = 6892,31 \text{ mln.so‘m}$$

$$V_{shartli(Neksiya)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 25,64 * 32000 = 6564,10 \text{ mln.so‘m}$$

$$V_{shartli(Damas)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 28,21 * 26000 = 5866,67 \text{ mln.so‘m}$$

1-jadval

Tovar mahsuloti strukturasi tahlili

| Mahsulot | Mahsulot birligining ulgurji narxi, so'm | Mahsulot i/ch hajmi, dona | | Mahsulot strukturasi | | Reja narxida mahsulot i/ch, mln. so'm | | Strukturaviy o'zgarishlarning mahsulot hajmiga ta'siri, ming so'm | |
|-------------|--|---------------------------|------------|----------------------|------------|---------------------------------------|-----------------------------------|---|----------------|
| | | Reja | Haqiqatda | Reja | Haqiqatda | Reja | Haqiqiy mahsulot reja strukturada | Haqiqatda | |
| Kaptiva | 85000 | 100 | 95 | 12,82 | 11,88 | 8500 | 8717,95 | 8075 | -642,95 |
| Epika | 70000 | 120 | 110 | 15,38 | 13,75 | 8400 | 8615,38 | 7700 | -915,38 |
| Lasetti | 48000 | 140 | 145 | 17,95 | 18,13 | 6720 | 6892,31 | 6960 | 67,69 |
| Neksiya | 32000 | 200 | 220 | 25,64 | 27,50 | 6400 | 6564,10 | 7040 | 475,90 |
| Damas | 26000 | 220 | 230 | 28,21 | 28,75 | 5720 | 5866,67 | 5980 | 113,33 |
| jami | | 780 | 800 | 100 | 100 | 35740 | 36656,41 | 35755 | -901,41 |

Agar ishlab chiqarish hajmi barcha turdag'i mahsulotlar bo'yicha rejalashtirilgan struktura bo'yicha bo'lganda, umumiy mahsulot hajmi reja narxida 36656,41 mln. so'mni tashkil qilar edi.

Haqiqatdagi strukturada u 901,41 mln. so'mga kam. Bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmida arzonroq mahsulot ulushi ortgaligidan darak beradi.

6. Mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti tahlili

Umumiy mahsulot hajmi bo'yicha reja bajarilishi yoki ortig'i bilan bajarilishi mumkin. Lekin bu hali ishlab chiqarish rejasi barcha mahsulotlar, ya'ni mahsulotlar assortimenti bo'yicha bajarilganligini anglatmaydi. Mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilishi yoki ortig'i bilan bajarilishi bir mahsulotni rejadan tashqari ishlab chiqarish va ayni vaqtida boshqa mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarmaslik natijasi ham bo'lishi mumkin.

Ma'muriy-buyruqbozlikha asoslangan iqtisodiyot sharoitida reja bajarilishi tahlili yuqori turuvchi organlar orqali davlat tomonidan korxonalar faoliyatini ustidan nazorat shakli hisoblangan. Hozirgi vaqtida, ya'ni tovarlar yetkazib berish, davlat buyurtmasi, bozor kon'yunkturasini o'rGANISH, asosida korxona mustaqil ravishda reja ishlab chiqayotgan bir paytda reja bajarilishi tahlili quyidagilarni baholashga imkon beradi:

- shartnoma majburiyatlarini bajarilish darajasi;
- rejalashtirish sifati;
- menejment sifati.

Ayni vaqtida umumiy hajmda va assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar bilan ta'minlash,

uskunalar bilan jihozlash, shtat jadvalini tuzish va boshqa rejalar tuzish uchun boshlang'ich baza hisoblanadi.

Yo'riqnomalar va amaliyotda ko'pincha aralash qo'llaniladigan nomenklatura hamda assortiment tushunchalarini farqlash talab qilinadi.

Nomenklatura – bu mahsulotlar nomlari va ularning mutanosib turlari uchun belgilangan kodlar ro'yxatidir.

Assortiment – har bir tur bo'yicha ishlab chiqarish hajmi ko'rsatilgan holda mahsulot nomlari ro'yxatidir.

U to'liq, guruhli va guruh ichida bo'lishi mumkin.

To'liq assortiment – tayyorlanadigan mahsulotlarning barcha turlari va ko'rinishlarining tugal ro'yxati; guruhli assortiment turdosh gurhdagi mahsulotlarni birlashtiradi. Guruhga kiruvchi mahsulotlar uning guruh ichidagi assortimentini tashkil qiladi.

Assortiment va mahsulot ishlab chiqarish tarkibini shakllantirishda korxona, bir tomonidan, mazkur mahsulot turiga talabni, boshqa tomonidan – mehnat, xom ashyo, texnik, texnologik, moliyaviy va tasarrufida mavjud boshqa resurslardan samaraliroq foydalanishni hisobga olishi lozim. Assortimentni shakllantirish tizimi quyidagilarni tashkil qiladi:

- xaridorlarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash;
- ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini baholash;
- mahsulotning hayot tsiklini o'rganish, yangi, yanada mukammal mahsulot turlarini joriy qilish va ishlab chiqarish dasturlaridan ma'naviy eskirgan hamja iqtisodiy samarasiz mahsulotlarni chiqarib tashlash bo'yicha o'z vaqtida choratadbirlar qo'llash;
- mahsulotlar assortimentida o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi va risk darajasini baholash.

Mahsulotlar assortimenti bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash odatda ayni nomli koeffitsient yordamida hisoblanib, u assortiment bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga kiritilgan umumiy haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarishni uning umumiy rejaviy ishlab chiqarishga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi (rejadan tashqari tayyorlangan mahsulot assortiment bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishida hisobga olinmaydi).

2-jadval

Assortiment bo'yicha reja bajarilishi tahlili

| Mahsulot nomi | Mahsulot birligining ulgurji narxi, so'm | Naturada ishlab chiqarish, dona | | Qiymat ifodasida ishlab chiqarish, ming so'm | | Assortiment hisobida ishlab chiqarish |
|---------------|--|---------------------------------|------|--|-------|---------------------------------------|
| | | reja | haq. | reja | haq. | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| A | 7779 | 4255 | 4630 | 33100 | 36019 | 33100 |
| B | 14251 | 1486 | 1701 | 21175 | 24240 | 21175 |
| V | 2282 | 4735 | 4045 | 10806 | 9230 | 9230 |
| G | 14826 | 6451 | 5760 | 95641 | 85400 | 85400 |

| | | | | | | |
|------|-------|------|------|---------------|---------------|---------------|
| D | 23348 | 1195 | 1550 | 27900 | 36190 | 27900 |
| E | x | x | x | 31766 | 63471 | 31766 |
| Jami | x | x | x | 220388 | 254550 | 208571 |

Assortiment bo'yicha reja bajarilishining o'rtacha foizi 94,6%

$$\frac{(208571 * 100)}{220388}$$

Assortiment bo'yicha reja bajarilmasligining sabablari:

Tashqi: bozor kon'yunkturasi, mahsulotlarning alohida turlariga talab o'zgarishi, moddiy-texnik ta'minot holati, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirmsaslik.

Ichki: ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi kamchiliklar, asbob-uskunalarining texnik holati yomonligi, uning turib qolishi, avariylar, elektr energiyasi etishmasligi, ishlab chiqarish madaniyati pastligi va boshqalar. Assortiment bo'yicha reja bajarilishini aniqlashning boshqa usullari ham mavjud. *Eng kam foiz usuli* sodda usullardan biri sanaladi. Mazkur usul qo'llanilganda haqiqatdagi miqdor rejalashtirilganjan kam bo'lgan majburiy assortimentlar pozitsiyalari bo'yicha rejaning bajarilish foizi aniqlanadi. Olingan foizlarning eng kichigi assortiment bo'yicha reja bajarilishining jamlanma ko'rsatkichi sifatida qabul qilinadi, lekin u 100% dan ziyod bo'lmasligi lozim bo'lgan darajaga nisbatan alohida mahsulotlar bo'yicha ushbu darajaning og'ishi aniqlanadi;

- tayyorlash va yetkazib berish sifatini tavsiflovchi parametrlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish tarkibi tahlil qilinadi;

- mahsulotlar texnik darajasini sekinlashtiruvchi omillar aniqlanadi;
- mahsulot sifatini oshirish, yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish va yo'qotishlarni qisqartirish imkoniyatlari asoslanadi.

Mahsulot sifatini tahlil qilish uchun foydalilanidigan axborot tahlil qilinayotgan obyektning deyarli barcha jihatlarini qamrab oladi (konstruktivalar haqida ma'lumotlar, mehnat vositalari va predmetlarida qo'llaniladigan texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish va sotish natijalari, reklama haqida ma'lumotlar va boshqalar)

Axborot manbalari sifatida sinov hujjatlari, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarning laboratoriya nazorati ma'lumotlari, texnik nazorat bo'limi (TNB) ma'lumotlari va boshqalar xizmat qiladi.

Mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilishini umumlashtirma baholash uchun turli usullar, jumladan ball usuli qo'llaniladi. Baholashning ball usuli mohiyati shundan iboratki, mahsulot sifatining o'rtacha tortilgan bali aniqlanadi hamda uning haqiqatdagi va rejadagi darajasini taqqoslash yo'li bilan sifat bo'yicha bajarilishining foizi topiladi.

Sifat nav bilan tafsiflanadigan mahsulotlar bo'yicha har bir navning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi, o'rtacha navlilik koeffitsienti, taqqoslama shartlarda mahsulotning o'rtacha tortilgan narxi hisoblanadi. Birinchi ko'rsatkich bo'yicha

reja bajarilishini baholashda mahsulotning umumiy hajmida har bir navning haqiqatdagi ulushi rejadagi bilan, sifat dinamikasini o'rganish uchun esa – o'tgan davrlar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

O'rtacha navlilik koeffitsienti barcha navdag'i mahsulotlar qiyomatining yuqori nav bahosi bo'yicha qiyamatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

3-jadval

| Nav | Birlik uchun ulgurji narx, so'm. | Naturada ishlab chiqarish, dona | | Reja bajarilishi, % | Solishtirma og'irlik, % | | Qiymat ifodasida ishlab chiqarish, ming so'm | |
|----------|----------------------------------|---------------------------------|------|---------------------|-------------------------|-------|--|------|
| | | Reja | Haq. | | Reja | Haq. | Reja | Haq. |
| Oliy | 2500 | 1420 | 1490 | 104,9 | 56,35 | 59,84 | 3550 | 3725 |
| Birinchi | 2200 | 1100 | 1000 | 90,9 | 43,65 | 40,16 | 2420 | 2200 |
| Jami | X | 2520 | 2490 | 98,8 | 100 | 100 | 5970 | 5925 |

3-jadvalga ko'ra reja 98,8 % bajarilgan, yuqori navli mahsulot ishlab chiqarish 104,9 %, birinchi navli – 90,9 %. Biroq bu navlilik bo'yicha reja bajarilganligini tavsiflamaydi. O'rtacha navlilikning rejadagi va haqiqatdagi koeffitsientlarini, shuningdek, mahsulot birligining o'rtacha sotilgan bahosini aniqlash talab qilinadi.

3. O'rtacha navlilik koeffitsienti:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{5970 \text{ ming so'm}}{2500 * 2520} = 0,948$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{5925 \text{ ming so'm}}{2500 * 2490} = 0,952$$

4. Mahsulot birligining o'rtacha sotilgan bahosi:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{5970 \text{ ming so'm}}{2520} = 2369,03 \text{ so'm.}$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{5925 \text{ ming so'm}}{2490} = 2379,5 \text{ so'm.}$$

Sifat ortishi hisobiga o'rtacha narx 10,47 so'mga oshgan. (2379,5 – 2369,04)

Sifatning mahsulotlar hajmiga ta'siri:

$$(2379,5 – 2369,04) * 2490 = +26,045 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulotlarning navli tarkibining uni ishlab chiqarish hajmiga qiyamat ifodasida ta'sirini hisoblash uchun mahsulot ishlab chiqarish tarkibi tahlilida qo'llaniladigan usullardan ham foydalanish mumkin.

4-jadval ma'lumotlari bo'yicha hisoblashni mutlaq farqlar usulida bajaramiz. Hisoblash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval
Mahsulot nav tarkibining mahsulot ishlab chiqarishga ta'siri (qiymat ifodasida un mahsuloti)

| Mahsulot navi | Mahsulot birligi uchun ulgurji narx, so'm | Mahsulot tarkibi, % | | | Struktura o'zgarishi hisobiga o'rtacha narx o'zgarishi, so'm. |
|---------------|---|---------------------|-------|----------------|---|
| | | Reja | Haq. | Og'ish , (+,-) | |
| Oliy | 2500 | 56,35 | 59,84 | +3,49 | 87,25 |
| Birinchi | 2200 | 43,65 | 40,16 | -3,49 | -76,78 |
| Jami | X | 100 | 100 | - | 10,47 |

Nav belgilangan mahsulotlarning barcha turlari bo'yicha shunga o'xshash hisoblash bajariladi, natijalar umumlashtiriladi.

Mahsulot sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri detallar, yarimfabrikatlar va tayyor mahsulotlar yaroqsiz bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Yaroqsizga chiqarishdan yo'qotish odatda mahsulot tannarxi tahlili

Nazorat savollari:

1. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti qanday tahlil etiladi?
2. Qanday axborot manbalaridan foydalananildi?
3. Mahsulot hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ifodalab bering?
4. Yalpi va tovar mahsuloti deganda nimani tushunasiz?
5. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va uning dinamikasi qanday tahlil etiladi?

12-bob. XARAJATLAR TAHLILI VA BUDJETLASHTIRISH

Reja:

1. Xarajatlar turlari.
2. Xarajatlar tahlili.
3. Budjetlashtirish.

Tayanch so'zlar:

Xarajatlarning maqsadi, muqobil xarajatlar, marginal xarajatlar, xarajatlarni tahlil qilish afzalliklari, xarajatlarni tahlil qilish afzalliklari, o'zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlar.

1. Xarajatlar turlari

Xarajatlar – ma'lum maqsadlarda foydalilanigan resurslar hajmining puldag'i ifodasi.


Xarajatlarning maqsadi – xarajatlari alohida o'lchanadigan har qanday faoliyatdir.

Xarajatlarning o'zgarishi deganda faoliyat darajasi o'zgarganda xarajatlarning qanday o'zgarishi tushuniladi.


O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq. O'zgaruvchan xarajatlar miqdori ishlab chiqarish hajmining (ish bilarmanlik faoliik darajasining) o'zgarishiga mutanosib o'zgaradi va mahsulot birligiga hisoblaganda doimiy miqdor bo'лади. Xom ashyo, asosiy ishchilarining mehnati, komission xarajatlar bunga misol bo'ла oladi.

Misol:

Kompaniya charm poyabzal ishlab chiqaradi; xar juft poyabzal bir xil xom ashyonи talab qiladi, shu sababli xarajatlarning bu turi ishlab chiqarilgan miqdorga mutanosib o'zgaradi.



(ishlab chiqarilgan birlik soni)



(Ishlab chiqarilgan mahsulot soni)

1-rasm. O'zgaruvchan xarajatlar

a) umumiyy; b) mahsulot birligiga

b – mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar

Doimiy xarajatlar miqdori faoliik darajasi o'zgargan paytda ham o'zgarmay qolaveradi, ular nisbatan doimiydir, lekin ishlab chiqarish darajasi o'zgarganda mahsulot birligiga hisoblangan doimiy xarajat ham o'zgaradi: amortizastiya, ijara xarajatlari va aktivlar sug'urtasi, ma'muriy xarajatlar bunga misol bo'ла oladi.

Muqobil xarajatlar – bu foydalanilmagan imkoniyatlarga qilingan sarf xarajatlardir. Ular bir harakatni tanlash boshqa harakatning vujudga kelishini istisno qiladigan paytdagi boy berilgan foydani bildiradi. Masalan, sport sumkalari ishlab chiqaradigan korxona chemodan tayyorlashga buyurtma oldi. Agar korxona bu buyurtmani qabul qilsa, sport tovarlarini sotadigan magazinlarning butun bir tarmog'i uchun odatdagи miqdorda sport sumkalari ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari (mashina va ish vaqt) yetishmaydi. Bu buyurtmani qabul qilishning muqobil xarajatlari sport sumkalarini ishlab chiqarish imkoniyati qolmagani sababli boy berilgan foydadir. Bu boy berilgan foydani sport sumkalarini sotishdan olinadigan potentzial daromaddan ularni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanishi mumkin. Muqobil xarajatlar har bir kishi qabul qilgan qarorida ham mavjud bo'ladi. Muqobil xarajatlarga talabani universitetda o'qitish uchun sarflangan xarajatlar ham ish haqiga qo'shiladi. Lekin talaba bu vaqtida ishlamagan va ish haqi hisoblanmagandir.

Muqobil xarajatlar harakatning tanlash chojida harakatlarning boshqa variantlaridan voz kechish natijasida yo'qotilan yoki qurban qilingan potentzial naf sifatida aniqlanadi.

Relevant xarajatlar va daromadlar kelgusida kutilayotgan va xozirgi va kelgusidagi har qanday harakat o'zgartira olmaydigan xarajatlar va tushumlar (yoki kelgusi davrdagi xarajatlar va tushumlar, yoki ahamiyatli xarajatlar va tushumlar) bu qaror qabul qilinishi natijasida o'zgaradigan xarajatlar va tushumlardir. Qabul qilinayotgan qaror ta'sir qilmaydigan xarajatlar va tushumlar norelevant ya'ni unga tegishli bo'lмаган (ahamiyatsiz) xarajatlar va tushumlardir.

Ko'payadigan xarajatlar (ular qo'shimcha yoki tabaqalashtirilgan xarajatlar ham deyiladi) – bu ikki muqobil qarorni ko'rib chiqish chog'ida xarajatlar farq qiladigan miqdordir. Ko'payib boradigan xarajatlar va tushumlar – bu tahlil qilinadigan har bir variantda mahsulotning ko'rib chiqilayotgan turlari uchun qilingan sarflar va tushumlar o'rtaisdagi farqlar hamda harakatning bir variantida mavjud bo'lgan, lekin boshqa harakat variantida to'la yoki qisman mavjud bo'lмаган har qanday xarajatlardir. Ko'payadigan xarajatlar ham doimiy, ham o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

Marjinal xarajatlar (tushumlar) bir qo'shimcha ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga qilingan qo'shimcha xarajatlar (tushumlar)dan iboratdir.

Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyastiya qilish (absorpshen-kosting) – bu mahsulot tannarxni sotilgan mahsulotlar va omborda mahsulot qoldiqi o'rtaisdagi barcha ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlab kalkulyastiyalash usulidir, ya'ni bu usuldan foydalanganda doimiy ishlab chiqarish sarflari zaxira sig'imi bo'ladi. Kalkulyastiyanadan tashqi foydalanguvchilar uchun foyda va zarar to'g'risida hisobot tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

Me'yoriy (standart) xarajatlar tizimidan ayrim xodimlarning va umuman boshqaruvning faoliyatini baholash uchun byudjetlarni va turli farazlarni tayyorlash

uchun foydalaniladi va u haqiqiy narxni belgilash yuzasidan qaror qabul qilishga yordam beradi¹.

Normativ xarajatlar (standard costs) oldindan puxta aniqlangan haqiqiy xarajatlar bo'lib, odatda tayyor mahsulot birligini hisoblashda ifodalanadi. Ular ishlab chiqarish xarajatlarining barcha uch elementini – bevosita moddiy xarajatlarni, bevosita mehnat xarajatlarini va umumiy ishlab chiqarish sarflarini o'z ichiga oladi.

2. Xarajatlar tahlili

Xarajatlar tahlilini baholashning uch xil turi: Xarajatlarni tan olish, xarajatlar samaradorligi tahlili va xarajatlar-foyda tahlili. Ular oddiy dasturdan yuqori texnik va maxsus usullar daraja usullarigacha farq qiladi. Biroq barchasi maxsus va texnik jihatlarini bor. Agar siz allaqachon bu usullari va ishlatiladigan til bilan tanish bo'lmasangiz, siz maslahatchi bilan ishlash yoki o'qishni rejalshtirishingiz kerak.

Bundan tashqari byudjet ma'lumotlari birlik xarajatlarini aniqlash imkoniyatiga mijozlari va natijalari haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lish qanday yig'ish kerak degan ma'noni anglatadi. Ko'p idoralarida xizmat yozuvlar axborot baholash uchun foydalidir. Klinika xodimlari oddiygina jins tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar soni hisobot bo'lsa, masalan faqat 157 qiz mart oyida xizmat qilgan deb bilish mumkin. Ammo turli xil yo'llar bilan bu raqamni yiqitish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Misol uchun yosh onalar odatda keksa ayollarda ko'proq tashrifga talabi bormi? Bir necha bolalar bilan yolg'iz onalar yoki ayollar ko'proq uchrashuvlarni o'tkazib yuboradimi? Qishloq joylarda istiqomat qiladigan ayollar uchun bir muammo transport emasmi? Tez-tez chaqaloqning tug'ilgan og'irligi sifatida muhim natijalari bilan bog'liq har qanday mijoz xususiyatlari bor?

Xarajatlar samaradorligi va xarajatlar-foyda faoliyatni.

Xarajatlar samaradorligi tahlili: xarajatlar samaradorligi tahlili muayyan foyda yoki natija kerakli deb ta'kidlaydi va unga erishish uchun bir necha muqobil yo'llari bor. Asosiy savol "shu bilan bir qatorda bu foyda olish uchun arzon yoki eng samarali yo'li qaysi?". Xarajat-foyda tahlil odatda, bir vaqtning o'zida faqat bitta dasturni hisoblaydi, xarajatlar samaradorligi tahlil qilish qiyosiy hisoblanadi. Yana bir muhim farq xarajat-foyda tahlili har doim bir dasturning pul xarajatlarini va foydani solishtiradi.

Xarajat-foyda tahlili g'oyasi oddiy: bir taklif muqobil barcha kirishlar va natijalari ta'siri ya'ni dollar) bir umumiy birligi uchun kamaytirilishi mumkin bo'lsa, ular birlashtiriladi va taqqoslanishi mumkin. Odamlar bir narsaga dollar to'lashga tayyor bo'ladi bo'lsa, taxminan bir foyda bo'ladi; ular uni oldini olish uchun to'lamoqchi bo'lsa, uning qiymati hisoblanadi. Lekin amalda ijtimoiy dasturlarga pul yozuvlari qadriyatlari va natijalarini tayinlash kamdan-kam hollarda juda oddiy bo'lib, u har doim shunday qilish o'rinni emas.

Xarajatlarni tahlil qilish afzalliklari:

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 377 page.

- dasturlarida moliyaviy mas'uliyatini targ'ib etadi. Ko'pincha dastur rahbarlari osonlik bilan xizmatlar ko'rsatish yoki ular muntazam mijozlar haqida zarur ma'lumotlarni yig'olmaydi, chunki ba'zi natijalarga erishishda xarajatlarni aniqlash mumkin emas.

- resurslar cheklanganligini inobatga olsak.

Xarajatlarni tahlil qilish kamchiliklari:

- texnik mahorat va bilim katta talab qiladi.
- tanqidchilar ko'p qiymati tahlil haddan tashqari sodda deb hisoblaydilar.
- bozor narxlari har doim "haqiqiy" ijtimoiy xarajatlarni aks ettirmaydi.
- ba'zida bir necha raqobatchi bor.
- ba'zida xarajati va pul qiymatlari boshqa.

Xarajatlarning maqsadi - xarajatlari alohida o'lchanadigan har qanday faoliyatdir.

Xarajatlarning o'zgarishi deganda faoliyat darajasi o'zgarganda xarajatlarning qanday o'zgarishi tushuniladi.

O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq. O'zgaruvchan xarajatlarni miqdori ishlab chiqarish hajmining (ish bilarmanlik faoliik darajasining) o'zgarishiga mutanosib o'zgaradi va mahsulot birligiga hisoblaganda doimiy miqdor bo'ladi. Xom ashyo, asosiy ishchilarning mehnati, komission xarajatlar bunga misol bo'la oladi.

Doimiy xarajatlar miqdori faoliik darajasi o'zgargan paytda ham o'zgarmay qolaveradi, ular nisbatan doimiydir, lekin ishlab chiqarish darajasi o'zgarganda mahsulot birligiga hisoblangan doimiy xarajat ham o'zgaradi: amortizasiya, ijara xarajatlari va aktivlar sug'urtasi, ma'muriy xarajatlar bunga misol bo'la oladi.

Muqobil xarajatlar – bu foydalanilmagan imkoniyatlarga qilingan sarf xarajatlardir. Ular bir harakatni tanlash boshqa harakatning vujudga kelishimi istisno qiladigan paytdagi boy berilgan foydani bildiradi. Masalan, sport sumkalari ishlab chiqaradigan korxona chemodan tayyorlashga buyurtma oldi. Agar korxona bu buyurtmani qabul qilsa, sport tovarlarini sotadigan magazinlarning butun bir tarmog'i uchun odatdagi miqdorda sport sumkalari ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari (mashina va ish vaqt) etishmaydi. Bu buyurtmani qabul qilishning muqobil xarajatlari sport sumkalarini ishlab chiqarish imkoniyati qolmagani sababli boy berilgan foydadir. Bu boy berilgan foydani sport sumkalarini sotishdan olinadigan potensial daromaddan ularni ishlab chiqarishiga ketadigan xarajatlarni chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanishi mumkin. Muqobil xarajatlar har bir kishi qabul qilgan qarorida ham mavjud bo'ladi. Muqobil xarajatlarga talabani universitetda o'qitish uchun sarflangan xarajatlar ham ish haqiga qo'shiladi. Lekin talaba bu vaqtda ishlamagan va ish haqi hisoblanmagandir.

Muqobil xarajatlar harakatning tanlash chojida harakatlarning boshqa variantlaridan voz kechish natijasida yo'qotilan yoki qurban qilingan potensial naf sifatida aniqlanadi.

Relevant xarajatlar va daromadlar kelgusida kutilayotgan, hozirgi va kelgusidagi har qanday harakat o'zgartira olmaydigan xarajatlar va tushumlar (yoki kelgusi davrdagi xarajatlar va tushumlar, yoki ahamiyatli xarajatlar va tushumlar)

bu qaror qabul qilinishi natijasida o'zgaradigan xarajatlar va tushumlardir. Qabul qilinayotgan qaror ta'sir qilmaydigan xarajatlar va tushumlar norelevant ya'ni unga tegishli bo'Imagan (ahamiyatsiz) xarajatlar va tushumlardir.

Ko'payadigan xarajatlar (ular qo'shimcha yoki tabaqalashtirilgan xarajatlar ham deyiladi) - bu ikki muqobil qarorni ko'rib chiqish chog'ida xarajatlar fare qiladigan miqdordir. Ko'payib boradigan xarajatlar va tushumlar - bu tahlil qilinadigan har bir variantda mahsulotning ko'rib chiqilayotgan turlari uchun qilingan sarflar va tushumlar o'rtasidagi farclar hamda harakatning bir variantida mavjud bo'lgan, lekin boshqa harakat variantida to'la yoki qisman mavjud bo'Imagan har qanday xarajatlardir. Ko'payadigan xarajatlar ham doimiy, ham o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

Marjinal xarajatlar (tushumlar) bir qo'shimcha ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga qilingan qo'shimcha xarajatlar (tushumlar) dan iboratdir.

Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyastiya qilish (abzorpshen-kosting) – bu mahsulot tannarxini sotilgan mahsulotlar va omborda mahsulot qoldiqi o'rtasidagi barcha ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlab kalkulyastiyalash usulidir, ya'ni bu usuldan foydalanganda doimiy ishlab chiqarish sarflari zaxira sig'imi bo'ladi. Kalkulyastiyanadan tashei foydalanuvchilar uchun foya va zarar to'g'risida hisobot tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

Tannarxni o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha kalkulyastiyalash (direkt- yoki veribl-kosting). Bu usulda faqat o'zgaruvchi ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotga xarajat sifatida talqin qilinadi (zaxira sig'imi xarajatlar), doimiy ishlab chiqarish xarajatlari esa davr xarajatlariga tegishli hisoblanadi. Direkt-kostingdan foydalanib tayyorlangan foya va zararlar to'g'risidagi hisobot ichki hisobot sifatida qo'llaniladi. Bu hisobotda marjinal daromad ko'rsatiladi, bu daromad barcha o'zgaruvchi xarajatlar bilan daromadlar o'rtasidagi tafovutdan iborat.

Direkt-kosting:

- Qaror qabul qilish uchun foydali axborot bilan ta'minlaydi.
- Xarajatlarni o'zgaruvchi va doimiy xarajatlarga ajratish ishlab chiqarish yoki komponentlarni xarid qilishga doir qarorlar qabul qilish uchun, mahsulot turlarini aniqlash uchun axborot olish imkonini beradi.

• Foydani zaxiralari o'zgarishi ta'siridan holi qiladi.

Direkt-kostingdan foydalanilganda foya mahsulotni sotish hajmiga bog'liq bo'ladi, abzorpshen-kostingdan foydalanilganda foydaga sotilgan mahsulot hajmi ham, ishlab chiqarish hajmi ham ta'sir qiladi. Shu sababli direkt-kosting zaxiralar bilan nayrang qilishga yo'li qo'yaydi va menejerlar ishini baholashga juda mos keladi.

Abzorpshen-kosting:

- Doimiy ishlab chiqarish xarajatlariga yetarli e'tibor beradi.
- Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (XMIS) doimiy ishlab chiqarish xarajatlarni zaxiralar qiymatiga eo'shishni talab qiladi. Tashqi maqsadlar uchun abzorpshen-kostingdan foydalanish moliyaviy ko'rsatkichlarni o'z hisobotlarini XMIS bo'yicha tuzadigan boshqa kompaniyalarning ko'rsatkichlari bilan taceoslashni ta'minlashga imkon beradi.

- Hisobotda xaddan ortiq zararlar va foydani aks ettirishdan qochish imkonini beradi.

Mavsumiy biznesda zaxiralarni ko‘paytirish davrida direkt-kostingdan foydalanilganda doimiy ishlab chiqarish xarajatlari davr xarajatlariga eo‘shiladi. Shu sababli zaxiralarni ko‘paytirish davrida katta zarar eayd etiladi, tovarlarni sotish davrida katta foya qayd etiladi. Abzorpshen-kostingdan foydalanilganda zararlar va foya ancha barobrashadi.

«Standart-Kost» tizimi xarajatlarni rejalashtirish va ularni nazorat qilish uchun boshqaruvda foydalanadigan vositadir. Uning o‘zi xarajatlarni hisobga olish tizimi bo‘la olmaydi va tannarxni kalkulyastiyalashning ham jarayonli hamda buyurtmali usuli bo‘yicha, shuningdek bu usullarning har qanday kombinastiysisida ham foydalanishi mumkin. Kompaniya «Standart-Kost» tizimidan to‘la hajmda foydalangan paytda zaxiralalar va sotilgan mahsulot tannarxi schetlariga ta’sir qiladigan barcha xarajatlar yuz bergen haqiqiy xarajat tarzida emas, balki standart (me’yoriy) yoki oldindan aniqlangan xarajat sifatida ko‘rsatiladi. Xarajatlar harakati va «xarajatlar-hajm-foyd» tahlili nisbati bilan birga hisob tizimiga me’yoriy xarajatlarni kiritish byudjetlarni nazorat qilish jarayoni uchun asosni ta’minlaydi.

Me’yoriy (standart) xarajatlar tizimidan ayrim xodimlarning va umuman boshqarvuning faoliyatini baholash uchun byudjetlarni va turli farazlarni tayyorlash uchun foydalaniladi va u haqiqiy narxni belgilash yuzasidan qaror qabul qilishga yordam beradi.

Normativ xarajatlar (standard costs) oldindan puxta aniqlangan haqiqiy xarajatlar bo‘lib, odatda tayyor mahsulot birligini hisoblashda ifodalanadi. Ular ishlab chiqarish xarajatlarining barcha uch elementini – bevosita moddiy xarajatlarni, bevosita mehnat xarajatlarini va umumiy ishlab chiqarish sarflarini o‘z ichiga oladi.

Me’yolar (standartlar) bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish yaxlit konstepsiyadan iborat. Uni to‘la qo‘llanilganda haqiqatan qilingan ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar ularning me’yoriy qiymati bilan almashtiriladi. «Materiallar zaxiralari», «Tayyor mahsulotlar zaxiralari» va «Sotilgan mahsulotning tannarxi» (debet bo‘yicha va kredit bo‘yicha) kabi schetlar haqiqatda bo‘lgan sarflardan emas, me’yoriy xarajatlardan foydalanib yuritiladi. Buxgalter haqiqatda qilingan xarajatlarni alohida yozib boradi. Hisob davri oxirida haqiqiy hisob ma’lumotlari ularning me’yoriy qiyamatiga qiyoslanadi.

Haqiqiy va me’yoriy (yoki byudjet) ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut chetga chiqish (og‘ish) deb ataladi. Agar chetga chiqish aniqlansa, buxgalter uning sababini aniqlashi kerak. Chetga chiqishlarni tahlii qilish sifatida ma’lum bo‘lgan bu jarayon xarajatlarni va umuman boshqaruv tizimini nazorat qilishning samarali vositasidir.

Me’yoriy xarajatlar quyidagicha turkumlanishi mumkin:

1. Benuqson (ideal), nazariy. Bu me’yolar uskunalarining buzilmay, sinmay, to‘xtovsiz, samaradorlikning eng yuqori darajasida ishlashiga asoslangan. Ular

ishlab chiqarish quvvatining hozirgi darajasida ehtimoli bo‘lgan xarajatlarning eng kam miqdorini ko‘rsatadi.

2. Bazaviy. Bu kamdan-kam qayta qarab chiqiladigan taxminlar bo‘lib, joriy o‘zgarishlarga, narxlar darajasidagi o‘zgarishlarga bog‘liq emas.

3. Haqiqiy (real). Bu faoliyatning aniq ma’lum darajasida erishish mumkin bo‘lgan va me’yoriy brak (yaroqsiz)ni, texnologik chiqimlarni, ishdagi uzilishlarni hisobga oladigan me’yorashtirilgan xarajatlardir.

3. Budjetlashtirish

Byudjet (smeta) — bu ma’lum davrga qadar tayyorlangan va qabul qilingan, odatda erishish lozim bo‘lgan daromadning yoki shu davr ichida qilinishi lozim bo‘lgan sarf-xarajatlarning hamda ushbu maqsadga erishish uchun jalb etish zarur bo‘lgan kapitalning rejalashtirilgan miqdorini pul bilan ifodalangan miqdoriy rejasidir.

Tafsillashtirilgan byudjetlar ko‘pincha kelgusi cheklangan davrga, odatda uzog‘i bilan bir yilga tuzilib, anche qisqa davrlarga: uch oy, bir oy yoki to‘rt xaftalik davrlarga bo‘linadi. Qisqa boshqaruvni nazorat qilish maqsadida qisqa muddatli davrga reja tuziladi. Nazorat davri oxirida joriy faoliyatni tahlil qilish va baholash uchun haqiqiy ma’lumotlar byudjetdagi ma’lumotlarga solishtiriladi. Shu munosabat bilan turli oylardagi kunlar sonidagi tafovut bo‘lmasligi uchun bir oylik davrni emas, balki to‘rt haftalik davrni qiyoslash afzaldir. Kunlar miqdoridagi farq qiyoslash chog‘ida ma’lum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Amalda yillik byudjet ko‘p hollarda yilning choraklari bo‘yicha ishlab chiqiladi va faqat birinchi chorak oylar bo‘yicha tafsillashtiriladi. Byudjetlar yil davomida vaziyatni hisobga olib o‘zgartirilishi mumkin. Uzluksiz yoki davomli byudjetlar keng qo‘llaniladi. Ularning mohiyati shundaki, oy yoki yil choragi tugallangan sari byudjetga navbatdagi tafsillashtirilgan byudjet qo‘shiladi va shu tariqa uzluksiz ichki yillik rejalash ta’minlanadi. Umuman byudjetni ishlab chiqishning davriyiliqi rejalashtiriladigan ma’lumotlar hajmiga va muayyan korxonaning ehtiyojiga qarab belgilanadi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi texnika va yangi texnologiyani joriy etish kabi muhim o‘zgarishlar bo‘lgan qo‘sishma kapital sarflashni talab qiladigan hollarda byudjetlar besh yilga va undan ko‘proq davrga tuziladi. Tobora ko‘payib boradigan miqdordan byudjetda uzoq muddatli rejalashtirish vositasi sifatida foydalaniladi.

Byudjetlar umuman tashkilot uchun ham tarkibiy bo‘linmalari yoki faoliyatning ayrim vazifalari uchun ham tuziladi.

Byudjetning vazifasi

Byudjetning vazifasi quyidagilardir:

1. Korxona maqsadiga erishishni ta’minlaydigan operastiyalarini rejalashtirish.

2. Faoliyatning turli xillarini va alohida bo‘linmalarni muvofiqlashtirish.

Ayrim xodimlarning va tashkilot bo‘yicha umumiy guruhining manfaatlarini kelishitirish.

3. Barcha darajadagi rahbarlar o‘z ma’suliyat markazlarida maqsadga erishishlarini rag‘batlantirish.

4. Joriy faoliyatni nazorat qilish, reja intizomini ta’minlash.

5. Ma’suliyat markazlari va ularning rahbarlari tomonidan reja bajarilishini baholash uchun asos.

6. Menedjerlarni o‘qitish vositasi.

Rejalahtirish. Asosiy reja echimlari odatda dasturni tayyorlash jarayonida ishlab chiqiladi, byudjetni tayyorlash jarayonining o‘zi ham mohiyat jihatidan bu rejalgarda aniqlik kiritishdir. Bunda ayrim bo‘linmalar bo‘yicha yoki kompaniyaning vazifalari bo‘yicha yaqin davrdagi operastiyalarga aniqlik kiritiladi.

Har bir ma’suliyat markazi boshqa ma’suliyat markazlariga ta’sir qiladi va o‘zi ham ularning faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Byudjetni ishlab chiqish jarayonida faoliyatning ayrim turlari tashkilotning barcha bo‘linmalari korxonaning umumiy maqsadini amalga oshirib, o‘zarो kelishib ishlaydigan tarzda muvofiqlashtiradi. Ishlab chiqarish rejaliari marketing bo‘limining rejasi bilan muvofiqlashtirishi juda muhimdir, ya’ni rejalahtirilgan sotuv hajmiga va tayyor mahsulotning pirovard zaxiralaring istalgan darajasiga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish muhimdir. Materiallarni xarid qilish rejasi ishlab chiqarish byudjetida belgilangan mahsulot miqdorini ishlab chiqarishga asoslanishi kerak va xokazo.

Rahbariyat rejaliari barcha ijrochilar bu rejalgarning mazmunini tushunmagunlaricha bajarilmaydi. Ularda qancha xizmat va tovarlarni ishlab chiqarish zarur, qanday odamlardan, qanday usullardan foydalanish zarur; qancha xom-ashyo va materiallarni sotib olish zarur, sotish uchun qanday narx belgilash, kelgusida qanday siyosatga va qanday cheklashlarga amal qilish kerak? - shu kabi aniq bandlar bo‘ladi. Bunday axborotga reklamaga, texnik xizmat ko‘rsatishga sarflanishi mumkin bo‘lgan eng ko‘p summa, ma’muriyat sarflari, ish haqi stavkasi va ish vaqtini miqdori, mahsulot sifatining zarur darajasi misol bo‘la oladi. Tasdiqlangan byudjet bu rejaldagi miqdor axborotini va mavjud cheklashlarni muvofiqlashtirish uchun eng muhim vositadir.

Rag‘batlantirish. Byudjet tuzish jarayoni ma’suliyat markazlarining rahbarlarini shu markazlarning maqsadlarini amalga oshirishga, demak umuman korxona maqsadini amalga oshirishga rag‘batlantirish uchun qudratlari vositadir. Har bir rahbar o‘zlarining ma’suliyat markazidan nimalarni kutishayotganini yaxshi bilishi lozim.

Agar menejerlar o‘z bo‘linmalari byudjetini ishlab chiqishda faol ishtirot etsalar, byudjetning rag‘batlantiruvchi ahamiyati yanada ortadi. Bo‘linmalar va vazifalar bo‘yicha byudjetlarni ishlab chiqishda hamda kelgusi davr uchun asosiy umumiy byudjetni tayyorlashda boshqaruvning barcha darajalarining bevosita ishtirot etishi ijrochilar ishtirotida rejalahtirish deb ataladi.

Nazorat. Byudjet uni shakllantirish paytida istakdagagi natijalar to‘g‘risidagi hisobotdir. Puxta tayyorlangan byudjet eng yaxshi standart bo‘lib, haqiqatda erishilgan natijalar unga qiyoslanadi, chunki unda byudjetni ishlab chiqish chojida faraz qilingan barcha o‘zgarishlar mujassamlashadi.

Yaqin vaqtgacha joriy natijalarni o‘tgan davrning natijalari bilan yoki o‘tgan yilning shu davri natijalari bilan qiyoslash umumiy tajriba edi. Ayrim tashkilotlarda bunday tartib hozirga qadar taqqoslashning asosiy usulidir. Lekin bunday tarixiy standartlarning muhim kamchiliqi bor, chunki ular bilan taqqoslaganda faoliyat yo‘nalishlaridagi va joriy yilga rejalahtirilgan dasturlardagi o‘zgarishlar hisobga olinmaydi.

Haqiqiy natijalarni byudjetdagi ma‘lumotlarga taqqoslash boshqaruvchilarning e’tiborini birinchi navbatda nimalarga qaratish zarurligini va zarur boshqaruv harakatlarini ko‘rsatadi. Haqiqatda erishilgan natijalar va byudjetdagi ma‘lumotlarning o‘rtasidagi chetga chiqishlarni tahlil qilish:

1) birinchi navbatda e’tibor berishni talab qiladigan muammoli soiani aniqlashda yordam beradi;

2) byudjetni ishlab chiqish jarayonida ko‘zda tutilmagan yangi imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi;

3) dastlab tuzilgan byudjet ma‘lum darajada real emasligini ko‘rsatishi mumkin.

Baho. Har oyda byudjetdan chetga chiqish (og‘ish)larni aniqlash butun yil davomida nazorat maqsadlariga xizmat qiladi. Bir yillik haqiqiy va byudjet ma‘lumotlarini qiyoslash har bir ma’suliyat markazi va ularning rahbarlaringiz ishiga yil oxirida baho berishning asosiy omilidir. Ba’zi kompaniyalarda menejerlarga mukofot uning ma’suliyat markaziga ijobiy og‘ishdan ma‘lum foiz sifatida hisoblanadi. (Masalan, tejalgan materiallar, mehnatga haq to‘lash fondidan foiz sifatida)

O‘qitish. Byudjet menedjerlarni o‘qitishning eng yaxshi vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Byudjetlarni tuzish o‘z bo‘linmalarining faoliyatini va o‘z ma’suliyat markazining boshqa markazlar va umuman tashkilot bo‘yicha o‘zarо munosabatlarni batafsil o‘rganishga yordam beradi. Bu esa ma’suliyat markazi rahbari lavozimiga yangi tayinlangan shaxslar uchun juda muhimdir. Yillik byudjetni yoki o‘z ishi byudjetini ishlab chiqishda tajribasi bor har qanday odam bu jarayonning ta’lim tabiatini tushunishi mumkin.

Umumiyligi (asosiy) byudjet. Umumiy byudjet umuman tashkilot uchun barcha bo‘linmalar bo‘yicha vazifalar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ish rejasidir. U ikki asosiy byudjetdan - operativ va moliyaviy byudjetdan iborat.

Operativ byudjet. U yana joriy, davriy byudjet deyiladi. Operativ byudjet kompaniyaning segmenti uchun yoki alohida vazifasi uchun kelgusi yilga rejalahtirilayotgan operastiyalarni ko‘rsatadi. Uni tayyorlash jarayonida faraz (prognoz) qilinayotgan sotuv va ishlab chiqarish hajmlari kompaniyaning ishlab turgan har bir bo‘limasi uchun daromadlar va xarajatlarning miqdoriy bahosiga aylanadi. Operativ byudjet foyda va zararlar to‘g‘risida byudjet (faraziy) hisobotini o‘z ichiga oladi, o‘z navbatida bu hisobot sotuv byudjeti (daromadlar byudjeti), ishlab chiqarish byudjeti (ishlab chiqarish xarajatlarning barcha asosiy elementlari bo‘yicha ayrim byudjetlarda tafsillashtirilgan holda), tovar-moddiy zaxiralar byudjeti hamda tijorat va umumiy, ma’muriy sarflar byudjeti asosida tuziladi (shakllanadi).

A. Sotuv byudjeti. Sotuv hajmining farazi byudjetni tayyorlash butun jarayonining boshlanjich va eng nozik paytidir. Sotuv rejasি yuqori rahbariyat tomonidan marketing bo'limini tadqiq qilish asosida aniqlanadi. Ko'p hollarda sotuv hajmi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari bilan chekланади. Sotuv hajmi byudjeti va uning tovar tuzilishi kompaniyaning butun faoliyati darajasini va xarakterini belgilash bilan birga boshqa byudjetlarning ko'piga ta'sir qiladi, chunki boshqa byudjetlar sotuv byudjetida belgilangan axborotga asoslanadi. Sotuv hajmi bahosini aniqlash va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq muammolar keyinroq batafsил ko'rib chiqiladi.

B. Tijorat sarflari byudjeti. Bu byudjetda kelgusi davrda xizmat va mahsulotni sotish bilan bog'liq barcha taxminiy sarflar tafsillashtiriladi. Komission haq va transport xarajatlari kabi ba'zi sarflar o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, reklama xarajatlari va katta nazoratchilarning ish haqi kabi ayrim sarflari doimiy sarflardir. Tijorat sarflari byudjetini tuzish va so'ngra uning ijrosi uchun sotuv bo'limi ma'suldir.

V. Ishlab chiqarish byudjeti. Sotuvning rejalarilayotgan hajmi natura ifodasida aniqlangandan so'ng rejalarilayotgan sotuvni va zaxiralarning zarur darajasini ta'minlash uchun ishlab chiqarish zarur bo'lgan mahsulot birligi va xizmat hajmini aniqlash mumkin bo'ladi. Rahbariyat avvalo tayyor mahsulotlar zaxirasini darajasi oldingidek qoladimi yoki u ko'paytirilishi, yoxud kamaytirilishi lozimligini aniqlashi lozim. Davr oxirida tayyor mahsulot zaxiralarining istalgan darajasi to'g'risidagi, byudjet davri boshlanishida mavjud mahsulot to'g'risidagi va sotuv birligi miqdori to'g'risidagi axborot asosida ishlab chiqarish jadvali ishlab chiqiladi.

G. Materiallarni xarid qilish, foydalanish byudjeti. Materiallarni xarid qilish va ulardan foydalanishning rejadagi ehtiyoji bir hujjatda yoki alohida mustaqil byudjetlarda tayyorlanishi mumkin. Ko'plan yagona hujjatni afzal ko'radi. Bu hujjatda ishlab chiqarish rejalarini amalga oshirish uchun xarid qilish lozim bo'lgan xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarning turlari miqdori, xarid muddati aniqlanadi. Materiallardan foydalanish ishlab chiqarish byudjetida va moddiy zaxiralarning taxmin qilingan darajasida aniqlanadi. Materiallar birligi miqdorini shu materiallarga xarid va sotuv narxlariga ko'paytirilib, materiallarni xarid qilish byudjeti olinadi¹.

D. Mehnat sarflari byudjeti. Bu byudjet rejalarilayotgan ishlab chiqarish hajmini bajarish uchun talab qilinadigan zarur ish vaqtini soatlari mahsulot yoki xizmat birligi miqdorini mahsulot birligiga mehnat soatlari sarfini ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Shu hujjatda yoki alohida hujjatda mehnat sarfi zarur mehnat sarfini mehnatga haq to'lashning tegishli soat stavkalariga taqsimlab, pul bilan ifodasi aniqlanadi.

E. Umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjeti. Bu byudjet materiallarning to'g'ri (bevosita) xarajatlardan bevosita mehnat xarajatlardan farq qiladigan nazarda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlarining batafsил rejasи bo'lib, kelgusi

davrda ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun shu xarajatlар qilinishi kerak. Bu byudjetning ikki maqsadi bor:

1) Ishlab chiqarish va unga xizmat qilish bo'yicha menejer, ishlab chiqqan barcha umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjetlarini birlashtirish.

2) Bu axborotlarni to'plab, bu sarflarni kelgusi hisob davrida mahsulotning ayrim turlariga yoki xarajatlarni kalkulyastiyalashning boshqa obyektlariga taqsimlash uchun shu xarajatlarni normativlarini hisoblash.

J. Umumiy va ma'muriy sarflar byudjeti. Bu ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq sarflardan farq qiladigan, kelgusi davrda umuman korxona bo'yicha faoliyatni davom ettirish uchun zarur bo'ladigan joriy operastiya sarflarining batafsил rejasidir. Bu axborot rejalarilayotgan davrda korxona faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlash uchun ham zarur bo'ladi. Bu byudjet elementlarining ko'pchiligi doimiy xarajatlarni tashkil etadi.

Z. Foyda va zararlar to'g'risida faraziy (prognozniy) hisobot. Byudjet tuzish bo'yicha bosh menejer yoki direktor tayyorlangan davriy byudjetlar asosida materiallardan foydalanish, mehnat sarfi va umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjetlaridagi ma'lumotlardan foydalanib, sotilgan mahsulot tannarxi farazini ishlab chiqqashi mumkin. Daromadlar to'g'risidagi axborot sotuv byudjetidan olinadi. Kutilayotgan daromadlar va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanib va tijorat xarajatlari hamda umumiy va ma'muriy sarflar byudjetlaridagi axborotlarni qo'shib, foyda va zararlar to'g'risida taxminiy hisobotni tayyorlash mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ayni shu hisobotni tuzish operativ byudjetni tayyorlash chog'idiagi so'nggi qadamdir.

Moliyaviy byudjet. Moliyaviy byudjet - bu moliyaviy mablag'larning faraz qilingan manbalari va kelgusi davrda ulardan foydalanish yo'nalishlari aks etadigan rejadir. Moliyaviy byudjetga kapital xarajatlari byudjeti, kompaniyaning pul mablag'lari byudjeti, ularga asoslanib tayyorlangan foya va zararlar to'g'risida byudjet hisoboti, buxgalteriya byudjet balansi va pul mablag'larning harakati to'g'risidagi hisobot kiradi. Umumiy byudjetni tashkil qiluvchi asosiy qismlar keltirilgan.

Kapital sarflar byudjeti. Kapital yotqizishga ehtiyojlarni aniqlash va ular uchun investisiya resurslarini olish butun boshqaruv hisobining kompleks vazifasidir. Qanday uzoq muddatli aktivlarni sotib olishni hal qilish yoki investisiyalar rentabelligini aniqlash bilan bog'liq shunday qaror qabul qilish uchun tanlangan mezon asosida byudjet tuzish muammosi paydo bo'ladi. Uzoq muddatli kapital yotqizish xususidagi axborot xarid qilishga yoki qurishga sarflar masalasiga hamda kredit uchun foiz to'lashga, foya va zararlar to'g'risidagi faraziy hisobotga daxl qilib, assosiy vositalar schetidagi qoldiqni va boshqa uzoq muddatli aktivlarni o'zgartirib, pul mablag'lari byudjetiga ta'sir qiladi. Demak, kapital sarflar bo'yicha barcha qarorlar rejalarilayotgan xarajatlarni keltirishlozim.

Barcha joriy byudjetlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Sotuv hajmining farazi byudjet tuzishda dastlabki qadam bo'ladi. Shundan so'ng tijorat sarflari

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Southern California page.

byudjeti tayyorlanishi mumkin. Ishlab chiqarish byudjeti asosida esa to‘g‘ri materiallarni xarid qilish va ulardan foydalanish byudjeti, mehnat byudjeti va ishlab chiqarish umumiylarini sarflari byudjeti ishlab chiqiladi. Ko‘p hollarda umumiylarini va ma‘muriy sarflar rejalarini, kapital yotqizish rejasini boshqaruvning yuqori darajalarida qabul qilinadi. Biroq bunday axborotning ko‘p qismi firma bo‘linmalari darajasida ishlab chiqilishi va davriy byudjetlarga kiritilishi mumkin.

Pul oqimlari farazi / Pul mablag‘lari byudjeti. Bu byudjet kompaniyaning umumiylarini rejalashtirish jarayonida eng muhim byudjet hisoblanadi, shu sababli uning asosiy maqsadlari va ishlab chiqish qoidalari keyinchalik alohida bo‘limda ko‘rib chiqiladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida farazli hisobot. Umuman kompaniya uchun moliyaviy ahvolning farazini yoki buxgalteriya balansi loyiiasini ishlab chiqish umumiylarini byudjetni tayyorlash jarayonidagi so‘nggi qadamdir. Unda rejalashtirilgan faoliyat haqiqatda amalga oshishi nazarda tutiladi.

Byudjetlardagi ma‘lumotlardan shu prognoz uchun foydalaniladi. Pul mablag‘lari byudjeti tayyorlangandan so‘ng byudjet davri oxirida pul mablag‘larining prognoz qoldiqini bilib va sof foyda hamda zarur kapital yotqizish hajmini aniqlab, buxgalter prognoz balansini tayyorlash mumkin bo‘ladi, bu balans asosiy byudjetni tuzish jarayonining qoldiq maisulidir.

Rahbariyat ayni shu nuqtada taklif etilgan umumiylarini byudjetni qabul qilish yoki rejalarni o‘zgartirib, byudjetning ayrim qismlarini yana ko‘rib chiqishni hal qiladi.

Byudjetning bajarilishi. Byudjetning bajarilishi uchun butun ma‘suliyat byudjet tuzish bo‘yicha direktorning zimmasiga tushadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatini ikki muhim jihat belgilaydi. Birinchidan, kompaniyaning barcha ma‘sul shaxslari nimalar kutilayotganini va maqsadlarni aniq va to‘g‘ri tushunishlari zarur. Kompaniyaning faoliyatiga jalb etilgan barcha shaxslar uлardan nimani kutishayotganini bilishlari va o‘z maqsadlariga qanday erishish to‘g‘risida ko‘rsatma olishlari lozim. Ikkinchidan, yuqori rahbariyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va uni rag‘batlantirish tizimi ham juda muhimdir. Byudjet tuzish jarayoni qanchalik murakkab bo‘lmasin, o‘rtalig‘da quyi darajadagi rahbarlar oliv rahbariyat qoldiq natijalardan haqiqatan manfaatdorligiga byudjetning rejalashtirilgan maqsadlari bajarilishini rag‘batlantirishiga ishonch hosil qilsalarga bu jarayon muvaffaqiyatlari bo‘ladi.

Byudjetning ijrosini baholash haqiqatda erishilgan natijalar byudjetda rejalashtirilganidan chetga chiqqanligini tahlil qilishga asoslanadi. Chetga chiqishni (og‘ishni) belgilash va ularning vujudga kelishining sabablarini aniqlash masalalari me‘yoriy xarajatlarni hisobga olish va og‘ishlarni (chetga chiqishni) tahlil qilish tizimiga bag‘ishlangan navbatdagi bobda batafsil ko‘rib chiqiladi.

Pul mablag‘lari byudjeti. Pul mablag‘larining harakatlari korxona operastiya stiklining eng muhim jihatlaridan biridir. Umumiylarini byudjetni tayyorlash doirasida pul mablag‘lari byudjeti barcha davriy byudjetlar, kapital sarflar byudjeti, foyda va zararlar to‘g‘risidagi farazli hisobot tugallangandan keyingina ishlab chiqiladi.

Pul mablag‘lari byudjeti (yoki pul oqimlari farazi) kelgusi davrdagi pul mablag‘lari tushumi va to‘lovlar rejasidan iborat. Unda umumiylarini byudjetning barcha

fazalarida rejalashtirilgan operastiylar natijasida vujudga keladigan barcha pul mablag‘lari oqimini jamlaydi. Byudjet umuman byudjet davri oxirida pul mablag‘lari schetidagi kutilayotgan pirovard qoldiqni va yilning har bir oyi uchun moliyaviy ahvolni ko‘rsatadi va shuning uchun byudjet tuziladi.

Shu tariqa pul mablag‘lari miqdori eng ko‘p va eng kam bo‘ladigan davrlar rejalashtirilishi mumkin. Pul mablag‘lari schetidagi katta qoldiq moliyaviy vositalardan mumkin bo‘lgan eng ko‘p samaradorlik bilan foydalilmaganini bildiradi. Past daraja esa korxona joriy majburiyatlarni to‘lashga qodir emasligini ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli pul mablag‘larini puxta rejalash zarur.

Pul mablag‘lari byudjetining tuzilishi va vazifalari. Pul mablag‘lari byudjeti ikki qismdan kutilayotgan pul mablag‘lari tushumi va kutilayotgan to‘lovlardan iborat. Davr mobaynida kutilayotgan tushumlarini aniqlash uchun sotish byudjetidagi axborotdan, kreditga sotish yoki naqd pulga sotish to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan, olinishi lozim bo‘lgan schetlar bo‘yicha mablag‘ to‘plash tartibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalaniлади. Shuningdek akstiyalarni sotish, aktivlarni sotish, qarz olish foiz va dividendlarni olish kabi boshqa manbalardan pul mablag‘lari oqimi rejalashtiriladi.

Kutilayotgan to‘lovlar summasi turli davriy byudjetlardan olinadi. Pul mablag‘lari byudjetini tayyorlashga javobgar shaxs davrda materiallarga va ishchi kuchiga qanday xarajatlar ko‘zda tutilganini, qanday tovarlar va xizmatlarni sotib olish zarurligini, shuningdek ularga darhol haq to‘lanishi yoki to‘lovn kechiktirish mumkinligini bilishi kerak. Shu munosabat bilan kompaniyaning to‘lovlar siyosatini va to‘lash muhlatlarini bilish juda muhimdir.

Doimiy joriy sarflardan tashqari pul mablag‘laridan uskunalarini va boshqa aktivlarni sotib olishga, qarzlarini qaytarishga va boshqa uzoq muddatli majburiyatlarni to‘lashga sarflanishi mumkin. Bu axborotlarning hammasi pul mablag‘larining to‘g‘ri byudjetini tuzish uchun to‘plash zarur bo‘ladi.

Byudjet mablag‘lari byudjeti ikki maqsadni ko‘zlaydi. Birinchidan, u byudjet davri oxirida pul mablag‘lari schetida pirovard qoldiqni ko‘rsatadi. Bu qoldiq miqdorini buxgalteriya farazli (istiqbollisi) balansi tugallanishiga qadar bilish zarur. Ikkinchidan, byudjet davri ichida har oyning oxirida pul mablag‘lari qoldiqini faraz qilib, moliyaviy resurslar ortiqcha yoki etishmagan davrlarni aniqlaydi.

Nazorat savollari:

1. Xarajatlar elementlari bo‘yicha qanday turkumlanadi?
2. Doimiy xarajatlar bilan o‘zgaruvchan xarajatlar qanday farqlanadi?
3. Moddiy xarajatlarni izohlang.
4. Byudjetning qanday vazifai mavjud?
5. Pul mablag‘lari byudjeti nima?

13-bob. BUXGALTERIYA BALANSINI TAHLILI

Reja:

1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibiy tuzilishi
2. Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishning mazmuni
3. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili
4. Firma va kompaniyalarni mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsientlardagi baholanishi.
5. Buxgalteriya balansini trend tahlili
6. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini tahlili

Tayanch so'zlar:

«Balans» atamasi, balans turlari, aktiv, passiv, uzoq muddatli aktivlar, aylanma mablag'lar, axborot hajmi bo'yicha balanslar, balans moddalari.

1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibiy tuzilishi

Buxgalteriya balansi ma'lum sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va majburiyatlarini holati haqida axborot beruvchi hisobot shaklidir.

«Balans» atamasi lotincha bis ikki marta, banx - tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikkala palla degan ma'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatalidi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (tuzilish vaqt, axborot hajmi, aks etirish obyekti, tozalash usuli) bo'yicha turlarini tarkiblash mumkin. 1-jadvalga qarang

1-jadval

Buxgalteriya balansini turlari

| Buxgalteriya balansini tuzilish yaqtiga ko'ra | | | | |
|---|---|-----------------------------------|---|---|
| Tashkil topish balansi | Joriy balanslar | Tugatish balansi | Bo'lish balansi | Birlashtirish balansi |
| Korxonaning tashkil topish vaqtida tuziladi. | Korxonaning uzlusiz faoliyatida, qonunda belgilangan muddatlarda tuziladi | Korxonaning tugatilganda tuziladi | Yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo'linish vaqtida. | Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi. |

Axborot hajmi bo'yicha balanslar

| Bir martalik | Yig'ma balans |
|--|---|
| Bir martalik balans faqat bitta korxona bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi. | Yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliliklar, qo'mita va boshqarmalar va shu kabilalar)ning xo'jalik mablag'larini aks etiradi. |
| Aks etirish obyekti ko'ra | |
| Mustaqil balans | Alohiada balans |
| Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan barcha korxonalar tuzadi. | Alohiada balansni korxonaning tarkibiy bo'limmlari (filiallar, bo'limlar, sho'ba va qaram xo'jaliklar va shu kabilalar) tuzadi. |

| Aks etirish obyekti ko'ra | |
|--|--|
| Balans-brutto | Balans-netto |
| Tartibga soluvchi moddalarini o'z ichiga oluvchi balansdir | Balansning umumiyligi qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi. |

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uzluksiz faoliyatida iqtisodiy resurslar harakatga keltiriladi va ularning tuzilishi doimo o'zgarib turadi. Ushbu o'zgarishlarni buxgalteriya balansida to'rtta jihatini harakaterlash lozim. Birinchi jihat o'zgarish aktiv va passiv tomonning o'sishini xarakterlaydi, ikkinchi jihat o'zgarishlar har ikki tomonning kamayishini, uchinchi jihat o'zgarishlar faqat aktiv tomonning o'zgarishini, to'rtinchchi jihat o'zgarishlar faqat passiv tomonning o'zgarishlarini xarakterlaydi.

2-jadval

| Buxgalteriya balansidagi o'zgarishlar | | | | |
|---|---|--|---|-----------|
| Balansdagi o'zgarishlar | A+X1=P+X1 | A-X2=P-X2 | A+X3-X4=P | A=P+X4-X4 |
| Aktiv tamon ham passiv tomon ham ortadi | Aktiv tamon ham passiv tomon ham kamayadi | Ko'payish va kamayish aktiv tomonda kuzatiladi | Ko'payish va kamayish passiv tomonda kuzatiladi | |
| Balans summasi ortadi | Balans summasi kamayadi | Balans summasi o'zgarmaydi | Balans summasi o'zgarmaydi | |

Buxgalteriya balansini moliyaviy tahlilga tayyorlash yuzasidan uning elementlari va moddalarini turli tasnifiy belgilari bo'yicha ko'rsatkichlar tizimiga jamlash talab etiladi. Bu tasnifiy belgililar ularning shakli, aylanuvchanlik darajasi, likvidligi bo'lishi mumkin.

3-jadval

| Aktivlar (A) | | | |
|--|--|---------------------|-----------------------------------|
| Uzoq muddatli aktivlar (UMA) | Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar (MBUMA) | Joriy aktivlar (JA) | Moliyaviy joriy aktivlar (MJA) |
| Pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlar (PKBM) | | | Pul ko'rinishidagi aktivlar (PKM) |
| Kiyn sotiladigan aktivlar (QSA) | Likvid aktivlar (LA) | | |

4-jadval

| Passiv (P) | | | |
|------------------------------|--------------------------------------|---------------------------------------|-----------------------------|
| Uz mablag'lari manbayi (UMM) | Majburiyatlar (M) | | |
| Xususiy kapital | Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UM) | Qisqa muddatli kredit va qarzlar (KM) | Kreditorlik majburiyati (K) |
| Doimiy passivlar (DP) | Majburiyatdagi passivlar (MP) | | |

Balansdagi ifodalar:

Umumiy ifodalar

$$A=P \quad (2.1)$$

$$UMA+JA=O'MM+M \quad (2.2)$$

$$MBUMA+MUMA+MBJA+MJA=O'MM+UM+QM+K \quad (2.3)$$

$$PKBA+PKA=DP+MP \quad (2.4)$$

Birlik ifodalar

$$UMA=MBUMA+MUMA \quad (2.5)$$

$$JA=MBJA+MJA \quad (2.6)$$

$$PKBA=MBUMA+MUMA+MBJA \quad (2.7)$$

$$LA=MUMA+MBJA+MJA \quad (2.8)$$

Moliyaviy bo'lмаган узоқ мuddatli aktivlar- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatalidigan uskunalar, kapital qo'yilmalarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy узоқ muddatli aktivlarga узоқ muddatli investitsiyalar kiritiladi.

Moliyaviy bo'lмаган joriy aktivlarga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, tovarlar, kelgusi davr harajatlari, kechiktirilgan harajatlari va debitorlik majburiyatları kiradi.

Moliyaviy joriy aktivlarga pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar kiradi

5-jadval

Aktivlarning turli shakllari o'rtaqidagi a'loqadorlik

| Aktivlar shakli | Moliyaviy bo'lмаган aktivlar | Moliyaviy avktivlar | Jami aktivlar |
|------------------------|------------------------------|---------------------|---------------|
| Uzoq muddatli aktivlar | MBUMA | MUMA | UMA |
| Joriy aktivlar | MBJA | MJA | JA |
| Jami aktivlar | MBA | MA | A |

6-jadval

Aktivlarni mazmuni bo'yicha tarkiblanishi

| Aktivlarni manbalashni mazmuni | | |
|--------------------------------|---|--|
| Xususiy (XK)* | Qarzga olingan (QK) | |
| | Tashqi qarz (TQ)** | Ichki qarz (IQ)*** |
| *-O'z mablag'lari manbasi | **-Uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar, kreditorlik majburiyatlarining tashqi qismi | ***-Kreditorlik majburiyatlarini ichki qismi |

Xususiy kapital-o'z ichiga ustav kapitali, ko'shilgan kapital, rezerv kapitali taqsimlanmagan foya va uz mablag'alari manbayining boshqa tarkiblarini (maqsadli tushumlar, kelgusi davr harajatlari va to'lovlar zaxirasasi) oladi.

7-jadval

Buxgalteriya balansini mulkiy egaligi bo'yicha tuzilishi

| | O'ziga tegishli mulk | Qarzga olingan mulk | Jami |
|---------------------------------|----------------------|---------------------|------|
| Pul ko'rinishida bo'lмаган mulk | XK (PKB) | QK(PKB) | PKB |

| | | | | |
|---------------------------------|-------|--------|--------|----|
| (PKB)=MBUMA+ | MUMA+ | | | |
| MBJA | | | | |
| Pul ko'rinishidagi mulk(PK)=MJA | | XK(PK) | QK(PK) | PK |
| Jami mulk | | XK | QK | A |

8-jadval

Buxgalteriya balansini tuzilishidagi dinamik o'zgarishlar

| | Davr boshiga debet qoldik | Xususiy mulk | Qarzga olingan mulk | Davr oxiriga debet koldiq | O'sish darajasi |
|---------------------------------------|---------------------------|--------------|---------------------|---------------------------|-----------------|
| Davr boshiga kredit koldiq'i | Ab | XKb | QKb | - | - |
| Pul shaklidagi bo'lмаган mulk (PSHBM) | PSHBMb | ^XK (PKB) | ^QK (PKB) | PSHBMo | ^PSHBM |
| Pul shaklidagi mulk (PSHM) | PSHMb | ^XK(PK) | ^QK (PK) | PSHMo | ^PSHM |
| Davr oxiriga kredit koldiq'i | - | XKo | QKo | Ao | - |
| O'sish darajasi | - | ^XK | ^QK | - | ^A |

Moliyaviy hisoboflar tarkibida buxgalteriya balansi markaziy o'rinda turadi va undagi ko'rsatkichlarni tahlil etish va baholash orqali xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoldidan voqif bo'linadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy axvoldagi o'zgarishlar albatta mulkiy va moliyaviy munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Odatda, moliyaviy munosabatlarning klassik formulasi sifatida qo'yidagi bog'lanishdan foydalaniladi.

$$\text{Pul1} \Rightarrow \text{Tovar1} \Rightarrow \text{Pul2*} \Rightarrow \text{Tovar2*} \Rightarrow \text{Pul3*} \dots \quad (2.9)$$

*tskl natijasidagi yutuq: $\text{Pul1} < \text{Pul2} < \text{P3} < \dots$

Ushbu formulani iqtisodiy jaroyonlarga nisbatan rasmiylashtirsak quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\text{PM} \Rightarrow \text{R} \Rightarrow \text{ICH} \Rightarrow \text{TF} \Rightarrow \text{XK} \Rightarrow \text{PM*} \dots \quad (2.10)$$

Bunda PM-pul mablag'lari

$\text{PM}^* - \text{TSkl}$ natijasidagi yutuq: $\text{PM} < \text{PM}^* < \text{PM}^{**} < \text{PM}^{***} < \dots$

R-resurslar

ICH-ishlab chiqarish

TF-tijorat faoliyati

XK-hisob-kitoblar

Korxona aktivlari, xususiy kapital (sarmoya) va majburiyatlar buxgalteriya balansining elementlari hisoblanadi.

Korxona aktivlari va majuriyatlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich qiymat. Aktivlar sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o'zarbo'yishuviga ko'ra belgilangan joriy qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to'lanadigan pul mablag'lari summasi

bo'yicha majburiyatlarga almashib olingen mablag'lar summasida aks ettiriladi. Joriy qiymat. Aktivlar ana shu yoki shunga o'xshash aktiv endigina sotib olingen bo'lgandagi holatda to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'yicha hisobotda aks ettiriladi.

9-jadval

Buxgalteriya balansi elementlari va ularning tasnifiy belgilari

| Buxgalteriya balansi elementlari | Tavsifi | Tarkiy tuzilishi | | |
|----------------------------------|--|---|-----------------------------|---------------------|
| Aktivlar | Subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingen iqtisodiy resurslardir | <p>Uzoq muddatli aktivlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Asosiy vositalar; -Nomoddiy aktivlar -Uzoq muddatli investitsiyalar -O'rnatiladigan asbob-uskunalar -Kapital qo'yilmalar <p>Joriy aktivlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Tovar moddiy zaxiralalar -Debitorlar -Pul mablag'lari -Qisqa muddatli investitsiyalar | | |
| Xususiy kapital (sarmoya) | Subyektnig majburiyatlarini chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir | <p>O'z mablag'lari manbasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> Ustav kapitali Ko'shilgan kapital Zaxira kapitali Taqsimlanmagan foyda Maqsadli tushumlar Kelguzi davr to'lovlar zaxirasi | | |
| Majburiyatlar | Shaxsnинг (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talba qilishga xaqlidir | <table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td>Uzoq muddatli majburiyatlar</td> </tr> <tr> <td>Joriy majburiyatlar</td> </tr> </table> | Uzoq muddatli majburiyatlar | Joriy majburiyatlar |
| Uzoq muddatli majburiyatlar | | | | |
| Joriy majburiyatlar | | | | |

Sotish qiymati. Aktivlar sotishdan olinishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar ularni to'lash qiymati bo'yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarini to'lash uchun talab etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasidir.

Diskontlangan qiymat. Aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektning oldindi faoliyati davomida aktivlarni ko'paytirishi lozim bo'lgan bo'lg'usi pul mablag'lari tushumining diskontlangan qiymati bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Majburiyatlar kelgusida o'tkaziladigan pul mablag'larining diskontlangan qiymatidan iborat bo'lgan, xo'jalik yurituvchi subyektning oddiy faoliyati

davomida majburiyatlarni to'lash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi¹.

Balans qiymati - hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlar va majburiyatlarni aks ettirish qiymatidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshlangich qiymatni baholash uchun asos qilib oladilar. Undan odatda baholashning boshqa asosiy tushunchalari bilan birgalikda foydalaniladi.

2. Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishning mazmuni

Moliyaviy hisobotni va uning shakllarini "o'qish"ga olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi.

O'qish deganda adabiy tilda matnni o'qish va tovushlarda ifoda etish tushuniladi. moliyaviy hisobotda esa bir yondashuv biroz murakkablashadi. Moliyaviy hisobotda matn yo'q, unda faqat ko'rsatkichlar, qatorlar va ularga tegishli raqamlar mayjud .

"O'qish" so'zi moliyaviy hisobotlar va ularning shakllariga nisbatan ishlatalishning mohiyati shundaki ushu hisobotlar faqat rakamlar ifodasidagi ko'rsatkichlarni tartibli joylashtirishdan iborat matnga o'xshaydi. Matni o'qish mumkin faqat undagi raqamlar nimani ifoda etishini bilgan holdagina. Sodda qilib aytganda korxona moliyaviy ahvolini moliyaviy hisobot shakllarida raqamlarda yashiringan so'zlar orqali bilib olishni xarakterlaydi.

Moliyaviy hisobotni "o'qish"ni mazmunini nima tashkil etadi. Bizningcha moliyaviy hisobotni o'qish deganda ko'rsatkichlarni arifmetik hisob-kitoblarsiz uni mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

"Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari" deb nomlangan o'quv adabiyotida ham "Kak chitat balans" o'quv adabiyotida ham kitobning nomlanishida o'qish so'ziga urg'u berilgani bilan uning ichida "o'qish"ga tasnifiy jihatdan izoh berilmaydi.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda – korxonaning muayyan sanaga bo'lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishslash jarayonlar tizimi tushuniladi.

Yuqorida manbalarda keltirilishicha buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish mazmunini quyidagilar tashkil etadi.

- korxonaning mulki, kapitali va majburiyatlarini baholash;
- kompaniya va firmalar to'lovga qobilligi va likvidlilik ko'rsatkichlarni aniqlash;
- korxonaning iqtisodi va moliyaviy salohiyati, uning smaradorligini baholash;
- korxonaning moliyaviy barqarorligi, bozor va ish aktivligi ko'rsatkichlarni baholash;

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 167 page.

- korxonaning iqtisodiy nochorligi va uni sog'lamloshtirish yo'llarini belgilash;
- korxonaning moliyaviy axvoli va uni yaxshilash yuzasidan muhxim takliflar xozirlash tashkil etadi.

Bu bilan buxgalteriya balansini “o‘qish”, tahlil etish bilan bir qatorga ko‘yilmoqda. Ya’ni, turli nomlanishdagi bir hil jihatlarni xarakterlovchi so‘zga aylanib qolgan. YUqoridagi tarkiblashda uqish va tahlil qilish kabi so‘zlarning ishlatalishida ularni bir mazmunda qarash ustunlik qiladi.

Moliyaviy hisobotni o‘qishda, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi hisobot shakllaridagi ma’lumotlarning o‘zaro mosligiga ham ahamiyat qaratiladi. Masalan buxgalteriya balansida ayrim qatorlar boshqa moliyaviy hisobot shaklining tegishli qatorlari bilan mos kelishi lozim. Bu jihat moslikni, buxgalteriya balansining asosiy vositalar moddasini, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot shakli ma’lumotlariga mosligida, pul mablag‘lari to‘g‘risidagi qatorini pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot shaklining tegishli qatorlariga mosligida, xususiy kapital to‘g‘risidagi moddalarini xususiy kapital to‘g‘risidagi shaklning tegishli qatorlariga mosligida ko‘rish mumkin.

Buxgalteriya balansini o‘qish va tahlil etish orqali korxona moliyaviy holatiga baho berishda o‘rganiladigan masalalar kengligi sababli ularni bir tizimga solib olish talab qilinadi.

Bu holatni quyidagi o‘rganiladigan boblar bo‘yicha tuzib chiqish mumkin.

10-jadval

Korxona moliyaviy holatini ifoda etuvchi birliklar

| Buxgalteriya balansini tahlili | | | | |
|---|-----------------------------|---|-----------------------------|--|
| 1.Aktivlar tarkibi. tuzilishi va dinamikasi tahlili | | 2.Passivlar tarkibi, tuzilishi va diamikasi tahlili | | |
| 3.To‘lov layoqati tahlili | 4.Likvidlik tahlili | 5.Moliyaviy barqarorlik tahlili | 6.Kreditga qodirlik tahlili | 7.Moliyaviy va iqtisodiy salohiyat tahlili |
| Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hamda bir xil jihatning boshqa tomonlarini aks ettiruvchi hisobotlar asosida o‘rganiluvchi boblar | | | | |
| 8.Bozor aktivligini tahlili | 9.Ish aktivligagini tahlili | 10.Moliyaviy holatni bashoratlash | 11.Majburiyatlar tahlili | 12.Iqtisodiy nochorlik tahlili... |
| 13.Reyting baholash | | | | |

Ushbu boblar bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi qolgan hisobot shakllari asosida o‘rganiladigan boblar bilan to‘ldiriladi va yakunida moliyaviy holatga to‘liq baho beriladi.

Buxgalteriya balansini o‘qish yuzasidan balans tuzuvchi korxonaga, uning mulkiy shakliga, faoliyat turiga, balans tuzilgan davriylikka, balans o‘lchovi va korxona yuridik manziliga tavsif berish birinchi bosqichda bajarilagan ishlar ketma ketligini xarakterlaydi.

Uqishning keyingi bosqichida korxonaning jami aktivlari va ularning tashkil topish manbalariga, korxonada aktivlarning asosiy kapitalga va joriy kapitalga

yo‘nalitirilgan qismiga, malaglar manbasida qaysi manba turining (o‘z va qarz) ustunligiga, moliyaviy faoliyat natijasi va uning qaysi shakllarda (pullik va pulsiz ko‘rinishlarda) mavjudligiga, asosiy va nomoddiy aktivlarning holatiga, majburiyatlar va ularning nisbatiga, pul mablag‘lari va ularning qo‘proq qaysi shaklda turganligiga ahamiyat beriladi.

11-jadval

Buxgalteriya balansi aktivi passivini o‘qish

| Mol-mulk tarkibi | Yil boshiga | Yil oxiriga | Mablag‘lar manbasi | Yil boshiga | Yil oxiriga |
|---|------------------------------|------------------------------|--|------------------------------|------------------------------|
| Uzoq muddatli aktivlar | 30 091 481 | 28 121 979 | O‘zlik mablag‘lari manbalari | 39 599 947 | 40 863 356 |
| Joriy aktivlar | 73 711 147 | 101 200 268 | Majburiyatlar | 64 202 681 | 88 458 891 |
| SHu jumladan: | | | SHu jumladan: | | |
| -Zaxira va harajatlar (140+190+200) | 49 294 661 | 42 807 962 | -Uzoq muddatli kredit va qarzlar (570+580+590) | 517 465 | 178 714 |
| -Debitorlik majburiyatları (210+310) | 20 511 076 | 53 776 535 | -Qisqa muddatli kredit va qarzlar (730+740) | 17 328 092 | 9 160 674 |
| -Pul mabaglari va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar(320+370+380) | 3 905 410 | 4 615 771 | -Kreditorlik qarzları | 46 357 124 | 79 119 503 |
| Balans aktivining JAMI | 103 802 628 | 129 322 247 | Balans passivining JAMI | 103 802 628 | 129 322 247 |

Korxonada jami aktivlar summasi yil boshida 103802628 sumni tashkil etgan va shundan uzoq muddatli aktivlar summasi 30091481 sumni, joriy aktivlar sumasi esa 73711147 sumni tashkil etgan. Joriy aktivlar tarkibida zaxira va harajatlar davr boshida 49294661 davr oxirida 42807962 so‘ni tashkil etgan biroz kamaygan, pul mablag‘lari davr boshida 3905410 suo‘mni davr oxirida esa 4615771 so‘mni, debitorlik majburiyatları davr boshida 20511076 so‘mni, davr oxirida 53776535 sumni tashkil etgan.

Aktivlarning manbalash yuzasidan korxona passivlari quyidagi tarkibda shakllangan. Davr boshiga 39599947 o‘zlik mablag‘lari manbasiga va 64 202 681 sum majburiyatlarga, davr oxiriga kelib esa 129322247 so‘m o‘zlik mablag‘lari manbasiga va 40863356 sum majburiyatlar summasiga ega bo‘lingan

4. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili

Buxgalteriya balansini gorizontal (bo‘ylamasiga) va vertikal (yonlamasiga) tahlili bo‘yicha olimlar tomonidan turlicha qarashlarni mayjudligi uquvchini albatta e’tiborini tortadi. Masalan; prof. M.K. Pardaev o‘zining «Moliyaviy tahlil» o‘quv qo‘llanmasida moliyaviy tahlilning asosiy shakllari sifatida gorizontal, vertikal, dinamik, makon, nisbiy ko‘rsatkichlar, omilli tahlilni keltirgan holda, shu erda gorizontal va vertikal tahlilga izoh beradi.

«Gorizontal tahlil - hisobot davrini o‘gan yil ko‘rsatkichlari bilan solishtirish»

tahlilidir.

Vertikal tahlil - tarkibiy tahlil bo‘lib tahlil qilinayotgan obyektni barcha qismlari bo‘yicha o‘rganish» dan iborat deyiladi.

Boshqa bir manbada gorizontal tahlil- moliyaviy holat tahlilida ko‘rsatkichlarni davriy va dinamik o‘zgarishlarini aniqlashni nazarda tutadi.

E’tibor bergen bo‘lsangiz, gorizontal tahlil solishtirish, taqqoslash usulining o‘zidan iborat bo‘lib qolmoqda.

Bizningcha, moliyaviy hisobotni gorizontal tahlili deganda-moliyaviy hisobot elementlari va muddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o‘tgan yilga nisbatan qiyosiy o‘rganishga aytildi.

Vertikal tahlil deganda - moliyaviy hisobot elementlari va muddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o‘rganishga aytildi.

Tahlilda har ikkala usul eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usullar orqali kompaniya va firmalarni mulki, kapitali, majburiyatlarini umumiylar va tarkibiy o‘zgarishlariga baho beriladi. Umumiy o‘zgarishlar buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida olinsa, tarkibiy o‘zgarishlar bugalteriya yoki moliyaviy hisobotga «tushuntirish xati» da beriladi.

Gorizontala va vertikal tahlil turlarini bir biridan ajratgan holda tasavvur qilish kiyin. negaki ularn birgalikda foydalilanlgandagina mazmun kasb etadi. SHu sababli gorizonatal va vertikal tahlil turlari doimo bir butunlikda olib boriladi. Sodda qilib aytganda gorizontal tahlil yonlamasiga darajalarni, vertikal tahlil esa bo‘ylamasiga darajalarni haraterlaydi.

Buxgalteriya balansi aktivining gorizontal va vertikal tahlili

1-jadval

| Mol-mulkning tarkibi | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O‘zgarishi (+,-) | | |
|---|------------------------|--------------|------------------------|--------------|-----------------------|------------|--------------------------|
| | ming so‘m | % | ming so‘m | % | ming so‘m | % | Yb ga nisba- tan % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6=4-2 | 7=5-3 | 8 |
| 1.Uzoq muddatli aktivlar | 30 091 481 | 29,0 | 28 121 979 | 21,7 | - 1 969 502 | -7,2 | -1,9 |
| 2.Joriy aktivlar | 73 711 147 | 71,0 | 101 200 268 | 78,3 | 27 489 121 | 7,2 | 26,5 |
| SHu jumladan | | | | | | | |
| 2.1.-Tovar moddiy zaxiralar (140+190+200) | 49 294 661 | 47,5 | 42 807 962 | 33,1 | - 6 486 699 | -14,4 | - 6,2 |
| 2.2.-debitorlar (210+310) | 20 511 076 | 19,8 | 53 776 535 | 41,6 | 33 265 459 | 21,8 | 32,0 |
| 2.3.-pul mabaglari va qisqa muddatli qo‘yilmalar (320+370+380) | 3 905 410 | 3,8 | 4 615 771 | 3,6 | 710 361 | - 0,2 | 0,7 |
| Balans aktivining JAMI | 103 802 628 | 100,0 | 129 322 247 | 100,0 | 25 519 619 | 0,0 | 25 |

Korxonada aktivlar summasi davr boshiga nisbatan 25519619 sumga yoki 25 %

ga ortgan. Tarkibiy tuzilishi bo‘yicha jami aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar, davr boshiga nisbatan 1969502 sumga yoki 7,2 % ga kamaygan. Joriy aktivlarning summasi esa 27489121 so‘mga yoki 7,2 % ga o‘sgan.

Joriy aktivlar tarkibida TMZ summasi davr boshiga nisbatan 6486699 so‘mga, % da 14,4 ga kamaygan. Debitorlik majburiyatlar summasi esa 33265459 so‘mga yoki 21,8 % ga ortgan. Pul mablag‘lari summasi davr boshiga nisbatan 710361 so‘mga ortgan, lekin foizdagi ulushi -0,2 ga kamaygan.

Yil boshiga nisbatan joriy aktivlarning nisbiy o‘sish darajasi 26,5 % ni, shu jumladan debitorlik majburiyatlarining o‘sisi 32 foizga, pul mablag‘larining o‘sisi 0,7 % ga ortganligini ko‘rish mumkin. Uzoq muddatli aktivlarning yil boshiga nisbatan 1,9 % ga kamayishi, shuningdek joriy aktivlar tarkibiga kiruvchi tovar moddiy zaxiralarning yil boshiga nisbatan 6,2 %ga kamayishi kuzatilgan.

Buxgalteriya balansi passivining gorizontal va vertikal tahlili

| Mol-mulkning tarkibi | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O‘zgarishi (+,-) | | |
|--|------------------------|--------------|------------------------|--------------|-----------------------|----------|-----------------------|
| | ming so‘m | % | ming so‘m | % | ming so‘m | % | Yb nisba- tan % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6=4-2 | 7=5-3 | 8 |
| 1.O‘zlik mablag‘lari anbalari | 39 599 947 | 38 | 40 863 356 | 32 | 1 263 409 | - 7 | 1 |
| 2.Majburiyatlar | 64 202 681 | 62 | 88 458 891 | 68 | 24 256 210 | +7 | 23 |
| SHu jumladan | | | | | | | |
| 2.1.-uzoq muddatli kredit va qarzlar 570+580+590 | 517 465 | 0 | 178 714 | 0 | -338 751 | - 0 | - 0 |
| 2.2.-qisqa muddatli kredit va qarzlar 730+740 | 17 328 092 | 17 | 9 160 674 | 7 | -8 167 418 | - 10 | - 8 |
| 2.3.-kreditorlik qarzlar | 46 357 124 | 45 | 79 119 503 | 61 | 32 762 379 | 17 | 71 |
| Balans passivining JAMI | 103 802 628 | 100,0 | 129 322 247 | 100,0 | 25 519 619 | - | 25 |

Korxonada passivlari summasi yil boshiga nisbatan 25519619 sumga yoki 25 % ga ortgan. Tarkibiy tuzilishi bo‘yicha jami passivlar tarkibida uz mablag‘lari manbasi, davr boshiga nisbatan 1263409 sumga ortgan, balans jamida tugan ulushi esa 7 % ga kamaygan. Majburiyatlarining summasi yil boshiga nisbatan 24256210 so‘mga yoki balans jamida to‘tgan ulushi esa 7 % ga o‘sgan.

Majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli kreditlar va qarzlar summasi 338751 sumga kamaygan, qisqa mmuddatli kreditlar va qarzlar summasi ham yil boshiga nisbatan -8167418 so‘mga kamaygan. Kreditorlik majburiyatlar summasi esa yil boshiga karaganda 32762379 so‘mga ortgan, balans jamidagi salmog‘i esa 17 % ga ortgan.

Yil boshiga nisbatan o‘z mablag‘larining manbasi 1 % o‘sishiga, majburiyatlar sumasining 23 % ga o‘sishiga erishilgan.

Majburiyatlar tarkibida qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasi 7 % ga kamaygan, kreditorlik majburiyatları hajmi esa yil boshiga nisbatan 71 % ga ortgan.

4. Firma va kompaniyalarni mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsentlardagi baholanishi

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsentlar orqali o'rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada asonlashtiradi. Moliyaviy koeffitsentlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini va birlik elementlarini o'zar o'rnashish asosida aniqlanadi. Uning umumiy va birlik ko'rsatkichlarini tarkiblash mumkin. Ushbu ifodada koeffitsent, indeks va foizlarda aniqlanadi.

Moliyaviy koeffitsentlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy axvolini aniqroq o'rganish, bilish imkonii tug'iladi.

Moliyaviy koeffitsentlarni aniqlash moliyaviy holat tahlilida tahliliy amallarni yakunida amalga oshiriladigan ish emas, balki tahlilning boshlanishidir.

Moliyaviy koeffitsentlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy ahvolini oynada aniq ko'rsatib beruvchi vosita emas, balki bir necha ko'rsatkichlarni jamlash va nisbatlash asosida mazmunga ega bo'lgan ifodaga erishish usulidir.

«Koeffitsentlar - mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi» deyiladi Tomas P. Karlin, Albert M.Maklinni «Analiz finansovix otchetov (na asnove GAAP)»kitobida. Bizningcha, moliyaviy koeffitsentlar o'zar bog'liqlik va olaqadorlikdagi (nisbatlash mezonlari buzilmagan holda) moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini umumiyl va individual birliklarda nisbatlash orqali aniqlanadigan ifodadir.

Moliyaviy koeffitsentlar moliyaviy hisobot elementlari yoki birliklarini mutlaq va nisbiy farqlanishlarda aniqlash mumkin bo'lмагan qirralarni ochib beradi.

Jahon amaliyotida moliyaviy koeffitsentlarning 100 dan ortiq ko'rsatkichi hisob-kitob qilinadi. Ularni bir tizimga solish ushbu ko'rsatkichlarni tushunish va amaliyotda qo'llashni asonlashtiradi¹.

Analitik maqsadga erishish yuzasidan ingliz olimlari Tomas P.Karlin va Albert R.Maklin moliyaviy koeffitsentlarni uchta guruhini tarkiblaydilar.

1. Likvidlilik ko'rsatkichlari;
2. Leverej ko'rsatkichlari;
3. Foydalilik ko'rsatkichlari.

Tahlil etishda ushbu koeffitsentlarni to'liq o'rganish talab etilmaydi. Balki qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda alohida tur koeffitsentlar o'rganiladi.

Korxona mulki, kapitali va majburiyatları bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsentlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Uzoq muddatli aktivlarga baho berishni nisbiy ifodalar: asosiv vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli investitsiyalarning nisbiy ifodalar. (1-ilovada hisob kitoblari keltirilgan)

3-jadval Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsentlar)

| Koeffitsentlar | Aniqlanishi | Belgilar izohi |
|---|--------------|---|
| Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsenti | Aqq/Bq | Aqq- Asosiy vositalar qoldiq qiymati Bq-Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati |
| Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti | Aeq/Bq | Aeq- Asosiy vositalarning eskirish qiymati |
| Asosiy vositalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsenti | O'mm+Umq/A | O'mm-O'z mablag'lari manbasi Umq-Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar A-Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati |
| Nomoddiy aktivlar yaroqlilik koeffitsenti | NAqq/NAbq | NAqq-Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati NAbq-Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati |
| Nomoddiy aktivlar eskirish | NAeq/NAbq | NAeq-Nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati NAbq-Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati |
| Nomoddiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi | O'mm+Umq/NA | |
| Kapital qo'yilmalarini o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi | O'mm+M/KQ | M-majburiyatlar KQ-kapital qo'yilmalar |
| Uzoq muddatli investitsiyalarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi | O'mm+Umq/Umi | Umi-uzoq muddatli investitsiyalar |
| Uzoq muddatli investitsiyalarning qoplanish koeffitsenti | ST/Umi | St-sotishdan so'f tushum |
| Uzoq mudatli aktivlarning aylanish koeffitsenti | ST/Uma | Uma-uzoq muddatli aktivlar |
| Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi | Stqf,Sf/Uma | Stqf-Soliq to'loviga qadar foya Sf-sof foya |
| Asosiy kapital rentabelligi | Stqf, Sf/Ak | Ak-asosiy kapital |
| Nomoddiy aktivlar rentabelligi | Stqf, Sf/NA | |
| Kapiatl qo'yilmalar rentabelligi | Stqf, Sf/KQ | |
| Uzoq muddatli aktivlar jami mulk tarkibidagi salmog'i koeffitsenti | Uma/BJ | BJ-balans jami |
| Asosi vositalarning uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi salmog'i koeffitsenti | A/Uma | |

2. Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalariga: joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi, tovar moddiy zaxiralari, ishlab chiqarish zaxiralari, tovarlar, tayyor mahsulotlar aylanuvchanligi, to'lovga qobililik koeffitsentlari, debitorlik qarzlarini aylanuvchanligi, joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i, pul mablag'lari, debitorlik majburiyatları va tovar moddiy

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 400 page.

zaxiralarning joriy aktivlardagi va balans jamidagi salmog'i va h.k. ko'rsatkichlar kiradi. (2-ilovada hisob kitoblari keltirilgan)

4-jadval

Joriy aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalarini (moliyaviy koeffitsentlar)

| Koeffitsentlar | Aniqlanishi | Belgilar izohi |
|---|--------------------|--|
| Joriy aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koeffitsenti | JA / BJ | JA-Joriy aktivlar BJ-Balans jami |
| Pul mablag'larning joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsenti | PM / JA, BJ | PM-Pul mablag'lari |
| Debitorlik majburiyatlarining joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsenti | DM / JA, BJ | DM-Debitorlik majburiyatları |
| Tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi va jami aktivlardagi salmog'i koeffitsenti | TMZ / JA, BJ | TMZ-Tovar moddiy zaxiralar |
| Ishlab chiqarish zaxiralarining tovar moddiy zaxiralaridagi salmog'i koeffitsenti | Ichz / JA | Ichz-Ishlab chiqarish zaxirlari |
| Joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsenti (sof oborot aktivlar) | O'mm+Umkq-Uma / JA | O'mm-O'z mablag'lari manbasi Umkq-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar Uma-Uzoq muddatli aktivlar |
| Joriy aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsenti | ST/JA | St-Sotishdan tushum |
| TMZ aylanuvchanlik koeffitsenti | ST/TMZ | TMZ-Tovar moddiy zaxiralar |
| Ishlab chiqarish zaxiralarining aylanuvchanlik koeffitsenti | ST/Ichz | Ichz-Ishlab chiqarish zaxiralar |
| Tovarlarning aylanuvchanlik koeffitsenti | ST/T | T-Tovarlar |
| Tayyor mahsulotlarning aylanuvchanlik koeffitsenti | ST/TM | TM-Tayyor mahsulot |
| Debitorli kmajburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsenti | ST/DM | DM-Debitorlik majburiyatları |
| Joriy aktivlarni rentabellik koeffitsenti | Stqf, Sf/JA | Stqf-Soliq to'loviga qadar foyda Sf-Sof foyda |
| Joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati koeffitsenti(umumiyl to'lovga qobililik) | JA/JM | JM-Joriy majburiyatlar |
| Joriy majburiyatlarning joriy aktivlarga nisbati koeffitsenti (karamlik koeffitsenti) | JM/JA | JM-Joriy majburiyatlar JA-Joriy aktivlar |
| Joriy aktivlarning uz mablag'lari manbasi bilan qoplanishi koeffitsenti | O'mm/JA | O'mm-O'z mablag'lari manbasi |

3. O'z mablag'lari manbayi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalarga:moliyaviy mustaqillik koeffitsenti, moliyaviy karamlik koeffitsenti, moliyaviy barqarorlik koeffitsenti, jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsenti, manevrlik

koeffitsenti, o'z sarmoyasi harakatchanligi koeffitsenti, qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti, o'z mablag'lari uzoq muddatli aktivlar va zaxira, harajatlarni manbalashdagi holat va boshqa ko'rsatkichlar kiradi. (3-ilovada hisob kitoblari keltirilgan)

5-jadval

O'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsentlar)

| Koeffitsentlar | Aniqlanishi | Belgilar izohi |
|---|------------------|---|
| Moliyaviy mustaqillik koeffitsenti | O'mm/BJ | O'mm-O'z mablag'lari manbasi BJ- Jami mablag'lar |
| O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti | O'mm/M | M-majburiyatlar |
| Moliyaviy qaramlik koeffitsenti | BJ/O'mm | BJ-balans jami O'mm-o'z mablag'lari manbasi |
| Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsenti | JQK/JK | JQK-Jalb qilingan kapital JK-jami kapital (BJ) |
| -O'z sarmoyasi harakatchanligi koeffitsenti | XK/O'mm | XK-Xususiy kapital |
| -O'z mablag'lari va uzoq muddatli jalb qilingan mablag'larni zaxira, harajatlarni manbalashdagi holat ko'rsatkichlari | O'mm+Umkq-Uma/ZX | Umkq-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar Uma-uzoq muddatli aktivlar Zx-Zaxira va harajatlar |
| Moliyaviy barqarorlik koeffitsenti | O'mm/Jqs | Jqs-jalb qilingan sarmoya (M) |
| Uzoq muddatli aktivlarning o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarza olingan mablag'lar bilan manbalanishi koeffitsenti | O'mm+O'mkq/Uma | Uma-uzoq muddatli aktivlar Umkq-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar O'mm-o'z mablag'lari manbasi |
| Xususiy kapital rentabeligi | Sf/XK | XK-xususiy kapital Sf-Sof foyda |

4. Qarz mablag'lari (majburiyatlar) holati bilan bog'liq bo'lgan koeffitsentlarga: qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti, qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i, uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsenti, qisqa muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsenti, kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsenti, kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsentlari va boshqa koeffitsentlarni o'z ichiga oladi. (4-ilovada hisob kitoblari keltirilgan)

6-jadval

Majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar (moliyaviy koeffitsentlar)

| Koeffitsentlar | Aniqlanishi | Belgilar izohi |
|---|-------------|---|
| Qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti | M/O'mm | M-majburiyatlar O'mm-O'z mablag'lari manbasi |
| Qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i, | M/BJ | M-majburiyatlar BJ-jam mablag'lar |
| Uzoq muddatli majburiyatlarning jami | Umm/M, BJ | Umm-uzoq muddatli majburiyatlar |

| | | |
|---|-----------|--|
| mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsenti | | M-majburiyatlar jami |
| Qiska muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i | Qmm/M, BJ | Qmm-qisqa muddatli majburiyatlar |
| Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsenti | Km/M, BJ | Km-kreditorlik majburiyatlar |
| Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsentlari | SMicht/Km | SMicht-sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi |

Prof. E.Akramov nazarii jihatdan moliyaviy koeffitsentlarni 2ta guruhga tarkiblashni tavsiya qiladi. Ya'ni:

- tarkibiy koeffitsentlar;
- nisbat koeffitsentlari koeffitsentlari.

Prof. M. To'raxodjaeva tomonidan moliyaviy koeffitsentlarni quyidagi beshta guruhga ajratgan holda o'rganish tavsiya etiladi.

1. Likvidlilik darajasini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsentlar:

- Joriy likvidlik;
- muhlatlilik;
- absolyut likvildlik;
- sof aylanma aktivlar.

2. Ish aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsentlar:

- aktivlar aylanishi
- debitorlik qarzlarining aylanishi;
- kreditorlik qarzlarining aylanishi;
- ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi;
- aylanish davriyiligi.

3. Rentabellik koeffitsentlari:

- aktivlar rentabelligi;
- sotish rentabelligi;
- korxonaga tegishli mablag'lar rentabelligi.

4. Kapitalning tarkibiy koeffitsentlari:

- moliyaviy bog'liqlik koeffitsenti;
- mulk koeffitsenti;
- kreditni muxofaza qilish koeffitsenti;
- bitta aktsianing foydalilik koeffitsenti.

5. Bozor aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsentlar:

- aktsiya bahosi va foya nisbati;
- aktsianing daromadligi;
- aktsianing balansdagi qiymati;
- to'langan dividendlar salmog'i.

Moliyaviy koeffitsentlarni statik, dinamik, va o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan o'rganishning ham bir qator kamchiliklari mayjud. Ya'ni, moliyaviy koeffitsentlar korxona moliyaviy holatini to'la ochib berolmasligi, nisbiy ifodada o'lchanishi,

davomiylikka amal etmaslik hollari shular jumlasidandir.

Moliyaviy koeffitsentlarning asosiy qismi buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shakllarini ko'rsatkichlaridan aniqlanadi. To'g'ri, asosiy vositalarning holati va harakati, pul oqimi va xususiy kapital tug'risidagi hisobot shakllaridagi birliklar ham moliyaviy koeffitsentlarni aniqlashda qatnashadi. Ammo, ushbu birliliklarning buxgalteriya balansida aks etgan umumiy holati ko'rsatkichlarni aniqlashga va baholashga yetarli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobtlarning boshqa shakllari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatoriga operatsion daromadlar, operatsion harajatlar, bozor aktivligi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Operatsion daromad ko'rsatkichlariga: yalpi tushum, yalpi daromad, operatsion foya, sof foya koeffitsenti ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Operatsion harajatlar ko'rsatkichlariga: sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, sotish harajatlari, ma'muriy harajatlar koeffitsenti ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

5. Buxgalteriya balansini trend tahlili

Trend tahlili moliyaviy hisobot elementlari va ko'rsatkichlarni joriy davrga bo'lgan holatini bazis yili yoki asos yili ko'rsatkichi bilan o'rganishni xarakterlaydi. Trend tahlili-bu moliyaviy holat ko'rsatkichlarni bazis davri va oldindi yillarga nisbatan o'zgarishlarni o'rganishni xarakterlaydi.

Buxgalteriya balansini trend tahlili inflyatsiya ta'siri kuchli bo'lgan hollarda aniq o'zgarishlarni ifoda eta olmaydi. SHu sababli ko'pincha uzoq davriylikdagagi o'zgarishlarni baholash samarasiz natijalarni keltirib chikaradi. Ko'rsatkichlarni bunday hollarda nisbiy ifodalar asosida baholashga o'tish samarali vosita hisoblanadi. Negaki nisbiy ifodalar bir o'lchamli (1 eki 100 ga nisbatan) ifoda bo'lganligi sababli sigimiylik darajasi bo'yicha qayta hisoblashlarni talab etmaydi.

Trend tahlili asosida buxgalteriya balansini tarkibiy tuzilishini qayta tuzib chiqish talab etilmaydi, faqat uning taqqoslash qatorlari kengaytiriladi xalos. Trend tahlilini ko'pincha asos tahlili ham deb yuritishadi. Mazmun jihatdan bu nomlash to'g'ri hisoblanadi.

Trend tahlilining o'ziga hos xususiyatlari sifatida quyidagilarni tarkiblash mumkin:

- -trend tahlili uzoq davriylikni qamrab oladi va yakin kelajakni moliya rejasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- -trend tahlili moliyaviy korxona moliyaviy faoliyatining barcha jihatlarni to'la ochib berishga imkon beradi;
- -Trend tahlil qiska davriylikda namoyon qilib bo'lmaydigan jihatlarni ham ochib beradi;
- -trend tahlili axborotlarning bir necha yillik bazasidan foydalanadi;
- -moliyaviy hisobot elementlari, moddalari, ko'rsatkichlarni taqqoslash oraliq'i mustaqil belgilanadi.

| Aktivlar tarkibi | Buxgalteriya balansini trend tahlili | | | | | | | | | | | | 1-jadval | |
|------------------|--------------------------------------|------|--------------------|------|--------------------|------|-------------------|------|-------|-------|-------|-------|----------|------|
| | 2009- yil 1-yanvar | | 2010- yil 1-yanvar | | 2011- yil 1-yanvar | | 2012-yil 1-yanvar | | Farqi | | | | | |
| | summa | % | summa | % | summa | % | summa | % | summa | % | summa | % | summa | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| UMA | 1243 | 25.4 | 1456 | 34.4 | 2145 | 21 | 2564 | 21 | 1321 | -4.4 | 1108 | -13.4 | 419 | - |
| JA | 3654 | 74.6 | 4768 | 65.6 | 8123 | 79 | 9711 | 79 | 6117 | +4.4. | 4943 | +13.4 | 1588 | - |
| Aktiv jami | 4897 | 100 | 4224 | 100 | 10268 | 100 | 12275 | 100 | 7438 | - | 6051 | - | 2007 | - |
| O'MM | 2732 | 55.7 | 1564 | 37 | 4168 | 40.5 | 5175 | 42.1 | 2443 | -13.6 | 3611 | +4.9 | 1007 | +1.6 |
| M | 2165 | 44.3 | 2660 | 63 | 6100 | 59.5 | 7100 | 57.9 | 4935 | +13.6 | 4440 | -4.9 | 1000 | -1.6 |
| Passiv jami | 4897 | 100 | 4224 | 100 | 10268 | 100 | 12275 | 100 | 7378 | - | 8051 | - | 2007 | - |

Belgilar izohi:

UMA-Uzoq muddatli aktivlar, JA-Joriy aktivlar, O'MM-o'z mablag'lari manbasi, M-majburiyatlar

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki joriy davrda korxona aktivlari va passivlarining tarkibiy tuzilishida uzoq muddatli aktivlarning salmog'i 21 foizni unga mos ravishda joriy aktivlarning salmog'i 79 foizni tashkil etgan. Malbag'lar manbasining tuzilishi bo'yicha 42.1 foiz mablag' o'z mablag'lari manbayi qatoriga, 57.9 foizi majburiyatlar qatoriga to'g'ri kelgan. Joriy davrda bazis yiliga nisbatan o'zgarish uzoq muddatli aktivlar qatori bo'yicha +419 ming so'mga, joriy aktivlar qatori bo'yicha o'sish esa +1588 ming so'mga teng bo'lgan. Aktivlarni manbalash qatori bo'yicha bazis yilga nisbatan o'zgarishlari mos ravishda o'z mablag'lari manbasi bo'yicha +1007 ming so'mga, majburiyatlar qatori bo'yicha +1000 ming so'mga teng bo'lgan.

Korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasi bazis yiliga nisbatan juda tushib ketgan. Keyingi yillarda bo'yicha esa bir oz ko'tarilish kuzatilgan.

6. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini tahlili

Aktivlar- subyekt nozorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Aktivlar- xo'jalik yurituvchi subektlar qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy va nomoddiy resurslari, pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlaridan iborat tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan resurslardir.

Aktivlar- xo'jalik yurituvchi subyektning avvalgi bitimlari va boshqa voqealarining natijasidir. Aktivlar- sotib olish, o'zida yaratish va qurish, shuningdek boshqa bitimlar va voqealar asosida egalik qilish yo'llari bilan shakllantiriladi.

Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar aktivlarni paydo bo'lishiga olib kelmaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlari o'z aktivlaridan mulkni, tovarlarni, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni boshqarish uchun foydalanadilar¹.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Masalan: aktivlardan tovarlar ishlab chiqarishda foydalanish, majburiyatlarni bajarishda foydalanishi, boshqa aktivlarga almashtirish va h.k. tartibda.

Aktivlar turli shakllarda ya'ni jismoniyo ko'rinishga ega bo'lishi, nomoddiy ko'rinishda bo'lishi, majburiyat shaklida, biologik aktiv ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Korxonalarning moliyaviy holati ko'pincha korxona qanday aktivlarga va ularning qaysi darajasiga ega ekanligi bilan belgiladi. SHU sababli moliyaviy holat tahlilida aktivlarni shakllantirish va ularni moliyalash manbalariga ega bo'lish tahlilda alohida bob sifatida o'rganiladi.

Aktivlarni moliyavlashtirish albatta korxonaning mulkiy va tashkiliy tuzilishiga karab tubdan farq etishi mumkin².

O'z o'zini mablag' bilan ta'minlash darajasini ifoda etuvchi va korxoanining moliyaviy mustaqilagini belgilab beruvchi xususiy kapitalning qiymati aktivlarni manbalashda asosiy manba hisoblandi.

Aktivlarni shakllantirishning o'ziga tegishli manbalarini va qarzga olingan mablag'lari tarkiblanadi. Aktivlarni moliyalashtirishning o'ziga tegishli manbalariga quyidagi manbalar kiritiladi.

2-jadval Aktivlarni moliyalashtirishning o'ziga tegishli manbalar

| O'ziga tegishli manbalar | Maqsadli tushumlar | Kelgusi davr harajatlari va to'lovlar uchun zaxiralari |
|---|--------------------|--|
| Xususiy kapital: ▪ Ustav kapitali ▪ Qo'shilgan kapital ▪ Rezerv kapitali ▪ Sotib olingan xususiy aktsiyalar ▪ Taqsimlanmagan foyda | | |

3-jadval

Aktivlarni moliyalashtirishning qarzga olingan manbalar

| Kreditorlari bo'yicha | Jalb etish mexanizmi bo'yicha | Shakli bo'yicha | Muddati bo'yicha |
|----------------------------|-------------------------------|--------------------------|------------------|
| Banklar | Kredit | Pul mablag'lari shaklida | Uzoq muddatli |
| Boshqa moliya institutlari | Qarz | Mulk shaklida | O'rta muddatli* |
| Tashkilotlar | Kreditorlik majburiyati | Qo'shma shakllarda | Qisqa muddatli |

² Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Southern 421 page.

| | | | |
|-------------------|--|----------------|--|
| Davlat | | Huquq sifatida | |
| Jismoniy shaxslar | | | |
| Xorijiy manbalar | | | |

*-o'rtta muddat amaldagi tariblar bo'yicha rasmiy jihatdan belgilanmagan

Korxona aktivlari uzoq muddatli va joriy aktivlarga tarkiblanadi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibida sosiy vositalar, nomoddiy aktivlar qiymati uzoq muiddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan uskunalar va kapital qo'yilmalar, uzoq muddali debitorlik qarzlar va muiddati kechiktirilgan harajatlar summalar aks etadi.

Joriy aktivlar qatorida tovar moddiy zaxiralar, kelgusi davr harajatlari, muiddati kechiktirilgan harajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlar, pul mablag'lari, qisqa muiddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar aks etadi.

Aktivlarni moliyaviy manbalashda o'zlik mablag'lari, xususiy kapital muhim manba hisoblandi. Shu sababli oborot mablag'lar nakdligini baholashda o'z mablag'lari manbalari summasidan uzoq muiddatli aktivlar summasi chegiriladi. Farqlanishda ijobjiy jihat joriy aktivlarni moliyalashtirishga yunaltiriladi.

4-jadval

Korxona aktivlari va ularning tarkiblanishi

| Balansdagi aktivlar | | Joriy aktivlар | |
|---|------|---------------------------------|-----|
| Uzoq muiddali aktivlar | satr | Tovar-moddiy zaxiralar | 140 |
| Asosiy vositalar | 010 | Kelgusi davr harajatlari | 190 |
| Nomoddiy aktivlar | 020 | Kechiktirilgan harajatlar | 200 |
| Uzoq muiddatli investitsiyalar | 030 | Debitorlar | 210 |
| O'rnatiladigan asbob-uskunalar | 090 | Pul mablag'lari | 320 |
| Kapital qo'yilmalar | 100 | Kisqa muiddatli investitsiyalar | 370 |
| Uzoq muiddatli debitorlik qarzlar | 110 | Boshqa joriy aktivlar | 380 |
| Uzoq muiddatli kechiktirilgan harajatlar | 120 | | |
| Balansdan tashqari aktivlar | | | |
| Operativ ijara olingan asosiy vositalar | | | 001 |
| Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiyamatliklar | | | 002 |
| Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar | | | 003 |
| Komissiyaga qabul qilingan tovarlar | | | 004 |
| O'rnatishtirish uchun qabul qilingan uskunalar | | | 005 |
| Qat'iy hisobot blankalari | | | 006 |
| To'lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi | | | 007 |
| Olingan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti | | | 008 |
| Berilgan majburiyat va to'lovlarining ta'minoti | | | 009 |
| Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar | | | 010 |
| Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar | | | 011 |
| Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan harajatlar | | | 012 |
| Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha) | | | 013 |
| Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari | | | 014 |

Odatda, uzoq muiddatli aktivlarni moliyalashtirishda uzoq muiddatli kreditlar va qarzlardan foydalaniladi.

Qisqa muiddatli kreditlar va qarzlar esa joriy aktivlarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Aktivlarni moliyalashtirish manbalari o'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar kiritiladi. Balans moddalari bo'yicha ularni quyidagicha tarkiblash mumkin.

5-jadval

Aktivlarni moliyalashtirish manbalari yoki korxona buxgalteriya balansi passisivi moddalari

| Buxgalteriya balansi passivi | |
|--|---|
| Uz mablag'lari manbasi | Majburiyatlar |
| Ustav kapitali | Uzoq muiddatli majburiyatlar |
| Qo'shilgan kapital | -Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muiddatli qarz ^{*1} |
| Rezerv kapitali | Joriy majburiyatlar |
| Sotib olingan xususiy aktsiyalar | -Ajratilgan bo'linmalarga qarz ^{*2} |
| Tagsimlannagan foyda | |
| Maqsadli tushumlar | |
| Kelgusi davr harajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar | |

Buxgalteriya balansining klassik formulasи.

$$\text{Aktiv} = \text{Kapital} + \text{Majburiyat} \quad (2.12)$$

Buxgalteriya balansini aktiv va passivlari tahlilida uning umumlashgan va birlik ko'rsatkichlariga hamda ularning o'zgarishlariga baho beriladi. Taqoslash bazasi sifatida yil boshi yoki o'tgan yil ma'lumotlari olinadi.

Buxgalteriya balansini aktivi va passivi, ularni maqsadli joylashtirish tadbirkorlik faoliyatining muhim omili hisoblanadi. Korxona faoliyatning birinchi kunida uz biznesini yulga ko'yar ekan albatta dastlabki kapitalni o'zoq muiddatli va oborot aktivlarni shakllantirish uchun mos qiyatda shakllantirishga ahamiyat beradi va uni moliyalashtirishga yo'naltiradi. Lekin doimo ham tadbirkor uz biznesni tulik moliyalashtirish byuzasidan uz kapitaliga ega bo'lavermaydi. Ana shunday xollarda garov evaziga kredit va qarz munosabatlariha o'tiladi.

Aktivlarni joylashtirishda aniq moyoriy nisbat belgilanmaydi. Lekin ularni moliyalashtirish manbalari yuzasidan bu nisbatni qaysidir jihatdan aniq belgilab olish mumkin. masalan jam manbalar tarkibida doimo korxona ulushi, xususiy mablag'lar ulushi 50 foizdan kam bo'lmashligi lozim. Bu mablag' uzoq muiddatli aktivlarni va joriy aktivlarni to'la molilashtirishga etmaydi albatta. SHu sabali ham ushbu manbani qaysi qismi uzoq muiddatli aktivga, qaysi qismi joriy aktivga yunaltirilganligini balans ma'lumotlari asosida aniqlab bo'lmaydi. Bunda faqat umumiy jihatlargina hisobga olinadi halos. Aktivlarni to'g'ri joylashtirish va ularni

moliyalashtirishni to‘g‘ri tashkil etish korxona moliyaviy faoliyatini va uning natijaviyligini belgilab beruvchi omil hamdir. SHu sababli aktivlarni joylashtirishda albatta samaradorlik, natijaviylik, majburiyatlarning qoplanishi, mablag‘larning aylanuvchanligini tezlashishi kabi jihatlarini hisobga olish talab etiladi.

Aktivlarni joylashtirishning eng muhim jihatlarini quyidagi qatorlarini tuzib chiqish lozim

-Aktivlarni joylashtirishda asosiy etibor ishlab chiqarishni ilg‘or texnika va texnologiya bilan kurollantirishga karatilmogi lozim;

-aktivlarni joylashtirishda ishlab chiqarish zaruriyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy resurslarni eng maqbul normasini shakllantirish lozim;

aktivlarni joylashtirishda joriy aktivlar tarkibida likvid mablag‘larning harakatchanligini ta‘minlash yuzasidan ularning javobgarlik markazlarini tashkil etish;

-aktivlarni joylashtirishda ularning samara berish omiliga muhim ahamiyat karatish lozim;

-Aktivlarni joylashtirishda ularning nazoratligini kuchaytirishga imkon beruvchi usullardan foydalanish va.x.k.

Buxgalteriya aktivi va passivi moddalarini joylashtirish holati va ularning ahamiyatlari jihatlarini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

6-jadval

| № | Mol-mulkning tarkibi | Buxgalteriya balansi aktivining tahlili | | | | | | |
|----|--|---|-------|-------------|-------|------------------|--------|------------------------|
| | | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O‘zgarishi (+,-) | | |
| | | ming so‘m | % | ming so‘m | % | ming so‘m | % | Yil boshiga nisbatan % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6=4-2 | 7=5-3 | 8 | |
| 1 | Uzoq muddatli aktivlar | 30091481 | 29,0 | 28121979 | 21,7 | -1969502 | -7,2 | -1,9 |
| 2 | Oborot aktivlar | 73711147 | 71,0 | 101200268 | 78,3 | 27 489 121 | 7,2 | 26,5 |
| | SHU jumladan | | | | | | | |
| a) | Zaxira va harajatlar (140+190+200) | 49294661 | 47,5 | 42807962 | 33,1 | - 6 486 699 | - 14,4 | - 6,2 |
| b) | Debitorlar (210+310) | 20511076 | 19,8 | 53776535 | 41,6 | 33265459 | 21,8 | 32,0 |
| v) | Pul mabagli va kimmatli kogozlar (320+370+380) | 3905 410 | 3,8 | 4615771 | 3,6 | 710361 | -0,2 | 0,7 |
| | Balans aktivining JAMI | 103802628 | 100,0 | 129322247 | 100,0 | 25519 19 | 0,0 | 25 |

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxonada jami aktivlar summasi davr boshiga nisbatan 2551919 so‘mga ortgan.Jami aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar davr boshida 30091481 so‘mni, davr oxirida esa 28121979 so‘mni tashkil etgan holda mutlaq o‘zgarish -1969502 so‘mga teng bo‘lgan. Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i ham mos ravishda 29 foizdan 21.7 foizga tushib ketgan.

Joriy aktivlarning summasi davr boshiga nisbatan +27489121 so‘mga ortgan. Jami aktivlardagi salmog‘i esa 71 foizdan 78.3 foizga ko‘tarilgan.

Joriy aktivlar tarkibida davr boshiga nisbatan zaxira va harajatlar summasi - 6486699 so‘mga kamaygan, debitorlar summasi 33265459 so‘mga,pul mablag‘lari summasi esa 710361 so‘mga ortganligini kuzatish mumkin, Joriy aktivlar qatorida eng qori salmoq zaxira va harajatlar va debitorlik majburiyatları qatoriga to‘g‘ri kelgan.

7-jadval

Buxgalteriya balansi passivining tahlili

| № | Mol-mulkning tarkibi | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O‘zgarishi (+,-) | | |
|----|---|-------------|-----|-------------|-----|------------------|-----|------------------------|
| | | ming so‘m | % | ming so‘m | % | ming so‘m | % | Yil boshiga nisbatan % |
| 1 | O‘zlik mablag‘lari manbalari | 39599947 | 38 | 40863356 | 32 | 1263409 | -7 | 1 |
| 2 | Majburiyatlar | 64202681 | 62 | 88458891 | 68 | 24256210 | 7 | 23 |
| | Shu jumladan | | | | | | | |
| a) | uzoq muddatli kredit va qarzlar (570,580,590) | 517465 | 0 | 178714 | 0 | -338751 | -0 | -0 |
| b) | qisqa muddatli kredit va qarzlar 730,740 | 17328092 | 17 | 9160674 | 7 | -8167418 | -10 | -8 |
| v) | kreditorlik qarzlar (770) | 46357124 | 45 | 79119503 | 61 | 32762379 | 17 | 71 |
| | Balans passivining JAMI | 103802628 | 100 | 129322247 | 100 | 25519619 | - | 25 |

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxonada kapital va majburiyatlar summasi davr boshiga nisbatan 2551919 so‘mga ortgan. Jami mablag‘lar manbasi tarkibida o‘z mablag‘lari manbasi davr boshida 39599947 so‘mni, davr oxirida esa 40863356 so‘mni tashkil etgan holda mutlaq o‘zgarish +1263409 so‘mga teng bo‘lgan. O‘z mablag‘lari manbasini balans jamidagi salmog‘i mos ravishda 38 foizdan 32 foizga tushib ketgan.

Majburiyatlar summasi davr boshiga nisbatan +24256210 so‘mga ortgan. Ularning jami mablaglar manbasidagi salmog‘i esa 62 foizdan 68 foizga ortgan.

Jami majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar summasi davr boshiga nisbatan -8167418 so‘mga jami kapital tarkibidagi salmog‘i esa 10 darajaga kamaygan. Kreditorlik majburiyatları summasi esa 46357124 so‘mdan 79119503

so‘mga ortgan. Balans jamiga nisbatan o‘zgarishlar mos ravishda 45 foizdan 61 foizga ko‘tarilgan.

O‘z mablag‘larining davr boshiga nisbatan o‘sishi 1 foizni, majburiyatlarning o‘sishi esa 23 foizni tashkil etgan. Majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlarini o‘sishi eng yuqori darajani ya’ni 71 foiz o‘sishiga erishilgan.

Aktivlar va passivlar tahlili yuzasidan quyidagi muammoli jihatlarni qarab chiqish va ularning nazariy va amaliy echimini topish lozim deb o‘ylaymiz:

Birinchidan; aktivlarni tarkiblanishida muammo mavjud. Rivojlangan mamlakatlar buxgalteriya balansini kuzatadigan bo‘lsak (Angliya, Amerika, Frantsiya, Germaniya va h.k.) aktivlar likvidlilik darajasi bo‘yicha ya’ni avval likvid va tez likvid mablag‘lar, oxirida uzoq muddatda pulga aylanuvchi aktivlar joylashtiriladi.

Ikinchidan; aktivlar qatoriga kiruvchi zararlar passiv tomonnni kamaytiruvchi qator sifatida beriladi. Zarar summasini passiv tamonda chegiriluvchi qator sifatida berilishi va uning xususiy kapital summasini aniqlashda chegiriluvchi qator sifatida olinishi ziyon summasini yo‘q qilmaydi.

Aktivlar qatoridagi aylanma aktivlar bo‘yicha aniq fikrlar yo‘q. Negaki aylanma aktivlar, joriy aktivlar, oborot aktivlar, aylanma mablag‘lar, joriy mablag‘lar, oborot mablag‘lar kabi so‘zlar bitta mazmunda ishlataladi.

Nazorat savollari:

1. Buxgalteriya balansini tahlil qilishning mazmuni nimalardan iborat?
2. Moliyaviy holat tahlilida qanday usullardan foydalaniladi?
3. Mol-mulk tarkibini tahlilida nimalar o‘rganiladi?
4. Zaxira va xarajatlarni qoplashga o‘zlik manbalarining yetarliligi yoki etishmasliligini qanday aniqlash mumkin?
5. Mol-mulkning harakatchanligi qanday tahlil qilinadi?
6. Qarz majburiyatlarining tarkibi nimalardan iborat?
7. Aylanma mablag‘larning aylanishi qanday aniqlanadi?
8. Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlatish uchun qanday tadbirlar zarur?
9. Balansning tarkibi qanday nisbatda bo‘lgani maqsadga muvofiq?

14-bob. LIKVIDLIK VA TO‘LOV LAYOQATINI TAHLILI

Reja:

1. Korxonalarda likvidlilik va aylanma aktivlar tushunchasi.
2. Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlili
3. Likvidlilikda aylanma kapital o‘lchovi
4. Aylanma mablag‘larning aylanishini tahlili
5. Joriy likvidlilik koeffitsientining maxraji
6. Korxonaning tolov layoqatini baholash ko*rsatkichlari.
7. Korxonaning to‘lov layoqati ko*rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi.

Tayanch so‘zlar:

To‘lov qobiliyati, pul mablag‘lari, jo‘natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor qarz, sotishdagi tushum, pul mablag‘lari, jo‘natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum.

1. Korxonalarda likvidlik va aylanma aktivlar tushunchasi

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida balans ma’lumotlari asosida korxona aktivlarining holatini o‘rganishda ularning pulga aylanuvchanligiga baho berish tahlilning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday tahlilning zaruriyati bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qattiq moliyaviy cheklanishlarning paydo bo‘lishi va olingan qarzlarни qaytarish imkoniyatlarini o‘z vaqtida hisoblab baho berishda ko‘rinadi. Ayniqsa, to‘lov majburiyatlarining muddati korxona mulki faoliyat natijasida pulga aylanish muddatiga mos kelishi moliyaviy holatni yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatadi. SHU bois korxona aktivlarining harakatchanligini tahlil qilgan holda qarzlarни qaytarishga yetarli yoki etishmasligi muntazam o‘rganilishi lozim¹.

Likvidlilik bu aktivlarning pulga aylanishi qibiliyati yoki qisqa muddatli majburiyatlarni qondirish maqsadida pulga ega bo‘lish demakdir. Qisqa muddat odatda bir yilgacha bo‘lgan davr sifatida qaralsada, u ma’lum bir korxonaning faoliyat tsikliga tenglashtiriladi(xom-ashyo sotib olib, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotib, sof tushum kelib tushgungacha bo‘lgan davr sifatida qaraladi).

Likvidlilikning ahamiyati kompaniyaning qisqa muddatli majburiyatlarini qondirishga qurbi yetmasligi oqibatida namoyon bo‘ladi. Likvidlilik darajani ko‘rsatib beruvchi indikator hisoblanadi. Likvidlilikning past darajasi kompaniya qulay chegirmalar va foyda olishida to‘sinqil qiladi. Likvidlilik muammolarining ko‘pi joriy majburiyatlarini qoplashga qurbi yetmasligida namoyon bo‘lyapti. Bu esa o‘z navbatida sarmoyalarini va boshqa aktivlarini noilojlikdan past narxda sotishga olib keladi va ko‘pgina hollarda esa bankrotlik bilan yakunlanadi.

Kompaniya aksiyadorlariga esa likvidlilik yetishmasligi ularning xo‘jayinlik nazoratini yoki investitsiya kapitallarini yuqotayotganligidan bashorat aytishi mumkin. Agar kompaniya egalari hamma javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 406 page.

bo'lsa, ya'ni xususiy yoki sherklik firmasi bo'lsa, likvidlilik yetishmasligi ularning shaxsiy mol-mulklariga ham xavf uyg'otadi. Kompaniya kreditorlari uchun likvidlilik yetishmasligi foizlar yig'ishni yoki asosiy to'lovlarni kechiktirish orqali ko'rilgan zararda namoyon bo'ladi. Shuningdek, kompaniya xaridorlari va ta'minotchilari ham qisqa muddatli likvidlilik muammolaridan aziyat chekadilar. Bular shartnoma majburiyatlar bajarilmaganida yoki xaridor va ta'minotchilar va kompaniya o'rtasidagi munosabatlar buzilganida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi holatlar bir kompaniya tahlilida likvidlilik chora tadbirdari qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Agar kompaniya o'z joriy majburiyatlarini qoplashga qurbi yetmasa, uning bundan keying faoliyati shubha ostiga olinadi. Garchi buxgalteriya hisob-kitoblari kompaniyaning abadiy mavjudligini taxmin qilsada, bizning tahlil esa likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari orqali bu taxmin haqiqiyligini baholaydi.

Balans likvidligi bu – balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqd pulga aylanadigan mablag'lar bilan shu davrda qaytariladigan majburiyatlarni solishtirish demakdir.

Pulga aylanish tezligiga qarab, korxona aktivlari quyidagi guruhlarga ajratiladi yani: doimiy harakatdagi aktivlar; tez sotiluvchi aktivlar; sekin sotiluvchi aktivlar hamda qiyin sotiluvchi aktivlarga.

Doimiy harakatdagi aktivlar guruhiga barcha pul mablag'ları va qisqa muddatli moliiyaviy quylmalar, ya'ni qimmatli qog'ozlari kiradi. Bunday aktivlar doimo qarz majburiyatlarni to'lash uchun tayor turgan mablag' hisoblanadi va pul mablag'i ko'p bo'lgan korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni o'zaro hisob-kitoblarni kelishilgan muddatlarda bajarish imkonini beradi.

Tez sotiluvchi mulklarga balansning II bo'lim aktividagi debitor qarzlar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bu mablag'lar ham surur bo'lgan hollarda to'lov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Sekin sotiluvchi aktivlarga balansning «Tovar-moddiy zahiralar» jami tushunilib, naqd pul mablag'ları etishmagan hollarda to'lov majburiyatlarni qoplashga sarflanishi mumkin. Qiyin sotiluvchi guruhlarga esa «Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar» kiradi. Bu mulk turli ishlab chiqarishda uzoq muddat qatnashib, o'z qiymatini asta-sekin yaratilayotgan mahsulotlarga o'tkazib beradi. SHuning uchun ham asosiy vositalarning pulga aylanib, to'lov vositasi va majburiyatlarni uzishga manba bo'lishi ko'p vaqtini talab etadi.

Mablag'larning aylanish holatini tahlil qilishda joriy va kelgusi davrda kutiladigan harakatchanlik ko'rsatkichlarini o'rganish zarur. Mablag'larning joriy harakatchanligi doimiy va tez sotiluvchi aktivlar bilan muddati etgan to'lov majburiyatlar va qisqa muddatli passivlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Kelajakda kutiladigan harakatchanlik ko'rsatkichi esa sekin sotiluvchi aktivlar bilan o'rta va uzoq muddatli passivlarni solishtirish orqali o'rganiladi. Bunda korxonaning kelgusida muljallangan har xil tushumlar bilan kelajak to'lovlarni oldindan bashorat qilish mumkin.

Korxona balansining likvidlilik darajasiga har xil omillar, korxona aktivlarining, passivlarining tarkibiy o'zgarib turishlari ta'sir ko'rsatadi. Bu

omillarning ta'sirini bilish uchun balans likvidligini tahlil qilishda yana bir guruh ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Kapital likvidlilikning keng ishlatiladigan o'chovidir. **Aylanma kapital** joriy aktivlarning joriy majburiyatlardan ortiqligini ifodalaydi. Likvidli aktivlar kreditorlar uchun xavfsizlik yostiqchasini ta'minlab berganligi uchun ham juda muhim hisoblanadi. Asosiy kapital, shuningdek, naqd pul kirim-chiqimi bilan bog'liq kontengensiya va mavhumliklarini qoplash uchun mavjud bo'lgan likvidlik.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rindiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo'yilgan to'rtta shartdan birinchisi yil boshida ham, yil oxirida ham bajarilmagan. Ya'ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni qoplashga etishmas ekan. Bu esa korxona balansining tez likvidlikka ega emasligidan dalolat beradi. qolgan shartlar esa yil boshiga ham, yil oxiriga ham bajarilgan. Bundan ko'rindiki, korxona balansi mutloq likvidlikka ega bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, korxona balansining likvidligi yil boshiga nisbatan yil oxirida bir qadar yaxshilangan. Bunday natijalarini ijobjiy baholsak ham bo'ladi.

Umuman olganda, quyidagi shartlarga amal qilinsa, korxona mablag'i harakatchan deb baholanadi:

- a) doimiy harakatdagi aktivlar > muddati kelgan to'lov majburiyatlar;
- b) tez sotiluvchi aktivlar > qisqa muddatli passivlar;
- v) sekin sotiluvchi aktivlar > o'rta va uzoq muddatli passivlar;
- g) qiyin sotiluvchi aktivlar < doimiy passivlar

1-jadval

Balans aktiv va passiv moddalarining harakatchanligini (likvidligini) tahlili

| Aktiv | Yil boshiga | Yil oxiriga | Passiv | Yil boshiga | Yil oxiriga | To'lash uchun mablag'larning yetarliligi (+) yoki etishmasligi (-) | (ming so'mda) |
|--|---------------|---------------|---|---------------|---------------|---|---------------|
| 1. Dörimiy harakatdagi aktivlar | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7=2-5 | 8=3-6 |
| 1. Dörimiy harakatdagi aktivlar | 7657 | 9491 | 1. Muddati kelgan to'lov majburiyatani | 249458 | 127554 | -241801 | -118063 |
| 2. Tez sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar | 53266 | 148125 | 2. Qisqa muddati passivlar | 8589 | 35593 | +44677 | +112532 |
| 3. Sekin sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar | 470833 | 531450 | 3. Uzoq muddati passivlar | - | - | +470833 | +531450 |
| 4. Qiyni sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar | 186790 | 203491 | 4. Dörimiy passivlar | 460499 | 729410 | -273709 | -525919 |
| BALANS | 718546 | 892557 | BALANS | 718546 | 892557 | 0 | 0 |

187

2. Korxonalarning to'lov qobiliyati tahlili

Korxonalar ko'p turdag'i iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xom-ashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajarishadi. Shuningdek, davlat byudjeti, moliya, bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun zurur bo'lgan mablag'larni yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldagi hisoblanadi. Buning uchun korxonaning to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To'lov mablag'lari pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi. shuningdek qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarni amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qiymatli qog'oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchillarga, byudjet va sug'urtaga, mehanat haqi, turli xil kreditorlarga bo'lgan va boshqa turdag'i qarzlar kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlarini bilan mablag'lari solishtiriladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, biz tahlil qilayotgan korxonalarda joriy davrda to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. YA'ni, korxonaning jami to'lov mablag'lari 337089 ming so'm bo'lgani holda, jami to'lov qarzlarini 163147 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rindaniki korxonada to'lov qarzlariga nisbatan to'lov mablag'lari 173942 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu esa korxonaning mutloq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to'lov mablag'lari tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, uning asosini tayyor mayosulotlar (167464 ming so'm) hamda debitorlik qarzlarini (148125 ming so'm) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxona ayni vaqtda tez to'lov qobiliyatiga ega emas ekan. To'lov qarzlarining asosini esa mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzlar hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarini qisqa muddatlarda to'lab beish lozimligini bildiradi. Korxona ma'muriyati to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun mavjud tayyor mahsulotlarni sotish choralarini ko'rishi hamda debitorlik qarzlarini undirib olish choralarini ko'rishi lozim bo'ladi. Aks holda, korxonaning to'lov qobiliyati bundanda yomonlashishi mumkin.

2-jadval

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlili

| To'lash uchun mablag'lar | Satr raqami | Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm | To'lov qarzları | Satr raqami | Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm |
|---|-------------|--|---|----------------|--|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. Pul mablag'lari, ya'ni kassadagi va hisob raqamidagi pul mablag'lari | 330-340 | 9374 | 1. Mol yetka zib beruvchi va pudatchilarga to'lanadigan schyotlar (qarzlar) | 610 | 90387 |
| 2. Valyuta mablag'lari | 350 | 117 | 2. Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzları | 680 | 400 |
| 3. Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag'lari va joriy aktivlar | 360-380 | 12009 | 3. soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktilgan majburiyatlar | 650 | - |
| 4. Tayg'r mahsulot | 170 | 167464 | 4. Mullkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzları | 700 | |
| 5. Debitorlik qarzları | 210 | 148125 | 5. Maqsadli davlat jamg'armalari ga to'lovlar bo'yicha qarzlar | 690 | 6721 |
| Jami to'lash uchun mablag'lar | xxx | 337089 | 7. Mexnaga haq to'lash bo'yicha qarzlar 8. qisqa muddatli kredit va qarzlar 9. Boshqa joriy majburiyatlar | 720 | 5007 |
| Qarz to'lov majbu-riyatlarining ko pligi | xxx | xxx | Jami to'lov qarzları To'lov qarzlaridan to'lov mablag'larining ko'pligi (ortiqchaliagi) | xxx | 163147 |
| Balans | xxx | 337089 | Balans | xxx | 173942 |
| | | | | | 337089 |

189

Korxonaning to'lov layoqatini baholashda odatda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- Mutloq to'lov layoqati koeffitsienti;
- Oraliq to'lov layoqati koeffitsienti;
- Joriy to'lov layoqati koeffitsienti.

Mutloq to'lov layoqati ko'rsatkichi korxonaning joriy aktivlarida harakatchan aktivlarning to'lov majburiyatlarini qoplashiga yetarliliqi yoki etishmasliligini; oraliq to'lov layoqati ko'rsatkichi joriy aktivlarda harakatchan va tez pulga aylanadigan aktivlarni to'lov majburiyatlarini qoplashga yetarliliqi yoki etishmasliligini; joriy to'lov layoqati ko'rsatkichi esa joriy aktivlarda barcha aylanma aktivlarning to'lov majburiyatlarini to'lashga yetarliliqi yoki etishmasliligini tasiflaydi.

Korxonaning to'lov layoqatiga baho berishda muqobililik variantlarini ham qo'llash lozim bo'ladi. Yangi ochilgan va hali faoliyat boshlamagan korxonalarga kredit berish yuzasidan qaror qabul qilishda, uning biznes reja ko'rsatkichlari va u bo'yicha aniqlangan to'lovga qodirlilikning ehtimolligiga, korxonaga maqsadli, markazlashgan kredit resurslarining tushrilishiga, texnik loyiylar asosida kredit ajratilishi va hakozolarga ahamiyat berilishi muhimdir.

3-jadval

Korxonaning to'lov layoqati ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

| Ko'rsatkichlar | Aniqlash tartibi | Izoh |
|--|----------------------------------|---|
| 1 | 2 | 3 |
| 1. Mutloq to'lov layoqati koeffitsienti | PM + QQ KM= ----- QMM | PM- pul mablag'lari QQ- qimmatli qog'ozlar QMM- qisqa muddatli to'lov majburiyatları |
| 2. Oraliq to'lov layoqati koeffitsienti | PM + QQ + DM KO= ----- QMM | DM- debitorlik majburiyatları |
| 3. Joriy to'lov layoqati koeffitsienti | PM+QQ+DM+TMZ KJ= ----- QMM | TMZ- tovar-moddiy zahiralar |

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil etishda qisqa muddatga to'lov qobiliyati va uzoq muddatga to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari ham o'rganiladi. SHunga ko'ra qisqa muddatli to'lov qobiliyat quyidagicha aniqlanadi:

=> Pul mablag'lari + Qisqa mud. qim. qog'ozlar

Qaytarish mud. etgan kreditor qarzlar

Uzoq muddatli to'lov qobiliyat esa:

=> Oborot aktivlar = 125152 = 3,4

Majburiyatlar 35772

Demak, korxona yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'lган. Bu korxona faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Korxonaning mavjud pul mablag'lari doim to'lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo'lgan manba bo'lganligi uchun hamda qimmatli qog'ozlar ham shu maqsadga ishlatalishi mumkinligini hisobga olinib, to'lov qobiliyatini belgilovchi koeffitsient hisoblaniladi. SHuningdek, turli aylanma mablag'larning pul shakllariga o'tish muddati har xillagini e'tiborga olinganda, tayyor mahsulot zahiralari

tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlar va yarim fabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o'rganish surur. Bundan tashqari to'lov qobiliyatining o'zgarishida debitorlik qarzlarining pulga aylanish tezligi, bankdagi to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va ularning tez harakat qilishiga bog'liqidir. Agarda debitor mablag'larni qarz majburiyatlarini uzishga yo'naltirilsa, oraliq to'lov qarzlarini qoplashlik koeffitsienti ko'rsatkichi hisoblanadi.

Demak, korxona qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini qoplashga o'zining barcha aylanma mablag'larni, ya'ni, zahiralar, pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarini jalb etishi lozim bo'ladi.

Kelgusi yilda korxonaning to'lov qobiliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahlil qilish lozim. Jami tushum hisobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy to'lovlar bajariladi va ehtiyoj rivojlantirish jamg'armalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxona oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi.

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil qilishda sof tushum koeffitsientini hisoblash muhimdir, bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

Sof foya + asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiya)

sotishdan tushum

Hissadorlik, kooperativ, kichik va hamkorlikda ishlaydigan korxonalarda o'ziga qarashli mol-mulkni ko'paytirish ahamiyatlari. Ayniqla, hissadorlik va boshqa jamg'armalarni to'ldirib borish zururdir. Bu hissadorlar, ustav fondi qatnashchilarini va a'zolarning badallari hisobiga to'ldiriladi. SHuning uchun ham a'zolarning kelishuviga muvofiq, qonun bilan belgilangan ustav fondining hajmi kamaytirilmasligi va u to'ldirib borilishi zarur. Korxona balansini o'rganishda albatta Nizom jamg'armasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablari tahlil qilinadi. Demak, ustav fondining ko'payishi ham moliyaviy barqarorlik yaxshilanganligi belgisi hisoblanadi¹.

Joriy aktivlar va majburiyatlar. Joriy aktivlar bu pul yoki pulga tez aylanuvchi boshqa aktivlar hamda bir yil mobaynidagi debitorlarimizdir. Odatda, balans hisobotida joriy aktivlar sifatida pul mablag'lari, keying moliyaviy yilda chiqariladigan tez sotiluvchi qimmatli qog'ozlar, debitorlik qarzlar, inventarlar va bo'nak to'lovlar kiradi. Joriy majburiyatlay bu nisbatan qisqa davr ichida, odatda bir yil, ichida qondirilishi kutilayotgan majburiyatlar hisoblanadi.

Joriy majburiyatlar creditorlik qarzlar, qisqa muddatli bank kreditlari, to'lanadigan soliqlar, hisoblangan xarajatlar va uzoq muddatli qarzlarining hozirda to'lanishi lozim bo'lgan foizi yoki ulushini o'z ichiga oladi. Bizning tahlil joriy majburiyatlar katta ehtimollik bilan oxirgi hisoblarga mos kelishini baholashi shart. Joriy majburiyatlarning istisno holatlari aylanma kapitalni tahlil qilishda xalal beradi. Ular quyidagilar:

Shartli majburiyatlar asosan kredit kafolatlari bilan bog'liq. Biz aylanma kapitalni hisoblagan bir paytda uning ushbu shartlarni qoplash ehtimolligini aniq baholashimiz zarur.

Bekor qilib bo'lmaydigan operatsion lizing shartnomalari asosidagi kelajakdagagi minimum ijara to'lovlar.

Uzoq muddatli aktivlarni qurish yoki sotib olish tuziladigan shartnomalar ko'pincha yuqori narxlar talab etadi. Ushbu majburiyatlar balans hisobiga majburiyatlar sifatida kiritilmaydi, balki havola(snoska) qismida majburiyat sifatida beriladi. Qachonki aylanma kapitalni hisoblash paytda tahlil ushbu majburiyatlarini hisobga olishi kerak.

Biz, shuningdek, muddati kechiktirilgan soliq to'lovlar(debet)larine bundan buyon joriy aktiv sifatida emas, balki joriy majburiyat sifatida qarshimiz kerak. Joriy muddati kechiktirilgan soliq aktivlari har doim ham soliq qoplamlari shaklidagi kutilgan pul oqib kirishini ta'minlab bermaydi. Bu aktivlar odatda kelajakdagidi daromad solig'ini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Bu yerda istisno holatlarni kamomadlar majmuasi sifatida ko'rish mumkin. Shunga o'xshab joriy muddati kechiktirilgan soliqlar ham har doim kelajak pul chiqim oqimini tashkil etmaydi.

3. Likvidlilikda aylanma kapital o'lchovi

Ko'p hollarda kredit va veksel shartnomalari ichida eng kam aylanma kapitalga bo'lgan talabni ham qurshab oladi. Moliyaviy tahlilchilar aylanma kapital hajmini investitsion qarorlar qabul qilish uchun baholaydilar. Davlat tashkilotlari esa kompaniya aylanma kapital agregatlarini uming siyosiy harakatlarini tartibga solish maqsadida baholaydi. Va nihoyat oshkor etilgan moliyaviy ma'lumotlar asosida joriy va joriy bo'limgan aktivlar hamda javobgarlik majburiyati orasidagi farq taqqoslanadi. Biroq asosiy kapital miqdori sotish hajmi va umumiy kapital kabi boshqa moliyaviy o'zgaruvchilarga bog'liq qarorlar qabul qilishda ahamiyatlidir. Aylanma kapitalning yetarliligini baholash va to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy maqsadlar uchun qiymat cheklangan.(Misol 10.1)

Misol 10.1: quyidagi ikki kompaniya bir xil miqdordagi aylanma kapitalga ega. Biroq joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati orasidagi farq shuni ko'rsatadiki shuni ko'rsatadiki A kompaniyaning aylanma kapitali holati B kompaniyaniqidan ustunlik qiladi.

4-jadval

| Ko'rsatkichlar | "A" kompaniya | "B" kompaniya |
|---------------------|---------------|----------------|
| Joriy aktivlar | 300,000 \$ | 1,200,000 \$ |
| Joriy majburiyatlar | (100,000 \$) | (1,000,000 \$) |
| Aylanma kapital | 200,000 \$ | 200,000 \$ |

Joriy likvidlilik koeffitsienti. Yuqoridagi misol nisbiy aylanma kapitalga urg'u berish kerakligini ta'kidlaydi. Ya'ni 200.000\$ aylanma kapital joriy aktivi 300.000\$ bo'lgan kompaniyaga joriy aktivi 1.200.000\$ bo'lgan kompaniyaga qaraganda bo'lak xulosa chiqarishga undaydi. Ushbu umumiy nisbiylik o'lchovi amaliyotda **joriy likvidlilik koeffitsienti** deyiladi. U quyidagicha izohlanadi:

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 52 page.

$$joriy\ likvidlilik\ koefitsienti = \frac{joriy\ aktivlar}{joriy\ majburiyatlar}$$

10.1-Jadvalda A kompaniyaning joriy likvidlilik koefitsienti 3:1 (300.000\$/100.000\$) va B kompaniya uchun esa 1.2:1 (1.200.000\$/1.000.000\$). Kompaniyalarni likvidlilik asosida taqqoslash uchun joriy likvidlilik koefitsientidan keng foydalaniladi.

Joriy likvidlilik koefitsientining ahamiyati.

Likvidlilik o'chovi sifatida joriy likvidlilik koefitsientining keng ishatilishi sababi bu uning o'lhash aniqligidir.

Joriy majburiyat qoplamasi. Joriy aktivlar miqdori joriy majburiyatlar miqdoridan qanchalik katta bo'lsa, bizning joriy majburiyatlarni qoplashga bo'lgan ishonchimiz ham shuncha katta bo'ladi.

Zarar ko'rishga qarshi buffer(himoya). Bufferimiz qanchalik katta bo'lsa, riskimiz shunchalik kamayadi. Joriy likvidlilik koefitsienti majburiyatlarni qoplash payti kelganda ularni qoplash darajasidagi joriy aktivlarning xavfsizlik chegarasini ko'rsatadi.

Likvidli fondler rezervi. Joriy likvidlilik koefitsientining ahamiyati shundaki, u kompaniya pul oqimining kutilmagan va tasodifiy shoklarga qarshi xavfsizlik chegarasi miqdorini belgilab beradi. Bu kabi shoklar, masalan ish tashlashlar yoki favqulotda zararlar, pul oqimini vaqtincha hamda kutilmaganda sekinlatadi.

5-jadval

| Ayrim mashhur kompaniyalarning joriy likvidlilik koefitsienti. | |
|--|------|
| Target Corp. | 1.55 |
| Pfizer Inc. | 1.25 |
| Coca-Cola Co. | 1.07 |
| Dell Inc. | 0.98 |
| Best Buy Co. | 1.32 |
| 3M Co. | 1.45 |

Joriy likvidlilik koefitsienti likvidlilik va qisqa muddatli to'lov qobiliyatining muhim va foydali o'chovi bo'libgina qolmay, u biz xabardor bo'lishimiz zarur bo'lgan limitlarni ham belgilab beradi. Shunday ekan, oldin biz joriy likvidlilik koefitsientining afzalligini ifodalagan bo'lsak, endi biz uning kamchiliklarini muhokama qilamiz.

4. Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi deganda ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi koefitsienti joriy aktivlarning moddiy aktivlar va debitorlik qarzlariga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar bevosita korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi korxona faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, u asosda biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qilnadi va uning muhim yo'nalishlari

belgilanadi. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish;
- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larni iste'molchilarga etib borishi va ular bo'yicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;
- aylanma mablag'lar bo'yicha me'yoriy zahiralar saqlanishiga amal qilish;
- aylanma mablag'larning me'yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo'lda qo'yish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijara berish va hakozolar);
- aylanma mablag'larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to'g'ri belgilash;
- aylanma mablag'larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;
- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag'larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;
- tugallanmagan ishlab chiqarishni to'g'ri baholash;
- aylanma mablag'lar normativini belgilash;
- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy boyliklarni sotish bo'yicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;
- moddiy aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash va hakozolar.

Moliyavly tahvilning muhim qismi aylanma mablag'lardan samarali foydalanganlikni o'rganish egallaydi, bunda, aylanma mablag'lar ayniqa ishlash chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlar, pul va valyuta mablag'lari, qimmatli qog'ozlar harakatini o'rganish muhimdir.

Aylanma aktivlarning aylanishi va ularning samaradorligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi;
- moddiy aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymatini o'zgarishi va hakozo.

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

$$\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum} \\ = \dots \\ \text{tovar-moddiy zaxiralari}$$

tovar-moddiy zahiralari * hisobot davr kuni

b) aylanish kuni

| | | |
|-----------------------------------|---|---|
| | = | mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum |
| v) aylanish salmog'i koefitsienti | = | tovar-moddiy zahiralari |

Bu koefitsientlardan tashqari aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash maqsadida har bir yoki ming so'mlik zahira va xarajatlar hisobiga olingan yalpi mahsulot, sof tushum va hisobot yilning sof foydasi kabi ma'lumotlar ham tahlil etiladi.

6-jadval**Korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini tahlili**

| Ko'rsatkichlar nomi | O'tgan yili | Hisobot yili | Farqi (+,-) |
|--|-------------|--------------|-------------|
| 1 | 2 | 3 | 4=3-2 |
| 1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so'mda | 1452513 | 3040381 | +1587868 |
| 2. Jami tovar – moddiy zahiralarini, ming so'mda | 470833 | 531450 | +60617 |
| 3. Tovar modddiy zahiralarining (aylanma mablag'larning) aylanish koefitsienti (1g'2) | 3,085 | 5,721 | +2,636 |
| 4. Tovar moddiy zahiralarining (aylanma mablag'larning) aylanish davri, kun hisobida | 116,7 | 62,9 | -53,8 |
| 5. Aylanish salmog'i koefitsienti (2g'1) | 0,324 | 0,175 | -0,149 |
| 6. Aylanishi tezlashishi g'ki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashganligi (-) g'ki qo'shimcha (+) jaib qilinganligi: | | | |
| a) kun hisobida | x | x | -53,8 |
| b) summada, ming so'mda | x | x | -454368,02 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, biz tahlil qilayotgan "AVS" aksionerlik jamiyatida joriy yilda mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori 1587868 ming so'mga ortgan. Bunga mos ravishda tovar-moddiy zahiralarining qiymati ham 60617 ming so'mga o'sgan. Bularning natijasida tovar-moddiy zahiralarining aylanish koefitsienti o'tgan yilgi 3,085 koefitsientdan hisobot yiliga kelib 5,721 koefitsientga ko'tatirilgan. Aylanish davri esa o'tgan yilga nisbatan 53,8 kunga qisqargan, ya'ni tezlashgan. Korxonaning tovar-moddiy zahiralarini aylanishini tezlashishi natijasida korxona oborotidan mablag'larning bo'shashishi 454368,02 ming so'mni tashkil etgan. Bunday natijalarini korxona uchun ijobjiy baholamoq lozim.

Joriy likvidlilik koefitsientining kamchiliklari. Likvidlilikni tahlil etish vositasi hisoblangan joriy likvidlilik koefitsientini hisoblashning birinchi qadami uning surat va maxrajini tekshirish hisoblanadi. Agar biz pul kirim va chiqim oqimi teng bo'lgan, kirim oqimi kamayishi yoki chiqim oqimi ortishi ehtimolligidagi likvidlilik ko'rsatkichini aniqlasak, shunda ushbu savolga o'rinni tug'iladi: Joriy

likvidlilik koefetsienti ushbu likvidlilik omillariga javob bera oladimi? Ayniqsa, joriy likvidlilik koefitsienti:

Kelajak pul oqimi ko'rsatkichlarini aniq ko'rsatib bashorat qila oladimi?

Kelajak pul kirimi pul chiqimiga yetarlilagini hisoblab bera oladimi?

Yuqorida ikki savolga ham javob albatta yo'q. Joriy likvidlilik koefitsienti bu ma'lum bir paytdagi joriy majburiyatlarni qoplash uchun mavjud resurslarning static o'chovdir. Joriy pul mablag'larini miqdorining kelajakdag'i pul kirimi oqimiga hech qanday aloqasi yo'q. Biroq kelajak pul kirimi oqimi likvidlilikning asosiy indikatori hisoblanadi. Bu pul kirimi oqimi joriy likvidlilik koefitsientiga bog'liq bo'lmay, balki sotish hajmi, daromad va xarajatlar, biznes shart-sharoitlarining o'zgarishi kabi omillarga bo'gliq. Ushbu kamchiliklarni oydinlashtirish uchun biz joriy likvidlilik koefitsientining alohida komponentlariga e'tibor qaratishimiz zarur.

Joriy likvidlilik koefitsientining surati. Biz bu yerda joriy aktivlarning barcha komponentlarini o'rganib chiqamiz hamda ularning tahlil qilishda q'llash mohiyatini muhokama qilamiz.

Pul va pul ekvivalentlari. Pul avvalo yaxshi boshqaruvga ega bo'lgan kompaniya tomonidan qisqa muddatlari pul tanqisligiga qarshi ehtiyyotkorlik rezervi sifatida ushlab turiladi. Masalan, sotish hajmi sarf-xarajatlarga nisbatan keskin tushib ketishi ortiqcha pul talab etadi. Pul mablag'ları daromad keltirmaydigan aktivlilar va pul ekvivalentlari odatda kam daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar bo'lganligi sababli, kompaniya bu aktivardagi investitsiyalarini kamaytirishga harakat qiladi. Pul balansi ish faoliyatining mavjud darajasiga oz-moz aloqasi bor va kelajak uchun xulosa chiqarishga yetarli emas. Buning ustiga, ko'plab kompaniyalar hattoki joriy likvidlilik koefitsientini hisobga olmay turib pul o'rnini bosuvchi ochiq kredit liniyalariga suyanib qolishgan.

Tez sotiluvchi qimmatbaho qog'ozlar. Rezerv kapitalidagi ortiqcha pul qayta pul ekvivalentiga tez aylanuvchi qimmayli qog'ozlar sarmoyasiga sarflanadi. Bu sarmoyalar joriy majburiyatlarni qoplashga yaroqli deb qaraladi. Qimmatli qog'ozlar ularning haqiqiy qiymatida hisoblanganligi sababli, ularning sof qiymati aniq baholanadi. Biz tahlilda shuni bilib olishimiz kerakki, tahlil sanasi hamda balans sanasi orasidagi farq qancha katta bo'lsa, ushbu sarmoyalar haqiqiy qiymatidagi yozilmagan o'zgarishlar ehtimolligi shuncha yuqori bo'ladi.

Debitorlik qarzlar. Debitorlik qarzlarning eng asosiysi bu mahsulot sotishdan keladigan debitorlardir. Ushbu debitor munosatlari kredit siyosati va pul tushumi usullari orqali tartibga solinadi. Garchi to'g'ri proporsional bo'lmaseda, debitorlarning o'zgarishi sotish hajmining o'zgarishiga mutanosib. Debitorlarni tahlil qilganda biz uning aylanma tabiatli aktivligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ya'ni bir birlik debitorlikning oshishi bir birlik kreditorlikning oshishiga olib keladi. Shunga ko'ra, debitorlarni kelajakdag'i pul tushumining aniq o'chovi sifatida qarab bo'lmaydi.

Inventarlar. Debitorlarga o'xshab, inventarlarni ham asosiysi bu sotishdir. Savdo talab va taklif funksiyasi ekan, inventarizatsiyani boshqarish usullari inventarlarni ko'paytirishni talab darajasida emas balki undan pastroq darajada saqlab turadi. Inventarlar va savdo o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadigan bo'lsak,

savdo natijasida inventarlarni pulga aylantirish kuzatilgan. Inventarlarni sotishdan keladigan pul kirimining asosiyasi bu marjinal foya bilan bog'liq. Joriy likvidlilik ko'rsatkichi sotish hajmini va marjinal foydani aniq ko'rsatib berolmaydi, lekin ular kelajak pul kirimini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Bo'naklar. Bo'naklar bu kelajakdagi foya uchun qilingan xarajatlardir. Bu daromadlar korxona faoliyatidagi butun yil davomida qo'lga kirilishi sababli, u joriy fondlarni saqlab qoldi. Bo'naklar odatda boshqa joriy aktivlarga qaraganda kichik nisbatda bo'ladi. Biroq kompaniya o'zining oqsoqlanayotgan tomonlarining, ya'ni muddati kechiktirilgan xarajatlар va qaytish ehtimolligi past bo'lgan bo'naklarning tendensiyalaridan xabardor bo'lishi kerak. Biz aylanma kapital va joriy likvidlilik koeffitsienti ko'rsatkichlarini hisoblash cho'g'ida bu kabilarni hisoblamasligimiz kerak.

5.Joriy likvidlilik koeffitsientining maxraji

Joriy majburiyatlar joriy likvidlilik koeffitsientining asosiy omili sifatida qaraladi. Ular ham inventarlarni debitorlar kabi bir xil pul manbayi hisoblanadi. Joriy majburiyatlar, biringchi navbatda, savdo orqali belgilanadi, ular o'z navbatida aylanma kapital miqdori bilan qoplanadi. Masalan, xaridlar kreditorlarimizni oshirishi savdo funksiyasi bo'lganligi sababli, ular savdo natijasida o'zgartirilan. Madomiki sotish hajmi aynan bir xil miqdorni yoki o'sishni tashkil etsa, demak bu deganiqi joriy majburiyatlar to'lovi faol natijani ko'rsatadi. Shuningdek, joriy likvidlilik koeffitsientida hisoblanuvchi joriy majburiyatlar ichiga kelgusidagi pul xarajatlari kiritilmaydi¹.

Yuqorida joriy likvidlilik koeffitsienti haqidagi mulohazalardan biz quyidagi uch xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Likvidlilik asosan kelgusidagi pul oqimlariga keng darajada va pul mablag'lari va ularning ekvivalentiga kamroq darajada bo'g'langan.
2. Bu yerda aylanma kapital balansi hisobo hamda kelgusidagi pul oqimlari yo'nalishlari orasida hech qanday to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emas.
3. Boshqaruvi siyosatiga kelganda, debitorlar va inventarlarni biringchi navbatda samarali va unumdar aktiv sifatida nazorat qilinsa, ikkinchi navbatda likvidli aktiv sifatida qaraladi.

Ushbu xulosalar joriy likvidlilik koeffitsientini tahlil quroli sifatida qarashga yetarli emas va bu yerda "Nega u tahlilda keng qo'llaniladi" degan savol tug'ilishi mumkin. Buning sababini uni tushunariligi, hisoblanishi osonligi va ma'lumotlar mavjudligida deyish mumkin. Shuningdek, joriy likvidlilik koeffitsienti kreditorlar(asosan, bankirlar) tomonidan ham keng ishlatiladi, ya'ni kreditni qaytarmaslik hodisalarini o'yagan holda u oxirgi chora sifatida qaraladi. Ular o'zlaridan so'rashadi: agar pul krimi oqimi butunligicha to'xtab qolsa, joriy aktivlar joriy majburiyatlarni qoplay oladimi? Ushbu ekstremal tahlil likvidlilikni baholashda har doim ham samarali hisoblanmaydi. Uni shuningdek yana ikki qulay usuli mavjud. Birinchidan, qisqa muddatli likvidlilik tahlili faqat joriy likvidlilik koeffitsientiga e'tibor bermasdan kelgusidagi pul oqimi holatiga va so'nggi moliyaviy hisobotga

yuqori e'tibor qaratishi lozim. Bu tahlil faqatgina moliyaviy hisobotdagi tayyor ma'lumotlarni emas, yana qo'shimcha kelgusidagi mahsulot talabini ham talab etadi. Ikkinchidan, agar bizning tahlil joriy majburiyatlarni qondirish uchun joriy aktivlarni o'zgarmas o'chov sifatida joriy likvidlilik koeffitsientida qo'llasa, biz buni yuqorida ifodalangan likvidlilikdan boshqa tushuncha ekanligini bilishimiz zarur. Bizning fikrimizcha, likvidlilik bu joriy aktivlarning pulga aylanishga tayyorligi va tezligidir.

Joriy likvidlilik koeffitsientini tahlilning quroli sifatida rad etish bizning niyatimiz emas. Ammo biz uni o'rinni ishlatalishni bilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, uning kamchiliklarini to'ldirib turuvchi qoidalar mavjud emas. Shunday ekan, nima sababdan biz joriy likvidlilik koeffitsientiga murojaat qilamiz? Joriy likvidlilik koeffitsientining maqbul ishlatilishi faqatgina joriy aktivlarning joriy majburiyatlarni qondirish qobiliyatini baholashda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, biz bu bilan joriy aktivlarning ortiqcha qismini aniqlay olamiz, ya'ni mavjud ortiqcha qiymat yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan pul mablag'lari oqimining nomutanosibliklarini har xil kontengensiyalarini bartaraf etishga qodirligini hisoblab ko'ra olamiz. Ushbu harakatlar bizning xabardorligimizda amalga oshiriladi, ya'ni koeffitsient kompaniya qarzlarini yopishini belgilaydi.

Joriy likvidlilik koeffitsientini asosiy ko'rsatkich sifatida qarash mumkin, ya'ni bu yerda joriy likvidlilik koeffitsienti tahlil asisini samarali shakllantirishi uchun biz oldin ikki narsani baholab aniqlab olishimiz zarur:

1. Jariy aktivlar va joriy majburiyatlar sifati;
2. Jariy aktivlar va joriy majburiyatlarning aylanish darajasi – ya'ni, debitorlar va inventarlarni pulga aylantirib joriy majburiyatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan vaqt.

Bir qancha qoidalar, koeffitsientlar va boshqa tahlil qurollari ushbu bahashlarni amalga oshirishda va joriy likvidlilik koeffitsienti kuchini oshirishda bizga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil. Joriy likvidlilik koeffitsientininig trendini tahlil qilish bizga obyekt haqida ko'proq ma'lumot beradi. Vaqt davomida joriy likvidlilik koeffitsientida bo'layotgan o'zgarishlar ehtiyyotkorlik bilan talqin qilinishi kerak. Joriy likvidlik koeffitsientidagi ushbu o'zgarishlar albatta likvidlilik yoki faoliyat ko'rsatishdagi o'zgarishlar degani emas. Masalan, iqtisodiy inqiroz davrida kompaniya o'z majburiyatlarini to'lab kelgan bir paytda, uning debitor va kreditorlar yig'ilishi joriy likvidlilik koeffitsientini oshishiga olib keladi. Aksincha, ma'lum bir muvaffaqiyatlari davrda to'lanadigan soliqlarning oshishi koeffitsient tushishiga olib keladi. Kompaniyaning kengayishidagi operatsion muvaffaqiyat kattaroq aylanma kapitalga ehtiyoj tug'diradi. Likvidlilikdagi ushbu pasayishlar joriy likvidlilik koeffitsientini pasaytiradi va natija sifatida kompaniyani kengaytirish bilan aylanma kapitalni oshirishni birgalikda amalga oshirib bo'lmaydi. (Misol 10.2)

Misol 10.2 Technology Resources, Inc., joriy aktivlarning ikki baravar ortishi va joriy majburiyatlarning to'rt baravar ortishi aylanma kapitalga hech o'zgarish keltirmadi. Ushbu rivojlantirish joriy likvidlilik koeffitsientining 50% tushishiga olib keldi.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 78 page.

7-jadval

| Technology Resources, Inc. | 1-yil | 2-yil |
|--------------------------------|--------------|--------------|
| Joriy aktivlar | 300,000 \$ | 600,000 \$ |
| Joriy majburiyatlar | (100,000 \$) | (400,000 \$) |
| Aylanma kapital | 200,000 \$ | 200,000 \$ |
| Joriy likvidlilik koefitsienti | 3:1 | 1.5:1 |

Likvidlilik menejmenti. Bizning tahlil joriy likvidlilik koefitsienti boshqaruvini ishlab chiqishi ham zarur, bu yana “oyna bezatish” (“window-dressing”) deb ham atash mumkin. Hisobot yili yopilishiga yaqin menejment goh-gohida debitorlarni yig’ishga, normal darajadan past bo’lgan inventarlarni kamaytirishga hamda xaridlarni kechiktirishga e’tibor beradi. Ushbu tadbirdlardan tushgan tushum keyinchalik joriy majburiyatlarini qoplash uchun ishlataladi. Ushbu tadbirdilar samarasи sifatida joriy likvidlilik koefitsientini ko’reish mumkin. (Misol 10.3)

Misol 10.3 Technology Resources, Inc. \$50.000 lik joriy majburiyatlarini vaqtidan oldin to’lash orqali o’z joriy likvidlilik koefitsientini oshiradi.

8-jadval

| Technology Resources, Inc. | To’lovdan oldin | To’lovdan keyin |
|--------------------------------|-----------------|-----------------|
| Joriy aktivlar | 200,000 \$ | 150,000 \$ |
| Joriy majburiyatlar | (100,000 \$) | (50,000 \$) |
| Aylanma kapital | 100,000 \$ | 100,000 \$ |
| Joriy likvidlilik koefitsienti | 2:1 | 3:1 |

Bizning tahlil shuningdek yillik chora-tadbirlarni amalga oshirishda vaqtinchalik joriy likvidlilik koefitsienti o’lchovridan foydalanadi. Vaqtinchalik tahlil menejment “window-dress”ni amalga oshirish uchun qiyinlik tug’diradi va koefitsientga ko’rsatilgan mavsumiy ta’sirlarni o’lchashga undaydi. Masalan, dekabr oyidagi joriy likvidlilik koefitsientining yuqori darajasi aldamchi bo’lishi mumkin, ya’ni kompaniya mavsumning o’rtasi – iyul oyida kreditini so’ndirishi kerak bo’lganda.

Sof savdo davri. Kompaniya aylanma kapital ehtiyojiga ko’zlangan inventarlarga sarmoyalar va xaridor va ta’mintochilar qarz muddatlari o’rtasidagi bog’lanish ta’sir etadi. Bu mulohazalar kompaniyaning sof savdo davrini aniqlab beradi. Kompaniyaning sof savdo davri quyidagicha aniqlanadi. (Misol 10.4)

Misol 10.4 Quyida 2 Technology Resources, Inc.ning o’tgan yildagi tanlangan moliyaviy ma’lumotlari aks ettirilgan:

| | |
|--|------------|
| Sotish hajmi | 360,000 \$ |
| Debitorlar | 40,000 \$ |
| Inventarlar* | 50,000 \$ |
| Kreditorlar + | 20,000 \$ |
| Sotilgan mahsulot tannarxi(shu jumladan 30,000 \$ amortizatsiya) | 320,000 \$ |
| * boshlang’ich inventarlar 100,000 \$. | |
| + ular sotilgan mahsulot tannarxi ichiga kiritilgan xarajatlar bilan bog’liq | |
| Biz Technology Resources, Inc.ning bir kunlik xarajatlarini baholaymiz: | |
| Inventarlar tugatilishi | 50,000 \$ |
| Sotilgan mahsulot tannarxi | 320,000 \$ |

| |
|---|
| 370,000 \$ |
| Minus: boshlang’ich inventarlar. (100,000) |
| Sotilgan va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi 270,000 \$ |
| Minus: tannarx ichidagi amortizatsiya (30,000) |
| Xarajatlar 240,000 \$ |

$$\text{kunlik xarajatlar} = \frac{\$ 240,000}{360} = \$ 666.67$$

Endi Technology Resources, Inc. uchun sof savdo davri hisoblanadi(kunlarda):

$$\text{inventarlar} = \frac{\$ 50,000}{\$ 320,000 \div 360} = 56.24 \text{ kunlar}$$

$$\text{debitorlar} = \frac{\$ 40,000}{\$ 360,000 \div 360} = 40 \text{ kunlar}$$

$$\text{Minus: kreditorlar} = \frac{\$ 20,000}{\$ 240,000 \div 360} = 30 \text{ kunlar}$$

$$\text{sof savdo davri} = 66.24 \text{ kunlar}$$

Misol 10.4 dagi surat va maxrajlar izchil asosda tartiblangan. Xususan, debitorlar kunlik savdo hajmiga bo’linadi, inventarlar kunlik sotilgan mahsulot tannarxiga bo’linadi va kreditorlar kunlik xarajatlarga bo’linadi. Natijada, kunlar o’lchovi turli asosda ifodalanadsa, bizning sof savdo davri baholashimiz mantiqan asoslidir. Sof savdo davri qancha uzoq davom etsa, aylanma kapital ehtiyoji shuncha yuqori bo’ladi. Aylanma kapital ehtiyoji sanoat holati va amaliyotiga qarab aniqlanadi.

TAHLIL QILING

International Machines Corporation (IMC) Buyuk Britaniyadagi faoliyatini kengaytirish uchun qisqa muddatlari bir yillik \$2 millionlik kredit so’rab sizga murojaat qilyapti. Kredit tahlili qismi sifatida, siz 4:1 joriy likvidlilik koefitsientini \$1.6 millionlik joriy aktiv yordamida hisoblaysiz. Boshqa atrofdagi raqobatchilar koefitsienti esa 1.9:1 ni tashkil etadi. Ushbu cheklangan ma’lumotlardan foydalаниb sizning IMC murojatiga javobingiz qanday bo’ladi? Agar e 10 villik kredit so’ralganda qaroringiz o’zeardardimi?

koefitsientlarini ko’rib chiqamiz.

Pulning joriy aktivlarga nisbatli koefitsienti. Pulga yaqin aktivlarning umumiy aktivlarga nisbatli joriy aktivlar likvidlilik darajasi o’lchovi hisoblanadi. Bu o’lchov pulning joriy aktivlarga nisbatli pulning joriy aktivlarga nisbat koefitsienti deb ataladi va quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{\text{pul} + \text{pul ekvivalentlari} + \text{qimmatli qog’ozlar}}{\text{joriy aktivlar}}$$

Bu koefitsient qanchalik katta bo’lsa, joriy aktivlar likvidliliqi shuncha yuqori bo’ladi.

Pulning joriy majburiyatlarga nisbatli koefitsienti.

Bu quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{\text{pul} + \text{pul ekvivalentlari} + \text{qimmatli qog’ozlar}}{\text{joriy majburiyatlar}}$$

Ushbu koefitsient pul mablag'larining joriy majburiyatlarni qoplashga qodirligini aniqlab beradi. Bu boshqa tomondan qaraganda pulning joriy aktivlarga nisbat koefitsientini hisoblashni to'ldiruvchi yondashuv hisoblanadi. Yuqori darajadagi bankrotliklar pulga yaqin bo'lмаган aktivlar hajmining ko'payib ketishi orqali sodir bo'ladi.

6. Korxonaning tolov layoqatini baholash ko'rsatkichlari

Korxonalar ko'p turdag'i iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xomashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lган hisob-kitoblarni bajarishadi. Shuningdek, davlat budgeti, moliya,

bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda boiinadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun zurur bo'lган mablag'larni yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lган qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Körxona balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldaligi hisoblanadi. Buning uchun korxonaning to'lash uchun zarur bo'lган mablag'Mari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To'lov mablag'lari pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsu- lotlar qiymati (halil pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi, shuningdek, qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtinch'a to'lov majburiyatlarni amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budget va sug'urtaga, mehanat haqi, turli xil kreditorlarga bo'Mgan va boshqa turdag'i qarzlar kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlar bilan mablag'lar solishtiriladi.

Korxona balansi aktividagi moddalarni pulga aylanishi aktiv likvidligi, to'lovga qodirlik (to'lov qobiliyati) esa muddatida va to'liq hajmda qarzlardan uzulishni ifodalaydi.

To'lovga qodirlikning zarur va muhim sharti likvidlikdir.

«To'lovga qodirlik» so'zi keng ma'noni anglatadi, chunki u aktivdag'i moddalarni tez pulga aylanishidan tashqari, savdo, kredit va boshqa pul muomalalari bilan bog'liq majburiyatlarni muddatida va to'liq hajmda bajara olish qobiliyatini ham ifodalaydi.

1-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov qobiliyati tahlili

| To'lash uchun mablag'lar | Satr raqami | Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm | To'lov qarzları | Satr raqami | Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm |
|--------------------------|-------------|---|-----------------|-------------|---|
|--------------------------|-------------|---|-----------------|-------------|---|

| | | | | | |
|---|------------|---------------|--|------------|---------------|
| 1. Pul mablag'lari, ya'ni kassadagi va hisob raqandagi pul mablag'lari | 330-340 | 9374 | 1. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar (qarzlar) | 610 | 90387 |
| 2. Valyuta mablag'lari | 350 | 117 | 2. Budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlar | 680 | 400 |
| 3. Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag'lari va joriy aktivlar | 360-380 | 12009 | 3. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar | 650 | - |
| 4. Tayyor mahsulot | 170 | 167464 | 4. Mulkiy va shaxsiy sug'urta | 700 | |
| 5. Debitorlik qarzlar | 210 | 148125 | 5. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar | 690 | 6721 |
| | | | 6. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar | 720 | 5007 |
| | | | 7. Qisqa muddatli kredit va qarzlar | 730-740 | 35593 |
| | | | 8. Boshqa joriy majburiyatlar | - | 25039 |
| Jami to'lash uchun mablag'lar | xxx | 337089 | Jami to'lov qarzları | xxx | 163147 |
| Qarz to'lov majburiyatlarning ko'pligi | xxx | - | To'lov qarzlaridan to'lov mablag'larining ko'pligi (ortiqchaligi) | xxx | 173942 |
| Balans | xxx | 337089 | Balans | xxx | 337089 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyekti joriy davrda to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. Korxonaning jami to'lov mablag'lari 337089 ming so'm bo'Mgani holda, jami to'lov qarzları 163147 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rindaniki korxonada to'lov qarzlariga nisbatan to'lov mablag'Mari 173942 ming so'mga ko'p bo'lган. Bu esa korxonaning mutlaq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to'lov mablag'lari tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, uning asosini tayyor mahsulotlar (167464 ming so'm) hamda

debitorlik qarzları (148125 ming so‘m) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxona ayni vaqtida tez to‘lov qobiliyatiga ega emas ekan. To‘lov qarzlarining asosini esa mol yetkazib beruvchilardan bo‘lgan qarzlar hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarini qisqa muddatlarda to‘lab beish lozimligini bildiradi. Korxona ma’muriyati to‘lov qibiliyatini yaxshilash uchun mavjud tayyor mahsulotlarini sotish choralarini ko‘rishi hamda debitorlik qarzlarini undirib olish choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi. Aks holda, korxonaning to‘lov qibiliyatini bundanda yomonlashishi mumkin¹.

Korxonaning tolov layoqatini baholashda, odatda, quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniлади:

1. Mutlaq to‘lov layoqati koeffitsiyenti.
2. Oraliq to‘lov layoqati koeffitsiyenti.
3. Joriy to‘lov layoqati koeffitsiyenti.

Mutlaq to‘lov layoqati ko‘rsatkichi korxonaning joriy aktivlarda harakatchan aktivlarning to‘lov majburiyatlarini qoplashiga yetarliliqi yoki yetishmaslilagini; oraliq to‘lov layoqati ko‘rsatkichi joriy aktivlarda harakatchan va tez pulga aylanadigan aktivlarni to‘lov majburiyatlarini qoplashga yetarliliqi yoki yetishmaslilagini; joriy to‘lov layoqati ko‘rsatkichi esa joriy aktivlarda barcha aylanma aktivlarning to‘lov majburiyatlarini to‘lashga yetarliliqi yoki yetishmaslilagini tasniflaydi.

Korxonaning to‘lov layoqatiga baho berishda muqobillik variantlarini ham qo‘llash lozim bo‘ladi. Yangi ochilgan va hali faoliyat boshlamagan korxonalarga kredit berish yuzasidan qaror qabul qilishda, uning biznes-reja ko‘rsatkichlari va u bo‘yicha aniqlangan to‘lovga qodirlikning ehtimolligiga, korxonaga maqsadli, markazlashgan kredit resurslarining tushirilishiga, texnik loyiylar asosida kredit ajratilishi va hokazolarga ahamiyat berilishi muhimdir.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti to‘lov qobiliyatining qat’iy me’yori qisqa muddatlari majburiyatlarni darhol mavjud pul mablag‘lari bilan qoplanishidir. Bu ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, qarzni uzish kafolati shuncha yuqori bo‘ladi. Oz miqdordagi mablag‘ga ega bo‘lib, pul mablag‘Marini kirimi va chiqimini muddati va miqdorini nazorat qilish orqali balans likvidligini ta‘minlagan holda korxona doimiy ravishda to‘lovga qodir bo‘lishi mumkin. Mutlaq likvidlik koeffitsiyentining, ya’ni pul mablag‘lari va qisqa muddatlari investitsiyalarni qisqa muddatlari majburiyatlarni qoplashning yil boshi va yil oxiridagi natijalari biroz tavsiya etilgan me’yorlarga yaqin.

Oraliqni qoplash likvidlilik koeffitsiyenti joriy qarzlarini qancha qismi (zaxiralarsiz) debitorlik qarzlarini to‘liq undirilgan holda qoplay olishini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich darajasi 0,5 dan 1,0 gacha va undan yuqori bo‘lishi korxonaning faoliyat turi, joriy aktivlarning strukturasi va debitorlik qarzlarini sifati va boshqa moliyaviy ko‘rsat- kichlarning nisbatiga: sotish hajmi bilan aylanma mablag‘lar, sotish hajmi va debitorlik qarzlar, oborot aktivlari va qisqa muddatlari majburiyatlarga bog‘liq. Debitorlik qarzlarini yuqori hajmda va jami mablag‘larda salmoqli ulushga ega bo‘lishi korxonaning to‘lovga qodirligini amalda pasayishiga olib keladi.

Likvidlikni tahlil etishda debitorlik qarzlarini miqdori va sifatiga katta e’tibor qaratiladi, chunki ularni to‘lov manbalariga aylanishi uchun ketadigan vaqt uzoq muddatni tashkil etadi, inflatsiya tufayli yana qo‘sishcha yo‘qotishlarga duch keladi. Bizning misolimizda oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti yil boshi va yil oxirida tavsiya etilgan me’yordan kichik. Ammo, korxona rahbariyati debitorlik qarzlar bilan ishlashni faollashtirib bu shakldagi oborot mablag‘larni pul shaklida muomalaga kiritilishini tezlashtirish orqali mol yetkazib beruvchilar bilan bo‘ladigan hisoblashishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Joriy likvidlik (qoplash) koeffitsiyenti yoki umumiy qoplash koeffitsiyenti:

4. joriy qarzlarning qancha qismi joriy aktivlar bilan qoplanishini;
5. joriy majburiyatlarning har so‘miga necha so‘mlik joriy aktivlar (aylanma mablag‘lar) qiymati to‘g‘ri kelishini;
6. joriy majburiyatlarni jami aylanma mablag‘lari bilan qoplanish darajasini ifodalaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti korxonani chiqargan aksiyalari va obligatsiyalarini xarid etgan subyekt va jismoniy shaxslar uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Aksiyadan olinadigan dividendlar miqdori, obli- gatsiyalardan foizlar joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasiga bog‘liqidir. Joriy aktivlarni qisqa muddatlari majburiyatlarga nisbatan yuqori bo‘lishi rezerv zaxirasini hosil qiladi. Rezerv zaxirasini korxona zarar ko‘rganda

qoplashga sarflanadi. Bu ko‘rsatkichni qanchalik yuqori bo‘lishi kreditorlarda qarzni uzishga bo‘lgan ishonchini ta‘minlaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyentining me’yor ko‘rsatkichi 1 dan 2 gacha hisoblanadi, ammo, barcha tarmoqlar uchun yagona me’yor belgilanishi maqsadga muvofiq emas, chunki, bu ko‘rsatkich darajasi korxonaning faoliyat turi, uning tuzilishi va balans aktivining sifati, operatsion jarayon davomiyligi, kreditorlik qarzlarini qoplanish muddatlari va h.k. larga bog‘liq. Joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasining hisob - kitobiga ko‘ra likvidlik yil boshi va yil oxirida me’yor darajasida, uning o’sish su’rati 1,08 koeffitsiyentni tashkil etgan. Joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi ko‘p jihatdan zaxiralarni tashkil etish manbalari uzoq muddatlari majburiyat va korxonaning o‘z kapitaliga bog‘liq. Uning darajasini oshirish uchun o‘z kapitalini manbalar bilan to‘ldirish, aktivlar va debitorlik qarzlar o‘sishini turg‘un holda saqlashdan iborat. Mazkur ko‘rsatkichdan korxona aktivi likvidligini baholash va uzoq muddatlari istiqbolda to‘lovga qodirligini aniqlashda foydalaniлади.

7. Korxonaning to‘lov layoqati ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

Oborot aktivlarning qisqa muddatlari majburiyatlardan ikki marotaba ortiq bo‘lishi korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy holatini barqaror o‘sishi uchun zamin yaratadi. Buning natijasida ishchi kapitali yoki «sof oborot aktiv» shakllanadi.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 402 page.

2-jadval

Korxonaning to'lov layoqati ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

| Ko'rsatkichlar | Aniqlash tartibi | Izoh: |
|---|--|---|
| 1. Mutlaq to'lov layoqati koeffitsiyenti | $PM + QQ$ $K_M = \frac{PM}{QQ}$ | PM- pul mablag'lari QQ- qimmatli qog'ozlar QMM- qisqa muddatli to'lov majburiyatları |
| 2. Oraliiq to'lov layoqati koeffitsiyenti | $PM + QQ + DM$ $K_O = \frac{PM + QQ}{DM}$ | DM- debitorlik majburiyatları |
| 3. Joriy to'lov layoqati koeffitsiyenti | $PM + QQ + DM + TMZ$ $K_J = \frac{PM + QQ + DM}{TMZ}$ | TMZ- tovar-moddiy zaxiralari |

Ishchi kapitali likvid rezervlari hisoblanib, kutilmagan hollarda vujudga keladigan pul tushumlari va qarz majburiyatları o'rtasidagi uzilishlar tufayli vujudga keladigan xarajatlarni qoplashga sarflanadi. Sof ishchi kapitali sof aktivning bir qismi, bank-kreditorlar uchun bank kreditini korxona qaytara olmagan hollarda undan garov sifatida foydalanadilar.

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil etishda qisqa muddatga to'lov qobiliyati va uzoq muddatga to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari ham o'rganiladi.

Shunga ko'ra qisqa muddatli to'lov qobiliyati quyidagicha aniqlanadi:

=> Pul mabalagg'lari + Qisqa mud. qim. qog'ozlar

Qaytarish mud. yetgan kreditor qarzlar

Uzoq muddatli to'lov qobiliyati esa:

=> Oborot aktivlar = 125152 = 3.4

Majburiyatlar 35772

Demak, korxona yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan. Bu korxona faoliyati uchun ijobji holat hisoblanadi.

Korxonaning mayjud pul mablag'Mari doim to'lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo'lgan manba bo'Mganligi uchun hamda qimmatli qog'ozlar ham shu maqsadga ishlatalishi mumkinligini hisobga olib, to'lov qobiliyatini belgilovich koeffitsiyent hisoblaniladi, shuningdek, turli aylanma mablag'larning pul shakllariga o'tish muddati har xilligi e'tiborga olinganda, tayyor mahsulot zaxiralari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va yarimfabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o'rganish surur. Bundan tashqari to'lov qobiliyatining o'zgarishida debitorlik qarzlarining pulga aylanish tezligi, bankdagi to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va ularning tez harakat qilishiga bog'liqidir. Agarda, debitor, mablag'larni qarz majburiyatlarini uzishga yo'naltirilsa, oraliiq to'lov qarzlarini qoplashlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi hisoblanadi, demak, korxona qisqa muddatli to'lov majburiyatini qoplashga o'zining barcha aylanma mablag'larini, ya'ni zaxiralalar, pul mablaglari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarini jaib etishi lozim bo'ladi.

Kelgusi yilda korxonaning to'lov qobiliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahlil qilish lozim. Jami tushum hisobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy to'lovlar bajariladi va ehtiyyot rivojlantirish jamg'armalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxona oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi.

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil qilishda sof tushum koeffitsiyentini hisoblash muhimdir, bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

Sof foyda + asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiya) sotishdan tushum

Hissadorlik, kooperativ, kichik va hamkorlikda ishlaydigan korxonalarda o'ziga qarashli mol-mulkni ko'paytrish ahamiyatlari hisoblanadi. Ayniqsa, hissadorlik va boshqa jamg'armalarni to'ldirib borish zururdir. Bu hissadorlar, ustav fondi qatnashchilari va a'zolarning badallari hisobiga to'ldiriladi. Shuning uchun ham a'zolarining kelishuviga muvofiq, qonun bilan belgilangan ustav fondining hajmi kamaytirilmasligi va u to'ldirib borilishi zarur. Korxona balansini o'rganishda, albatta, nizom jamg'armasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablarini tahlil qilinadi. Ustav fondining ko'payishi ham moliyaviy barqrarlik yaxshilanganligi belgisi hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi deganda ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi koeffitsienti joriy aktivlarning moddiy aktivlar va debitorlik qarzlariga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar bevosita korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi korxona faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, u asosda biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qilinadi va uning muhim yo'nalishlari belgilanadi. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish;
- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larni iste'molchilarga etib borishi va ular bo'yicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;
 - aylanma mablag'lar bo'yicha me'yoriy zahiralar saqlanishiga amal qilish;
 - aylanma mablag'larning me'yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo'nga qo'yish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijaraga berish va hakozolar);
 - aylanma mablag'larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to'g'ri belgilash;
 - aylanma mablag'larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;
 - korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag'larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;
 - tugallanmagan ishlab chiqarishni to'g'ri baholash;
 - aylanma mablag'lar normativini belgilash;
 - aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy

boyliklarni sotish bo'yicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
 • mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;

• moddiy aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash va hakozolar.

Moliyaviy tahlilning muhim qismi aylanma mablag'lardan samarali foydalanganlikni o'rganish egallaydi, bunda, aylanma mablag'lar ayniqsa ishlash chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzları, pul va valyuta mablag'lari, qimmatli qog'ozlar harakatini o'rganish muhimdir.

Aylanma aktivlarning aylanishi va ularning samaradorligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

• mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi;

• moddiy aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatini o'zgarishi va hakozo.

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

a) aylanish koeffitsienti

$$\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan} \\ \text{sof tushum} \\ = \text{tovar-moddiy zaxiralari}$$

$$\text{tovar-moddiy zahiralari * hisobot davr kuni} \\ (360)$$

b) aylanish kuni

$$\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan} \\ \text{sof tushum} \\ = \text{tovar-moddiy zahiralari}$$

v) aylanish salmog'i koeffitsienti

$$\text{mahsulot (ish,xizmat) lar} \\ \text{sotishdan sof tushum}$$

Bu koeffitsientlardan tashqari aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash maqsadida har bir yoki ming so'mlik zahira va xarajatlar hisobiga olingan yalpi mahsulot, sof tushum va hisobot yilning sof foydasi kabi ma'lumotlar ham tahlil etiladi.

3-jadval

Korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini tahlili

| Ko'rsatkichlar nomi | O'tgan yili | Hisobot yili | Farqi (+,-) |
|--|-------------|--------------|-------------|
| 1 | 2 | 3 | 4=3-2 |
| 1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so'mda | 1452513 | 3040381 | +1587868 |
| 2. Jami tovar – moddiy zahiralari, ming so'mda | 470833 | 531450 | +60617 |

| | | | |
|--|-------|-------|------------|
| 3. Tovar modddiy zahiralarining (aylanma mablag'larning) aylanish koeffitsienti (1g'2) | 3,085 | 5,721 | +2,636 |
| 4. Tovar moddiy zahiralarining (aylanma mablag'larning) aylanish davri, kun hisobida | 116,7 | 62,9 | -53,8 |
| 5. Aylanish salmog'i koeffitsienti (2g'1) | 0,324 | 0,175 | -0,149 |
| 6. Aylanishni tezlashishi g'ki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashganligi (-) g'ki qo'shimcha (+) jabol qilinganligi: a) kun hisobida b) summada, ming so'mda | | | |
| | x | x | -53,8 |
| | x | x | -454368,02 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, biz tahlil qilayotgan "AVS" aksionerlik jamiyatida joriy yilda mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori 1587868 ming so'mga ortgan. Bunga mos ravishda tovar-moddiy zahiralarining qiymati ham 60617 ming so'mga o'sgan. Bularning natijasida tovar-moddiy zahiralarining aylanish koeffitsienti o'tgan yilgi 3,085 koeffitsientidan hisobot yiliga kelib 5,721 koeffitsientga ko'tatirilgan. Aylanish davri esa o'tgan yilga nisbatan 53,8 kunga qisqargan, ya'ni tezlashgan. Korxonaning tovar-moddiy zahiralarini aylanishini tezlashishi natijasida korxona oborotidan mablag'larning bo'shashishi 454368,02 ming so'mni tashkil etgan. Bunday natijalarни korxona uchun ijobji baholamoq lozim¹.

Joriy likvidlilik koeffitsientining kamchiliklari

Likvidlilikni tahlil etish vositasi hisoblangan joriy likvidlilik koeffitsientini hisoblashning birinchi qadami uning surat va maxrajini tekshirish hisoblanadi. Agar biz pul kirim va chiqim oqimi teng bo'lgan, kirim oqimi kamayishi yoki chiqim oqimi ortishi ehtimolligidagi likvidlilik ko'rsatkichini aniqlasak, shunda ushu savolga o'rinnug'li: Joriy likvidlilik koeffetsienti ushbu likvidlilik omillariga javob bera oladimi? Ayniqsa, joriy likvidlilik koeffitsienti:

Kelajak pul oqimi ko'rsatkichlarini aniq ko'rsatib bashorat qila oladimi?

Kelajak pul kirimini pul chiqimiga yetariligidagi hisoblab bera oladimi?

Yuqorida ikki savolga ham javob albatta yo'q. Joriy likvidlilik koeffitsienti bu ma'lum bir paytdagi joriy majburiyatlarni qoplash uchun mavjud resurslarning static o'chovdir. Joriy pul mablag'lari miqdorining kelajakdagi pul kirimi oqimiga hech qanday aloqasi yo'q. Biroq kelajak pul kirimi oqimi likvidlilikning asosiy indikatori hisoblanadi. Bu pul kirimi oqimi joriy likvidlilik koeffitsientiga bog'liq bo'lmay, balki sotish hajmi, daromad va xarajatlar, biznes shart-sharoitlarining o'zgarishi kabi omillarga bo'qliq. Ushbu kamchiliklarni oydinlashtirish uchun biz joriy likvidlilik koeffitsientining alohida komponentlariga e'tibor qaratishimiz zarur.

Joriy likvidlilik koeffitsientining surati. Biz bu yerda joriy aktivlarning barcha komponentlarini o'rganib chiqamiz hamda ularning tahlil qilishda q'llash mohiyatini muhokama qilamiz.

Pul va pul ekvivalentlari. Pul avvalo yaxshi boshqaruvga ega bo'lgan kompaniya tomonidan qisqa muddatli pul tanqisligiga qarshi ehtiyyotkorlik rezervi sifatida ushlab turiladi. Masalan, sotish hajmi sarf-xarajatlarga nisbatan keskin tushib

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 99 page.

ketishi ortiqcha pul talab etadi. Pul mablag'lari daromad keltirmaydigan aktivlar va pul ekvivalentlari odatda kam daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar bo'lganligi sababli, kompaniya bu aktivardagi investitsiyalarini kamaytirishga harakat qiladi. Pul balansi ish faoliyatining mavjud darajasiga oz-moz aloqasi bor va kelajak uchun xulosa chiqarishga yetarli emas. Buning ustiga, ko'plab kompaniyalar hattoki joriy likvidlilik koeffitsientini hisobga olmay turib pul o'rnnini bosuvchi ochiq kredit liniyalariga suyanib qolishgan.

Tez sotiluvchi qimmatbaho qog'ozlar. Rezerv kapitalidagi ortiqcha pul qayta pul ekvivalentiga tez aylanuvchi qimmayli qog'ozlar sarmoyasiga sarflanadi. Bu sarmoyalalar joriy majburiyatlarni qoplashga yaroqli deb qaraladi. Qimmatli qog'ozlar ularning haqiqiy qiymatida hisoblanganligi sababli, ularning sof qiymati aniq baholanadi. Biz tahlilda shuni bilib olishimiz kerakki, tahlil sanasi hamda balans sanasi orasidagi farq qancha katta bo'lsa, ushbu sarmoyalalar haqiqiy qiymatidagi yozilmagan o'zgarishlar ehtimolligi shuncha yuqori bo'ladi.

Debitorlik qarzlar. Debitorlik qarzlarning eng asosiysi bu mahsulot sotishdan keladigan debitorlardir. Ushbu debitor munosatlari kredit siyosati va pul tushumi usullari orqali tartibga solinadi. Garchi to'g'ri proporsional bo'lmasada, debitorlarning o'zgarishi sotish hajmining o'zgarishiga mutanosib. Debitorlarni tahlil qilganda biz uning aylanma tabiatli aktivligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ya'ni bir birlik debitorlikning oshishi bir birlik kreditorlikning oshishiga olib keladi. Shunga ko'ra, debitorlarni kelajakdagagi pul tushumining aniq o'lchovi sifatida qarab bo'lmaydi.

Inventarlar. Debitorlarga o'xshab, inventarlarni ham asosiysi bu sotishdir. Savdo talab va taklif funksiyasi ekan, inventarizatsiyani boshqarish usullari inventarlarni ko'paytirishni talab darajasida emas balki undan pastroq darajada saqlab turadi. Inventarlar va savdo o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadigan bo'lsak, savdo natijasida inventarlarni pulga aylantirish kuzatilgan. Inventarlarни sotishdan keladigan pul kirimining asosiysi bu marjinal foyda bilan bog'liq. Joriy likvidlilik ko'rsatkichi sotish hajmini va marjinal foydani aniq ko'rsatib berolmaydi, lekin ular kelajak pul kirimini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Bo'naklar. Bo'naklar bu kelajakdagagi foya uchun qilingan xarajatlardir. Bu daromadlar korxona faoliyatidagi butun yil davomida qo'lga kirilishi sababli, u joriy fondlarni saqlab qoladi. Bo'naklar odatda boshqa joriy aktivlarga qaraganda kichik nisbatda bo'ladi. Biroq kompaniya o'zining oqsoqlanayotgan tomonlarining, ya'ni muddati kechiktirilgan xarajatlar va qaytish ehtimolligi past bo'lgan bo'naklarning tendensiyalaridan xabardor bo'lishi kerak. Biz aylanma kapital va joriy likvidlilik koeffitsienti ko'rsatkichlarini hisoblash cho'g'ida bu kabilarni hisoblamasligimiz kerak.

Nazorat savollari:

1. Joriy likvidlilik koeffitsientining surat va maxrajlari nimalardan iborat?
2. Tahlilda likvidlilik menejmenti deganda nimani tushunasiz?
3. Tahlilda joriy likvidlilik koeffitsientini qo'llash va uning moliyaviy holatni

baholashdagi ahamiyatini izohlang.

4. Korxonaning tolov layoqatini baholashning qanday ko'rsatkichlarini bilasiz?..
5. To'lov layoqati ko'rsatkichlari qanday hisoblanadi?
6. To'lov qobiliyatini yaxshilash uchun qanday choralar zarur?
7. Mol-mulkning harakatchanligi qanday tahlil qilinadi?
8. Qarz majburiyatlarining tarkibi nimalardan iborat?

15-bob. MOLIYAVIY BARQARORLIK TAHLILI

Reja:


- Moliyaviy barqarorlik tushunchasi va mohiyati.
- Moliyaviy barqarorlik koeffitsentlari
- Korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar
- Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar
- Korxona moliyaviy barqarorligini turlari.

Tayanch so'zlar:

Moliyaviy barqarorlik, taqqoslash, hisoblash tartibi, ko'rsatkichlar balans ma'lumotlari, ma'lumot manbai.

1. Moliyaviy barqarorlik tushunchasi va mohiyati

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi moliyaviy salohiyatni tushib ketishi bilan izohlanadi. Moliyaviy salohiyatni o'zgarish darajalariga muvofiq firma va kompaniyalarni moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor hamda moliyaviy jihatdan nobarqaror firma va kompaniyalarga ajaratish mumkin.



1-rasm. Firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Moliyaviy barqarorlikni ko'rsatkichlar tizimini taqqoslaydigan bo'lsak ular orasida katta farqni sezish mumkin. Moliyaviy barqarorlikni ifoda etuvchi ko'rsatkichlarning har bir guruhiga bir nechta ko'rsatkich kiritiladi. O'z mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 3 ta, chetdan jaib qilingan mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 4 ta, harakatdagi mablag'lar bilan

bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 3 ta, Asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 4 ta, aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatorida 5 ta ko'rsatkich tarkiblanadi.

1-jadval

Korxona moliyaviy barqarorligini harakterlovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi

| Ko'rsatkichlar nomi | Hisoblash yo'li | Nimani ifoda etishi |
|--|---------------------------|---|
| 1 | 2 | 3 |
| O'z mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari | | |
| O'z mablag'larining (O'm) to'planish koeffitsenti (Ko'tk) | Ko'tk=O'meB | Korxonaning jami mablag'larida o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larining holatini ifodalaydi |
| Moliyaviy qaramlik koeffitsenti (Kmq) | Qmq=BeO'm | Bir so'mlik o'z mablag'iga qancha umumiyligini mablag'ga to'g'ri kelishi ifodalaydi |
| O'm. Ni harakatchanlik koeffitsenti (Km) | Km=O'm+O'm·mp-AsoteO'm | Xususiy kapitalning qancha oborotda ishtirok etayotganligini ko'rsatadi |
| Chetdan jaib qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar | | |
| CHJQM (chetdan jaib qilingan kapitalni to'planish koeffitsenti K chjqm()) | K chjqm=chjqme B | Umumiy mablag'dan qancha qismi chetdan jaib qilinganini izohlaydi |
| Uzoq muddatli CHJQMni to'planish koeffitsenti (K umchjqm) | Kumchjqm=U mchjqm O'm | Xo'jalik faoliyatini Umchjqm bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalaydi |
| CHJQM tarkibiy koeffitsenti (K um chjqm) | K um chjqm=U mchjqm chjqm | Umumiy chetdan jaib qilingan mablag'larida Uchjqmni xissasini ifodalaydi |
| O'mni CHJQMga qaramlik koeffitsenti (Kchjqm) | Kchjqm=CHjqmeO'm | Bir so'm o'z mablag'iga qancha chetdan jaib qilingan mablag'ga to'g'ri kelishini ifodalaydi |
| O'mni uzoq muddatli passivlarga (Ump) qaramlik koeffitsenti (Kumpq) | Kumpq=UmpeO'm | Uzoq muddatli passivlarni o'zmablag'laridagi ulushi |
| Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar | | |
| Umumiy harakatchanlik koeffitsenti (Kux) yoki umumiy harakatdagi mablag'larini faoliyk koeffitsenti(Uxm) | Kux=Uxm/B | Harakatdagi mablag'larini umumiy mablag'lardagi xissasi |
| Sof harakatdagi mablag'larning faoliyk koeffitsenti(Kf) | Kf=Sxm/O'xm | Sof harakatdagi mablag'larning umumiy harakatdagi mablag'lardagi xissasini ifodalaydi |
| Asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari | | |
| Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi xissasini ifodalovchi koeffitsent (Kavx) | Kavx=Av/B | Asosiy vositalarning umumiy xo'jalik mablag'laridagi xissasini ifodalaydi |
| O'z mablag'larining kapitallashuvi koeffitsenti (Kumk) | Kumk=Av-Ump/O'x | O'z mablag'larining qancha qismi asosiy vositalarga sarflanganligini ifodalaydi |
| Asosiy vositalar jamg'arilishini | Kavju=Avue/Av | Asosiy vositalarning qancha qismi |

| | | |
|--|--|---|
| umumi koeffitsenti (Kavju) | Avee-asosiy vositalarning joriy eskirish summasi | takror to'planganligini ifodalaydi |
| Asosiy vositalar jamg'arilishining intensivligi koeffitsenti | Kin=Avje/Av Avje-Asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi | Bir yilda asosiy vositalar qiymatining qancha qismi jamg'arilganligini ifodalaydi |
| Aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar | | |
| Aylanma mablag'larning (Aym) oborotdag'i o'z mablag'lari(O'xm) bilan ta'minlanganlik koeffitsenti (Kamt) | Kamt=O'xm/Aym | Har bir so'm aylanma mablag'ga qancha o'z mablag'I to'g'ri kelishini ifodalaydi |
| Aylammamablag'larningqaramlik koeffitsenti (Kchjk) | Kchjk=CHjkm/Aym | CHetdanjalbqilinganmablag'larni aylan mamablag'lardagi xissasi ifodalaydi |
| Aylanma mablag'larning qisqa muddatli bank kreditlariiga (Kmbk) qaramlik koeffitsenti (Kbk) | Kbk=Kmbk/Aym | Qisqa muddatli kreditlarni aylanma mablag'lardagi xissasi |
| Aylanma mablag'larning tez harakatdagi (Pmba) Aym bilan ta'minlanish koeffitsenti (Kxmt) | Kxmt=Pmba/Aym | Aylanma aktivlarni qancha qismi tez likvid bo'ladigan aktivlar bilan qoplanganligini ifodalaydi |
| Aylanma mablag'larni butun mulkdagi hissasi | Kamx=Aym/B | Aylanma mablag'larni barcha mulkdagi xissasini harkterlaydi |

2. Moliyaviy barqarorlik koeffitsentlari

Bozor sharoitida moliyaviy barqarorlik va to'lovga qobiliyatlilik, korxonaning muhim iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma'lumotlar asosida o'rjaniladi. Undagi ko'rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslab, mablag'lar o'rtasidagi nisbat va o'zarbo'lganligini aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar quyidagilardan iboratdir:

1. Jami mablag'dagi korxonaning o'ziga qarashli mablag' ulushini qanchaligini hisoblashdir yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

(A) korxonaning o'ziga qarashli mablag'
jami mablag' (balans jami)

yil boshida $89035/124575=71,5\%$

yil oxirida $126582/162354=780,0\%$

Bunda o'ziga qarashli mablag' qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik moliyaviy barqarorlik yuqori bo'ladi.

2. Korxonadagi o'ziga qarashli mablag' bilan qarzg'a olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

(B) qarzga olingan mablag'
o'ziga qarashli mablag'

yil boshida $35540/89035=39,9$

yil oxirida $35772/126582=28,3$

3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsienti, ya'ni uzoq muddatli qarz mablag'larini korxonaning o'ziga qarashli va qarz mablag'lar summasining yig'indisiga bo'linadi yoki bu quyidagi tartibda aniqlanadi:

(V) uzoq mudsatga olingan qarz mablag'
korxoaning o'ziga + uzoq muddatga olingan
qarashli maolag' qarz mablag'

4. Korxonaning o'ziga qarashli mablasharning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti yoki bu quyidagicha topiladi:

(V) o'ziga qarashli aylanma mablag'
o'ziga qarashli jami mablag'

5. Eskirishning jamlanish koeffitsienti yoki bu quyidagicha topiladi:
(D) asosiy vositalarning eskirish summasi asosiy vositalar
+ nomaterial akgiv
bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari bo'yicha topiladi: .

6. Korxona mulki tarkibidagi asosiy vositalarning aniq qiymat koeffitsienti, bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari asosida hisoblanadi va quyidagicha topiladi:

(E) asosiy vositalar (qoldiq bahoda)
jami sof mulk

7. Korxonadagi jami mulkning harakatchanligi (chaq-qonlik) koeffitsienti, buni hisoblash quyidagicha bo'ladi:
(YO) aylanma mablag'lar (zaxira va pul mablag'lar)
jami mulk (balans jami)

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni taxlil qilish, korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

2-j adval

Moliyaviy koeffitsientlar tahlili

| Ko'rsatkichlar | Yil boshiga | Yil oxiriga | O'zgarishi (+, -) |
|--|-------------|-------------|-------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4=3-2 |
| 1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti | 0,7 | 0,8 | 0,1 |
| 2. To'lov qobiliyatlilik koeffitsienti | 2,6 | 3,5 | 0,9 |
| 3. Qarz va o'zlik mablag'lar o'rtasidagi nisbat koeffitsienti | 0,4 | 0,3 | -0,1 |
| 4. Zaxira va xarajatlarni o'zlik manbalar bilan qoplanganlik koeffitsienti | 0,9 | 1,4 | 0,5 |
| 5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti | 0,7 | 0,7 | — |

Buxgalteriya balansi bo'yicha moliyaviy koeffitsientlar quyidagi satr ma'lumotlaridan topiladi:

1. O'zlik mablaglarning manbalar (390)
Balansning jami (550)

yil boshida $89035/124575=71,5\%$

yil oxirida $126582/162354=780,0\%$

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonaning moliyaviy axvoliga to'g'ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koefitsientlardan foydalanamiz. SHunga ko'ra, korxonaning moliyaviy mustakillik koefitsienti yil boshiga nisbatan 0,1% ga ko'paygan To'lov qobiliyatilik koefitsienti yil boshiga nisbatan 0,9% ga o'sgan. Korxonada zaxira va xarajatlarni o'zlik manbalar bilan qoplanganlik koefitsienti yil boshiga nisbatan 0,5% ga ko'paygan. Korxona faoliyati uchun bu ijobjiy holatdir¹.

Korxonada qarz va o'zlik mablag'lar o'rtasidagi nisbat koefitsienti 0,1 %ga kamaygan. Demak, bu holat korxonada o'zlik mablag'larning manbalarini, majburiyatlarga nisbatan yil oxirida ko'proq summaga ko'payganligidan dalolat beradi. Mablag'larning chaqqon hara-katchanlik koefitsienti o'zgarmagan. Korxona faoliyati uchun bu ijobjiy holatdir.

3-jadval

Moliyaviy barqarorlik koefitsentlari

| Ko'rsatkichlar | Aniqlanishi | Normal darajasi |
|---|--|-----------------------------------|
| Kapitallashuv darajasi | Qarz kapitali/Xususiy kapital | 1.5 dan yuqori bo'lмаган xollarda |
| O'ziga tegishli mablag'lar bilan ta'minlanish koefitsenti | Xususiy kapital-Oborotdan tashqari aktivlari*/Oborot aktivlari** | Kuyi darajasi 0.1 K>0.5 |
| Moliyaviy mustaqillik koefitsenti+++++ | Xususiy kapital/Balans jami | Km>0.4+0.6 |
| Moliyalashtirish koefitsenti | Xususiy kapital/Qarz kapitali | Kk>0.7 |
| Moliyaviy barqarorlik koefitsenti | Xususiy kapital+Uzoq muddatli majburiyatlar/Balans jami | Kb>0.6 |

*-uzoqmuddatli aktivlar

**-joriy aktivlar

Firma va kompaniyanimoliyaviyjihatdanbarqarordeyishmumkinqachonki, uningholatiniiifodalovchiko'rsatkichlarnormalholatdanyuqoridara jada bo'lsa, firma va kompaniyalmoliyaviyjihatdanhavf-xataribordeyishmumkinqachonki, ko'rsatkichlarnormal darajasi normal darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki uning ko'rsatkichlar tizimini ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa. Uning chegaraviyligini har bitta ko'rsatkichlartizimiga nisbatan alohida belgilash lozim. Amaliyotda, moliyaviy barqarorlikni belgilashning eng muhim metodik jihat aktivlarni (uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni) manbalashdagi holat ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi.

4-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar (ming so'mda)

| Ko'rsatkichlar | Yilboshiga | Yil oxiriga | Farqi (+,-) |
|---------------------------------|------------|-------------|-------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. O'z mablag'larining manbalar | 383086 | 816216 | 433130 |
| 2. Uzoq muddatli aktivlar | 517950 | 502316 | -15634 |

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 402 page.

| | | | |
|---|---------|---------|---------|
| 3. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z manbalar(1-2) | -134864 | 313900 | 448764 |
| 4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar | 801520 | 427168 | -374352 |
| 5. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalar(3+4) | 666656 | 741068 | 74412 |
| 6. Qisqa muddatli kreditva qarzlar | 588055 | 1200816 | 642761 |
| 7. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar(5+6) | 1254711 | 1941884 | 687173 |
| 8. Tovar-moddiy zaxiralarning jami | 951735 | 1757145 | 805410 |

Jadval ma'lumotlari asosida Tovar moddiy zaxiralarni qoplash yuzasidan o'z va qarzga olingan mablag'larning yetarligi yoki etishmasligini hisob kitob qilish lozim.

5-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni man balashda o'z mablag'larining ortiqchaligi yoki etishmovchiligi

| Manbalash turi | Davri | Hisob kitobi | Ortiqchalik yoki etishmovchilik |
|--|------------|----------------|---------------------------------|
| Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z manbalarining yetarligi (+) yoki etishmasligi (3-8) | Davr boshi | -134864-951735 | -1086599 |
| | Davr oxiri | 313900-1757145 | -1443245 |
| | O'zgarishi | | -356646 |
| | | | Etishmovchilik ortgan |

6-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni man balashda o'z va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'larning ortiqchaligi yoki etishmovchiligi

| Manbalash turi | Davri | Hisob kitobi | Ortiqchalik yoki etishmovchilik |
|--|------------|----------------|---------------------------------|
| Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarligi (+) yoki etishmasligi (-) (5-8) | Davr boshi | 666656-951735 | -285079 |
| | Davr oxiri | 741068-1757145 | -1016077 |
| | O'zgarishi | | -730998 |
| | | | Etishmovchilik ortgan |

7-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni man balashda jami mablag'larning ortiqchaligi yoki etishmovchiligi

| Manbalash turi | Davri | Hisob kitobi | Ortiqchalik yoki etishmovchilik |
|---|------------|-----------------|---------------------------------|
| Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarining yetarligi (+) yoki etishmasligi (-) (7-8) | Davr boshi | 1254711-951735 | +302796 |
| | Davr oxiri | 1941884-1757145 | +184739 |
| | O'zgarishi | | -118057 |
| | | | Ortiqchalik pasaygan |

8-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni man balashdagи yakuniy holat xulosasi

| Davri | Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z manbalarining | Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarzga olingan | Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarining |
|-------|--|--|---|
| | | | |

| | yeterliliqi (+) yoki etishmasligi | mablaglarning yeterliliqi (+) yoki etishmasligi (-) | yeterliliqi (+) yoki etishmasligi |
|------------|-----------------------------------|---|-----------------------------------|
| Davr boshi | -1086599 | -285079 | +302796 |
| Davr oxiri | -1443245 | -1016077 | +184739 |
| | Nobarqarorlik | Nobarqarorlik | Barqarorlik |

Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni belgilab olish mumkin;

-xususiy kapitalni hajmini oshirish. Buning uchun firma va kompaniyalar ta'sischilarini qo'shimcha badallarini jalb qilish shuningdek, faoliyatning keyingi davalralari bo'yicha foyda summasini oshirish talab qilinadi.

-ko'p harajat talab qiladigan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar o'rniga yangilarini olib kirish;

-bank kreditlarini aniq biznes reja va foydali loyiham hisobiga jalb etish hamda ularni umumiy mablag'lar tarkibidagi hissasini kamaytirib borish, firma va kompaniyalarning moliyaviy qaram bo'lib qolmasligiga harakat qilish;

-firma va kompaniyalarda to'lov intizomiga, shartnomaviy shartlarga to'la amal etgan holda debitor va kreditor qarzlarining ko'payib ketmasligini oldini olish;

-oborot aktivlarni manbalash yuzasidan ijobiy farqlanishlarni ta'minlash;

-iqtisodiy resurslarni joylashtirish va boshqarishdagi optimallikni yo'lgaga qo'yish va.h.k.

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko'rsatkich bo'lib, korxona faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka erishgan korxonalar quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

- bozor munosabatlarni har xil sharoitlarida ham faoliyat yurita olishi;
- korxona pul mablag'larini erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;
- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlanтирish va to'lov qobiliyati, kreditga layoqatlagini ta'minlay olishi;
- ishlab chiqarish zahiralarini va xarajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda moliyaviy barqarorlikka ta'aluqli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahsilii yeterlicha yoritilmagan.


Moliyaviy barqarorlik mazmun jihatidan turlicha ta'riflanadi. To'lov qobiliyati, balans likvidligi, korxonani bozor faolligi ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida ko'rlishi mutlaqo noto'g'ri.

Tahsil davomida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim.

Ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin.

- korxona faoliyatini tarmoq xususiyatiga mos kelishi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmat tuzilishi (strukturasi);
- ustav kapitaliga to'langan miqdor hajmi;
- xarajatlar miqdori, ularni daromadlarga nisbatli dinamikasi;
- mol-mulk va moliyaviy resurslar holati, shu jumladan, zahira va rezervlar, ular tarkibi va tuzilishi.

Tashqi omillarga xo'jalikni yuritishning iqtisodiy shartlari, to'lovga qodirlilik, xaridorlarning daromadlik darajasi, davlatning soliq va kredit bo'yicha siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar kiradi.



Umumiy barqarorlik chegarasini yuqori yoki past bo'lishi turli xil sabablarga bog'liq (-chizmaga qarang).


- "Barqarorlik zaxirasi" - bir necha yillar davomida shakllangan moliyaviy zaxiralar miqdori tasodifiy va keskin tashqi kutilmagan o'zgarishlarni oldini olishga qaratilgan.

- texnik – iqtisodiy barqarorlik – investitsiya loyihalari samaradorligi, texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruvni tashkillashtirish; pul oqimlarini harakati tufayli foydaga erishishni ifodalaydi.

- moliyaviy barqarorlik – daromadni harajatlarga nisbatan va resurslar holatini yuqori bo'lishi, pul mablag'larining erkin harakatini ta'minlaydi, mablag'lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish uzlusizligi, uni kengaytirish va yangilanishi uchun zamin yaratadi.

Moliyaviy barqarorlik o'z va chetdan jalb etilgan kapitallar nisbati, joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyat tufayli o'z kapitali jamg'armasini o'sish darajasi, harakatchan va immobilizatsiya qilingan resurslar nisbati, zahiralarini o'z mablag'lari manbai bilan ta'minlanishini ifodalaydi.

Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta'minlashi lozim. Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin.




3-rasm. Korxona moliyaviy barqarorligini turlari

- joriy – konkret (aniq) davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;
- imkon – tashqi sharoit o‘zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;
- yuzaki – davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;
Dividend siyosatining empirik tekshiruvi.

Dividendlarning firma aksiyalarini baholashga ta’sirini tushuntirishi mumkin bo‘lgan bir qator omillarning mavjudligiga qaramay, ularning ko‘pini tekshirish qiyin. Empirik tekshiruv asosan soliqlar ta’sirini baholash va moliyaviy signalizatsiya etkazishdan iborat bo‘ladi. Dividendlarni afzal ko‘rish, joylashtiruv harajatlari,

tranzaksion chiqimlar va institutsional cheklovlar kabi omillar xech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi, deyishdan yiroqmiz. Biz faqat shuni atmoqchimizki, ushu omillar ta’sirining natijasi qanday bo‘lmasin, bu soliqlar ta’siri va moliyaviy signalizatsiya bilan to‘liq qoplanadi.

Soliqlar ta’siri haqida gapiradigan bo‘lsak, dividend daromadi foyda ortishiga nisbatan yuqoriq soliqlar tortilishi holatlarida unda aksiyalar narxi va daromadlilik stavkasi (soliqlarni to‘lashdan avval) buni aks ettirishi lozim. Empirik natijalarda haqiqatdan ham investorga soliqlar ta’sirini qoplash uchun baland dividendlar beriladigan aksiyalar past dividendlar to‘lanadigan aksiyalarga nisbatan kattaroq soliqlardan avvalgi daromadlilikni ta’minalashi borasida chalkashlik kuzatiladi. Biroq, so‘nggi yillarda dividendlarning “neytralligini” tasdiqlovchi dallillar ko‘paymoqda.

Soliqlar ta’siri borasidagi chalkash natijalardan farqli o‘laroq, moliyaviy signalizating berilishini tekshirish “dividendlar yordamida e’lon” qilish foydasiga dalil beradi. Dividendlarning ortishi aksiyalarning daromadliligining ijobjiy o‘zgarishiga olib keladi. Dividendlarning kamayishi esa daromadlilikning pasayishiga olib keladi. SHu tariqa, dividendlar yordamida ma’lum axborotni berish mumkin ekan. Aytigelarning kelib chiqib, korporatsiyaning dividend siyosati borasida qanday xulosalarga kelish mumkin?

Korporativ siyosatga doir xulosalar¹.

Kompaniya shunday bir dividend siyosatini yurgazishi kerakki, u aksiyadorlarning farovonligini oshirsin. Agar kompaniya yetarli darajada daromadlil investitsion imkoniyatlarga ega bo‘lmasa, u har qanday ortiqcha mablag‘larni o‘z aksiyadorlariga yo‘naltirishi kerak ekanligi barchaga ayon. Biroq, firma har safar daromadning ishlatilmagan qismini dividend shaklida to‘lashga majbur emas. Yanada qulay variant sifatida firma uzoq muddat davomida muntazam ravishda barqaror dividendlarni to‘lashni tanlashi mumkin. Biroq, taqsimlanmagan daromad va kompaniya o‘z kapitalining o‘sishi bilan ta’minlangan katta (to‘ng‘ich) obligatsiyalarni chiqarish hisobiga jalb etilgan mablag‘lar yangi daromadli investitsion imkoniyatlarni hajmiga mutanosib bo‘ladi. Dividend siyosati avvalgidek investitsion imkoniyatlarni hajmi bilan belgilanadigan passiv natija bo‘lib qoladi.

Firma barcha maqbul investitsion imkoniyatlarni amalga oshirganidan keyin qoladigan daromad qoldig‘idan ko‘proq dividendlarning to‘lanishi oqlangan bo‘lishi uchun, bozorda qandaydir bir dividendlarni afzal ko‘rish imkoniyatlari kuzatilish lozim. Biroq, “quruq qoldiqda” biz ayтиб o‘tgan dalillardan har birini keltirib, ular asosida qandaydir yakuniy natijaga kelish oson bo‘lmaydi. Faqat ayrim investorlarning institutsional cheklovlarini va nimanidir afzal bilishlari dividendlarning to‘lanishi yoqlaydi. Boshqa dalillar yo‘neftal natijani nazarda tutadi, yoki daromadni firmada goldirish foydasiga ishlaydi. SHunday bo‘lsada, dividendlarni umuman to‘lamagandan ko‘ra, ularni ma’lum bir cheklangan miqdorda to‘lab turish foydali deb hisoblanadi. Bunday fikr institutsional cheklovlar va moliyaviy signalizatsiya effekti bilan izohlanishi mumkin. Qolgan hammasi sirligicha saqlanadi. Ayrimlarning ta’kilashicha, hatto o‘rtamiyona dividendlar ham firma qiymatini baholashga ta’sir ko‘rsatmaydi. Ayrim mutaxassislar esa passiv siyosat

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 304 page.

bilan buyurilgan darajadan ortiq dividendlar aksiyalar narxining oshishiga olib keladi, deya ta'kidlaydilar. Individual soliqlar va joylashtirish xarajatlarini hisobga olgan holda, kompaniya dividend to'lash uchun aksiyalar chiqqanida aksiyadorlar puldan yutqazadilar. YAkuniy xulosa chiqarishdan avval, dividend siyosatiga doir qarorni ishlab chiqishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qator amaliy mulohazalarni ko'rib chiqamiz.

Dividend siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Shu paytgacha biz faqat divident siyosatining nazariy jihatlarini muhokama qildik. Shunga qaramay, kompaniya dividend siyosatini ishlab chiqqanida, u boshqa bir qator omillarni ham hisobga oladi. Mana shu qo'shimcha mulohazalarni dividendlarni to'lash va firma qiymatini aniqlashga doir nazariy qarashlar bilan o'zaro nisbatini aniqlash joiz. Quyida biz bir qator amaliy omillarni ko'rib chiqamizki, ular dividend siyosatiga doir qaror qabul qilishda firma rahbariyati tomonidan tahlil qilinishi kerak bo'ladi.

Yuridik me'yorlar.

Firmaning yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olinishiga doir qonunlar oddiy aksiya egalariga to'langan har qanday mablag'larning qonuniy ekanligini asoslaysidi. Quyida muhokama qilinadigan yuridik me'yorlar firma rahbariyati tomonidan ishlab chiqqigan divident siyosatining yakuniy varianti amalga oshirilishi mumkin bo'lgan huquqiy chegaralarni belgilash uchun juda muhimdir. Ushbu yuridik normalar kapitalning "yomonlashuvi", bankrotlik va daromadni ushlab turishni suiiste'mol qilishga doir bo'lishi kerak.

2. Korxona dividend siyosatining asosiy yo'nalishlari va tahlili

Dividend siyosatining biz ko'rib chiqqan nazariy jihatlari muxokamasini hisobga olgan holda, firma rahbariyati, uning pul ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan maqbul investitsion loyihalarni moliyalashtirishdan so'ng uning qo'lida biror narsa qoldimi, yoki yo'qligini aniqlashni xohlaydi, albatta. SHu munosabat bilan firma o'z vaziyatini bir necha kelgusi yillarga oldindan tahlil qilib olishi kerak bo'ladi. Firmaning ma'lum dividendlarni to'lash borasidagi ehtimoliy qolibiyatini kelgusi pul oqimlari va kassa qoldiqlari nuqtai nazardan tahlil qilish lozim. Mana shu tahlil asosida kompaniya o'zining ehtimoliy kelgusi qoldiq fondlarini aniqlashi mumkin bo'ladi.

Dividendlarning barqarorligi. To'lanadigan dividendlarning barqarorligi – ko'pgina sarmoyadorlarni jalb qiladigan xususiyatdir. Barqarorlik deganda biz firma tomonidan o'z dividend to'lovlaring qo'llab quvvatlanishini nazarda tutamiz. Bunda ma'lum bir (iloji bo'lsa tepaga yo'naltirilgan) trend liniyasiga bevosita yaqinlik bo'lishi kerak.

Dividendlar barqarorligini baholash. Aksiyadorlarning barqaror dividendlar borligi uchun aksiya narxiga "mukofot" to'lashga tayyorligi quyidagi omillar ta'siri bilan asoslangan bo'lishi mumkin: dividendlarning ma'lumot jihatdan to'ldirilishi, sarmoyadorlarning joriy daromad olish istagi, shuningdek, ma'lum institutsional mulohazalar bilan.

Dividendlarning ma'lumot jihatdan to'ldirilganligi.

Kompaniya daromadi pasaysayu, biroq u aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar kattaligini kamaytirmsa, bozorda ushbu kompaniya aksiyalariga nisbatan katta ishonch paydo bo'ladi. Bu ishonch dividendlar pasaytirilgan hollarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Barqaror dividendlar kompaniya rahbariyatining o'z kelajagiga ishonchi kuchli va asoslanganligidan dalolat beradi. SHu tariqa, kompaniya rahbariyati dividendlarning ma'lumot beruvchi mohiyatidan foydalani, investorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, rahbariyat bozorni doimiy ravishda aldab kelolmaydi. Agar daromadning kamayishi davom etsa, barqaror dividendlar juda uzoq vaqt "porloq" kelajakni aks ettira olmaydi. Inchunin, agar firma daromadi o'zgaruvchan bo'lgan beqaror biznes bilan shug'ullansa, barqaror dividendlar bu biznesni ishonechli qilib ko'rsata olmaydi.

Biroq dividendlar faqat agar daromad oshishi bunga yo'l qo'ysagina, oshiriladi.

Sarmoyadorlarning joriy daromad olish istagi. Bu – investorlarning barqaror daromad hisobiga tanlovni amalga oshirishga undovchi ikkinchi omildir. Ma'lum darajada muntazam daromad olishga intiluvchi aksiyadorlar beqaror dividendlarni to'lovchi kompaniyani emas, balki barqaror dividendlar bilan ta'minlovchi kompaniyani tanlaydilar. Hatto agar mazkur ikki kompaniyaning daromad va dividend summasi bir xil bo'lib chiqsa ham. Daromad olishni istagan sarmoyadorlar xar doim aksiyalarni sotib yuborishlari mumkin bo'lsada, agar to'lanayotgan dividendlar o'chami ularni qoniqtirmsa, boshqa kompaniyani tanlashlari mumkin. chunki ko'pgina investorlar o'zlarining asosiy kapitali deb hisoblagan aksiyalarini sotib yubormasdan, ulardan muntazam daromad olib turishni istaydilar. Inchunin, kompayaniya dividendlarni to'lashni kamaytirsa, uning daromadi ham odatda kamayadi. Kompaniyaning oddiy aksiyaladarining bozor narxi bilan ham xuddi shu jarayon sodir bo'ladi. Umuar joriy daromad olish imkoniyatini o'ylagan investorlar o'z aksiyalarining bir qismini sotish orqali ehtiyojlarini qondirish imkniyati bo'lsada, barqaror dividendlar olishni afzal ko'radian.

Institutsional mulohazalar. Barqaror dividendlar yuridik nuqtai nazardan afzalroq bo'lishi mumkin. Chunki muayyan institutsional investorlarda oddiy aksiyalarni sotib olish imkoniyati bor – yo'qligi munosabati bilan turli davlat idoralari mansiya fondlari, jamg'arma banklari, ishonchli mulkdorlar, sug'urta kompaniyali va boshqa muassalar o'z mablag'larni kiritishi mumkin bo'lgan qimmatbaho qohozlarning tasdiqlangan (yoki qonuniy) ro'yxatlarini tuzadilar. Bunday ro'yxatga kirish huquqiga ega bo'lish uchun, kompaniyaga ko'pincha u tomonidan uzoq muddat davomida uzlusiz dividendlar to'lanishi haqida guvohlik keltirish talab etiladi. Dividendlarni to'lash jarayonidagi uzilishlar uning bunday ro'yxatdan chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Barqaror dividendlar aksiyaning bozor narxiga ijobji ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yoqlab keltirilgan dalillar ko'proq tahminlarga asoslanadi. Ushbu dalillar foydasiga keltirish mumkin bo'lgan amaliy tasdiq juda kam. Alovida akiyalar tadqiqoti barqaror dividendlar kompaniya daromadi tushgan paytlarda buning aksiyalarning baland narxlari bilan qoplanishini tasdiqlasada, dividendlar barqarorligi va firma qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishga harakat qilib o'tkazilgan tadqiqotlar ham biz ma'lum (buncha ancha keng djoirada aksiyalar

tanlangan edi). Shunga qaramay, aksariyat kompaniyalar o‘z dividend to‘lovlarining barqarorligini ta’sinlashga harakat qilishadi. Bu esa barqaror dividendlar firma qiymatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, degan umumiy firkga mos keladi.

Dividend to‘lovlarining rejali koeffitsientlari.

Shunday taassurot tug‘iladiki, ayrim kompaniyalar “dividendlar to‘lashning rejali koeffitsientlari” bilan bog‘liq siyosatni amalga oshiradilar va uni ancha uzoq vat davomida amalga oshirishga harakat qiladilar. Jon Lintnerning ta‘kidlashicha, dividendlar daromad o‘zgarishiga mos ravishda korreksiyananadi. Bunda faqat biroz kechikish kuzatiladi. Daromad yangi darajagacha oshganida, kompaniya faqat dividendlarni yangi pog‘onada saqlab qolishga ishonchi komil bo‘lganidagina, ularni oshiradi. Shuningdek kompaniyalar o‘zlarining dividendlarining mutlaq (absolyut) kattaligini qisqartirishga ham salbiy munosabatda bo‘ladilar. Mana shu ikki omil nima uchun dividend o‘zgarishi vaqt jihatidan daromad o‘zgarishidan ortda qolishini izohlaydi. Iqtisodiy yuksalish davrlarida ushbu kechikish sezilarli bo‘lib qoladi, chunki ushlab qolining daromad dividendlarga nisbatan ortadi. Pasayish davrlarida esa ushlab qolinayotgan daromad dividendlarga nisbatan kamayadi.

Muntazam va qo‘shimcha dividendlar.

Qo‘shimcha dividendlar – mutazam dividendlardan tashqari aksiyadorlarga to‘lanadigan bir martalik ajratmalardir. Qo‘shimcha divizzendlarni to‘lash alohida vaziyatlar bilan izohlanadi.

Muntazam dividendlar – firma tomonidan muntazam, “kutilgan” asosda to‘lanadigan dividendlar.

Kompaniya o‘zi uchun qulay bo‘lgan davrda aksiyadorlarga yo‘naltirilgan pul oqimini ko‘paytirishning usullaridan biri har chorak yoki yarim yilda to‘lanadigan muntazam dividendlardan tashqari qo‘shimcha dividendlarni e’lon qilishdan iboratdir. Qo‘shimcha dividendlar to‘lanishini e’lon qilar ekan, kompaniya sarmoyadorlarni bu hol muntazam to‘lovlar hajmining oshishini bildirmasligi to‘g‘risida ogohlantiradi. Bu usul ayniqsa daromadi chayqalib turuvchi kompaniyalarga juda ko‘l keladi. Qo‘shimcha dividendlardan foydalanish kompaniyaga muntazam dividendlarning barqarorligini saqlab turish imkonini beradi va bundan tashqari aksiyadorlarga firma ishi yurishayotganligini sezish uchun sharoit yaratadi. Biroq, agar kompaniya doimiy ravishda qo‘shimcha dividendlarni to‘layversa, ularning ma’nosini yo‘qqa chiqaradi. Bunda qo‘shimcha dividendlar kutilayotgan to‘lovlarga aylanadi. Agar qo‘shimcha (maxsus) dividendlardan to‘g‘ri foydalana bilsa, ular firmaning hozirgi va kelgusi ahvoli haqida ijobiy axborotni bozorga uzatishga qodirdir.

Aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar va aksiyalarning bo‘linishi.

Aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar va aksiyadorlar o‘rtasida bepul taqsimlash uchun yangi aksiyalarning chiqarilishi (yoki, oddiyroq qilib aytganda – aksiyalarning bo‘linishi) ko‘pincha turli tuman maqsadlar uchun ishlataladi. Iqtisodiy ma’noda ushbu ikki tushuncha o‘rtasida katta farq yo‘q. Muhim farq faqat buxgalteriya hisoboti nuqtai nazaridan mavjud.

Aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar.

Ko‘shimcha aksiyalarni kompaniya aksiyadorlariga berish ko‘pincha pul dividendlari o‘rniga (yoki, ulardan tashqari) qo‘llaniladi.

Aksiya bilan to‘lanadigan dividendlar – bu qo‘shimcha oddiy aksiyalarni kompaniya aksiyadorlariga berishdir. Bu bir oddiy buxgalterlik usuli bo‘lib, aksiyadorlik kapitalini firma balansi moddalari o‘rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Har bir aksiyadorning firma mulkidagi ulushi o‘zgarmay qoladi. Nazorat qiluvchi moliyaviy idoralar aksiyalaring kichik foizi bilan to‘lanadigan dividendlar va aksiyalarning katta foizi bilan to‘lanadigan dividendlar o‘rtasida muayyan farqni ko‘radilar.

Aksiyalarning salmoqli (katta) foizi bilan to‘lanadigan dividendlar.

Bunday dividendlar odatda avval muomalaga chiqarilgan aksiyalarning 25% yoki undan ortiqni tashkil qilib, boshqacharoq hisobga olinishi kerak. Aksiyalarning kichik foizi bilan to‘lanadigan dividendlar bir aksiyaning bozor narxiga katta ta’sir o‘tkazmasligi tahmin qilinsa, katta foiz bilan to‘lanadigan dividendlar aksiyaning bozor narxini sezilarli darajada pasaytiradi, deb hisoblanadi. Bunda konservativ yondashuv qo‘shimcha aksiyalarni o‘z nominali buyicha “Oddiy aksiyalar” moddasida hisobga olinishidan iborat bo‘ladi.

Aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar va aksiyalarning bo‘linishi: hissadorlar uchun nazarda tutiladigan foyda.

Agar investor joriy daromadga ega bo‘lish uchun bir necha aksiyasini sotish niyatida bo‘lsa, unda aksiya bilan to‘lanadigan dividend va aksiyalarning bo‘linishi uning vazifasini birmuncha engillashtiradi. Albatta, aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar bo‘lмаган holda ham aksiyadorlar qo‘llaridagi aksiyalarning bir nechtasini sotib, joriy daromadga ega bo‘lardilar. Qanday bo‘lganida ham, aksiyalarni sotish kapitalni sotish degani va kapital ortishiga solinadigan soliqqa tortiladi. Balki, ayrim sarmoyadorlar aksiya bilan to‘lanadigan dividendlar yoki aksiyalarni bo‘lish orqali kelgan qimmatbaho qog‘ozlarni sotishni kapitalni sotish deb qabul qilmaslar. Ular uchun aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar va aksiyalarning bo‘linishi bor yo‘g‘ri tasodifiy omad bo‘lib qoladi. Ular qo‘shimcha aksiyalarni sotishlari va bunda aksiyalarning birlamchi paketini saqlab qolishlari mumkin. Bunday hissadorlarga aksiya bilan to‘lanadigan dividendlar va aksiyalarning bo‘linishi ijobji psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zan aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar kompaniya pul resurslarini saqlab qolish uchun qo‘llaniladi. Pul dividendlarini daromad oshgani sayin ko‘paytirish o‘rniga firma o‘z daromadining katta qismini qoldirishni afzal ko‘rishi va aksiyalar bilan to‘lanadigan o‘rtamiyona dividendlar berilishini e’lon qilishi mumkin. Bunday qaror pirovardida dividendlarni to‘lash koeffitsientini kamaytirishga olib keladi: daromad oshgani sayin va dividendlarning tahminan bir xil darajada saqlanishi sari ularni to‘lash koeffitsienti pasayaveradi. Bunday xatti – harakatlar natijasida aksiyadorlarning farovonligi oshadimi, yo‘qmi, yuqorida keltirilgan omillarga bog‘liqdir. Albatta, firmada daromadning katta qismini olib qolish borasidagi qarorni boshqa yo‘llar bilan ham amalga oshirish mumkin. Aksiyalar bilan to‘lanadigan dividendlar ayrim aksiyadorlarni (avvalo, psixologik ta’sir natijasida) qoniqtirishiga qaramay, pul dividendlarining aksiyalar bilan almashtirilishi sezilarli ma’muriy

xarajatlar bilan bog'liq. Dividendlarni aksiya ko'rinishida to'lash pul to'lovlariga nisbatan ancha qimmatga tushadi. Bu xarajatlar esa aksiya bilan to'lanadigan dividendlarning "jozibasini" oshirmsasligi tayin¹.

Narx intervali deb ataluvchi usul bundan ancha qulayroq bo'ladi. Aksiyalarni bo'lish va kamroq darajada aksiyalar bilan to'lanadigan dividendlar aksiyalarni yanada pastroq (va demakki, yanada ommaboproq) narx intervaliga joylashtirish uchun qo'llaniladi. Bu esa ko'proq aksiyadorlarni jalb etib, individual aksiya egalari ko'payib, institutsional investorlar kamaygani sayin aksiyadorlar tarkibiga ham ta'sir etadi.

Aksiyalarni qayta sotib olish dividend siyosatining bir qismi sifatida.

Agar firma ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lsa va bu mablag'dan samarali foydalanish uchun daromadli investitsion imkoniyatlarni etishmovchiligini sezsa, unda ularni firma aksiyadorlariga yo'naltirish mumkin. Buni yo aksiyalarni qaytarib sotib olish, yoki orttirilgan dividendlar ko'rinishida amalga oshirish mumkin. Individual daromadlarga soliqlar bo'lmagan va tranzaksion xarajatlar yo'qligida ko'rsatilgan ikki variant aksiyadorlar uchun mutlaqo bir xil bo'ladi. Aksiyalarni sotib olish holatida muomalada ularning soni kamayadi; natijada bir aksiyaga daromad qiymati kamayadi va pirovard natijada bir aksiya uchun to'lanadigan dividendlar qiymati oshadi. Nazariy jihatdan, aksiyalarni qayta sotib olishning natijasi bo'lgan kapital ortishi aks holda to'lanishi mumkin bo'lgan dividendlarga teng bo'lishi lozim.

Dividendlarni reinvestitsiyalash (qayta investitsiyalash) dasturlari. Bu aksiyadorlarga avtomatik tarzda dividend to'lovlarini tegishli qompaniyaning qo'shimcha aksiyalariga qayta kiritish imkonini beruvchi ko'ngilli dasturdir. Bir qator yirik kompaniyalar tomonidan dividendlarni reinvestitsiyalash dasturlari ishlab chiqilgan. Ularga muvofiq aksiyadorlar o'z pul dividendlarini tegishli kompaniyaning qo'shimcha aksiyalariga qayta kiritish imkoniga ega bo'ladir.

Reinvestitsiyalash dasturining boshqa turi firma tomonidan yangi oddiy aksiyalarni chiqarilishi bilan bog'liq. Faqat shu holdagina firmada yangi pul mablag'larini jalb etishning real imkoniyati paydo bo'ladi. Investitsiyalarni qayta kiritishning ushbu dasturi qurilish va ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun mablag'larni jalb qilishga muhtoj kompaniyalar orasida ayniqsa ommabop bo'lib ketdi. Mohiyatan olganda, bunday dastur firma tomonidan pul dividendlarining to'lanishining kamaytirilishiga olib keladi. Deylik, yangi oddiy aksiyalarni chiqarishga asoslangan reinvestitsiyalash dasturini qo'llayotgan firma hozirgi paytda dividendlar to'lashning 60% lik koeffitsientini ta'minlaydi. Biroq, yangi oddiy aksiyalarga qayta kiritilayotgan barcha pul dividendlari chiqarib tashlanganidan keyin, "amaldagi" to'lovlar 40% gacha tushishi mumkin. Yirik kompaniya uchun bunda tejalgan mablag'lar miqdori bemalol bir necha million dollarni tashkil etishi mumkin. bunday dasturda ushbu jarayonlarning bevosita manbai kompaniya bo'lib, xech qanday brokerlik xarajatlari ham bo'lmaydi. Yangi aksiyalar chiqarishga asoslangan ana shu dasturlardan ayrimlari hatto o'z ishtirokchilariga joriy bozor narxidan chegirma bilan sotib olish imkonini beradi. Odatta bunday chegirma 3-5%ni tashkil etadi va qayta investitsiyalash uchun qo'shimcha rag'bat bo'lib xizmat

iladi. Dividendlarning qayta sarmoya sifatida kiritilishiga qaramay, ular baribir aksiyadorning oddiy daromadi sifatida soliq tortiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda dividend siyosatini shakllantirishga ko'pgina nazariy tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lib, eng keng tarqalgan nazariyalar qo'yidagilardir:

1. Dividendlar mustaqilligi nazariyasi (mualliflar F.Modilyani va M.Miller);
2. Dividendlarning ma'qulligi nazariyasi (yoki «yaqindagi o'pka yaxshi», mualliflari M.Gordon, D.Linter);
3. Dividendlarni minimallashtirish nazariyasi (yoki «soliqni nazarda tutish nazariyasi»);
4. Dividendlarning signalli nazariyasi (yoki «xabar berish nazariyasi»);
5. Aksiyadorlar tarkibiga dividend siyosatining mos kelishi dividend siyosati nazariyasi (yoki «mijozlar nazariyasi»).

Dividendlar to'lash nazariyasini amaliyotda qo'llash dividend siyosatini shakllantirishning uch xil yondashuvini tanlash imkonini beradi.

1-jadval

| Dividend siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi yondashuv | Dividend siyosatida foydalaniladigan variantlar |
|---|---|
| 1. Konservativ yondashuv | <p>1. Dividentni to'lashda qoldiq siyosati, ya'ni dividendlarni investitsiya qarorlariga bog'liq ravishda to'lash siyosati. Ushbu siyosatni investitsiyaviy imkoniyatlari barqaror bo'lmagan kompaniyalar qo'llashadi.</p> <p>2. Barqaror dividend to'lovlarini siyosati yoki dividendlar bo'yicha qat'iy belgilangan miqdor to'lovi siyosati. Ushbu siyosat aksiyalarning kurs qiymati o'zgarishiga qaramay belgilangan muddatda bir aksiya uchun doimiy o'zgarmagan miqdordagi dividendlar to'lovini nazarda tutadi. Bunday siyosat aksiyadorlar uchun past tavakkalchilikni, dividendlar bo'yicha olinadigan daromadning doimiyligini, qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligini ta'minlaydi.</p> |
| 2. Mo'tadil yondashuv | <p>3. Alovida davrlarda qo'shimcha to'lov bilan dividendlarning minimal barqarorlik miqdori siyosati (dividend to'lovlar bo'yicha kompromiss siyosati). Mazkur siyosatning mohiyati shundan iboratki, aksiyadorlik jamiyatini dividendlar bo'yicha belgilangan qat'iy miqdordagi to'lovlarini amalga oshirib keladi va moliyaviy barqaror yillari qo'shimcha bonus (ustama) to'lovlarini to'lab beradi. Ushbu siyosat tashkilotning dividendlar to'lovlarini moslashuvchanligini ta'minlashga yordam beradi.</p> |
| 3. Agressiv yondashuv | <p>4. Dividendlarning barqaror darajasi siyosati yoki doimiy foiz bo'yicha dividendlarni to'lash siyosati, «dividend chiqishi» koefitsienti, ya'ni oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarning daromadga nisbatli orqali hisoblanadi.</p> <p>5. Dividendlar miqdorini doimiy oshirib borish siyosati.</p> |

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 301 page.

Bundan tashqari, dividend to'lovlar shakli bo'yicha ham siyosatlar mavjud. Masalan, aksiyalar hisobiga dividend to'lovlarini amalga oshirish siyosati. Aksiyadorlarga dividend to'lovlarini aksiyalar ko'rinishida, ya'ni qo'shimcha aksiyalar chiqarish hisobiga amalga oshirishni nazarda tutadi.

Tanlangan dividend siyosatiga muvofiq AJ foydasini taqsimlash mexanizmi quyidagi harakat ketma-ketligini nazarda tutadi:

1. Sof foyda miqdoridan jamiyat ustavida ko'zda tutilgan zahira va boshqa maxsus jamg'armalarga ajratmalar chegirib tashlanadi.

2. Foydaning qolgan qismi kapitallashtirish va iste'molga taqsimlanadi.

3. Foyda hisobiga shakllantirilgan iste'mol jamg'armasi dividendlar to'lash va AJ xodimlarining iste'mol jamg'armalariga (xodimlarni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish va ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun) taqsimlanadi.

Bir oddiy aksiyaga **dividendni to'lash darajasi** (DTD) ushbu formula orqali aniqlanadi:

$$DTD = DTF - IT/M_{oa}$$

bu erda: **DTF** - tanlangan dividend siyosatiga muvofiq shakllantirilgan dividend to'lash fondi;

IT - imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan dividend jamg'armasi;

M_{oa} - AJ tomonidan emissiya qilingan oddiy aksiyalar soni.

Dividend siyosatini shakllantirishning muhim bosqichlaridan biri, dividend to'lash shaklidir. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

1. **Dividendlarni naqd pulda (chek) to'lash** - eng oddiy va keng tarqalgan usul.

2. **Dividendlarni aksiyalar bilan to'lash** - yangi chiqarilgan aksiyalarni dividend qiymati o'rniiga aksiyadorlarga berish

3. **Avtomatik reinvestitsiyalash** - aksiyadorga dividend shakli - naqd puldamni yoki aksiya bilan olinadimi, tanlash huquqi beriladi.

4. **Kompaniya tomonidan aksiyalarni sotib olish** - dividend jamg'armasi miqdoriga kompaniya bozorda erkin muomaladagi aksiyalarning bir qismini sotib oladi. Bu qolgan aksiyalarga to'g'ri keluvchi foyda miqdori va kelgusi davrda dividend to'lash koeffitsientini oshirish imkoniyatini beradi.

AJ ning dividend siyosati samaradorligini baholashda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi:

1. Dividend to'lash koeffitsienti:

$$D_{tk} = DTF / SF \text{ yoki } D_{tk} = Da / SF_a$$

bu erda,

DTF - dividendlarni to'lash fondi;

SF – AJning sof foydasi;

Da - bir aksiyaga to'lanadigan dividend miqdori;

SF_a - bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda.

2. Aksiya bahosining daromadiga nisbatli koeffitsienti:

$$Kb/d = AB_b/Da$$

bu erda: **AB_b** - aksiyaning bozor bahosi.

Ushbu koeffitsiyentlarning amaliy jihatdan qo'llanilishini alohida korxona ma'lumotlari asosida o'rganish mumkin.

3. Firma va kompaniyalar bozor aktivligini tahlili

Bozor aktivligi, korxonaning bozordagi nufuzi va obro'sini, anglatuvchi indiqator sifatida qaraladi. Firma va kompaniyalarini bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatoriga firma va kompaniyalarning xususiy kapitalining birlik ko'rsatkichlarining foydalilik va daromadlik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar kiritiladi.

2-jadval

Firma va kompaniyalar bozor aktivligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Bitta aktsiyaning potensial, daromadligi | = | Korxonaning bitta aktsiyasiga sof foyda |
| 2 | Bitta aktsiyaning haqiqiy daromadligi | = | Bitta aktsiyaga dividend summasi |
| 3 | Bitta aktsiya kurs bahosining o'zgarish koeffitsienti | = | Bitta aktsiyaning nominal narxi |
| 4 | Aksiyalar bo'yicha to'langan dividendlarning salmog'i koeffitsienti | = | Aktsiyaning sotuv bahosi – Aktsiyaning sotib olish bahosi |
| | | | Barcha to'langan dividendlar summasi |
| | | | Korxonaning sof foydasi |

Davlat mulkini xususiyashtirish natijasida tashkil etilgan aktsionerlik jamiyatlarini mulkiy jamg'armalarini shakllantirishda ular tomonidan chiqarilgan aktsiyalarni joylashtirish muhim masala hisoblanadi. Aktsiyalarni dastlabki, nominal qiymati shakllantirish, firma va kompaniyalarning ish faolligi, foydaligi ta'sirida o'zgarib boruvchi aktsiyalarning bozor qiymatlarini o'rganish asosida firma va kompaniyalarni dividend siyosatiga ham baho berish mumkin.

Aktsiyalarning bozor qiymati, birlamchi va ikkilamchi bozorda firma va kompaniya aktsiyalarini narxlarini oshishini tavsiflaydi. Firma va kompaniyalarini bozordagi faolligini esa bitta aktsiyaning daromadlik, foydalilik darajasi ta'minlaydi. Bunga bevosita firma va kompaniyalarini dividend siyosatining ta'siri, firma va kompaniyaning rentabellik darajasi, moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobiligi kabi ko'rsatkichlar ta'sir etadi.

Korxona bozor aktivligini tahlili yuzasidan olib boriladigan ishlar ko'lamdorligi ularni tahlil etish metodikasini belgilashda asosiy jihatlar quyidagilarga karatiladi:

- korxonaning bozor aktivligi ko'rsatkichlarini tavsiflash;
- bozor aktivligini qiyosiy o'zgarishlarini baholash;
- korxonaning bozor aktivligini omilli tahlil etish;
- bozor aktivligini o'stirish yo'llarini belgilash;
- aktsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozordagi holatini baholash
- bozor aktivligini moliya bozorini rivolantirishdagi jihatlari.

3-jadval

Korxona bozor aktivligini tahlili

| Ko'rsatkichlar | Joriy davr | O'tgan davr | O'zgarishi |
|--|------------|-------------|------------|
| 1.Korxonaning sof foydasi (ming so'm) | 300000 | 365000 | +65000 |
| 2.E'lon qilingan dividend summasi (ming so'm) | 165000 | 184000 | +19000 |
| 3.Aktsiyalarning soni, dona | 150000 | 150000 | - |
| 4.Bitta aktsiyaning nominal bahosi (so'm) | 5000 | 5000 | - |
| 5.Bitta aktsiyaning bozor bahosi (so'm) | 6000 | 7000 | +1000 |
| 6.Bitta aktsiyaga sof foyda (so'm) | 2000 | 2433 | +433 |
| 7.Bitta aktsiyaga dividend summasi (so'm) | 1100 | 1226 | +126 |
| 8.Bitta aktsiyaning potentsial daromadliligi (so'm) | 0.33 | 0.34 | +0.01 |
| 9.Bitta aktsiyaning haqiqiy daromadliligi (so'm) | 0.22 | 0.24 | +0.02 |
| 10.Bitta aktsiya kurs bahosining o'zgarish koeffitsienti | 0.20 | 0.40 | +0.20 |
| 11.Aktsiyalarga to'langan dividendlarning salmog'i koeffitsienti | 0.55 | 0.50 | +0.05 |

Korxonada bitta aktsiyaning potentsial daromadligi o'tgan yilga nisbatan +0.01 darajaga o'sgan. Xaqiqiy daromadligi esa +0.02 darajaga, bitta aktsiyaning kurs bahosining o'zgarishi koeffitsenti esa +0.20 darajaga, to'langan dividendlar malmog'i koeffienti +0.05 darajaga ortgan.

Korxonaning bozordagi jozibadorligi yuazasidan, investorlar va hamkorlar, raqobatchilarni ko'pincha korxona aktsiyalarining daromadligi, foydaligi, aktsiyaning bozordagi bahosining o'sish darajalari, aktsiyaning devidendligi qiziqfiradi. Bu jihatlar, moliyaviy holatdagi va undagi o'zgarishlarni bozor indiqatorlari asosida baholashda har bitta ko'rsatkichni dinamik tahlil etishni, o'zgarish sabablarini chuquq tahlil etishni hamda aniq echimlar yuzasidan moliyaviy chora-tadbirlar rejasini tuzib olishni talab etadi.

Bozor aktivligi ko'rsatkichlarini omilli tahlili, har bitta ko'rsatkichni alohida uzgaruvchi birlik sifatida qarashni va o'zgarishlar sabablarini izohlashni harakterlaydi.

Bozor aktivligi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar (ko'rsatkichlar bo'yicha):

Bozor aktivligini oshirishning muhim jihatlari korxonanining dividend siyosatining qay tarzda yuritilishga ham bog'liq. Odatda sof foydaning dividend to'lovlariga yo'anltirilgan qismi birinchi naybatda imtiyozli aktsiya egalariga, qolgan qismi esa oddiy aktsiya egalari o'rtasida taqsimlanish lozim. Agar korxonaning bozordagi jozibadorligi oshib borsa albatta, aktsiyalarni nafaqat dividend shaklida daromad keltirishi balki, kurs o'zgarishi hisobga ham daromad keltirishi mumkinligini unga ega bo'lishga undaydi.

4-jadval

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularni omilli tahlili metodikasi

| t/r | Ko'rsatkichlar | Aniqlanishi formulasi | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi |
|------|--|--|------------|--------------|-------|
| | | 3 | | | |
| 1 | Bitta aktsiyaning daromadligi (Da) | Da=Asf/Abb | 1200 | 1600 | +400 |
| | Omillar ta'siri: | Dash | | 1300 | +400 |
| 1.1. | Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan sof foyda o'zgarishi ta'siri | Dash-Dao'=Asfh/Abbo'-Asfo'/Abbo' | x | | +100 |
| 1.2 | Bitta aktsiyaning bozor bahosining o'zgarishi ta'siri | Dah-Dash=Asfh/Abbh-Asfh/Abbo' | x | x | +300 |
| 2 | Bitta aktsiyaning xaqiqiy daromadligi(Ad) | Ad=Ads/Anq | 2400 | 3100 | +700 |
| | Omillar ta'siri: | Adsh | | 3100 | +700 |
| 2.1 | Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan dividend summasi | Adsh-Ado'=Adsh/Anqo'-Adso'/Anqo' | x | x | +700 |
| 2.2 | Bitta aktsiyaning nominal qiymati | X* | x | x | x |
| 3 | Bitta aktsiyaning qurs farqi koeff.(Kak) | Kak=Asb-Aob/Anq | 0.20 | 0.32 | +0.12 |
| | Omillar ta'siri: | Kaksh | x | 032 | +0.12 |
| 3.1. | Aktsiyaning sotish olish va sotish bahosini o'zgarishi ta'siri | Kaksh-Kakh=(Asbh-Aobh/Anqo')-(Asbo'-Aobo'/Anqo') | | | +0.12 |
| 3.2. | Aktsiyaning nominal qiymati | X* | x | x | x |
| 4 | Aktsiyaga to'langan dividendlar salmog'i koeff. (Katd) | Katd=Tdus/Sf | 0.25 | 0.37 | +0.12 |
| | Omillar ta'siri: | Katdsh | x | 035 | +0.12 |
| 4.1. | Dividend summasining o'zgarishi | Katdsh-Katdo'=Tdush/Sfo'-Tduzo'/Sfo' | x | x | +0.10 |
| 4.2 | Sof foydaning o'zgarishi | Katdh-Katdsh=Tdush/Sfh-Tdush/Sfo' | x | x | +0.02 |

*-nominal qiymati o'zgargan hollarda hisob-kitob qilinadi

Korxonaning bozor aktivligini oshirishning amaliy chora tadbirlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim:

-korxonaning bozordagi nufuzini oshirishning eng ishonchli yo‘li ishlab chikarilgan mahsulot, ish va xizmatlarning sifatini oshirish, tashqi bozorga chiqish, faoliyat samaradorligi va natijaviyligini oshirib borish:

-korxonaning puxta uylangan ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy rejalarini aniq manzilli loyihamonlari tuzib chiqish va ularda ilmiy yangiliklarga harajatlarni oshirish;

-korxonaning bozordagi nufuzini himoyalashning puxta qonunchilik mexanizmini ishlab chiqish;

-korxonalarning aniq va uzuksiz dividend siyosatini yo‘lga qo‘yish.

Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarining joriy etilishi va takomillashib borishi natijasida dividendlar tahlili yanada muhim masalardan biriga aylanib boradi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiya tushunchasi va uning mazmunini ochib bering?
2. Kapital qo‘yilmalar nima?
3. Investitsiya obyektlari?
4. Investitsiya subyektlariga kimlar kiradi?
5. Invetsitsion tahlilini kimlar amalgaga oshiradi?
6. Invetsitsiyalaming moliyaviy tahlili mazmunini ochib bc- ring?
7. Investitsiyani qanday shakllari mavjud?
8. Invetsitsiyalami moliyaviy manbalashga qanday manbalar kiradi?
9. Invetsitsion kapitalni dastiabki va kclgusi qiymatlari qanday aniqlanadi?
10. Invetsitsion loyihamonlari moliyaviy tahlil ctish maqsadi va vazifalari nimada?
11. Invetsitsion loyihamonlari moliyaviy tahlil ctishning mazmunini tushuntirib bering?
12. Loyihalar samaradorligini baholash qanday amalgaga oshiriladi
13. Invetsitsion loyihamonlari tahlilida o‘rgamladigan asosiy jihatlar?
14. Invetsitsiyalami jalb ctishda marketing tadqiqollarining roli nimada?
15. Korxonalaming invetsitsion faolligini baholash mezonlariga izoh ber ring?
16. Invetsitsion lahlilni axborot manbalariga nimalar kiradi?
17. Invetsitsion loyihamonlari tuzib chiqishda tahlili amaliar qanday rol tutadi va ulaming samaradorligini belgilab beiuvchi jihatlar nimada?
18. Invetsitsion xavf-xatarilar (risklar) tahlili nima?
19. Invetsitsiyalami jozibadorligini tavsiflang?
20. Invetsitsion qarorlar va ulami ijnosida tahlilchi ckspertlanung roli nimada?

19-bob. KREDITGA LAYOQATLIK TAHLILI

Reja:

1. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari
2. Firma va kompaniyalarda, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil
3. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashda mablag‘lar likvidligi va to‘lov qobilyatini tahlili
4. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni boshqa qo‘srimcha ko‘rsatkichlari tahlili
5. Firma va kompaniyalarda kreditga va layoqatligini o’sririshning amaliy choratadbirlari

Tayanch so‘zlar:

Kreditga layoqatlik tafsifi, baholash mezonlari, vazifalari, metodologik jihatlari, tahlikalar tahlili maqsadi, kreditlarning muddatligi, to‘lovlov layoqa tini harakterlovch iko‘rsatkichlar.

1. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari

Firma va kompaniyalar iqtisodiy harakatda ,albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga yetarli mablag‘ tadbirkorlarda doimo yetarli darajada bo‘lavermaydi yoki umuman bo‘lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlar biznes hayotini kuzatish shuni ko‘rsatadiki faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, firma va kompaniyalar doimo aniq biznes loyihamonlari, rejalarini asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan foyda olishga harakat qiladilar.

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni tasdiq topgan me’yoriy aktlari va Nizomiga ta’yanagan holda har bitta biznes subektini kreditni, qarzni qaytarib berish layoqatiga egaligi o‘rganilmog‘i lozim.

Jahonda va mamalakatimiz amaliyotida kreditga layoqatlikni baholashda quyidagi mezonlarga tayaniladi.

- mijozning harakteri (Fe’l atvori);
- mijozning qarz olish qobiliyat;
- olingan qarzni uzish yuzasidan mablag‘lar ishlab topishga qobilligi;
- mijozning kapitali;
- kreditning ta’minlanganligi;
- kredit operatsiyalarini amalgaga oshirish chog‘idagi shart sharoitlar;
- mijoz faoliyatining qonunini jihatlarini nazorat qilimsh darajasi.

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini o‘rganishmaqsadida quyidagi ko‘rsatkichlarni baholashlozimligita‘ kidlanadi:

-kreditni o‘lashga qodirlikdarajasi niifodalovchiko‘rsatkichlarni baholash, tahliletish;

- mablag' larnilikvidligi (aylanuvchanligini) baholash, tahliletish;
- firma va kompaniyalar foydaligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni tahlil etish;
- moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni baholash, tahlil etish.

Bu jihatlar bank mijozining moliyaviy hisobotlari asosida o'rganiladigan, ularning moliyaviy holatiga bog'liq ko'rsatkichlarga nisbatan to'g'ri tarkiblangan deyish mumkin.

Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatligini baholashda olinadigan kreditni turiga, albatta qarash, ya'ni kredit mablag'larini uzoq (bir yildan ortiq muddatga), qisqa muddatga jalb etis hollarini e'tiborga olish lozim. Uzoq muddatli kreditlar odatda uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga, qisqa muddatli kreditlar esa aylanma aktivlarni manbalashga yoki shakllantirishga jalb qilinad¹.

Bank amaliyotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga qodirlilik darajasini baholashda bir qator moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. moliyaviy koeffitsentlarni tanlash va ularning mezon ko'rsatkichlari sifatida olinishi banking kredit siyosatining o'ziga xosligiga, mijozlarning fel atvoriga, moliyaviy axvoli va undagi o'zgarishlarni kutilishiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Kreditga qodirlilikni baholashning yuqoridagi tarkiblari albatta barcha banklar uchun yagona mezon hisoblanadi. Lekin bu mezonzlar har bitta tijorat banki, yoki moliya institutlarini kredit resurslarini joylashtirishda o'zaro manfaatli qoidalarni belgilashda bizningcha "ishonch" mezonini birinchi o'ringa ko'yishni inkor etmasligi lozim.

Buni qanday izohlash mumkin. Buning mazmuni shundaki, yaxshi va zur g'oyaga ega tadbirkorda yuqoridagi mezonlarning barchasi talab darajasida bo'lmaydi. Bunga turli sabablar ta'sir etadi. Lekin yashxi va zur goyaga ega bo'limgan mijozda mazkur mezonlar va ko'shimcha talablar ortigi bilan bajariladi. Uz uzidan ayonki kredit resurslari birinchi subyekt emas rasmiy xujjatlari talabga javob beradigan ikkinchi subyekt olishiga imkoniyatlari bo'ladi.

Firma va kompaniyalarning kreditga qodirlilik darajasini uning to'lovga qobilligi, likvidligi, moliyaviy barqarorligi, kapitalning foydaliligi kabi ko'rsatkichlar asosida bayon etish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarning mezoniga tayangan holda firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tavsiflovchi "sinf" shkalasi tuzib chiqiladi. Ushbu shkala bo'yicha firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini harakterlovchi ko'rsatkichlardarajasibirinchiva ikkinchisinfga tushsa, firma va kompaniyakreditni olishga layoqatli qolgan sinflarbo'yichakreditni olishga noloyiqdebttopiladi.

Tahli letishda, kredit tashkilotlarining inspektorlari tomonidan, kredit olishhaqida ariza bergen har bitta firma yoki kompaniyaning auditorlik xulosasi olingan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida moliyaviy holati baholanadi. Baholash natijasi bo'yicha bayonnomma tuziladi va bubayonnomma kredit oluvchi bilan tuziladigan kredit shartnomasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholashda tahlil oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi;

- firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini davriy oraliqlar bo'yicha o'rganish;

■ firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydaliligini baholash;

- mablag'arni joylashinuvidagi holat, ularning aylanuvchanligini baholash;

■ muddati o'tgan majburiyatlarning holati, firma va kompaniyalarning moliyaviy mustaqillik darajasidagi o'zgarishlar, sotish hajmidagi o'sish, likvid mablag'larning holati kabi qo'shimeha ko'rsatkichlarga baho berish;

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy hisobotni barcha shakllaridan foydalanish, ularning muvofiqligiga va davriy o'zgarishlariga ahamiyat berish talab etiladi.

Korxona kreditga qodirligitahlilida moliyaviytahlilva taxlikalar tahlili amalgaloshiriladi.

Taxlikalar tahlili maqsadi –kreditni berish imkoniyatlari va darajasini aniqlashga qaratilgan.

Moliyaviy holatni baholash maqsadi -moliyaviy ahvolva undagi o'zgarishlarni, o'zgarish sabablarini hisobga olganholda tahlili qorolar tayyorlashga qaratilgan.

Mazkur masoqsaddan kelib chiqqan holda kreditga layoqatlilikni tahlilida:

- baholash ko'rsatkichlari dinamikasi,
- buxgalteriya balansini takibiy moddalarli,
- aktivlar sifati,
- xo'jalik subyekti moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlil etiladi.

Kreditga qodirlilik tahlilini miqdoriy kursaktkichlar qatorida quyidagi asosiy baholash ko'rsatkichlari tahlil etiladi:

- likvidlik koeffitsentlari;
- uzva qarz mablag'larini nisbati koeffitsenti;
- aylanuvchanlik va rentabellik ko'rsatkichlari.

Asosiy baholash ko'rsatkichlarning amaldagi holati normativ kursaktkichlar bilan taqqoslangan holda kredit resurslarini harakati yuzasidan qarorlar chiqariladi. Uchinchi guruh ko'rsatkichlar bo'yicha odatda optimal va krtiknormalar belgilanmasligi mumkin (korxonaning o'ziga xos xususiyatlari, tarmoq xususiyatlari va boshqa aniq shartlarga muvofiq).

Mazkur ko'rsatkichlar natijalariga qarab agar talab qilinsa, reyting ballarini ham hisoblab chiqish mumkin.

1-jadval

Xo'jalik subyektning kreditga qodirligini baholashda o'rganilishi lozim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar

| Ko'rsatkichlar | | Hisoblash formulasasi |
|-----------------------------|--------------------------------|---|
| 1.Mustaqillik koeffitsenti | K1=UMM/BJ yoki K1=UMM/UMM+M | UMM-Uz mablag'larini manbasi BJ-Balans jami M-Majburiyatlar |
| 2.Aylanma aktivlarning jami | K2=JA/A | JA-Joriy aktivlar |

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 99 page.

| | | |
|--|--------------------|--|
| aktivlardagi salmog'i | | A-Aktivlar jami |
| 3. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsenti | K3=UMM+UMKK-UMA/JA | UMA-Uzoq muddatli aktivlar UMKK-uzoq muddatli kredit va qarzlar |
| 4. Joriy likvidlik koeffitsenti | K4=JA/KMM | KMM-Qisqa muddatli majburiyatlar |
| 5. Mutlaq likvidlik koeffitsenti | K5=PM+KMMK/KMM | PM-Pul mablag'lari KMMK-qisqa muddatli mol.qo'yil. |
| 6. Aktivlarni rentabellik koeffitsenti | K6=STKF/Auyk | STKF -Soliq to'loviga kadar foyda Auyk-aktivlarning o'rtacha yillik kiymmati |
| 7. Aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsenti | K7=ST/Auyk | ST-Mahsulot sotishdan sof tushum |

Haqiqatdagi darajalarni har bitta ko'rsatkichni taqqoslash bazasiga va normativ bazasiga nisbatan qiysiyo o'rganish asosida kreditga qodirlikni rasmiy jihatlarini belgilash mumkin.

2-jadval

Kreditga qodirlikko'rsatkichlariva ularningnisbiyifodalari

| Koef-fitsient | 2011 | 2012 | O'zgarishi | Mijozning moliyaviy holatini tahliliy tavsiyi |
|---------------|-------|-------|------------|---|
| K1 | 0.490 | 0.499 | +0.009 | O'rtacha sifat |
| K2 | 0.588 | 0.644 | +0.056 | O'rtacha sifat |
| K3 | 0.133 | 0.223 | +0.90 | Yomon holat |
| K4 | 1.308 | 1.415 | 0.107 | O'rtacha sifat |
| K5 | 0.020 | 0.039 | +0.019 | Yomon holat |
| K6 | 0.186 | 0.203 | +0.017 | Bir mucha ijobji |
| K7 | 2.321 | 2.516 | +0.195 | Ijobji holat |

Kreditga qodirlikni tahlil etishning darajasi va sifati axborot manbalarining to'liqligiga va ularning atroflicha o'rganilishiga bog'liq. SHu sababli tahlil etishda o'rganiladigan axborotlarni tarkiblash va ularni tizimlashtirish muhim masala hisoblanadi. Quyida, korxonalar kreditga layoqatligini baholash, tahlil etishning axborot manbalari va ular qo'yilgan talablarni keltirib o'tamiz.

3-jadval

Kreditga layokatliknibaholashda ichkiva tashqimoliyaviyahlilni axborotmanbalari

| Ichki moliyaviy tahlil | Tashqi moliyaviy tahlil |
|---|--|
| Ta'sis xujjatlari | Ta'sis xujjatlari |
| Uchinchi shaxslar bilan bog'liqlikni tasdiqlovchi xujjatlari | Faqat karz beruvchi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlari |
| Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnomalar | Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnomalar |
| Loyiha smeta xujjatlari | - |
| Birlamchi xujjatlari (asosiy vositalarni baholash, ularning tarkibi, harakati, oborot aktivlarni holati, harakati haqidagi, xo'jalik jaryonlari haqidagi) | - |
| Analitik hisob ma'lumotlari | - |
| Buxgalteriya hisobotlari | Buxgalteriya hisobotlari |
| Statistik hisobotlar | Statistik hisobotlari |

| | |
|--|--|
| Soliq hisobotlari | Soliq hisobotlari |
| Audit xulosalari, nazorat va soliq tekshirishlari dalolatnomalari | YAkuniy auditorlik xulosasi |
| - | Qarz oluvchining shaxsiy sifatlari haqidagi ma'lumotnomasi, /qarzdorning dongi, shuhrat taratishi/(Gudvil) |
| - | Kredit tarixi yuzasidan axborotlar |
| - | Boshqa kredit tashkilotlari ma'lumotlari |
| Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar | Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar |
| Maqro iqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojanishi haqidagi manbalar va h.k.) | Maqro iqtisodiy va maxsus axborotlar (dalat dasturlari, tarmoqning rivojanishi haqidagi manbalar va h.k.) |
| Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar | Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar |

Tahlil etishda taqdim etilgan manbalarning axborotligi va tarkibi yuzasidan ham muhim talablar qo'yiladi. Bu talablar mijozning kreditga layoqatligini baholashda tashqi tahlilchiga kredit resurslarini jaib etish yuzasidan tuzib chiqiladigan savolnomaga to'la javoblar tayyorlashga imkon beradi. Bu holat kredit mablag'lari jaib qilishdagi turli havf xatarlarni oldini olishga, kredit tashkilotlarining jaib qilingan resurslarni o'z vaqtida va foizi bilan qaytarib olishiga hamda ularning likvidligini oshirishiga imkon beradi.

Kreditga layoqatlik tahlilida o'rganiladigan muhim ko'rsatkichlar qatoriga shuningdek, korxona faoliyatining joriy va istiqboldagi rivojanishi jihatlarini baholash ham talab etiladi. Bunda banklar tomonidan quyidagi so'rovnama tuzib chiqiladi.

4-jadval

Kredit oluvchining faoliyatni baholash

| Baholash elementi | Ko'rsatkichlar |
|--|---|
| Mijozning faoliyatni rivojlan Tirishga intilishi | O'sish dinamikasi O'zgaruvchanlik Istiqbollik |
| Mahsulot (ish, xizmat)larga talabning o'zgarishi | Mizozlar tavsiyi Bozor hajmi va sifat ko'rsatkichlari Sotish hajmi Baho belgilash tartibi Sotish rejasি |
| Taklifning o'zgarishi | Talabning barqarorligi Tovarning almashevchanligi Havf-xatarlar Raqobatchilar holati Jo'natmalar muvofiqligi Jo'natmalar havf xatari Narxning barqarorligi Ishchi kuchi bilan bog'liq sabablar Xalqaro valyutaga talabning mavjudligi |
| Mahsulotning sifat tasnifi | Texnologiya darajasi Mahsulot sifati |

| | |
|------------------|--|
| | Kapital va mehnat sig‘imi |
| Raqobat darajasi | Raqobatchilar |
| | Raqobatning intensivligi |
| | Bozorga kirishda to‘siqlar |
| | Peshqadam raqobatchilarning bozordagi ulushi |

2. Firma va kompaniyalarda, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalg etishda moliyaviy tahlil

Kreditlarning muddatligi uning zaruriy sharti hisoblanadi. SHu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalg etishda uning kaytarilishiha muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit resurslar kechiktirilgan to‘lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda kaytariladi.

Agar to‘lovlar va foizlar o‘z vaqtida amalga oshirilsa ushbu mijozning kreditor oldidagi ishonchi ortadi. Bu holat esa mijozning kredit tarixiga yoziluvchi eng muhim jihatdir.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta’sir etmaydi. Ya’ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo‘yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitiik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda muttagligi bo‘yicha kreditlar va qarzlar uzoq, urta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli tarkiblanishi belgilangan. Shu sababli kredit va qarzlarni ham muddatlligi bo‘yicha uzoq va qisqa muddatli shaklda tarkiblash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uzoq muddatli kreditlarni uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalar, nomoddik aktivlar, kapital qo‘yilmalar, o‘rnatalidigan asbob uskunalar yuzasidan, ularni sotib olish, ko‘rish, ta’mirlash, ilmiy yangiliklar kiritish kabi yo‘nalishlarda) shakkantirishga yo‘naltiriladigan va bir yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlardir. Qisqa muddatli kreditlar joriy, aylamma aktivlarni to‘ldirishga, savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha muddatga beriladigan kreditlardir.

Firma va kompaniyalarda uzoqva qisqa muddatlikreditlarni jalbetishda, aniqla puxta ishlanganbiznesrejaga va investitsionloyihalarga e’tiborishberishlozim. Lekin ungacha albatta, ushbu firma yoki kompaniyaning, moliyaviy ahvoli o‘rganilishi lozim. Kredit resurslarini jalg etishning turli risklarini ham ta’kidlab o‘tish lozim deb o‘ylaymiz. Masala. Bir necha yildan buyon faoliyat yuritayotgan korxonaning moliyaviy holatini tahlil etishning axborot manbayiga egamiz va uning kreditni jalg etish bayonnomasini tuzishda unga tayanish mumkin. Lekin yangi tashkil topgan korxona yoki faoliyatini endigina yo‘lga qo‘ygan korxonaning moliyaviy hisobotlari tuzilmagan xollarda, uning moliyaviy ahvolini qanday baholash mumkin. SHu va shu kabi savollarga ushbu bobda albatta to‘liq javob berishga harakat qilamiz. Birinchidan; endigina faoliyat boshlagan yoki ro‘yxatga olingan korxonaningalbatta, ustav kapitali shakllanganligiga ahamiyat beriladi. Ustav kapitalining darajasi va uning biznesni yo‘lga qo‘yishdagi, tarmoq bo‘yicha o‘rtacha darajaga nisbatan holatini baholash orqali ham fikr yuritish mumkin. SHuningdek, loyihaning jozibadorligi, kafililik shartlari asosida ham kredit shartnomasini rasmiylashtirish mumkin.

Kredit arizasi bergan firma yoki kompaniyaning moliyaviy tahlilida muhim ko‘rsatkichlar sifatida birinchi navbatda uning to‘lov layoqati, qoplov koeffitsenti baholanadi. Bu koeffitsentlar asosida firma va kompaniyaning, choraklar va yillar bo‘yicha to‘lovga qobililik darajasi, o‘zining muddatli majburiyatlarini to‘lashga qobililligi baholanadi¹.

Firma va kompaniyalarning tomonidan olingen kredit resurslar nafaqat korxonaning to‘lovga qobiligiga balki uning mablag‘larining harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog‘liq. Shu sababli tahlil etishda buxgalteriya balansi ma‘lumotlari asosida firma va kompaniyalarning harakatchan mablag‘larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlarga, nolikvid mablag‘lar holatiga, ularning to‘lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddati majburiyatlariga nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag‘larni manbalashdagi holatiga baho berish talab etiladi.

So‘ngi paytlarda olingen kredit resurslarining o‘z vaqtida va qaytmaslik hollariga moliya institutlari tomonidan ko‘p duch kelimoqda. Shu sababli firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo‘sishma tarzda quyidagi boblarni o‘rganish tavsidi etiladi;

- firma va kompaniyalarning rentabellik darajasi;
 - aylanma mabalag‘larningholati;
 - o‘zmablag‘larin hajmi, ularning asosiya oborotkapitalidagiishtiroki;
 - ishlabchiqarilganva sotilganmahsulotlarnio‘sishdarajalar;
 - to‘lov muddati kelganva o‘tib ketgan debtorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
 - firmava kompaniyalarning pul va qimmatli qog‘ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlarga ahamiyat beriladi.
- Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalg etishda moliyaviy tahlilda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko‘rsatkichlarni o‘rganilishini harakterlash lozim. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:
1. To‘lovlayoqativa likvidlilik koeffitsentlari
 2. Ish aktivligi koeffitsentlari
 3. Moliyaviy leveraj koeffitsentlari
 4. Rentabellik koeffitsentlari
 5. Qarzni koplashni tavsiflovchi koeffitsentlar

5-jadval

Tijorat banklari tomonidan xo‘jalikyurituvchisubyektlarnikreditga qodirligini baholashda hisob-kitob kilinadigan ko‘rsatkichlar

| Koeffitsentlar guruhni | Ko‘rsatkichlar | Aniqlanishi | Belgilarni izohi |
|--|------------------|-------------|---|
| Likvidlilik koeffitsentlari (2.0-1.25) | Joriy likvidlik | K=JA/KMM | JA-joriy aktivlar KMM-qisqa muddatli majburiyatlar |
| | Tezkor likvidlik | K=LA/KMM | LA-likvid aktivla |

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 279 page.

| | | | |
|---|--|--------------|--|
| Ish aktivligini harakterlovchi ko'rsatkichlar (0.25-.060) | Aktivlar aylanuvchanligi | K=ST/A | ST-Sotishdan tushum A-aktivlarning o'rtacha qiymat |
| | Asosiy kapital aylanuvchanligi | K=ST/AK | AK-asosiy kapital |
| | Joriy aktivlar aylanuvchanligi | K=ST/JA | JA-joriy aktivlar |
| | Debitorlik majburiyatlar aylanuvchanligi | K=ST/DM | DM-debitorlik majburiyatlar |
| | TMZ aylanuvchanligi | ST/TMZ | TMZ-tovar moddiy zaxiralar |
| | TM,Tovarlar aylanuvchanligi | ST/TM,T | TM-tayyor mahsulot T-tovarlar |
| Moliyaviy leveraj koeffitsentlari | Majburiyatlarni aktivlarga nisbati | Maj/A | Maj-Majburiyatlar |
| | Majburiyatlarni o'z kapitaliga nisbati | Maj/UK | UK-uz kapitali |
| | Majburiyatlarni aktsionerlik kapitaliga nisbati | Maj/AK | AK-aktsionerlik apitali |
| | Uzoq muddatli majburiyatlarni asosiy kapitalga nisbati | UMM/AK | UMM- uzoq muddatli majburiyatlar |
| | Uz kapitalini aktivlarga nisbati | UK/A | |
| Moliyaviy natijaviylik koeffitsentlar | | | |
| Foyda normasi koeffitsentlari | YAlpi foyda normasi | K=YAF/ST | YAF-yalpi foyda ST-sotishdan tushum |
| | Sof operatsion foyda normasi | K=SOF/ST | SOF-sof operatsion foyda |
| | Sof foyda normasi | K=Sf/ST | SF-sof foyda |
| Rentabellik koeffitsentlari | Aktivlar rentabelligi | K=Sf, STKF/A | STKF-soliq to'loviga kadar foyda |
| Aktsiyaning foyda me'yori | Oddiy aktsiyalar daromadlik koeffitsenti | K=D/Ak | D-oddiy aktsiyalarga e'lon kilungan dividend summasi A-oddiy aktsiyalarning soni |
| | Aktsiyaning dividendlik koeffitsenti | K=Db/Ab | Db-bitta aktsiyaga e'lon uyenigan dividend Ab-bitta aktsiyaning bozor bahosi |
| Qarzni koplashni tavsiflovchi kuijsatkichlar | Foizning koplanganlik koeffitsenti | K=F/FT | FT-foiz to'lovlar F-hisobot davri foydasi |
| | Foiz to'lovlarining koplanganlik koeffitsenti | K=F/T | T-To'lovlar=foiz+lizing to'lovlar+imtiyozli aktsiyaga dividendlar+boshqa to'lovlar |

3. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashda to'lov qobiliyati va mablag'lar likvidligi tahlili

Firma va kompaniyalarda kredit resurslarini jalb etishda asos ko'rsatkich bu-to'lovga qobililik ko'rsatkichidir. To'lovga qobililik korxonanini to'lov imkoniyatlарини, ya'ni uning o'z majburiyatlarini to'lashga qodirligini harakterlaydi.

Likvidlilik bilan to'lov qobiliyati bir-biridan farqqiladi. Likvidlilik qarzlarni to'lash uchun mablag'lar mayjudligini ko'rsatsa, to'lov qobiliyati – qarzni uzish imkoniyati borligini ko'rsatadi.

Yuqorida berilgan tariflar albatta mazmun jihatdan to'g'ri lekin uni quyidagi tartibda berib o'tish lozim deb o'ylaymiz.

Firma va kompaniyalarni to'lov layoqati deganda -to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga joriy mablag'larining yetarligi yoki etishmovchiligi tushuniladi.

Bu jihat ta'riflash mazmun jihatdan yuqoridagi ta'riflashlar bilan bir xilda, lekin so'z va iboralar o'z o'rnida ishlatalgan. Sababki, birinchi ta'rifdag'i "kamchilik", "xo'jalik" so'zlar, ikkinchi ta'rifdag'i "to'lov imkoniyatlari", "oborot" kabi so'zlar o'z o'rnida ishlatalmagan.

Firma va kompaniyalarni to'lov layoqatini harakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi:

- Mutlaq to'lov layoqati;
- Oraliq to'lov layoqati;
- Joriy (umumiy) to'lov layoqati.

To'lov layoqatining ko'rsatkichlarini uzoq va qisqa davriylikka deb tarkiblash to'g'ri emas. Nagaki bu tarkiblash, muddat bo'yicha emas balki to'lov mablag'larining likvidligi bo'yicha tarkiblashni harakterlaydi. Ya'ni mualliflar, qisqa muddatli to'lov layoqati deganda qaytarish muddati kelgan majburiyatlarga faqat, pul mablag'lari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni yetarligi yoki etishmovchiligi tushunadilar. Birinchidan; uzoq va qisqa muddat, qarz kapitalining bir yilgacha va bir yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlarini ham olishi lozim. Yaqin oraliqqa nisbatan uzoq va qisqa muddatni belgilab bo'lmaydi. Ikkinchidan; qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bo'lmaydi, ular "qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar"ning birturi xalos.

1. Mutlaq to'lov layoqati (Kmtl). Ushbu ko'rsatkich firma yoki kompaniyaning pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarini muddati kelgan to'lov majburiyatlariga, qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish asosida topiladi.

Kmtl=PM + QMMQ / QMM

Bunda;

PM-pulmablag'ları;

QMMQ-qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;

QMM-qisqa muddatli (to'lov muddati kelgan) majburiyatlar.

Ushbu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatning har bir so'miga to'g'ri keladigan pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarini harakterlaydi.

2. Oraliq to'lov layoqati (Kotl). Ushbu ko'rsatkich mutlaq to'lov layoqati ko'rsatkichidan Sof debtorlik summasiga farq etadi.

Kotl=PM+QMMQ+SDM/QMM

Bunda;

SDM-sof debitorlikmajburiyati.

Sof debitorlik majburiyati, jami debitorlik qarzidan muddati o'tgan debitorlik qarzlarini chegirish asosida topiladi. Chunki muddati o'tgan debitorlik qarzları kreditorlik qarzini qoplay oladigan haqiqiy manba bo'la olmaydi.

O'tish muddati bo'lib huquqiy va jismoniy shaxslar uchun ham bitta mezon bir yilga belgilangan. (mol yetkazib beruvchi va haridor, buyurtmachilar bilan bo'ladigan munosabatlardagi 3-oylik muddat bundan mustasno).

3. Joriy to'lov layoqati (Kjtl). Ushbu ko'rsatkich muddati kelgan to'lov majburiyatları yoki qisqa muddatli majburiyatlarini to'lashga barcha oborot, aylanma aktivlarni yetarligi yoki etishmovchiligin harakterlaydi.

Kjtl=PM+QMMQ+SDM+TZ/ QMM

Bunda;

TZ- tovarlar va zaxiralar qiymati.

Prof. E.Akramov tomonidan tavsiya etilgan umumiy to'lovga qobillik ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi. Ya'n'i;

Kutl=Uzoq muddatli aktivlar+Oborot aktivlar/M

Bunda;

M-majburiyatlar (buxgalteriya balansi passivining 2-bo'lim jamisi)

Firma va kompaniyalar to'lov layoqatini baholashda mablag'lar likvidligi ko'rsatkichi ham o'rganiladi.

Likvidlik-deganda xo'jalik yurituvchi subyekt nozorat qilib turadigan iqtisodiy resurslarning (aktivlarning) harakatchanligiga, muddatli moliyaviy majburiyatlarini yaqin kelajakda qoplash yuzasidan mablag'larning mavjudligiga aytildi.

Mablag'larlikvidligi (aylanuvchanligi)nibaholashda aktivlar, kapitalva majburiyatlarharakatchanligiva to'lov muddatbo'yicha qayta tarkiblanadi.

6-jadval

Buxgalteriyabalansininglikvidlikbo'yicha tarkiblanishi

| T | Aktiv tomon | T | Passiv tomon |
|----|----------------------------------|----|--------------------------------------|
| A1 | Doimiy harakatdagi aktivlar | P1 | To'lov muddati kelgan majburiyatlar |
| A2 | Tez pulga aylanadigan aktivlar | P2 | Qisqa muddatli to'lov majburiyatları |
| A3 | Sekin pulga aylanadigan aktivlar | P3 | Uzoq muddali to'lov majburiyatları |
| A4 | Qiyin pulga aylanadigan aktivlar | P4 | Doimiy passivlar |

Likvidlik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansining moddalarini jamlanishi va ularning nomlanishidagi turlicha karashlarni avvalo likvidlilikni aniqlash bo'yicha rasmiy metodikaning mavjud emasligi bilan, shuningdek xorijiy tillardan turli shaklda tarjimalarning mavjudligi bilan, asosiy e'tibor mazmunning saklanishiga karatilishi bilan izohlash mumkin.

Likvidlik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansining tegishli qatorlariga quyidagi moddalarini kiritish mumkin.

7-jadval

Likvidlik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansi aktivimoddalari

| Aktiv tomon | Balans moddaları | Balans satri | Izoh |
|----------------------------|---|----------------------------|--|
| Eng likvidaktivlar | Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliviy qo'yilmalar | 320satr+370satr+* | *380satr-boshqa joriy aktivlar |
| Tez sotiladigan aktivlar | Debitorlik majburiyatları | 210satr+* | *230satr-Ajratilgan bo'limmalarining qarzi |
| Sekin sotiladigan aktivlar | Tovar moddiy zaxiralar | 140satr+190satr+200satr ** | *190satr-kelgusi davr harajatları *200satr-kechiktirilgan harajatlar |
| Qiyin sotiladigan aktivlar | Uzoq muddatli aktivlar | 130satr | |

8-jadval

Likvidlik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansi passivimoddalari

| Passiv tomoni | Balans moddaları | Balans satri | Izoh |
|-------------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------|---|
| To'lov muddati kelgan majburiyatlar | Kreditorlik majburiyatları | 600satr-(730satr+740satr+*) | *620-Ajratilgan bo'limmalarga qarz |
| Qisqa muddatli majburiyatlar | Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar | 730satr+740satr | |
| Uzoq muddali majburiyatlar | Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar | 490satr+* | *510- Ajratilgan bo'limmalarga uzoq muddatli qarz |
| Doimiy passivlar | Uz mablag'lari manbayi | 480satr | |

Aktivlar, kapitalva majburiyatlarini zaro taqqoslash asosida firma, kompaniyaning buxgalteriyabalansininglikvidlikdarajasiga baho berish mumkin.

9-jadval

Buxgalteriyabalansininglikvidlikdarajalarinitarkiblanishi

| O'zgarishlar tartibi | Mutlaq farqlanishlardagi o'zgarishlar | Likvidlik darajassi |
|----------------------|---------------------------------------|-----------------------------|
| 1-holat | A1>=P1 A2>=P2 A3>=P3 A4<=P4 | Mutlaq likvid balans |
| 2-holat | A1<P1 A2>=P2 A3>=P3 A4<=P4 | Likvid balans |
| 3-holat | A1<P1 A2<P2 A3>=P3 A4<=P4 | Nolikvid balans |
| 4-holat | A1<P1 A2<P2 A3<P3 A4<=P4 | Nochorlik holatidagi balans |

$$A1+A2+A3+A4=P1+P2+P3+P4$$

Buxgalteriya balansi elementlari va jamlangan qatorlarini (moddalarini) uzaro nisbatlash asosida likvidlikni nisbiy darajalariga va to'lovga qobillik darajalariga ham baho berish mumkin.

10-jadval

Likvidlikniisbiyifodaları

| Nisbat | I.f.d. prof M.Pardaev tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tizimi | Tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlar tizimi |
|--------|---|---|
| A1/P1 | Eng shoshilinch | To'lov muddati kelgan |

| | | |
|---|---|---|
| | majburiyatlarning to'lov koeffitsienti | majburiyatlarni qoplash koeffitsienti |
| A2/P2 | Qisqa muddatli passivlarning to'lov koeffitsienti | Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash koeffitsienti |
| A3/P3 | Uzoq muddatli passivlarning to'lov koeffitsienti | Uzoq muddatli majburiyatlarni qoplash koeffitsienti |
| A4/P4 | | Doimiy aktivlarni o'z mablag'lari manbaiga nisbatli koeffitsienti |
| A1/P1 | | Joriy to'lov layoqati |
| A1/P1+P2 | | Mutlaq to'lovga qobililik |
| A1+A2/P1+P2 | | Oraliq to'lovga qobililik koeffitsienti |
| A1+A2+A3/P1+P2+P3 | | Umumiy to'lovga qobililik koeffitsienti |
| Aktivlarni moliyalashtirish holati | | |
| P4/A4 | | Doimiy aktivlarni uz mablag'lari hisobiga manbalanishi |
| P3+P4/A4 | | Doimiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari bilan manbalanishi |
| P4+P3-A4/A1+A2+A3 | | Joriy aktivlarni manbalanishi |
| P4+P3+P3/A3+A4 | | Moddiy aktivlarni manbalanishi |

11-jadval

Jadval mablag'lar harakatchanligi bo'yicha buxgalteriya balansining tarkiblanishi

| AKTIV | 01.01.2011 | 01.01.2012 | PASSIV | 01.01.2011 | 01.01.2012 | Majburiyatlarini qoplashdagi ortiqchalik(+), etishmovchilik (-) | |
|----------------------------------|---------------|---------------|--------------------------------------|---------------|---------------|---|------------|
| | | | | | | 01.01.2011 | 01.01.2012 |
| Doimiy harakatdagisi aktivlar | 1409 | 3205 | To'lov muddatli kelgan majburiyatlar | 42922 | 65046 | -41513 | -61841 |
| Tez pulga aylanadigan aktivlar | 17816 | 24247 | Qisqa muddatli to'lov majburiyatları | 19184 | 10894 | -1368 | 13353 |
| Sekin pulga aylanadigan aktivlar | 70639 | 89142 | Uzoq muddatli to'lov majburiyatları | 9259 | 8252 | 61380 | 80890 |
| Qiyin pulga aylanadigan aktivlar | 62964 | 64613 | Doimiy passivlar | 81463 | 97015 | -18499 | -32402 |
| BALANS | 152828 | 181207 | BALANS | 152828 | 181207 | x | x |

12-jadval

Aktivlar va passivni likvidlilik bo'yicha normalari

| AKTIV | Mutlaqlikvidliksharti | PASSIV |
|--------------------------------|-----------------------|--------------------------------------|
| Doimiy harakatdagisi aktivlar | A1=>P1 | To'lov muddatli kelgan majburiyatlar |
| Tez pulga aylanadigan aktivlar | A2=>P2 | Qisqa muddatli to'lov majburiyatları |

| | | |
|----------------------------------|--------|-------------------------------------|
| Sekin pulga aylanadigan aktivlar | A3=>P3 | Uzoq muddatli to'lov majburiyatları |
| Qiyin pulga aylanadigan aktivlar | A4=<P4 | Doimiy passivlar |

13-jadval

1. Davr boshiga likvidlik yuzasidan ko'rsatkichlarining holati

| | |
|-----------------------|--|
| (1409) A1=>P1(42922) | Joriy likvidlik: JL = -42881 ming m.s. |
| (17816) A2=<P2(19184) | Istiqboldagi likvidlik: IL = 61380 ming m.s. |
| (70639) A3=>P3(9259) | JLb=A1+A2/P1+P2 |
| (62964) A4=<P4(81463) | ILb=A3/P3 |

Balansning likvidligini yetarli deyish noo'rin. Ya'ni korxona yakin kelajakda likvidlikni oshirish yuzasidan imkoniyatiga ega emas. Lekin istiqbolda uni oshirishning birmuncha imkoniyatiga egaligidan xo'jalik subyektini o'z majburiyatlarini qoplashning ortiqchaligini (+61380 ming so'm) kuzatish mumkin

14-jadval

2. Davr oxiriga likvidlik yuzasidan ko'rsatkichlarining holati

| | |
|-----------------------|--|
| (3205) A1=>P1(65046) | Joriylik vidlik: JL = -48488 ming so'm |
| (24247) A2=>P2(10894) | Istiqboldagi likvidlik: IL = 80890 ming so'm |
| (89142) A3=>P3(8252) | JLo=A1+A2/P1+P2 |
| (64613) A4=<P4(97015) | ILo=A3/P3 |

Davr oxiriga kelib ham xo'jalik subyektning likvidlik darajasida sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. Balans likvidligini davr boshidagi kabi nolikvtid holatda deyish mumkin. Yaqin kelajakda uni tiklanmaslik imkoniyatini hoyatda yuqoriligidcha qolmoqda. Istiqbolda esa tiklanish kutilishi mumkin.

Jadval ma'lumotlari asosida buxgalteriya balansining likvidlik ko'rsatkichlarini alohida baholab chiqamiz

1. Balans likvidligini umumiy koeffitsenti (L1)-likvid mablag'larning summasini jami majburiyatlarga nisbatli orqali topiladi uning tavsiya etilgan normasi 2.0-2.5 darajaga teng deb qaraladi.

15-jadval

| | | | |
|----------------------------|------------|----------------|---------------|
| L1 = (A1+A2+A3)/(P1+P2+P3) | 01.01.2011 | 1.259 | Normadan past |
| | 01.01.2012 | 1.384 | Normadan past |
| O'zgarishi | +0.125 | Ijobiy siljish | |

Xo'jalik subyektining umumiylikli likvidligi oshgan. Ishonchli xo'jalik yurituvchi subyektva kuchlimoliyaviysheriksifatida karalishiga yetarli asos mavjuddebbaholash mumkin.

2. Mutlaq likvidlik koeffitsenti (L2)-doimiy harakatdagisi aktivlar bilan qisqa muddatli majburiyatlarning nisbatini karakterlaydi. Mutlaq likvidlikning normasi darajasi 0.2g*g*0.7 qilib belgilangan.

16-jadval

| | | | |
|-----------------|------------|----------------|---------------|
| L2 = A1/(P1+P2) | 01.01.2011 | 0.0227 | Normadan past |
| | 01.01.2012 | 0.0422 | Normadan past |
| O'zgarishi | 0.0195 | Ijobiy siljish | |

Mutlaq likvidlilik o'sgan. Majburiyatlarni to'lash imkoniyati oshgan, qisqa muddatli bank kreditlarining riski kamaygan.

3. Kritik baholash koeffitsenti (L3) xo'jalik subyektining doimiy harakatdagi va tez pulga aylanadigan aktivlарини to'lov muddati kelgan va qisqa muddatli to'lov majburiyatlariga nisbatlash orqali topiladi. Ushbu ko'rsatkich ko'proq kredit jalg qiluvchi korxonalarda ahamiyatlı hisoblanadi. Tavsiya etilgan normasi 0.7-0.8=>1.0

17-jadval

| | | | |
|-----------------------------|------------|--------|----------------|
| L3 = (A1+A2)/(P1+P2) | 01.01.2011 | 0.3096 | Normadan past |
| | 01.01.2012 | 0.3615 | Normadan past |
| | O'zgarishi | 0.0519 | Ijobiy siljish |

Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati oshganligini ko'rish mumkin.

4. Joriy likvidlilik darajasi (L4) jami likvid aktivlarning to'lov muddati kelgan va qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yetarligini harakterlaydi. Norma birligi 1.0 teng deb olinadi

18-jadval

| | | | |
|--------------------------------|------------|-------|----------------|
| L4 = (A1+A2+A3)/(P1+P2) | 01.01.2011 | 1.447 | Qonikarli emas |
| | 01.01.2012 | 1.535 | Qonikarli emas |
| | O'zgarishi | 0.088 | Ijobiy siljish |

5. Ishchi kapitalning joriy aktivlardagi salmog'I koeffitsenti (L5).-sekin pulga aylanadigan aktivlarni jami likvid aktivlarga bo'lish orqali hisob-kitob qilinadi.

19-jadval

| | | | |
|---------------------------|------------|--------|----------------|
| L5 = A3/(A1+A2+A3) | 01.01.2011 | 0.786 | |
| | 01.01.2012 | 0.765 | |
| | O'zgarishi | -0.021 | Ijobiy siljish |

Korxonada ishchi kapitalning harakatchanligi ya jamoaning ish aktivligi ortgan deyishimiz mumkin.

6. Aktivlarning tarkibida aylanma mablag'larning salmog'I koeffitsenti (L6)-joriy aktivlarni balans jamiga, aktivlar jamiga nisbatlash orqali hisob-kitob qilinadi.

20-jadval

| | | | |
|--------------------------|------------|--------|----------------|
| L6 = (A1+A2+A3)/B | 01.01.2011 | 0.5863 | |
| | 01.01.2012 | 0.6395 | |
| | O'zgarishi | 0.0532 | Ijobiy siljish |

Jami aktivlartar kibida joriy aktivlar, aylanma aktivlarning salmog'i ortgan. Mahsulot chiqishi va korxonaning ish faolligi jadallashgan.

7. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsenti (L7) aylanma aktivlarni o'z mablag'lari manbasi bilan manbalanishini harkterlaydi. Tavsiya etiladigan jihatni 0.1 dan kichik bo'lmasligi kerak.

21-jadval

| | | | |
|--------------------------------|------------|-------|----------------|
| L7 = (P4-A4)/(A1+A2+A3) | 01.01.2011 | 0.206 | Yaxshi holat |
| | 01.01.2012 | 0.278 | Yaxshi holat |
| | O'zgarishi | 0.072 | Ijobiy siljish |

Xo'jalik subyektning o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi o'sgan va moliyaviy barqarorlik yaxshilangan.

4. Firma va kompaniyalarni kreditiga layoqatligini baholashni boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili

Firma, kompaniyani kreditiga layoqatligini o'rganishda bitta to'lov layoqati ko'rsatkichchi natijalariga tayanish to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli qo'shimcha ko'rsatkichlar va ularni tahlil etishga muhim ahamiyat beriladi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiritiladi.

1. Firma, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi;
2. Firma, kompaniya foydaliligi;
3. Kapitalning aylanuvchanligi.

1. Firma, kompaniya moliyaviy barqarorligiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi; chetdan jalg qilingan mablag'larning barcha mablag'lar tarkibidagi xissasi, chetdan jalg qilingan mablag'larning o'z mablag'lari nisbati darajasi, o'z aylanma mablag'larining harakatlanish darajasi, uzoq muddatli mablag'larning chetdan jalg qilingan mablag'lardagi xissasi, moddiy aylanma mablag'larning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi, o'z mablag'lar tarkibida asosiy kapitalning xissasi, asosiy kapitalning eskirish darajasi, asosiy va aylanma mablag'larning umumiy kapitalga nisbati koeffitsentlari tahlil etiladi.

2. Foydalilik ko'rsatkichlari qatorida; umumiy mablag'larning foydaliligi, asosiy vositalar foydaliligi, uzoq muddatli va oborot aktivlarning foydaliligi, o'z mablag'lar foydaliligi, sotilgan mahsulot foydaliligi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

3. Kapitalning aylanuvchanligini harakterlovch iko'rsatkichlar qatorida; umumiy mablag'larning aylanuvchanligi, asosiy vositalarning aylanuvchanligi, aylanma mablag'larining aylanuvchanligi, moddiy aylanma mablag'larining aylanuvchanligi, pul mablag'larining aylanuvchanligi, debitor qarzlarining aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Hozirgi paytda kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi hollari ko'p uchrashi va ulardan imkon qadar himoyalanish maqsadida qo'shimcha sur'atda yana quyidagi ko'rsatkichlarni baholash ham talab etiladi.

- rentabellik darajalari;
- sotilgan mahsulotlarni o'zgarish sur'atlari;
- to'lov muddatli o'tgan majburiyatlarning holati;
- olning kreditlar yuzasidan foizlar va ularning to'lash imkoniyatlari;
- firmaning hisob raqami va boshqa hisob raqamlaridagi pul mablag'larining holati kabi masalalar.

5. Firma va kompaniyalarda kreditga va layoqatligini o'stirishning amaliy chora tadbirlari

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini o'stirishning amaliy chora tadbirlari, ularning moliyaviy holatida ro'y berayotgan o'zgarishlar va natijalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, to'lovga qobil firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora tadbirlar, to'lovga noqobil, moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora tadbirlar keskin farq qiladi. Ulardan biri moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilsa, ikkinchisi muammoni hal etish va yashab qolish harakatiga tushadi¹.

To'lovga noqobiillik yoki kreditga layoqatlikni o'stirishni muhim tadbirlariga quyidagilar kiradi.

1. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni qayta ko'rib chiqish. Uningmazmuniniqandaytushunishmumkin?

Firma, kompaniyalarda likvid mablag'larining aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida ortiqcha aylanma aktivlarni hisobdan chiqarish, asosiy va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan ortig'ini aylanma mablag'lar qatoriga olish (ularni sotish, buzish, hisobdan chiqarish va boshqa yo'llar bilan), debtorlik va kreditorlik majburiyatlarini so'ndirish (yo'l qo'yilgan tartiblarda), qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni maqsadli joylashtirish.

2. To'lov mablag'ları va to'lov majburiyatları orasidagi nisbatdagi manfiy o'zgaruvchanlik sababini moliyaviy holatdagi tanglikdan emas, balki, ishlab chiqarish va boshqaruvning quyi bo'g'inlaridan izlash lozim. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni yaxshi yo'lga qo'yilmasligi, ishlab chiqarish harajatlarini oshib ketishi, narx belgilash siyosatining to'g'ri yuritilmasligi va boshqalar.

3. To'lovga noqbillik sharoitida mablag'lar etishmovchiligidagi hal etish yuzasidan avvalo, ichki imkoniyatlarni aniqlab olish va ularni ishga solish lozim. Noqbillik sharoitida boshqa bir subyektdan qarz so'rash va uning ishonchini oqlashni iqtisodiy imkoniyati bo'lmaydi.

4. Firma va kompaniyalarning ishlab chiqarish bo'g'inlarini, uning balansida turuvchi faoliyatning boshqa obyektlarini harajatlarini kamaytirish, to'xtatish yoki o'z o'zini mablag' bilan ta'minlashga o'tkazish lozim.

5. Firma va kompaniyalarni pul mablag'ları va pul likvivalentlarni aylanishida qat'iy reja belgilash vaunga amal etish. Ya'ni, pul mablag'larini qarz majburiyatlariga ishlatalishni aniq rejasini tuzib olish.

6. Mablag'lar aylanuvchanligidagi quyidagi muammoni davlat tomonidan hal etishni mexanizmini ishlab chiqish. Bu muammoni mazmunini qanday izohlash mumkin. Ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulotni o'z haridorini topishga qadar ketgan vaqtini o'racha bir oy deb hisoblasak, uning yuzasidan to'lovlarining amalga oshish vaqtini 3 oy qilib belgilansa (oldi sotdi munosabatlarida ishtirok etayotgan korxonalarining deyarli barchasida to'lov layoqati past darajada), tovarni pulga aylanish vaqtini o'rta hisobda 4-5 oyga to'g'ri kelmoqda. Bu albatta aylanma mablag'larni aylanishiga nisbatan past ko'rsatkich. Buni tezlashtirishni iqtisodiy asosi bo'lgani holda huquqiy asosi yo'q. Ya'ni, natura shaklida to'lash yoki hisob-

kitoblarning kredit shaklidan foydalanish, veksel operatsiyalarini yo'lga qo'yish, qarzlarni o'zaro so'ndirish kabi masalalar. Naqd pul mablag'larini harakati masalasini hal etish yuzasidan ulardan to'la chetlanish to'g'ri emas.

7. Firma va kompaniyalar kreditga layoqatligini ta'minlash va uni o'stirishda albatta ularning investitsion aktivligiga ham ahamiyat berish lozim. Investitsion aktivlik bu qarz olish va uni qaytarishdan keskin farq etadi. Buning uchun korxonadan ikkita narsa talab etiladi xalos. Birinchisi; aniq loyiha, ikkinchisi; xomiy. Aniq loyiha ega bo'lish asosida ham investor yoki xomiyni toppish qiyin bo'lmaydi.

8. Korxonalarda kreditga qodirlikni baholashni asosiy jihatlaridan biri o'z oborot mablag'larini naqdligiga qaratilganligi bois ularni manbalashni uz mablag'larini manbasi bilan bog'liq bo'lgan qatorlarini oborot aktivlari normativlaridan kelib chiqqan holda baholash lozim. Bunda oborot aktivlarning ortiqchaligi manbalashdagi holatni buzib ko'rsatishga olib keladi. Kam xollarda hollarda esa suniy ravishda oshib ketishiga olib keladi.

9. Korxonalar kreditga layoqatligini ustirishning muhim chora tadbirlaridan biri bu bevosita hisob kitoblardagi majburiyatlarni ichki va tashqi majburiyatlarga tarkiblash orqali baholash amaliyotiga o'tishdir. Korxona majburiyatlarini qatoridan ichki majburiyatlarni chegirish ushbu harajatlarini yo'q qilmaydi. Lekin to'lovga qobililikni oshirishda sezilarli siljishga imkon beradi.

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni xorij tajribalarini o'rganish asosida shuni izohlash mumkinki, uning

-uslubiy asoslarida;

-tashkiliy asoslarida;

-hukukiyl, me'yoriy asoslarida sezilarli farqlarni sezish mumkin.

Uslubiy asoslari. Uslubiy asoslari bo'yicha mazmun jihatdan bir xildagi yondashishni ko'rish mumkin. Lekin farq etuvchi jihatlar ham mavjud.

Garb mamlakatlarida kreditga qodirlikni baholashda eng muhim koida sifatida shartli "S-1-5" koidasiga amal etiladi. Bu koidagi quydalarini harakterlaydi.

S1-charakter-qarz beruvchining bozordagi obro'si, uning holatini aniqlash

C2-capacity-qarz oluvchining faoliyatni yakuniga etkaza olishi, tegishli daromadga ega bo'lishi hamda olingen kreditlarni qaytarib bera olish qobiliyati

C3-capital-qarz oluvchining sarmoyasining yetarligi

C4-conditions-biznesning rivojlanishi yuzasidan shartlar

C5-collateral-garov

Bu koidalarga bizning kredit amaliyotimizda ham to'liq amal etiladi, faqat uning rasmiy jihatlari bu tartib belgilanmagan.

Kreditga qodirlik tahlilidagi uslubiy jihatlardagi farqlanishlar albatta mamalakatimizda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditini yuritishda milliy standart normalariga tayanilishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning farqlanishi bilan izohlash mumkin.

Tashkiliy asos. Kredit olish va berish tartibida kredit muassasalarining raqobatchilari nihoyatda ko'p. Bu holat kredit mijozlari uchun kurash qonuniga amal etilishi va moliya bozorini rivojlanganligidan dalolat beradi. Kredit resurslari band

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 433 page.

qilishdagi har qanday to'siqlar olib tashlangan. Kredit oluvchi bilan kredit oluvchi o'rtasida yoki qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o'rtasida ishonch, bir-birini aldamaslik qarz munosabatlari, biznes shioriga aylangan. Kredit oluvchi asosiy talab qilinadigan narsa uning aniq biznes loyihasi va garovi hisoblanadi. Bizda esa o'zgacha. Aniq biznes loyiha va garovdan tashqari ko'plab shartlarga bo'yshish talab etiladi.

Huquqiy asos. Firma va kompaniyalarga kredit berish va uni qaytarishni me'yoriy xujjatlarini takomillashtirish talab etiladi. Negaki, uning bir turi tadbirkorlar huquqini qarz oluvchini huquqini himoya qilsa, ikkinchisi qarz beruvchini huquqini ximoya etadi. Betaraflik qoidasiga amal etgan holda tugal qonunchilik mexanizmini yaratish lozim deb o'ylaymiz. Kreditni olish va qaytarishdagi turli taxlikalardan himoya etuvchi zaxiralar fondini tashkil etish, qarzdor va qarz beruvchini bir-birini aldamaslik, xiyonat qilmaslikni uning yuragiga singdirish lozim.

Ijtimoiy asos-horij amaliyotida ijtimoiy asoslar sifatida kredit munosabatlari ko'pincha bir manzilli emas ko'p manzilli jihatlarga ustunlik beriladi. Ya'ni kredit va qarzga doir munosabatlар banklar va korxonalar o'rtasidagina emas balki moliyaviy institutlarning keng tizimi doirasida amal etishi mexanizmi bilan ham farqlanadi.

O'zaro ishonchda tadbirkorlik faoliyatini yulga ko'yishda ijtimoiy omillar, muhim bo'lgan boshqa omillardan bazan ustun turadi. Buning qanday izohlash mumkin. Respublikamiz mintaliteti, xalkning tadbirkorlik bilan shugullanishga kizikishlarini ustunligi va uning meros sifatida avloddan avlodga o'tgan ana'analarini, uzaro-izzat xurmat, ishonch kabi rasmiy jihatlardan usutun turuchi ijtimoiy belgilari ham uning yorkin ifodasidir.

"Gilam sotsang kushningga sot, bir burchagida uzing utirasan", "molni sotsang aybini aytib sot, baraka topasan", "torozida aldama gunohi yomon" degan nakllar biznesni, tadbirkorlik faoliyatida bironta mezoni bilan belgilanadigan jihatlar emas. Ular bizning kon konimizga singib ketgan mezonlardir. Xuddi shunday ijtimoiy jihatlarni qarz olish va qarz berish munosabatlarda ham ko'rish. "Birovning omanatiga hiyonat qilma", "omonatni yuki og'ir" va boshqa ko'plab nakllar ildizida ham aslida qarz munosabatlarda ehtiyojkorlikning ijtimoiy jihatlari turibdi deyish mumkin.

Mamlakatimizda kredit munosabatlari yo'lga kuyishda va uning izchil mexanizmini shakkantirishda albatta horijiy amaliyotning ahamiyatli jihatlari qamrab olingan. Byurokratik to'siklarga chek ko'yilgan. Bunga Uzbekiston banklarining ishonchlilik darajasi bo'yicha xalkaro reyting agentliklari va kompaniyalari ekspertlari tomonidan berilayotgan baho ham yaqqol misol bo'la oladi. Lekin shunga karamay hali bu sohada kilinishi lozim bo'lgan, o'rganish va milliy iqtisodiyotga mos tarzda ko'llash zarur bo'lgan jihatlar ko'p.

Xalqaro kredit amalliyotining tayyor andozasi doimo bir xilda turli iqtisodiyotga mos tushavermaydi. Shu sababli bu jihatdan muvofiqlikni ta'minlashda davlat monetar siyosati, soliq, moliya, hisob siyosatlarini shuningdek tijorat banklarining kredit siyosatini ham bir tizimda va muvofiqlikda rivojlantirish talab etiladi.

Nazorat savollari:

1. Kredit nima?, Qarz nima?, Ssuda nima?
2. Kreditga layoqatlik (qodirlilik) nima?
3. Kreditga layoqatlik tahlili qanday mctodik jihatlarga ega? A. Kreditga layoqatlikni aniqlashni, baholashni rasmiy
4. jihailarini kim belgilaydi?
5. Kreditga layoqallilikda to'lovga qobillikni baholashning muhimligi?
6. Kreditga layoqatlikni baholashda korxona moliyaviy mustaqilligi (avtonomiyasi) ko'rsatkichni aniqlashning ahamiyati nimada?
7. Kreditga layoqatlik tahlilida sof oborot aktivlarni baholashni /zaruriyatni nimada?
8. Kreditga layoqatlik, qodirlilikni baholashda banklaming kredit siyosatining muhlmligi?
9. Kreditga layoqatlikni baholashning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlari?
10. Firma, kompaniyalar kreditga layoqatligini baholashning xorijiy tajribalari?
11. Kreditga layoqatlikni o'stirishning amaliy chora-tadbirlari, yo'llari?
12. Kreditga qodirlilikni to'lov layoqatiga muvofiqligi?
13. G'arb amaliyotidagi «5S* qoidanining mazmunini tushuntiring.
14. Kredit ta'minlanganligi dcganda nimani tushunasiz?
15. Mikro firma va kichik korxonalami kreditga layoqatligi bilan yirik korxonalamining kreditga layoqatligi tahlilida farqlanishlar rnaviudini ?

20-bob. PUL MABLAG'LARI HARAKATINING TAHLILI

Reja:

- 1.Pul oqimi taxlilining mazmuni, vazifalari va tahlil manbalari.
2. Pul mablag'lari umumiy harakatining tahlili.
- 3.Asosiy faoliyatdagi pul oqiminingsh tahlili.
4. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'ari harakatining tahlili

Tayanch so'zlar:

Pul oqimi, pul mablag'larining kirimi, pul mablag'larining sarfi, mahsulotlar sortishdan pul mablag'larining kirimi, moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati, valyuta mablag'larining harakati.

1. Pul oqimi taxlilining mazmuni, vazifalari va tahlil manbalari

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar — moliyaviy, moddiy, mehnat va pul resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlardan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sha-roitlariga bosqichma-bosqich tayyor bo'lib bordi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruva subyektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishslash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi.

Moliyaviy axborot bilan ishslashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil qilishda, xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalilanadi.

Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, «Pul oqimi to'g'risidagi hisobot shaklini erkin o'qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak.

Moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, korxona to'g'risida katta hajmda ma'lumot olish, uning moliyaviy ahvolini xizmat va bozor faolligini tahlil qilish mumkin.

«Pul okimlari to'g'risida hisobotda korxona moliyaviy resurslaridagi barcha o'zgarishlar, pul mablag'lari nuqtai-nazaridan aks ettiriladi:

- xo'jalik faoliyatida olingen pullar harakati;
- to'langan soliqpar;
- olingen va qo'yilgan investitsiyalar;
- olingen hamda to'langan foizlar va dividentlar;
- aksiyalar va zayomlar, shuningdek, ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlar.

Kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'lari idagi barcha o'zgarishlar shunday tartibda aks ettiriladi, u pul mablag'lari qoldig'i bilan ularga ekvivalent bo'lganlar o'rtaida, ya'ni qisqa muddatli yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag'lari o'rtaida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

4-son shaklga «Valyuta malbag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnomasi ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo'lgan qoldiqlar, valyuta mablag'lari tushumi va xarajati to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Korxona ishining samaradorligiga, barqaror moliyaviy holatga korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlariga pul mablag'larining o'z vaqtida va to'la hajmda kelib tushishi va to'lanishi natijasida erishish mumkin.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-shakl shaklidagi «Korxona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida»gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbai bo'lib hizmat qiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot — moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'larining kelib tushishi, sar-flanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Pul mablag'lari oqimiga so'm va valyutadagi pul mablag'lari kiritiladi. SHu tufayli 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot», moliya hisobotida mahsus «Valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotnomasi» bo'lib, unda ularning davr boshi va oxiridagi qoldig'i va ularning kelib tushish va sarflanish summasi ko'rsatiladi.

Pul mablag'lari oqimini o'rganishda ishlataladi-gan asosiy atamalar quyidagilardan iborat:

Pul oqimlari — pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarining kirimi (kelib tushishi) va chiqimi (sarflanishi).

Pul ekvivalentlari — bu pul mablag'lariga erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investitsiyalar.

Pul mablag'lari — bu kassadagi naqs pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek hisob-kitob, valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lari¹.

Operatsiya faoliyati — bu investitsiya va moliyaviy faoliyatni istisno qilganda, Korxonaning daromad keltiradigan asosiy va boshqa faoliyati.

Investitsiya faoliyati — pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Southern California page.

Moliyaviy faoliyat — xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, u natijada o'z sarmoyasi va qarz olingan mablag'lar hajmi va tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

2. Pul mablag'lari umumiylar harakatining tahlili

Pul mablag'laring oqimini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ta'riflaydi:

Pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi;

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi;

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining o'zaros saldosi;

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larini nisbatining koeffitsienti (pul mablag'lari oqimi koeffitsienti).

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larini summasi moliyaviy hisobot shakli bo'lmish «Pul oqimlari to'g'risidagi hisoboti bo'yicha besh guruhga ajratilgan.

Firma va kompaniyalarda pul mablag'lar harakatini quyidagi chizmada aks ettirilgan. (6-chizma)

Bundan tashqari, pul mablag'lari oqimini sxema kurinishida ham tasvirlash mumkin.

| | | | |
|--|--|---|---------------------------------------|
| Davr boshidagi mablaglari pul koldigi | (070 satr) Hisobot davridagi pul mablaglari kirimi | Hisobot davridagi pul mablaglari chikimi | Davr oxiridagi pul mablaglari koldigi |
| Cotishdan tushgan sof foyda (010 satr) | | Mahsulot yetkazib beruv-chilarga to'langan pullar (011 satr) | |
| O'zga pul tushumlari (013 satr) | | Xizmatchilarga va xizmat-chilar nomidan to'langan pullar (012 satr) | |
| Olingan foizlar (020 satr) | | O'zga pul to'lovlar (013 satr) | |
| Olingan dividentlar (022 satr) | | To'langan foizlar (021 satr) | |
| Nomoddiy aktivyaarni sotish (040 satr) | | To'langan dividentlar (023 satr) | |
| Uzoq muddatli moddiy aktivlarni | | Daromad (foyda)dan soliq (030) | |

| | | | |
|---|--|--|---|
| sotish (041 satr) | | | satr) |
| Uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar tushumi (042 satr) | | | To'langan o'zga soliqlar (031 satr) |
| Sarmoya uchun aksiyalar chiqarishdan tushumlar (050 satr) | | | Xarid qilingan nomoddiy akgivlar (040 satr) |
| Qisqa va uzoq muddatli qarzlar tushumi (051 satr) | | | Xarid qilingan uzoq muddatli moddiy akgivlar (041 satr) |
| Ijara majburiyatlar bo'yicha tushumlar (052 satr) | | | Uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar (042 satr) |
| | | | Ijara majburiyatlar bo'yicha to'lovlar (052 satr) |

1-rasm. Pul mablag'lari harakati

Korxonadalarda pul mablag'larining umumiylar harakati asosiy faoliyatdan, soliqlanishdan, investitsiya va moliyaviy faoliyatlar natijasidan shakllanadi.

Xaridorlardan olingan pullar (kirim), hisobot davrida korxonaning bank schyotlariga, yoki veksel ko'rinishida yuklab jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag'lar summasini ko'rsatadi. Ushbu summani 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisobotidan (quyida 4-SH) va 1-sh Shakli statistika hisoboti, 048-satridan olish mumkin.

Boshqa pul tushumlari va roylatidan, turli ko'rinishdagi mukofotlar, komission yig'imlardan olingan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari summasini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv rahbariyati va tashqi foydalanuvchi investorlar, kreditorlar, korxona menejerlari uchun zarurdir. Boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning likvidligi, dividentlar miqdorini aniqlash, boshqa yo'nalishlarga qo'shimcha investitsiyalarni joylashtirish uchun manba hisoblanadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobot, zarur bo'lgan hollarda korxonaga yuqori daromad keltiradigan rejalarini loyihalashtirish uchun zarur manbadir.

Korxonaning boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning qisqa muddatli kreditorlik qarzlarini uzishga mayjud malbag'ni yetarli yoki etishmasliligi, hissadorlarga to'lanadigan dividendlar miqsorini ko'paytirish yoki kamaytirish hamda korxonani investitsiya va moliya masalalari bo'yicha siyosat kabi masalalarni hal etish zarurdir.

Pul oqimlari to'g'risidagi manbalar asosida investorlar kompaniyalarning faoliyatini o'rganadi va ularning faoliyatiga baho beradi. Jumladan, korxona

rahbariyati pul mablag'larini harakatini boshqara olish, korxona schyotidan kreditor qarzlarini uzish hamda hissadorlarga divident to'lash, qo'shimcha moliyalashtirish maqsaddari uchun yetarli miqdorda pul mablag'larini jamlash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu hisobot shakli orqali sof foyda bilan pul mablag'larini harakati o'rtaсидagi bog'liqlik va tafovutlari aniqlanishi mumkin. Pul okimlari to'g'risidagi hisobot korxonani investitsiya va moliyaviy faoliyatni natijalarini o'zida aks ettiradi.

3. Asosiy faoliyatdagi pul oqiminingh tahlili

Pul oqimlari to'g'risidagi manbalar asosida investorlar kompaniyaning faoliyatini o'рганади va ularning faoliyatiga baho beradi. Jumladan, korxona rahbariyati pul mablag'larini harakatini boshqara olish, korxona schyotidan kreditor qarzlarini uzish hamda hissadorlarga

divident to'lash, qo'shimcha moliyalashtirish maqsaddari uchun yetarli miqdorda pul mablag'larini jamlash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu hisobot shakli orqali sof foyda bilan pul mablag'larini harakati o'rtaсидagi bog'liqlik va tafovutlari aniqlanishi mumkin. Pul okimlari to'g'risidagi hisobot korxonani investitsiya va moliyaviy faoliyatni natijalarini o'zida aks ettiradi.

Korxonaning pul oqimini tahlil qilishda iqtisodiy tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Tahlil davomida korxonaning joriy investitsiya va moliyaviy faoliyatlarini bo'yicha pul mablag'larining sof kirimi va chiqimi aniqlashdan iboratdir;
- Pul mablag'larini kirimi bo'yicha manbalarini, chiqimi bo'yicha harakatlarining tarkibini chuqur o'рганиш;
- Pul mablag'larini miqsorini, optimal variantini aniqlash va hokazolar.

Korxonalarga pul mablag'larining harakati bir necha jarayonlar bo'yicha sodir bo'ladi. Korxonalarda pul oqimi asosan beshta jarayon bo'yicha amalga oshadi.

Bularga:

- Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining sof kirimi (+), chiqimi (-);
 - Investitsiya foydasi ya moliyaviy xizmat ko'rsatishdagi kirim yoki chiqim;
 - To'langan soliqlar;
 - Investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi;
 - Moliyaviy faoliyatdagi sof kirim yoki chiqim.
- jadvalda pul mablag'larini oqimi taxlit qilingan

1-jadval

Pul oqimlarining tahlili

| Ko'rsatkichlar | Satr raqami | Kirim | | Chiqimi | |
|---|-------------|-----------|-------------|-----------|------------|
| | | Ming so'm | Salmog'i, % | Ming so'm | Salmoga, % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining sof kirimi (+), chiqimi (-) | 014 | 17751706 | 100 | - | - |

| | | | | | |
|--|-----|----------|-----|----------|-----|
| 2. Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatishdaga kirim yoki chiqim | 024 | - | - | 347239 | 2 |
| 3. To'langan soliqlar | 032 | - | - | 16822767 | 94 |
| 4. Moliyaviy faoliyatdagi sof kirim yoki chiqim | 053 | | | 766265 | 4 |
| JAMI: | | 17751706 | 100 | 17936271 | 100 |
| Sof ko'payish yoki kamayish | 060 | 184565 | - | - | - |

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonaning joriy yilda sof pul mablag'lar kirimi 17751706 ming so'mni tashkil qilgan. Korxona bo'yicha to'langan soliqlar 16822767 ming so'mni ko'rsatmoqsa. Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada jami pul mablag'larini kirimning 100 % xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining sof kirimiga to'g'ri kelgan bo'lsa. SHuni xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada pul mablag'larining kirimi faqatgina asosiy xo'jalik faoliyatida bo'lgan. Korxonada pul mablag'larining sof ko'payishi 184565 ming so'mni.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotda joriy investitsiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'larining kirimi va chiqimi ifodalangan. Joriy faoliyat — xo'jalik jarayonlari korxonaning pul mablag'larig'a, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi. Bu bo'limga quyidagilar kiradi:

- Jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan pul mablag'lar;
- Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'langan pul mablag'lar;
- To'langan va olingan foizlari kiradi.

Bulardan tashqari korxona xodimlari va ular nomidan to'langan ish haqi va boshqa to'lovlar (soliqlar, xodimlar kreditidan foizlari) ham kiradi. Bu kategoriya byudjetga to'lanadigan har xil to'lovlar ham kiradi. Olingan va to'langan foizlarning hisobi 95—96 «Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar», «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» schyotlarida hisobga olinadi.

Korxonalarda pul mablag'larining harakati, asosan korxona xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladi. Xo'jalik faoliyatidan pul mablag'larining harakatini tahlil qilib chiqishimiz uchun quyidagi jadval ma'lumotlarini o'rganishimiz lozim bo'ladi (1-jadval).

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonaning xo'jalik faoliyatidan pul mablag'larining sof kirimi **17751706** ming so'mni tashkil qilgan. Korxonada jami kirim **38960234** ming so'mni tashkil kilib, uning 100 foizi xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'larini hisobiga, qolgan 0.9 foizi esa boshqa pullik to'lovlar va tushumlar hisobiga to'g'ri kelgan. Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi jami sarflar **21208528** ming so'mni tashkil qilgan, uning 46.3 foizi mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'larini, 52.8 foizi xodimlarga to'langan pul mablag'larini hisobiga, qolgan 0.9 foizi boshqa pullik to'lovlar va tushumlar uchun sarf qilingan. Korxonada xo'jalik faoliyatidagi sof kirim natijasi 184565 ming so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich umumiy tushumning (184565xYUO)/38960234=0.47 % ni tashkil qilgan.

3-j adval

**Investitsiya foydasi moliyaviy xizmat ko'rsatish va soliqlanishdagi pul
mablag'lari harakatining tahlili**

2-jadval

Xo'jalik faoliyatida pul mablaglari harakatining tahlili

| Ko'rsatkichlar | Satr raqami | Kirim | | Chiqim | | Uzgarishi |
|---|----------------|--------------------------|----------------|--------------------------|---------------|-----------|
| | | Summa, (ming so'm) | Salmogi , % | Summa, (ming so'm) | Salm ogi % | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1.Xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari | 010 | 38616886 | 99.1 | | | +38616886 |
| 2. Mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari | 011 | | | 9822479 | 46.3 | -9822479 |
| 3. Xodimlarga va xodimlar nomidan to'langan pul mablag'lari | 012 | — | — | 11203609 | 52.8 | -9822479 |
| 4. Boshqa pulli to'lovlar va tushumlar | 013 | 343348 | 0.9 | 182440 | 0.9 | +160908 |
| JAMI: | — | 38960234 | 100,0 | 21208528 | 100,0 | +17751706 |
| Xo'jalik faoliyatidan pul mablag'laringin sof kirimi yoki chiqimi | 014 | +17751706 | | | | |

Investitsiya faoliyati — korxona investitsiya faoliyatida nomodsiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli modsiy aktivlar, ya'ni ko'chmas mulk bo'lmish bino, jihozlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun yetkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettililadi.

Kirim ustunida esa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushgan tushum hisoblanadi. Korxonalar xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar moddasini chiqim ustunida vositalarga komission to'lovlar va boshqa birjada to'langan foizlarni hisobga olmagan hodda qimmatli qogozlarni sotib olish uchun to'langan pul mablag'larini ko'rsatadir. Kirim ustunida o'zlik bo'Imagan qimmatli qog'ozlarni shu bilan birga bank va boshqa yuridik shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli ssuda va qarzlarini sotishdan kelgan tushum ko'rsatiladi.

Odatda korxonalar o'z faoliyati davomida asosiy faoliyat bilan bir qatorda investitsiya faoliyati bilan hamda moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Ushbu holatni biz quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz (43-jadval).

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada investitsiya va moliyaviy xizmat ko'rsatishdan sof 13726 ming so'm pul mablag'lari kamaygan.

(360-2082+2-12006)-13726

Jami to'langan soliqlar 26208 ming so'mni tashkil qilgan. Korxonada investitsiya foydasi, moliyaviy xizmat ko'rsatish va soliqlanishdan so'ng sof pul oqimining natijasi 1488 ming so'mni tashkil etgan.

| Ko'rsatkichlar | Satr raqami | Kirim | | Chiqim | | O'zgarishi |
|---|----------------|-----------|-------|--------------|------|------------|
| | | Ming so'm | % | Ming so'm | % | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7=3-5 |
| 1. Xo'jalik faoliyatidan pul mablag'larining sof holati | 014 | 414229 | 9.1 | | | 41422 |
| 2. Olingan va to'langan foizlar | 020 021 | 360 | 0,8 | 2082 | 5,2 | -1722 |
| 3. Olingan va to'langan devidentlar | 022 023 | 2 | 0.005 | 12006 | 30.0 | |
| 4. Jami to'langan soliqlar | 032 | — | — | 26208 | 65,0 | -26208 |
| Jami | — | 41784 | 100 | 40296 | 100 | 1488 |
| Investitsiya foydasi moliyaviy xizmat ko'rsatish va soliqlanishdan so'ng sof pul oqimining natijasi | — | 1488 | — | — | — | — |

4. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'ari harakatining tahlili

Moliyaviy faoliyat — bo'limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va kisqa mudsatli qarzlarini kelib tushishi va chiqimlar aks etadi. Bulardan tashqari korxona pul ishtirosiz investitsiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha chiqimlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, asosiy vositalarni uzoq mudsatli kredit hisobiga sotib olish, kreditor qarzlarini aksiyani chiqarish va qreditlarga qo'shimcha aqsiyani berish orqali bo'lishi mumkin.

Korxona moliyaviy holatining sog'lomligini sharti bo'lib, pul mablag'larining kirimi, korxonaning majburiyatlarini qoplay olishidir. Minimal miqdordagi pul mablag'larining etishmasligi moliyaviy holat tangligiga sabab bo'ladi. Ortigcha mablag'larga ega bo'lish inflyasiya natijasida pulni qadrsizlanishiga, hamda ortigcha mablag'lardan samarali foydalanishga yo'naltirmaslik natijasida qo'shimcha daromad ololmasligi mumqin. SHu bois pul mablag'larini ratsional boshqarishni doimo nazorat qilish va tahlil qilish lozim. Bunday tahlil etishni amalda bir qancha usullari mavjuddir.

Moliyaviy holat tangligining sabablaridan biri, bu korxona joriy aktividagi pul mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbatan keskin kamayib borishidir. Shu bois

har oyda pul mablag'larini bilan muddati kelgan majburiyatlarni bir-biri bilan taqqoslab, tahlil qilish lozim¹.

Pul mablag'larining yetarli yoki etishmasliligini aniqlashning ikkinchi usuli — bu pul mablag'larining aylanish davrini aniqlashdan iboratdir. Pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i 50-«kassa» schyoti, 51-«hisob-qitob» schyoti, 52-«valyuta» schyoti, 55-«banqsagi maxsus schyotlar» schyoti orqali aniqlanadi.

Oborot summasini aniqlash uchun yugoridagi schyotlarni krediti bo'yicha oborot summasi olinadi. Korxonalarda pul mablatari oboroti davomiyligini oylar bo'yicha o'zgarishiini quyidagi jadvalda ko'rishshshz mumkin.

| oylar | pul mablar-larinig qoldig'i (ming so'm) | oborot summasi, (ming so'm) aylanish | davri, kunda 1*30/2 |
|-----------|---|--------------------------------------|---------------------|
| YAnvar | 12734 | 140448 | 2,72 |
| Fevral | 11466 | 159250 | 2,16 |
| Mart | 12766 | 187739 | 2,04 |
| Aprel | 12780 | 180000 | 2,13 |
| Va hokazo | | | |

Korxonada pul mablag'larini oboroti davomiyligi o'rtacha 2,04 dan 2,72 kungacha tashkil etgan. Buning mazmuni pulni korxona schyotiga kelib tushishidan to chiqib ketishiga qadar 2 kundan ortiqroq kun ketgan. Taxlil davomida pul mablag'larini kirimi va chiqimining tarkibi atroflicha o'rganilmog'i lozim.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini taxlil etishni 2 uslubi mayjuddir.

1. To'g'ri uslub;
2. Egri uslub;

Tug'ri uslub orqali pul mablag'larining harakatini taxlil etish uchun joriy faoliyat, soliqlanish, investitsiya, moliyaviy faoliyatlarini bo'yicha mablag'larining kirim qismi, chiqimi bilan taqqoslanib, sof kirimi (yoki chiqimi) aniqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Soliq va soliqlanishdagi pul mablag'larini harakati qanday taxlil etiladi?
2. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'larini harakati deganda nimani tushunasiz?
3. Valyuta mablag'larini harakati qanday tahlil etiladi?
4. Pul mablag'larini tezlashtirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur?
5. Valyuta zaxiralarni ko'paytirishning omillari sizningcha nimalardan iborat?

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 364 page.

BOBNI MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi tayanch iboralarga tushunchalar yozing.

- Pul oqimi.
- Pul mablag'larining kirimi.
- Pul mablag'larining sarfi.
- Mahsulotlar sotishdan pul mablag'larini kirimi.
- Xo'jalik faoliyatdagi pul mablag'larini harakati.
- Investitsion faoliyatdagi pul mablag'larini harakati.
- Soliq to'lash bo'yicha pul mablag'larini sarfi.
- Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'larini harakati.
- Valyuta mablag'larining harakati.

2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini tahlil qiling.

PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOT

| Ko'rsatkichlarning nomi | Satr raqami | Chiqim | Kirim |
|--|-------------|--------|--------|
| Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining harakati | | | |
| Xaridordan kelib tushgan pul mablag'lar | 010 | | 496763 |
| Mol yetkazib beruvchilarga to'lang'an pul mablag'lar | 011 | 240296 | |
| Xodimlarga va xodimlar nomidan to'lang'an pul mablag'lar | 012 | 223232 | |
| Boshqa pullik to'lovlar va tushumlar | 013 | 191769 | 194727 |
| JAMI. Xo'jalik faoliyatidan pul mablag'larining sof kirimi/chiqimi (010+011+012+013) | 014 | 655297 | 691490 |
| Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatish | | | |
| Olingan foizlar | 020 | | 2374 |
| To'langan foizlar | 021 | 2097 | |
| Olingan dividendlar | 022 | | 837 |
| To'langan dividendlar | 023 | 8006 | |
| Jami. Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatishdagi sof kirim/chiqim (020+021+022+023) | 024 | 10103 | 3211 |
| Soliqlanish | | | |
| Daromad (foyda)dan to'langan soliq | 030 | 4036 | |
| Boshqa to'langan soliqlar | 031 | 46156 | |
| JAMI: to'langan soliqlar (030+031) | 032 | 50192 | |
| Investitsiya faoliyat | | | |
| Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish | 040 | 63 | |
| Uzoq muddatli modsiy aktivlarni sotib olish va sotish | 041 | 5191 | 980 |
| Xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar | 042 | 1100 | 1100 |
| JAMI. Investitsiya faoliyatdagi sof pul oqimlarining kirimi/chiqimi (040+041+042) | 043 | 6354 | 2080 |
| JAMI. Pul mablag'larining sof kirimi/chiqimi (moliyalashtirgunga qadar) | 044 | 721946 | 696781 |

| | | | |
|---|-----|--------|--------|
| Moliyaviy faoliyat | | | |
| Aksiya chiqarishdan kapitalga kelib tushgan tushum | 050 | | |
| Uzoq va qisqa muddatli qarzlarining kelib tushishi | 051 | | |
| Ijara majburiyatlari bo'yicha tushum va to'lovlar | 052 | | 28123 |
| JAMI. Moliyaviy faoliyat so'f kirimi/chiqimi (050+051+052) | 053 | | 28123 |
| Sof o'sish/kamayish (pul va unga tenglashtirilgan mablag'lar uchun) (044+053) | 060 | 721946 | 724904 |
| pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot yili boshiga holati | 070 | | 26890 |
| pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot davri oxiriga holati | 080 | | 29848 |

21-bob. KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI

Reja:

- Kapital tarkibi va uning tahlilining ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari
- Kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili
- Kapital va uning samaradorligini baholash
- Kapitalni ko'paytirish omillarini aniqlash

Tayanch so'zlar:

O'zlik mablag'larning manbalari, ustav kapital, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan fonda, qoplanmagan zarar.

1. Kapital tarkibi va uning tahlilining ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiylovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Negaki, uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramlig'i yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo'nga qo'yishda o'ta muhim masala hisoblanadi.

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbaining asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxona ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foya (qoplanmagan zarar) kiradi.

Buxgalteriya hisobi fanidan ma'lumki korxona, tashkilot va firmalarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'z mablag'lar manbai;
- Qarz mablag'lari.

Korxona, tashkilot yoki firma ochilish davrida o'z mablag'larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag'larni qaysi manbaa hisobiga qoplash kerakligini ko'rib o'tiladi. Agarda korxonaning o'z mablag'lari yetarli bo'lsa o'z mablag'lar manbai hisobiga aks holda esa qarz mablag'lari hisobiga qoplaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir korxona o'z moliyaviy ehtiyojarini o'zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta'minlash manbai bo'lib, uning foydasi, qimmatbaho qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aktsionerlarning pay va boshqa to'lovlar, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to'lovlar hamda qonundan tashqari bo'lgan holda kirim qilingan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxona tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi.

Hozirgi vaqtida mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalarda ustav fondi miqdori mazkur korxona tashkil bo'lganda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan miqdor bilan muvofiq kelishi lozim. Uning miqdori yil davomida o'zining mulkchilik shaklini o'zgartirmaydigan korxonalarda o'zgarmaydi. Davlat korxonasi xususiy lashtirilganda mazkur korxona mulkinning sotib olinish qiyomatini

aniqlash talab qilinadi, chunki ta'sischilar hujjatida ustav fondi miqdorini ko'rsatish lozim.

Umuman olganda, barcha iqtisodchi olimlar tomonidan xususiy kapitallarga ta'rif berilganda yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanilgan bo'lib, ular tarmoq xususiyatiga ko'ra o'z ko'rinishlarini o'zgartirgan holda ta'riflangan.

Ustav kapitali – bu davlat tashkilotlarida hukumat tomonidan ajratilgan asosiy va oborot mablag'lari hisobiga shakllanadi. Nodavlat sektoridagi korxonalarda esa ta'sischilarining kiritgan mablag'lari hisobiga tashkil topib, u xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan mulkni puldagi ifodasini ko'rsatadi.

Ushbu iqtisodehilar tomonidan ustav kapitaliga berilgan ta'rif mazmun jihatdan mohiyatga ega bo'lsa hamki, unga bir muncha qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Negaki, berilgan mazmun, korxona mablag'lar manbaining manfaatdorlik hissini, tashkil bo'lish davrini va keyinchalik mazkur ko'rsatkichning shakllanish holatini o'zida aks ettirmagan. Shu jihatdan olganda: "ustav kapitali – bu xo'jalik subyektlarining daromad (foyda) olish maqsadini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan dastlabki (korxonani barpo etish to'g'risida shartnoma yoki nizomda belgilangan) mablag'lar (kapital) miqdori. Shuningdek, ustav kapitalini oshirish maqsadida kiritilgan mablag'lar, hamda o'z kreditor va ta'sischilarining qiziquvchanligini kafolatlovchi mablag'lar manbайдир" deb ta'rif berishimiz maqsadiga muvofiqdir.

Xususiy capital tarkibi qismlaridan yana biri bu – rezerv kapitali hisoblanadi. Rezerv kapitali ko'pgina me'yoriy va qonuniy hujjatlarda hamda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'riflangan bo'lib, uning o'ziga xos jihatlarini belgilab bergan.

Masalan, Respublikamiz boshqaruv tashkilotlari tomonidan belgilangan me'yorlarga asosan: «Rezerv kapitali – bu korxona ustaviga asosan ajratma qilish, mol-mulk qayta baholanishi, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mablag'lar (pul mablag'laridan tashqari), o'rtoqlik va aktsionerlik jamiyatlar mulkini oshiruvchi boshqa kirimlar hisobini olib borish uchun mo'ljallangan» deb izohlangan. Keltirilgan izohga mazmunan yondoshadigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi bir qator ko'rsatkichlar o'z o'rnida berilmagan. Masalan, mol-mulkning qayta baholanishi. Chunki ushbu ko'rsatkichning ma'lum qismi, qo'shilgan kapital zimmasiga birktilgan bo'lib, uning ikki schyotda ko'rsatilishi hisob tizimidagi kamchiligidimiz hisoblanadi.

M.Lapustin, P.Nikol skylarning fikricha: «Rezerv kapitali – bu xo'jalik tavakkalchiligi va ko'zda tutilmagan holatlarni moliyalashtirish maqsadida jamg'arilgan pul ko'rinishidagi mablag'lar hisob lanib, u xususiy kapitalning bir bo'lagi sifatida qaraladi. Amaliyotda bu jamg'arma sug'urta mablag'i sifatida yoki tavakkalchilik rezervi deb ham ataladi».

Yuqorida keltirilgan ta'rifga nazar solsak, uning bir qadar mazmunga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Chunki, rezerv kapitali hisobot yilida erishilgan sof foyda hisobidan ma'lum bir maqsadlarni sug'urtlash uchun tashkil etilishi belgilab qo'yilgan.

Shu nuqtai-nazardan, bizningcha: «Rezerv kapitali – bu ta'sis hujjatlariga binoan hisobot davrida erishilgan sof foyda hisobidan, amaldagi qonunchilik asosida, tavakkalchilik va ko'zda tutilmagan natijalar oldini olish, hamda xo'jalikning oxirgi moliyalashtirish manbai sifatida gavdalananadigan mablag'lar jamg'armasining puldagi ifodasi» deb ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida fikr-mulohazalar shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida kapitallar (fondlar) va rezervlarning muhim o'rni mavjud ekan. Chunki, bu manbalar asosan, xo'jalik subyektlarining o'z manbalarini aks ettiruvchi jihatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda xo'jalik subyektlarining o'z mablag'larini manbalar qanchalik yuqori salmoqqa ega bo'lsa, mazkur korxonalarining faoliyati shunchalik ijobjiy baholanadi.

Xususiy kapital hisobi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudratining darajasini qay darajada ekanligini bildiradi. Bunday taraflarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq 6-sessiyasida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda ham xususiy kapital hisobiga katta e'tibor berilgan. Uning 16- moddasiga ko'ra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5-shakl «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qo'shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.

Xususiy kapital tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokazolar kiradi.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbai bo'lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv 1- bo'limi va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda biz tahlil ishlarni olib boramiz. Mazkur bobning hisobi 12- «Jurnal orderi» da yuritilib, ushbu hujjat formasi ham manbalar sifatida ko'riliши mumkin.

2. Kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liqidir. Odatda analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funktsional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi.

Bizning fikrimizcha xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini o'rganishda moliyaviy tahlilni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

◆ **Xususiy kapital tahlilini o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.** Moliyaviy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini moliyaviy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil utkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari moliyaviy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib

olingen bo'lishi lozim:

- xususiy kapital tahlilining maqsadivavazifasini aniqlash;
- tahlil obyektini aniqlash;
- moliyaviy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izoxlash;
- ijrochilarini tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish;
- xususiy kapital tahlili manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

◆ **Xususiy kapital tahlili uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.** Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- xususiy kapital tahlili uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- xususiy kapitalga oid manbalarni to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalg etish;

◆ **Xususiy kapitalga oid to'plangan ma'lumotlarning to'g'rilingini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.** To'plangan manbaalarni to'g'rilingini tekshirish hamda ishonchiligidini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu manbaalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlilusullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddallashtirish;
- jadval, sxemavamaketlarnituzish;
- ta'siretuvchifaktorlarnianio'lash;
- rezervlarnianiqlash.

◆ **Bevosita xo'jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.** Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlarani qo'lanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

◆ **Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.** Bu bosqichda o'rganiyatgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxona faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

◆ **Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bosqichi.**

Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxona faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tadbiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida korxonalar o'z moliyaviy resurslarini mustaqil shakllantirishlari mumkin. Korxona moliyaviy resurslarinin asosiy manbalari bo'lib foyda, amortizatsiya ajratmalar, qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan mablag'lar, aktsionerlar yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallari, shuningdek kreditlar va qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa tushumlar hisoblanadi.

Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish asosiy manbai bo'lib uning mulkdorlari tomonidan korxonaga qo'yilgan mablag'lar majmui bo'lgan ustav kapitali hisoblanadi. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi qonunchilik va ta'sis hujjatlari bilan amalga oshiriladi.

Chunonchi, davlat korxonalarining ustav fondi korxona foydalanishga topshirilgan vaqtida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan (byudjet hisobidan) ajratilgan mablag'lar (qurilish, montaj, sozlash ishlari xarajatlari, asbob — uskunalar, ayanma mablag'lar va pul mablag'larini qiymati) ni aks ettiradi.

Nodavlat tijorat strukturalarining ustav kapitali aktsionerlar (ta'sischilar) tomonidan qo'yilgan (pul, moddiy va boshqa) mablag'lar hisobidan shakllantiriladi, va shuning uchun ham bir necha yuridik va jismoniy shaxslar — aktsioner jamiyatini, shirkat va boshqa tashkiliy — huquqiy shakldagi jamoat mulkini tashkil etadi.

Xususiy kapital hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Ustav kapitali;
- Qo'shilgan kapital;
- Rezerv kapitali;
- Taqsimlanmagan foyda;
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischilar tomonidan qo'yilgan pay to'lovlarini, aktsiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischilarning yig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mulknai ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

1. Ko'rilgan zararlarni qoplash uchun;
2. Korxona hisobot yilida foyda olmagan bo'lsa imtiyozli aktsiyalar uchun dividend berish;
3. Boshqa to'lovlarini amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foya - bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foya bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710- «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foya (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 – «Jamg'arilgan foya (qoplanmagan zarar)» schyotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralar orqali aniqlanib olinadi.

Moliyaviy tahvilni olib borishda koeffitsientlar usuli eng ilg'or metodlardan hisoblanib, bizning o'rganayotgan bobimizni ham ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsientlar o'rganiladi va ularni shartli ravishda to'rtta katta guruhlarga ajratiladi:

1. Rentabellik koeffitsientlari;
2. Likvidlik koeffitsientlari;
3. To'lov qobiliyati koeffitsientlari;
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibiga bir qancha koeffitsientlarni oladi:

Demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:

- Xususiy kapital rentabelligi;
- Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi;
- Leveridj;
- Sotish rentabelligi.

Likvidlilik koeffitsientlariga:

- A) Tez likvidlanadigan koeffitsientlar;
- B) Debетorlik qarzlarining aylanish koeffitsienti;
- V) Ishlab chiqarish zahiralarini aylanishi koeffitsienti;
- G) Qiyin likvidlanish koeffitsienti.

To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsientlarga quyidagilar kiradi:

- Qarz va hususiy kapital nisbati koeffitsienti;
- Xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsienti;
- Qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsienti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summalarini o'rganiladi.

Bu koeffitsientlar ichida bizning bobga taaluqli bo'lgan koeffitsientlar ham mayjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foya qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

Sof foya

Xususiy kapitalning yillik qiymati

ko'rinishida hisob - kitob ishlarini bajarishimiz kerak.

Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

Jami investitsiyalar rentabelligi. Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun,

$$SF + (KF * FS_k) + A_R$$

JA

kabi hisoblashish ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu yerda:

SF - Sof foya

KF - Kreditlar uchun foiz

FS_k - Foya solig'ining korektirovka qilingan stavkasi

A_R - Rezervlar uchun ajratma.

JA - Jami aktivlarning o'rtacha qiymati

Bu yerda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatini yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foya solig'ining korrektirovkasini sof foya hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Leveridj. Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa korxonaning xususiy kapitalini shunchalik o'sganligini beradi.

Bir aktsiya uchun daromadni hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aktsiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtaсидаги нисбат кoeffitsienti.

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'larini manbaiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsient yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa $A_1 > A_2$ u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'лади. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'лади.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsienti.

Xususiy kapital

Jami mablag'lar

formulasi orqali topiladi. Bu koeffitsient qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsientning kamida 50% ga ega bo'lishlari lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakliga asoslanib yil boshiga nisbatan yil oxirida qolgan kapitalimizning o'zgarishini tahlil qilamiz. Buning uchun quyidagi shaklda analitik jadvalni tuzamiz.

1-jadval
Xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy kapitali va uning dinamikasini tahlili

| Ko'rsatkichlar | yil boshiga qoldiq | O'zgarishi | | Yil oxiriga qoldiq |
|--|--------------------|---------------|------------|--------------------|
| | | ko'pa'yishi | kama-yishi | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. Ustav kapitali | 28280 | - | - | 28280 |
| 2. Qo'shilgan kapital | 116902 | - | - | 116902 |
| 3. Rezerv kapitali | 278317 | 263511 | - | 541828 |
| 4. Taqsimlanmagan foyda | 37000 | 5400 | - | 42400 |
| 5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar | - | - | - | - |
| JAMI: | 460499 | 268911 | - | 729410 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektining xususiy kapitali yil boshiga nisbatan yil oxirida 268911 ming so'mga oshgan. Bu natija korxona uchun ijobji deb qaralishi lozim. Chunki bu miqdor yil boshiga nisbatan saltkam 60 % ga yaqin oshgan.

Bunday o'zgarishning hosil bo'lishida hisobot yilida taqsimlanmagan foydaning 5400 ming so'mga va rezerv kapitalining 263511 ming so'mga oshivi katta ta'sir etgan.

Xususiy kapitalning qolgan turlari bo'yicha yil davomidagi harakati kuzatilmagan.

Ijobji natija deb qaralishini yana bir tarafi shundaki, xususiy kapitalning asosini qo'shilgan va rezerv kapitali tashkil qilganidir. Bu esa kelgusida korxonaning xususiy kapitali yanada ko'payib borishidan dalolat beradi.

1999- yil 28- iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarini tugatish tartibini soddalashirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. Bu farmonga ko'ra moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyati tuzilgan maxsus hududiy komissiyalar ko'rsatmasiga ko'ra to'xtatiladi.

Shunday ekan, yuqorida jadval ma'lumotlariga asoslangan holda bu muammoni hal etish yo'llarini topishimiz kerak. Ko'rinish turibdiki, xususiy kapital qiyomatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Sababi, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashni taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur vazifalarни hal etishda talabalar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»ni chiqur

bilishlari lozim. Unda foydani shakllantirish muammolarini chiqur o'rganishlari lozim

3. Kapital va uning samaradorligini baholash

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy tahlilning vertikal, gorizontal, moliyaviy koeffitsientlarini aniqlash, trend to'g'risida fikrlar yuritigan bo'lib, ammo, xususiy kapital tahlili bo'yicha ma'lumotlar bugungi kunda yetarli darajada emas.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda asosiy axborot manbai bo'lib, moliyaviy hisobot shakllari, ya'ni "Buxgalteriya balansi" (1-shakl), "Xususiy kapital to'g'risida hisobot" (5 - shakl) olinadi.

Yuqorida hisobot shakllarida jumladan, "Xususiy kapital to'g'risida hisobot"da bir qancha noaniqliklar mavjud bo'lib, bularga 080-satrda keyingi ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur satrlarda, aktsiyalar to'g'risida ma'lumotlar jamlanishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularda deyarli barcha (oxirgi ustundan tashqari) ustun va qatorlar to'ldirilmaslikni taqozo etadi. Ushbu holatni atroficha o'rgangan holda, bu kamchiliklarni hal etish yo'llarini topish lozim. Chunki, moliyaviy hisobotning bu ko'rinishda bo'lishi xalqaro hisob tizimi standartlari talablariga mos kelmaydi¹.

Shu nuqtai nazardan, bir qancha rivojlangan va MDH mamlakatlarining "Xususiy kapital to'g'risida hisobot" shakllariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda aktsiyalarning chiqarilishidan kelgan kapital, rezerv kapital, qo'shilgan kapital va taksimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kabi ko'rsatkichlar o'z aksini topgan (masalan, Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari va x. k). Ushbu ma'lumotlar buxgalteriya balanslarida (1 - shakl) ham o'zgarishsiz aks ettirilgan. Lekin, bizning moliyaviy hisobot shaklida (1-shakl) o'z mablag'lar manbai sifatida xususiy kapital ko'rsatkichlардан tashqari, maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlar uchun rezervlar kabi ko'rsatkichlar mayjud bo'lib, ularning harakatini aks ettiruvchi axborot manbai belgilanmagan.

Bu holni xususiy kapital ko'rsatkichlarining nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirilmaganligi, tarmoq xususiyatlariiga asosan xususiy kapital hisobi va tahlili to'g'ri yo'ilga qo'shilganligi kabi izohlashimiz mumkin.

Korxonaning xususiy kapital holatini tahlil qilishda koeffitsientlar usuli eng ko'p qo'llanilib, ushbu usul asosida tahlilning olib borilishi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng tarqalgan.

Jumladan, Belarusiya iqtisodchilaridan biri G.Savitskayaning fikrini keltirib o'tadigan bo'lsak. Uning fikricha: "Kapitaldan samarali foydalanishning uchta asosiy ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin, ular:

- jamimablag'lar manbaining rentabelligi;
- kreditorlarkapitaliningdaromadliligi;
- xususiykapitalrentabelligi".

Xususiy kapital tahlilini unga ta'sir etuvchi omillarning uziyi bog'liqligi asosida o'rganish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu sababdan xususiy kapital rentabelligi (foydaliligi)¹, uning natijaviyligi va daromadliligi asosida o'rganib, xususiy

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 250 page.

kapitalning shakllanishida muhim o'rin tutgan omillarning ijobjiy hamda salbiy oqibatlari yuzasidan asosli qarorlar qabul qilishni yo'lga qo'yish maqsadga muofikdir.

Raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharotida xususiy mulkchilikning turli shakllarining shakllanishi, xususiy kapital bahosini o'rganishni talab etadi. Lekin, shunga qaramasdan respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda xususiy kapitalning bahosi yetarlicha o'rganilmagan.

Bundan tashqari bir qancha adabiyotlarda korxona aktsiyalari qiymati va daromadlilagini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar tahlili yordamida korxona nufuzi va xususiy kapitaliga atroficha baho berish mumkin. Jumladan:

1. Bir aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda (Fa):

Sof foyda - imtiyozli aktsiyalar bo'yicha dividendlar

$f_a = \dots$

Muomaladagi oddiy aktsiyalar soni

Bu ko'rsatkich muomaladagi bir oddiy aktsiyaga qancha sof foyda to'g'ri kelishini bildiradi.

2. Biraktsyaningbalansqiymati(BQa):

$AK_q - IA_q$

$BQa = \dots$

AS_m

AK_q - Aktsiyadorlik kapitalining qiymati

IA_q - Imtiyozli aktsiyalar qiymati

AS_m - Muomaladagi oddiy aktsiyalar soni

Bu ko'rsatkich bir aktsining balans kiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga kura bir oddiy aktsiyaga tug'ri keladigan korxonaning sof aktivlari qiymatini kursatadi.

3. Dividend daromad yoki dividend normasi (Dd):

Biraktsyaningdividendi

Biraktsyaning bozor qiymati

4. To'lanadigan dividendlar ulushi (Utd):

Bir aktsiyaga to'g'ri keladigan dividend

$Utd = \dots$

Bir aktsiyaga to'g'ri keladigan sof foyda

Bu ko'rsatkich tahlil qilinganda shuni e'tiborga olish lozimki, bunda ushbu ko'rsatkich 1 dan ortiq bo'lmasa bir muncha ijobjiy holat deb baholash mumkin.

Ya'ni, korxona dividend to'lash uchun yetarli darajada foyda olganligidan dalolatdir. Aksincha bu ko'rsatkich 1 dan oshib ketsa, korxona dividend to'lash maqsadida rezerv kapitalidan foydalanganligini anglatadi.

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi xam o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarni o'zgarishi orqali amalga oshadi.

Ustav kapitali. Xususiy (hissador) kapitalining qiymati, qimmatbaho qogozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar "Xususiy kapital to'grisida hisobot" ning 020; 030 va 060 satrlarida o'z aksini topadi.

Qo'shilgan kapital quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:

- ✓ Xususiy (xissador) kapitaliqiyatining o'zgarishi;
- ✓ Muomalaga qo'shimcha aktsiyalarning chiqarilishida;
- ✓ Asosiy vositalarni qayta baholanishida;
- ✓ Foyda va zararlarni hisobiga.

Rezervkapitaliham yuqorida keltirilgan o'zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o'zgarishlar tarkibiga foyda hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar, ya'ni 5-hisobot shaklining 050 satri ham kirdi.

Taqsimlanmagan foyda. Bu ko'rsatkich korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi, xissador kapitalining ko'payish yoki kamayishi, qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora -tadbirlari to'g'risida" gi PF - 4053 - sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan yangi tashkil etiladigan ochiq va yopiq aktsiyadorlik jamiyatlari uchun ustav kapitalining eng kam mikdori 2009 yil 1 yanvardan boshlab jamiyat davlat ro'yxatiga olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha ekvivalenti 400 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etishi belgilandi. Faoliyat yuritayotgan ochiq va yopiq aktsiyadorlik jamiyatlari bo'lsa, 2010 yilning 1 yanvariga kadar ustav kapitallari mikdorini ular qayta ro'yxatga olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha ekvivalenti kamida 400 ming AQSh dollariga teng summaga yetkazishlari yoki belgilangan tartibda boshqa mulkchilik shakliga o'tishlari kerakligi belgilandi.

Shunday ekan, yuqorida ma'lumotlarga asoslangan holda bu muommoni hal etish yo'llarini izlash kerak. Ko'rinib turibdiki xususiy kapital qiymatining ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi eng optimal variant deb karaladi. Sababi bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyat yuritishni talab etadi. Bundan tashqari boshqa mulkchilik shakliga o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bogliqdir.

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koefitsientlar orqali o'rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada asonlashtiradi albatta.

Moliyaviy koeffitsentlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini va birlik elementlarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadi. Bunda koeffitsent, indeks va foizlar ishlatalidi.

Moliyaviy koeffitsentlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida korxonaning moliyaviy holatini aniqroq o'rganish va bilish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan: bitta korxonaning "moliyavimustaqillik koeffitsenti" nianiqlanishiga e'tibor qaratatsak. Ushbu ko'rsatkich "O'zlik mablaglari manbalari" ni "Buxgalteriya balansi jami" ga bo'lish asosida aniqlanadi.

Bu ko'rsatkich korxonaning harakatda band qilingan mablagining qancha qismi o'ziga tegishli ekanligini bildiradi. Ya'ni, harakatdagi har bir so'mning qancha qismi o'ziga tegishli ekanligini bildiradi. "Koeffitsentlar - mulknинг nisbiy darajasini tavsiflaydi" deyiladi Tomas P. Karlin, Albert M.Maklinni "Analiz finansovo'x otchetov (na asnove SAAR)" kitobida.

Korxona kapitali bilan bogliq bo'lgan moliyaviy koeffitsentlar, ya'ni uz mablaglari manbayiga baho berishning nisbiy ifodalari sifatida quyidagi koeffitsientlarni o'rganish maqsadga muqofiq bo'lar edi:

- ✓ moliyaviy mustaqillik koeffitsenti;
- ✓ moliyaviy qaramlik koeffitsenti;
- ✓ qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti;
- ✓ zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsenti;
- ✓ mablag'larning chaqqon harakatchanlik yoki manyovrashganlik koeffitsenti

Bunda ushbu koeffitsientlar quyidagicha topiladi:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsenti (Kmm):

O'z mablag'lari manbalari

Kmm =

Jami mablag'lar (Balans jami)

Bu koeffitsient qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda bu koeffitsient kamida 0,5 ni yoki 50% ni tashkil etishi lozim.

2. Moliyaviy karamlikkoeffitsenti (Kmq):

Jami mablag'lari (Balans jami)

Kmq =

O'z mablag'lari manbalari

Bu ko'rsatkich moliyaviy mustaqillik koeffitsientiga teskari proporsional koeffitsient hisoblanadi.

3. Qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti (Kqo'n):

Majburiyatlar - uzoq muddatli majburiyatlar

Kqo'n =

O'z mablag'lari manbalari

4. Zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsenti (Kxo'q):

O'MM + UMQ – UMA

Kxo'q = -----

TMZ

5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik (manyovrashganlik) koeffitsienti (Km):

O'MM + UMQ – UMA

Km = -----

O'MM

Bu yerda:

O'MM - O'z mablag'lari manbalari

UMQ - Uzoq muddatli qarz mablag'lari

UMA - Uzoq muddatli aktivlar

TMZ - Tovar - moddiy zahira

Darhaqiqat, jahon bozorida talabning pasayib ketishi natijasida mamlakatimiz tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlar narxining tushishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar korxonalarining eksportdan oladigan tushumlari va foydasining kamayishiga hamda ishlab chiqarish rentabelligiga va pirovardida mamlakatimiz makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasiga salbiy ta'sir etishi tabiiydir albatta.

Shu nuktai nazaridan respublikamiz korxonalariga jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish lozim. Bunda korxonalarining ichki imkoniyatlarini chuqur o'rganish, iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, korxonalarda tahlil jarayonlarini mukammal tarzda tashkil etish va jahon tajribasida o'zini oqlab kelayotgan tahlil usullarini joriy etish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb o'ylaymiz.

Xususan, xozirgi vaqtida dolzarb hisoblangan xususiy kapital tahlilini rivojlanтирish va takomillashtirish bu boradi amalga oshirishlisi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalarimiz qatoriga kiradi. Bunda xususiy kapital tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

- eng avvalo xususiy kapital tahlili bo'yicha zarur ma'lumotlarni iqtisodiy adabiyotlardan olish imkoniyatining cheklanganligini inobatga olgan holda, ushbu bob bo'yicha nazariy ma'lumotlarni to'liq va kengaytirilgan shaklda sistemalashirish (jamlash) lozim;

- xususiy kapital ko'rsatkichlari tahlili bilan bog'liq bo'lgan koeffitsientlarni xalqaro hisob hamda tahlil yutuqlarini chuqur o'rgangan holda mamlakatimiz hisob va tahlil tizimiga joriy etish lozim;

- korxona xususiy kapitali tahlilini takomillashtirishda mulkchilik shakli va tarmoq xususiyatlarni hisobga olgan holda boblarini farqlash, ya'ni sohalarga yo'naltirilgan holda mukammallashtirish lozim¹.

Yuqoridagi fikrlarimizning xotimasi sifatida shuni aytib o'tish kerakki, mamlakatimiz iqtisodiy bilimlari sohasida ilmiy izlanishlarni yanada jonlantirish va ilmiy izlanuvchilarining ushbu yo'ldagi sayi-harakatlantirini rag'batlantirishning

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 358 page.

ta'sirchan tizimini joriy etgan holda, respublikamiz korxonalarining taraqqiy etishiga, milliy iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga, xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga, pirovardida mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada yuksalishi va taraqqiy etishiga muhim omil bo'lishi tabiiydir albatta.

4. Kapitalni ko'paytirish omillarini aniqlash

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi ham o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarni o'zgarishi orqali amalga oshadi.

1. Ustav kapitali;

Bu schyot xususiy (hissador) kapitalining qiymati, qimmatbaho qog'ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin.

2. Qo'shilgan kapital.

Bu schyot quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:

- xususiy (hissador) kapitali qiymatining o'zgarishi;
- muomalaga qo'shimcha aktsiyalarning chiqarilishida;
- asosiy vositalarni qayta baxolanishida;
- foya va zararlarni hisobiga.

3. Rezerv kapitaliham yuqorida keltirilgan o'zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o'zgarishlar tarkibiga foya hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar.

4. Taqsimlanmagan foya. Bu ko'rsatkich korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko'payish yoki kamayishi, qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

• hisobot davrida olingen zarar;

• qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi;

• hissador kapitalining ko'p yoki kam bo'liskabi ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarishi mumkin.

Bu o'zgarishlar 5-shaklda ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Nazorat savollari:

1. Kissadorlik jamiyatlarida ustav kapitalining shakllanishi nimalardan iborat?
2. Kushilgan kapitalning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?
3. Rezerv kapital qanday maksadlar uchun sarflanadi?
4. Takrimlanmagan fonda (koplanmagan zarar) summalari qanday shakllanadi?
5. Taqsimlanmagan fonda qanday maqsadlarda sarflanadi?

22-bob. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI TAHLIL

QILISH

Reja:

- 1.Taxlilning vazifasi va axborot manbai.
2. Debitorlik va kreditorlik balansini tuzish
- 3.Debitorlik karzlarining umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha taxlili.
4. Kreditorlik karzlarining umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha taxlili.

Tayanch so'zlar:

Debitor qarzlar, kreditor qarzlar, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashish, byudjet bilan hisoblzshishlar, sho'ba va uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar, avans to'lovlar, mulkiy va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha hisoblashishlar.

1. Taxlilning vazifasi va axborot manbai

Firma va kompaniyalar o'z faoliyatlarida turli xil tashkilotlar bilan hisob-kitob aloqalarini amalga oshiradilar. Bu aloqalarda pullik to'lovlarни shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda bajarmay qolish voqealari ko'plab uchrab turadi, natijada debitorlik va kreditorlik qarzlarini yuzaga keladi.

Bunda korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar, kreditorlik majburiyatları, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlariga quyidagicha sharh berish mumkin. Qarshi tomonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatları, karshi tomonidan olinishi lozim bulgan majburiyatlar debitorlik majburiyatları deyildi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin to'lov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy ahvoliga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarining oldini olish bevosita davlat nazaridagi va e'tiboridagi masala hisoblanadi. Negaki korxonalar va tashkilotlar o'rtaida bo'ladigan o'zaro munosabatlarda majburiyatlarni tartiblash asosida davlat naqd pul muomalasini boshqarish va iqtisodiy tadbirlar rejasini tuzib chiqish choratadbirlari belgilanadi¹.

Tahlil etishda korxonalarining muayyan davrga bo'lgan o'zaro debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga chiqish sabablariiga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oqlanuvchanligiga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlar bo'yicha dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Taxlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, korxona balansi (1-shakl) hamda korxona va tashkilotlar tomonidan tuziladigan debitorlik va kreditorlik majburiyatları

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Southern California page 99.

to‘g‘risidagi ma’lumotnomadan (2a-shakl) olinadi. SHuningdek, buxgalteriya hisobining analitik schyotlari ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Tahlil etishning asosiy maqsadi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish davrini tezlashtirish asosida korxona moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan holatni baholash va chora-tadbirlar belgilashdan iborat.

Firma va kompaniyalar moliyaviy hisobotining 2a-shakli «Debitorklik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma’lumotnomasi» deb nomlanib, unda aks etgan ko‘rsatkichlar to‘lov qobiliyati, moliyaviy intizomga rioya qilinganlik va boshqa tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarning holatiga baho berish uchun asosiy manba-dir.

Debitorklik va kreditorlik qarzlar tarkibi firma va kompaniyalarning qanday tashkilotlar bilan bozor sharoitida aloqa qilayotganligiga ham bog‘liqdir. Hozirgi sharoitda debitor tashkilotlar bo‘lib xaridor va buyurtmachilar, bo‘nak to‘lovchilar, byudjet tashkilotlari, xodimlar, sho‘ba va uyushgan korxonalar, ta’sischilar bilan hisoblashishlar va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarga qarab, umumiy debitorklik qarzlar tarkibi, ular ichidan respublikadan tashqarida bo‘lgan debitorlar hamda undirish muddati o‘tgan qarzdorlar haqidagi ko‘rsatkichlarni o‘rganish mumkin,

1-jadval

Debitorklik qarzlar tarkibining tahlil.sh

| Debitorklik tashkilotlar nomi | | Jami debitorlar | | Shu jumladan Respublikadan tashqaridagi debitorlar | | Muddati o‘tgan debitorlar Ming so‘m |
|-------------------------------|----------------------------|-----------------|-------------|--|-----------|--|
| | | Ming so‘m | Sal mog‘i % | Ming so‘m | Salmogi % | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1. | Elektromontaj korxonasi | 1009.5 | 1.9 | | | 1009.5 |
| 2. | Kalon ota x/j | 690.1 | 1.3 | | | 690.1 |
| 3. | Zuchfikor x/s | 446.5 | 0.8 | | | 446.5 |
| 4. | Tadbirkor firmasi | 804.2 | 1.5 | | | 804.2 |
| 5. | Qurilish xususiy korxonasi | 654.0 | 1.2 | | | |
| 6. | Ali-Shavkat korxonasi | 659.8 | 1.3 | | | |
| 7. | Jamoliddin xususiy firmasi | 623.3 | 1.1 | | | |
| 8. | Ta’minot savdo tashkiloti | 983.4 | 1.9 | | | |
| 9. | Sardor xususiy firmasi | 2110.9 | 4.0 | | | |
| 10. | Boshqa debitorlar | 44439.3 | 85 | | | |
| | Jami: | 5421 | 100 | — | — | |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hisobot yili jami debitor qarzlar 52.4 mln. so‘mni tashkil etgan. Bu qarzlar ichida 5.5 foizigina muddati o‘tgan debiorlardir. Muddati o‘tgan qarzlar tarkibida elektromontaj korxonasiga to‘lanishi lozim bo‘lgan summa 1 mln. so‘mni tashkil etadi. Debitor qarzlarning aksariyati respublika hududidagi korxonalar bo‘lganligi uchun 90 kundan kechiktirmay majburiyatlarni uzish maqsadga muvofiqdir.

Jami debitorlarning 85 foiziga yaqini boshqa debitorlar bo‘lgani bilan, xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashish 26.3 mln. so‘mni, byudjet tashkilotlaridan

olinadigan summa 13.9 mln. so‘mni tashkil etgan, ya’ni yaqin muddatda korxonaning bankdagi joriy schyotiga 52.4 mln. so‘mlik tushum amalga oshsa, to‘lov qobiliyati yanada mustahkamlanadi.

Debitorklik va kreditorlik majburiyatlarini bevosita korxona bilan qarshi tomon o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblardan kelib chiqadigan majburiyatlaridir. Bu majburiyatlar korxona bilan mol yetkazib beruvchilar yoki xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlarda, korxona bilan bank tashkilotlar o‘rtasida, korxona bilan soliq organlari o‘rtasidagi, korxona bilan ijtimoiy ta’minot bo‘limlari va turli jamoat tashkilotlari, shuningdek xodimlar, mulk egalari, aksionerlar va investorlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda yuzaga keladi. Ularni yuzaga kelishining asosiy sababi, hisob-kitoblarda vaqtning o‘zgaruvchanligidir. Ya’ni bugun ortilgan mahsulot ham puli to‘langunga qadar, debitorklik va kreditorlik majburiyatlar qatoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chiqishi bilan ular bo‘yicha hisob-kitoblarning amalga oshishi orasida farqlanish kelib chiqadi.

Debitorklik kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi bo‘yicha quyidagi sabab-qatorlarini tarkiblash mumkin:

- o‘zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to‘lov layoqatiga ega emasligi;
- tovarlarni ortib jo‘iatish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;
- mulk va unga egalik qilishda ma’sullik hissining yo‘qligi;
- o‘zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidan kelib chiqilmaganligi;
- xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda qat’iy xujjatlashtirish mezonlarining yo‘qligi;
- xodimlar va kapital egalari bilan korxona o‘rtasidagi munosabatlarda qat’iy shartlarning yo‘qligi;
- kredit tashkilotlari bilan mijoz o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslaridagi kamchiliklar;
- sug‘urta tashkilotlari bilan korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarda qat’iy davlat qonunchilik mexanizmining mayjud emasligi va h.k. sabablarni kiritish mumkin.

Biz yuqorida belgilagan edikki, korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishining asosiy sababi hisob-kitoblarda to‘lovlar muddatini yoki sanasini turli hisobot davriga tushib qolishidir. Bunda debitorlik kreditorlik majburiyatlarini yuzaga chiqishiga har qanday holda ham yo‘l qo‘yiladi. Agarda mahsulotlar ortib jo‘natish orqali sotiladigan bo‘lsa, bunda to‘lovlar amalga oshish sanasiga qadar agarda tovarlarni pulini oldindan to‘lash asosida sotiladigan bo‘lsa, bunda ham tovarlarni jo‘natish sanasiga qadar majburiyat, qarz sifatida hisobda aks ettiriladi.

Debitorklik va kreditorlik majburiyatlar bo‘yicha hisobot, ma’lumotnomasi har oyning 1-sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzları korxona balansı, ya’ni har chorakda tuziladigan korxona aktivlari, kapitali va majburiyatları holati to‘g‘risidagi hisobotda ham aks ettiriladi.

2. Debitorlik va kreditorlik balansini tuzish

Debitorlik va kreditorlik qarzları balansı ular orasidagi o‘zaro tenglik nisbatini karakterlaydi. Bunda debitorlik majburiyatlarining kreditorlik majburiyatlaridan ortib ketishi yoki aksincha holatlari ifodalanadi.

Debitorlik — kreditorlik majburiyatları qatoriga balans moddalari bo‘yicha quyidagilar kiradi:

Debitorlar:

- xaridorlar va buyurtmalar bilan hisoblashishlar
- bo‘nak (avans) to‘lovleri
- byudjet bilan hisoblashishlar
- xodimlar bilan hisoblashishlar
- sho‘ba korxonalar bilan hisoblashishlar
- ta’sischilar bilan hisoblashishlar
- uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar
- boshqa debitorlar

Kreditorlar:

- mol yetkazib beruvchilar
- byudjet bo‘iicha qarzlar
- mehnatga haq to‘lash bo‘iicha qarzlar
- ijtimoiy sug‘urta va ta’minot bo‘yicha qarzlar
- mulkiy va shaxsiy sug‘urtalar bo‘yicha qarzlar
- byudjetdan tashqari to‘lovlar bo‘yicha qarzlar
- sho‘ba korxonalariga qarzlar
- uyushma korxonalariga qarzlar
- boshqa kreditorlar

Balans ma’lumotlaridan debitorlik va kreditorlik qarzlar tarkibini o‘rganish firma va kompaniyalarning qanday turli xil tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqadagini, tomonlarning o‘zaro to‘lov shartnomalarini bajarishga munosabati va qarzlar miqdorini tahlil kilish imkonini beradi. Ayniqsa debitor va kreditor majburiyatlar tarkibida dargumon qarzlarning borligi, undirilishi murakkab bo‘lgan debitorlarning paydo bo‘lishi, firma va kompaniyalarning moliyavii ahvolini pasaytirishga olib keladi. Bunday holat kreditor qarzlarni o‘z vaqqida uzishni qiyinlashtiradi. Natijada debitor va kreditorlik tashkilotlarning sonini ortishiga, o‘zaro hisob-kitob ishlarida chalkashliklarni bo‘lishiga olib keladi.

2-jadval

Debitorlik va kreditorlik qarzları balansining tahlili

| Debitorlik qarzları | Summa (ming so‘m) | Kreditorlik qarzları | Summa (ming so‘m) |
|---------------------|-------------------------|----------------------|-------------------------|
| | | | |

| | | | |
|--|-------|---|-------|
| Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar | 26291 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzlar | 29237 |
| Bo‘nak (avans) to‘lovleri | 4646 | Byudjet bo‘iicha qarzlar | |
| Byudjet bilan hisoblashishlar | 13946 | Mehnatga haq to‘lash bo‘yncha qarzlar | 3820 |
| Xodimlar bilan hisoblashishlar | 60 | Ijtimoiy sug‘urta va ta’minot bo‘iicha qarelar | 1172 |
| SHO‘ba korxonalar bilan hisoblashishlar | 2410 | Mulkiy va shaxsiy sugurtalar bo‘iicha qarzlar | |
| Ta’sischilar bilan hisoblashishlar | — | Byudjetdan tashqari to‘lovlar bo‘iicha qarzlar | 1887 |
| Uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar | 2854 | Sho‘ba korxonalariga qarzlar | 111 |
| Boshqa debitorlar | 2214 | Uyushma korxonalariga qarzlar | — |
| | | Boshqa kreditorlar | 545 |
| Jami | 52421 | Jami | 35772 |
| | | Debitorlik qarzlarning kreditorlik qarzlardan ortiqcha-ligi | 16649 |
| BALANS | 52421 | BALANS | 52421 |

Korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatları holating tahlili shuni ko‘rsatadiki, joriy davrda kreditorlik majburiyatları debitorlik majburiyatlariga nisbatan 16.649 mln. so‘mga kam bo‘lgan.

Debitorlik qarzlar tarkibida eng ko‘p xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashish, ya’ni 26.3 mln. so‘mmi tashkil etgan, so‘ngra byudjet tashkilotlaridan undirilishi lozim bo‘lgan 13.946 mln. so‘m egallasa, bo‘nak to‘lovlar 4.6 mln. so‘m, uyushma korxonalar 2.8 mln. so‘m, sho‘ba korxonalar bilan bo‘ladigan hisoblashishlar 2.4 mln. so‘mdan ortiqni tashkil etadi.

Kreditorlik majburiyatları tarkibida asosiy o‘rinni mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qarzlar 29.237 mln. so‘m, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar 3.8 mln. so‘mmi, byudjetdan tashqari to‘lovlar bo‘yicha qarzlar esa 1.9 mln. so‘mga yaqinno tashkil etgan¹.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatları tengligi 52.4 mln. so‘mni tashkil etgan. SHundan sof debitorlik qarzlar summasi 16.6 mln. so‘mdan iborat.

Muddati uzaytirilgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi tahliliga alohida ahamiyat qaratiladi. Negaki muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlar korxona moliyavii ahvolining og‘irlashishi va moliyavii

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 298 page.

barqarorligining buzilishiga sabab bo‘ladi. O‘z navbatida firma va kompaniyalarning to‘lov layoqati buziladi.

Muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlarning yuzaga chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- korxonaning moliyavii holatining nosog‘lomligi;
- korxonaning to‘lov layoqatiga ega emasligi;
- likvid mablag‘larning aylanuvchanligi, uzokligi;
- shartnoma majburiyatlariga va to‘lov shartlariga amal etmaslik;
- xo‘jalik shartnomalarining buzilishidan ko‘riladigan zararlarni to‘la undirilmasligi (shartnomalarni buzilishida qo‘llaniladigan choralgarda amal qilinmasligi);
- hisob-kitoblarda zamonaviy uslublardan foydalanmaganlik (fyuchers, fors-major, veksel, qimmatli qogozlar, barter operatsiyalari);

Debitorlik-kreditorlik majburiyatlarining undirib olish muddati 3 oy qilib yoki 90 kalender kun qilib belgilangan. Ushbu muddatdan so‘ng debitorlik va kreditorlik majburiyatlari nazoratga olinadi hamda ularning holati bo‘yicha davlat qonunchiligiga muvofiq javobgarlik shartlari (ma‘muriy va moliyaviy) belgilangan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chiqarish muddati sifatida huquqiy shaxslar o‘rtasida 1 yil, korxona bilan jismoniy shaxslar o‘rtasida 3 yil muddat belgilangan. Ushbu muddatda to‘lanmagan yoki undirib olinmagan majburiyatlar, qarzlar korxona foya va zararlariga olib boriladi. Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari davlat tomonidan nazorat qatori sifatida olingan. Muddati o‘tkazib yuborilgan kreditorlik majburiyatlari korxona foydasiga qo‘shiladi va umumiy asosda foydadan soliq stavkasi bo‘yicha soliqqa tortiladi. Muddati o‘tgan debitorlik majburiyatlarini zararga olib borish soliqqa tortiladigan foya summasini kamaytirmaydi.

Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foya va zararlar qatoriga olib borish shartlari davlat soliq qonunchiligiga muvofiq qat‘iy tartiblangan. YA’ni debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foya va zararlar qatoriga olib borishga qadar ularni to‘lash yoki undirib olish yuzasidan qanday yozishmalar yoki murojaatlар bo‘lgan, orbitraj qarori chiqarilgan yoki chiqarilmaganligi va h.k. bo‘yicha dastlabki hujjatlar to‘plami tayyorlanmog‘i lozim. Faqat shundagina uni foya va zararlar tarkibiga olib borish mumkin. Aks holda zaruriylik shartida kechiktirilgan majburiyatlar sifatida olinib, ma‘sullat javobgarlikka tortiladi.

3. Debitorlik karzlarining umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha taxlili

Debitorlik majburiyatları tarkibi deganda uning yuzaga chiqish qatorlari yoki o‘rnı tushiniladi. Xaridor va buyurtmachilarga bo‘lgan debitorlik majburiyatları, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha debitorlik majburiyatlar, ish haqidan ajratmalar yuzasidan debitorlik majburiyatları, soliqlar va turli boshqa to‘lovlar bo‘yicha debitorlik majburiyatları va h.k.

Shuningdek, debitorlik va kreditorlik majburiyatları tarkibida muddati o‘tgan, to‘lov muddati kelgan va to‘lov muddati utmagan majburiyatlarni alohida tarkiblash mumkin.

Muddati o‘tgan, to‘lash muddati kelgan majburiyatlar alohida hisobga olinadi va boshqariladi, Muddati o‘tgan debitorlik majburiyatlar debitorlik va kreditorlik majburiyatları to‘g‘risidagi ma‘lumotnomada alohida katorlanadi. Ularning respublika ichkarisidagi korxonalar va respublikadan tashqaridagi korxonalar o‘rtasida muddati o‘tgan majburiyatlarga ajratish mumkin. Muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlar korxona moliyaviy holatini ogirlashtiruvchi asosiy sabab faktori sifatida olinadi va muhim e’tibor beriladi¹.

Taxlil etishda debitorlik majburiyatlarining hajm tarkibi hamda vujudga kelish muddati bo‘yicha o‘rganish asosida ularning holatiga, aylanuvchanlik darajasiga, debitorlik qarzlar bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy holat ko‘rsatkichlariga baho beriladi.

1-jadval

Debitorlik majburiyatları holatining tahlili

| Debitorlik majburiyatları tarkibi | Davr oxiriga jami | Shu jumladan yuzaga chiqsh muddatlari bo‘yicha | | | | |
|---|-------------------|--|-------------------|-------------------|--------------------|----------------|
| | | 1 oydan 2 oygacha | 1 oydan 2 oygacha | 3 oydan 6 oygacha | 6 oydan 1 yilgacha | 1 yildan ortiq |
| 1. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar | 26291 | 16200 | 7140.7 | 1699.6 | 804.2 | 446.5 |
| 2. Bo‘nak (avans) to‘lovlari | 4646 | 3390 | 1256 | - | - | - |
| 3. Byudjet bilan hisoblashishlar | 13946 | 11900 | 2046 | - | - | - |
| 4. Xodimlar bilan hisoblashishlar | 60 | 60 | - | - | - | - |
| 5. Sho‘ba korxonalar bilan hisoblashishlar | 2410 | 2410 | - | - | - | - |
| 6. Ta’sischilar bilan hisoblashishlar | - | - | - | - | - | - |
| 7. Uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar | 2854 | 1800 | 1054 | - | - | - |
| 8. Boshqa debitorlar | 2214 | 2214 | - | - | - | - |
| Jami | 52421 | 37974 | 11496.7 | 1699.6 | 804.2 | 446.5 |

Korxonada debitorlik majburiyatlarining vujudga kelish muddatlari bo‘yicha tahlili natijasidan shuni ko‘rish mumkinki, hisobot yilning 1-yanvariga jami qarzlar 52421 ming so‘mmi tashkil qilgan. Jami debitorlik majburiyatları tarkibida 1 oy muddatga bo‘lgan majburiyatlar 37974 ming so‘mmi, 1 oydan 2 oygacha bo‘dgan majburiyatlar 11496.7 ming so‘mmi, 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan majburiyatlar 1699.6 ming so‘mmi, 6 oydan 1 yilgacha bo‘lgan majburiyatlar 804.2 ming so‘mmi,

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 400 page.

shuningdek, 1 yildan ortiq muddatdagi majburiyatlar hajmi 446.5 ming so‘mni tashkil qilgan.

Debitorlik majburiyatlar yoki qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida e’tibor beriladi. Negaki debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxona moliyaviy ahvoliga baho berishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsienti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olintan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo‘lish asosida aniqlanadi.

$$\begin{array}{lcl} \text{Debitorlik majburiyatlarining} & & \text{tushum xakikatda} \\ \text{shartli aylanish koeffitsenti.} & = & \text{debitorlik majburiyatlar utgan} \\ \text{Sotishdan olingan sof.} & & \text{yil shu davri buyicha} \end{array}$$

$$\begin{array}{lcl} \text{Debitorlik} & & \text{Debitorlik majburiyatlar utgan} \\ \text{majburiyatlarining} & = & \text{yil shu davri buyicha* 360} \\ \text{shartli aylanish} & & \\ & & \text{Sotishdan olingan sof tushum} \\ & & \text{xaqiqatda} \end{array}$$

Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko‘paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo‘lish asosida debitorlik qarzlarining aylanishlar kuni aniqlanadi.

2-jadval Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi tahlili (ming so‘m)

| Ko‘rsatkichlar | Utgan yil | Hisobot yili | Farqi |
|--|-----------|--------------|----------|
| 1. Debitorlik majburiyatlar jami | 32071 | 52421 | +20350 |
| 2. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum | 263809 | 440274 | +176465 |
| 3. Oborot aktivlari | 93577 | 125152 | +31575 |
| 4. Muddati utgan debitorlik qarzları | 1720 | 2950.3 | + 1230.3 |

Korxonada debitorlik majburiyatlarining holati, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 20350 ming so‘mga oshgan. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi ham o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 176465 ming so‘mga o‘sgan. Buning ta’sirida debitorlik majburiyatlarining undirilish davri o‘tgan yilga nisbatan 0.8 kunga tejalishiga erishilgan. YA’ni debitorlik majburiyatlarining undirib olinishi

bir qadar tezlashgan. Bu tezlashish bevosita mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining oshishi hisobiga ro‘y bergan. Joriy davrda debitorlik majburiyatlarining jami oborot aktivlari tarkibidagi salmori o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7.6% ga ortishi avvalo debitorlik majburiyatlar summasining ortishi hisobiga ro‘y bergan. Muddati o‘tgan debitorlik karzlarining jami, debitorlik qarzlari tarkibidagi salmog‘i o‘tgan yilning shu davrida 5.4% ni joriy davrning oxirgi hisobot sanasiga esa 5.6% ni tashkil qilgan.

Yuqorida boglanishlardan bevosita debitorlik majburiyatlarining aylanishiga ta’sir etuvchi omillarning ta’sir darajalarini ham aniqlashimiz mumkin.

3-jadval Debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsienti va aylanish davri o‘zgarishi omily tahlili

| Ko‘rsatkichlar | Debitorlik qarzlar aylanish koeffminent | Debitorlik majburnylarni aylanish davri |
|--|---|---|
| 1 . O‘tgan yil | 8.23 | 43.7 |
| 2. Shartli hisobot yil | 5.03 | 72.0 |
| 3. Hisobot yili | 8.40 | 42.9 |
| Jami farq | +017 | -0.8 |
| Ta’sir etuvchi omillar | | |
| 1. Sotishdan olingan sof tushum summasining o‘zgarishi | 3.37 | -29.1 |
| 2. Debitorlik qarzlar summasining o‘zgarishi | -3.2 | 28.3 |

Debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti va aylanish davriga omillar ta’siri quyidagicha bo‘lgan. Debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsienti o‘tgan yilga nisbatan +0,17 ga ortgan¹. Bu o‘zgarishda mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining o‘zgarishi ta’sirida aylanish koeffitsienti +3.37 ga, debitorlik qarzlar hajmining o‘zgarishi hisobiga esa aylanish koeffitsienti —3.2 ga kamaygan. Har ikkala omil ta’sirida aylanish koeffitsienti +0.17 ga o‘zgargan. Ushbu omillar ta’siri debitorlik qarzlarining aylanish davri ko‘rsatkichi bo‘iicha quyidagacha bo‘lgan. Ya’ni sotishdan olingan sof tushum summasi hisobiga o‘zgarish —29,1 kunga, debitorlik majburiyatlar summasining o‘sishi hisobiga +28,3 kunga o‘zgarishi kuzatilgan.

4. Kreditorlik karzlarining umumiyyajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha taxlili

Kreditorlik majburiyatlar boshqa korxonaning to‘laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yuqorida uning tarkibiga nimalar kirishini va ularning yuzaga kelish sabablarini ko‘rsatib o‘tgan edik. Kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 403 page.

kelib tushmasligini ham ta'sir ko'rsatadi. Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida qarzdor bo'lgan korxonalar bo'yicha majburiyatlar summasi, ularni to'lash muddatlariga ko'ra, tarkiblanishiga baho beriladi. SHuningdek, debitorlik majburiyatlarining aylanish koefitsienti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koefitsienti va davri aniqlanadi. Kreditorlik qarzlarni aylanish koefitsientini hisoblashda sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi summasi olinadi.

Kreditorlik majburiyatlarining to'lash muddatlari bo'iicha quyidagi tarkibga bo'lish mumkin:

- To'lash muddati kelgan majburiyatlar;
- To'lash muddati o'tib ketgan majburiyatlar;
- Kalendar muddatiga ko'ra qarzlarni to'lash davrlari quyidagicha bo'linadi;
 - 1 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
 - 1 oydan 2 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
 - 3 oydan 6 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
 - 6 oydan bir yilgacha bo'lgan majburiyatlar;
 - 1 yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlar;

Kreditor qarzlarni uzhishda firma va kompaniyalar muddati o'tgan majburiyatlarni, so'ngra muddati kelgan to'lovlarni amalga oshirgani maqsadga muvoofiqliqdir. Tomonlar o'rtasida shartnomaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaganlchgi uchun iqtisodiy sanksiyalarni joriy etilganligi va jarimalar undirilishi mablag'larning noo'rin sarflanishiga sabab bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida muddati o'tgan kreditor qarzlari bo'lmaganligi ham moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi muhim omildir. Kreditorlik qarzlarni ham 90 qun ichida qaytarilganligi firma va kompaniyalar uchun ijobji hol hisoblanadi.

Korxonada jami kreditorlik qarzlarining hisobot davri oxiriga bo'lgan holati 35772 ming so'mni tashkil kilgan. SHundan 1 oygacha bo'lgan Kreditorlik qarzlari 17015 ming so'mni, 1 oydan 2 oygacha bo'lgan kreditorlik qarzlari summasi 18583 ming so'mni, 3 oydan 6 oygacha bo'lgan kreditorlik qarzlari summasi 174 ming so'mni tashkil kilgan.

Kreditorlik qarzlarini muddati bo'yicha o'rganish shuni ko'rsatadi, jami majburiyatning 51,9 foizini 30–60 kun davomida qaytarilishi lozimdir. Demak, firma yaqin kunlar ichida joriy schyotiga sotilgan mahsulotlar uchun xaridorlardan pul tushumini kelishini ta'minlashi lozim, aks hoddha muddati o'tgan kreditor qarzlar ortib ketishi mumkin.

Kreditorlik qarzlarining holatiga ularning aylanish darajalarini o'rganish asosida to'liq baho berish mumkin. Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi bo'yicha quyidagi bog'lanishlar jadvalini keltirish mumkin.

4-jadval

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi va tashkil topish muddati bo'yicha tahlili

| Kreditorlik majburiyatları | Jami | Shu jumladan yuzaga chiqsh muddatlari bo'yicha | | | | |
|----------------------------|-------|--|-------------------|-------------------|--------------------|----------------|
| | | 1 oygacha | 1 oydan 2 oygacha | 3 oydan 6 oygacha | 6 oydan 1 yilgacha | 1 yildan ortiq |
| 1. Mol yetkazib | 19137 | 12700 | 16363 | 174 | | |

| | | | | | | |
|---|--------------|--------------|--------------|------------|--|--|
| beruvchilarga qarzlar | | | | | | |
| 2. Byudjet bo'yicha qarzlar | - | - | | | | |
| 3. Mehnatga xaq to'lash bo'yicha qarzlar | 3820 | 1600 | 2220 | | | |
| 4. Ijtimoiy sugurta va ta'minot bo'yicha qarzlar | 172 | 172 | - | | | |
| 5. Mulkiy va shaxsiy sugurtalar bo'yicha qarzlar | - | - | - | | | |
| 6. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlar | 1887 | 1887 | + | - | | |
| 7. Sho'ba korxonalar iga qarzlar | 111 | 111 | - | - | | |
| 8. Uyushma korxonalarga qarzlar | - | - | - | - | | |
| 9. Boshqa kreditorlar | 545 | 545 | - | - | | |
| Jami | 35772 | 17015 | 18583 | 174 | | |

5-jadval

Kreditorlik majburiyatlarining anlanishi tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi |
|--|------------|--------------|---------|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1.Kreditorlik majburiyatları, ming so'm | 35540 | 35772 | +232 |
| 2. Sotilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm | 174145 | 293310 | +119165 |
| 3. Majburiyatlar, ming so'm | 35540 | 35772 | +232 |
| 4. Kreditorlik qarzlarining muddati o'tgani, ming so'm | 220 | 174 | -46 |
| 5. Kreditorlik qarzlarining aylanish koefitsienti, (2/1) | 4,9 | 8,2 | +3,3 |
| 6. Kreditorlik qarzlarining yalanish davri, kunda (1*360/2) | 73,5 | 43,9 | -29,6 |
| 7.Mujburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlar ulushi, %da (1/3*100) | 100 | 100 | |
| 8.Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining jami kreditorlik qarzları tarkibidagi salmog'i, % da (4/1*100) | 0,6 | 0,5 | -0,1 |

Biz taxil qilayotgan firmada debitorlik qarzlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 232 ming so'mga kupaygani bilanuning aylanish tezligi 3,3 koefitsientga yoki 29,6 kungatezlashgan. Bundan ko'rinish turibdiki, kreditorlik qarzlarini uzish

muddati keskin kamayib bormoqda. Ayniqsa muddati o'tgan kreditorlik qarzları summasining 46 ming so'mga o'tgan yilga nisbatan kamayganligi e'tiborga loyiqdır.

Kreditorlik qarzlarining jami majburiyatlar tarkibidagi salmogi o'tgan va hisobot yillarda 100 foizni tashkil etganligi firmani bankning uzoq va qisqa muddatli kreditlaridan foydalanilmayotganligidan dalolat beradi.

Bankning kreditlaridan foydalanmaslikni firma uchun ijobjiy hamda salbiy tomonlari bor. Ijobjiy qirrasi qarz so'ramasdan zarur aylanma mablag'i larga ega bo'lib, faoliyat kursatish va foizlar to'lamasdan pul tushumiga ega bo'lishlik sanalsa, salbiy tomoni qo'shimcha mablag'lar jalb qilib, o'z faoliyatini yanada kengaytirgan holda foya olishni ko'paytirishga o'rganmoqlik bozor iqtisodiyoti talablaridan biridir.

6-jadval

Kreditorlik qarzlarining aylanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkich | Krelnitorlik qarzlar aylanish koeffitsienti | Kreshggorlik karzlarini aylanish davri |
|---|---|--|
| 1. O'tgan yil | 4,9 | 73,5 |
| 2. Shartli hisobot yili | 4,87 | 73,9 |
| 3. Hisobot yili | 8,2 | 43,9 |
| Jami farq | +3,3 | -29,6 |
| Ta'sir etuvchi omillar | | |
| a) sotilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi | +3,33 | -30 |
| b) kreditorlik qarzları summasining o'zgarishi | -0,03 | +0,4 |

Shartli kreditorlik qarzlarining aylanish koeffitsienti quyidagicha aniqlandi:
o'tgan yili sotilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar)ning
ishlab ijarish tannarxi
hisobot yilgi kreditorlik majburiyatları

Bizning misolda shartli kreditorlik qarzlarining aylanish koef fitsienti 174145 :
 $35772 = 4,87$ demak, shartli aylanish kuni 360 : 4,87 = 73,9 kunga teng.

Kreditorlik qarzları aylanish koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan 3,3 darajaga ko'paygan. Bunga ta'sir etgan sabab sotilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxini o'zgarishining 3,33 ga kreditorlik qarzları summasining o'zgarishi esa — 0,03 ga teng bo'lgan.

Kreditorlik qarzlarining to'lash muddati o'tgan yilga nisbatan 29,6 kunga tezlashgan. Bu o'zgarishda sotilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi ta'sirini 30 kunga tezlashtirgan, lekin kreditorlik qarzları summasining o'zgarishimi 0,4 kunga sekinlashtirgan. Ikkala omilning ta'siri -29,6 (-30+04) kun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 maydagi «Xalq xujaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining

ma'suliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlari to'gisidagi va 1996 yil 24 yanvardagi «To'lov intizomini va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlarini bajarish borasida muayyan ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, firma va kompaniyalar o'rtasidagi debitorlik-kreditorlik qarzlarini kamaytirish muammosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmokda.

Muddati o'ttan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning mas'ulligi va ularning shartlariga qat'iy amal etish;

- muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha huquqiy javobgarlik shartini belgilash;

- hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

- dargumon qarzlar bo'yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish va x.k.;

Nazorat savollari:

1. Kimlar debitor bo'lishi mumkin?
2. Debitor qarzlarning tarkibi qanday taxlil etiladi?
4. Muddati utgan debitor qarzlar tahlilida nimalar o'rganiladi?
5. Kreditorlik qarzlar mazmuni qanday?
6. Kreditorlik karzlar qandai tahlil qilinadi?
7. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining vujudga kelish sabablari nimada?
8. Debitorlik va kreditorlik karzlarini kamaytirish omillari nimada?

23-bob. TARMOQLARDA TAHLIL XUSUSIYATLARI

Reja:

- Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tahlilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning zarurligi, maqsadi va vazifalari.
- Savdo korxonalarini faoliyatini tahlil qilishning xususiyatlari.
- Qishloq xo'jaligi korxonalarini xo'jalik faoliyati tahlilining xususiyatlari.
- Qurilish tashkilotlarda tahlilning xususiyatlari.

Tayanch so'zlar:

Tarmoqlarida tahlilning o'ziga xos xususiyatlari, axborot manbalari, yalpi daromad hajmining o'zgarishi, sof foydalaning bajarilishining tahlili, qurilish- montaj ishlari tanarxini tahlili, tahlilning asosiy vazifasi.

1. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tahlilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning zarurligi, maqsadi va vazifalari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali tahlil qilish va tahlil natijalari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilishda korxona moliyaviy axborotlarining ishonchligi va xo'jalik subyektining tarmoq xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Muayyan moliyaviy ma'lumotlarni ko'rib chiqishdan oldin, tahlilchil kompaniya faoliyati haqida yetarli axborotlarga ega bo'lishi lozim.

Investitsiya yoki qarz byerishda kreditor aniqlashi lozim bo'lgan muhim jihat bu—qarz oluvchi yoki tahlil qilinayotgan korxonaning qaysi tarmoqqa (sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi) mansubligidir. Har bir tarmoqning opyeratsion tsikli, kredit yoki mablag'ga ehtiyoji va moliyalashtirish manbalari alohida xususiyatga ega ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu xo'jalik subyektlarida moliyaviy tahlilni amalga oshirish ham ma'lum xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Quyida tahlilchi tomonidan alohida korxonani tahlil qilishda ko'rib chiqiladigan xususiyatlar keltirib o'tilgan.

1. Ishlab chiqarish siklini tashkil etish—bu tsikl korxona tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tovarlarni sotish bilan bog'liq pul tushumlarini qabul qilish uchun sarflanadigan vaqt.

2. Naqd pul mablag'leri harakatining tahlili—qarz fondi va olingan qarzning qaytarilishi o'rtasidagi farqlarni aniqlashni ifodalaydi. Bu asosiy vositalar va foya tsikli bilan bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi.

3. Boshqaruva maqsadlarining xususiyatlari—xo'jalik yurituvchi subyektning maqsadlari, bozordagi strategiyasi va taktikasi, foya va iqtisodiy o'sish mutanosibligi va boshqaruvning turi va kasb etikasini ifodalaydi.

4. Tarmoq riskini baholash—tarmoq va xo'jalik strategiyalarining xavfllik darajalarini solishtirish.

5. Bozorni o'rganish—moliyaviy hisobot tahlili nuqtayi-nazardan raqobatbardoshlilikka ta'sir etuvchi jiddiy omillarning mayjudligini aniqlash.

6. Makroiqtisodiy omillarni o'rganish—tarmoqning iqtisodiyotga ta'sirlilagini va qanday tartibga solinganligini aniqlash.

7. Boshqaruva usulini o'rganish—korxona yakka boshqaruvga asoslanganligi yoki har bir funktional majburiyatlar bo'limlarga taqsimlanganligini ifodalaydi.

8. Yuridik statusni o'rganish—korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini aniqlash.

Yuqorida keltirilgan har bir xususiyat tahlilchi tomonidan inobatga olinishi, ma'lum ko'rsatkichlar tizimini belgilashda va tahliliy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Moliyaviy tahlil metodikasini barcha turdag'i xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qo'llash mumkin, biroq o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi, belgilanadigan me'yorlar, hisoblash usullari va tahliliy xulosalar tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib farqlanishi lozim. Masalan, savdo korxonasing moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi sanoat korxonasini bilan tubdan farq qiladi. Savdo korxonasing moddiy resurslariga bino va tovarlarni kiritadigan bo'lsak, sanoat korxonasi moddiy resurslariga xomashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlab chiqarish tsexlari binolari va ishlab chiqarish uskunalarini kiradi. O'z-o'zidan bu ikki tarmoq subyektlari faoliyatini tahlil qilishda ularning alohida xususiyatlari e'tiborga olinmog'i lozim.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tahlilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan maqsad —xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilishda ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil metodikasini yaratish va to'g'ri xulosalar chiqarishdan iborat.

Ushbu maqsadga yerishish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- Iqtisodiyot tarmoqlarining o'zaro farqlanishini aniqlash va tushuntirish;
- Tarmoq subyektlari faoliyatidagi umumiyligi jihatlar va asosiy farqlarni yoritish;
- Tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil o'tkazish uslubiyotini belgilash;
- Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tahlil qilishda iqtisodiyot tarmoqlariga mansubligiga ko'ra ko'rsatkichlar tizimi va ular bo'yicha normalar belgilash;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni turli manbalardan moliyalashtirishda tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib o'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanishni ta'minlash.

2. Savdo korxonalarini faoliyatini tahlil qilishning xususiyatlari

Savdo korxonalarini va tashkilotlarining samaradorligi reja intizomiga rioya qilish darajasiga, har bir korxona va tashkilot bo'limlari tovarlarni sotish rejasining bajarilish darajasiga, shuningdek, sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan hamda chetdan va boshqa respublikalardan keltirilgan tovarlarning to'g'ri taqsimlanishi hamda, ulardan to'g'ri foydalananish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti uchun asosiy mezон iqtisodiyotning boshqarish usullarini takomillashtirish, bu jarayonda eng muhim yo'nalish—iqtisodiy rag'batlanirish va

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 99 page.

xo'jalik hisobi usullariga ustuvorlik byerish, baho, daromad, moliya mexanizmlariga e'tiborni kuchaytirish, bankdan olingen qarzlardan yanada oqilona foydalanishidir.

Savdo korxonalarini va tashkilotlarida ish Yalpi daromad miqdorini oshirish bilan birga xarajatlarni kamaytirib, korxonaning daromadliligini ta'minlaydigan darajada tashkil etilishi zarur.

Savdo korxonalarida Yalpi daromad olish jarayonini tahlil qilishda tahlilning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yalpi daromadning umumiy hajmini, tovar guruhlari bo'yicha bajarilishini aniqlash;
- amalda joriy qilingan savdo ustamalari qay darajada qo'llanilayotganini tekshirish;
- Yalpi daromad summasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- korxonaning foydalanimayotgan ichki imkoniyatlarini aniqlash.

Korxonaning moliyaviy natijalari, moliyaviy koeffitsientlari va moliyaviy holati tahlili sifatli o'tkazilishi asosan tahlil manbaalari to'g'ri va sifatli tuzilishiga bog'liq.

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar tahlilning asosiy manbalari bo'yicha quyidagi yillik hisobotlardan olinadi:

- 1-shakl – "Buxgaltyeriya balansi";
- 2-shakl – "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot";
- 4-shakl – "Pul oqimlari to'g'risida hisobot";
- 5-shakl – "O'z sarmoyasi to'g'risida hisobot"

Savdo korxonalarida Yalpi daromad muomala xarajatlarini qoplash manbai hisoblanadi. Savdo ustamalari miqdorining oshirilishi savdo korxonalarli ishi sifatidan kat'i nazar ularning yuqori daromad olishlariga imkon byeradi. Savdo ustamalarining kamayib ketishi esa, muomala xarajatlarini qoplasmaydi va zarar ko'rishga olib keladi. Bunday holda savdo korxonalarini va tashkilotlari o'z faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, moliyaviy qiyinchiliklarga uchraydilar. Ularda xarajatlarini qoplash va qanday bo'lmasisin daromad olishga ishonch yo'qoladi, chunki tovarlarni sotish hajmi ortgan sari zarar summasi ham oshib boradi.

Savdo korxonalarini faqat tovarlarni sotish evazigagina emas, balki boshqa yo'llar-bo'sh idishlarni sotish, ombordagi tovarlarni qayta o'lchash va xatlov (inventarizatsiya) da oshiqcha chiqqan tovarlar hisobiga ham Yalpi daromad summasini ko'paytirishlari mumkin.

Umuman olganda, Yalpi daromad summasining o'zgarishi asosan ikki omilga:

- tovar aylanishi hajmining o'zgarishiga;
- o'rtacha Yalpi daromad darajasining o'zgarishi bog'liq.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun tovar aylanishi hajmi bo'yicha mutlaq farq rejalashtirilgan o'rtacha Yalpi daromad darajasiga, ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun esa o'rtacha Yalpi daromad darajasiga bo'yicha mutlaq farq hisobot davridagi tovar aylanishi hajmiga ko'paytirilib, 100 ga bo'linadi.

Tahlilning asosiy vazifalaridan biri tahlil davrida Yalpi daromad hajmi bo'yicha reja bajarilishini, Yalpi daromad hajmi o'zgarishiga tovar salmog'i o'zgarishi ta'sirini, sotilgan tovarlar assortimenti va sifati o'zgarishi hamda o'rtacha Yalpi daromad darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Faoliyat tahlil qilinayotgan korxonada Yalpi daromad rejasni bajarilishiga baho byerish va uning o'zgarishiga yuqorida qayd qilingan omillar ta'sirini aniqlash uchun 1-jadvalagi shakldan foydalaniladi.

1-jadval

Yalpi daromad hajmi bo'yicha reja bajarilishining tahlili

| Ko'rsatkichlar | Reja bo'yicha | Haqi-qatda | Farqi | Rejanning bajari-lishi, % |
|------------------------------------|---------------|------------|---------|---------------------------|
| 1. Yalpi daromad, ming so'm | 28983,6 | 29074,5 | +90,9 | 100,3 |
| 2. Tovar aylanish hajmi, ming so'm | 132400 | 121824 | -10576 | 92,0 |
| 3. O'rtacha Yalpi daromad darajasi | 21.891 | 23.866 | + 1.975 | x |
| 1 qator x100 : 2 qator, % | | | | |

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, yalpi daromad miqdori hisobot yilida rejadagiga nisbatan 90,9 ming so'mga ko'paygan. Bunga o'rtacha Yalpi daromad darajasining rejaga nisbatan 1,975% ko'payishi ijobji ta'sir ko'rsatgan. Tahlil qilinayotgan savdo korxonasi o'rtacha Yalpi daromad darajasining 1,975% ko'payishi Yalpi daromad summasi 2406 ming so'mga (+1.975x121824:100) ko'payishiga olib keldi. Tovar aylanish hajmi 10576 ming so'mga bajarilmagani esa Yalpi daromad summasining 2315,1 ming so'mga (- 10576 x 21.891:100) kamayishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, ta'sir ko'rsatuvchi omilar yig'indisi Yalpi daromad summasining mutlaq farqini byeradi: (+2406,0 - 2315,1 =+ 90,9 ming so'm).

Tahlil jarayonida o'rtacha Yalpi daromad darajasi qanday sabablar ta'sirida o'zgarganligini aniqlashimiz zarur. Chunki o'rtacha yalpi daromad darajasi ilmiy asoslanganligi savdo korxonalarini ishining iqtisodiy samaradaorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. O'rtacha Yalpi daromad darajasining iqtisodiy jihatdan asoslangan miqdori asosan:

- savdo korxonalarining joylashgan o'rni bo'yicha;
- tovar aylanishi hajmi ulushining o'zgarishi;
- ayrim tovar guruhlari bo'yicha savdo ustamalarining o'zgarishi;
- mayda ulgurji tovar aylanishi hajmining o'zgarishi va hokazolar bo'yicha belgilanadi va o'zgaradi.

Savdo ustamalarini ayrim tovarlar va tovar guruhlari bo'yicha tabaqalashtirish ba'zi tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan muomala xarajatlarining bir xil emasligi bilan bog'liq. Ma'lumki, savdo ustamasining eng yuqori miqdori eng ko'p mehnat sarflanib tayyorlanadigan, saqlash uchun maxsus sharoitlar va qo'shimcha ishlov byerishni talab qiladigan, nisbatan sust aylanadigan va muomala xarajatlarini oshirib yuboradigan tovarlarga, masalan, kartoshka va sabzavot, muzqaymoq, ma'danli suvlar, tuz, chinni buyumlar, qurilish materiallari va hokazolarga belgilanadi. Bundan tashqari tovar aylanishi hajmida yuqori va past darajadagi savdo chegirmasi qo'yilgan ayrim tovarlar ulushining bo'lishi ham o'rtacha Yalpi daromad darajasi ko'payishiga yoki pasayishiga olib keladi.

Tahlil jarayonida tovar aylanishi hajmi tarkibiy tuzilishining o'rtacha Yalpi daromad darajasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun 2-jadvalagi shakldan

foydalaniladi. Bunda tovar aylanish hajmining tovar guruhlari bo'yicha ulushi aniqlanib, ulush bo'yicha farq rejadagi o'rtacha Yalpi darajasiga ko'paytililadi va hisoblangan foizli sonlarning jami 100 ga bo'linadi.

2-jadval

Tovar aylanish hajmi tarkibiy tuzilishining o'rtacha yalpi daromad darajasi o'zgarishiga ta'sirining tahlili

| Tovar guruhlari | Tovar aylanishi hajmi ichida tovar guruhlarining ulushi, % | | | Reja bo'yicha o'rtacha daromad darajasi, % | Hisoblangan foizli sonlar |
|------------------------------------|--|------------|-------------|--|---------------------------|
| | reja bo'yicha | haqiqat da | Farqi(+, -) | | |
| Ip gazlamlar | 1,3 | 1,8 | + 0,5 | 22,43 | + 11,2 |
| Trikotaj buyumlari | 6,8 | 8,2 | + 1,4 | 21,70 | + 30,3 |
| Poyabzal | 11,4 | 11,3 | - 0,1 | 21,74 | - 2,1 |
| Gilam va gilamga oid buyumlar | 8,7 | 6,9 | - 1,8 | 21,82 | - 39,2 |
| CHarm va charmdan ishlangan mollar | 0,4 | 0,3 | - 0,1 | 23,18 | - 2,3 |
| Attorlik mollari | 11,2 | 11,9 | + 0,7 | 21,92 | + 15,3 |
| Elektr xo'jalik mollari | 2,2 | 2,5 | + 0,3 | 22,54 | + 6,7 |
| Soatlar | 1,5 | 1,5 | | | |
| Zargarlik buyumlari | 3,2 | 3,6 | + 0,4 | 22,31 | + 8,9 |
| SHoyi gazlamlar | 6,0 | 5,7 | - 0,3 | 22,6 | - 6,7 |
| Tayyor kiyimlar | 20,9 | 21,4 | + 0,5 | 22,63 | + 11,3 |
| Tashqi va ichki tayyor kiyimlar | 4,8 | 3,3 | - 1,5 | 22,71 | - 34,1 |
| Musika asboblari | 5,2 | 5,1 | - 0,1 | 22,72 | - 2,2 |
| Boshqa tovarlar | 16,4 | 16,5 | + 0,1 | 20,26 | + 2,0 |
| JAMI | 100,0 | 100,0 | - | 21,89 | - 0,9 |

2-jadvalda aks ettirilganidek, tovar aylanishida savdo ustamalari darajasi yuqori bo'lgan tovarlar (ip gazlama, attorlik mollari, trikotaj buyumlar, zargarlik buyumlar, tayyor kiyimlar va boshqa mollar)ning salmog'i oshgan va shunga muvofiq savdo ustamalari darajasi ancha past mollar (gilam va gilamga oid buyumlar, shoyi gazlamalar, tashqi va ichki kiyimlar) salmog'i kamaygan. Natijada guruhlari bo'yicha ayrim tovarlar ulushining rejadagiga nisbatan pasayishi, Yalpi daromad darajasi 0,009% pasayishiga (0,9:100), bu esa, korxonada Yalpi daromad miqdori 10,9 ming so'mga (0,009x121824:100) kamayishiga olib keldi.

Yalpi daromad hajmining o'zgarishiga mayda ulgurji yo'llar bilan sotilgan tovarlar miqdori hamda baho o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi.

Yalpi daromad hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil jarayonida umumlashtirilib, 3-jadvaldagagi shakl tuziladi.

3-jadval

Yalpi daromad hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkichlar | Yalpi daromad hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar | |
|--|--|----------|
| | ko'payadi | kamayadi |
| 1. Tovar aylanishi hajmining o'zgarishi hisobiga | - | 2315.1 |
| 2. Tovar aylanishi tarkibiy tuzilishining o'zgarishi hisobiga | - | 10,9 |
| 3. Ayrim tovar guruhlari bo'yicha savdo chegirmsasining o'zgarishi hisobiga | 378,2 | |
| 4. Tovar harakatining uzliksizligi o'zgarishi hisobiga | - | 22,3 |
| 5. O'rtacha Yalpi daromad darajasining o'zgarishi hisobiga | 2406,0 | - |
| 6. Mayda ulgurji tovarlar bilan sotilgan tovar aylanishi hamda tovarlar bahosining o'zgarishi hisobiga | - | 345,0 |
| Yalpi daromad hajmining rejadagiga nisbatan mutlaq farqi | 90,9 | - |

Tahlil natijasi shuni ko'rsatadi, Yalpi daromadni ko'paytirish uchun savdo korxonalarida mavjud imkoniyatlardan yetarli. Kelgusi xo'jalik yilida shulardan to'liq foydalanilsa, daromad miqdori rejadagidan ortishi mumkin.

Moliyaviy natijalar tahlili moliyaviy tahlilning tarkibiy qismidir. Unda bevosita korxona faoliyatining pirovard natijalari – foydasini ifodalovchi moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari o'rganilishi lozim.

Moliyaviy natijalar tahlili sotilgan mahsulot hajmi rejasini qanday bajarilganligini o'rganishdan boshlanadi. Chunki mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan barcha xarajatlarni qoplab, daromad olishni ta'minlaydigan ko'rsatkich sotilgan mahsulot evaziga korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushgan pul ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tahlil qilinayotgan korxonada sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash uchun 4-jadvaldagagi shaklni tuzamiz.

4-jadval

Sotishdan olingan yalpi foya va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | Farqi | O'tgan yildagiga nisbatan bajarilishi, % |
|---|-------------|--------------|-----------|--|
| 1. Sotishdan olingan sof tushum, ming so'm | 6542485 | 8672772 | + 2130287 | 132,5 |
| 2. Sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarhi, ming so'm | 5640373 | 7435760 | + 1795387 | 131,8 |
| 3. Sotishdan tushgan yalpi foya, ming so'm | 902112 | 1237012 | + 334900 | 137,1 |

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, Yalpi moliyaviy natija hisobot yilida o'tgan yildagiga nisbatan 334900 ming so'mga yoki 37,1% oshgan. Misolimizda sof tushum o'tgan yildagiga nisbatan 2130287 ming so'mga ko'paygan, lekin ishlab chiqarish tannarxi o'tgan yildagiga nisbatan 1795387 ming so'mga ko'payishi Yalpi moliyaviy natijaning kamayishiga olib keldi. Tahlilning keyingi bosqichida asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan moliyaviy natija qanday bajarilganligini bilish uchun 5-jadvalgi shakldan foydalanamiz.

5-jadval

Asosiy faoliyatning foydasini tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili, ming so'm | Hisobot yili, ming so'm | Farqi, ming so'm | O'tgan yildagiga nisbatan bajarilishi, % |
|---|------------------------|-------------------------|------------------|--|
| 1.Sotishdan tushgan Yalpi foya | 902112 | 1237012 | +334900 | 137,6 |
| 2.Sotish harajatlari | 19150 | 24233 | + 5083 | 126,5 |
| 3.Ma'muriy harajatlari | 121904 | 202503 | +80599 | 166,1 |
| 4.Boshqa daromadlar | - | - | - | - |
| 5.Boshqa xarajatlari | 465189 | 633211 | +168022 | 136,1 |
| 6.Asosiy faoliyati bo'yicha foydasi (1-2-3+4-5) | 295869 | 377065 | + 81196 | 127,4 |

Tahlilning natijasi shuni ko'rsatadi, asosiy ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha moliyaviy natija o'tgan yildagiga nisbatan 81196 ming so'mga ko'paygan. Bu esa 27,4 %ni tashkil etadi. Tahlil qilinayotgan korxonada o'tgan yilgiga nisbatan sotish xarajatlari 5083 ming so'mga, ma'muriy harajatlari 80599 ming so'mga va boshqa harajatlari 168022 ming so'mga ko'payishi asosiy ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha olingan moliyaviy natijaga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Lekin shunga qaramasdan, moliyaviy natija o'tgan yilgiga nisbatan 81196 ming so'mga ko'paygan.

Tahlilning so'nggi bosqichida korxonaning sof foydasi aniqlanishi zarur.

Tahlil qilinayotgan korxonaning sof foydasini aniqlash va bu boradagi reja bajarilishiga baho byerish uchun 6-jadvaldagi shakldan foydalanamiz.

6-jadval

Sof foydaning bajarilishining tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili, ming so'm | Hisobot yili, ming so'm | Farqi, ming so'm | O'tgan yildagiga nisbatan bajarilishi, % |
|---|------------------------|-------------------------|------------------|--|
| 1.Soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija | 912374 | 1445717 | + 533343 | 158,4 |
| 2.Foydadan soliq | 343586 | 442149 | + 98563 | 128,6 |
| 3.Boshqa soliq va ajratmalar | 141808 | 456651 | +314843 | 322,0 |
| 4.Hisobot davridagi sof foya (1-2-3) | 426980 | 546917 | 119937 | 128,1 |

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada hisobot yildagiga o'tgan yildagiga nisbatan sof foya summasi 119937 ming so'mga yoki 28,1% ko'paygan.

Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari tahlilining so'nggi bosqichida korxona moliyaviy natijalariga umumiy baho byerish bilan birga sof foydasi o'zgarishiga

ta'sir etuvchi omillarni bir tizimga solib, sof foydani ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

3. Qishloq xo'jaligi korxonalari xo'jalik faoliyati tahlilining xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston xalq xo'jaligining muhim tarmog'idir. U axolining qishloq xo'jalik mahsulotlariga, sanoatning esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Xozirgi vaqtida axoli iste'mol qilayotgan oziq – ovqat mahsulotlarining 90 foiziga yaqini shu tarmoqda etishtiriladi. SHuni aytib o'tish joizki ma'lum bir davr ichida boshqa tarmoqlar izchil rivojlanish natijasida qishloq xo'jaligining Yalpi ichki mahsulotdag'i ulushi bir oz pasayishi mumkin. Lekin shunga qaramay, tarmoqning iqtisodiy saloxiyati respublika iqtisodiyotida sezilarli darajada bo'lavyeradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati tahlili rejalshtirish, hisob va hisobotning ilmiy tizimiga asoslanadi. CHunki reja topshiriqlari mukammalligi hisob va hisobotning to'g'riligiga bog'liq. Reja, hisob va hisobot ko'rsatkichlarini buzish davlat oldida jinoyatdir¹.

Qishloq xo'jaligi korxonalarli faoliti tahlilining obyekti bunday korxonalar va ularning bo'limmalarida ishlab chiqarishni rivojlantrish darajasi va sur'ati, ya'ni ulardagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining darajasi (yer, suv, mehnat, moddiy texnika resurslari bilan ta'minlanganligi), ishlab chiqarish resurslari va iqtisodiy qonunlardan foydalanish darajasidir (bu, ekinlar hosildorligi, ishlab chiqarish unumdorligi, mahsulot tannarxi, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar bilan o'chanadi). Rejalarning bajarilishini, mehnat va iste'mol miqdorini nazorat qilish, mulkning butligini ta'minlash, iqtisodiy tejamkorlikka yerishish uchun kurash, xo'jalik hisobini hamma ichki bo'linmalarda joriy etish va mustahkamlashga yordam byerish moliyaviy tahlilning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida tahlil ishiga, odatda, davlat va jamoa xo'jaligining bosh iqtisodchisi boshchilik qiladi. Lekin, korxonaning xo'jalik faoliyatini rejalshtirish, chuqur, kengroq va har taraflama tahlil qilishdek murakkab ishni bosh iqtisodchining yakka o'zi uddalay olmaydi. Shuning uchun tahlil o'tkazishga, rejalshtirishga xo'jalikdagi mutaxassislar va boshqa xizmatchilar ham jalg qilinadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarli xo'jalik faoliyatining tahlili jarayonida quyidagi manbalardan foydalaniлади: xo'jalikning tasdiqlangan ishlab chiqarish-moliyaviy rejasи, yillik hisobot, ishlab chiqarish bo'limmalariga byerilgan xo'jalik hisobi topshiriqlari, texnologik kartalar, qo'llanilayotgan ishlab chiqarish me'yorlari, urug'lik, em-xashak, o'g'it, neft mahsulotlari sarfi me'yorlari, ta'mirlash xarajatlari limitlari, moliyaviy me'yorlar va boshqa manbalardan iborat.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy tahlil zimmasidagi muhim vazifalarini bajarish vositasi sifatidagina emas, balki xo'jalikni boshqarish va xo'jalik faoliyatini nazorat qilishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu orqali u respublikamiz xalq xo'jaligining rivojlanishi va mustahkamlanishiga yordam byeradi.

¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 428 page.

Qishloq xo'jaligi uchun yerning eng muhim xususiyati, sifat ko'rsatkichi doimiy unumdorligidir. Tuproq unumdorligi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorlik darajasini, dehqonchilik va chovachilikning yalpi mahsuloti hajmini belgilaydi. Yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi bu xususiyati sira pasaymaydi, aksincha undan to'g'ri va oqilona foydalanilsa, oshib boradi.

7-jadval

Yer fondi tarkibi va tuzilishi tahlili

| Yer fondining tarkibi | O'tgan yil | Hisobot yili | | Ko'payishi (+), kamayishi (-) | | Yer fondining tuzilishi umumiy maydonga nisbatan | | |
|--|------------|---------------|------------|-------------------------------|----------------------|--|--------------|------|
| | | reja bo'yicha | haqiqat-da | o'tgan yilga nisbatan | rejada-giga nisbatan | o't-gan yil-da | hisobot yili | |
| | | | | | | reja bo'yicha | haqi-qatda | |
| Jami yer maydoni | 3964 | 3964 | 3964 | - | - | 100 | 100 | 100 |
| Shundan haydaladi-gan yerlar | 2010 | 2040 | 2045 | +35 | - 5 | 50.7 | 51.4 | 51.3 |
| Shu jumladan, ekin ekilgan yer | 1323 | 1525 | 1510 | +187 | - 15 | 33.4 | 38.4 | 38.1 |
| Sug'oriladi-gan yerlar | 1300 | 1340 | 1330 | + 30 | - 10 | 32.7 | 33.8 | 33.5 |
| Yaylov | 710 | 680 | 785 | - 30 | +105 | 17.9 | 17.1 | 19.8 |
| Bog'lar, tokzorlar, ko'chatzorlar va ko'p yillik daraxtzorlar | 220 | 220 | 220 | - | - | 5.5 | 5.5 | 5.5 |
| Umumqish-loq xo'jaligi yer maydoni, shaxsiy foydalanadi-gan yerlar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Boshqa yerlar | 820 | 820 | 720 | - 100 | -100 | 20.6 | 20.6 | 18.2 |

Tahlil qilinayotgan xo'jalikda qishloq xo'jaligi yerlari hisobot yilda rejadagiga nisbatan 15 gektarga kamaydi. Hisobot yilda reja bo'yicha xaydar ekinlarning hosildorligi, rejaning bajarilish ko'rsatkichlarini o'rganish Yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanishgagina emas, balki xo'jalikdagagi dehqonchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish yuzasidan aniq chora - tadbirlar belgilashga ham imkon yaratadi.

Xo'jalik haydaladigan yerlarning deyarli 74,2%idan foydalangan: bunday yerlarning 2035 gektari o'mriga 1510 gektariga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan.

Yerlarning sifat tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish darajasini o'rganish jarayonida quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlar aniqlanishi zarur:

- butun yer maydonida qishloq xo'jaligi yerlariningsh salmog'i;
- umumi haydaladigan yer maydonida sug'oriladigan yerlar salmog'i;
- haydaladigan yerlardan foydalanish darjasи.

Ma'lumki, unumli almashlab ekishni joriy qilish ekin maydonlari tarkibi va tuzilishini takomillashtirishda, yerdan foydalanishni yaxshilash, uning mahsulorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik qilinadigan xo'jaliklarda sug'orib ekiladigan qishloq xo'jaligi ekinlari maydonining tuzilishini belgilagan ma'qul.

Qishloq xo'jaligini jadallashtirish murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, u qishloq xo'jaligi korxonasi iqtisodiyotining eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Bu yo'naliш tahlili davomida jadallashtirish darjasи va uning samaradorligini belgilash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi har taraflama o'rganiladi:

- mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi (yer maydoni birligiga to'g'ri keladigan xodimlar soni);
- yer maydoni birligiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma mablag'lar qiymati (fondlar bilan ta'minlanish darjasи);
- ekin maydoni yoki haydaladigan yer birligiga to'g'ri keladigan mehnat va mablag'lar;
- ekin maydoni yoki haydaladigan yer birligiga sarflangan o'g'it miqdori;
- mahsulor chorya zichligi (bosh hisobida).

Jadallashtirishning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagliрdan iborat:

- ekinlar hosildorligi, chorva mollari va parrandalar mahsulorligi;
- haydaladigan yer birligiga to'g'ri keladigan Yalpi mahsulot, Yalpi daromad va sof daromad;
- mehnat unumdorligi va mehnat haqi;
- fond samarasи;
- rentabellik darjasи.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy tarmog'idi. Chovachilik taraqqiyoti ham aynan shu tarmoqning rivojlanishiga bog'liq. Dehqonchilikda Yalpi mahsulot etishtirish va bu mahsulotlar etishtiriladigan ekinlarning hosildorligi, rejaning bajarilish ko'rsatkichlarini o'rganish Yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanishgagina emas, balki xo'jalikdagagi dehqonchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish yuzasidan aniq chora - tadbirlar belgilashga ham imkon yaratadi.

Dehqonchilikda Yalpi mahsulot etishtirish rejasи ko'rsatkichlari o'rganilgach, bu rejaning bajarilishini tahlil qilishga o'tiladi.

Rejaning bajarilishiga to'g'ri va aniq baho byermoq uchun har bir ekin turini ko'rib chiqish, haqiqiy hosildorlikni rejalahtirilgan ko'rsatkich bilangina emas, balki oldingi 2-3 yil davomida yerishilgan daraja bilan ham solishtirish kyerak. CHunki Yalpi mahsulot hajmiga ob-havo sharoitlarining yil davomidagi o'zgarishi ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tahlil jarayonida dehqonchilik mahsulotlari hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi. Mahsulot hajmining o'zgarishiga ikki omil-ekin

maydoni va hosildorlik bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rejaning bajarilishi va dehqonchilik mahsulotlari Yalpi hajmi o'zgarishiga ayrim omillar ta'sirini tahlil qilishda 8-jadvaldagi shakldan foydalanish mumkin.

Jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, paxtachilik xo'jaligida asosiy qishloq xo'jaligi ekinlaridan paxta, kuzgi bug'doy, jo'xori va poliz mahsulotlari etishtirish rejalar oshirib bajarilgan. Ammo, bahorgi bug'doy, kartoshka etishtirish rejalar bajarilmagan. Bu, ekin maydoni va hosildorlik o'zgarishi hisobiga sodir bo'lgan. Masalan, Yalpi paxta hosili rejadagiga nisbatan 3883,8 s. oshgan. Ekin maydoni 93 gektarga oshganligi hisobiga Yalpi hosil 3087,6 s. (+93x33,2)ko'paygan.

Hosildorlikning rejadagiga nisbatan 0,6 s. ko'payishi hisobiga Yalpi hosil 796,2 s. (+0,6 x 1327) oshgan.

Hisobning to'g'riligini tekshirish uchun haqiqatda yig'ib olingen va rejada mo'ljallangan Yalpi hosil miqdori o'rtasidagi farq sifatidagi umumiy o'zgarishni ekin maydoni va hosildorlikdagi o'zgarishlar hisobiga bo'lgan farq summasiga solishtirish kyerak. Paxta Yalpi hosilining ekin maydoni va hosildorlik hisobidagi farqi 3883,8 s.ni (3087,6+796,2) tashkil etadi.

8-jadval

| Dehqonchilik mahsulotlari yalpi hosili rejasining bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash | | | | | | | | | | |
|--|---------------|-----------|---------------|-----------|-------------------|-----------|---------------|-----------|--------------|-----------------------------|
| Hosildorlik | | | | | Yalpi hosil, sent | | | | | Rejaga nisbatan farq (+, -) |
| Ekin maydoni, ga | reja bo'yicha | haqiqatda | reja bo'yicha | haqiqatda | reja bo'yicha | haqiqatda | hammasi | hammasi | Ekin maydoni | hosildorlik |
| Mahsulot turlari | reja bo'yicha | haqiqatda | reja bo'yicha | haqiqatda | reja bo'yicha | haqiqatda | reja bo'yicha | haqiqatda | Ekin maydoni | hosildorlik |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |
| Paxta | 1234 | 1327 | + 93 | 33,2 | 33,8 | + 0,6 | 40968,8 | 44852,6 | +3883,8 | +3087,6 |
| Kuzgi bo'g'doy | 130 | 135 | + 5 | 10 | 11,8 | + 1,8 | 1300 | 1350 | - 593 | - 293 |
| Bahor-g'i bug'doy | 80 | 72 | - 8 | 14 | 12,5 | - 1,5 | 1120 | 1008 | 900 | 220 |
| Jo'xo-ri(don uchun) | 35 | 40 | + 5 | 47 | 45 | - 2 | 1645 | 1880 | - 1800 | + 155 |
| Kartoshka | 5 | 4 | - 1 | 90 | 91 | + 1 | 450 | 360 | 364 | - 86 |
| Poliz ekin-lari | 21 | 20 | + 5 | 192 | 141 | - 51 | 4032 | 4992 | 3666 | - 366 |
| | | | | | | | | | | - 1326 |

Mahsulotni sotish va undan foydalanish jarayoni tahlilining asosiy vazifasi bu boradagi rejalar (davlatga sotish, boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha sotish rejalar) bajarilishi tekshirish, mahsulotining tovarlilik darajasini oshirish, tovar bo‘lmagan mahsulotlardan foydalanishni yaxshilash va bu jarayonda foydalilmayotgan imkoniyatlarni aniqlashdan iborat. Bu yo‘nalishdagi tahlilda avvalo, davlatga mahsulot sotish rejasining bajarilish ko‘rsatkichlari chuqur o‘rganish asosida baholanishi kerak.

Rejalahtirilgan davlat buyurtmasi qay darajada bajarilganligi har bir mahsulot turi bo‘yicha rejada ko‘rsatilgan hajmga nisbatan davlatga sotilgan tovar mahsuloti hajmining foizi bilan belgilanadi. Davlat buyurtmasi qanday bajarilganligini tahlil qilishda 9-jadvalagi shakldan foydalaniлади.

9-jadval

Mahsulotlarni davlat buyurtmasi bo‘yicha sotish rejasining bajarilishining tahlili (sentnyer hisobida)

| Tovar mahsulotining turlari | O‘tgan yil | Hisobot yili | | | O‘tgan yilda-giga nisbatan bajarilishi, % |
|-----------------------------|------------|---------------|------------|----------------|---|
| | | reja bo‘yicha | haqi-qatda | bajarilishi, % | |
| Don | 540 | 250 | 663.7 | 265.4 | 122.9 |
| Paxta | 39980 | 40968,8 | 44852,6 | 109,4 | 112.1 |
| Kanop | 12700 | 10400 | 9000 | 71.0 | 86,5 |
| Jun | 28.2 | 24 | 29.1 | 103.2 | 121.2 |
| Pilla | 138 | 121 | 123.9 | 102 | 89.7 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishni ko‘paytirish va davlatga sotish rejasini bajarishda ma’lum yutuqlarga yerishgan. Bu boradagi reja don sotish bo‘yicha 265,4%, paxta bo‘yicha 109,4%, jun bo‘yicha 107,2%, pilla bo‘yicha 102,3 % bajarilgan. Hisobot yilda o‘tgan yilda-giga nisbatan don 22,9%, paxta – 12,1%, jun – 21,2% ko‘sotilgan.

Mahsulot tannarxi qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat va moddiy mablag‘lar summasining puldag'i ifodasidir.

Mahsulot tannarxini muntazam ravishda pasaytirib borish uchun ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va tuzilishini, Yalpi mahsulot tannarxi majmuasida har bir xarajatning tutgan o‘rnini bilish lozim. Bu, mahsulot tannarxi rejasining bajarilishini chuqur tahlil qilish imkonini byeradi.

Tahlil mahsulot tannarxining bir necha yilgi o‘sishi yoki pasayishini va asosiy mahsulot turlari tannarxini pasaytirish rejasini bajarishga doir ko‘rsatkichlarni tekshirishdan boshlanadi. So‘ngra mahsulot tannarxining pasayishi yoki oshishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganiladi. Bunda tannarx mahsulotlar turi bo‘yicha avvalo, dehqonchilik mahulotlari, keyin chorvachilik mahulotlar bo‘yicha tahlil qilinadi.

Dehqonchilik mahsulotlarining tannarxi darajasiga ikkita eng muhim omil ta’sir ko‘rsatadi: bir gektarga sarflanadigan xarajatlар miqdorining o‘zgarishi; bir gektardan olinadigan hosildorlikning o‘zgarishi.

Dehqonchilik mahsulotlari tannarxiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash uchun 10-jadvaldagi shakl tuziladi.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mahsulot tannarxi hisobot yilda rejadagiga nisbatan faqt Paxta bo‘yicha 49,3 so‘mga oshgan, don va kartoshka mahsulotlari bo‘yicha esa, 346,6 va 100,3 so‘mga pasaygan. Xarajatlar asosan bir gektarga qilingan chiqimlar oshishi hisobiga ko‘paygan. Lekin hamma turdagi ekinlar hosildorligining o‘sishi mahsulot tannarxi pasayishiga olib kelgan.

Mahsulot tannarxini pasaytirish, shu jumladan, 1 sentnyer paxta tannarxini pasaytirish qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyaviy natijalarining yaxshilanishida, moliyaviy holatining mustahkamlanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy omillaridan biri paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishda qo‘l mehnatini kamaytirish, tabiat injiqqliklarini engish va mexanizatsiyalash darajasini oshirishdir.

Paxtachilikda xarajatlarning eng ko‘p qismini mehnatga haq to‘lash fondi tashkil etadi. Hozirgi sharoitda paxta hosilini yig‘ib olishi jarayonida qo‘l mehnatidan to‘liq voz kechib, paxta tyerish mashinalaridan unumli foydalansila, mahsulot tannarxi sezilarli darajada pasayadi, ularni xorijiy davlatlarga sotish orqali valyuta fondi mustahkamlanadi va respublikamiz byudjetiga kelib tushadigan pul mablag‘lari keskin ko‘payadi.

Keyingi bosqichda qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i-chorvachilik mahsulotlari tannarxi tahlil kilinishi zarur. Chorvachilik mahsulotlari tannarxining o‘zgarishi chorva mollari bosh soniga to‘g‘ri keladigan xarajatlar miqdori va bir bosh chorva moli mahsulordigining o‘zgarishiga bog‘liq.

Dehqonchilik mahsulotlari tannarxi o'zgarishiga bir gektarga sarflanadigan xarajat miqdori va hisobdarlik ta'sirining tahili

10-jadval

| Ekinlar nomi | Hosildorlik, sg'ga | | 1 gektarga sarflangan xarajat, so'm | | 1 sentyner mahsulotning tannarxi, so'm | | Rejadaiga nisbatan farq, tejalgan (-) ortiqcha sarflangan (+) | | |
|--------------|--------------------|------------|-------------------------------------|------------|--|------------|---|----------|---------------------------------------|
| | reja bo'yicha | haqi-qatda | reja bo'yicha | haqi-qatda | reja bo'yicha | haqi-qatda | reja-dagi xarajat va haqiqiy host-dorlik | hamma si | 1 gektara yerga sarf xarajat hisobiga |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 (3:2) | 7 | 8 (7:5) | 9 (7:6) |
| Paxta | 33.2 | 33.8 | 177750 | 182630 | 5353.9 | 5258.8 | 5403.2 | +49.3 | +144.4 |
| Don | 18.5 | 21.3 | 49180 | 49240 | 2658.3 | 2308.9 | 2311.7 | -346.6 | +2.8 |
| Kartosh-ka | 90 | 95 | 185740 | 186525 | 2063.7 | 1955 | 1903.4 | -100.3 | +8.3 |
| | | | | | | | | | -108.6 |

11-jadval

| Mahsulot turlari | Chorvachilik mahsulotlari tannarxi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash | | | | Farg' - + |
|--|---|-------------------|------------------------|------------|-----------|
| | 1 bosh molga sarflangan xarajat, so'm | Mahsulot-lik, kg. | 1 s. mahsulot tannarxi | Farg' - + | |
| | reja bo'yicha | haqi-qatda | reja bo'yicha | haqi-qatda | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 (2:4) |
| Sut | 433200 | 448500 | 2200 | 2400 | 19.6 |
| Boquvdagi yosh va katta qoramollar vaznining ortishi | 121200 | 277600 | 84.3 | 96.5 | 1437.7 |
| Cho'chqalar vaznining ortishi | 89600 | 140000 | 64 | 67 | 1400 |
| Mollar vaznining ortishi | 12350 | 14500 | 12.5 | 13 | 908 |
| Jun | 5620 | 6000 | 1.9 | 2.0 | 2957.8 |
| | | | | | 3000 |
| | | | | | 2810 |
| | | | | | 2810 |
| | | | | | +42.2 |
| | | | | | -147.8 |
| | | | | | +190 |

341

Tahlil qilinayotgan xo'jalikda chorvachilik mahsulotlari tannarxi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun 86-jadvaldagi shakldan foydalaniladi.

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinish turibdiki, tahlil qilinayotgan xo'jalikda 1 s. sutning tannarxi reja bo'yicha 196 so'm, haqiqatda 186,8 so'm, shartli tannarxi esa, 1805 so'm. Sog'ib olingan 1 s. sut tannarxining reja bo'yicha tannarxdan farqi 9,2 so'm, shu jumladan, tannarx bir bosh mol mahsuldarligi o'zgarishi hisobiga 15,5 so'mga kamaygan, bir bosh molga xarajatlar ko'payishi hisobiga 6,3 so'mga oshgan.

Chorvachilik mahsulotlarining boshqa turlari bo'yicha ham 1 bosh molni boqish xarajatlari oshishi hisobiga tannarx ortishi ko'rinish turibdi. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini yanada chuqurroq o'rganish, ularning tarkibini kalkulyasiya moddalari bo'yicha tahlil qilish lozim⁵⁷.

4. Qurilish tashkilotlarida tahlilning xususiyatlar

Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatlari bajarilishi ko'p jihatdan moddiy-texnika ta'minotiga, binobarin materiallarning mavjudligiga va ulardan foydalanishiga bog'liq. Qurilish montaj ishlardan materiallardan foydalanishni ifodolovchi umumiy ko'rsatkich material sig'imi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich qurilish ishlari o'z kuchi bilan bajarilganda material xarajatlarini qurilish- montaj ishlari hajmini material xarajatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Material xarajatlaridan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlaganda bu ko'rsatkich material sig'imi teskarisi hisoblanib, o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish- montaj ishlari hajmini material xarajatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Materiallardan foydalanishni tashkil qilishda shakl №M-29 "Qurilishda mateiallarni sarflash to'g'risida hisobot"; shakl №2-S "Qurilish- montaj ishlari tannarxi bo'yicha hisobot"; shakl №1 "Moliyaviy natijalar bo'yicha hisobot" lardan foydalaniladi.

Tahlil qilinayotgan qurilish tashkilotlarida materiallardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlash uchun quyidagi jadval tuziladi.

12-jadval

Qurilish tashkilotlarida materiallardan foydalanishining samaradorlik darajasini tahlili

| Ko'rsatkichlar | Reja bo'yicha | Haqiqatda | Farqi, (+,-) |
|--|---------------|-----------|--------------|
| 1.O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish- montaj ishlaringin hajmi, ming so'm | 320400 | 312800 | -7600 |
| 2.Material xarajatlari, ming so'm | 220405 | 210500 | -9905 |
| 3.M aterial sig'imi (2:1) | 0.69 | 0.67 | -02 |
| 4.Bir so'mlik material xarajatlariga to'g'ri keladigan qurilish- montaj ishlari. (material qaytimi)(1:2) | 1.4536 | 1.4859 | +0.0323 |

⁵⁷ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 368 page.

Jadvaldan ko‘rinishicha, o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish- montaj ishlari hisoboti yilda rejadagiga nisbatan 7600 ming so‘mga kamaygan, bu esa 2.3 % tashkil etadi. Ish hajmini pasayishiga ikki omil ta’sir ko‘rsatgan:

1. Material xarajatlari o‘zgarishi (ekstensiv omil):

-9905X1/4536=14397 ming so‘m.

1.Material qaytimining o‘zgarishi (intensiv omil):

+0.0323x110500=+6797 ming so‘m

Ikkala omilning yig‘indisi

-14397+6797=-7600 ming so‘m.

Shunday qilib, material xarajatlarini kamayishiga qurilish- montaj ishlari rejaga nisbatan kamayishi ijobji ta’sir ko‘rsatdi. Materiallardan foydalanishning samaradorlik darajasini o‘sishi natijasida ish hajmi 6797 ming so‘mga ko‘paydi. Bu ko‘rsatkich shundan dalolat byeradiki, qurilish- montaj ishlari hajmi intensiv omil hisobiga bajarilgan, ya’ni material xarajatlaridan samarali foydalanish hisobiga bo‘lgan.

Bir so‘mlik bajarilgan ish hajmiga sarflangan xarajat rejaga nisbatan 2 tiyinga kam sarflangan, natijada qurilish- montaj ishlari bo‘yicha tejalagan xarajat 6256ming so‘mni tashkil etadi.(0.02x312800). Qurilish tashkilotlarining asosiy vazifasi qa‘iy tejamkorlikka yerishish va qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirishdan iboratdir. Qurilish-montaj ishlari tannarxi deb qurilish ishlari va obyektlarini tugallab topshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni pulda ifodalanishidir.

Mahsulot tannarxi qurilish- montaj ishlarini sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, uning o‘zgarishi bir qancha omillarga bog‘liq: ish vaqtidan samarali foydalanish, qurilish materiallardan samarali foydalanish, qurilish- montaj ishlari mexanizatsiya darajasi va boshqalar. Qurilish- montaj ishlari hisobot tannarxida shakl №2S quydagi ko‘rsatkichlar keltirilgan:

- smeta qiymati bo‘yicha;
- reja tannarxi bo‘yicha;
- haqiqiy tannarx bo‘yicha.

Qurilish mahsulotlarini baho smeta qiymati bo‘yicha aniqlanadi. Qurilish-montaj ishlari smeta qiymati quydagilarni o‘z ichiga olad: ishchi chyertejlari uchun hisoblangan, ishlab chiqarish xarajatlari uchun o‘rnatilgan smeta normasi va baho va reja bo‘yicha jamg‘arma summasi. Smeta qiymati qurilish- montaj ishlari hajmi bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun hisob-kitoblarni olib boradi va shartnoma bahosini aniqlaydi. Agar smeta qiymatidan rejadagi jamg‘armani ayirib tashlasak smeta tannarxi kelib chiqadi.

Smeta qiymatini aniqlashda qurilish tashkilotlari ayrim hollarda ish sharoitini hisobga olgan holda reja tannarxi deyiladi. Reja tannarxi smeta qiymatidan kam bo‘ladi. Ya’ni rejadagi jamg‘arma summasiga va mahsulot tannarxini tejalgan summasiga.

Haqiqiy tannarx hisobot davrdagi qurilish- montaj ishlari bo‘yicha sarflangan hamma xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Tahlilning asosiy vazifasi quydagilardan iborat: tannarx bo‘yicha rejaning bajarilishini aniqlash, bajarilgan ishlar tannarxini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va tannarxni pasaytirish uchun ichki imkoniyatlarni qidirib topish, kelgusida ulardan unumli foydalanish. Tahlil qilinayotgan qurilish tashkilotlarida qurilish- montaj ishlari tannarxiga baho byerish uchun quydagi jadval tuziladi.

13-jadval

Qurilish- montaj ishlari tanarxini tahlili

| Ish turlari | Smeta qiymati bo‘yicha | Reja tannarxi | Haqiqiy tannarxi | Kompensatsiya va smetalar bo‘yicha xarajatlarni qoplanishi |
|---|------------------------------|------------------|---------------------|---|
| 1. Qurilish ishlari, ming so‘m | 708660 | 706980 | 707406 | 1200 |
| 2.Uskunalarni montaj qilish, ming so‘m | 96700 | 98200 | 98200 | - |
| 3.Kapital remont (imorat va inshoatlar), ming so‘m | 12000 | 110000 | 105000 | 5000 |

Jadvaldagagi ma‘lumotlardan ko‘rinishicha qurilish- montaj ishlari bo‘yicha haqiqiy tanarx rejadagi tannarxdan 426 ming so‘mga oshgan (707406-706980). Buning ko‘payishi qurilish- montaj ishlarini o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Qurilish- montaj ishlari tanarxini ikkinchi bosqichida xarajatlarni elementlari bo‘yicha tahlil qilinishi lozim.

Pudrat usulidagi qurilish tashkilotlarini faoliyatini ifodolovchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri foya hisoblanadi qurilish tashkilotlarida rejdagi foya quydagilardan tashkil topadi: smetada ko‘rsatilgan reja bo‘yicha jamg‘arma summasi smeta qiymatidan 9.0%; qurilish-montaj va kompleksi ishlari bo‘yicha mahsulot tannarxini tejash, pasaytirish hisobidan tashkil topadi.

Haqiqatdagi foya summasi esa smeta qiymatidan haqiqiy tannarxini ayirish yo‘li bilan topiladi. Nizom bo‘yicha qurilish tashkilotlari moliyaviy natijalari quydagi ko‘rsatkichlardan tashkil topadi:

- 1.Yalpi foya.
- 2.Asosiy faoliyati bo‘yicha foya.
- 3.Umumxo‘jalik faoliyati bo‘yicha foya.
- 4.Soliq to‘laganga qadar foya.
- 5.Sof foya.

Molifviy natijalarni tahlil qilish sanoat korxonalari moliyaviy natijalarini tahlil qilishdan deyarli farqi yo‘q.

Masalan, tahlil qilinayotgan qurilish tashkilotlarida Yalpi foydaning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun quydagi jadval tuziladi.

14-jadval

Yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkichlar | Nº | O'tagan yil | Haqiqatda bajarilgan ish hajmi bazis bahoda tannarx | Hisobot yilida bajarilgan ish hajmi |
|---|--------------|-------------|---|-------------------------------------|
| 1.Buyurtmachilarga bajarib topshirilgan ish hajmi, m.s. | 010 shakl 2. | 230870 | 233470 | 235640 |
| 2. Bajarilgan ishning ishlab chiqarish tannarxi, m.s. | 020 shakl 2. | 218500 | 219400 | 220200 |
| 3. Topshirilgan ish bo'yicha Yalpi foya, m.s. | 030 shakl 2. | 12370 | 14070 | 15440 |

Jadvaldan ko'rinishicha topshirilgan ish hajmi bo'yicha olingen Yalpi foya hisobot yilida o'tgan yilda nisbatan 3070 ming so'mga yoki o'sish sur'ati 24.8% tashkil etdi. Yalpi foydaning ko'payishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Smeta va shartnoma bahosining o'zgarishi: $235640 - 233470 = +2170$ ming so'm yoki 70.6% ($2170 \times 100 : 3070$), ya'ni foydani oshgan qismini 70.6% baho oshishi hisobiga bo'lgan.

2. Qurilish ishlari buyurtmachilarga qurib topshirilgan ishlab chiqarish tannarxini o'zgarishi: $220200 - 219400 = +800$ ming sium. Ishlab chiqarish tannarxini qimmatlashishi o'z navbatida foya miqdorini 800 ming so'mga kamayishi yoki 26.0% ($800 \times 100 : 3070$) tashkil etadi.

3. Sotish hajmini o'zgarishi: jadvaldagi ma'lumotlarga asosan quyidagi hisob-kitoblarni qilinish lozim:

$$A) 233470 \times 100 : 230870 = 101.13\%$$

$$V) 1.13 \times 12370 : 100 = 139.7 \text{ ming so'm}$$

Sotish hajmini o'zgarishi hisobiga Yalpi foya 139.7 ming so'mga ko'paydi yoki 4.5% ($139.7 \times 100 : 3070$) tashkil etadi.

4. Bajarilgan qurilish mantaj ishlarinit tarkibiy tuzilishini o'zgarishi. Ta'sir etuvchi omillar sanoatdagi kabi ikki xil usulda aniqlanadi:

1. Balans usulida hisoblash, ya'ni foydani umumiy farqidan oldingi hisoblangan omillar ayirilib tashlanadi, natijada tarkibiy tuzilishi o'zgarishini Yalpi foydaga ta'siri kelib chiqadi. $(3070 - (+2170 + 139.7 - 800)) = +1560,3$ ming sium. Hamma omillar yig'indisi Yalpi foya bo'yicha umumiy farqqa teng bo'ladi. $(+2170 + 139.7 + 1560,3 - 800) = +3070$ ming so'm.

Agar qilingan hisob-kitoblarni umumlashtiradigan bo'lsak Yalpi foydani o'zgarishi quyidagi omillarga bog'liq bo'lgan:

- sotish bahosini o'sishi 2170 ming so'm
- tannarxning qimmatlashishi 800 ming so'm
- sotish hajmiming o'sishi 139.7 ming so'm
- tarkibiy tuzilishini o'zgarishi 1560,3 min so'm

Umumiy farq

3070 min so'm

Qurilish tashkilotlarida quyidagi rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi: jami aktivlarga nisbatan rentabellik darajasi, shaxsiy kapitalga nisbatan rentabellik darajasi, asosiy kapitalga nisbatan rentabellik darajasi. Tahlil qilish uslubiyati sanoatdan deyarli farq qilmaydi. Qurilish tashkilotlari moliyaviy holatini tahlili sanoat korxonalarini tahlili bilan bir xil.

Nazorat savollar:

1. Tarmoqlarda tahlil xususiyatlari o'rganishning ahamiyatini va dolzarbligini yoriting.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning muhim farqlarini izohlang.
3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kapitalga bo'lgan ehtiyoji va pul mablag'lari harakati tsiklining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Firma va kompaniyalarining qarz kapitaliga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va undan foydalanish samaradorligi tahlili.
5. Savdo korxonalarida Tovar aylanishi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
6. Chakana va ulgurji savdo korxonalarida sotishdan daromadlarni tan olish tamoyillari va ularning yakuniy moliyaviy natijaga ta'siri tahlili.
7. Savdo korxonalarida sof foya va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
8. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
9. Qishloq xo'jaligida yerlardan samarali foydalanish tahlili.
10. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarining tahlili.
11. Dehqonchilikda asosiy va qo'shimcha mahsulotlar tannarxini aniqlash usullari va uning tahlili.
12. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va sotish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi va ularning tannarxini tahlili.
13. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining moliyaviy natijalarini aniqlash va tahlil qilish uslubiyoti.
14. Qishloq xo'jaligida davlat buyurtmasi bo'yicha hosil rejasining bajarilishi tahlili.
15. Qurilish tashkilotlarda bir qancha faoliyat turlaridan olingen daromadlar tahlili.
16. Qurilish tashkilotlarida materiallardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tahlili.
17. Bajarilgan ishlar tannarxini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari va uning tahlili.
18. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va undan samarali foydalanish tahlili.
19. Qurilish tashkilotlarida daromadlarni tan olish usullari va ularni takomillashtirish.
20. Qurilish tashkilotlari moliyaviy natijalarini tahlil qilish uslubiyoti va uni xorij tajribasi asosida takomillashtirish.

24-bob. IQTISODIY NOCHORLIK TAHLILI VA TAOMILLAR

Reja:

1.Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasi mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar

2.Moliyaviy barqaror, moliyaviy havf hatari bor va moliyaviy nabarqaror firma va kompaniyalar faoliyatini tahlili

3.Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini tahlili

4.Korxona iqtisodiy nochorligini prognozlashdagi modellar

5.Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda, ulardan foydalanish

Tayanch so'zlar:

Iqtisodiy nochorligini aniqlash, bankrotlik ehtimolini aniqlashning, bankrotlik instituti, bankrotlikni xalqaro modellari, moliyaviy inqirozlarni xavf xatarini aniqlash indikatorlari.

1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasi mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar

Totalitar, rejali tizimning raqbatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga transformatsiyalashuvi jarayoni milliy iqtisodiyotda bankrotlik, inqiroz, nomuwozonatlik kabi mutlaqo yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, ularni hal etishni dastaklarni belgilab olish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik tushunchalari odatda bir mazmumnda qaraladi. Ularni yuzaga keltiruvchi sabablar nihoyatda ko'p. Lekin sabablarning ildizida albatta sog'lom raqobot turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ushbu muammonining dolzarbligini ko'rsatib, "Bozor qonunlari amal qila boshlashi, raqobatchilik muhitini tarkib topishi va erkin tadbirkorlik uchun hamma yo'llar bilan ayni qonunlarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish tarkibani o'zgartiriladi ham. Bu narsa faqat raqbatga bardosh berishga intilish bor joydagina yuz beradi. Raqbatga bardosh berish uchun ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilab borishga tadbirkorlar o'zlarini majbur bo'ladigan sharoit vujudga keladi"-deb ta'kidlaydi.⁵³

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan holda, raqobat kurashiga tortiladilar. Bu kurash kimnidir bor, kimnidir yo'q qiladi. G'olib korxonalar o'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlagan holda bozorda muqim o'rniغا ega bo'la boradilar. Mag'lub korxonalar esa sinadilar yoki o'z faoliyatini to'xtadilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g'oliblik yoki bu mag'lublik muqarrar narsaki, uni to'xtatib qolish mumkin emas.

Aytish mumkinki, uzluksiz davom etuvchi raqobot kurashi doimo iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik holatiga tushish havfini tug'diradi.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik, krisis holati, inqiroz kabi tushunchalar odatda bitta ma'noni ya'ni, firma va kompaniyalarning sinishini izohlashda ishlataladigan tushunchalar hisoblanadi.

Bankrotlik tushunchasi italyancha «banco rotto» degan so'zdan olingen bo'lib, aslida kursining (o'rindiqning) sinishi deb tarjima qilinsa-da, bu so'z qarzdorning nochor ahvolga tushib sinishi, barbod bo'lishi degan ma'nosida ko'p ishlataladi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunida bankrotlik alomatlari yuridik shaxslar uchun alohida, jismoniy tadbirkor shaxslar uchun alohida o'rnatilgan.

Yuridik shaxsning pul majburiatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va to'lov majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran 6 oy davomida qarzdar tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomati deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxsning pul mablag'lari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va to'lov majburiyati ularni bajarish sanasi boshlangan paytdan e'tiboran 3 oy davomida qarzdar tomonidan bajarilmagan bo'lsa, agar majburiyatlarning summasi unga tegishli mol-mulkning qiymatidan oshib ketgan bo'lsa, uning iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomati deb e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyoti qisqacha lug'at ma'lumotnomasida "bankrotlik -sinish; fuqaro, korxona, firma va bankning mablag' etishmaslidigan o'z majburiyatları bo'yicha qarzlarini to'lashga qurbi etmaslidir deyiladi. Bankrotlikka uchrash sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymat qonunining amal qilishi, raqobat va infliyatsiya bilan belgilanadi"⁵⁴ deb ta'riflanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 24-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi „Bankrotlik to'g'risidagi“ Qonunning 3- moddasida bankrotlik bunday ta'riflanadi; "Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)-xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatları bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlari bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda qondirishga qodir emasligi"⁵⁵ tushuniladi deyiladi.

I.f.n. Xasanov N. tomonidan „bankrotlik- bu xo'jalik yurituvchi subyektlarni qarz va majburiyatlarini qaytarib berishga va to'lashga qodir emasligi bilan izohlanadi"⁵⁶ deb ta'kidlanadi.

Bugungi kunda, iqtisodiy nochorlikni belgilashning nazariy asoslarida ham, uni aniqlashning uslubiy asoslarida ham, iqtisodiy nochorlikni belgilash yuzasidan

chiqarilgan xuquqiy aktlarda ham, uning tashkiliy va amaliy asoslarida ham qator muammolarga duch kelinmoqda.

Erkin raqobatga dosh berolmabdikkorxonalar yopiladigan bo'lsa, uning ta'siridagi ijtimoiy o'zgarishlarni, muammolarni qanday hal qilish mumkin. Ularni moliyaviy sog'lomlashtirish chora tadbirlarini belgilab bo'lmaydimi yoki bankrotlikdan chiqarish choralar ko'rilmaydimi Iqtisodiy nochorlikdan faqat korxonani yopish bilan qutilinadi? Bu va bu kabi muammolarga javob topish maqsadida bankrotlik institutini tashkil etish zaruriyatga aylandi va ushbu institut bugun O'zbekistonda ham to'la tashkil etildi.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni tsiklik jarayonini ko'pincha inson hayot yo'lining kechishiga o'xshatishadi. Ya'ni, insonning tug'ilish davri, o'spirinlik davri, o'sish davri, etuklik davri va keksalik davri kabi jarayonga qislashadi.

Bu tsiklik jarayonni iqtisodiy jihatdan quyidagi bosqichlar bo'yicha umulashtirish mumkin.

1-jadval

| Tashkil topish | Oyoqqa turish | O'sish | Gullash | Cho'kish |
|---|--|---|--|---|
| "Tashkil etilish" davrida yangi tovar bozorga tavsija etiladi va unga bozor talabi umuman kuzatilmaydi va sotish darajasi juda past bo'ladi. Mazkur boskichda ko'prok tovar bilan tanishiuvni ta'minlash lozim bo'ladi. | "Ayoqqa turish" davrida korxonaning bozorga chiqishi va tovarlarni tavsija etishi biroz jonlanadi, sotish hajmi o'shiga erishiladi va bu bilan tovarlarga yangilik kiritish harajatlari biroz oshiriladi | "O'sish davri": tovarlarni sotish hajmi, bozorni solishtirma sig'imi o'sib boradi, raqobat kuchayadi. Mazkur boskichning asosiy vazifasi assortimentini oshirish hasobiga maksimal foyda olish vazifasi qaratiladi. | "Gullash davri": tovarlarni sotish hajmi, o'sish darajasi eng yuqori (maksimal) darajaga ko'tariladi, bozor ushbu mollar bilan haddan ziyod to'ynadi, yangiliklarga oid harajatlar kamayadi, ish hajmini bundan ortiq oshirib bulmay qoladi. | "Cho'kish davri": tovar iste'mol uchun jozibadorligini yo'kotadi, sotish hajmi tushib ketadi, mahsulotning bozordagi sig'imi tushib ketadi. |

Ushbu tsiklik jarayonni piramida shaklida ham tuzib chiqish mumkin va bu holat uning umumiy hayotiyligini aniq ifoda etadi. Iqtisodiy nochorlik davomiyligi har bitta korxonada turlicha kechadi va yakun topadi. Bundan shunday xulosaga kelinadiki har qanday korxonaning oxirgi manzili bu iqtisodiy nochorlik, bankrotlik ekan. Faqat ushbu davriylig har qaysi korxonada turlicha oraliqda kechadi. Ya'ni tsiklik jarayon bitta korxonada tezroq, bitta korxonada sekinroq kechadi.

Iqtisodiy nochorlikka, nisbatan oxirgi manzilning haqligi bu tartibda to'g'ri bo'lmaydi. SHu sabali aynan shart iqtisodiy nochorlik, bankrotlikka uchragan korxonaga nisbatangina yuqoridaagi fikrash o'rini bo'ladi.

Umumiy jihatdan, bu nochorlik va bankrotlikni davlat va jamiyatga ortiqcha ziyon olib kelmasligiga imkon beruvchi bankrotlik taomillarini belgilash lozim.

Bankrotlikka olib keluvchi sabablarni olimlar tomonidan ucta guruhga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.


1. Iqtisodiy omillar
2. Tashkiliy omillar
3. Ijtimoiy -siyosiy omillar

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar sifatida i.f.n. dotsent S. Najmiddinov va N. Xasanov lar tomonidan quyidagi 12 ta sabab ko'rsatiladi.

1. O'z oborot mablag'ları etishmovchiligi;
2. Mahsulotlarni haqiqiy narxini belgilash mexanizmining yo'qligi;
3. Shartnoma intizomining shakllanmaganligi;
4. Korxonada yuridik xizmatning past darajada yo'lga qo'yilganligi;
5. Ijtimoiy, madaniy va ma'ishiy obyektlarni saqlashga harajatlarning ko'pligi;
6. Debitor va kreditor qarzdorlikni o'sib ketishi;
7. Asosiy ishlab chiqarish zarari hisobiga tugallanmagan kapital qo'yilmalarga yo'l qo'yilishi;
8. Nolikvid tovar, moddiy boyliklarning saqlanib qolishi;
9. Noishlab chiqarish harajatlari;
10. Oborot mablag'ları o'z aktsiyalarini sotib olishga ishlatalishi;
11. Soliqqa tortish va hisoblashdagi korxona rahbarlari va iqtisodiy xizmat xodimlarining yo'l qo'yadigan kamchilik va xatolari;
12. Korxonalarining tijorat faoliyati haqidagi axborotlarining boshqalarga ma'lum bo'lishi.

2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor va moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatining tahlili

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi moliyaviy salohiyatni tushib ketishi bilan izohlanadi. Moliyaviy salohiyatni o'zgarish darajalariga muvofiq firma va kompaniyalarni moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor hamda moliyaviy jihatdan nobarqaror firma va kompaniyalarga ajratish mumkin.



1-rasm. Firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Moliyaviy barqarorlikni ko'rsatkichlar tizimini taqqoslaydigan bo'lsak ular orasida katta farqni sezish mumkin.

Rus olimlari L.V. Dontsova va N.A. Nikiforovalar tomonidan moliyaviy barqarorlikni aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanish tavsya etiladi.

2-jadval

Moliyaviy barqarorlik koefitsentlari

| Ko'rsatkichlar | Aniqlanishi | Normal darajasi |
|---|--|-----------------------------------|
| Kapitallashuv darajasi | Qarz kapitali/Xususiy kapital | 1.5 dan yuqori bo'Imagan xollarda |
| O'ziga tegishli mablag'lar bilan ta'minlanish koefitsenti | Xususiy kapital-Oborotdan tashqari aktivlari*/Oborot aktivlari** | Kuyi darajasi 0.1 K>0.5 |
| Moliyaviy mustaqillik koefitsenti | Xususiy kapital/Balans jami | Km>0.4+0.6 |
| Moliyalashtirish koefitsenti | Xususiy kapital/Qarz kapitali | Kk>0.7 |
| Moliyaviy barqarorlik koefitsenti | Xususiy kapital+Uzoq muddatli majburiyatlari/Balans jami | Kb>0.6 |

*-uzoq muddatli aktivlar

**-joriy aktivlar

Firma va kompaniyani moliyaviy jihatdan barqaror deyish mumkin qachonki, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar normal holatdan yuqori darajada bo'lsa, firma va kompaniyalar moliyaviy jihatdan havi-xatari bor deyish mumkin qachonki, ko'rsatkichlar darajasi normal darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki uning ko'rsatkichlar tizimini ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa. Uning chegaravilgini har bitta ko'rsatkichlar tizimiga nisbatan alohida belgilash lozim.

Amaliyotda, moliyaviy barqarorlikni belgilashning eng muhim metodik jihatni aktivlarni (uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni) manbalashdagi holat ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi.

3-jadval

Tovar moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar (ming so'mda)

| Ko'rsatkichlar | Yil boshiga | Yil oxiriga | Farqi (+,-) |
|---|-------------|-------------|-------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. O'z mablag'larining manbalari | 383086 | 816216 | 433130 |
| 2. Uzoq muddatli aktivlar | 517950 | 502316 | -15634 |
| 3. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z manbalar (1-2) | -134864 | 313900 | 448764 |
| 4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar | 801520 | 427168 | -374352 |
| 5. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4) | 666656 | 741068 | 74412 |
| 6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar | 588055 | 1200816 | 642761 |
| 7. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6) | 1254711 | 1941884 | 687173 |
| 8. Tovar-moddiy zaxiralarning jami | 951735 | 1757145 | 805410 |

Jadval ma'lumotlari asosida tovar moddiy zaxiralarni qoplash yuzasidan o'z va qarzga olingan mablag'larning yetarligi yoki etishmasligini hisob kitob qilish lozim.

3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z harakat maydonida va uning ta'sirida rivoj topadilar, qayta tashkil etiladilar va bonkrot bo'ladilar. Tashkil etilayotgan har bir firma, kompaniya qatorida albatta o'z faoliyatini to'xtatayotgani ham bo'ladi. Negaki bozor - bu avvola raqobat demakdir. U imkon qadar bozorga xos tarzda faoliyat va harakatdagi o'zgaruvchanlikni talab etadi. Raqobatga bardosh bera olmagan firma va kompaniyalar o'z o'mini boshqa firma va kompaniyalarga bo'shatib beradilar.

Korxonalarning iqtisodiy-moliyaviy ahvoliga baho asosida iqtisodiy nochorlikni belgilashda turlicha karashlarni uchratish mumkin. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalishni lozim topdik.

Korxona va firmalarni bonkrot deb e'lon qilish va ularni tugatish shartlari davlat nomidan ish ko'ruchchi organlar tomonidan qat'iy belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday vakolatga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi xuzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko'mitasi ega. Ushbu Qo'mita tomonidan firma va kompaniyalar (korxonalar)ni iqtisodiy nochor deb e'lon qilishning tartiblari belgilab boriladi va nazorat qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarni sinish va sanatsiya o'tkazish masalalari bo'yicha xukumat komissiyasi tavsiya etgan «Korxonalarni moliyaviy tahlil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar» (1997 yil 17 aprel) da 12-ta ko'rsatkichni hisoblash va tahlil qilish tavsiya etilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatdoshlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadi, korxonalar raqobatda sinmasligi uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- mavjud mablag'larini to'g'ri joylashtirish va boshqarish;
 - ijobji faoliyat natijavilgiga erisha borish;
 - debitor qarzlarini ko'paytirmaslik yo'llarini topish, mavjud debitor qarzlarini muddatida qaytarish chora tadbirlarini ko'rish;
 - kreditor qarz majburiyatlarini to'lov muddati bo'yicha nazoratini olib borish.
- Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanish lozim:
- firma va kompaniya to'lov layoqati, qoplov koefitsentimi o'rganish;
 - firma va kompanianing moliyaviy mustaqillik va qaramlik darajasini o'rganish;
 - uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalashning holatini o'rganish;
 - o'z va qarz mablag'lari orasidagi nisbatni o'rganish;
 - aktivlar, kapital va majburiyatlarni rentabelligini o'rganish
 - ishlab chiqarish quvvatlardidan haqiqiy foydalanish darajasini o'rganish;

-asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasini o'rganish;
-muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlar holatini o'rganish.

4-jadval

Korxonalar iqtisodiy nochorligini tahliliy ko'rsatkichlari va ularni me'yoriy darajalari

| Ko'rsatkichlar | Aniqlanish tartibi | Me'eriy chegara | Nochorlik belgisi |
|---|---|-----------------|-------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| Firma va kompaniyaning to'lov layoqati | Kt=Joriy aktivlar/muddati kelgan to'lov majburiyatları | 2-3 | Kt<2 |
| Firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik koeff. | Km=O'z mablag'lari manbayi/Jami mulk | Km >50% | Km <50% |
| Uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalanishi | Oborot mablag'lari naqdligi-moddiy g'amlamalar/O'z mablag'lari+Uzoq muddatli qarz mablag'lari-Moddiy g'amlamalar | Ortiqcha-lik | Etishmov-chilik |
| O'z va qarz mablag'lari nisbati koeff. | Ka=O'z mablag'lari/qarz mablag'lari | Ortiqcha-lik | Etishmov-chilik |
| Aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligi | Kr=Sof foya/Aktiv yoki kapital+majburiyat | Kr>0 | 0 dan kichik |
| Ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasi | Kf=Ishlab chiqarish quvvatining xaqiqiy darajasidagi mahsulot hajmi/teknik loyiha bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan hajm | Kf=1>0 | Kf=1<0 |
| Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishini jamgarilish koeff. | Ke=Asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni boshlang'ich qiymati | Ks>0.5 | Ks<0.5 |
| Muddati o'tgan majburiyatlar holati | Kd/k=Muddati o'tgan majburiyatlar/ja-mi majburiyatlar | Kd/k<0.5 | Kd/k>0.5 |

Qarzdorning pul majburiyatlar bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston respublikasi iqtisodiy vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko'mitasining "Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi qarori"⁵⁸ ga muvofiq korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- iqtisodiy barqaror;
- iqtisodiy tahlikali (havf xatarli);

▪-iqtisodiy nobarqaror*-**:

*to'lovga qobilligini tiklash imkoniga ega bo'lgan korxonalar:

**to'lovga qobilligini tiklash imkoniga ega bo'lmagan korxonalar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy holatini baholash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko'mitasining "Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi qarori"ga muvofiq qo'yidagi ko'rsatkichlar tizimini o'rganish tavsya etiladi.

- To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsenti (Ktl):
 - O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsenti (Kat)
 - Korxona aktivlari va harajatlari rentabelligi (Ra, Rx)
- YAKUNIY xulosani chiqarish yuzasidan shunindek quyidagi ko'shimcha ko'rsatkichlar o'rganiladi:
- O'zmablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti (Ko'q)
 - Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsenti (Kquv)
 - Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (Kesk)

Iqtisodiy nochorlik tahlili yuzasidan o'rganiladigan asosiy masalalar qatorida pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan kreditorlik qarzalarining mavjudligiga, korxonaning qisqa muddali majburiyatlarini joriy aktivlar bilan to'lashga qodir emasligiga, rentabellikning quyi darjasini yoki zararga ishslash holatiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Korxonalar moliyaviy -iqtisodiy holatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari tavsifi:

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlar sifatida pullik va majburiy to'lovlar bo'yicha to'lov muddati kelib uch oydan ortiq muddat o'tgan kreditorlik majburiyatlar summasi nazarda tutiladi.

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlar summasi (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-soni buyrug'iga 1-sonli ilova, O'zR AV tomonidan 2003 y. 24 yanvarda ro'yxatga olingan N 1209 sonli (o'zgarishlari 11.10.2012 yil 1209-5 rakamli tartibi bilan ro'yxatdan o'tgan) "Buxgalteriya balansi" moliyaviy hisobot shaklining 492 satridan (O'zR AV tomonidan 20.12.2004 yil №-1209-2 bilan ro'yxatga olingan Moliya Vazirligi buyrugiga asosan) yoki Buxgalteriya balansiga ilova sifatida berilgan (O'zR AV tomonidan 11.10.2012 yil 1209-5 rakamli tartibi bilan ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respubliksi Moliya vazirligi buyrug'iga ko'ra tuziladigan) "Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini rasshifrovkasi" dan olinadi.

Qoplash (to'lov layoqati) koeffitsenti joriy aktivlar summasining uzoq muddatli majburiyatlar summasiga kamaytilgan jami majburiyatlarni qoplashga imkonligini harakterlaydi.

5-jadval

Korxonalarining moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari

| Ko'rsatkichlar | Iqtisodiy holat nobarqaroligi |
|---|---------------------------------------|
| Asosiy ko'rsatkichlar | |
| To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsenti (Ktl): | Ktl - 1.25 dan kichik bo'lsa |
| O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsenti (Kat) | Kat -0.2 dan kam chiqsa |
| Korxona aktivlari va harajatlari rentabelligi (Ra, Rx) | |
| O'zmablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti (Ko'q) | Ko'q -1.25 dan tushib ketgan xollarda |
| Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsenti(Kquv) | Kquv- 0.5 dan tushib ketganda |
| Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (Kesk) | Kesk- 0.5 dan oshib ketganda |

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamizda korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilishda uch guruhdan iborat ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi;

Birinchi guruh ko'rsatkichlar; muddati 3 oydan ortgan kreditorlik qarzlarini borligi va manfiy rentabellik darajasi;

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlarga; to'lovga qobililik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlananlik ko'rsatkichlari;

Uchinchi guruh ko'rsatkichlarga; aktivlar rentabelligi, xususiy va chetdan jalg qilingan mablag'lar nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati, asosiy kapitalni eskirishi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

4. Korxona iqtisodiy nochorligini prognozlashdagi modellar

Iqtisodiy nochorlikni prognozlash, bankrotlik xavf xatarini aniqlashning xalkaro amaliyotda juda katta tajribasi to'plangan va ularga doimo amal qilib kelinmokda. Iqtisodiy nochorlikni aniqlash va bankrotlik haf xatarini hisoblashning ilk urinishlari ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda AQSH va Evropa davlatlarida kuzatiladi. Bankrotlik holatini baholash tahlilda eng muammoli masalalar sirasiga kiradi. SHu sababli bu jaroyon har bitta davlatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tartiblandi.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlash va bankrotlikni baholashni xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan yondashuvlarini quyidagi chizmada aks etirish mumkin.

1-jadval

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning g'arb amaliyotidagi ayrim modelları

| | |
|--------------------------|---|
| Nochorlikni aniqlashdagi | 1. Altmannning ikkita faktorli modeli 2. Altmannning besh faktorli modeli 3. Firmaning likvidatsion qiymatini aniqlash usuli(Uilkoksa modeli) 4. Koeffitsent tahlili modeli 5. Integral baholash modeli 6. Fulmer modeli |
|--------------------------|---|

| | |
|--------------|--|
| yondashuvlar | 7. Moliyaviy strategiya matritsasi 8. U.Biver ko'rsatkichi bo'yicha korxona moliyaviy holatini baholash 9. Korxona moliyaviy holatini reyting baholash |
|--------------|--|

Korxonalar iqtisodiy nochorligini aniqlashning va uning bankrotlik holatini bashoratlashning eng ommavylashgan modeli sifatida Nyu-York universiteti professori E.Altmannning ikki faktorli modeli qo'llaniladi.

2-jadval

| Ikki faktorli Za-modeli | |
|--|------------------------------------|
| $Za=-0,3877-1,0736*K1+0,0579*K2$ | |
| Ko'rsatkichlar | Aniqlanishi |
| Ummumiy koplash koeffitsenti (K1) | Joriy aktivlar/joriy majburiyatlar |
| Moliyaviy bog'liqlik koeffitsenti (K2) | Qarz mablag'lari/balans jami |

E.Altman tomonidan tavsya etilgan va xorijiy amaliyotda bankrotlik ehtimolini aniqlashning besh faktorli modeli quyidagi ko'rinishga va bog'lanishga ega.

3-jadval

| Besh faktorli Za-modeli | |
|-----------------------------------|---|
| $Za=1,2 +1,4K2+3,3K3+0,6K4+1,0K5$ | |
| Koeffitsent | Aniqlanishi |
| K1= | Xususiy oborot kapitali/Aktivlar summasi |
| K2= | Taqsimlanmagan foya/Aktivlar summasi |
| K3= | Foizlar tulagunga qadar foya/Aktivlar summasi |
| K4= | Xususiy kapitalni bozor qiymati/qarz kapitali |
| K5= | Sotish hajmi/Aktivlar summasi |

Bankrotlik ehtimoli bo'yicha qarorlar chiqarishda quyidagi me'rlarga tayaniлади.

4-jadval

| Darajalar miqdori | Bankrotlik Ehtimoli |
|------------------------------|--|
| Agar $Z<1,81$ bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli yuqori deb |
| Agar $Z>2,7$ va undan yuqori | bankrotlik ehtimoli past deb qaraladi. |

Ushbu model asosida Altman 66 ta korxonada izlanish olib borgan xolda 1946-1965 yillar oraligida yarmi bankrotlikka yuz to'tgani, yarmi faoliyatini yuqori suratlar bilan davom ettirgani aytildi⁵⁹.

1997 yilda Altman boshchilligidagi bir guruh amerikalik iqtisodchilar tomonidan bankrotlik ehtimolini aniqlashning etti fiaktorli modeli ishlab chikildi Ushbu model bankrotlikni 70 foizgacha aniqlikda hisobash imkonini beradi.

Ushbu yettita ko'rsatkich quyidagiildan iborat

- Aktivlar rentabelligi
- Foya dinamikasi
- Kredit foizlarini koplash koeffitsenti
- Komulyativ foya

⁵⁹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 205 page.

5. Qoplash koeffitsenti (likvidlik)

6. Avtonomiya koeffitsenti

7. Jami aktivlar harakatlanish koeffitsenti

1972 yilda Iqtisodchi Lis Britaniya korxonalarida bankrotlik ehtimolini aniqlashning 4 faktorli modelini ishlab chiqqan.

5-jadval

| Turt faktorli Zi-modeli $Zi=0,063K1+0,692K2+0,057K3+0,601K4$ | |
|---|--------------------------------------|
| Koeffitsent | Aniqlanishi |
| K1= | Oborot kapitali/Aktivlar summasi |
| K2= | Sotishdan foya/Aktivlar summasi |
| K3= | Taqsimlanmagan foya/Aktivlar summasi |
| K4= | Xususiy kapital/Qarz kapitali |

1997 yil britaniya olimi Taffler kompaniyalar moliyaviy holatini baholashning muhim ko'rsatkichlari (foya, oborot kapitali, moliyaviy risk, likvidnost kabi)ga tayangan holda 4 faktorli modelni tavsiya kildi.

6-jadval

| To'rt faktorli Zt-modeli $Zt=0,53R1+0,13R2+0,18R3+0,16R4$ | |
|--|---|
| K1= | Sotishdan foya/Qisqa muddatli majburiyatlar |
| K2= | Oborot aktivlar/Majburiyatlar summasi |
| K3= | Qisqa muddatli majburiyatlar/Aktivlar summasi |
| K4= | Tushum/Aktivlar summasi |

Taffler formulasi echimida Bankrotlik ehtimoli bo'yicha qarorlar chiqarishda quyidagi me'yorlarga tayanipladi.

7-jadval

| Darajalar miqdori | Bankrotlik ehtimoli |
|------------------------------|---|
| Z= 0.3 dan katta bo'lsa | Kompaniyaning uzoq muddatli kelajagi bor deb qaraladi |
| Agar Z=0.2 dan kichik bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli bor deb qaraladi |

Amerikalik moliyaviy analitik U.Biver korxonalar moliyaviy holatini baholash orqali bankrotlik darjasini tahlil etishning quyidagi javalini tavsiya etadi

8-jadval

| Ko'rsatkichlar | Hisob kitob uchun formula | Bankrotlik ehtimoli mayjudligi | | |
|----------------------|---|--------------------------------|----------------|----------------|
| | | Mavjud emas | 5 yildan keyin | 1 yildan keyin |
| Koeffitsent Bivera | Sof foya-Amortizatsiya/Uzoq muddatli majburiyatlar+Qisqa muddatli majburiyatlar | >=0.4-0.45 | >=0.17 | -0.15 |
| Aktivlarni moliyaviy | Sof foya*100/Aktiv | 6-8 | 4 | -22 |

| | | | | |
|--|---|-------|-------|--------|
| rentabelligi | jami | | | |
| Moliyaviy leverej koeffitsenti | Uzoq muddatli majburiyatlar+Qisqa muddatli majburiyatlar/Aktiv jami | <=37 | <=50 | <=80 |
| Aktivlarni sof oborot kapitali bilan qoplanishi koeffitsenti | Xussuiy kapital-Oborotdan tashqari aktivlar/aktivlar jami | >=0.4 | >=0.3 | >=0.06 |
| Qoplanish koeffitsenti | Oborot aktivlar/Qisqa muddatli majburiyatlar | <=3.2 | <=2 | <=1 |

Irkutiya Moliya Akademiyasining bir guruh olimlari tomonidan bankrotlikni ehtimolini aniqlashning 4 faktorli modli yaratilgan uning tarkibiy tuzilishi quyidagiladan iborat.

9-jadval

| To'rt faktorli Zi modeli $Zi= 8,38K1+K2+0,054K3+0,64K4$ | |
|---|---|
| Faktorlar | Aniqlanishi |
| K1- | Xususiy oborot kapitali/Aktivlar |
| K2 | Sof foya/Xussiy kapital |
| K3 | Sotishdan sof tushum/Aktivlar |
| K4 | Sof foya/Ishlab chikarilgan mahsulot tannarxi |

Ushbu model bo'yicha Zi- miqdorining o'zgarishiga qarab quyidagi xulosalar chiqariladi.

10-jadval

| Darajalar miqdori | Bankrotlik ehtimoli |
|--------------------------------------|---|
| Agar Zi qiyamati 0 dan kichik bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli juda yuqori (90-100%) |
| Agar Zi 0-0,18 gacha oraliqda bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli yuqori (60-80%) |
| Agar Zi 0,18-0,32 gacha bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli o'rtacha (35-50%) |
| Agar Zi 0,32-0,42 gacha bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli past(15-20%) |
| Agar Zi 0,42 dan yuqori bo'lsa | Bankrotlik ehtimoli juda past deb topiladi(10% gacha) |

Shuningdek hamma uchun yagona bo'lган modelning o'zi yo'q va bunday modelni yaratishni imkonli ham yo'q. Ushbu modellar har bitta sektorda va uning tarkibiy birliklari uchun alohida, shu davrning xususiyatlari jihatlarini hisobga olgan holda tuzib chiqilishi lozim.

5. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda, ulardan foydalanish

Bankrotlik bizning qonunchiligimizga, respublikamizda bozor munosabatlari rivojlana borib, erkin raqobatga tobora keng yo'l ochilgan, tadbirkorlarning nochor ahvolga tushib qolishi bilan bog'liq munosabatlari yuzaga kela boshlagan paytdan boshlab, ya'ni, bankrotlik holating vujudga kelishini huquqiy jihatdan tartibga solishning zaruriyatning ortishi bilan yangi huquqiy institut sifatida kirib keldi.

Xorijiy davlatlarda bankrotlik instituti katta muammoli masala sifatida tan olinadi. Ularda bu bob bir necha yuz yillar davomida qo'llanib kelimoqda. Jumladan, bankrotlik bilan bog'liq munosabatlari dastlab XVI asrning o'rtalarida qonun normalari bilan tartibga solina boshlangan. Aksariyat xorijiy davlatlarning qonunchiligiga ko'ra, kreditorlik qarz majburiyatini bajarish muddati boshlangan


kunning ertasidan boshlab, korxonani bankrot deb e'tirof etish mumkin. Ya'ni, korxonaning mol-mulki qiymatidan uning qarz majburiyatlari qiymati oshgan bo'lishi yoki kreditorlarning talablari ma'lum vaqt mobaynida ijro etilmayotgan bo'lishi ularning qonunchiligidagi talab qilinmaydi. Ammo shu bilan birga ularda bankrot deb e'tirof etilishi uchun korxonaning kreditorlik qarzining eng oz qiymati belgilab qo'yilgan. Masalan, AQSHda 5 ming dollar, Angliyada 750 funt sterling, Rossiyada eng kam oylik ish haqining 500 (jismoniy shaxslar uchun 100) baravari miqdorida va h. k.

Bankrotlik to'g'risidagi chet el tajribalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, bankrotlik to'g'risidagi qonunlar asosan ikki yo'nalishga yoki modelga ega.

Birinchisi; Buyuk Britaniya modeli bo'lib, bunda bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik bonkrotga uchragan korxonaga berilgan qarzlarni egasiga qaytarib berilishini ta'minlashga qaratilgan. Masalaning bunday tarzda qo'yilishi asosan korxonani tugatish asosida amalga oshiriladi.

Ikkinci model esa Amerika modeli bo'lib, bunda qonunchilik bonkrotga uchragan korxonani turli chora-tadbirlar yordamida to'lov layoqatini tiklab, xo'jalik faoliyatini davom ettirishiga qaratilgan.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida ham Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik ana shu ikki model asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda.



1-rasm. Bankrotlikni xalqaro modellari va ularni o'ziga xos xususiyatlari

Bankrotlikka oid qonunchilik jahon miqyosida 2 xil yo'nalishda rivojlanib bormoqda. Birinchi yo'nalishning mohiyati shundan iboratki (Angliya, Germaniya va boshqa davlatlarda), bunda bankrotlikka oid qonunchilikning mohiyati asosan nochor ahvolga tushgan korxonani tezroq tugatib (bankrot qilib), uning kreditorlari qarzini qaytarishga qaratilgan bo'ladi. Qonunchilikdagi ikkinchi yo'nalish bo'yicha (AQSH, Frantsiya va boshqa davlatlarda) rivojlanayotgan davlatlardagi bankrotlikka oid huquq normalarida nochor ahvolga tushgan korxonani imkon qadar saqlab qolib, uni nochor ahvoldan chiqarishga ko'proq e'tibor beriladi.

Respublikamizning 1994 yilda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunida yuqoridagi, ikki yo'nalishni birlashtirishga qaratilgan huquqiy normalar aks etgan edi. Ammo keyinchalik qabul qilingan qonunlar va qonun osti hujjatlarining mazmuniga e'tibor berilsa, bizda ham bu sohadagi qonunchilikda ikkinchi yo'nalishning xususiyatlari ko'proq namoyon bo'la boshladi, ya'ni, ularda qarzdorni nochor ahvoldan chiqarishga yondashuvlarga ustunlik berilishi seziladi. Qonunchiligidimizning bu yo'nalish bo'yicha rivojlanishi iqtisodiy jihatdan o'rinnlidir. Xuddi shu jihatlarni agrar sektorda xo'jalik subyektlarini iqtisodiy nochorlik batqog'idan qo'tqarishda qo'llanilgan chora tadbirlarda ham ko'rish mumkin. SHu sababli, Respublikamizda «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi Qonuning qabul qilinishi, amaldagi «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda aynan qishloq xo'jaligi korxonalariga oid maxsus huquqiy normalarning kiritilganligi ham bejiz emas. CHunki bu Qonularda iqtisodiy nochorlikka yuz to'tgan qishloq xo'jalik korxonalarini bankrot deb e'tirof etish xususiyatlari bilan birga bunday korxonalarning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarni himoya qilish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning chora-tadbirlari ham aniq belgilab berilgan.

Firma va kompaniyalarning faoliyatining iqtisodiy nochorligini o'rganishda baholanuvchi indiqatorlar MDH mamlakatlarida quyidagilar tarkibланади.

11-jadval

Moliyaviy inqirozlarni xavf xatarini aniqlash indikatorlari

| Moliyaviy inqirozlarni kuzatish obyektlari | Indikator ko'rsatkichlari | |
|--|---|---|
| | Umumiy ko'rsatkichlar | Tarkibiy ko'rsatkichlar |
| Korxonaning sof pul oqimi | 1. Korxona bo'yicha jami sof pul oqimi 2. Operatsion faoliyat bo'yicha sof pul oqimi | 1. Sof Pul oqimini yetarligi koefitsenti 2. Pul oqimini likvidlik dkoefftsenti 3. Pul oqimini samaradorlik koefitsenti 4. Sof pul oqimini reinvestitsiya koefitsenti |
| Korxonaning bozor qiymati | Korxona sof aktivlarining bozor qiymati bo'yicha summasi | 1. Korxonaning bozoor qiymati 2. Foydaning kapitallashuvni koefitsenti bo'yicha korxona qiymati |
| Korxona kapitali strukturasi | 1. Xususiy kapital summasi 2. Qarzga olingan kapital summasi | 1. Mustaqillik koefitsenti 2. Kapitallashuv koefitsenti 3. Moliyaviy barqarorlik koefitsenti |

| | | |
|---|---|--|
| Korxona moliyaviy majburiyatlar tarkibi | 1. Uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 2. Qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 3. Moliyaviy kreditlar summasi 4. Tovar (tijorat) krediti summasi 5. Hisob kitoblar bo'yicha joriy majburiyatlar summasi | 1. Korxonaning uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlar nisbati koefitsenti 2. Jalg kilingan moliyaviy va tovar kreditlari nisbati koefitsenti 3. Kechiktirib bo'lmaydigan harajatlarning jami majburiyatlardagi salmog'i koefitsenti 4. Kreditorlik majburiyatlarining aylanish koefitsenti, davri |
| Korxona aktivlari tarkibi | 1. Oborotdan tashqari aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasi 2. Oborot aktivlar summasi 3. Joriy debitorlik majburiyatlar summasi 4. Pullik aktivlar summasi | 1. Yuqori likvidlikka ega mablag'lar bilan ta'minlanish koefitsenti 2. Real pullik aktivlar bilan ta'minlanish koefitsenti 3. Joriy likvidlik koefitsenti 4. Kritik baholash koefitsenti 5. Mutlaq likvidlik koefitsenti 6. Oboorot aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koefitsenti 7. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar nisbati koefitsenti 8. Debitorlik majburiyatlar aylanish davriyiligi 9. Moliyaviy jarayonning davriyiligi |
| Joriy harajatlar tarkibi | 1. Joriy harajatlarning jami summasi 2. Doimiy joriy harajatlar summasi | 1. Joriy harajatlar darajasmi 2. Doimiy harajatlar daroji 3. Operatsion richag koefitsenti |
| Moliyaviy operatsiyalarining nochorlik zonasini bo'yicha kontsentratsiya darajasi | 1. Umumiy haf xatar | 1. Kritik xavf xatar koefitsenti 2. Xa'loqatli xavf xatar koefitsenti |

Xorijiy amaliyotida ko'pincha iqtisodiy nochorlikni baholashda U.Biverning metodikasidan foydalniladi. Iqtisodiy nochorlikni har bitta daylatga xos modeli bir biriga to'la to'kis mos tushmaydi. Buni bevosita shu davlatning moliyaviy shart sharoitlari, inflyatsiya darajalarini, moliyalashtirish, kreditlashning turlichaligi, soliq va byudjet siyosatin, hisob va amortizatsiya siyosati, ish unumi va samaradorligining turlichaligi va boshqa jihatlar bilan izohlash mumkin.

Nazorat savollar:

- Iqtisodiy nochorlikni mikro firma va kichik korxonalarda belgilash tartibi?
- Xususiy tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy nochorligini belgilash tartibi?
- Iqtisodiy nochorlik belgilari mavjud, mavjud emasligini belgilashdagi mezonlar?
- Iqtisodiy nochorlikni bashoratlash taomillari?
- Iqtisodiyo nochorlikni oldini olishda moliyaviy sog'lomlashtirish chora tadbirlarining ahamiyati?

- Iqtisodiy nochorlik yuzasidan tugatish jarayoni qaysi hollarda qo'llaniladi?
- Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishda resurlarni jalg etishning ichki va tashqi omillari?
- Iqtisodiy nochorlikni oldini olishda marketing tahlilini ahamiyati?
- Biznesni reinjenirlash deganada nimani tushunasiz?
- Iqtisodiy nochorlikda korxonani ixtiyoriy tugatish taomillari nimada?
- Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning modellari va ularning qo'llashni muammoli jihatlari nimada?
- Iqtisodiy nochorlikni aniqlashni rasmiy jihatlarini belgilashning muhimligi?
- Iqtisodiy nochorlikka tushishning ijobiy jihatlari ham mavjudmi?

25-bob. QIYOSIY TAHLIL VA MOLIYAVIY HOLATNI REYTING

BAHOLASH

Reja:

1. Qiyosiy tahlil
2. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashning ahamiyati.
3. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash tartibi.
4. Moliyaviy tahlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi.

Tayanch so‘zlar:

Qiyosiy tahlil, taqqoslash tahlilining shartlari, reyting baholash maqsadi, reyting baholashning xususiyatlari, iqtisodiy va moliyaviy reyting, “Odilona baholash,

1. Taqqoslama (qiyosiy)tahlili

Moliyaviy tahlilda qiyosiy tahlil turi – ko‘rsatkichlarni mutlaq va nisbiy ifodalarda keng doirada taqqoslash usuli sifatida ishlataladi.

Metodik jihatdan ushbu usul gorizontal va vertikal, trend tahlili usullariga o‘xshaydi. Lekin ulardan tubdan farq etadi. Gorizontal tahlil vertikal tahlil usuli bilan to‘ldiriladi, trend tahlil asosida uning ushbu obyekt buyicha doirasi kengayadi.

Taqqoslash (qiyosiy) tahlilida esa ushbu tahlil obyekti, yoki tahlil etilayotgan korxona bo‘yicha ma’lumotlar boshqa subyektlar ma’lumotlari bilan, normativ me’yorlar bilan, reja ko‘rsatkichlari bilan, tarmoq bo‘yicha o‘rtacha, ilg‘or ko‘rsatkichlar bilan ham taqqoslanishi nazarda tutiladi.

Taqqoslash (qiyosiy) tahlilida moliyaviy hisobot elementlari va moddalarining o‘zgarishiga, moliyaviy holatni harakterlovchi ko‘rsatkichlarga baho beriladi. Mutlaq ifodalar, nisbiy ifodalar bilan to‘ldiriladi.

Moliyaviy tahlilda taqqoslash (qiyosiy) tahlilining shartlari:

- taqqoslashni interval oraliqlar bir xilda olinishi;
- taqqoslash ko‘rsatkichlari bir xil o‘lchovli bo‘lishi;
- taqqoslashni bazaviy ko‘rsatkichi, normativ ko‘rsatkichlarini belgilab olishda rasmiy jihatlarga amal etilishi;
- taqqoslashning obyektlari bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalari bir hilda bo‘lishi;
- moliyaviy hisobot elementlari, moddalarini tarkiblash va ko‘rsatkichlarini aniqlash metodikasi bir xilda bo‘lishi lozim.

Taqqoslash usuli moliyaviy tahlilning ana’anaviy usullari qatorida eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanib undan tahlilning boshqa usullari bilan birlgilikda korxona moliyaviy holatini to‘la ochib berishda foydalilanadi. Bu jihat bilan qiyosiy tahlil ham moliyaviy tahlilning ham boshqaruv tahlilining usuli sifatida qaraladi.

1-jadval

Buxgalteriya balansini qiyosiy tahlili

| Kiyosiy ko‘rsatkichlar | To‘lov layoqati | Moliyaviy mustaqillik | Xususiy kapital rentabelligi |
|---|--------------------|--------------------------|---------------------------------|
| Joriy davr | 2.6 | 0.52 | 0.12 |
| Moliya rejasidi bo‘yicha | 2.5 | 0.55 | 0.15 |
| O‘tgan yilning shu davri | 2.2 | 0.53 | 0.15 |
| Normativ ko‘rsatkich | 3.0 | 0.50 | 0.10 |
| Ilg‘or korxona ko‘rsatkichi | 3.4 | 0.70 | 0.16 |
| Tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichi | 2.2 | 0.42 | 0.07 |
| Farqi+,- | | | |
| Moliya rejasidan | +0.1 | +0.03 | -0.03 |
| O‘tgan yilga nisbatan | +0.4 | +0.01 | -0.03 |
| Normativ ko‘rsatkichga nisbatan | -0.4 | -0.02 | +0.02 |
| Ilg‘or korxonaga nisbatan | -0.8 | -0.18 | -0.04 |
| Tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan | +0.4 | -0.10 | +0.05 |

Jadval ma’lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki joriy davrda korxonaning to‘lov layoqati (to‘lov majburiyatlarining to‘lov mablag‘lari hisobiga qoplanishi) 2.6 darajani tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichni moliya rejasidan (+0.1), o‘tgan yilga nisbatan (+0.4), tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan (+0.4) ijobji o‘zgarishga ega ekanligini, normativga nisbatan (-0.4), ilg‘or korxona ko‘rsatkichiga nisbatan (-0.8) past darajada ekanligini ko‘rish mumkin. Korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsenti moliya rejasiga nisbatan (+0.03), o‘tgan yilga nisbatan (+0.01) o‘sganligini, normativ ko‘rsatkichga nisbatan (-0.02), tarmoq bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan (-0.10), ilg‘or korxonaga nisbatan (-0.18) pastligini, rentabellik ko‘rsatkichi bo‘yicha esa moliya rejasiga va o‘tgan yilga nisbatan (-0.03), ilg‘or korxonaga nisbatan (-0.04) pastligini, normativga nisbatan (+0.02), tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan(+0.05) darajaga ortganligini kuzatish mumkin.

2. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashning ahamiyati

Moliyaviy hisobotni va uning shakllarini “o‘qish”ga olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi. «Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo’llari» deb nomlangan yoki «Kak chitat balans» deb nomlangan uquv adabiyotlaridan ham ko‘rish mumkinki, o‘qish so‘zi juda keng ma’noli tushuncha. Balansni qanday o‘kish mumkin, moliyaviy hisobotni o‘qish orqali nimalar bilanadi, o‘qish tahlil usulimi, tahlil o‘qishning usulimi bu kabi savollarga javob topish yuzasidan uning lug‘aviy ma’nosini tushunib olish lozim. O‘qish deganda adabiy tilda matnni o‘qish va tovushlarda ifoda etish tushuniladi. moliyaviy hisobotda esa bir yondashuv biroz murakkablashadi. Moliyaviy hisobotda matn yo‘q, unda faqat ko‘rsatkichlar, qatorlar va ularga tegishli raqamlar mavjud .

“O‘qish” so‘zi moliyaviy hisobotlar va ularning shakllariga nisbatan ishlatalishning mohiyati shundaki ushbu hisobotlar faqat rakamlar ifodasidagi ko‘rsatkichlarni tartibli joylashtirishdan iborat matnga o‘xshaydi. Matni o‘qish

mumkin faqat undagi raqamlar nimani ifoda etishini bilgan holdagina. Sodda qilib aytganda korxona moliyaviy ahvolini moliyaviy hisobot shakllarida raqamlarda yashirin so'zlar orqali bilib olishni harakterlaydi.

Moliyaviy hisobotni "o'qish"ni mazmunini nima tashkil etadi. Bizningcha moliyaviy hisobotni o'qish deganda ko'rsatkichlarni arifmetik hisob-kitoblarsiz uni mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

"Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari" deb nomlangan o'quv adabiyotida ham "Kak chitat balans" o'quv adabiyotida ham kitobning nomlanishida o'qish so'ziga urg'u berilgani bilan uning ichida "o'qish"ga tasnifiy jihatdan izoh berilmaydi.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda – korxonaning muayyan sanaga bo'lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishslash jarayonlar tizimi tushuniladi⁶⁰.

Yuqqoridagi manbalarda keltirilishicha buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish mazmunini quyidagilar tashkil etadi.

- korxonaning mulki, kapitali va majburiyatlarini baholash;
- kompaniya va firmalar to'lovga qobiligi va likvidlilik ko'rsatkichlarini aniqlash;
- korxonaning iqtisodi va moliyaviy salohiyati, uning smaradorligini baholash;
- korxonaning moliyaviy barqarorligi, bozor va ish aktivligi ko'rsatkichlarini baholash;
- korxonaning iqtisodiy nochorligi va uni sog'lamloslshitirish yo'llarini belgilash;
- korxonaning moliyaviy avvoli va uni yaxshilash yuzasidan muhxim takliflar xozirlash tashkil etadi.

Bu bilan buxgalteriya balansini "o'qish", tahlil etish bilan bir qatorga ko'yilmoqda. Ya'ni, turli nomlanishdagi bir hil jihatlarni harakterlovchi so'zga aylanib qolgan. Yuqqoridagi tarkiblashda uqish va tahlil qilish kabi so'zlarning ishlatalishida ularni bir mazmunda qarash ustunlik qiladi.

Buxgalteriya balansi asosida o'rganilanidan masalalar ko'lami nihoyatda kengki, ularni barcha adabiyotlarda bir xilda berilgan deyish qiyin. Masalan; ayrim manbalarda korxona mablag'larini harakatchanligi va aylanuvchanligi, ish aktivligi, moliyaviy barqarorligi buxgalteriya balansini tahlili bobsida berilgan xolda (A.Vahobov, A.Ibroximov, N.Ishonqulov «Moliyaviy va boshqaruv tahlili») boshqa manbalarda ushbu o'rganilanidan savollar alohida bob sifatida beriladi (Akramov E. «Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya» kitobi yoki Abdurakov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari», shuningdek, Pardaev M.K. «Moliyaviy tahlil», «Moliyaviy tahlil» adabiyotlarida esa boblar yanada bulaklanadi)

Moliyaviy hisobotni o'qishda, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi hisobot shakllaridagi ma'lumotlarning o'zaro mosligiga ham ahamiyat qaratiladi.

Masalan buxgalteriya balansida ayrim qatorlar boshqa moliyaviy hisobot shaklining tegishli qatorlari bilan mos kelishi lozim. Bu jihat moslikni, buxgalteriya balansining asosiy vositalar moddasini, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot shakli ma'lumotlariga mosligida, pul mablag'lari to'g'risidagi qatorini pul oqimi to'g'risidagi hisobot shaklining tegishli qatorlariga mosligida, xususiy kapital to'g'risidagi moddalarini xususiy kapital to'g'risidagi shaklning tegishli qatorlariga mosligida ko'rish mumkin.

Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish orqali korxona moliyaviy holatiga baho berishda o'rganilanidan masalalar kengligi sababli ularni bir tizimga solib olish talab qilinadi.

Bu holatni quyidagi o'rganilanidan boblar bo'yicha tuzib chiqish mumkin.

2-jadval

| Korxona moliyaviy holatini ifoda etuvchi birliklar | | | | | | |
|---|------------------------------|---|--------------------------------|--|--|--|
| Buxgalteriya balansini tahlili | | | | | | |
| 1.Aktivlar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili | | 2.Passivlar tarkibi, tuzilishi va diamikasi tahlili | | | | |
| 3.To'lov layoqati tahlili | 4.Likvidlik tahlili | 5.Moliyaviy barqarorlik tahlili | 6.Kreditga qodirlik tahlili | 7.Moliyaviy va iqtisodiy salohiyat tahlili | | |
| Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hamda bir xil jihatning boshqa tomonlarini aks ettiruvchi hisobotlar asosida o'rganiluvchi boblar | | | | | | |
| 8.Bozor aktivligini tahlili | 9.Ish aktivligini tahlili | 10.Moliyaviy holatni bashoratlash | 11.Majburiyatlar tahlili | 12.Iqtisodiy nochorlik tahlili... | | |
| 13.Reyting baholash | | | | | | |

Ushbu boblar bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi qolgan hisobot shakllari asosida o'rganilanidan boblar bilan to'ldiriladi va yakunida moliyaviy holatga to'liq baho beriladi.

Buxgalteriya balansini o'qish yuzasidan balans tuzuvchi korxonaga, uning mulkiy shakliga, faoliyat turiga, balans tuzilgan davriylikka, balans o'chovi va korxona yuridik manziliga tavsif berish birinchi bosqichda bajarilagan ishlar ketma ketligini harakterlaydi.

Uqishning keyingi bosqichida korxonaning jami aktivlari va ularning tashkil topish manbalariga, korxonada aktivlarning asosiy kapitalga va joriy kapitalga yo'nalitirilgan qismiga, malaglar manbasida qaysi manba turining (o'z va qarz) ustunligiga, moliyaviy faoliyat natijasi va uning qaysi shakllarda (pullik va pulsiz ko'rinishlarda) mavjudligiga, asosiy va nomoddiy aktivlarning holatiga, majburiyatlar va ularning nisbatiga, pul mablag'lari va ularning qo'proq qaysi shaklda turganligiga ahamiyat beriladi.

Buxgalteriya balansini gorizontal (bo'yamasiga) va vertikal (yonlamasiga) tahlili bo'yicha olimlar tomonidan turlicha qarashlarni mavjudligi uquvchini albatta e'tiborini tortadi. Masalan; prof. M.K. Pardaev o'zining «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida moliyaviy tahlilning asosiy shakllari sifatida gorizontal, vertikal,

⁶⁰ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 427 page.

dinamik, makon, nisbiy ko'rsatkichlar, omilli tahlilni keltirgan holda, shu erda gorizontall va vertikal tahlilga izoh beradi.

«Gorizontal tahlil - hisobot davrini o'gan yil ko'rsatkichlari bilan solishtirish» tahlilidir.

Vertikal tahlil - tarkibiy tahlil bo'lib tahlil qilinayotgan obyektni barcha qismlari bo'yicha o'rganish» dan iborat deyiladi.

Boshqa bir manbada gorizontal tahlil – moliyaviy holat tahlilida ko'rsatkichlarni davriy va dinamik o'zgarishlarini aniqlashni nazarda tutadi. (N.P.Lyubishin, N.E.Babicheva "Fiansoviy analiz" M.:Ekspo-2010, 41 bet)

Vertikal tahlil tarkibiy tahlil asosi hisoblanib, moliyaviy va boshqa hisobotlar, analitik jadvallargi ko'rsatkichlarni tarkilashni, tahlil etiladigan davrlar bo'yicha dinamik o'zgarishlarini harakterlaydi. Masalan balansning alohida qatorlarining balans jamida to'tgan ulushini aniqlash tartibi vertikal tahlilga misol bo'ladi. (N.P.Lyubishin, N.E.Babicheva "Fiansoviy analiz" M.:Ekspo-2010, 43-44 bet)

Professor V.Pozdnyakovning fikricha gorizontal tahlil deganda bazaviy ko'rsatkichlar (o'tgan yil, o'rtacha) nisbatan mutlaq va nisbiy o'zgarishlarini aniqlash nazarda tutiladi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, gorizontal tahlil solishtirish, taqqoslash usulining o'zidan iborat bo'lib qolmoqda.

Bizningcha, moliyaviy hisobotni gorizontal tahlili deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan qiyosiy o'rganishga aytildi.

Vertikal tahlil deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o'rganishga aytildi.

Tahlilda har ikkala usul eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usullar orqali kompaniya va firmalarini mulki, kapitali, majburiyatlarini umumiyl va tarkibiy o'zgarishlariga baho beriladi. Umumiy o'zgarishlar buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida olinsa, tarkibiy o'zgarishlar bugalteriya yoki moliyaviy hisobotga «tushuntirish xati» da beriladi.

Gorizontal va vertikal tahlilni fanga olib kirgan shaxsning nomini aniq keltirish qiyin. Negaki bu usul matematik ifodani iqtisodiyotda qo'llash bilan fanga kirib kelgan. Uning ilk iboralarini tahlilchilar SHeremet A.D., Sayfulin R.S., Kavalev V.V., Abdukarimov I.T., Pardaev M.Q., Isroilov B., Vaxobov A., Ibragimov A.T. E.Akramov, M.Raximov asarlariда uchratish mumkin.

Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili yuzasidan prof. I.f.d. E Akramov o'zining «Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya» kitobida gorizontal va vertikal tahlil yuzasidan prof. M.Q. Pardaev tomonidan bildirilgan fikrni to'la takrorlaydi. Faqat toqqoslash bazasi bo'yicha ular qarashlarda, farqni sezish mumkin. Ya'ni M.Q.Pardaev hisobot davri ko'rsatkichini o'tgan davr ko'rsatkichi bilan taqqoslasa, prof. E.Akramov tomonidan uning dinamik yoki bazis davriga nisbatan o'zgarishlarini taqqoslash tavsiflandi. Dinamik tahlil gorizontal tahlildan alohida farqlanadi. Bu farqlanish M.Q.Pardaevni «Moliyaviy tahlil» kitobida ham alohida tarkiblanadi.

Gorizontal va vertikal tahlil turlarini bir biridan ajratgan holda tasavvur qilish kiyin. negaki ularn birgalikda foydalanilgandagina mazmun kasb etadi. SHu sababli gorizonatal va vertikal tahlil turlari doimo bir butunlikda olib boriladi. Sodda qilib aytganda gorizontal tahlil yonlamasiga darajalarni, vertikal tahlil esa bo'yamasiga darajalarni haraterlaydi.

3. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash tartibi

Moliyaviy holatni reyting baholash orqali turli tashkilot va korxonalarning o'zora bir biriga nisbatan faollik darajasiga baho beriladi. ushbu jarayonni, bir tizimga, tarmoqka kiruvchi korxonalarga nisbatan makro kulamda o'rganish masalasi sifatida karash mumkin.

Ushbu masala ikkita jihat bilan harakterlanadi. Birinchi jihat bir nechta korxonalarning faoliyatini kompleks baholashning tahlil etuvchi tomonidan tarkiblangan muhim ko'rsatkichlar tizimiga tayangan holda taqqoslashni va ularni darajalar bo'yicha ketma ketligini belgilashni nazarda tutadi. Ikkinci jihat korxonalar o'rtasida etalon sifatida olingan bir nechta natijaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida utkaziladigan jarayonlar nazarda tutiladi.

Birinchi jihatda reyting baholash yuzasidan ko'rsatkichlar tizimi turlicha tanlanishi, ikkinchi jihatda esa rasmiy belgilangan ko'rsatkichlar tizimiga tayaniadi.

Alohida moliyaviy hisobot tuzuvchi, tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini reyting baholash orqali tarkiblash bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning kapitallashuv darjasasi bo'yicha raqobatdoshligini aniqlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Ushbu tushuncha bizning amaliyotga ilk bora oliy ta'limda, talabalar bilimini baholashda qo'llaniladigan usul sifatida foydalib kelinganligini ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda buxgalter va iqtisodchilar ushbu jaroyonning tashkil etilishini nafaqat nazariy jihatdan balki uni amaliy iofdalarida ham aktiv katnashmokdalar

Reyting baholash maqsadini korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash orqali ularning raqobatchililar va boshqa subyektlarga nisbatan qiyisy o'mini belgilab berish tashkil etadi.

Reyting baholashning quyidagi xususiyatlari tarkiblanadi.

-Baholashda ishlataladigan moliyaviy ko'rsatkichlar rasmiy chop etiladigan moliyaviy hisobotlarda aks etgan bo'lishi lozim;

-reyting baholashning ko'rsatkichlar tizimini tarkibiga: foydalilik ko'rsatkichlari, boshqaruvning samaradorligi ko'rsatkichlari, ish aktivligi ko'rsatkichlarini, likvidlilik darajasini va baqarorlik ko'rsatkichlari kiritiladi. Har bitta tarkibda uchtadan ettitagacha ko'rsatkich qatnashadi;

-reyting baholashda barcha tarkib ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajaga ega bo'lgan etalon korxona ko'rsatkichi asos qilib olinadi;

-reyting baholash asosida chiqariladigan xulosa moliyaviy holat tahlili xulosalaridan keskin farq etadi. va bunda korxonanini iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Reyting baholashda katnashuvchi koefitsent quyidagi talabalarga javob berishi lozim

-maksimal darajadagi axborotlikka ega bo'lishi;

-bir tamonlama harakaterga ega bo'lishi (masalan koefitsent o'sishi moliyaviy holatni yaxshilanishini harakterlashi lozim)

-barcha ko'rsatkichlar miqdoriy minimal normalarga ega bo'lishi lozim

-rasmiy, chop eitiladigan moliyaviy hisobot ma'lumtlari asosida hisoblanishi lozim.

Reyting baholash yuzasidan aniqlanadigan va hisob-kitob kilinadiagn formulani quyidagi birliklar nisbati orqali fioda etish mumkin.

$$R = \sum_{i=1}^n \frac{K_i}{L_i}, \quad (1)$$

Bunda L,-reyting baholashda aniqlanadigan kursaktchilar, N,-koefitsentni normativ talabi, K,-koefitsent 1/ L*, N,-indeks

Ushbu ko'rsatkichning 1 dan kichkina bo'lishi moliyaviy holatni konikarsiz ekanligini harkterlaydi.

Reyting baholashda eng ko'p ko'llaniladigan ko'rsatkichlar qatoriga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi.Bular:

1.O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koefitsenti.

Kt=O'z mablag'lari manbasi (UMM)+Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UMKQ)-Uzoq muddatli aktivlar(A)/ Jami aktivlar (JA)

2.Balans likvidligi

Kt=Joriy aktivlar (JA) / Joriy majburiyatlar (JM)

3.Avanslangan kapital aylanuvchanligi

Ka=Sotishdan tushum/Avanslangan kapital*365

4.Korxona boshqaruvining samaradorligi

Ks=Sotishdan olingen foyda/ Sotishdan tushum

5.Xususiy kapital rentabelligi

Kk=Soliq

to'loviga kadar foyda/Xususiy kapital

Rossiya amaliyotida ko'p qo'llaniladiagan ushbu metodik yondashuv yakunida reyting bahosi quyidagi formula asosida hisob-kitob kilinadi.

$$R=2Kt+0.1Kl+0.08Ka+0.45 s+ Kk \quad (7)$$

Ushbu amaliyot bonkrotlikni, iqtisodiy nochorlikni aniqlashda xorijda ko'llaniladigan modellarga uxshab ketadi.

4. Moliyaviy tahvilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi

Buxgalteriya balansi tahvilini oxirgi bosqichi - tahvil natijalarini yakuniy xulosalarini chiqarish va rasmiylashtirish hisoblanadi.

Yakuniy xulosada, kompaniya va firmalarni mulkiy holati, ularning manbalanishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, kompaniya va firma to'lovga qobiligi, likvidliligi, moliyaviy mustaxkamlik va barqarorligini tashxisi qo'yiladi.

Bu tashxis asosida - kompaniya va firmalarning iqtisodiy reyting bahosini ham berish mumkin. Kompaniya va firmalarni buxgalteriya balansi asosida iqtisodiy va moliyaviy reytingini aniqlashning uslubiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-kompaniya yoki firmani iqtisodiy va moliyaviy salohiyati;

-kompaniya yoki firmaning mulkiy jamg'armasi, aktivlar va passivlar real qiymati;

-kompaniya yoki firmaning to'lovga qobiligi;

-kompaniya yoki firmaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligi;

-kompaniya yoki firma mablag'larini harakatchanligi (likvidliligi).

Tahvil natijalarini rasmiylashtirishni uslubiy tartibida xulosalarini aniq va ravon tilda bayon etilishiga, yutuq va kamchiliklarni asosligiga, o'rinni va obyektivligiga, yuzaga kelish va o'zgarishlarni davriyligiga, tahvil yakuni bo'yicha kompaniya, firma boshqaruvini optimal strategiyalarini (chora, tadbirlar) belgilab olinishiga ahamiyat berish lozim.

Korxona mol-mulki(aktivlari)ni odilona baholashni jorij tajribalari⁶¹

Mulkni "odilona baholash"- moliyaviy hisobotlarni tuzishning eng muhim boblaridan biri hisoblanadi. Uning, g'oyaviy mualliflaridan biri Raymond Djon Chambers hisoblanadi. Chambers g'oyaviy qarashlarida inflyatsiya ta'sirida aktivlarni real qiymatini aniqlashning usullari ilgari suriladi.

"Odilona baholash"ning ingliz tilidan tom ma'nodagi tarjimasiga nisbatan odatda turlicha so'zlar ishlataladi.Masalan "haqqoniy baholash", "aniq baholash", "qonuniy baholash", "qoidaviy baholash".

Dastlab, odilona qiymatni aniqlashga qayta baholashning muhim vositasi sifatida qaralgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, 32 (MFSO) standartiga muvofiq moliyaviy instrumentlarni mustaqil baholashning birinchi harakatlari boshlandi va bu holat buxgalteriya hisobida yangi bir davrni, o'zgarishni ochib bergen. Bu holat, investitson va moliyaviy aktivlar, valyuta balansi qiymatini o'zgartirgan holda ularning moliyaviy natijalarga ta'sir etmagan.

Odilona baholash balans moddalarini tuzish paytiga xaqiqiy qiymati bo'yicha hisob-kitob qilinishini harakterlaydi.

⁶¹ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 401 page.

“Odilona baholash” korxonaning mulki, ishlab chiqarish harajatlarining qiymati uning faoliyatiga bog’liq bo’lmagan holda bozorning ta’siridagi o’zgarishlarni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy holati va uning moliyaviy natijaviyligini qayta baholashni izohlaydi. Ya’ni subyektivizmning ta’siridagi xoli bo’lgan moliyaviy hisobotlar tuzish talabini xal etadi.

Hozirgi hisobchilik tizimida, xalqaro maydonda odilona baholashning quyidagi xususiyatlari harakterlanadi.

Qo’llash soxasi: “Odilona baholash”ning qo’llanish soxasi cheklangan. Ushbu usul aniq mulkiy birliklarga nisbatan (investitsion mulkka, biologik aktivlarga, moliyaviy instrumentlarga, aktivlarning alohida tarkiblari)ga nisbatan yoki jarayonlarning ayrim turlariga (biznesni birlashtirish, asosiy vositalarni qayta baholash, tekinga olinadigan qiymatliklarni baholash va h.k.) nisbatan qo’llaniladi.

Hisoblash tartibi: – xaqqoniylar baholash xo’jalik faoliyatining aktivlari va jarayonlariga nisbatan farqlanadi.

Aktivlarni odilona baholash korxonalarining moliyaviy natijaviyligiga, jarayonlarni odilona baholash esa kapitlashuv jarayoniga ta’sir etadi. Biologik aktivlarning (boquvdagi va ustiruvdagi jonivorlar, o’simliklar) odilona baholanishidagi o’zgarishlar foyda va zararlarga, asosiy vositalarni qayta baholanishi esa korxona kapitalining o’zgarishiga olib boriladi.

Biologik aktivlar “odilona baholash” kabi hisobning yangi tushunchasidir. MHXS ga muvofiq biotransformatsiyalashuvni boshqarishni nazarda tutuvchi qishloq xo’jalik faoliyatni biologik aktivlardan qishloq xo’jligi mahsulotlarini yaratishni yoki qo’shimcha biologik aktivlarni etishtirishni nazarda tutadi. Baholash tartibi. Odilona baholash aktivlarning turiga va ular qiymatining o’zgarish darajasiga bog’liq.

Odilona qiymat raqobatbardosh bozor baholariga (sotuvchi va oluvchilarning axborotlar to’liqligiga tayangan holda dallolsiz kelishuvlarga) tayangan holda aniqlanadi. Agar aktivning bozor bahosini aniqlash imkon bo’lmasa ulardan foydalanish va xizmat ko’rsatish muddatlarida keltiradigan daromadligiga qarab aniqlanadi. Agarda, aktivlarning kelgusida, daromad keltirishini aniqlash imkon bo’lmasa qayta tiklash qiymati bo’yicha baholanadi. Ayrim va juda kam kuzatiladigan hollarda, ya’ni yuqorida keltirilgan usullardan birontasi odilona qiymatni aniqlash imkonini bermasa, u holda dastlabki qiymat bo’yicha hisob-kitob qilinadi.

Nazorat savollar:

1. Buxgalteriya balansini tahlil etishda uning dastlabki tekshirish zarurligini izohlang?
2. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili deganda nimani tushunasiz?
3. Buxgalteriya balansini trend tahlili mazmunini tushuntiring?
4. Koeffitsentlar va ularni korxona moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyatini tavsiflang?
5. Moliyaviy koeffitsentlarni qanday turlarini bilasiz?

26-bob. KORXONANING MOLIYAVIY NATIJALARINI IFODALOVCHI KO’RSATKICHLAR TAHLILI

Reja

1. Moliyaviy natijalar tahlilining mazmuni va asosiy vazifalari.
2. Mahsulot(ish,xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija va uning o’zgarish sabablari tahlili.
3. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajmi darajasi va tahlili
4. Asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zararlar tahlili
5. Asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zararlar tahlili.
6. Umumho’jalik faoliyati va soliq to’lagunga qadar moliyaviy natijalarning tahlili.
7. Foydaning ishlatilishi taxlili.

Tayanch so’zlar:

Foyda, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, asosiy faoliyatdan ko’rilgan foyda, umumho’jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar, favqulotdagi vaziyatlar natijasidan ko’rilgan foyda yoki zarar, foyda (daromad)dan to’langan soliqlar.

1. Moliyaviy natijalar tahlilining mazmuni va asosiy vazifalari

Bozor munosabatlaringin rivojlana borishi korxonalarining moliyaviy natijasini belgilovchi muhim omil sifatida foydaning rolini oshiradi. CHunki foyda korxonalarining kelgusi ravnaqi, ishchi-xizmatchilarni ijtimoiy ximoyalashni ta’minlovchi asosiy manbadir. SHuningdek, davlat byudjeta daromadining aksariyat qismi xam foydadan to’lanadigan soliq; hisobidan to’ldiriladi. SHu tufayli ahamiyati muhimligini hisobga olgan xolda moliya organlari, soliq; inspeksiysi, auditor va ichki xo’jalik (hisobchi, iqtisodchi) mutaxassislaridan foydaning shakllanishi va ishlatilishini muntazam nazorat kdlib turish talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti lug’atida foyda — bu buxgalteriya tushunchasida daromadning kupayganligini anglatadi deb ta’riflangan. SHuningdek, foyda korxona va firmalarning mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan, asosiy va umumho’jalik faoliyatlar natijasidan hamda favquloddagi vaziyatlardan so’ng o’z barcha xarajatlarini qoplab, ko’shimcha olgan daromadlar yigindisidan iboratdir deb tushunish xam mumkin. SHemak, olingan foydani taxlil qilishda, daromadning ko’paygan yoki kamayganligi, uning o’zgarish sabablari va bunga ta’sir etuvchi omillar o’rganilishi lozim.)

Moliyaviy natijani taxlil kilishda asosiy vazifalar:

- yilning sof foydasi xamining o’zgarishiga baxo berish;
- foydaning kupaygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshkd faoliyatlardan erishilgan natijaning ta’sir etishini aniqlash;
- foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;
- foyda hajmining kupayish yullari va omillarini belgilash va h.k.

Taxlil mazmuni sof foyda tarkibini, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan ko’rilgan moliyaviy natija va uning o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash,

asosiy ishlab chikarish faoliyati natijalari, moliyaviy va investitsiya faoliyatlarini natijasi, favquloddagi vaziyatlar natijalari, soliq to‘lagunga qadar, foyda va korxona ixtiyorida qolgan yilning sof foydasi hajmini o‘rganishdan iboratdir. Taxlilni amalga oshirishda asosiy manba bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiklagan 2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» ma’lumotlari hamda 15-«Jurnal order», «Foya va zararlar», «Foydaning ishlatalishi», «Taqsimlanmagan foyda» sintetik schyotlaridagi ko‘rsatkichlardan foydalilanadi.

Firma va kompaniyalarning sof foydasi quyidagilardan tashkil topadi:

- Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda.
- Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda.
- Umumho‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar.
- Favqulotdagи vaziyatlar natijasidan ko‘rilgan foyda yoki zarar.
- Foyda (daromad)dan to‘langan soliqlar.

SF=YAF±AFF±UF±TF

Bunda:

SF — yilning sof foydasi.

YAF — mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda.

AF — asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zarar.

UF — umumho‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar.

STF — soliq to‘lagungacha olingan foyda yoki zarar

Yilning sof foydasi, firma va kompaniyalarning rivojlanishinnig birdan-bir manbasi hisoblanadi. Olingan daromad hajmiga qarab, mustaqil mahsulot ishlab chikaruvchi firma va kompanianing ishlab chikarish va moliyaviy faoliyatiga baxo beriladi. Foya firma va kompaniya faoliyatining asosiy manbai hisoblanib, uning hajmini ko‘payganligi, o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlash va moliyalashga, kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishga hamda mehnat jamoasining ijtimoiy talabini krndirishga ishlatalidi. Shuningdek, olingan foyda hisobidan byudjet, bank va boshqa tashkilotlarga bo‘lgan to‘lov majburiyatlarini bajariladi. Demak korxona moliyaviy natijasini tahlil kilishda foydaning tashkil topishi va ishlatalishimi o‘rganish lozim.

Amaldagi nizomga muvofiq, firma va kompaniyalarning sof foydasi barcha faoliyatlar natijasidan aniqlidanadi. Jumladan mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan olingan moliyaviy natija, asosiy faoliyat natijalari, moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan foyda yoki zararlar hamda favqulotdagи vaziyatlar natijasida olingan zarar (foyda)larning yigindisidan iboratdir. Korxonaning yillik sof foydasi tarkib va uning o‘zgarishiga baxo berish ma’lumotlari 1-jadvalda keltirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, korxonaning hisobot davridagi sof foydasi 14 mln. 865 ming so‘mga ko‘paygan. Bunga asosiy sabab mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natijaning o‘tgan yilga nisbatan 57 mln. 300 ming so‘mga ko‘payganligi sabab bo‘lgan, lekin korxonaning davriy xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko‘rilgan sarflarning salkam 34,5 mln. so‘mga ortganligi hisobot davrining sof foylesi hajmini kamayishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. SHuningdek, foydadan to‘langan soliqlarni o‘tgan yilga nisbatan 11,7 mln. so‘mdan yuqoriroqda kupayish ham foyda hajmining kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda,

hisobot davrining sof foydasini 14 mln. 865 ming so‘mga o‘tgan yilga nisbatan ko‘payganligi korxona uchun yaxshi holatdir.

1-jadval

Yilning sof foydasi va uning tarkibining tahlili

| Ko‘rsatkichlar | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | Uzgarishi (+/-) | |
|---|-------------|------|-------------|------|-----------------|-------|
| | Ming so‘m | % | Ming sum | % | Ming sum | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6=4-2 | 7=5-3 |
| 1. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija | 89664 | 100 | 146964 | 100 | 57300 | |
| 2. Davriy xarajatlar va asosiy faoliyatning boshqa jara yonlaridan daromadlar yoki xarajatlar | 45615 | 50,8 | 80097 | 54,5 | 34482 | 3,7 |
| 3. Asosiy ishlab chikarish faoliyatining moliyaviy natija | 44049 | 49,1 | 77293 | 52,5 | 33244 | 3,4 |
| 4. Umumho‘jalik faoliyatining moliyaviy natija | 51726 | 56,6 | 77341 | 52,6 | 26604 | -4,0 |
| 5. Favquloddagi foyda yoki zarar | — | — | — | — | — | — |
| 6. Soliq to‘lagunga qadar umumiyl moliyaviy natija | 50737 | 56,6 | 77341 | 52,6 | 26604 | -4,0 |
| 7. Foydadan soliq, va boshqa soliq, ajratmalar | 19031 | 21,2 | 30770 | 20,9 | 11739 | -0,3 |
| 8. Hisobot davridagi sof foyda | 31706 | 35,3 | 46571 | 31,7 | 14865 | -3,6 |

2. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija va uning o‘zgarish sabablari tahlili

Firma va kompaniyalarning hisobot davr sof foydasini aksariyat qismi mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatigan xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija tashkil etadi. Bu quyidagi tartibda hisoblanadi:

bunda:

YAF - yalpi fonda.

MT — mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushum.

KDS — ko‘shilgan qiymat solig‘i.

Aks — aksiz solig‘i.

IT — sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan tushum hajmi firma va kompaniyalarning kanday baxolarda va kimlarga o‘zлari ishlab chiqqargan mahsulotlarini sotishligiga, shartnomada ko‘zdautilgan baxolarning miqdoriga bog‘liqdir. Yalpi tushumni bilish uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning tegishli satridan o‘tgan yilgi va hisobot davridagi ma’lumotlaridan qaraladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i normasi esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining xar yil uchun tasdiqlagan soliq konunida ko‘zdautilgan tartibda

belgilanadi, masalan, 2006- yil uchun qo'shilgan qiymat soligi 20% deb ko'zda tutilgan. Ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim mahsulotlar jumladan: sut va sut mahsulotlari, go'sht, un, sotib olinayotgan don va tirk vazndagi mollar uchun 15% li qo'shilgan kiymat soliq stavkasi belgilangan. Aksiz solig'i muhim ahamiyat kasb etmaydigan tovarlar, ya'ni: spirtli ichimliklar, aroq va konyaklarga va balzamlarga 82%, vinolarga 55%, shampan va boshqa vinolar uchun 30%, sigaretlar uchun 32—45%, tilla va tilladan tayerlangan zebu-ziyinlar uchun 30%, neft mahsulotlari: benzin 40%, o'simlik yog'i 77%, xo'jalik sovunlariga 20%, UzDEU ko'shma korxona avtomobilari uchun 25%, mebellar va xrustal idishlar uchun 5%, video va audio apparatlar uchun 15% li stavkalarda belgilangan.

Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chikarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga qarab, quyidagi turlardan iboratdir:

- ishlab chikarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chikitlar qiymati chikarib tashlangan xolda);
- ishlab chikarish xususiyatiga ega bulgan mexnatga xak to'lash xarajatlari;
- ishlab chikarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida foyda kurmasdan ishlaydigan korxonalar bo'lmasligi kerak. Xarajatlarni daromadlari koplamaydiganla qarz (kredit) hisobiga yashashadi. Bu esa moliyaviy axvolni og'irlashtiradi va pirovard natijada korxona sinadi. SHuning uchun foyda ko'rish korxonalarining yashashi raqobatlarga bardoshligi kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy manbai hisoblanadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum o'tgan yilga nisbatan 176 mln. 465 ming so'mga yoki 66,9% ga kupaygan, lekin sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi xam o'tgan yilga nisbatan 119 mln. 165 ming so'mga yoki 68,4% ga oshib ketgan. Bular natijasida korxonada sotishdan olgan yalpi moliyaviy natija 57 mln. 300 ming so'mga yoki 63,9% ga ko'paygan. Korxona faoliyatini uchun o'tgan yilga nisbatan mahsulotlar sotishdan sof foyda hajmining kupayganligini ijobji holat deb karashimiz lozim.

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija hajmi quyidagi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin.

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish baxosining o'zgarishi.
2. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxini o'zgarishi.
3. Sotish hajmining o'zgarishi
4. Boshqa sabablar (sotilgan mahsulotlar tarkibining o'zgarishi, korxonalararo iqtisodiy alokalarni o'zgarishi va x.k.).

2-jadval

Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijaning tahlili

(ming so'm hisobida)

| Ko'rsatkichlar nomi | utgan yil | hisobot yil | Farqi (+;-) | |
|---|-----------|-------------|-------------|--------|
| | | | mutlok | nisbiy |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. Mahsulot sotishdan tushgan tushum | 311295 | 529146 | 217851 | 69,9 |
| 2.KQS | 47486 | 88872 | 41386 | 87,1 |
| 3. Aksizlar | — | — | — | — |
| 4. Sotishdan olingen sof tushum | 263809 | 440274 | 176465 | 66,9 |
| 5. Sotilgan mahsulotlarning ishlab chikarish tannarxi | 174145 | 293310 | 119165 | 68,4 |
| 6. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija | 89664 | 146964 | 57300 | 63,9 |

Bu omillarning xar birini yalpi moliyaviy natijaga ta'sirini tahlil etish quyidagi tartibda bajariladi. Mahsulot sotishdan olingen yalpi moliyaviy natija 57,3 mln. so'mga yoki 63,9 foizga ko'paygan ($146964 / 89664 \times 100$). YAlpi foydanie o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etgan:

- mahsulot (ish, xizmat)larning urtacha sotish baxosini uzgarishi — 440274—326420=113,85 mln. sum
- Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini o'zgarishi — 293310—220700=72,610 mln. so'm yoki bu yalpi foydani kamaytirgan.
- Sotish hajmining o'zgarishi — $326420 / 263809 \times 100 = 123,07$ foiz yoki $89664 \times 23,7 / 100 = 21,250$ mln. so'm.
- Boshqa omillar (sotish tarkibi, mahsulot turlari, xo'jaliklararo iqtisodiy aloklarning o'zgarishi va h.k.)

3-jadval

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan ko'rilgan yalpi moliyaviy natijaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

(m i n g sum h i s o b i d a)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Xaqiqiy sotilgan mahsulot (o'tgan yil baxoda) | hisobot yil |
|--|------------|---|-------------|
| 1. Sotishdan olingen sof tushum | 263809 | 326420 | 440274 |
| 2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxi | 174145 | 220700 | 293310 |
| 3. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija | 89664 | 105720 | 146964 |

$$105720 - 89664 = 16056, ya'ni 16056 - 21250 = -5,2 \text{ mln. so'm}$$

Jami omillar yig'indisi 113,85 — 72,6+21,25 — 5,2 = 57,3 mln. so'm. Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindiki, mahsulotlarning sotish baxosi va sotish hajmining o'zgarishi, yalpi moliyaviy natijaga ijobji, sotilgan mahsulot (ish,

xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxining o‘zgarishiga va tarkibiy o‘zgarishlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Xar bir firma va kompaniya mahsulotlar sotishdan olinadigan tushumni kamayishiga sabab bo‘lgan omillarni kelgusida tugatishga choralar ko‘rishi lozim, chunki sof tushum moliyaviy natijani, ya’ni foydani ko‘paitirishning eng asosiy manbайдир. Amaldagi korxonalar faoliyatida mahsulot sotishдан mumaygina foyda olsada, boshqa faoliyatlardan zarar ko‘rib, yakuniy natijaning mo‘ljaldagiday bo‘lishiga salbiy ta’sir etmokdalar.

Korxonada mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan yalpi moliyaviy natija hajmining o‘zgarishini, ya’ni 57,3 mln. sumni 100 foiz belgilansa, shundan 198,7 foizi sotish baxosini oshganligi, — 126,7 foizi sotilgan mahsulotlarni ishlab chikarish tannarxini oshganligi, 37,1 foizi sotish hajmining o‘zgaganligi va -9,1 foizi boshqa sabablar ta’sirida o‘zgargan.

4-jadval

Yalpi moliyaviy natijaning uzgarish sabablarini umumlashtirish

| Ko‘rsatkichlar | Mln. so‘m | Jamiga nisbatan foiz |
|---|-----------|----------------------|
| Yalpi moliyaviy natijaning uzgarishi | 57,3 | 100 |
| Bunga ta’sir kursatgan omillar | | |
| a) mahsulot (ish, xizmat)lar sotish baxrsining uzgarishi | 113,85 | 198,7 |
| b) sotilgan mahsulotlarning ishlab chikarish tannarxini uzgarishi | -72,6 | -126,7 |
| v) sotish hajmining uzgarishi | 21,25 | 37,1 |
| g) boshqa sabablar | -5,2 | 9,1 |

3. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajmi darajasini va tahlili

Bir firma va kompaniya mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmini kupaytirish imkoniyatiga egadir, lekin hajmning keskin oshishi tushumni (foyda) kamayishiga ta’sir etadi. Foyda olishning eng quyi va yuqori chegara hamda imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Ya’ni korxona ushbu chegaraviylikdan quyi holatlarda zararga, yuqori holatlarda foyda ishlashini karakterlaydi. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini belgilash, iqtisodiy harakatni boshqarishda va biznesni yulga quyishda muhim masala hisoblanadi.

Taxlil etishda mahsulot ishlab chikarishning kritik hajm darjasini belgilanishiga, uning o‘zgarish oraliqlariga va sabablariga ahamiyat beriladi. Kritik hajm darjasining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarga: mahsulotlar birlik baxolarining o‘zgarishi, bir-birlikka o‘zgaruvchan xarajatlar o‘zgarishi, doimiy xarajatlarning o‘zgarishi kiritiladi. Bu omillar bevosita hisob-kitob qilinadigan omillar hisoblanadi.

Kritik hajm darjasini aniqlashning odatda bir necha usullari mayjud. Quyida ularning aniqlanish uslubi va tartibi bilan tanishishimiz mumkin. Kritik hajm

darajasini grafik shaklida ifodalash uning mazmunini tuli anglashga imkon beradi. Buni bevosita quyidagi ifodadan xam kurish mumkin. Kritik hajm darjasida mahsulot ishlab chikarishning fizik hajmi kat’iy baxolarda va doimiy xarajatlarda belgilanadi. Uning o‘zgarishi esa ta’sir birlklari farqlanishlari va bog‘lanishlari asosida aniqlanadi.

4. Asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zararlar tahlili

Asosiy faoliyatdan kuriłgan foyda yoki zarar bu mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foydadan davr xarajatlarning ayirmasi va boshqa asosiy faoliyatdan daromadlar yoki zararlar xarajatlarning algebrlik yig‘indisidan iboratdir.

Bu kuyidagi tartibda aniqdaniši mumkin.

AFF=YAF-DX+BD-BZ

bunda:

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda

YAF — yalpi foyda

DX — davr xarajatlari.

BX — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

BZ — asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

Davr xarajatlari devilganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘lik bo‘limgan xarajatlar va sarflar tushuniladi: sotish xarajatlari, ma’muriy xarajatlar va boshkd jarayonlar xarajatlardan iboratdir.

Sotish bilan borlik xarajatlarga: tovarlarni transport vositalari yordamida tashish xarajatlari, tovarlarni sotishda qatnashuvchi xodimlarga mexnat xaqi to‘lash va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, savdo extiyojlari uchun foydalananiladigan binolar, inshootlar va kurilmalarni asrash xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, gaz, yokilgi, elektr energiyasi xarajatlari, arzon baxoli va tez eskiruvchan buyumlarning eskirishi, tovarlarni saklash, ularga ishlov berish, kadoklash va sortlarga ajratish xarajatlari, savdo reklamasi xarajatlari, kassa apparat» va tushum iikassatsiyasi yuritish chiqimlari, sotish bozorini o‘rganish buyicha xarajatlar va boshqa sotish bilan bog‘lik sarflar tushumiladi.

Ma’muriy xarajatlarga esa: boshkdruv xodimlarini mexnat xaqi va ularga tegishli ijtimoiy sug‘urta ajratmalar, xizmat engil avtotransporti va mikroavtobuslarni saqlash, ishlatis, yollash va ijara olish xarajatlari, xo‘jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bulinmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari, boshqaruvda xizmat qilayotgan texnik vositalar, aloqa uzellari, hisoblash markazlari, signalizatsiya vositalari va boshqaruvga oid texnik vositalarni saqlash, foydalinish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari, shaxarlararo va xalqaro telefon so‘zlashuvlari uchun to‘langan sarflar, ma’muriy boshqaruv extiyojlari uchun foydalilanayotgan binolarni amortizatsiyasi va saqlash xarajatlari, vazirliklar, idoralar va yuqori tashkilotlarga ajratmalar, boshqaruv xodimlarini

xizmat safarlariga yuborish xarajatlari, korxonaning vakillik xarajatlari va boshqa xarajatlari kiradi⁶².

Boshqa operatsion xarajatlari kuyidagilar kiradi: kadrlar tayyorlash va ularni kayta tayyorlash xarajatlari, loyixa va qurilish-montaj ishlarda chalalikni bartaraf etish xarajatlari, maslaxat va axborot xizmatlariga hak to'lash, auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar, salomatlikni muxofaza qilish va xodimlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lмаган dam olishlarni tashkil etish tadbirlar xarajatlari, shaxar obodonchilik ishlari va qishlok, xo'jaligiga yordam berish bilan bog'lik, xarajatlar, kompensatsiya va rag'batlantrish tusidagi to'lovlar ish xaqi hisoblashda e'tiborga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlari, ya'ni moddiy yordam, sog'likni saklash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar muktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport obyektlarini asrash xarajatlari, vaktincha to'xtatib quylgan ishlab chiqarish kuvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari, bank xizmati uchun to'lovlar, xar xil xayriya jamg'armalari, ekologiya, sog'lomlashtirish, madaniyat, xalk ta'limi, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va shu kabi tashkilotlarga badallar, byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar va yig'malar va byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar, zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa xarajatlardan iboratdir.

Asosiy ishlab chik.arish faoliyatidan olingan boshqa daromadlarga kuyidagilar kiradi:

- Undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof kilingan jarimalar va penyalar.
- Hisobot yilda aniqlangan utgan yilga tegishli fonda.
- YOrdamchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoklar (oshxona va x..k.)dan olingan tushumlar.
- Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol-mulkarni sotishdan olingan daromadlar.
- Da'veo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.
- Tovar-moddiy boyliklarni kayta baxolanishdan ko'rilgan natijalar.
- Davlat subsidiyalardan daromadlar.
- Xolisona moliyaviy yordam.
- Boshqa operatsion daromadlar.

Asosiy ishlab chikarish faoliyatining moliyaviy natijasining tahlili quyidagi 6-jadval keltirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada asosiy ishlab chikarish faoliyatidan olingan moliyaviy natija, o'tgan yilga nisbatan 33 mln. 244 ming so'mga ko'paygan yok uning sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijada tarkibidagi salmog'i 3,5% ga ortgan. Bunga asosiy sabab, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan yalpi moliyaviy natijaning 57,3 mln. so'mga kupayganligi ta'siridadir. Lekin o'tgan yilga nisbatan asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan xarajatlarni 22 mln. 866 ming so'mga, ma'muriy xarajatlarni 9 mln. 377 ming so'mga va sotish xarajatlarining 2 mln. 239 ming so'mga ko'payib ketganligi foyda hajmini kamayishiga sabab bo'lgan. Yalpi

moliyaviy natija tarkibida ma'muriy xarajatlar ulushining 3,7% ga kupaytanligi xam e'tiborni qaratadi. CHunki boqaruv xarajatlarining kupayishi ijobiy holat deb bo'lmaydi.

5-jadval

Asosiy faoliyatdan moliyaviy natijalar tahlili

| Ko'rsatkichlar | Utgan yil | | Disobot yili | | Uzgarish (+,-) | |
|--|-----------|------|--------------|------|----------------|-------|
| | Ming so'm | % | Ming so'm | % | Ming so'm | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6=4-2 | 7=5-3 |
| 1. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija | 89664 | 100 | 146964 | 100 | 57300 | — |
| 2. Sotish xarajatlari | 5309 | 5,9 | 7548 | 5,1 | 2239 | -0,8 |
| 3. Ma'muriy xarajatlari | 6348 | 7,0 | 15725 | 10,7 | 9377 | 3,7 |
| 4. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar yoki xarajatlari | 33958 | 37,9 | 56824 | 38,6 | 22866 | 0,7 |
| 5. Asosiy ishlab chi-karish faoliyatining moliyaviy natijasi (1-2-3+4) | 44049 | 49,1 | 77293 | 52,6 | 33244 | 3,5 |

5. Asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zararlar tahlili

Asosiy faoliyatdan kurligan foyda yoki zarar bu mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foydadan davr xarajatlarning ayirmasi va boshqa asosiy faoliyatdan daromadlar yoki zararlar xarajatlarning algebrlik yig'indisidan iboratdir.

Buyuidagi tartibda aniqdanishi mumkin.

AFF=YAF-DX+BD-BZ

bunda:

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda

YAF — yalpi foyda

DX — davr xarajatlari.

BX — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

BZ — asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

Davr xarajatlari deyilganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lik bo'lмаган xarajatlari va sarflar tushuniladi: sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlari va boshkdjarayonlar xarajatlardan iboratdir.

Sotish bilan borlik xarajatlarga: tovarlarni transport vositalari yordamida tashish xarajatlari, tovarlarni sotishda qatnashuvchi xodimlarga mexnat xaqi to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, savdo extiyojlari uchun foydalilaniladigan binolar, inshootlar va kurlilmalarni asrash xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, gaz, yokilgi, elektr energiyasi xarajatlari, arzon baxoli va tez eskiruvchan buyumlarning eskirishi, tovarlarni saklash, ularga ishlov berish, kadoklash va sortlarga ajratish xarajatlari, savdo reklamasi xarajatlari, kassa apparat» va tushum iikassatsiyasi yuritish chiqimlari, sotish bozorini o'rganish buyicha xarajatlari va boshqa sotish bilan bog'lik sarflar tushuniladi.

² Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 322 page.

Ma'muriy xarajatlarga esa: boshkdruv xodimlarini mexnat xaqi va ularga tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari, xizmat engil avtovansporti va mikroavtobuslarni saqlash, ishlatalish, yollash va ijara olish xarajatlari, xo'jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bulinmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari, boshqaruvda xizmat qilayotgan texnik vositalar, aloqa uzellari, hisoblash markazlari, signalizatsiya vositalari va boshqaruvga oid texnik vositalarni saqlash, foydalish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari, shaxarlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun to'langan sarflar, ma'muriy boshqaruv extiyojlar uchun foydalilanayotgan binolarni amortizatsiyasi va saqlash xarajatlari, vazirliliklar, idoralar va yuqori tashkilotlarga ajratmalar, boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish xarajatlari, korxonaning vakillik xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.

Boshqa operatsion xarajatlarga kuyidagilar kiradi: kadrlar tayyorlash va ularni kayta tayyorlash xarajatlari, loyixa va qurilish-montaj ishlarida chalalikni bartaraf etish xarajatlari, maslaxat va axborot xizmatlariga hak to'lash, auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar, salomatlikni muxofaza qilish va xodimlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lмагan dam olishlarni tashkil etish tadbirlar xarajatlari, shaxar obodonchilik ishlari va qishlok, xo'jaligiga yordam berish bilan bog'lik, xarajatlar, kompensatsiya va rag'batlantrish tusidagi to'lovlar ish xaqi hisoblashda e'tborga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlari, ya'ni moddiy yordam, sog'likni saklash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar muktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport obyektlarini asrash xarajatlari, vaktinchalik to'xtatib quyilgan ishlab chiqarish kuvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari, bank xizmati uchun to'lovlar, xar xil xayriya jamg'armalari, ekologiya, sog'lomlashtirish, madaniyat, xalk ta'limi, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va shu kabi tashkilotlarga badallar, byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar va yig'malar va byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar, zararlar, jarimlar, penyalar va boshqa xarajatlardan iboratdir.

Asosiy ishlab chikarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlarga kuyidagilar kiradi:

- Undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof kilingan jarimlar va penyalar.
- Hisobot yilda aniqlangan utgan yilga tegishli fonda.
- Yordamchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoklar (oshxona va x..k.)dan olingan tushumlar.
- Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol-mulklni sotishdan olingan daromadlar.
 - Da'veo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.
 - Tovar-moddiy boyliklarni kayta baxolanishdan ko'rildigan natijalar.
 - Davlat subsidiyalaridan daromadlar.
 - Xolisona moliyaviy yordam.
 - Boshqa operatsion daromadlar.

Asosiy ishlab chikarish faoliyatining moliyaviy natijasining tahlili quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada asosiy ishlab chikarish faoliyatidan olingan moliyaviy natija, o'tgan yilga nisbatan 33 mln. 244 ming so'mga ko'paygan yok uning sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijada tarkibidagi salmog'i 3,5% ga ortgan. Bunga asosiy sabab, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan yalpi moliyaviy natijaning 57,3 mln. so'mga kupayganligi ta'siridadir. Lekin o'tgan yilga nisbatan asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan xarajatlarni 22 mln. 866 ming so'mga, ma'muriy xarajatlarni 9 mln. 377 ming so'mga va sotish xarajatlarining 2 mln. 239 ming so'mga ko'payib ketganligi foyda hajmini kamayishiga sabab bo'lgan. Yalpi moliyaviy natija tarkibida ma'muriy xarajatlar ulushining 3,7% ga kupaytanligi xam e'tiborni qaratadi. CHunki boqaruv xarajatlarining kupayishi ijobiy holat deb bo'lmaydi.

1-jadval

Asosiy faoliyatdan moliyaviy natijalar tahlili

| Ko'rsatkichlar | Utgan yil | | Disobot yili | | Uzgarish (+,-) | |
|---|-----------|------|--------------|------|----------------|-------|
| | Ming so'm | % | Ming so'm | % | Ming so'm | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6=4-2 | 7=5-3 |
| 1. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija | 89664 | 100 | 146964 | 100 | 57300 | — |
| 2. Sotish xarajatlari | 5309 | 5,9 | 7548 | 5,1 | 2239 | -0,8 |
| 3. Ma'muriy xarajatlari | 6348 | 7,0 | 15725 | 10,7 | 9377 | 3,7 |
| 4. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan daromadlar yoki xarajatlari | 33958 | 37,9 | 56824 | 38,6 | 22866 | 0,7 |
| 5. Asosiy ishlab chi-karish faoliyatining moliyaviy natijasi (1-2-3+4) | 44049 | 49,1 | 77293 | 52,6 | 33244 | 3,5 |

6. Umumxujalik faoliyati va soliq to'lagunga qadar moliyaviy natijalarning taxlili

Firma va kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyatidan tashqari moliyaviy soxalar natijasidan xam foyda yoki zarar olishlari mumkin. Umumxujalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar, bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan ko'rildigan daromadlar ko'shiladi va zararlar ayrıldi, bu quyidagicha ko'rsatilishi mumkin⁶³.

$$UF=AFF+MD-MX$$

bunda:

UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda
AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar
MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga:

⁶³ Financial statement analysis Eleventh edition K. R. Subramanyam University of Souther 469 page.

- mablaglarni kdrzga berish evaziga olingen foizlar va shu'ba korxonalarga xissali katnashishdan olingen daromadlar;
 - O'zbekiston Respublikasi xududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush ko'shgan xolda qatnashiqdan olingen daromadlar;
 - aksiyalar buyicha dividendlar, obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlar buyicha daromadlar;
 - mol-mulkni uzok, muddatli ijara berishdan (lizing) olingen daromadlar;
 - valyuta schyotlari, shuningdek, chet el valyutalaridagi muomalalar buyicha ijobiy kurs tafovutlari;
 - kimmataxo qogozlarni kayta baxolanishidan olingen daromadlar;
 - boshqa moliyaviy faoliyatdan daromadlar kiradi.
- Moliyaviy faoliyat xarajatlari esa:
- Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada kiska muddatli hamda uzok, muddatli kreditlar buyicha, shu jumladan, to'lov muddati o'ggan va uzaytirilgan ssudalar buyicha to'lovlari;
 - mol-mulkni uzok, muddatli ijara olish (lizing) buyicha foizlarni to'lash xarajatlari;
 - chet el valyutasi bilan operatsiyalar buyicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;
 - sarflangan (qimmatli kog'ozlarga, shu'ba korxonalarga va x.k.) mablaglarning kayta baxolashdan ko'rigan zararlar.
 - o'z qimmatli kogozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'lilik xarajatlari;
 - moliyaviy faoliyat buyicha boshqa xarajatlari, shu jumladan salbiy diskont daromadlar tushuniladi.

Favquloddagi foyda yoki zarar — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning odatdagи faoliyatidan chetga chiquvchi xodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan, tasodifiy olingen fonda yoki zararlar tushuniladi. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi fonda kirmaydi.

Favquloddagi foyda yoki zararlar bir necha yillar mobaynida takrorlanmaydigan vaziyatlар natijasida bo'lishi nizomda ko'rsatilgan. Bunday foyda yoki zararlar tabiiy ofat, yongin va shu kabi tusatdan bo'ladigan omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Soliq to'langunga qadar foyda, umumxujalik faoliyatidan olgan foydaga plus yoki minus favqulodda (kutilmagan) vaziyatlardan ko'rigan foyda yoki zarar sifatida aniqlanadi, bu quyidagicha ko'rsatilish mumkin;

STF=UF+FP-FZ

bunda:

STF — soliq to'languncha olingen foyda;

UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingen foyda;

FP — favqulodda vaziyatlardan olingen foyda;

FZ — favqulodda vaziyatlardan ko'rigan zarar.

Umumxo'jalik faoliyatida olingen foyda yoki zararlarning taxlilida xar bir turdagи daromadlar va zararlar o'rganilishi lozim. Bunday taxlil 6-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada umumxo'jalik faoliyati ko'rigan moliyaviy natija o'tgan yilga nisbatan 26 mln. 604 ming so'mga kupaygan. Buning sababi asosiy ishlab chik.arish faoliyati natijasidan olingen foydaning 33 mln. 244 ming so'mga kupayganligi ta'sir etgan. SHuningdek, valyuta kursining ijobiy o'zgarishidan ko'rigan 1 mln. 39 ming so'mlik foydaga erishilganligi ta'sir etgan. Korxonada favqulodagi foyda va zarar mavjud emas. SHunga ko'ra, soliq. to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natijasi hisobot yilida 77 mln. 341 ming so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 26 mln. 604 ming so'mga kupdir. Soliq to'lagunga kadar foyda hajmining kupayganligi o'tgan yilga nisbatan faoliyatning yaxshilanganligidan dalolat beradi.

2-jadval

Umumxo'jalik faoliyati va soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natijaning tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | | Hisobot yili | | O'zgarish (+,-) | |
|--|------------|-------|--------------|-------|-----------------|--------|
| | Ming so'm | % | Ming so'm | % | Ming so'm | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6-4-2 | 7-5-3 |
| 1. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan moliyaviy natija | 4404\$ | 100 | 77293 | 100 | 33244 | — |
| 2. Olingen dividend | 134 | 0,30 | 2 | 0,002 | -132 | -0,298 |
| 3. Olingen (+) yoki tulangan (-) foizlar | 170 | 0,38 | -230 | -0,29 | -400 | -0,67 |
| 4. Valyuta kursi farki | 2703 | 6,13 | 1339 | 1,73 | -1364 | -4,4 |
| 5. Moliyaviy faoliyat buyicha boshqa daromadlar (+) yoki xa-rajatlar (-) | 3681 | 8,35 | -1063 | -1,37 | -4744 | -10,0 |
| 6. Umumxujalik faoliyatining moliyaviy natijasi | 50737 | 115,2 | 77341 | 100,1 | 26604 | -15,1 |
| 7. Favkulodagi foy-da va zarar | — | — | — | — | — | — |
| 8. Soliq. tulagunga kadar umumiy moliyaviy natija | 50737 | 115,2 | 77341 | 100,1 | 26604 | -15,1 |

7. Foydaning ishlatalishi taxlili

Xozirgi sharoitda firma va kompaniyalar olgan foydasini taqsimlash ikki yunalishda amalga oshiriladi.

1. Davlat byudjetiga foyda (daromad)dan soliq, boshqa soliqlar va ajratmalar.
2. Korxona ixtiyorida qolgan yilning sof foydasi. Ö'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001- yil 31- dekabr 490-sonli karoriga muvofiq jismoniy shaxslar 2002- yil uchun soliq to'lagunga qadar hisoblangan foydasadan 24 foiz byudjetga tulovlar-ni amalga oshirilishi lozimligi kursatilgan.

Bolalar tovarlari, kugirchoklar va badiiy buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar daromadi (foyda)dan 10 foiz soliq to'lashi ko'zda tutilgan.

Chet el investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlanirish maqsadida ustav kapitalidagi xorijiy sarmoyalarni ulushiga qarab, imtiyozli soliq stavkalari ko'llaniladi. Masalan, ustav kapitalida xorijiy sarmoyalarning ulushi 50 va undan yuqorirok foiz bo'lganda, ya'ni:

- 1) 300,0 ming AQSH dollaridan to 1,0 mln. AKSH dollari bo'lganda 20 foiz,
- 2) 1,0 mln. AQSH dollaridan oshganda esa 16 foizli stavkada daromad (foyda)dan soliq undirish ko'zda tutilgan.

3-jadval

Foydaning ishlatalishi tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | | Hisobot yili | | O'zgarish (+,-) | |
|--|------------|------|--------------|------|-----------------|------|
| | Ming so'm | % | Ming | % | Ming | % |
| 1. Soliq, to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natija | 50737 | 100 | 77341 | 100 | 26604 | |
| 2. Foydadan soliq | 18384 | 36,2 | 28575 | 37,0 | 10191 | 0,8 |
| 3. Boshqa soliq va ajratmalar | 647 | 1,3 | 2195 | 2,8 | 1548 | 1,5 |
| 4. Hisobot davridagi sof foyda | 31706 | 62,5 | 46571 | 60,2 | 14865 | -2,3 |

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada hisobot davrining sof foydasi o'tgan yilga nisbatan 14 mln. 865 ming so'cta kupaygan. Korxonada foydaning kupayishi ijobjiy holat hisoblanadi. Foyda hajmi xam o'tgan yilga nisbatan 10 mln. 191 ming so'mga kupaygan. Korxonada boshqa soliq va ajratmalar xam o'tgan yilga nisbatan 1 mln. 548 ming so'mga kupaygan. Korxona buyicha hisobot yilda soliqlar hajmi ko'payishining sababini aniqlash lozim. Aks xolda korxona faoliyati uchun byudjetga to'lovlarning keskin kupayishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Moliyaviy faoliyatning foydasi qanday aniqlanadi?
2. Moliyaviy faoliyatning xarajatlariga qandaysarflar kiradi?
3. Favqulodda foyda va zararlar deganda nima tushiniladi?
4. Yilning sof foydasi qanday taqsimlanadi?
5. Byudjetga qanday to'lovlaramalga oshiriladi?

27-bob. MOLIYAVIY BASHORATLASH

Reja:

1. Moliyaviy bashoratlashning mohiyati va uni tahlilda qo'llash zaruriyati.
2. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash.
3. Korxonalarda pul mablag'lari oqimini bashoratlash va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'zlar:

Moliyaviy bashoratlashning zaruriyati, Moliyaviy rejalashtirish, bashoratlash t metodlari, moliyaviy dasturlashtirish, «Pul oqimi», moliyaviy menejer, rul oqimi sikli.

1. Moliyaviy bashoratlashning mohiyati va uni tahlilda qo'llash zaruriyati

Moliyaviy bashoratlash moliyaviy hisobot tahlili jarayonida eng so'nggi bosqich hisoblanadi. Kompaniya iqtisodiy holatini aniq aks ettirish boshlang'ich moliyaviy hisobotlarni to'g'ri o'zgartirishlardan so'ng amalga oshiriladi.

Bu o'zgarishlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin, misol uchun: daromad hisobotida tranzit mahsulotlarni tugatish, ularni o'tgan, yoki, kelgusi yillar bo'yicha qayta taqsimlash, boshqaruva bo'yicha sarflangan TMZ o'zlashtirish, operativ lizinglarni kapitallashtirish, o'z mablag'lari usuli orqali investitsiyalar va balansdan tashqari hisobvaraqlarni moliyalashtirish va hokazolar.

Moliyaviy bashoratlash balans, daromad hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni bashoratlashni o'z ichiga oladi⁶⁴.

Moliyaviy bashoratlash sarmoyalarni baholash uchun asos hisoblanadi. Misol uchun, qoldiqli daromad modeli, joriy kapital qiymatini baholash maqsadida kelgusi sof foyda va o'z mablag'lari qoldiq qiymatlari rejalarini talab qiladi.

Buning uchun biz moliyaviy bashoratlash kompaniyalarining operatsiyalardan kutilgan o'sishni moliyalashtirish uchun yetarli pul oqimlarini ishslash imkoniyatiga ega bo'lish, yoki kelajakda qarz evaziga moliyalashtirishni talab qilish, yoki yo'qligini tahlil qilamiz. Bizni, shuningdek, strategik rejalar kompaniya boshqaruvi tomonidan prognozlashtirigan foydani berishi yoki yo'qligini tahlil qilish ham qiziqtiradi. Va niyomat, moliyaviy bashoratlash kompaniyaning qarz xizmatlari talablarini qondirish uchun kompaniyaning qobiliyatini baholashda kreditorlar uchun ham foydalidir.

Moliyaviy bashoratlash korxonaning istiqboldagi rejalarini belgilash, uning oldida turgan muhim vazifalarni hal etish, risklarini kamaytirish, strategiyasini belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy bashoratlashning zaruriyatlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin.

- Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes risklarini oldini olishga bo'lgan ehtiyojning oshishi;

- Global moliyaviy inqirozlar sharoitida korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhimligi;

- Korxonaning qisqa va uzoq muddatli strategiyalarini ilmiy jihatdan asoslash va belgilash.
- Korxonaning qisqa va uzoq muddatli strategiyalarini ilmiy jihatdan asoslash va belgilash.
- Korxonaning kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, moliyaviy boshqaruv tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirishdir. Iqtisodiy adabiyotlarda, eng umumi shaklda, rejalashtirish istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish bo'yicha faoliyat deb talqin qilinadi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, moliyaviy boshqaruv tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirishdir. Iqtisodiy adabiyotlarda, eng umumi shaklda, rejalashtirish istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelajakdagi istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Moliyaviy rejalashtirish va boshqaruv

Har qanday sotsial-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirishdir. Iqtisodiy adabiyotlarda, eng umumi shaklda, rejalashtirish istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish bo'yicha faoliyat deb talqin qilinadi.

"Rejalashtirish" tushunchasining ma'no-mazmunini yanada umumiyroq bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishning obyektiv zarurligi va imkoniyatini anglatuvchi "rejalilik" orqali aniqlash mumkin. Haqiqatdan ham rejalashtirish amaliyotda rejallikni amalga oshirishi, ya'ni balanslilik (muvozanat) va proporsionallilikka (mutanosiblikka) erishish bo'yicha ongli faoliyatni bildiradi. SHu ma'noda, moliyaviy resurslarning balansliligidini (muvozanatini) va proporsionalliligini (mutanosibligini) ta'minlashga qaratilgan faoliyatga moliyaviy rejalashtirish deyiladi.

Bunda balanslilik (muvozanat) korxonaning ixtiyorida bo'lgan moliyaviy resurslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyorida (qo'lida) qolgan daromadlar o'rtaqida optimal nisbatni bildiradi. Proporsionallik (mutanosiblik) esa korxonalar, xo'jalik tarmoqlari, mintaqalar va korxona subyektlari bo'yicha daromadlarning soliq to'languncha va soliq to'langandan keyingi o'lchamlari (miqdorlari) o'rtaqida oqilona nisbatdan iborat. Ana shu nisbatni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali korxona ularning rivojlanishini rag'batlantirish yoki cheklab qo'yishi mumkin.

Umumi va oddiy ko'rinishda, moliyaviy rejalashtirish deyilganda moliyaviy rejalarini tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'zaro bog'lash tizimi sifatida qarash kerak. Amaliyotda tez-tez foydalaniladigan rejalashtirish ma'lumotlarini, masalan, korxona faoliyatining shakli modelini ishlab chiqish va shu asosda moliyaviy ko'rsatkichlarning rejali tizimini aniqlashni, moliyaviy rejalashtirishning ishchi sxemasi sifatida qarash mumkin. SHuni nazarda tutish kerakki, moliyaviy rejalashtirish jarayonida u yoki bu subyekt faoliyat ko'rsatishi

moliyaviy ta'minlanishining hayotiychanligini oshiruvchi noshakliy omillar inobatga olinishi kerak.

"Moliyaviy rejalashtirish" tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- taraqqiyotning asosiy tendensiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish;
- jalb qilingan mablag'lar va vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirish menejmenti;

• firma ichidagi moliyaviy natijalar va pullarni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi;

- investitsion menejment;
- kapitallar menejmenti;
- faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar).

Quyidagilar moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatlarini kerakli bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;

• pul mablag'laridan iqtisod qilib, tejab-tergab foydalanish hisobidan korxonaning foydasini oshirish bo'yicha ichki rezervlarni qidirib topish;

- kapitalni samarali joylashtirish yo'llarini aniqlash, undan oqilona va samarali foydalanishni baholash;

- kontragentlar bilan optimal moliyaviy munosabatlarni o'rnatish;
- korxonaning moliyaviy ahvoli, to'lovga qobilligi va kreditga layoqatliligi ustidan nazorat o'rnatish.

Bozor munosabatlariga o'tilganiga qadar moliyaviy rejalashtirishning mazmuni korxonalarda sof operativ vazifalarni – markazlashtirilgan iqtisodiyot amal qilganligi uchun yetarli darajada formal bo'lgan korxonalarning besh yillik moliyaviy rejalaridagi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, istiqbolga mo'ljallangan rejalarining loyihasini baholash, korxonaning yillik moliyaviy rejalarini tuzish kabilarni hal etishga qaratilgan edi. Bunday amaliyotning hukm surganligi korxona moliyaviy xizmatlarining obro'yiga obro' qo'shmas, chunki ularga hech narsa bog'liq emas edi. Bozor iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlarining roli tubdan o'zgaradi. Ular korxona rivojlanishini faol va ta'sirchan boshqaradi va bir vaqtning o'zida, shu rivojlanishning yo'nalishi va sifatini nazorat qiladi⁶⁵.

Hozirgi sharoitdagi moliyaviy rejalashtirish barcha zaruriy harakatlarni oldindan ko'zda tutishgina (ko'ra bilishgina) emas. Bu tegishli ishlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lganhar qanday kutilmagan holatlarni ko'ra olish qobiliyati hamdir. Albatta, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatidagi barcha risklarga barham beraolmaydi. Lekin u ana shu risklarni samarali oldindan ko'ra bilish yordamida boshqarish imkoniyatiga ega.

Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida quyidagi asosiy metodlardan foydalanish mumkin:

- moliyaviy tahlil metodi;
- normativ metod;
- balansli hisob-kitoblar va pul oqimlari metodi;

- ko‘p variantlilik metodi;
- iqtisodiy-matematik modellahtirish metodi;
- va boshqa metodlar.

Moliyaviy rejalshtirish jarayonining quyidagi asosiy bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini tadqiq etish;
- operativ rejalarning o‘zgarishi asosida moliyaviy hisobotlarning bashorat variantlarini ishlab chiqish;
- o‘z reja topshiriqlarining bajarilishini ta’minlash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga bo‘lgan konkret ehtiyojlarini aniqlash;
- moliyalashtirish manbalari (shu jumladan, o‘z va tashqi manbalarning) va ularning tarkibiy tuzilishini bashoratlash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning tizimini yaratish va uni ushlab turish (qo‘llab-quvvatlash);
- shakllantirilgan rejalarni operativ o‘zgartirish tartibini (protsedurasini) ishlab chiqish.

Moliyaviy rejalshtirishning ikki turi bo‘lishi mumkin:

- strategik moliyaviy rejalshtirish;
- joriy moliyaviy rejalshtirish.

Strategik moliyaviy rejalshtirish o‘z ifodasini strategik moliyaviy rejalarda topadi, u tashqi va ichki muhitda o‘zgarayotgan xo‘jalik yuritish subyekti moliyaviy taraqqiyotining ko‘p variantli bashoratidan iboratdir.

Strategik moliyaviy reja, hech bo‘lmaganda, quyidagi savollarga aniq javob bermog‘i lozim:

- xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun talab qilinadigan kapitalning o‘lchami qanday, u qaysi manbalar hisobidan va qanday muddatlarda jalb qilinadi?
- bu kapitaldan qanday qilib foydalaniladi?
- o‘z kuchiga ishongan holda xo‘jalik yurituvchi subyekt rivojlanishi mumkimi? Agar yo‘q bo‘lsa, moliyaviy resurslarni jalb qilishning manbalarini qanday?
- xo‘jalik yurituvchi subyekt pul mablag‘lari tushumi, ishlab chiqarishning rentabelligi va investitsiyalar daromadligining qanday darajalariga chiqishi mumkin va qay muddatlarda?

O‘z navbatida, joriy moliyaviy rejalshtirishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish, investitsion, marketing, ilmiy-loyihaviy va qidiruv faoliyatlarini hamda sotsial loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning hajmi va ularning manbalarini aniqlash;
- mahsulotni (ishni, xizmatni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish tannarxini rejalshtirish;
- pul oqimlarini rejalshtirish;
- butun xo‘jalik yurituvchi subyekt doirasida foydani rejalshtirish (bashoratlash);

- investitsiyalarning daromadliligini rejalshtirish.

Moliyaviy rejalshtirish mamlakat milliy xo‘jaligini rejalshtirishning tarkibiy qismi bo‘lib, sotsial-iqtisodiy rivojlanish rejasining ko‘rsatkichlariga tayanadi, moliya tizimi barcha organlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga (koordinatsiya qilishga) yo‘naltiriladi. Moliya tizimi alohida bo‘g‘inlarining nisbiy mustaqilligi quyidagilarni o‘zida aks ettiruvchi moliyaviy rejalarning ishlab chiqilishi zarurligini belgilab beradi:

- pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va metodlarining o‘ziga xosligi;
- moliyaviy resurslarni tarmoqlar va hududlar bo‘yicha qayta taqsimlash.

Moliyaviy rejalshtirishning bosh obyekti rejada o‘zining miqdoriy ifodasini oladigan moliyaning bo‘g‘inlari (moliyaviy munosabatlari) hisoblanadi. Konkret pul fondlari mablag‘larining harakati yagona tizimga birlashtirilgan tegishli moliyaviy rejalarida ifodalanadi va mustahkamlanadi.

Moliyaviy rejalar tizimining markazini byudjet rejasi egallaydiki, unda byudjet fondining harakati, daromadlar va xarajatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning shakllari va metodlari, daromad va xarajatlarning tarkibiy tuzilishi va tuzilmasi o‘zining miqdoriy ifodasini topadi.

Istiqloldagi (istiqbol uchun mo‘ljallangan) moliyaviy rejalshtirish iqtisodiy va sotsial taraqqiyot hamda moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirishni (koordinatsiya qilishni) ta’minlash, shuningdek ishlab chiqiladigan islohotlar, dasturlar va qonunlarning moliyaviy oqibatlarini kompleks tarzda bashoratlash, uzoq muddatli salbiy tendensiyalarni kuzatish va ularga nisbatan tegishli choralarini o‘z vaqtida qabul qilish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Moliyaviy rejalshtirishni moliyaviy bashoratlashsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U yoki bu davr mobaynida korxonaning mumkin bo‘lgan moliyaviy ahvolini (holatini) oldindan ko‘ra bilish va moliyaviy rejalarning ko‘rsatkichlarini asoslashga moliyaviy bashoratlash deyiladi. Nazariya va amaliyotda moliyaviy bashoratlash ikkiga ajratiladi:

- o‘rta muddatli (5-10 yillik) moliyaviy bashoratlash;
- uzoq muddatli (10 yildan ortiq) moliyaviy bashoratlash.

Moliyaviy bashoratlash moliyaviy rejalarни tuzish bosqichidan oldin sodir bo‘ladi. Unda jamiatning ma’lum bir davrdagi taraqqiyotiga bag‘ishlangan moliyaviy siyosatning konsepsiysi ishlab chiqiladi. Moliyaviy bashoratlashning bosh maqsadi bashoratlanayotgan davrda haqiqatda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan moliyaviy resurslarning real hajmi, ularni shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishni aniqlashdan iborat. Moliyaviy bashoratlar moliya tizimi organlariga moliya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning, moliyaviy siyosatni amalga oshirish shakllari va metodlarining turli-tuman variantlarini belgilashga imkon beradi. SHU ma’noda, moliyaviy bashoratlar moliyaviy siyosatni ishlab chiqishning zaruriy elementi va bir vaqtning o‘zida muhim bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Ular yordamida moliya tizimining barcha subyektlari oldida turgan sotsial-iqtisodiy vazifalarni echishning (hal qilishning) turli ssenariyalari ishlab chiqiladi.

Moliyaviy bashoratlash turli metodlarning qo'llanilishini taqiza etadi. Ularning eng asosiyları quydagilar bo'lishi mumkin:

- iqtisodiy jarayonlarni aniqlaydigan omillarga bog'liq ravishda moliyaviy reja ko'rsatkichlarining dinamikasini xarakterlaydigan ekonometrik modelni qurish (yaratish);

- korrelyasion-regression tahlil;
- bevosita eksperthi baholash metodi.

Asosida aniq shakllantirilgan maqsad va unga erishishning vositalari yotgan dasturli-maqsadli yondashuvdan foydalanadigan moliyaviy rejalashtirishning metodi sifatida moliyaviy dasturlashtirish quydagilarning bo'lishini ko'zda tutadi:

- yo'nalishlar bo'yicha korxona xarajatlarining ustuvorlarini belgilash (o'rnatish);
- korxona mablag'lari sarflanishining samaradorligini oshirish;
- muqobil variantning tanlanishiga muvofiq ravishda moliyalashtirishni to'xtatish.

Dastur variantining tanlanishi, eng avvalo, iqtisodiy omillarga (resurslarga) bog'liq. Bunda faqat maqsadga erishishning masshtabi, ahamiyati va murakkabligi emas, balki mavjud zahiralarning hajmi, kutilayotgan jami samara, maqsadga erishilmaganda potensial yo'qtomalar ham hisobga olinadi. Moliyaviy siyosat sohasidagi uzoq va qisqa muddali maqsadlar va choralarни muvofiqlashtirishning muhim metodi sifatida dasturlashtirishdan moliyaviy rejalashtirishning hozirgi amaliyotida faol foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy dasturlashtirish rivojlangan mamlakatlarda o'tgan asrning 60-yillardanoq foydalanib kelinayapti. Uning asosiy mohiyati besh yillik "o'zgarib turadigan" xarajatlar rejasini tuzish bilan belgilanadi. Har yili joriy yil rejasini ko'rsatkichlarining kutilayotgan ijrosi asosida reja o'zgartiriladi (korrektirovka qilinadi). Bunda ko'rsatkichlar besh yillik shkala bo'yicha bir yil oldinga (hisobot yildan keyingi yilga) "ko'chiriladi". Oldinda turgan birinchi yilning reja ko'rsatkichlari direktiv (majburiy), keyingi to'rt yillik ko'rsatkichlar esa mo'ljalli (orientirovkali) xarakterga ega hisoblanadi.

Hozirgi paytda dunyoning juda ko'p mamlakatlarda ishlab chiqarish maqsadlariga, resurslar va ijrochilar bo'yicha balanslilikka yo'naltirilgan ilmiytadqiqot, tashkiliy-xo'jalik va boshqa tadbirlar tizimidan iborat bo'lgan maqsadli kompleksli dasturlarlardan keng foydalaniylmoqda.

3. Korxonalarda pul mablag'lari oqimini bashoratlash va uning o'ziga xos xususiyatlari

Korxonalarda pul oqimlarini bashorat qilishning yana bir muhim jihatlaridan biri korxonada pul mablag'lari budgetini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Korxonalar faoliyatini bir me'yorda tashkil etish va boshqarish uchun ma'lum mablag'lar manbalarini shakllantirish hamda ularni korxonaning nizom faoliyatidagi vazifalarni bajarish maqsadida tegishli xarajatlar bo'yicha yo'naltirish zarur bo'ladi. Shu ma'noda korxona kundalik faoliyati va ehtiyojlarini moliyaviy ta'minlash uchun uning pul mablag'lari budgetini tuzish zaruriyati tug'iladi. Pul

mablag'lari budgetini tashkil etish korxonada pul mablag'larini tashkil etish manbalarini, pul mablag'larini investitsiyalash yo'nalishlarini hamda pul mablag'larini ko'paytirish va foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan tadbirlar yig'indisi bo'lib, korxona moliyaviy xizmati oldidagi muhim masala hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda, ayniqsa, ingliz tilidagi adabiyotlarda «reja» va «budget» tushunchalari o'rtasidagi farq aniq izohlanmoqda. Mazkur tushunchalarning talqin etilishi ayniqsa, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya davlatlari kompaniyalari budgetini tayyorlash jarayonidagi xususiyatlar sharhida yorqin ifodalangan. G'arb davlatlari mutaxassislarining ishlaridagi ushbu tushunchalar izohlanishi tarjima qilingan iqtisodiy adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Jumladan, B. Kolassning fikricha, rejalashtirishning uch turi farqlanadi: a) strategik; b) o'rta muddatli yoki operativ; v) qisqa muddatli yoki budget orqali rejalashtirish. «Reja» tushunchasi birmuncha keng ma'noda tushuniladi va tegishli maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlar va tadbirlarning keng ko'lamini ifodalaydi. «Budget» - birmuncha «tor» ma'nodagi tushuncha bo'lib, harakatlar va tadbirlar rejasining miqdoriy, qiymatdagi ifodasi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bizning sharoitda hanuzgacha «budget» tushunchasini maxsus tarzda ma'lum subyekt daromadlari va xarajatlarini tegishli muddatdagi smetasi sifatida tushunish ustunlik qilib kelmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxona moliyaviy muvaffaqiyatining muhim garovi sifatida pul oqimlarini boshqarishning ilmiy asoslangan usullaridan samarali foydalanish maydonga chiqadi. Mazkur muammoni chuqurroq yoritish quydagi masalalarni ko'rib chiqishni talab etadi:

- korxona pul mablag'lari aylanishining tarkibi va qonuniyatlarini o'rganish;
- korxonaning pul mablag'lari aylanishini boshqarish tizimini o'rganish;
- pul oqimlari mohiyati, turlari va baholash usullarini o'rganish;
- korxona pul oqimlarini hisoblashning bevosita va bilvosita usullarini yoritish va h.k.

Ushbu masalalarni yanada aniq tarzda ko'rib chiqamiz.

Korxona pul mablag'lari aylanishining tarkibi.

Korxona kapitalining individual doiraviy aylanishi jarayonidagi pul massasining real harakati uning pul oqimini tashkil qiladi. Pul-tovar munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish moddiy omillarining individual doiraviy aylanishi korxona omboriga moddiy qiymatliklarni kirish qilinishidan boshlanadi va tayyor mahsulotni sotilishi bilan yakunlanadi. Ushbu jarayonda pul mablag'lari harakati ham bevosita ishtiroy etadi. Kapitalning doiraviy aylanishi ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun pul mablag'larini to'lanishidan boshlanadi. Mehnat haqi to'lash uchun pul mablag'larining jaib qilinishi ishlab chiqarishning bosh omili sifatida uning har qanday ijtimoiy shaklida alohida o'rin egallaydi. Pul mablag'lari doiraviy aylanishining birinchi bosqichida sarflanmaydi, balki faqat avanslanadi va keyinchalik mahsulot sotishdan tushgan tushum hisobidan qoplanadi. Qiymatning shakl o'zgarishi yuz beradi - qiymatning bir qismi pul shaklidan tovar shakliga aylanadi. Pul mablag'larining yana bir qismi xodimlar mehnat haqini to'lash uchun avanslanadi va xodimlar ixtiyoriga o'tgandan so'ng

iste'mol vositalarini (hayotiy zarur vositalar jamg'armasini) hosil qiladi. Doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida ya'ni ishlab chiqarish jarayonida moddiy boyliklarni yaratish uchun ishlab chiqarish kuchlari tomonidan ishlab chiqarish vositalarining unumli iste'moli amalga oshiriladi. Bu bosqichda qiymat shakllarining o'zgartirishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun pul mablag'larini tugallanmagan ishlab chiqarishga jalg qilinishi bilan boradi. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulot tarkibida jalg qilingan qiymat (buyumlashgan mehnat) va yangi yaratilgan qiymat -qo'shimcha mahsulot bo'ladi. Mablag'lar doiraviy aylanishining uchinchi bosqichida qiymatning tovar shakli pul shakliga aylanadi va mahsulot sotishdan tushgan tushum shakllantiriladi. Doiraviy aylanishning bu bosqichida korxonalar bilan sotilgan mahsulotlar yuzasidan pul munosabatlari, shuningdek, foydaning ishlatalishi va uning soliqqa tortilishi yuzasidan pul munosabatlari kelib chiqadi.

Korxonaning barqaror faoliyat ko'rsatishi va aylanma mablag'lar harakatining uzluksizligini ta'minlanishi uchun kapital doimo ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida birdaniga band bo'lishi va doimo qiymatning yuqorida aytib o'tilgan uch shaklida (pul, ishlab chiqarish va tovar) ham mavjud bo'lishi shart, chunki bularning istalgan biri bo'limgan holda kapitalning individual doiraviy aylanishi to'xtab qoladi. Mablag'larning individual doiraviy aylanishi jarayonida korxona pul mablag'lari kategoriyasiga xos bo'lgan barcha funksiyalarni (qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov visitasi, jamg'arish) ham bajaradi. Korxonaning mablag'lar aylanishi turli xil xo'jalik operatsiyalarini natijasida pul to'lovlari amalga oshirilganligi sababli amalga oshiriladi. Bu xo'jalik operatsiyalarining ularning iqtisodiy mazmuniga qarab uch asosiy kategoriyaga: joriy; investitsion va moliyaviy faoliyat kategoriyaliga guruhlanishi mumkin. Bunday guruhlash har bir faoliyat turi bo'yicha alohida moliyaviy natijalarni hisoblab chiqarish imkonini beradi. Xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlariga o'tilayotgan sharoitda pul mablag'lari resurslar ichida miqdor jihatdan eng chegaralangan resurslardan biri bo'lib, korxonalar muvaffaqiyati ushbu resurslardan qanday darajada unumli foydalilanlayotganligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham pul mablag'lari oqimini (harakatini) rejalashtirish va nazarot qilish korxonalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. «Pul oqimi» - inglizcha «Cash Flow» (naqd pul oqimi) – ko'rsatkichiga mos keluvchi ko'rsatkich bo'lib, vaqtning u yoki bu davri mobaynida korxonadagi pul mablag'lari harakatlarining natijalarini aks ettridi. Pul harakatlari to'g'risidagi birinchisi hisobotlar moliyaviy tahlilchilar tomonidan qimmatbaho qog'ozlar bozorida foydalananish uchun foydalilanigan. Bu hisobotlar korxonalar aksiyalarini baholash va istiqbolli moliyaviy yo'yilmalarni belgilash uchun juda qulay bo'lgan, chunki pul mablag'lari harakati natijalari foyda va ko'rsatkichidan ko'ra ahamiyatliroq bo'lgan. Ko'pchilik hollarda korxonada pul mablag'larining bor yoki yo'qligi uning foyda bilan ishlayotganligi yoki yo'qligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi, lekin bu bog'liqlik doimo aniq ko'rinish turmaydi. Foyda ko'rinishdagi moliyaviy natija shunday buxgalteriya hisobi tamoyiliga ko'ra aniqlanadiki, unga ko'ra pul mablag'larining harakati amalda bo'lgan yoki bo'limganligidan qat'iy nazar xarajatlar va daromadlar qaysi davrda amalga

oshirilgan bo'lsa, aynan o'sha davrdagi hisobot davri hisobiga yoziladi. Ba'zi bir xarajatlarning va zaxiralarning hisoblanishi (masalan amortizatsion ajratmalar, kelgusi davr to'lovlari uchun zaxiralar) mahsulot tannarxini orttirgan holda amalda pul mablag'larining to'lanishini taqozo etmaydi. Korxonaning investitsion operatsiyalari foyda miqdorini aniqlashda faqatgina asosiy vositalarni sotishdan ko'rilgan moliyaviy natija sifatida qisman hisobga olinadi xolos⁶⁶. Moliyaviy operatsiyalar (masalan: kreditlar va qarzlarning olinishi va qoplanishi, maqsadli moliyalashtirish) ham foyda miqdorini aniqlashda hisobga olinmaydi. Ma'lumotlarning tashqi iste'molchisi ushbu kamchiliklardan holi bo'lgan moliyaviy natija ko'rsatkichiga ega bo'lishi uchun foyda ko'rsatgichiga hisoblangan amortizatsiya miqdorini ham qo'shib ko'rib chiqishlari mumkin:

Pul oqimlari = sof foyda + amortizatsiya.

Pul oqimining shunday tushunilishi korxona faoliyatining asosiy moliyaviy maqsadlariga mos keladi:

- likvidlilikni ta'minlash;
- foyda olinishiga erishish;
- o'z kapitali miqdorining yetarlichcha bo'lishini ta'minlashga erishish.

Korxona pul mablag'larini boshqarishning eng birinchi vazifasi korxonaning likvidlilikini ta'minlashdir. Likvidlilikni ta'minlab turish naqadar jiddiy ahamiyatga ega ekanligini bankrot deb e'lon qilish va faoliyatini to'xtatish xavfiga olib borishi mumkin bo'lgan to'lovlarni o'z vaqtida bajarmaslik kabi xatarlar mavjudligi nuqtai nazaridan namoyon bo'ladi. Barcha strategik va operativ qarorlarni ushbu mutanosiblikni ta'minlab turishga mos keladimi yoki yo'qmi degan nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, so'ngra yakuniy qarorlar qabul qilish zarur.

Shu bilan birga moliyaviy resurslarni pul mablag'lari ko'rinishida band qilib qo'yish ma'lum bir yo'qotishlarni ham keltirib chiqaradi. Shartli ravishda qandaydir qatnashish mumkin bo'lgan, lekin qatnashilmagan investitsion loyihadan olinishi mumkin bo'lgan foyda bilan baholash mumkin. Shuning uchun korxona mablag'larini taqsimlayotganda bir-birini istisno qiluvchi quyidagi ikki holatni: korxonaning likvidlilikini ta'minlashni va uning faoliyatni rentabilligini ham ta'minlashni hisobga olishimiz zarur.

Moliyaviy menejer pul mablag'lari oqimini shunday boshqarishi lozimki, bunda korxona rentabilligi maksimal darajada bo'lishi ta'minlanishi lozim. Shuningdek, korxona likvidlilikini ta'minlash ham u qadar qimmatga tushmasligi zarur. Moliyaviy menejer rentabellik va likvidlilik ko'rsatkichlarining maqbul balansini topishi va ta'minlashi zarur. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, korxonaning pul oqimlari uch faoliyat turi bo'yicha guruhlanadi: joriy, investitsion va moliyaviy. Pul oqimlari joriy faoliyatining ustuvor yo'nalish ekanligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Yildan yilga joriy faoliyat bo'yicha ortib boruvchi pul oqimi forxona faoliyatni muvaffaqqiyatining eng birinchi sharti va uning moliyaviy

barqarorligini ifodalovchi bosh omildir. U joriy faoliyatdan olingan tushumlar nafaqat oddiy balki kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni ham tashkil etish uchun

